Gabriel Garsia
Markes

Oshkora qotillik qissasi



TOSHKENT
2015

UO‘K: 821.134.2(8)
KBK: 84(7Mek)
M – 26

Nobel mukofoti laureati Gabriel Garsia Markes (1928) jahon adabiyoti ravnaqiga «Yolg‘izlikning yuz yili», «Mustabid paymonasi», «O‘lat izg‘igan kezlarda muhabbat», «Oyqiz, muhabbat, avliyo, shayton va boshqalar» singari durdona romanlari bilan betakror hissa qo‘shgan so‘z san’atkoridir. Adib ayni mahalda «qissa» va «hikoya» janri ustasi, «Oshkora qotillik qissasi» sara asarlardan biri hisoblanadi.

UO‘K: 821.134.2(8)
KBK: 84(7Mek)

Tarjimonlar:
NURALI QOBUL, ANVAR JO‘RABOYEV,
TOHIR QAHHOR

ISBN 978-9943-27-536-2

YOLG‘IZLIKNING YUZ YILI

Qatlga hukm etilgan polkovnik Aureliano Buendia devor ostida otishlarini kutarkan, ko‘p yillar muqaddam, otasi g‘aroyib muz bo‘lagini ko‘rsatgani olib borgan o‘sha olis oqshomni eslaydi. U vaqtlarda Makondo qadim-qadimgi ulkan mavjudotlar tuxumini eslatuvchi oppog‘-u silliq xarsanglarga urilib oqadigan shiddatli daryo bo‘yidagi yigirma chog‘li loyshuvoq uyli kichik bir qishloqcha edi. Dunyo hali endi yuz ochgan kezlar ko‘pgina mavjudot-u maxluqotlar, turli-tuman buyumlarning nomi yo‘qligidan, ularni imo-ishoralar bilangina ko‘rsatishgan. Har yili mart oyida juldurvoqi lo‘lilar galasi hushtag-u do‘mbiralar chalib, qishloq chekkasiga chodir tikar va Makondo ahliga olimlarning eng so‘nggi ixtirolarini namoyish etishardi. Dastlab ular ohanrabo olib kelishdi. Oriq barmoqlari chumchuq panjasini eslatuvchi norg‘ul, sersoqol lo‘li Melkiadesning aytishicha, olamning sakkizinchi mo‘jizasi bo‘lmish ohanrabo makedoniyalik kimyogarlar tomonidan yaratilgan ekan. U ohanraboning xosiyatini xaloyiq oldida rosa qoyillatib namoyish qilardi. Melkiadesning qo‘lidagi ikki ohanrabo parchasi tog‘ora-yu qozonlar, qo‘ra-yu otashkuraklarning joyidan qo‘zg‘atayotgani, mayishgan taxtalardagi mix-murvatlarning jonholatda o‘z-o‘zidan sug‘urilib chiqmoqchi bo‘layotgani-

ni koʻrgan makondoliklar hayratdan yoqa ushlashardi. Odamlarning qachonlardir izsiz yoʻqolgan temir buyumlari qidirib topilmagan aynan oʻsha joydan chiqardi. Gʻaroyibotlardan hayratlangan makondoliklar toʻda-toʻda boʻlib, Melkiadesning ketidan ergashardilar. «Buyumlarning ham joni bor, – derdi loʻli oʻziga xos shevada, – faqat ularning qalbini uygʻota bilish kerak». Aqlidan ham xayoli chaqqon Xose Arkadio Buendia oʻzicha, odamlarga hozircha naf keltirmayotgan ushbu fan moʻjizasini yer qa'ridan oltin qazib olishda ishlatsa boʻladi-ku, degan xulosaga keldi.

Melkiades rostgoʻy odam edi. «Ohanrabo bu ishga yaramaydi», deya ogohlantirdi u, ammo oʻshanda Xose Arkadio Buendia loʻlilarning halolligiga aslo ishonmasdi, shu bois ham ohanrabo parchalarini oʻzining xachiri-yu bir qancha ulogʻiga almashtirdi. Roʻzgʻorni sal oʻnglarman, deb shu jonivorlarga koʻz tikkan rafiqasi Ursula Iguaran eriga monelik qilishga uringan edi, «Qarab tur, hali seni shunday oltinga koʻmib tashlaymanki, uni qoʻyarga joy topolmay qolasan», deya siltab tashladi eri. Tabiatan toʻng odam boʻlgan Xose Arkadio Buendia soʻzining ustidan chiqish uchun bir necha oy davomida oʻjarlik bilan ishladi. U ohanrabo parchalarini qoʻlidan qoʻymay, Melkiades oʻrgatgan afsunni baralla zikr etib, qishloq atrofini, hatto daryo tubini ham qadamma-qadam tekshirib chiqdi. Ammo topgani XV asrga mansub, urganda ichi toshga toʻla oshqovoqdek ovoz chiqaradigan zanglagan sovut boʻldi, xolos. Xose Arkadio Buendianing bu antiqa qidiruv ishida qatnashgan toʻrt hamqishlogʻi sovutni parchalab koʻrishganda, ichida suyaklari

naq ohakka aylangan mayit-u umurtqa bo‘g‘inlari ustida ayol sochi solingan tumor chiqdi.

Mart oyida lo‘lilar yana paydo bo‘lishdi. Endi ular kattakon durbin-u sathi naq nog‘oradek keladigan zarrabin olib kelishdi va bu buyumlarni amsterdamlik yahudiylarning eng yangi ixtirolari, deya ta’riflashdi. Durbinni chodir yoniga o‘rnatib, ko‘chaning narigi boshiga bir lo‘li qizni o‘tqazib qo‘yishdi. Makondoliklar besh real to‘lab, durbindan qarashganda haligi lo‘li qiz qo‘l yetgudek joyda turgandek tuyilardi. «Fan masofani yo‘qotdi, – deya xitob qilardi Melkiades. – Yaqinda odamlar uyidan chiqmay, jahonning istalgan burchagidagi voqea-hodisalarni bemalol ko‘radigan bo‘lishadi».

Bir kuni ayni jaziramada lo‘lilar ulkan zarrabin yordamida g‘aroyib tomosha ko‘rsatishdi: ko‘cha o‘rtasiga quruq xas-xashaklarni to‘plab, so‘ng zarrabin orqali unga quyosh nurlarini to‘g‘rilashgan ham ediki, g‘aram lovullab yonib ketdi. Omadsiz, alamzada Xose Arkadio Buendianing miyasiga lop etib, zarrabinni harbiy qurolga aylantirsa-chi, degan fikr keldi. Melkiades bu gal ham uni shashtidan tushirishga urindi. Biroq chiranishlari zoye ketdi, axiri u zarrabinni ohanrabo parchalari-yu uch oltin yombiga ayirboshlashga ko‘ndi. Ursula alamidan yig‘ladi. U marhum otasi ming bir azobda topgan bu oltinlarni karavot ostidagi sandiqda saqlar, o‘zicha qora kunning yarog‘i shu deb yurardi. Xose Arkadio Buendia esa xotinini yupatish o‘rniga, olimlarday xavf-xatarni butkul unutib, zarrabin yordamida tag‘in tajribalar o‘tkazishda davom etdi. Dushman lashkariga qarshi kurashda zarrabinni

qo‘llasa bo‘lar, deb avvalo, uni o‘z badanida sinab ko‘rdi – butun terisi kuyib, a’zoyi badanini yarachaqa bosdi va anchagacha bitmay yurdi. Uyining yonish-yonmasligini ham sinamoqchi ediyu, hartugul xotini uni bu xavfli niyatdan arang qaytardi. Xose Arkadio Buendia xonasida soatlab xayollariga mustag‘riq holda o‘tirarkan, eng so‘nggi harbiy qurolning strategik imkoniyatlari xususida mulohaza yuritardi. U hatto yangi quroldan foydalanish yuzasidan biron kimsa e’tiroz bildirolmaydigan darajada nihoyatda ravon yozilgan qo‘llanma tuzdi. Tajribalari haqida guvohlik beruvchi ma’lumotlar hamda qator chizmalar sharhi ilova qilingan qo‘llanmasini hukumat vakillariga eltish uchun maxsus chopar ham yuborildi. U tog‘-u toshlardan oshib, botqoqlarda adashib, asov daryolarni kechib, vahshiy jonivorlar ta’qibiga uchrab, yolg‘izlik azobini chekib, arang o‘lat-u zahmatni chetlab, nihoyat kattakon pochta yo‘liga chiqdi. O‘sha yillari shaharga borish amri maholligiga qaramay, hukumatning birgina chorlovi bilan Xose Arkadio Buendia shoshilinch yetib borishga-yu harbiy qo‘mondonlarga ixtirosini ko‘rsatib, hatto ularga «oftob jangi» san’atini shaxsan o‘rgatishga rozilik bergan edi. U bir necha yil davomida maktubiga javob kutdi. Axiri, intiqlik joniga tekkach, Melkiadesga, yana omadsizlikka uchradim, deya hasrat qildi. Lo‘li tanti ekan: zarrabinni olib, oltinlarini qaytarib berdi, hatto unga Portugaliyada chop etilgan dengiz xaritalari-yu turli-tuman dengizchilik asboblarini sovg‘a qildi. Melkiades, Xose Arkadio Buendiaga usturlab, bussol, sekstant kabi burchak o‘lchov asboblaridan foydalanishni o‘rganishi uchun ro-

hib Xerman asarlarining qisqacha bayonini ham yozib berdi. Cheksiz davom etgan yog‘ingarchilik mavsumida Xose Arkadio Buendia hovli to‘ridagi maxsus jihozlangan xilvat xonaga qamalgancha, asboblar yordamida turli tajribalar o‘tkazardi. Ro‘zg‘or ishlarini butkul unutib, kechalari yulduzlar harakatini kuzatar, hovlidan beri kelmas edi. Osmonning eng yuqori nuqtasini aniqlash usulini topishga uringan kunlarning birida uni oftob urishiga oz qoldi.

Asboblarni puxta o‘rgangach, makon haqida aniq bir xulosaga keldi. U endi xonasidan chiqmay notanish dengizlarda suzar, qit’alarni bemalol tadqiq etar, u yerdagi odamlar bilan xayolan suhbat qurardi. Ayni o‘sha kezlarda u o‘zi bilan o‘zi gaplashadigan odat chiqardi. Ursula bolalari bilan banan, malanga, manioka, yams, auyyamaga[1] ishlov berib, dalada azob chekayotgan mahal u aslo pinagini buzmay, xonada u yoqdan-bu yoqqa yurib, o‘zi bilan o‘zi suhbatlashardi. Ammo ko‘p o‘tmay, Xose Arkadio Buendianing qaynoq faoliyati birdan so‘nib, g‘alati holatga tushdi. Bir necha kun hayratomuz taxminlarni o‘zicha g‘o‘ldirab, go‘yo afsun tekkan misoli kalovlanib yurdi. Nihoyat, dekabr oyining seshanba kunlaridan birida, ayni choshgoh mahali ich-etini tirnayotgan o‘sha taxminlarini lop etib, to‘kib soldi. Farzandlar xotirasida umrbod muhrlangani shu bo‘ldiki, bedorlig-u uzoq mashaqqatli mehnatdan azoblangan ota isitmalayotgan odamday qalt-qalt titrab, xontaxtaning to‘riga kelib o‘tir-

[1] Malanga, manioka va yams – ildizmevali o‘simliklar; auyyama – oshqovoq (hinducha).

di-da, ulug‘vor qiyofada va tantanavor ohangda o‘z kashfiyotini oshkor etdi:

– Yer xuddi apelsinga o‘xshash dumaloq bo‘ladi, bolalarim.

Bu gap Ursulaning sabr kosasini to‘ldirib yubordi. «Agar siz, – dedi u eriga jahl aralash, – aqldan ozgan bo‘lsangiz, mayli ozavering, biroq Xudo xayringizni bersin, anavi lo‘lilarning uydirmalari-yu safsatalari bilan bolalarimning boshini aslo qotirmang». Xotini jahlini jilovlolmay usturlabini polga uloqtirganida ham Xose Arkadio Buendia seskanmay, beparvo o‘tiraverdi. Keyin yangi usturlab yasadi va xonasiga qishloq erkaklarini yig‘di. Xonadon sohibi ularga tushunarsiz g‘alati yozuvlarini sinchiklab: «Agar Sharq tomonga og‘ishmay suzilsa, oxiri G‘arbdan, ya’ni yo‘lga chiqilgan ayni o‘sha manzil-u makonga qaytib kelish muqarrar», – dedi. Hamqishloqlari: «Xose Arkadio Buendia, aqldan ozibdi-da», – deb o‘ylashdi, ammo Melkiades paydo bo‘ldi-yu, bu fikrni butkul chippakka chiqardi. Oliyjanob lo‘li butun qishloq ahli oldida Xose Arkadio Buendianing aqliga tasanno o‘qidi. Melkiadesning aytishicha, Makondo ahli bexabar bu haqiqat fanda allaqachon tasdig‘ini topganmish, biroq Xose Arkadio Buendia birgina astronomik kuzatishlar orqali buni mustaqil kashf etibdi. Melkiades uning zakovatiga tan berib, keyinchalik butun qishloq taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan kimyo laboratoriyasi asboblarini unga hadya qildi.

O‘shanda Melkiades negadir tez qartaya boshladi. U ilk bor qishloqqa kelganida, Xose Arkadio Buendiaga tengdoshdek tuyilardi. Buendia esa hamon bardam-baquvvat, eng asov otni ham qu-

log‘idan mahkam tutib, bir urinishda yerga qulatishga qodir edi. Lo‘lini qandaydir noma’lum, lekin o‘jar xastalik asta-sekin yemirib borayotganga o‘xshardi. Aslida Melkiadesni adoyi tamom qilgani bu – ovorayi jahon bo‘lib, sarson-sargardonlikda kechgan yillar davomida orttirgan turli kasalliklarning asorati edi. U Xose Arkadio Buendiaga laboratoriyani jihozlashda yordamlasharkan, qayerga bormasin nuqul ajal ta’qib etayotgani, lekin uni batamom qulatishga jazm qilolmayotgani haqida so‘zladi. U insoniyat boshiga tushgan hamma balo-yu ofatlardan bus-butun chiqqan edi. Melkiades Eronda – qo‘tir, Maland arxipelagida – zangila, Iskandariyada – moxov, Yaponiyada – buhron, Madagaskarda – vaboga yo‘liqqanida ham, Sitsiliya orolidagi zilzilada ham, Magellan bo‘g‘ozida kema halokatiga uchraganida ham omon qolgan edi. Nostradamus[1] sirlarining chuqur mohiyatiga yetishni ko‘ngliga tugib, shuhratning achchiq mevasidan tatigan bu g‘aroyib kimsaning yuzi doimo tund, osiyoliklarniki kabi qisiq, o‘tkir ko‘zlari go‘yoki buyumlarning teskari tomonini ham ko‘ra oladigandek tuyilardi. U soyaboni qarg‘aning yoziq qanotlariga monand katta shlyapa, naq bir asrlik mog‘or bosgan yag‘ir nimcha kiyib yurardi. Donishmandligi-yu sirli qiyofasiga qaramay, u aslida hamma kabi oddiy odam bo‘lib, hayotni sevgani bois hamma qatori noxush kundalik turmush tashvishlariga ko‘milib yashardi. Chol borgan sari madorini quritayotgan qarilikdan zorlanar, yo‘qsillik azobidan qiynalar, zangila kasaliga

[1] Nostradamus (1503 – 1566) – fransuz astrologi va tabibi, «Asr» kitobining muallifi.

duchor bo‘lgani oqibatida tishlari to‘kilganidan buyon mutlaqo kulmay qo‘ygandi. Melkiades qalbining tub-tubidagi sir-asrorini Xose Arkadio Buendiaga so‘ylagan kundan boshlab, ikkisi qiyomatli og‘a-iniga aylanib qolishgan edi. Lo‘lining aql bovar qilmas naqllari, ayniqsa, bolalarni hayajonga solardi. Besh yashar Aureliano oynalari quyosh nurida tovlanayotgan deraza yonida o‘tirgan Melkiadesni bir umrga esdan chiqarmadi. Lo‘lining organ tovushi yanglig‘ sokin ovozi miyaning eng zulmat burchaklariga ham singar, mehmonning ikki chakkasidan ter issiqda eriyotgan yog‘ kabi betinim oqar edi. Aurelianoning akasi Xose Arkadio Melkiadesning ayni shu g‘aroyib holatdagi siymosini o‘z avlodlariga ota meros bir xotirot sifatida yetkazdi.

Ursulaga lo‘li aslo yoqmadi. Aksiga olib, Melkiades ham ayol laboratoriyaga kirib kelishi bilan xlorli simob quyilgan shishani bexosdan sindirib qo‘ydi. Bir zumda butun xonani tutgan yoqimsiz hid Ursulaning dimog‘iga urildi:

– Shayton shunday sasiydi, – dedi jirkanib.

– Aksincha, – e’tiroz bildirdi Melkiades. – Aytishlaricha, shaytondan oltingugurt anqirkan, bunda esa ozgina sulema[1] bor, xolos.

Donishmand lo‘li ana shunday nasihatomuz ohangda hidlarning shaytoniy xususiyatlari to‘g‘risida uzoq safsata sotdi. Ursula uning gaplariga mutlaqo parvo qilmay, bolalarini ibodatga olib chiqdi. O‘sha kundan boshlab, bu o‘tkir hid unga doimo Melkiadesni eslatadigan bo‘ldi.

– Qozon, dahana, retorta, elak va filtrlarni hisobga olmaganda, odmigina bu laboratoriya od-

[1] Sulema – zaharli oq kukun, simob xlorid.

diy bosqon, falsafiy tuxumga taqlidan yasalgan va qachonlardir Yahudiy Mariya[1] foydalangan hamda loʻlilarning oʻzlari eng soʻnggi kashfiyotlarga asosan tayyorlashgan uch oqizgichli idish va distillyatordan tashkil topgandi. Bulardan tashqari, Melkiades Xose Arkadio Buendiaga yetti qit'aga mos yetti metall namunasini, Moisey va Zosimaning oltin miqdorini ikki baravarga koʻpaytirish imkonini beruvchi formulalarini, kimyoda metallarni oltinga aylantirishda ishlatiladigan qurilmaning tuzilishi va chizmalarni ham bergandiki, bu chizmalarni tushunadigan odam goʻyoki hikmat toshi[2] yasay olishi mumkin ekan. Oltin miqdorini ikki baravarga koʻpaytirish formulalarining joʻnligini koʻrgan Xose Arkadio Buendia bir necha hafta Ursulani avrab, sandiqdagi qadimiy tangachalarni olib berishga koʻndirdi. Er xotinini simob necha boʻlakka boʻlinsa, tangachalarni shuncha martaga koʻpaytirishi mumkinligiga ishontirib, bu orzuni roʻyobga chiqarishga ijozat soʻradi. Har galgidek Ursula uning qat'iyati oldida ortga chekindi. Xose Arkadio Buendia oʻttizta tilla tangani qozonga tashlab, aurpigment, mis kuporosi, simob va qoʻrgʻoshinga qoʻshib eritdi, soʻngra eritmani kanakunjut moyi solingan qozonga tashlab, rosa «qovurdi». Ammo urinishlari besamar ketdi. Qozonda oltin oʻrniga, allaqanday badboʻy, sharbatsimon quyqa hosil boʻldi, lekin u hamon boʻsh kelmasdi. Quyqani yetti qit'aga muvofiq keladigan metallar aralashmasiga qoʻshib

[1] Yahudiy Mariya – eramizdan avvalgi III asrning oxirida yashagan kimyogar ayol.

[2] Hikmat toshi – kimyogarlarning metallni oltinga aylantirish uchun ishlatadigan toshi.

eritdi, unga mis va germes simobi[1] bilan ishlov berdi, so‘ng cho‘chqa yog‘ida (boshqa yog‘ yo‘q edi) obdan «qovurdi»; natijada Ursulaning oltinlari, hatto qozon tagidan ham ko‘chishi qiyin bo‘lgan kuyuk, qop-qora bir toshga aylandi-qoldi.

Lo‘lilar qaytgunlaricha, Ursula butun qishloq ahlini ularga qarshi qayrashga ulgurdi, ammo sinchkovlik hadikdan ustun chiqdi. Turli cholg‘u asboblari sadosi ostida ko‘cha aylangan lo‘lilar jarchisi nazianzliklar[2] ixtirolarining g‘aroyib namoyishi haqida jar soldi. Bir sentavodan[3] to‘lagan odamlar chodirga kirganlarida qayta yosharib, yuzidagi ajinlaridan asar ham qolmagan, tishlari yaraqlab turgan baquvvat Melkiadesni ko‘rishdi. Lo‘lining tishsiz yalang‘och milki, ajin qoplagan yuzi, qaqshagan lablarini unutmaganlarning bari bu g‘ayritabiiy mo‘jiza oldida qo‘rquvdan sapchib tushdi. Sog‘lom tishlarini birvarakayiga og‘zidan chiqarib, odamlarga ko‘rsatgan Melkiades bir muddat o‘sha keksa lo‘liga aylandi. U tishlarini tag‘in joyiga qo‘yib, yosh yigitlarday tabassum qilganida sarosima-yu shovqin battar kuchaydi (Xose Arkadio Buendia ham: «Nahot Melkiades ins-u jinslar bilan til topishgan bo‘lsa-ya», – degan xayolga bordi, lekin qiyomatli og‘a-inilar tanho qolishganida, lo‘li yasama tish nimaligini tushuntirgach, Xose Arkadio Buendianing ko‘ngli joyiga tushdi, va hatto, xandon otib kuldi). Bu sinoatlar unga shu qadar jo‘n-u ajib tuyildiki, bir

---

[1] Germes simobi – kimyogarlar oltin tayyorlashda ishlatishgan maxsus simob. U kimyoga asos solganlardan biri – Germes Trismegesta nomi bilan atalgan.

[2] Nazianz – Kichik Osiyodagi qadimiy shahar.

[3] Sentavo – Kolumbiya pul birligi.

kun o‘tar-o‘tmas kimyoga bo‘lgan ishtiyoqi susaydi. U birdan tushkunlikka tushdi. Xayoli tovlasa ovqatlanar, yo ertadan kechgacha maqsadsiz hovli kezardi. «Jahonda ajoyib voqealar sodir bo‘lyapti, – deya shikoyat qildi u Ursulaga. – Daryoning narigi tomonida turli sehrli uskunalar mavjud, biz bo‘lsak hanuz molday yashab kelyapmiz». Makondo barpo bo‘lganidan buyon Xose Arkadio Buendiani biladiganlar uning Melkiades ta’sirida nechog‘lik o‘zgarganidan hayratga tushar edilar.

Ilgari Xose Arkadio Buendia yosh rahnamoni eslatar, qishloq ahliga ziroatchilik, bola tarbiyasi-yu mol boqishdan maslahatlar berar, jamoa ravnaqi uchun og‘ir mehnatdan qochmas, hamqishloqlariga sidqidildan yordamlashardi. Xose Arkadio Buendianing xonadoni qishloqdagi but ro‘zg‘or sanalganidan, boshqalar undan andaza olishga harakat qilishardi. Uning uyi – katta yorug‘ mehmonxona, tokchalarda anvoyi gullar turadigan ravoqli oshxona-yu ikki yotoqxonadan iborat edi. Hovlida ulkan qoraqayin daraxti o‘sar, uy ortidagi tomorqaga doimo erinmay ishlov berilar; sayisxonada – ot, og‘ilxonada – mol, qo‘tonda – qo‘y, echki, katakda – tovuqlar boqilardi. Ammo bu uyda ham, qishloqdagi boshqa xonadonlarda ham jangari xo‘rozlarni saqlash man etilgan edi.

Ursula ham umr yo‘ldoshi kabi mehnatkash edi. Hayotida aqalli biror marta ovoz chiqarib, qo‘shiq aytmagan, o‘ta jiddiy, asablari temir, qotma ayol g‘ira-shira tongdan yarim tungacha tinib-tinchimas edi. U shunchalar serharakat ediki, go‘yo bir juft emas, naq o‘n juft qo‘li borday tuyilardi, qanday ish bo‘lsa, bariga ulgurardi. Uning xorij matosidan tikilgan, ohori ko‘ylagi

keng etaklarining shaldiroq tovushi go‘yo uyning hamma burchagidan chiqayotganga o‘xshardi. Ursulaning puxtaligi sabab, pollar, devorlar-u beso‘naqay jihozlar yaraqlar, kiyim javonlaridan esa anvoyi hid taralardi.

Qishloqdagi eng tadbirkor odam Xose Arkadio Buendia loyihasiga binoan Makondodagi uylar shunday tartibda qurilgan ediki, odamlar daryodan suv olib kelish uchun borgani aslo qiynalishmasdi. U bo‘lajak ko‘chalarni ham ustalik bilan belgilab chiqqani sabab, kun qiyomga kelganda ham oftob har bir xonaga baravar tushardi. Makondo ikki-uch yil ichida uch yuz jon yashaydigan g‘oyat pokiza, so‘lim qishloqqa aylandi. Bu obod-u osoyishta go‘shada umrguzaronlik qilayotganlarning birortasi o‘ttizdan oshmagan, binobarin, hali hech kim achchiq qazo sharobini totmagan edi.

Makondo maskan etilgan ilk kunlardayoq, Xose Arkadio Buendia har xil tuzog‘-u qafaslar yasashga kirishdi. Tez orada u nafaqat o‘z uyini, balki qishloqdagi boshqa xonadonlarni ham zarg‘aldoq, sa’va, asalxo‘r, tog‘chumchuq kabi qushlar bilan to‘ldirib yubordi. Bechora Ursula qushlar shovqinidan aqldan ozib qolishdan qo‘rqib, quloqlariga paxta tiqib yurardi. Melkiades boshliq lo‘lilar to‘dasi ilk bor qishloqda paydo bo‘lib, shisha sharchalar sotgani kelganlarida Makondo ahli hayrat bilan: «Bu xilvat maskanga qanday yo‘l topdinglar», – deb so‘rashganda, lo‘lilar ro‘y-rost: «Biz qushlar sayrog‘ini mo‘ljallab kelaverdik», – deya tan olishgan edi.

Ammo ohanraboga savdoyilik, munajjimlik ishtiyoqi, tilla topish vasvasasi-yu mo‘jizalarga tashnalik Xose Arkadio Buendia qalbidagi ja-

moatga naf keltirish istagini butkul siqib chiqardi. Saranjom-sarishta va tinib-tinchimas Xose Arkadio Buendia endilikda xudobezor tanbalga aylandi-qoldi. Ba'zan Ursula achchiq ustida ming mashaqqat bilan uning soqolini qirtishlab, tartibga solib qo'yganini aytmasa, aksar hollarda u soch-soqolini o'stirib, kir-chir kiyimda yuraverardi.

Qishloqdoshlari: «Xose Arkadio Buendia allaqanday joduga chalinibdi», – deb o'ylashardi. Lekin uni, aqldan ozibdi, deb hisoblaydiganlarning bari Xose Arkadio Buendia: «Cho'kich-u belkurak yordamida Makondoni buyuk ixtirolar bilan bog'lovchi so'qmoq ochamiz, qani, menga ko'maklashadigan mard bormi?» – deya chorlaganida, hech ikkinlanmay uy-ro'zg'orini tashlab, uning ortidan ergashardi.

Xose Arkadio Buendia bu yerlarning tuzilishini mutlaqo bilmasdi. Sharq tomonda baland, deyarli o'tib bo'lmas tog' tizmalari, ular ortida esa qadimiy Rioacha shahri borligi unga ayon edi, xolos. Bobosi Aureliano Buendia Birinchining hikoyalariga ko'ra, ilgari bu shaharlik ser Frensis Dreyk[1] zambaraklardan kaymanlarga[2] o't ochish bilan ko'ngil ocharkan. Keyin uning buyrug'iga binoan, o'ldirilgan hayvonlar terisidan yasalgan tulumlarga poxol tiqilib, kimsan qirolicha Yelizavetaga yuborilgan. Bir necha yil muqaddam yosh Xose Arkadio Buendiaga ko'pgina erkaklar xotin-xalaj mol-holini yetaklab, ro'zg'or anjomi bilan ergashib, dengiz bo'yida istiqomat qilishga Sharq-

[1] Frensis Dreyk (1541–1592) – ingliz dengizchisi. Amerika qirg'oqlarida qaroqchilik qilib, ispanlarga qarshi kurashgan.

[2] Kayman – timsohning bir turi.

dagi o‘sha tog‘ tizmalaridan oshib kelishgan edi. Ikki yil-u ikki oy deganda ham dengizdan darak bo‘lmagach, hafsalalari pir bo‘ldi, ammo ortga qaytishni or bilib, ayni bugungi Makondo o‘rnida qarorgoh qurishgan edi. Shu bois, Sharqqa eltadigan yo‘l uni qiziqtirmas edi: bu yo‘l faqat ortga, o‘tmish hayotga olib borardi. Lo‘lilarning gap-so‘zlariga qaraganda Janubda mangu o‘t-o‘lanlar bilan qoplangan botqoqliklar boshi-yu adog‘i ko‘rinmas bepoyon vodiy yastanib yotarkan. Voha G‘arbda poyonsiz suv havzasiga tutashgan, uzunquloq gaplarga ko‘ra, u yerda terisi nozik, boshi-yu beli ayollarnikiga monand, ko‘kraklarining sehri bilan dengizchilarni nobud qiluvchi g‘aroyib kitsimon maxluqlar yasharkan. O‘shanda lo‘lilar xachirlar qatnaydigan bir parcha qattiq yerga yetib olguncha rosa yarim yil suvda suzishgan ekan. Xose Arkadio Buendia ravnaq topgan komil dunyoga yetish uchun faqat Shimolga qarab yurish kerak, deb hisoblardi. Mana, endi u Makondoni tashlab, qishloqdosh uch hamrohini belkurak, cho‘kich-u ov miltig‘i bilan qurollantirib, o‘zi turli asbob-u xaritalar solingan yo‘lxaltani yelkasiga ilib, xavfli safarga otlandi.

Dastlabki kunlari qiyinchilikka duch kelishmadi. Toshloq sohil bo‘ylab daryoning o‘zlariga tanish o‘sha temir sovut topilgan joyiga tushishdi-da, yovvoyi apelsinlararo tor so‘qmoqdan yurib, o‘rmonga kirishdi. Hafta davomida yo‘lovchilar kiyik otishdi, go‘shtini pishirib, yarmini zaxiraga olib qolishdi. To‘tiqushlarning mushk hidi anqiydigan ko‘kimtir go‘shtini yeydigan payt kelishini bilganlari uchun ham shunday qilishdi. So‘nggi o‘n kunlar ichida oftob nurini deyarli ko‘rishma-

di. Oyoq ostidagi tuproq yumshog‘-u nam bo‘lib, xuddi vulqon kuliga o‘xshar, dov-daraxtlar yuzni timdalar, qushlarning tovushi-yu maymunlarning qiyqirig‘i tevarak-atrofini tutib ketgan, go‘yoki dunyoda quvonch umrbod yo‘qolgandek edi. Rutubat va mangu osoyishtalik hukmron bu jannatmakonda etiklar doimo bug‘lanib turadigan moysimon to‘la chuqurlarga botib qolar, machetelar[1] tillarang kaltakesaklar va qizg‘ish gulsapsarlarni betinim kesar, odamlarga unut bo‘layotgan shirin xotiralar azob berar edi. Ular butun hafta davomida bir og‘iz ham gaplashmasdan, o‘pkalariga tiqilgan qonning noxush hidini tuygancha, tobora yonar qurtlar xira shu’la sochib turuvchi bu baxtiqaro dunyoning ichkarisiga kirib borishdi. Orqaga qaytishning iloji yo‘q, negaki dov-daraxtlarni chopib ochgan so‘qmoq o‘sha zumdayoq o‘t-o‘lanlarga ko‘milardi. «Hech-qisi yo‘q, – derdi Xose Arkadio Buendia, – faqat yo‘nalishni yo‘qotmasak bo‘lgani». U kompas milidan ko‘z uzmay, odamlarni shimolga boshladi. Nihoyat, ular bu tilsimot dunyosidan chiqishdi. Endi yulduzsiz zim-ziyo tun o‘rab oldi, ammo bu zulmatning havosi toza edi. Uzoq yo‘l yurib tinka-madori qurigan yo‘lovchilar to‘r belanchaklarini daraxtga osib, ikki haftalik uyqusizlik azobidan so‘ng qattiq uyquga ketishdi. Ular quyosh ancha tepaga ko‘tarilganda uyg‘onishdi va hayratdan qotib qolishdi – shundoqqina qarshilarida, qirqquloq va palmalar orasida, quyosh nurida tovlanib, chang bosgan, oppoq, ulkan ispan kemasi turardi. O‘ng biqiniga sal qiyshaygan; hali

[1] Machete – shakarqamish kesishda ishlatiladigan pichoq.

bus-butun machtalardagi orxideya gullari chirmashib yotgan arqonlar orasida yelkanlarning uvadasi chiqqan bo‘laklari osilib yotar, kemaning toshga aylangan chig‘anoqlar va nafis suv o‘tlari bilan qoplangan tanasi yerga qattiq o‘rnashib qolgandi. Bu kema hech narsa, hatto beomon zamon ham, qushlarning betinim sayrog‘i ham daxl qilolmaydigan o‘zgacha bir yolg‘izlik va unutlik maskanida muqim-u mag‘rur turganday edi. Yo‘lovchilar betoqatlikdan qiynalib, kema ichini tekshirib chiqishdi-yu, lekin gullar saltanatidan bo‘lak hech vaqo topisholmadi. Kema dengizning yaqinligidan nishona edi. Xose Arkadio Buendianing shashti birdan susayib qoldi. U topilmani la’nati taqdirning tahqiromuz hazili deb qabul qildi, bir vaqtlar azob-uqubat chekib topisholmagan dengiz, endi uni qidirish xayollariga kelmagan bir paytda yo‘llariga o‘tib bo‘lmas to‘siq bo‘lib tushgan edi. Oradan ancha yillar o‘tgach, polkovnik Aureliano Buendia ham bu joylarga keladi, ammo u endilikda bu yerdan pochta yo‘li o‘tganini, kemaning qolgan-qutgan qismi qizg‘aldoqlar ummonidagi kichik bir orolchadek qorayib turganini ko‘radi. O‘shanda, hamma narsani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgach, bir vaqtlar otasi so‘zlab bergan bu rivoyat uydirma emas, haqiqatligiga ishonch hosil qilib, o‘ziga o‘zi: «Kema bu uzoq quruqlikka qanday kelib qoldi ekan?» – deya savol beradi. Lekin uning otasi Xose Arkadio Buendia bu joydan rosa to‘rt kunda o‘n ikki chaqirim yo‘l yurib, dengizga yetganda, kema bu joylarga qanday chiqib qolgan, degan savolni mutlaqo o‘ylamagan edi. Kulrang, ko‘piklanib yotgan iflos dengizni ko‘rgach,

uning orzulari sarobga aylandi-qoldi: dengiz u bilan sheriklar chekkan shuncha azob-uqubatlarga arzimas edi.

– La’nat-ey! – deb hayqirdi Xose Arkadio Buendia, – Makondo chor tarafdan suv bilan o‘ralgan ekan!

Safardan qaytgach, Xose Arkadio Buendia xarita tuzdi. Makondo yarim orolda joylashgan edi. O‘sha o‘zboshimcha xarita bois, Makondo yarim orolda joylashgan, degan g‘oya uzoq vaqt qishloq ahlini o‘ylantirib qo‘ydi. U tashqi dunyo bilan aloqa qilish yo‘llarining qiyinligini ataylab bo‘rttirib ko‘rsatish va qishloqlari uchun jiddiy o‘ylamay turib, ana shunday noqulay joyni tanlagani uchun o‘zini o‘zi jazolash niyatida o‘sha xaritaning ustidan jon-jahdi bilan chiziq tortardi. «Biz bu yerdan hech qachon chiqolmaymiz, – deya hasrat qilardi u Ursulaga. – Fan sirlaridan bexabar ana shu qishloqda tiriklay chiriymiz». Bu fikrini o‘zining kichik laboratoriyasida bir necha oy davomida saqichday chaynay-chaynay, axiri, Makondoni boshqa, qulayroq bir joyga ko‘chirish kerak, degan qarorga keldi. Lekin xotini uning bu rejasiga to‘sqinlik qildi. Chumoli kabi betinim-u beg‘alva harakatlanadigan Ursula, ayollarni yangi joyga ko‘chishga tayyor kaltafahm erkaklarga astoydil qarshi qo‘ydi. Xose Arkadio Buendia o‘z rejasi qachon, qaysi g‘anim kuchlar qutqusi bilan avvaliga chuvalanib, so‘ng ikkilanish, vaj-korsonlar va e’tirozlar changalzorida adashganini, nihoyat bir umr ro‘yobga chiqmas armonga aylanish sababini tuzuk-quruq aytib berolmasdi. Ursula go‘yo hech narsani sezmagandek erini kuzatardi. Bir kuni ertalab ko‘chish haqida o‘ziga ming‘illagancha laboratoriyasidagi asboblarni

qutilarga joylayotganida, eriga astoydil achindi ham. Ayol erining norozilik bilan to‘ng‘illashidan boshqalar uning rejasini qo‘llab-quvvatlamaganini tushungan bo‘lsa-da, u qutilarga mix qoqib, soqoliga sovun surkaydigan cho‘tkasini siyohga botirib, qutilarga ism-sharifini yozayotganda ham lom-mim demadi. Faqat er xona eshigini oshiq-moshig‘idan chiqarayotganida, Ursula:

– Nima qilyapsiz? – deb so‘rashga jazm etdi.

– Agar hech kim ko‘chishni istamasa, – deya javob qildi Xose Arkadio Buendia alam bilan, – o‘zimiz ketamiz.

Ursula esa o‘zini xotirjam tutdi.

– Yo‘q, biz ketmaymiz, – dedi u. – Shu yerda qolamiz, axir bu yerga o‘g‘limizning kindik qoni to‘kilgan-ku!

– Lekin bu yerda biron yaqinimiz o‘lgan emas, – deb javob qaytardi Xose Arkadio Buendia. – Yaqin kishisi dafn qilinmagan yer odamni o‘ziga bog‘lolmaydi.

Ursula qat’iy e’tiroz bildirdi:

– Agar shu yerda qolish uchun o‘lish lozim bo‘lsa, mayli, men o‘laman.

Xose Arkadio Buendia xotinining bu qadar o‘jarliga ishongisi kelmadi. Ursulani o‘zining shirin orzulari: sehrli suyuqlikni tuproqqa tomizilgani zahoti inson izmiga bo‘ysunuvchi, daraxtlar behisob hosil beradigan, arzon-garovga turli asboblar sotib olib, bemorlarni davolash mumkin bo‘lgan sehrli dunyo va’dasi bilan avray boshladi. Lekin bularning hech biri Ursulaga ta’sir qilmadi.

– Kecha-yu kunduz miyangizni tentagona xayollar bilan band etmay, bolalaringizga qarasangiz-chi! – dedi u. – Ularning ahvoliga boqing, qarovsiz qolgan kuchukvachchalarning o‘zi-ku.

Xose Arkadio Buendia xotinining gapini to‘g‘ri ma’noda tushundi, derazaga boqdi va oftob qizdirgan yaydoq dalada turgan ikki yalang oyoq bolasini ko‘rdi: nazarida ular Ursulaning gapidan so‘ng, yo‘q joydan bino bo‘lishgandek edi. Shunda Xose Arkadio Buendianing qalbini muhim, sirli bir his egalladi va telba tashvishlardan batamom xalos etib, xayol-u xotirot dengizi to‘lqinlarida suzishga majbur qildi.

Endi erining umrining oxiriga qadar bu uyni tashlab ketmasligiga ishongan Ursula pollarni supurishga tushganida ham Xose Arkadio Buendia o‘g‘illariga taajjublanib, boqib turaverdi, nihoyat, kipriklari namlandi va ko‘zlarini qo‘li bilan artdi-da, chuqur xo‘rsindi:

– Mayli. O‘g‘illaringga ayt, qutilarni bo‘shatishga yordam berishsin.

To‘ng‘ichi, Xose Arkadio o‘shanda o‘n to‘rt yoshda edi. Uning boshi dumaloq, sochlari jingalak, xulq-atvori esa xuddi otasinikiday edi. Bu baquvvat yigitchaning kelbati padari buzrukvoridek pahlavon bo‘lib yetishmog‘idan darak bersa-da, lekin otasiga o‘xshash xayolparast emasligi ayon edi. Xose Arkadio odamlar tog‘dan oshib, ayni Makondo o‘rnida qarorgoh qurishidan sal ilgari dunyoga kelgandi. Ota-onasi go‘dakni qo‘lga olib, undan hayvonlarga xos hech qanaqa belgi topolmagach, rosa quvonib, Xudoga shukrona keltirishgan edi. Makondoda tug‘ilgan birinchi inson – Aureliano esa mart oyida olti yoshga to‘lardi. Indamas, odamovi Aureliano ona qornidayoq yig‘lab, ko‘zi ochiq holda tug‘ildi. Kindigini kesishayotganida hech seskanmadi, boshini aylantirgancha, xonadagi ashyolar, atrofini qurshagan

odamlarning ko‘zlariga boqib, bir-bir sinchiklaydi. Ko‘rgani kelgan qarindosh-urug‘larga ham e’tibor bermay, butun diqqatini palma barglaridan yasalgan va chakka o‘taverganidan har bir soniyada bosib tushishga mahtal shiftga qadadi. Ursula Aurelianoning nazari og‘irligini o‘g‘li uch yasharligidayoq payqagan edi. O‘shanda go‘dak oshxonaga kirib keldi. Ursula qaynoq sho‘rva solingan sopol idishni o‘choqdan olib, xontaxtaga qo‘yayotgan edi. Bo‘sag‘adan beriroqda turgan Aureliano: «Hozir tushib ketadi», – dedi jur’atsizlik bilan. Xontaxtaning naq o‘rtasida turgan idish bu gapdan so‘ng go‘yoki birov jon ato etgandek, xontaxta chetiga surildi-da, polga tushib chil-chil sindi. Kapalagi uchib ketgan Ursula voqeani eriga aytdi, lekin eri zarracha ajablanmadi. U bolalarni odam hisobiga qo‘shmagani, qolaversa, o‘zining telbanamo mashg‘ulotlariga tamoman g‘arq bo‘lgani tufayli, o‘g‘illarining turish-turmushiga mutlaqo qiziqmas edi.

Lekin o‘sha bolalarni yordamga chaqirgan kundan boshlab, Xose Arkadio Buendia o‘g‘illarining tarbiyasiga ko‘p vaqt ajratadigan bo‘ldi. Devoriga antiqa xaritalar, xayoliy chizmalar osilgan kichik xonada farzandlariga o‘qish-yozishni, hisobni o‘rgata boshladi. U bor-yo‘q bilimi-yu boy tasavvuriga tayangan holda, ularga dunyo mo‘jizalari to‘g‘risida so‘zlab berardi. Otaning hikoyalariga qaraganda, Afrikaning janubiy tomonida donishmand, mo‘min-qobil odamlar yasharkan va ular uzzukun xayol surib o‘tirisharkan, Egey dengizini orollardan orollarga sakrab, to Salonika portigacha piyoda kesib o‘tish mumkin ekan. Bu tungi suhbatlar, turli latifalarga boy voqealar bolalar

xotirasiga shunchalik muhrlanib qoladiki, hukumat qo‘shinlarining zobiti askarlarga: «Otilsin!» – deb buyruq berishiga bir necha soniya qolganida, devor ostida tik turgan polkovnik Aureliano Buendia Memfis donishmandlarining so‘nggi, odamni lol qoldiruvchi ixtirolari bilan tanishtirish uchun qishloqqa qaytib kelayotgan lo‘lilarning uzoqdan kelayotgan nay, nog‘ora va do‘mbira nag‘malarini eshitgan otasi fizika darsini ham chala qoldirib, qo‘llarini tepaga ko‘targanicha hayratdan tek qotgan o‘sha iliq bahor kechasini eslaydi.

Bu gal kelgan yoshroq lo‘lilar notanish edi. Lo‘li qavmining bu ajoyib vakillari nihoyatda chapdast, badanlariga xushbo‘y moy surkalgan yosh erkag-u ayollar bo‘lib, faqat o‘z tillarida so‘zlashardilar. Lo‘lilar qishloq ko‘chalarini musiqa tovushi-yu sho‘x o‘yin-kulgiga to‘ldirishdi. Ular o‘zlari bilan italyancha qo‘shiq aytadigan patlari rang-barang to‘tiqushlarni, nog‘ora sadosi ostida oltin tuxum tug‘uvchi (har safar yuztadan) tovuq, odamning ko‘nglidagi gapni aytib beruvchi maymun, tugma qadashda, bemorning issig‘ini tushirishda ham baravar asqatadigan g‘aroyib mashina, noxush xotirotlarni xayoldan o‘chiruvchi moslama, dilni xush etuvchi malham va boshqa antiqa narsalarni olib kelishgandiki, ularning nomlarini miyasida saqlab qolish uchun Xose Arkadio Buendia maxsus xotira mashinasini ixtiro qilishi kerak edi. Lo‘lilar keldi-yu, qishloq jamoli o‘zgardi-qoldi. O‘sha kunlari qishloq gavjum bozorni eslatardiki, Makondo ahli o‘z ko‘chasida adashib qolishi hech gap emasdi. Olomon ichida yo‘qotib qo‘ymaslik uchun bolalarining qo‘llaridan mahkam tutgan Xose Arkadio Buendia Melkiadesni tezroq topib, bu g‘aroyib

tushning ta’birini so‘rash umidida, odamlardan anqiyotgan tezag-u mushk-anbar hidlaridan dimiqib, o‘zini har yoqqa urar, goh tilla tishli tabib, goho olti qo‘lli sehrgar bilan to‘qnashardi. Lo‘lilardan Melkiadesni surishtirar, lekin lo‘lilar uning tiliga tushunmasdi. Axiri, u Melkiades chodir tikadigan joyga yetib keldi. Ammo u yerda mung‘aygan bir arman lo‘lisi o‘tirib, odamni ko‘zga ko‘rinmas qiladigan duoni ispan tilida zikr etardi. Xose Arkadio Buendia hayrat ichra tikilib turgan tomoshabinlar safini yorib kirganida, lo‘li hozirgina bir qadah kahrabo rangli ichimlikni simirib bo‘lgandi. Xose Arkadio Buendia bu odamdan ham surishtirdi. Lo‘li unga boshdan-oyoq qarab chiqdi, keyin badbo‘y, sathida «Melkiades o‘ldi» degan yozuv qalqiyotgan kichik bir ko‘lmakka aylandi. Bu noxush xabardan dovdirab qolgan Xose Arkadio toki tomoshabinlar boshqa sehrgarga alahsib tarqalib ketib, boyagi g‘amgin arman lo‘lisi o‘rnida qolgan ko‘lmakning eng so‘nggi tomchisi ham bug‘lanib ketguncha joyida qotib turdi. Keyinroq boshqa bir lo‘li, Melkiades rostdan ham Singapur botqoqliklarida bezgakdan o‘ldi, jasadi Yava yonidagi dengizning eng chuqur yeriga tashlandi, deb tasdiqladi. Bolalar bu gapga e’tibor ham berishmadi. Ular otalarini boshqa chodir tomon tortishardi. Aytishlaricha, avval Sulaymon podsho[1] kashf etib, so‘ng yana unutilib, so‘ng yana qaytadan manaflik[2] donishmandlar topgan ulug‘ bir sinoat namoyish etilarkan. Axiri,

---

[1] Eramizdan oldingi 925–928-yillarda yashagan Isroil hukmdori *(tarj.)*.

[2] Manaf yoki Memfis – Misr fir’avni Min tomonidan bunyod etilgan «Oq devor» qal’asi yonginasidagi qishloq o‘rnida qurilgan qadimiy shahar.

bolalari jon-holiga qo‘yavermagach, Xose Arkadio Buendia o‘g‘illari bilan o‘ttiz real haq to‘lab, xuddi qaroqchilar tilla saqlaydigan sandiqdan ulkan sandiqni qo‘riqlayotgan, sochi qirtishlab olingan, serjun, burniga mis halqa taqqan, oyoqlari zanjirband norg‘ul odam turgan chodirga kirdi. Lo‘li sandiqning qopqog‘ini ko‘targanida yuzga sovuq urildi. Sandiqning ichida behisob oq ignalar qadab tashlangan katta, tiniq tosh bo‘lagidan boshqa hech narsa yo‘q edi: tosh ustiga tushgan oqshomgi nur shu onning o‘zidayoq sochilib, ming rangda tovlanayotgan minglab yulduzlarga aylanib ketardi.

Xose Arkadio Buendia shoshib qoldi, ammo bolalari undan zudlik bilan izoh kutishayotganini anglab:

– Bu dunyodagi eng katta gavhar bo‘lsa kerak! – dedi g‘o‘ldirab.

– Yo‘q, – deya uning gapini bo‘ldi haligi norg‘ul odam. – Bu – muz.

Xose Arkadio Buendia hech narsani tushunmadi, sandiqqa qo‘lini uzatgan ham ediki, haligi norg‘ul odam monelik qildi. «Yana besh real to‘lang, keyin bemalol ushlab ko‘rasiz», – dedi u. Xose Arkadio Buendia besh real to‘lab, bir necha daqiqa kaftini muzga bosib turdi, hayajon va qo‘rquvdan yuragi entikib, badani qalt-qalt titrardi. Bu g‘aroyib hislarning ta’rifiga kuchi yetmasligini angladi-yu, bolalarning o‘zlari sinab ko‘rsin, deb tag‘in o‘n real to‘ladi. Kichik Xose Arkadio muzni ushlashdan bosh tortdi. Hech bir cho‘chimasdan, xiyol engashgancha qo‘lini muz ustiga qo‘ygan Aureliano esa, qo‘lini shu zahotiyoq tortib oldi. «Qaynayapti-ku bu!» deya baqirdi u qo‘rquv-

ga tushib. Otasi unga e'tibor ham bermadi. Xose Arkadio Buendia qarshisida yotgan mo'jizadan mast edi, u hozir jami barbod bo'lgan orzularini ham, jasadi kaymanlarga yemish bo'lgan Melkiadesni ham unutgan edi. U yana besh real to'lab go'yo Injil ustiga qo'lini qo'yib, sudda qasam ichayotgan guvohdek, kaftini muzga bosdi va tantanavor bir ohangda:

– Bu – davrimizning eng buyuk ixtirosi! – deya xitob qildi.

* * *

XVI asrda qaroqchi Frensis Dreyk Rioacha shahrini ishg'ol qilganida, qo'ng'iroqlarning besaranjom ovozidan va to'plar gumburidan sarosimaga tushgan Ursula Iguaranning katta buvisining asablari dosh berolmay yonib turgan o'choqqa bexosdan o'tirdi. Shunda uning belidan pasti kuyib, xotinlikka mutlaqo yaramaydigan bo'lib qoldi. Bechoragina faqat bir tomoni bilan, shunda ham yumshoq yostiqning ustiga o'tira olardi, xolos, shuningdek, yurganda ham rosa azob chekar, iloji bo'lsa, boshqalar bor joyda ko'rinmaslikka harakat qilardi. U negadir, mendan kuyuk hid anqiydi, deb o'ylar, shu bois odamlar suhbatidan butkul voz kechgan, tunlari hovlida o'tirib chiqar, xonaga kirib uxlashdan qo'rqar, xayolida odamxo'r itlarni yetaklagan, qo'llarida qizdirilgan temir tutgan inglizlar derazadan oshib tushadigandek tuyilardi.

Uning eri – aragonlik savdogar suxsurday ikki o'g'lining volidasini bu mudhish azob-uqubatlardan xalos etmoq uchun yarim davlatini shifokor-u tabiblarga sarfladi. Hech natija bo'lmagach,

do‘konini shartta sotdi-yu, oilasini dengizdan ancha uzoqqa, beozor hindular yashaydigan tog‘li qishloqlardan biriga ko‘chirib ketdi va u yerda xotiniga derazasiz bo‘lma solib berdi.

Bu tashlandiq qishloqda anchadan buyon Xose Arkadio nomli kreol[1] yashardi. U tamaki ekardi. Ursulaning katta bobosi o‘sha kreol bilan hamkorlikda katta bir korxona tashkil etishdiki, oradan ozgina vaqt o‘tmasdan, mo‘maygina sarmoya to‘plashdi. Bir necha yuz yil o‘tgach, Xose Arkadio Buendianing chevarasi o‘sha aragonlikning chevarasiga uylandi. Erining qiliqlari joniga tekkan paytlari Ursula har gal uch yuz yil ilgarigi turli voqea-hodisalar bilan to‘lib-toshgan davrni esga olarkan, Frensis Dreyk Rioacha shahrini ishg‘ol qilgan mudhish o‘sha kunga la’natlar o‘qirdi.

Aslini olganda, ayol ko‘nglini bo‘shatgisi kelar, haqiqatda esa uni eri bilan muhabbatdan ham kuchli bir his – vijdon azobi mahkam bog‘lagan edi. Ursula bilan eri amakivachcha avlodidan bo‘lib, alvodlarning mehnatsevarligi tufayli tashlandiq bir joydan eng obod go‘shaga aylangan joyda tug‘ilib, birgalikda katta bo‘lishgan edi. Ular dunyoga kelgandayoq, albatta, er-xotin bo‘lishlari bashorat qilingandi. Nihoyat, ulg‘ayib, ular o‘zlari ham nikohdan o‘tishga moyillik bildirishsa-da, ota-onalari bunga qattiq qarshilik ko‘rsatishdi. Ular yuz yillar davomida chatishgan ikki urug‘ning ikki sog‘lom vakilidan kaltakesakka o‘xshash maxluqlar tug‘ilishi mumkin, deb qo‘rqishardi. Shunday mudhish voqea ilgari bir marotaba sodir ham bo‘lgandi. Xose Arkadio Bu-

[1] Kreol – Lotin Amerikasidagi ispan va portugal mustamlakachilarining avlodi.

endianing tog‘asi-yu Ursulaning xolasidan tug‘ilgan o‘g‘il umrining oxirigacha jo‘n shim o‘rniga qanordek keng shalvar kiyib yurdi. U uchi tukli, xuddi cho‘chqanikiga o‘xshash xiyol egik dum bilan tug‘ilgan edi. Bechora dumini ayol zotiga ko‘rsatmaslikka ont ichgan edi, shu bois uylanmadi ham. Oxiri, nomusga chidayolmay, qassob og‘aynisidan dumini kesib tashlashni iltimos qildi. Qassob dumini bolta bilan chopib tashlaganida, badbaxt ko‘p qon yo‘qotib, qirq ikki yoshida olamdan o‘tdi. O‘n to‘qqiz yoshli Xose Arkadio Buendia ota-onalar bahsiga: «Menga desa cho‘chqa tug‘ilmaydimi, gapirsa bo‘lgani!» – deya nuqta qo‘ydi. Shundan so‘ng to‘y qilishdi, musiqa-yu miltiq sadolari yangragan sayin rosa uch kun davom etdi. Agar Ursulaning onasi qizini «do‘zaxi maxluq tug‘asan», – degan mudhish bashorat bilan qo‘rqitmaganida, kelin-kuyovning to‘ydan keyin ham baxtli turmush kechirishlari turgan gap edi. Onasining gapidan so‘ng Ursula erini o‘ziga mutlaqo yaqin yo‘latmadi. Erining quvvati-yu chars fe’lidan xabardor Ursula yotishdan avval onasi qalin matodan tikib bergan lozimini kiyib olardi. Bu antiqa lozimning old tarafiga kichik tasmalar bilan temir sovutcha bog‘lab tashlangan edi. Shu alpozda er-u xotin bir necha oy turmush kechirishdi. Kunduz kunlari Xose Arkadio Buendia jangari xo‘rozlari bilan ovora bo‘lar, Ursula onasi yonida o‘tirib, chevarlik qilardi, tunda esa ular to‘shakda soatlab olishardilar, er hamon maqsadiga yetolmay ovora edi. Qo‘shnilar (ular bundan qanday xabar topgani noma’lum), erining aybi bilan Ursula bir yildirki bokira ekan, deya gap tarqatishdi. Tabiiyki, bu g‘iybat Xose

Arkadio Buendianing qulog‘iga hammadan keyin yetib keldi.

– Odamlarning gapini eshitdingmi, Ursula? – deb so‘radi u xotinidan.

– Mayli, gapirsa gapiraverishsin, – javob qaytardi Ursula. – Bu gapning yolg‘onligini ikkimiz ham bilamiz-ku.

Ularning hayoti ana shu yo‘sinda yana yarim yil, to Xose Arkadio Buendianing xo‘rozi Prudensio Agilyarning xo‘rozini yenggan o‘sha fojiali bozor kunigacha shu taxlit davom etdi. Xo‘rozi yengilganidan va qonni ko‘rganidan titrab ketgan Prudensio Agilyar, ataylab Xose Arkadio Buendiadan xiyol uzoqlashdi-da, xonada yig‘ilganlarga qarata ataylab qichqirdi:

– Tabriklayman! Ko‘raylik-chi, balki shu g‘olib xo‘rozing xotiningga ham baxt ato etar?

Xose Arkadio Buendia xo‘rozini indamay ko‘tarib oldi-da, to‘planganlarga: «Men hozir qaytib kelaman», – dedi. So‘ng Prudensio Agilyarga yuzlandi:

– Uyingga borib qurol olib chiq, seni o‘ldirmasam bo‘lmaydi.

Oradan o‘n daqiqa o‘tgach, Xose Arkadio Buendia bobomeros yo‘g‘on nayzani ko‘tarib keldi. Prudensio Agilyar bu payt xo‘roz urishtiriladigan saroy ostonasi yonida turardi. U chap berishga ulgurolmay qoldi. Xose Arkadio Buendia bor kuchi bilan irg‘itgan nayza (bir vaqtlar usta mergan atalgan Xose Arkadio Buendia ayni shu qurol bilan yaqin atrofdagi barcha qoplonlarni qirib tashlagan edi) Agilyarning tomog‘iga bexato sanchildi. Kechasi, marhumning qarindoshlari saroy yoniga qo‘yilgan tobut yonida turishgan paytda, xos-

xonaga kirgan Xose Arkadio Buendia xotini yana o‘sha lozimini kiyayotganini ko‘rdi. «Yech buni!» – deb buyurdi u, qo‘lidagi nayzasini baland ko‘tarib. Ursula erining qahrini sinashga jur’at etolmadi. «Agar biror kori hol ro‘y bersa, sen o‘zing aybdorsan», – deya ogohlantirdi u. Xose Arkadio Buendia nayzani yerga sanchdi.

– Peshonangda kaltakesak tug‘ish bo‘lsa, na iloj, kaltakesakni ham boqaveramiz, – dedi u so‘ngra. – Qaytanga, endi sen tufayli qishlog‘imizda birorta odam halok bo‘lmaydi.

O‘sha yoz oqshomi ajoyib, sal namxush bo‘lib, osmonda to‘lin oy suzardi. Er-u xotin Prudensio Agilyar qarindoshlarining yig‘isi-yu qarg‘ishlarini olib kirayotgan shamolga ham e’tibor bermasdan, chorpoyada ishrat qilishdi.

Odamlar bu voqeani oriyat jangiga yo‘yishdi, biroq er-xotin vijdon azobidan qiynalishardi. Bir kun uyqusi qochgan Ursula, suv ichaman, deb hovliga chiqqanida, katta ko‘za oldida Prudensio Agilyarni ko‘rib qoldi: u tomog‘idagi qonli yaraga latta parchasini tiqishga urinardi. Marhum Ursulaning qalbida qo‘rquv emas, balki achinish, o‘kinch uyg‘otdi. U xonaga kirib voqeani aytib berganida, eri parvo ham qilmadi. «O‘liklar hech qachon qabrdan chiqolmaydi, – dedi u. – Hamma gap shundaki, bizni vijdon azobi qiynayapti». Oradan ikki oqshom o‘tgach, Ursula Prudensio Agilyarni hammomda uchratdi – u latta bilan qo‘lidagi yarasini yuvardi. Boshqa kuni kechasi esa Ursula uning yomg‘ir ostida u yoqdan-bu yoqqa borib kelayotganini ko‘rdi. Xotinining hadeb murdani ko‘raverishi joniga tekkan Xose Arkadio Buendia, nayzasini olib, hovliga chiqdi.

Prudensio Agilyar har doimgi joyida g‘amgin holda turardi.

– Yo‘qol bu yerdan! – qichqirdi unga Xose Arkadio Buendia. – Bilib qo‘y, necha marta tirilib kelsang, men seni shuncha marta o‘ldiraveraman.

Prudensio Agilyar ketmadi, Xose Arkadio Buendia esa unga nayza irg‘itishga jur’at etolmadi. O‘sha kundan boshlab, u uyqusini yo‘qotdi. Yomg‘ir orasidan tikilayotgan murdaning tiriklar hayotiga suqlanib boqayotgan so‘nik ko‘zlari, qonli yarasini yuvish uchun uvadani namlashga mo‘ltirab, suv izlashi unga azob berardi. «Unga juda qiyin bo‘lsa kerak, – dedi Xose Arkadio Buendia xotiniga. – Bechora yolg‘iz kezib yuribdi». Ursulaning ham marhumga rahmi kelardi. Galdagi uchrashuvda Prudensio Agilyar xontaxta ustidagi idish-tovoqlarni ko‘zdan kechirayotganini ko‘rgan Ursula o‘sha kundan boshlab uyning har joy-har joyiga suvli kosalar qo‘yib chiqdi. Xose Arkadio Buendia murda yotoqxonada yarasini yuvayotganini ko‘rib, yengil tin oldi.

– Mayli, Prudensio, – dedi u. – Biz bu qishloqdan iloji boricha uzoqqa ketamiz va hech qachon qaytib kelmaymiz. Mayli, endi sen boraver.

Ana shundan keyin ular tog‘ tizmalari osha dengiz tomonga otlanishdi. Xose Arkadio Buendia va sayohattalab do‘stlari – barisi o‘ziga o‘xshagan yosh yigitlar edi. Hamrohlari xotin, bola-chaqasi bilan begona manzilgohlar tomon ravona bo‘ldilar. Xose Arkadio Buendia Prudensio Agilyarning ko‘ngli taskin topsin, deb yo‘lga chiqishdan oldin nayzani hovliga ko‘mdi, barcha jangari xo‘rozlarning boshini bir-bir kesdi. Ursula kelinlik liboslari joylangan sandig‘ini, ayrim

roʻzgʻor buyumlari-yu otameros tilla tangachalar solingan qutini oldi. Yoʻlovchilar qaysi yoʻldan yurish qulayligi ustida bosh ham qotirib oʻtirishmadi. Rioacha shahriga teskari tomonga yoʻlga tushdilar, negaki tanish-bilishlarga sezdirmay, beiz gʻoyib boʻlishga ahd qilingan edi. Dunyo hali bunaqangi antiqa sayohatchilarni koʻrmagan edi. Maymun goʻshti-yu ilon shoʻrva yeyaverib, oshqozoni batamom ishdan chiqqan Ursula, bir yil-u ikki oy deganda, tuppa-tuzuk, odambashara oʻgʻil koʻrdi. Ayolning oyoqlari shishib ketgandi, yoʻlga yaramay qolgani bois, erkaklar uni belanchakka solishib, qolgan yoʻlning yarmidan koʻprogʻigacha koʻtarib borishdi. Qorinlari qappayib, koʻzlari kirtayib ketganiga qaramay, bolalar yoʻl uqubatlariga kattalarga nisbatan chidamliroq chiqishdi. Ular yoʻl azobini oʻyinqaroqlik bilan yengar edilar. Nihoyat, ikki yillik sarson-sargardonlikdan soʻng bir kuni ertalab, yoʻlovchilar togʻ tizmasining Gʻarb tomonidagi daralarini koʻrishdi. Bu yerlarga hali inson qadami tegmagan edi. Ular bulutlar bilan qoplangan baland qoyada turib, daryolar kamari kesgan poyonsiz kenglikka – goʻyoki dunyoning narigi chetigacha yastanib yotgan vohaga ancha tikilishdi. Ammo yoʻlovchilar dengizga baribir yetib borisholmadi. Ular botqoqliklar ichida bir necha oy adashib birorta ham tirik jonni uchratolmagach, oxirgi kuni shom payti, shaffof suvli toshloq daryo-yu qirgʻogʻiga chodir tikishdi. Oradan koʻp yillar oʻtgach, polkovnik Aureliano Buendia ikkinchi fuqarolar urushida Rioacha shahri garnizoniga toʻsatdan bostirib kirmoqchi boʻlib, xuddi ana shu yoʻlni tanlaydi, lekin olti kunlik yoʻl azobidan soʻng qilayotgan ishi gʻirt

jinnilik ekaniga amin bo‘ladi. Daryo qirg‘og‘iga qarorgoh qurilgan o‘sha shomda otasining lashkarlari kema halokatiga uchragan odamlarni eslatar, lekin safar asnosida ularning soni xiyla oshgan va hammasi qarib-chirib qolguncha yashashdan umidvor edilar (ular niyatlariga yetdilar ham). O‘sha tun Xose Arkadio Buendia tushida devorlari shaffof, sershovqin shaharni ko‘rdi. Bu ne shahar, deb so‘raganida, butunlay notanish, tushunib bo‘lmaydigan bir nomni atashdi, lekin ayni nom g‘ayrioddiy jarangdorligi bilan Xose Arkadio Buendianing miyasiga muhrlanib qoldi – Makondo. Ertasiga u hamrohlarini, dengizga baribir chiqa olmaymiz, deb ishontirdi. Ularga daraxtlarni kesib, daryo bo‘yidagi sayhonlikning eng salqin joyini tozalashni buyurdi. Shu tariqa yangi qishloqqa asos solindi.

Xose Arkadio Buendia sandiqdagi muz parchasini ko‘rdi-yu buni o‘sha shaffof devorli antiqa uylar haqidagi tushining ta’biriga yo‘ydi. Suv – arzon, agar uni muzlatib, keyin g‘isht qilib kesilsa, xohlagancha uy quraverish mumkin, deb o‘yladi. Jazirama issiqda, hatto deraza romlari ham mayishib qoladigan Makondo ana o‘shanda mangu salqin bir maskanga aylanadi. Xose Arkadio Buendia muz zavodi loyihasini tuzmaganiga yagona sabab – o‘shal damda o‘g‘illari, ayniqsa, kimyoga ishtiyoqmand Aurelianoning tarbiyasi bilan bandligi edi. Laboratoriyada ish qaynagandan qaynardi. Ota-bola Melkiadesdan qolgan yozuvlarni qayta-qayta o‘qishar, ortiqcha his-hayajonga berilmay, bamaylixotir qunt-u sabot bilan qozonga yopishib qolgan quyqadan Ursulaning oltinlarini ajratib olish yo‘llarini qidirishardi.

Xose Arkadio ularning mashg‘ulotiga deyarli aralashmasdi. Ota ishga mukkasidan ketgan mahali, barvasta gavdali, o‘jar to‘ng‘ich o‘g‘il balog‘atga yetib ulgurdi. Ovozi dag‘allashdi, iyagi, yuzi mayin tuk bilan qoplandi. Xose Arkadio yotar mahali yechinayotganida, bexosdan kirgan Ursula uyat-u mehr aralash g‘alati bir hisdan seskanib tushdi: o‘g‘li u yalang‘och holda ko‘rgan ikkinchi erkak edi. U erkaklar hayotiga shu qadar bekam-u ko‘st tayyorligini ko‘rib, Ursula cho‘chib ketdi. Uchinchi farzandini kutayotgan ayol ko‘nglida kelinchakligida azob bergan mudhish gumonlar qayta uyg‘ondi. O‘shanda Buendialarning uyiga sho‘x, hazilkash, gapga chechan bir ayol tez-tez kelib turardi. U qartada fol ochar, Ursulaga ro‘zg‘or ishlarida ko‘maklashardi. Ursula unga: «Uzoq qarindoshimiz cho‘chqa dumi bilan tug‘ilgandi, endi, mana, o‘g‘lim ham juda tez ulg‘aydi, beso‘naqayroq, shunisidan xavotirdaman», deb aytganida, ayol xandon otib kuldi. Uning billur qo‘ng‘iroqdek jarangdor kulgisi butun uyni tutib ketdi. «Aksincha, – dedi u, – o‘g‘lingiz baxtli bo‘ladi». Bir necha kun o‘tib bashoratini isbot qilmoqchi bo‘ldi-yu fol ochish bahona, Xose Arkadio bilan birga oshxona yonidagi qaznoqqa berkindi. Qartalarni eski dastgoh ustiga shoshilmasdan bir-bir terib chiqarkan, allanarsalar haqida tinmay gapirar, Xose Arkadioni esa uning gaplari qiziqtirmas, qaytaga, ensasini qotirar edi. Nogahon ayol qo‘lini cho‘zib, unga tekkizdi-da, «Voy, sen balosan-ku!» – dedi qo‘rquv aralash. So‘ng birdan jimib qoldi. Xose Arkadio ustuxonlari paxtaday yumshab borayotganini payqab, birdan vahimaga tushdi, yig‘lab yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tiydi. Ayol unga ortiq rag‘bat

ko‘rsatmadi. Yigitcha tun bo‘yi uni qo‘msab, kechasi bilan dimog‘ida undan taralgan bo‘yni tuyib chiqdi; go‘yoki bu hid uning butun a’zoyi badaniga o‘rnashib qolganday edi. Istardiki, doimo birga bo‘lishsa, o‘sha qaznoqdan aslo chiqishmasa, ayol mudom yelkasidan qo‘l uzmasa, mudom quloqlariga «Voy, sen balosan-ku!» deya shivirlasa. Xose Arkadio bu azobga ko‘p dosh berolmadi, kunlarning birida o‘sha ayolning uyiga yo‘l oldi. Bordi-yu churq etmadi. Ayolni ko‘rishi hamon ishtiyoqi so‘ndi. Qarshisida turgan ayol butunlay begona, undan taralgan bo‘y ham butunlay o‘zgacha tuyilardi. Yigitcha xo‘rlandi, bir amallab qahvasini ichdi-yu, indamay chiqib ketdi. Lekin tunda bedor yotarkan, qalbida yana o‘sha haroratli va dag‘al hislar gupura boshladi, endi u qaznoqqa fol ochgan ayolni emas, balki kecha kechqurun ro‘parasida o‘tirgan ayolni qo‘msadi.

Bir necha kundan so‘ng u nogahon Xose Arkadioni uyiga mehmonga chorladi. Uyda ayolning onasi ham bor ekan. Folbin yigitchaga qartada ko‘zbaxshilik ko‘rsatishni bahona qilib, uni yotog‘iga boshlab kirdi-yu, tap tortmasdan suykala boshladi. Bechora o‘spirinning eti junjikib, lazzat o‘rniga allanechuk qo‘rquv va lohaslik tuydi. Shunda ayol unga, kechasi kelaqol, deb tayinladi. Xose Arkadio tunda kelishga jazm etolmasligini bilsa-da, tezroq chiqib ketish payida bo‘lib: «Albatta kelaman», – dedi. Tunda to‘shakda dimiqib yotarkan, yana qoni qaynar, bormasa bo‘lmasligini anglardi. Qorong‘ida paypaslab kiyinar ekan, ukasining bir maromda nafas olishini, narigi xonada yotgan otasining quruq yo‘talini, hovlidagi tovuqlarning qaqillashini, chivinlarning g‘o‘ng‘il-

lagani va qinidan chiqqudek besaranjom urayotgan yuragining zarbini aniq-tiniq eshitdi. Dunyoning bu qadar shovqinli ekanini yigitcha ilgari hech qachon sezmagan edi.

So‘ngra jimjit ko‘chaga chiqdi. Xose Arkadio boshi qizisa-da, zora eshik qulflog‘lik bo‘lsa, deb o‘ylardi. Afsuski, eshik nim ochiq ekan. Ohista turtganida shunday g‘ichirladiki, yigitchaning yuragi naq tovoniga tushib ketganday bo‘ldi. Xose Arkadio oyoq uchida yurib, xonaga kirganida, dimog‘iga o‘sha tanish hid gup etib urildi. Bu xonada ayolning aka-ukalari uxlab yotishardi. Ayol esa – narigi xonada, zim-ziyoda yo‘l topish ham mushkul. Xose Arkadio bexosdan kimgadir urilib ketdi. Haligi kishi xurragini bas qildi-yu, narigi yoniga ag‘darilib, loqayd bir ovozda: «Chorshanba edi», – deb qo‘ydi, Xose Arkadio ayol xobgohini ochayotganida eshik polni tirnab, g‘ashga tegadigan ovoz chiqardi. Xose Arkadio nima qilarini bilmay kalovlanib qoldi. Bu kichik xonada ayolning onasi, opasi, pochchasi-yu jiyanlari uxlab yotishardi. Ayolning tanish hidiga qarab yuray desa, aksiga olib, bu hid butun uyni to‘ldirib yuborgan, hatto o‘spirinning o‘z tanidan ham anqiyotganday edi. Xose Arkadio ushbu chorasizlik tubiga qanday tushib qoldim-a, deya o‘z-o‘ziga qo‘rqib-titrab savol berganicha qotib turganida cho‘zilgan barmoqlari qorong‘ilikda paypaslayotgan kimningdir qo‘li uning yuziga tegdi. Yigitchaning ajablanishga ham holi yo‘q edi, qolaversa, nedandir najot kutgan edi, shu bois, butun inon-ixtiyorini ana shu yumshoq qo‘lga topshirdi. Bu qo‘l uni to‘shakka yetaklab ketdi. To‘shakda yigitchani yechintirishdi, so‘ngra go‘yo kartoshka to‘la qopday sil-

kitishdi, u yon bu yoniga bearmon ag‘darishdi. Yigitchaning qo‘llariga jon kirdi... Dimog‘ida ayol hidi emas, o‘tkir novshadil iforini tuydi, u noma’lum, lekin o‘zi zoriqib kutgan bir ishni boshlab yuborganini elas-elas sezar, ichida, qo‘limdan kelarkan-ku, deb quvonardi. Dam o‘tmay vujudi parday yengillashib, qaygadir uchib ketganday bo‘ldi, so‘ng yana boshi, qo‘l-oyoqlari borligini his qildi, lekin o‘zining tanasi qayda-yu ayolniki qayda – hech farq etolmasdi. Keyin... keyin hammasi tugadi. O‘spirin xonadan tezroq chiqib ketishni istar, ayni zamonda mana shu tarang sukunat-u vahimali tanholik bag‘rida umrbod qolgisi kelardi.

Ayolning ismi Pilar Ternera edi. U Makondoga ota-onasi izmi bilan kelgan edi; ular qizlarini o‘n to‘rt yoshida badnom qilib, to u yigirma ikkiga kirguncha ham don olishib yurgan bir erkakning changalidan qutqarish niyatida safarga otlangan edilar. O‘sha erkak Pilar Terneraga, ishlarimni bir yoqli qilsam, bas, izingdan, albatta boraman, deb ont ichgan edi. Juvon qarta yozib fol ochar, foliga goh dengizda suzib, goh quruqda kezib, goh uch kunda, goho uch oyda, goho uch yilda keladigan novcha-yu pakana, mallasoch-u qorasoch erkaklar tushaverar, axiri ularning birortasi ham kelavermagach, Pilar Terneraning umid bog‘i xazonrezlikka yuz tutgan edi. Hijron mayini simira-simira, bechora juvon so‘lib bitdi, erkak mehrini batamom unutdi. Lekin telba ko‘nglining xumori aslo yo‘qolmadi. Endi Xose Arkadio har tun qorong‘i xonalarda uni tentib izlardi. O‘spirin bunday bekinmachoq topib olganidan baxtiyor edi.

Kunlarning birida Xose Arkadio Pilar Ternerani qo‘msab kelganida, eshik ichidan berk edi.

Yigitcha qo‘rqa-pisa eshikni chertdi, so‘ng ilk bor taqillatishga jur’at etganidan ruhlanib, qattiqroq qoqdi… Eshik esa ancha vaqtdan so‘ng ochildi. Kunduzlari Xose Arkadio zo‘rg‘a oyoqda yurar, tungi ishratli onlarini yuragi orziqib eslar edi. Pilar Ternera ularnikiga kelganida tamom o‘zgarib ketar, xandon otib kular, hatto yigitchani mensimaganday bo‘lib tuyilardi. Xose Arkadio bunday kezlarda hayajonga berilmasdi. Tunlari yigitchani entiktiradigan, bezovta yurak zarbini sanashga majbur etadigan ayol bilan manavi sho‘x-shaddod, jarangdor kulgisi hovlida donlab yurgan kaptarlarni hurkituvchi ayol o‘rtasida mutlaqo o‘xshashlik yo‘qdek edi. O‘spirin o‘z xayollariga shunchalik mustag‘raq ediki, hatto otasi bilan ukasi o‘sha qotib qolgan metall quyqasidan Ursulaning oltinlarini ajratib olganliklari haqidagi xushxabar butun xonadonni larzaga solganida ham, uydagilarning nega bunchalik quvonayotganini tushunmadi.

Ota-bola uch kunlik mashaqqatli mehnatdan so‘ng maqsadga erishdilar. Ursula o‘zida yo‘q xursand, hattoki kimyo fanini yaratgan Xudoga shukrona aytardi. Qishloq ahli mo‘jizani eshitib, muborakbod etgani keldi. Ursula mehmonlarni non-u shinni bilan siylarkan, Xose Arkadio Buendia ularga oltini aritilgan tovachani ko‘rsatardi. Nihoyat, ota keyingi kunlari laboratoriyaga yaqin yo‘lamay qo‘ygan to‘ng‘ich o‘g‘lining oldida to‘xtadi. O‘g‘lining yuziga qo‘lidagi sarg‘ish quruq kukunni yaqinlashtirib: «Ayt-chi, nimaga o‘xshaydi?» – deb so‘radi. Xose Arkadio ochig‘ini ayta qoldi:

– Kuchukning tezagiga!

Otasi uni shunday qattiq urdiki, Xose Arkadioning koʻzlari jiqqa yoshga toʻlib, ogʻzidan tirqirab qon oqa boshladi. Oʻsha kechasi Pilar Ternera qorongʻida paypaslanib, dori va paxta topdi-da, Xose Arkadioning lablariga avaylab malham bosdi. Shu asnoda ikkovi shu qadar yaqin boʻlib qoldilarki, hatto sekin gaplasha boshladilar.

– Faqat ikkimiz boʻlsaydik, – deb pichirladi oʻspirin. – Yaqinda men hammasini oshkor qilaman-u, odamlarga oʻxshab emin-erkin yashaymiz.

Pilar Ternera uning ra'yini qaytarishga urinmadi.

– Yaxshi boʻlardi-ya, – dedi u. – Qaniydi, ikkovimiz boʻlsaydik, bemalol chiroq yoqib qoʻyardik, senga koʻnglimda borini baralla aytardim, hech kim mushugimizni pisht demasdi. Oʻshanda qichiq gaplarniyam mening qulogʻimga shivirlab aytaversang boʻlardi.

Ana shu suhbat, otasiga nisbatan ayovsiz gʻazabi, qolaversa, «Baribir jazmanlik koʻyidan kechmayman», degan oʻy Xose Arkadioga botirlik baxsh etdi. U ukasiga sarguzashtlarining barini oqizmay-tomizmay aytib berdi.

Dastlab kichik Aureliano, ahvoli yomon ekan, deb choʻchidi – u hali Xose Arkadioni domiga tortayotgan ohanrabo neligini tushunmasdi. Ammo bora-bora Xose Arkadioning hayajoni unga ham yuqdi. U akasidan bor ikir-chikirlarni hijjalab, qayta-qayta soʻrar, keyin oʻzi ham uning azobi-yu rohatiga pinhona sherik boʻlar, koʻnglida bir surur va ayni zamonda hadik sezardi. Endi u goʻyo choʻgʻ ustida yotgandek toʻshagida toʻlgʻanib, tonggacha mijja qoqmay, akasining qaytishini kutar edi. Keyin aka-uka anchagacha sirlashib

yotishardi. Bedorlik ularni shunchalar karaxt qilib qo‘ydiki, ikkisi ham la’nati kimyodan, otalarining olimona ishlaridan ijirg‘anadigan bo‘lib qoldilar. «Bolalarimiz telbalardek sanqishadi, – derdi Ursula. – Nima balo, ichlarida gijja bormikin?» Ursula ularga piako[1] tolqonidan rangi xunuk bir dori tayyorlab berganida, aka-uka miq etmay simirishdi. Aureliano endi akasining hayajonlanishi sababini anglabgina qolmasdan, balki uning tashvishlarini o‘zinikiday qabul qilardi. Bir kuni akasi sevgi kechinmasini batafsil tasvirlayotganida, uning gapini bo‘lib:

– O‘shanda nimani his qilasan? – deb so‘rab qoldi.

Xose Arkadio o‘ylab o‘tirmasdan:

– Bu zilzilaga o‘xshaydi, – deb javob berdi.

Yanvar oyining chorshanbalaridan birida, tungi soat ikkida Amaranta tug‘ildi. Xona odamlardan bo‘shagach, Ursula chaqaloqni obdan tekshirib ko‘rdi. Qizaloq juda yengil, serharakat bo‘lib, badani, qo‘l-u oyog‘i, yuz-u ko‘zi ham soppa-sog‘, rosmana edi. Aureliano singilli bo‘lganini uylariga odamlar to‘planganda bildi. U shovqin-surondan foydalanib, Xose Arkadioni qidirishga tushdi – akasining o‘rni kechki o‘n birdan buyon bo‘sh edi; u beixtiyor Pilar Terneraning uyiga qarab borar, lekin akasini u yerdan qanday chaqirib olishini o‘ylab ham ko‘rmagan edi. U Xose Arkadio bilan shartlashilgan ohangda hushtak chalib, Pilar Terneraning uyi atrofida ancha aylanib yurdi-da, axiri tong bo‘zarganda ortiga qaytishga majbur bo‘ldi. Kelib qarasa, akasi ota-onasining

[1] Piako – tropik dorivor o‘simlik.

xonasida, musichaday beozorgina bo‘lib, yangi tug‘ilgan singilchasini ovutib o‘tiribdi.

Chaqaloqning chillasi chiqar-chiqmas yana o‘sha muz parchasini olib kelishgan nayrang-boz-u masxaraboz lo‘lilar paydo bo‘lishdi. Tez orada ma’lum bo‘ldiki, ular Melkiades to‘dasi kabi taraqqiyot jarchilari emas, balki anchayin yengil-yelpi tomosha ortidan kun ko‘radigan oddiy odamlar ekan. Ular, hattoki o‘zlari olib kelgan muz parchasini ham turmushda asqatadigan buyum emas, balki sirkdagi attraksion sifatida namoyish qilishdi. Bu gal lo‘lilar keltirgan ajoyibotlar orasida uchar gilam ham bor edi. Lekin ular uchar gilamni uzoqni yaqin qiluvchi vosita emas, balki shunchaki bir ermak deb hisoblar edilar. Qishloq ahli uchar gilamga o‘tirib tomlar osha uchish uchun so‘nggi tilla tangalarni ham ayamasdi. Xose Arkadio bilan Pilar Terneraga to‘polon rosa qo‘l keldi, endi ular hech bir hadiksiz kayf-u safo surishardi. Ular o‘zlarini baxtiyor kelin-kuyovday his qilishar, hattoki muhabbat degani ular bilgan, o‘sha bedor tunlar bag‘ridan yulib olingan o‘g‘rincha tuyg‘uga nisbatan chuqurroq va sokinroq ekanini anglaganday bo‘lishdi. Ammo Pilar bu tarovatga putur yetkazdi. U Xose Arkadioning hayajoniga laqqa ishonib, bechora yigitning boshiga naq so‘yil tushirganday bo‘ldi. «Mana, endi sen haqiqiy erkaksan», – dedi u. Lekin Xose Arkadio hech baloni anglamagach, ayol hijjalab tushuntirdi:

– Senga o‘g‘il tug‘ib beraman.

Xose Arkadio anchagacha uydan chiqishga botinolmay yurdi. Oshxonada Pilarning kulgisi

eshitilsa bas, shartta laboratoriyaga berkinardi. Bechora otasi: «O‘g‘limga aql kiribdi-da», – deb quvonib, unga yangi tajribasi – hikmat toshini qidirish sirlarini o‘rgatardi.

Bir kuni kechqurun izvoshchi lo‘li-yu, qo‘llarini silkitayotgan bir necha qishloq bolalari tushgan uchar gilam laboratoriya derazasi yonidan suzib o‘tayotganida, aka-uka cheksiz hayajonga tushdilar. Xose Arkadio Buendia esa, hatto derazaga qayrilib ham qaramadi. «Mayliga, o‘zlaricha ovunaverishsin, – dedi u. – Bunday ro‘dapo namatda uchishning nima keragi bor, biz fan yordamida parvoz qilamiz». Garchi qiziqqanday bo‘lib ko‘rinsa-da, Xose Arkadio hikmat toshi nima-yu u nelarga qodirligini aslo anglagani yo‘q, nazarida hikmat toshi degani pala-partish yasalgan shishaday bir gap edi. Laboratoriyadagi ishlar yuragini qoplagan g‘ashlikdan xalos etolmadi. Otasi omadi kelmaganda qay ko‘yga tushsa, Xose Arkadio ham shu ahvolga tushdi – na ishtahada va na uyqusida ma’no bor edi. O‘g‘lining bu qadar g‘amnokligini ko‘rgan Xose Arkadio Buendia: «Bola bechora kimyoga mukkasidan ketibdi, bu ketishda uzilib qolishi ham mumkin», – degan o‘yga borib, uni laboratoriyadagi ishlardan ozod qildi.

Aureliano esa akasining dardi nimaligini anglasa ham, lekin Xose Arkadioning o‘ziga bu xususda lom-mim demadi. Akasi avvalgiday dilkash emasdi, qandaydir odamovi, kekchi bo‘lib qolgandi. Nihoyat u, qorong‘i bir tunda yolg‘izlikdan bezor bo‘ldi chog‘i, to‘shagini tashlab, Pilar Terneraning uyiga bormay, lo‘lilarning chodirlari yonida to‘planishgan bekorchilar galasiga qo‘shildi. Turli antiqa tomoshalarni ko‘rdi-yu, lekin bahri dili ochilavermadi. Nogahon son-sanoqsiz

munchoq shodalaridan qaddi sal bukchaygan yoshgina lo‘li qizaloqqa e’tibor berdi. Xose Arkadio umrida bunchalik chiroyli qizni hali uchratmagandi. Qizaloq ilonga aylangan oqpadarni tomosha qilayotgan olomon ichida turib, ushbu qayg‘uli manzaraga boqardi.

Xose Arkadio haligi badbaxtga qaramadi ham, tomoshabinlar ilon odamning g‘ussali qissasini tinglayotgan mahal, u urilib-surilib birinchi qatorga chiqdi-da, lo‘li qizning yoniga kelib to‘xtadi. Keyin uning ortiga suykala boshladi. Qizaloq uni payqadi-yu, hayrat va qo‘rquvdan qaltirab, joyida qotib qoldi va nihoyat, ortiga o‘girilib, Xose Arkadioga kulib qaradi. Shu payt ikki lo‘li ilon odamni qafasga solib, chodirga olib ketdi-da, jarchi yangi tomoshadan ogoh etdi:

– Endi esa, xonimlar va janoblar, biz sizlarga mudhish raqamni – bir yuz-u ellik yildirki, ko‘rish lozim bo‘lmagan ishni ko‘rib qolgani uchun jazo tariqasida har kuni ayni soatda boshi tanidan judo etiladigan ayolni ko‘rsatamiz.

Xose Arkadio bilan qizaloq qatl tomoshasida qatnashmadilar. Ular allaqachon chodirga kirib, entikib o‘pishgancha, liboslardan xalos bo‘lardilar. Lo‘li qiz qat-qat korsajlari-yu[1], sarg‘aygan to‘r yubkalari, keraksiz korset[2] va shisha munchoqlarining yukidan ozod bo‘lgach, xivichga o‘xshab qoldi. Ammo oriq oyoqlari chillakday bu majmag‘il qizaloq kutilmaganda dadil va ehtirosli chiqib qoldi. Afsuski, Xose Arkadio o‘ziga erk berolmasdi, chunki chodirga lo‘lilar dam-badam

[1] Korsaj – xotin-qizlar ko‘ylagining yoqasidan beligacha bo‘lgan qismi.

[2] Korset – belni xipcha ko‘rsatish niyatida ichkaridan kiyiladigan keng belbog‘.

kirib, allaqanday yumushlarni bajarishar, hattoki karavot yoniga o‘tirib, bemalol soqqa tashlashardi. Chodir o‘rtasidagi ustunchaga osilgan chiroq hamma yoqni yoritib turardi. Qip-yalang‘och Xose Arkadio bir amallab ishini tugatib, ko‘rpada karaxt yotar, qizaloq esa uni qayta qo‘zg‘atishga urinardi. Shu asnoda chodirga semiz lo‘li ayol bilan musofir erkak kirib kelishdi va ikkovi ham shundoqqina karavot yonida yechina boshladilar. Ayol Xose Arkadioga qarab:

– Bo‘sh kelma, yigit! – deya xitob etdi.

Lo‘li qizaloq: «O‘z holimizga qo‘yinglar!» – deb jerkigach, haligi yangi juft shundoqqina yerga cho‘zilishdi. Ularning ehtirosi Xose Arkadioga ham yuqdi. Birinchi hamladan qizaloqning suyaklari domino donalariday shaqirlab, go‘yo har tarafga sochilib ketgudek bo‘ldi, badani jiqqa terga botdi, ko‘zlari yoshlandi. Yigit o‘z tanidan balchiq hidi kelayotganini payqadi. Lo‘li qizaloq chayir ekan – hamlaga bemalol dosh berdi. Xose Arkadio o‘zini jannat osmonida uchib ketayotgandek his qildi, uning to‘lib-toshgan yuragidan favvoradek otilayotgan hirs-u shavqining bayoni qizning qulog‘idan kirib, so‘ng uning og‘zidan lo‘licha so‘zlarga aylanib chiqardi. Bu voqea payshanba kuni sodir bo‘ldi. Shanbaga o‘tar kechasi esa Xose Arkadio boshiga qizil latta bog‘lab, lo‘lilar bilan birgalikda Makondodan chiqib ketdi.

O‘g‘lining g‘oyib bo‘lganidan xabar topgan Ursula butun qishloqni ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi. Lekin uning topgani – lo‘lilar chodir tikkan maydonchada qolgan eski-tuski uvada-yu, burqsigan gulxan qoldig‘i bo‘ldi, xolos. Shisha munchoq topish ilinjida uvadalarni titkilayotgan bir hamqish-

log‘i Ursulaga: «O‘g‘lingni kecha ko‘ruvdim, Xose Arkadio o‘sha masxarabozlarga qo‘shilib, qafasdagi ilon odam ortilgan aravachani surib ketdi», – deb aytdi. «O‘g‘limiz lo‘li bo‘ldi!» – deb qichqirdi u eriga, lekin Xose Arkadio Buendia to‘ng‘ichining darbadar ketganidan zarracha ham tashvish tortmadi.

– Lo‘lilar yomon xalqmas, – dedi u, avval yuz marotaba tuyilib, naq tolqonga aylangan ko‘kish moddani hovonchaga solib ezarkan. – Endi o‘g‘limizning suyagi qotib, erkak qatoriga kirar.

Ursula lo‘lilar qay tarafga ketganini aniqlab yo‘lga tushdi. Duch kelgan odamdan so‘rab-surishtirib, lo‘lilarni ta’qib etib, qishloqdan shunchalik yiroqlashib ketdiki, endi ortga qaytishning iloji yo‘q edi. Xose Arkadio Buendia eritmasini tappi ustiga isitgani qo‘yib, ichkarida yig‘layotgan kichkina Amarantadan xabar olgani kirganida, ya’ni kechqurun soat sakkizda, xotini yo‘qligini payqadi. U yaxshigina qurollangan hamqishloqlaridan darhol guruh tuzdi-da, Amarantani emizikli bir ayolga tutqazib, Ursulani qidirib, hali qadam yetmagan yerlarga ravona bo‘ldi. Aureliano ham u bilan birga edi. Tongda notanish tilda so‘zlovchi baliqchi hindularni uchratishdi. Hindular imo-ishoralar qilib, begona kimsa o‘tmaganini tushuntirishdi. Ursulani uch kun izlab topolmay, yana qishloqqa qaytdilar.

Xose Arkadio Buendia o‘zini qo‘yarga joy topolmasdi. Kichkina Amarantaning butun tashvishi otaning bo‘yniga tushdi: Xose Arkadio qizalog‘iga xuddi onasi kabi qarardi, cho‘miltirardi, bir kunda to‘rt mahal emizdirgani qo‘shni ayolnikiga olib borar, va hatto, kechqurunlari chaqaloqqa alla

aytib uxlatardi. Bir kun Pilar Ternera to Ursula qaytib kelguniga qadar ularning ro‘zg‘or ishini o‘z zimmasiga olishini aytib qoldi. Boshlariga tushgan kulfatlar oqibatida aqli ancha to‘lishgan Aureliano ostona hatlab kirgan Pilarni ko‘rdi-yu, hamma gapga tushundi. Akasining qochishi-yu, onasining badar ketganiga ham shu ayol aybdorligini anglab, uni qahr-u g‘azab to‘la nigohi bilan shunchalar sovuq qarshiladiki, u qaytib qorasini ko‘rsatmadi. Lekin sal o‘tmay, g‘am-alami susaydi. Xose Arkadio Buendia bilan kenja o‘g‘il yana temirchilik o‘chog‘ini o‘t oldirishib, bir necha oydan beri tappi ustida yotgan modda ustida tajribani boshlab yubordilar. Murg‘ak Amaranta simob hovuri to‘la xonadagi, tok novdasidan to‘qilgan savatchada yotib, otasi-yu akasining ishini qiziqib kuzatardi. Ursula g‘oyib bo‘lganidan bir oy o‘tgach, laboratoriyada g‘aroyib hodisalar ro‘y berdi. Javonda ko‘pdan beri bo‘shagan shisha idish to‘satdan shu qadar og‘irlashib qoldiki, hatto uni joyidan qo‘zg‘atisholmadi. Ish stoliga qo‘yilgan qozon ichidagi suv o‘t-olovsiz, o‘z-o‘zidan isiy boshladi-yu rosa yarim soatcha, to so‘nggi tomchisi bug‘lanib ketgunicha vaqirlab qaynadi. Xose Arkadio Buendia bilan o‘g‘li bu mo‘jizalardan zavqlanishar, ammo buning boisini tushunishmas, buni o‘zlaricha, yangi bir mohiyat darakchisi, deb izohlashardi. Bir kuni esa Amaranta yotgan savat Aurelianoni hayratga solib, o‘z-o‘zidan tepaga ko‘tarildi-da, havoda shunday tez aylana boshladiki, Aureliano hayrat-u hayajon ichra uni zo‘rg‘a ushlab qoldi. Bu hol Xose Arkadio Buendiani xiyla cho‘chitib qo‘ydi. U go‘dak yotgan savatchani avvalgi joyiga qo‘yib, xontax-

taning oyog‘iga bog‘lab tashladi. Savatchaning g‘alati «qilig‘i» ularni orzulari ushalishiga judayam oz qolganiga to‘la-to‘kis ishontirdi. O‘shanda ota o‘g‘liga qarab:

– Xudodan qo‘rqmasang ham, temirdan qo‘rq! – dedi.

Ursula besh oydan so‘ng qaytib keldi. U allanechuk yasharib qolgan va g‘oyatda xursand edi. Egnidagi libosi ham o‘zgacha – qishloqda rasm bo‘lmagan andazada edi. Xose Arkadio Buendia quvonchdan jinni bo‘lib qolayozdi. «Xayriyat-ey! Axiri, men o‘ylaganimday bo‘ldi!» – deb qichqirdi u. Bu haqiqat edi, chunki u laboratoriyaga qamalib, tajribalar o‘tkazayotganida, Xudodan na hikmat toshini, na uyidagi barcha qulflar-u oshiq-moshiqlarni tillaga aylantirish usulining kashf etilishini so‘ragan, balki uzzukun bir narsani – Ursulaning qaytib kelishini tilagan edi. Xotini esa uning quvonchini baham ko‘rmay, go‘yo bir soat oldin chiqib ketgan odamdek, erini shunchaki bir o‘pdi-da:

– Ko‘chaga chiqing, – dedi.

Uylari oldida to‘planib turgan olomonni ko‘rgan Xose Arkadio Buendia dastlab o‘zini yo‘qotib qo‘yayozdi. Ular lo‘lilar emas, Makondo ahli bilan bir xil tilda so‘zlashadigan, bir xil dardlardan shikoyat qiladigan oddiy erkag-u ayollar edi. Ularning yonida ustiga oziq-ovqat ortilgan xachirlar, jihoz va turli uy anjomlari, xullas, tirikchilik uchun kerakli buyumlar yuklangan ho‘kiz qo‘shilgan aravalar turardi.

Bu odamlar ikki kungina yo‘l yurib, vodiyning narigi chekkasidan kelishgandi. U yerlardagi sha-

harlarda pochta har oyda kelarkan, hatto og‘irni yengil qilgan mashinalar ham bor ekan. Ursula garchi lo‘lilarni quvib yetolmagan bo‘lsa-da, lekin buyuk ixtirolar izidan yugurib topolmagan o‘zga diyorlar bilan aloqa yo‘lini topgan edi.

Pilar Terneraning o‘g‘li dunyoga kelganidan ikki hafta o‘tgach, chaqaloqni bobo-buvisining uyiga olib kelishdi. Eri: «Buendialar avlodi xor-u zor bo‘lmasligi kerak», – deb turib olgach, noiloj Ursula chaqaloqni olib qoldi. Lekin u: «Bola o‘zining tug‘ilishi tarixini hech vaqt bilmasligi kerak», – deb shart qo‘ydi. Chaqaloqqa Xose Arkadio deb ism qo‘yishdi, lekin otasi bilan adashtirmaslik uchun, bora-bora uni shunchaki Arkadio deb chaqira boshlashdi. Bu vaqtda Makondo ahli tijoratga berilgan, Buendialarning ham yugur-yugurdan qo‘li bo‘shamas, ular hatto, bolalarga qarashga ham vaqt topisholmasdi. Shu bois, bolalarni Visitasyon ismli hindu ayolga berishdi. Ayol guaxiro urug‘iga mansub bo‘lib, Makondoga akasi bilan birgalikda, necha yildirki yurtlarida hukm surayotgan mudhish va yuqumli balo – uyqusizlik kasalidan qochib kelgan edi. Aka-singil hindular juda xushfe’l, juda ishchan odamlar edi. Ursula ularni ishga yollagach, Arkadio bilan Amarantaning tillari ispanchada emas, guaxiro tilida burro bo‘ldi, hatto kaltakesak go‘shti va o‘rgimchak tuxumlaridan tayyorlangan sho‘rva ichishni ham o‘rganishdi. Ursula buni sezmadi, ayni kunlarda u qandolatchilik bilan mashg‘ul edi. Makondo mutlaq o‘zgarib ketdi. Ursula boshlab kelgan odamlar bu qishloqning jug‘rofiy o‘rniyu yerlarining unumdorligini olamga yoydilarki, kosibchilik, do‘konchilik avj olib, tez orada qish-

loq gavjum shaharchaga aylandi; hatto bu yerda oyoqlariga shippak ilgan, quloqlariga isirg‘a taqqan arablar ham paydo bo‘lib, shisha munchoqlarni to‘tiqushlarga ayirbosh qila boshlashdi. Xose Arkadio Buendia bosh qashishga ham fursat topolmasdi. U laboratoriyadagi ishlarni ham unutib, qishloqni obod qilish ishlari bilan shug‘ullandi. Yangi ko‘chib kelganlar uni hurmat qilishardi. Uyga joy tanlash ham, devor tiklash ham, xullas, jami yumush uning maslahatisiz boshlanmasdi. Hatto marza urish ham Xose Arkadio Buendiaga topshirildi. O‘z ko‘chma rastalarini endilikda qimorxonaga aylantirgan masxaraboz lo‘lilar qaytib kelganlarida, dastlab shod-u xurram qarshi olishdi, chunki ular bilan Xose Arkadio ham qaytadi, deb umid qilishardi. Lekin Xose Arkadio ular orasida ko‘rinmadi. Ursulaning nazarida to‘ng‘ichini biladigan va uni qaydan izlashni ayta oladigan ilon odam ham yo‘q edi. Shu bois, lo‘lilarga Makondoda qolishga ijozat berishmadi. Hatto ularni: «Bu yerga boshqa qadam bosmaysizlar», – deb ogohlantirishdi ham; endi makondoliklar lo‘lilarga tamagirlig-u buzuqlikning manbayi sifatida qarashardi. Lekin Xose Arkadio Buendia: «Mabodo, qishlog‘imizga ming yillik to‘plangan bilim-u tajribasini ulashish, ajoyib ixtirolarini ko‘rsatish niyatida kelib, Makondoning ravnaqiga hissa qo‘shgan donishmand Melkiades va uning izdoshlari qaytsa – ularni quchoq ochib kutib olamiz», – dedi. Ammo turli darvish-u daydilarning gapiga qaraganda, Melkiades jamoasi odamzod bilishi taqiqlangan hikmatga daxl qilgani uchun yer yuzidan batamom yo‘qotilib yuborilgan emish.

Otasi shaharni tartibga keltirayotgan, onasi esa mitti baliqchalar-u xo‘rozqandlarni daraxt novdasiga tizib, uylaridan har kuni uch mahal sotuvga chiqarib, oila iqtisodini mustahkamlashga hissa qo‘shayotgan bir paytda, Aureliano tashlandiq laboratoriyada o‘tirib, zargarlik hunarini astoydil o‘rganardi. Uning bo‘yi cho‘zilib, akasidan qolgan kiyimlar ham kaltalik qilar, endilikda otasining liboslarini kiya boshlagandi. Visitasyon Aurelianoga otasining ko‘ylagi-yu shimlarini salpal toraytirib berardi, chunki u hali norg‘ullikda otasi va akasiga yetolmagan edi.

Aureliano o‘smirlik yoshiga yetganida ovozi yo‘g‘onlashib, kamgap bo‘lib qoldi. U zargarlikka shunchalar berilgan ediki, laboratoriyadan faqat ovqatlangani chiqardi, xolos. O‘g‘lining odamovi bo‘lib qolganidan sarosimaga tushgan Xose Arkadio Buendia unga ko‘cha eshikning kalitini topshirib: «O‘g‘lim ayolni tusab qolibdi», – degan o‘yga borib, pul ham qoldirdi. Aureliano unga chilla suviga ishlatish uchun xlorat kislotasi xarid qilib, kalitning ustini esa oltin bilan qopladi. Lekin uning anoyiligi Arkadio va Amarantaning qiliqlari oldida hech gap emasdi – sut tishlari tusha boshlasa-da, aka-singil kichkintoylar hindularning etagidan tutib, kun bo‘yi ortidan ergashib yurishar, hanuzgacha ispancha so‘zlashdan bosh tortishib, nuqul guaxiro tilida gaplashardilar. «Ularda ne ayb, – derdi Ursula eriga. – Ota-onasi telba-teskari bo‘lgandan keyin, bolalarga ham yuqadi-da». Ursula, qilig‘i yomon farzand nima-yu, cho‘chqa dumli maxluq nima, farqi kam-ku, deb o‘yladi chog‘i, toleyidan shi-

koyat boshlayman, deb turganida Aureliano unga qattiq tikilib, dabdurustdan dovdiratib qo‘ydi.

– Biznikiga birov kelyapti, – dedi u.

Ursula, o‘g‘li har gal karomat qila boshlaganida qo‘llaydigan usulini tutib, uni o‘zining jo‘n so‘zi bilan gangitishga urindi. «Birov kelsa, nima bo‘pti, buning hech bir ajablanadigan joyi yo‘q. Makondodan Xudoning bergan kuni o‘nlab musofirlar o‘tadi, ular hech qanday karomatga muhtoj emas». Aureliano ham o‘z aytganidan qolmadi.

– Kimligini bilmayman, ammo o‘sha odam allaqachon yo‘lga tushgan, – dedi u.

Haqiqatan ham, bozor kuni Rebeka paydo bo‘ldi. Uning yoshi o‘n birlarda edi. Qizaloq terifurushlar bilan keldi. Qo‘lida uni, albatta, Xose Arkadio Buendia xonadoniga topshirish tayinlangan maktub ham bor edi. Lekin na terifurushlar va na qizaloq maktubni kim yozganini aytib beroldi. Ular Manauredan Makondogacha og‘ir yo‘lni bosib kelishgan edi. Yangi mehmonning bor bisoti kiyim-bosh solingan sandiqcha, mo‘jazgina yog‘och tebranma kursi va ichida nimalardir shaqir-shuqur qiladigan kanop qopdan iborat edi. Qopni ochishganda, ota-onasining suyaklari chiqdi. Xose Arkadio Buendiaga yuborilgan maktub vaqt-u masofaga qaramay, uni hanuz cheksiz sevadigan noma’lum kimsa tomonidan iliq so‘zlar bilan bitilgan edi. U o‘zining oddiy insoniylik burchini o‘tayotganini, aniqrog‘i, Ursulaning xolavachchasi ham Xose Arkadio Buendianing qarindoshi bo‘lmish mushtipar yetimcha bir qizni (ota-onasi Nikanor Uloa va Rebeka Montel ancha burun olamdan o‘tishgan, uning padari maktub muallifining yaqin do‘sti bo‘larkan) yuborayot-

ganini aytgan edi. Noma'lum kishi qizaloq bilan ota-onasining suyaklarini ham birga jo'natayotganini ta'kidlab, bu suyaklarni nasroniylar udumiga binoan ko'mishni iltimos qilgandi. Maktubdagi ism ham, oxiriga chekilgan imzo ham aniq, tushunarli bo'lsa-da, na Xose Arkadio Buendia, na Ursula uzoq Manaure qishlog'ida istiqomat qiluvchi bunday qarindoshlari yoki tanishlari borligini eslay olishdi. Qizaloqdan qo'shimcha ma'lumotlar olishning mutlaqo iloji bo'lmadi. U uyga kira solib, tebranma kursiga o'tirdi-da, savollarga parvo ham qilmay, atrofidagilarga qo'rqa-pisa tikilgancha, barmog'ini so'ra boshladi. Uning egnida eski qora ko'ylak bo'lib, oyog'iga chirikkina poyabzal kiygandi. Qulog'i ortidagi ikki taram sochi qora tasma bilan bog'langan, bo'yniga sirtidagi tasviri terdan xira tortib qolgan tumor, o'ng bilagiga ko'zmunchoq va allaqanday vahshiy hayvonning mis zanjiriga o'tkazilgan qoziq tishi taqilgandi. Yashil tusga kira boshlagan terisi, nog'oraday shishgan qorni qizaloqning sog'lig'i yomonligidan, mudom och yurganligidan darak berardi. Shunga qaramay, ovqat keltirishib, likopchani tizzasiga qo'yganlarida ham u qimir etmadi. Dastlab, uni soqov, deb o'ylashdi, ammo shu payt hindular qizaloqdan o'z tillarida, ovqat yeyishni xohlaysanmi, deb so'raganlarida, go'yoki ularni tan olganday ko'zlarini ochib-yumdi-da, rozilik ma'nosida bosh irg'adi.

Qizaloqni olib qolishdi, baribir boshqa ilojlari ham yo'q edi. Garchand qizaloq Aureliano xatni baland ovozda o'qib, ota-onasining ismini zikr etganida qilt etmay o'tirsa-da, unga maktubda yozilganidek (agar rost bo'lsa) onasining nomi-

ni qo‘yishdi, ya’ni Rebeka, deb atay boshladilar. O‘sha vaqtlar Makondoda qabriston yo‘qligi sababli (bu yerda hali hech kim o‘lmagan edi) suyaklarni ko‘mishga biron bir mos joy topilguncha qopni berkitib qo‘yishdi, ammo bu qop xuddi kurk tovuqning qaqillashiga o‘xshash tovush chiqarib, kutilmagan joylardan chiqib qolardi. Rebeka oila sharoitiga ko‘nikkuncha ancha fursat o‘tdi. Dastlab u kursisini biron bir burchakka qo‘yib, barmoq so‘rishdan nariga o‘tmadi. Qizaloq hech narsaga qiziqmas, faqatgina har o‘ttiz daqiqada soat zang chalganda, go‘yo bu ovozini ko‘rmoqchi bo‘lganday atrofga olazarak nazar tashlardi. Rebekaga ovqat yedirish ham koni azob edi. To hindu aka-singil qizaloqning devordan kesak sindirib yeyishini bilib qolishmagunicha hammalari nega qizaloq ochlikdan o‘lmayapti, deb hayron bo‘lishardi. Ota-onasi yoki uydagi tarbiyachilar qizaloqni jazolashganda Rebeka ayb ish qilayotganini sezar, kesakni yashirincha yer, hattoki hech kim yo‘qligida to‘yib-to‘yib ovqatlanish uchun g‘amlab ham qo‘yardi. Rebekaning ustidan qattiq nazorat o‘rnatishdi. Hovliga sigir safrosi sepib, uy devorlariga achchiq hindu qalampiri surishdi. Lekin qizaloq sevgan «taom»ini baribir topardi. Axiri Ursula ta’sirchanroq vositalarni qo‘llay boshladi. U apelsin sharbati bilan ravon suvini aralashtirib, idishni tun bo‘yi tashqarida qoldirdi, so‘ng bu dorini ertalab nahordan oldin Rebekaga ichirdi. Bunaqangi dorini qo‘llash lozimligini Ursulaga hech kim maslahat bermagandi, lekin u o‘zicha, bo‘sh oshqozonga tushadigan har bir taxir ichimlik jigarda sanchiq uyg‘otadi, deb taxmin qildi. Zaif Rebeka juda

urishqoq ekan – tepindi, tirnadi, tishladi, xullas, dorini ichmaslik payida guaxiro tilida erkakcha so‘zlar bilan so‘kindi. Ursula doriga darrani ham qo‘shib, davolay boshladi. Omixta muolaja natijasi yomon bo‘lmadi: bir necha haftadan so‘ng Rebeka tuzala boshladi: Arkadio va Amaranta bilan o‘ynar, ishtaha bilan ovqat yer, hattoki pichoq va sanchqi tutishni ham bilar edi. Keyinchalik esa uning ispan tilida ham ravon so‘zlashi, nihoyatda chevarligi, o‘zi to‘qigan nafis so‘zlarni soat kuyiga hamohang aytishi ma’lum bo‘ldi. Tez orada u oilaning yangi bir a’zosiga aylandi. Ursulani haddan ziyod izzat qilar, Amarantani singilcha, Arekadioni ukacha, Aurlianoni amaki, Xose Arkadio Buendiani esa bobo, deb atardi. Shu tariqa Rebeka ham Buendia ism-sharifini oldi va bu nomga umr bo‘yi dog‘ tushirmadi.

Rebeka kesak yeyish dardidan qutulgach, uni Amaranta va Arkadio uxlaydigan xonaga o‘tkazishdi. Bir kuni bolalar bilan birga tunovchi hindu ayol nogahon uyg‘onib, burchakdan kelayotgan g‘alati tovushni eshitib qoldi. Xonaga biron bir jonivor kirib qolganmikan, degan o‘yda joyidan irg‘ib turdi-yu, tebranma kursida o‘tirib, barmog‘ini so‘rayotgan Rebekani ko‘rdi. Qizaloqning ko‘zlari qorong‘ida xuddi mushuknikidek yonardi. Qo‘rquvdan qotib qolgan Visitasyon qizaloqning ko‘zlarida ular akasi ikkovi taxt vorislari hisoblanishgan qadimiy podshohlikni tashlab chiqishga majbur qilgan o‘sha mudhish kasallik belgilarini topdi: uyda uyqusizlik kasali hukm sura boshladi.

Ayolning akasi Kataure Makondodan tongni kutmasdanoq chiqib ketdi. Visitasyon shu yerda

qoldi – u endi taqdirga tan bergan, bedavo kasallikdan qochib qutulolmasligini anglagan edi: Visitasyonning tashvishini hech kim tushunmadi. «Uxlamaymizmi? Nima bo‘pti, qaytaga yaxshi-da, – derdi mamnuniyat bilan Xose Arkadio Buendia. – Hayotdan ko‘proq narsa undirish mumkin». Ammo Visitasyon unga bu xastalikning azobi uyqusizlikkina emas, aksincha, bedorlikdan odamning badani charchoq sezmasligi, bu kasallikning mudhish illati – ikkinchi bosqichi, ya’ni unutuvchanlik ham borligini tushuntirdi. Uyqusizlikka giriftor bemor dastlab bolalikdagi voqealarni, keyin narsalarning nomi-yu ularning nima maqsadda qo‘llanishini esidan chiqaradi, so‘ngra u odamlarni ham tanimay qoladi va hattoki, o‘z-o‘zini ham anglolmaydi va o‘tmishni unutgan bunday kimsa telbanamo bir ahvolga tushadi. Xose Arkadio Buendia kula-kula, bu irimchi hindular to‘qigan latifalarning biri bo‘lsa kerak, degan xulosaga keldi. Lekin ziyrak Ursula har ehtimolga qarshi Rebekani bolalardan ajratib qo‘ydi.

Oradan ancha o‘tib, Visitasyonning vahimasi bosti-bosti bo‘layotgan bir paytda, Xose Arkadio Buendia yarim kechasi nogahon ko‘rpada u yondan bu yonga ag‘darilarkan, uyqusi qochdi. Ursula ham mijja qoqmay yotardi, u eridan nega uxlamayotganini so‘raganida, eri: «Men yana Prudensio Agilyar haqida o‘ylayapman», – deb javob qaytardi. Ular kechani bedor o‘tkazishdi, lekin ertalab o‘zlarini nihoyatda tetik sezishdi, shu sababli mi, tezda bema’ni tunni yodlaridan chiqarishdi.

Aureliano tun bo‘yi uxlamay Ursulaning tug‘ilgan kuniga atalgan to‘g‘nag‘ichni tilla suvi qoplash

bilan laboratoriyada o‘tirib chiqqan bo‘lsa-da, tushlik paytida o‘zini yaxshi his qilayotganini ajablana-ajablana so‘zlab berdi. Biroq oradan ikki kun o‘tgach, odatda Buendialar uxlaydigan vaqt yetgach, ulardan hech biri uxlay olishmasa-da, hech kim bu g‘alati holga e’tibor bermadi, hatto qariyb ellik soatdan beri ko‘z yummaganlari birortasining xayoliga ham kelmadi.

– Bolalar ham bedor. Bu baloyi ofat uyga kirgan ekan, undan hech kim qutulolmaydi, – dedi irimchi hindu xotin.

Oila butkul uyqusizlik kasaliga yo‘liqdi. Onasidan giyohlarning shifobaxsh xususiyatlarini o‘rgangan Ursula ulardan turli dorilar tayyorlab, uyidagilarga ichirsa-da, baribir hech kim uxlay olmas, kunduzlari o‘nglarida tush ko‘rib chiqishar edi. Ular yurish-turishidan bexabar kimsalarday o‘z xayollari qolib, hattoki boshqalarning xayolida aylanib yurgan sharpalarni ham yaqqol ko‘rishardi. Go‘yo uy mehmonlar bilan to‘ladek edi. Yemakxona burchagidagi tebranma kursisida o‘tirgan Rebeka xayol surar, ko‘z oldida paydo bo‘lgan va unga bir tomchi suvdek o‘xshab ketadigan, oq matodan ko‘ylak, yoqasiga tilla to‘g‘nag‘ich taqqan odam unga atirgul tutardi. Uning yonidagi qo‘llari mayin ayol gullardan birini olib, Rebekaning sochiga qistirardi. Rebekaning xayolidan bexabar Ursula bu ikkovi uning ota-onasiligini tushundi, lekin qancha urinmasin, ularni taniy olmadi va ilgarilari ham hech qayerda uchratmaganini tuydi. Ana shu paytda, uyda tayyorlanayotgan novvot, xo‘rozqandlarni bozorga olib ketishdi – Xose Arkadio buni bilmay qoldi va bu beparvolik uchun o‘zini o‘zi so‘kib yurdi. Bolalar-u kat-

talar g‘aroyib yashil xo‘rozqandlarni, nimpushti baliqchalar-u sariq otchalarni huzur qilib so‘ra-so‘ra o‘zlariga uyqusizlik kasalini yuqtirishdi va nihoyat, dushanba kuni saharmardongacha shahardagi birorta odam ham uxlay olmadi. Oldiniga bundan hech kim tashvishlanmadi. Qaytaga ko‘pchilik quvondi, chunki o‘shanda Makondoda olib borilayotgan ishlar juda ko‘p edi, vaqt esa yetishmasdi. Odamlarning shijoati bois hamma yumushlarni juda qisqa fursatda uddalashdi va so‘ngra tonggi soat uchlarda ishsiz zerikib, soatdan taralayotgan ohanglardagi zarb-u sadolarni hisoblay boshlashdi. Charchoqdan emas, balki tush ko‘rishni qo‘msab uxlashni istovchilar o‘zlarini holdan toydirish niyatida antiqa narsalarni o‘ylab topishardi. Ular bir joyda to‘planishib, betinim gap sotishar, biror-bir latifani o‘n-yigirma martalab qaytarishar, paxta oq xo‘roz haqidagi ertakni o‘zgartirib, har xil shakllarda aytishardi. Aniqrog‘i, shu ertak asosida g‘aroyib o‘yin ixtiro qilishgandi. Bu – makondoliklarning cheki yo‘q o‘yinlaridan biri edi. Davraboshi odamlardan: «Axta oq xo‘roz haqidagi ertakni eshitishni istaysizmi?» – deb so‘rar, ular «ha» deb javob berishsa, u: «Men «ha» deyishni emas, balki axta oq xo‘roz haqida ertak aytayinmi-yo‘qmi, deb so‘rayapman», – derdi, agar unga «yo‘q» deb javob qaytarishsa, u yana: «Men «yo‘q»ni emas, balki axta oq xo‘roz haqidagi ertakni eshitasizlarmi-yo‘qmi, deb so‘rayapman», – derdi. To‘dadan hech kim chiqib ketolmasdi, chunki davra boshi uni to‘xtatib, axta oq xo‘roz haqida ertak aytaymi-yo‘qmi, deya so‘roqqa tutardi. Shu tariqa bu hol har kecha betinim takrorlanar edi.

Yuqumli uyqusizlik kasali butun shaharga tarqalganini anglagan Xose Arkadio Buendia taraddudlanib qoldi, atrofdagi shahar-u qishloqlardagi odamlarga ham yuqmasin, degan niyatda fikrli kishilar, oila boshliqlari bilan maslahatlashib, o‘zlaricha chora-tadbir topishdi. Qay zamonlar arablardan to‘tiqushlarga almashtirilgan, echki shoxlariga osib qo‘yilgan qo‘ng‘iroqchalarni yechishib, Makondoga kiraverishga ilib qo‘yishdi: qorovullarning baqirib-chaqirishiga, shaharga kirgan odamlarning qo‘liga ana shu qo‘ng‘iroqchalarni tutqazishardi. Ular Makondo ko‘chalari bo‘ylab yurisharkan, yo‘l-yo‘lakay bu qo‘ng‘iroqchalarni chalishar, bu bilan bemorlarni sog‘lom odam kelayotganidan xabardor qilishar edi. Musofirlar bu baxtsiz shaharda na ovqat yeyishlari, na suv ichishlari mumkin, negaki suv va oziq-ovqat ham uyqusizlik og‘usi bilan zaharlangandi. Bunday chora-tadbirlar, harqalay, kasallikning shahardan tashqariga chiqishiga yo‘l qo‘ymasdi. Bora-bora taqiqlarga ko‘nikkan odamlar nihoyat bu favqulodda voqeani esdan chiqarishdi: hayot yana izga tushdi, ishlar yana ilgarigiday borar va hech kim bu befoyda narsani – uyquni yuqotganidan tashvishga tushmas edi.

Aureliano topgan tadbir xotiraning zaiflanishini biroz to‘xtatib, eslab qolish quvvatini tiklashga yordam berdi. U bu tadbirni tasodifan o‘ylab topdi. Uyqusizlik azobini tortaverib, pishib ketgan Aureliano (u bu dardning ilk qurbonlaridan edi) anchadan beri zargarlik qilardi. Bir kuni temirni yassilash uchun sandoncha zarur bo‘lib qoldi va u bu uskunaning nima deb nomlanishini eslolmadi. Otasi: «Sandon deyiladi» – deya eslatdi. Au-

reliano shu so‘zni qog‘ozga yozib, uni sandonga yopishtirib qo‘ydi. Endi u bu so‘zni hech qachon yodidan chiqarmasligiga ishonardi. Bu xotira tiklanishining ilk belgisi ekanini u xayoligayam keltirmagandi. Bir necha kundan so‘ng u laboratoriyadagi barcha narsalarning nomini nihoyatda mashaqqat bilan eslaydigan bo‘ldi. Shundan keyin buyumlarning har biriga tegishli lavhacha yozib, yopishtirib chiqdi, ularni o‘qigan zahoti bu uskuna nima maqsadda ishlatilishini bilib olardi. Otasi xotirasi zaiflashayotganidan, bolaligidagi eng hayajonli xotiralarni ham esidan chiqarayotganligidan shikoyat qilganida, Aureliano unga o‘z uslubini oshkor qildi. Xose Arkadio Buendia bu tadbirni ma’qullab, avvalo uni o‘z oilasiga, so‘ngra butun shaharga joriy etdi. U soqol cho‘tkachani siyohga botirib, uyidagi har bir buyumga tegishli yozuvlar bitdi, ya’ni «xontaxta», «kursi», «eshik», «devor», «karavot», «qozon» deya yozib chiqdi. Qo‘tonga borib, u yerdagi hayvonlar-u parrandalar va hattoki o‘simliklarga ham «sigir», «echki», «cho‘chqa», «tovuq», «manioka», «malanka», «banan» degan lavhachalarni ilib qo‘ydi. Xotira yo‘qolishining behisob turlarini oz-moz o‘rganib chiqqan odamlar, garchand buyumlarni yozuvlarga qarab topib olishsalar ham, baribir bir kuni bu buyumlardan nima maqsadda foydalanish kerakligini unutib qo‘yishlarini tushunishdi. Shundan so‘ng vaziyat murakkablashdi. «Bu – sigir, uni har kuni ertalab sog‘ib turish zarur, sutni qahva bilan aralashtirish uchun qaynatish kerak, ana shunda sutli qahva tayyorlash mumkin», deya sigir bo‘yniga osib qo‘yilgan yozuvga o‘xshash lavha-e’lonlar makondoliklarning

xotirani saqlab qolishga nechog‘lik uringanidan xabar beradi. Ular o‘zlaridan uzoqlashayotgan haqiqatni yozuvlar yordamida birmuncha muddatga bo‘lsa-da asrash maqsadida ana shu tariqa kun kechirishardi, ammo harflarning ma’nosi eslaridan chiqqach, bu haqiqatning batamom yo‘qolishi muqarrar edi.

Shaharga kirish yo‘lida «Makondo» degan yozuv paydo bo‘ldi, markaziy ko‘chaga esa yanada yirik harflar bilan «Xudo bor» deb yozib qo‘yishdi. Har bir xonadonda xotiradagi u yoki bu buyumlarni yoki tuyg‘ularni tiklashga xizmat qiluvchi turli shartli belgilar chizib tashlangandi. Ammo bu asablarni mudom tarang tutishni, sabr-bardoshli bo‘lishni taqozo qilardi, zotan, ko‘pchilik o‘z tasavvuridagi haqiqatga berilib ketgan, garchand buning unchalik nafi bo‘lmasa-da, baribir, ular shu bilan ovunishar edi. Ilgari qartalarga qarab kelajakni aytib beradigan, endilikda esa qartaga qarab o‘tmish xotiralarini yodga solishni o‘rganib olgan Pilar Ternera bu tovlamachilikning shaharda keng yoyilishiga katta hissa qo‘shdi. Uning hiyla-nayranglari tufayli makondoliklar qartalarning noaniq va bir-biriga zid taxminlari natijasida vujudga kelgan g‘aroyib olamga kirib qolishdi, bu olamda otangizni aprel oyida kelgan qorasoch erkak, onangizni esa chap qo‘liga tilla uzuk taqqan bug‘doymag‘iz ayol sifatida eslashar, tug‘ilgan kuningiz bo‘lsa, lavrada[1] to‘rg‘ay sayragan so‘nggi seshanba kuniga to‘g‘ri kelar edi. Bu mashmashalar joniga tekkan Xose Arkadio Buendia xotira mashinasi yasab, bu g‘aflat bandalarining ko‘zini ochib qo‘yishga ahd qildi;

[1] Lavra – katta ibodatxona.

bu mashina vositasida odamlar nafaqat xotirani tiklashadi, balki lo‘lilar ko‘rsatgan g‘aroyibotlarni ham eslashadi, deb o‘ylardi u. Xotira mashinasi hayotdan olingan barcha tushunchalar yig‘indisining har kuni takrorlab turish qonuniga asoslangan bo‘lishi kerak edi. Xose Arkadio Buendia bu uskunani charxiga joylashgan odam dastalar orqali boshqarib turadigan aylanma lug‘at sifatida tasavvur qilar, qisqa vaqt ichida hayotga taalluqli barcha ma’lumotlar haligi odamning ko‘z oldida gavdalanishi kerak edi. Ixtirochi o‘n to‘rt mingga yaqin lavhachani to‘ldirganida, vodiy yo‘lida uyqusizlikka mubtalolik belgisi – qo‘ng‘iroqcha osgan, qorni qappaygan g‘ayrioddiy bir chol paydo bo‘ldi: u jomadon yuklangan, qora latta bog‘langan g‘altak aravani itarib kelardi. U to‘ppa-to‘g‘ri Xose Arkadio Buendianing uyiga yo‘naldi.

Eshikni ochgan Visitasyon cholni tanimadi. Aniqrog‘i, uni xotirasizlik girdobiga cho‘kayotgan bu shaharda biror narsa sotishning iloji yo‘qligidan hali xabar topmagan biror-bir savdogar, deb xayol qildi. Munkillab qolgan bu odam, tovushi titroq, qo‘llari qaltiroq bir notavon bo‘l sa-da, uning odamlar uxlaydigan va xotiralarini yo‘qotmagan olamdan kelganligi ayon edi. Xose Arkadio Buendia cholning oldiga borganida, u mehmonxonada o‘tirib, eski qora shlyapasini siltagancha, devorga osilgan lavhalardagi yozuvlarni diqqat, va hatto, xayrixohlik bilan o‘qimoqda edi. Xose Arkadio Buendia bu odamni ilgari tanisam ham hozir esimdan chiqarib qo‘ymaganmikanman, deya gumonsirab, u bilan nihoyatda quyuq so‘rashdi. Ammo mehmon uning ahvolini darhol tushundi. Chol o‘zini bu yerdagilar shun-

chaki emas, balki batamom, ya'ni o'lgan kishilarni yoddan chiqargandek mutlaqo unutishganini sezdi. U allaqanday buyumlarga to'la jomadonini ochib, ichiga son-sanoqsiz shisha idishlar solingan kichkinagina jomadonchani oldi. So'ngra xonadon sohibiga yoqimli rangdagi suyuqlik to'la idish tutdi, suyuqlikni ichgach, uning xotirasi uyg'ondi. Xose Arkadio Buendianing ko'zlari – hali u o'zini buyumlar ustida yozuvlar bitilgan bu beso'naqay xonaga tushib qolganligini anglamay turib, hali devorlardagi bu bejama, tuturiqsiz so'zlarni uyatdan qizarib-bo'zarib o'qimay, va hatto, yorqin quvonchdan porlamay turib – g'ussali yoshga to'ldi va mehmonni tanidi. Bu Melkiades edi.

Makondo ahli xotira tiklanganini bayram qilayotgan paytda Xose Arkadio Buendia bilan Melkiades ko'rishishdi, eski do'stlik rishtalarini yana bog'lashdi. Lo'li shaharda muqim yashab qolishini bildirdi. U haqiqatan ham narigi dunyoga ketgan bo'lib, tanholikka bardosh berolmay, tag'in yorug' olamga qaytgandi. Jodugarligi uchun jabr tortgan va hamqavmlarining qahriga uchragan Melkiades hali ajal qadami yetmagan mana shu shahardan osuda bir maskan topib, shu yerda suratkashlik qilib, yashab yurishga ahd etdi. Xose Arkadio Buendia bunday ixtiro – suratkashlik to'g'risida hech eshitmagandi. Ammo u o'zining, oila a'zolarining qalay bo'lagiga bir umrga muhrlangan, turli ranglarda jilolanuvchi tasvirini ko'rib, hayratdan og'zi ochilib qoldi. Xose Arkadio Buendianing kulrang sochlari hurpaygan, yoqasi mis to'g'nag'ichli ohorlangan ko'ylakda bayramona ruhda tushgan, biroz es-

kirgan surati ham xuddi ana shu davrga mansub: Ursula suratni koʻrib, ichagi uzilib kularkan, erini «qoʻrqoq general»ga oʻxshatdi. Toʻgʻrisini aytganda, Melkiades bu rasmni ishlayotganida – dekabrning ochiq kunlaridan biri edi – Xose Arkadio Buendia haqiqatda ham qoʻrqqandi; u odamning aksi qalay boʻlagining yuzasiga oʻtsa, bora-bora tanasini kemirib qoʻyadi, deb oʻylab vasvasaga tushgan edi. Shunisi ajablanarliki, bu gal Ursula ilmga yon bosib, erining miyasidagi bemaʼni fikrni siqib chiqardi. Ayol ilm-fan tufayli roʻy bergan dilsiyohliklarni ham unutib, Melkiadesni oʻz xonadonida olib qolishga ahd qildi. Lekin oʻzi suratga tushishdan bosh tortdi: «Nevaralarimga kulgi boʻlishni istamayman», – dedi. Dekabrning oʻsha tongida Ursula bolalariga eng yaxshi kiyimlarini kiydirdi, ularning yuziga upa surtdi va Melkiadesning bejirim kamerasi oldida ikki daqiqa qimirlamay turishlari uchun har biriga bir qoshiqdan kalla shoʻrva ichirdi. Yakka-yu yagona hisoblangan ushbu oilaviy suratda Amaranta bilan Rebekaning oʻrtasidagi Aureliano qora kostyum kiyib olgan edi. U oradan talay yil oʻtgach, devor yonida oʻziga oʻq uzishlarini kutganidagidek horgʻin, ammo koʻzlari tiyrak holda tasvirlangan edi. Lekin yigitcha oʻshanda kelgusi qismatidan bexabar edi. U vohaga dongʻi ketgan qoʻligul zargar edi, xolos. Endilikda Melkiadesning ham mehmonxonasiga aylangan bu ustaxonada Aurelianoning bor-yoʻqligi deyarli bilinmasdi. Otasi bilan loʻli shishalar-u fotoplastinkalar yuviladigan idishlarning shaqirlashi, kislotalarning toʻkilishi va bu ur-yiqitda bromli kumushning isrof boʻlganiga ham eʼtibor bermay,

Nostradamusning karomati xususida baqirib-chaqirib bahslashib turganda, Aureliano o‘zini go‘yoki boshqa bir olamda yurganday sezar edi. U ishning ko‘zini bilish barobarida butun vujudi bilan kirishib ketardi, shu bois ham tez orada Ursulaning xo‘rozqandlarini sotishdan keladigan aqchalarga nisbatan ancha ko‘p pul topadigan bo‘ldi. Hammani bir narsa – nima sababdan balog‘atga yetgan bu erkakning haligacha ayollardan bahramand bo‘lmagani ajablantirardi. Darhaqiqat, Aureliano hali xotin zotining yaqiniga yo‘lamagan edi.

Oradan bir necha oy o‘tgach, Makondoda yana o‘sha keksa daydi – yoshi ikki yuzga yaqinlashib qolgan Fransisko Odam paydo bo‘ldi. U ilgarilari shaharga tez-tez tashrif buyurib, o‘zi to‘qigan qo‘shiqlarni olib kelardi. Bu qo‘shiqlarda vodiyning Manauragacha eltuvchi yo‘li bo‘yidagi shahar-u qishloqlarda sodir bo‘lgan barcha voqealar eng kichik tafsilotlarigacha hikoya qilinar, odamlar tanishlariga biron bir gap tayinlamoqchi yoki oilasidagi yangiliklarni bildirishni istashsa, Fransisko Odamga ikki sentavo to‘lashgani zahotiyoq, u ana shu xushxabarlarni, albatta, o‘z repertuariga kiritar edi. Bir kuni kechqurun qo‘shiqchidan o‘g‘li to‘g‘risida biror yangilik bilish umidida chiqqan Ursula nogahon undan o‘z onasining o‘lganini eshitdi. Qo‘shiq to‘qish bahsida shaytonni mag‘lubiyatga uchratgani uchun Fransisko Odam deb nom olgan bu kishining asl ismini hech kim bilmasdi, u Makondoda uyqusizlik kasali boshlanganida g‘oyib bo‘lgan va hozir yana Katarinoning uyiga kelgan edi. Odamlar uning qo‘shiqlarini tinglash, dunyo yangiliklarini bi-

lish maqsadida huzuriga oshiqardilar. Fransisko Odam semiz bir xotin bilan kelgan edi. Ayol o‘tirgan tebranma kursini to‘rt nafar hindu ko‘tarib olgan; yoshgina mulat qiz esa qo‘lidagi soyaboni bilan uni quyoshdan pana qilib borardi. Bu safar Aureliano ham Katarinonikiga yo‘l oldi. Bahaybat buqalamunga o‘xshaydigan Fransisko Odam bir guruh bekorchilar o‘rtasida o‘tirardi. U, aytishlaricha, Guayyanada ser Uolter Releyning[1] shaxsan o‘zi taqdim qilgan eski akkordeonni chalgancha, dengizning sho‘r suvidan yorilib ketgan katta tovonlari bilan kuy maqomiga monand depsina-depsina chollarga xos do‘rildoq tovushda qo‘shiq aytardi. To‘g‘risidagi eshik orqali erkaklar negadir galma-gal narigi xonaga kirib-chiqishar, eshik yonidagi kursida o‘tirgan semiz ayol esa lom-mim demasdan qo‘lidagi yelpig‘ichini silkitardi. Chekkasiga qog‘oz atirgul taqib olgan Katarino shakarqamish musallasidan ichardi. Yarim kechasi havo chidab bo‘lmas darajada isib ketdi. Aureliano hamma gaplarni oxirigacha tingladi, ammo oilasiga taalluqli bir qiziqarli ma’lumot ololmadi. Ketishga shaylanayotganida, ayol uni imlab yoniga chaqirdi.

– Sen ham kir, – dedi u. – Bu faqat yigirma sentavoga tushadi, xolos.

Aureliano ayolning tizzasidagi finjonga tanga tashlab, narigi xonada o‘zini nima kutayotganini xayoliga keltirmay, eshikni ochdi. Mulat qiz to‘shakda yalang‘och yotardi. Aurelianogacha uning oldiga oltmish uch nafar erkak kirib

[1] Uolter Releу (1552–1618) – ingliz dengizchisi. U Shimoliy va Janubiy Amerikaga uyushtirilgan bir necha ekspeditsiyalarga rahbarlik qilgan.

chiqqandi. Shuncha odamning o‘pkasiga kirib-chiqqan, ter hidi aralashgan havo allaqanday quyuq tusga kirgan, balchiqday badbo‘y edi. Qiz choyshabni yig‘ishtirarkan, Aurelianodan uning bir chekkasini ushlab turishni iltimos qildi. Choyshab jiqqa ho‘l kanop matoday og‘ir edi. Ular choyshabni ikki tomonidan ushlagancha burab-burab suvini siqishdi, undan ham ter oqdi. Aureliano bu holning cheksiz takrorlanishini judayam istardi. Ishq-u zinoning nazariy jihatlari unga ayon esa-da, hozir tizzalari qaltirab, oyog‘ida zo‘rg‘a turardi. O‘rinni tartibga keltirgach, unga yechinishni buyurgan qizaloqqa Aureliano tutila-tutila: «Meni bu yerga kirishga majbur qilishdi. Finjonga yigirma sentavo tashlagin, xonada uzoq qolib ketmagin deyishdi», deya izoh berishiga tushdi. Qiz uning holatini tushundi. «Agar sen finjonga yana yigirma sentavo tashlasang, ko‘proq qolishing mumkin», dedi u astagina. Uyatdan qizarib ketgan Aureliano kiyimlarini yechdi, unga o‘zining yalang‘och badani akasining yalang‘och badani oldida hech narsa emasligi haqidagi fikr tinchlik bermasdi. Qizning barcha urinishlariga qaramay u o‘zini tobora loqayd va tanho sezardi. «Men yana yigirma sentavo tashlayman», deya g‘o‘ldirardi u vasvasaga tushib. Qiz unga minnatdorchiligini sassiz izhor qildi. Uning qobirg‘alari shundoqqina terisini turtib chiqqan, orqasi qontalash edi. U nihoyatda horigan, og‘ir-og‘ir nafas olardi. Qizaloq bundan ikki yil avval, Makondodan ancha olis joyda, uxlashidan ilgari shamni o‘chirishni esdan chiqarib qoldirgan, uyg‘onganida atrofini alanga qoplagandi. Uni tarbiyalagan buvisi ikkovi yashay-

digan uy kuyib, kul bo‘lgan edi. O‘shandan beri buvisi uni shahar-u qishloqlar bo‘ylab olib yurar, uyning tovonini to‘lashi uchun yigirma sentavoga erkaklarga qo‘shar edi. Qizaloqning aytishicha, u yana o‘n yil davomida har kechasi yetmish nafar erkak bilan yotishi kerak, chunki uyning tovonini to‘lashdan tashqari yo‘l xarajati, ovqat puli buvisini ko‘tarib yuruvchi hindularga ham anchagina pul darkor ekan. Qizga, hatto qo‘lini ham tekkizmagan Aureliano, semiz ayol ikkinchi bor eshikni taqillatganida, quyilib kelayotgan ko‘z yoshlarini zo‘rg‘a tiygancha xonadan chiqib ketdi. U kechasi bilan uxlolmadi, qiz taqdiri haqida uzoq o‘yga toldi. Aureliano uni sevib qolgan va endi himoya qilishni istardi. Ertalab qizni buvisining zulmidan qutqarishga, undan har kech yetmish erkak oladigan lazzatni o‘zi totish niyatida unga uylanishga ahd qildi. Ammo u ertalab soat o‘nda Katarinonikiga kelganida, qiz Makondodan allaqachon chiqib ketgandi. O‘tgan vaqt yigitning qaynoq va yengiltak his-tuyg‘usini birmuncha sovitdi, ammo uning qalbida ushalmagan bir armon qattiq o‘rnashib qoldi. U ish bilan ko‘nglini ovutib yurdi. Aureliano o‘zini ayol bilan yotishga layoqatsiz deb hisoblar va bu sharmandaligini oshkor qilmaslik uchun endi bir umr ayol ko‘rmagan erkakday so‘qqabosh yashashga ko‘nikib qolgandi. Melkiades fotoplastinkalarga Makondodagi barcha diqqatga sazovor joylarining tasvirini tushirib bo‘lgach, rasmxona – ustaxonani xom xayol Xose Arkadio Buendianing ixtiyoriga topshirdi; Xose Arkadio Buendia degerrotipiya yordamida Xudo borligini ilmiy asosda isbotlashga ahd qilgandi. Agar Xudo bo‘lsa, uyi atrofida tushirgan tas-

virlarni bir-birining ustiga qoplash natijasida, ertami-kechmi, baribir uning suratini olishga ishonar, aks holda, uning mavjudligi haqidagi fikrga butunlay chek qo‘ymoqchi edi. Melkiades Nostradamusni o‘rganishga sho‘ng‘ib ketdi. Rangi uniqqan baxmal kamzulini kiyib, almisoqdan qolgan uzuklar taqilgan kichkina, xuddi chumchuq panjasini eslatuvchi qo‘llari bilan qog‘ozga allanarsalarni yozib, yarim kechagacha o‘tirardi. Bir kuni Makondoning kelajagiga oid vahiy kelganday bo‘ldi. Makondo shaffof oynabandli katta-katta binolardan iborat ajoyib shahar bo‘larkan, bu shaharda Buendia ajdodlarining izi ham qolmas ekan. «Bo‘lmag‘ur gap, – deya g‘azablandi Xose Arkadio Buendia buni eshitib. – Binolar oynadan emas, tushimda ko‘rganimdek, muzdan quriladi. Buendia avlodlari unda toabad yashashadi». Ursula nuqul telbalar to‘plangan bu uyga zarracha bo‘lsa-da, sog‘lom fikr olib kirishga tirishardi. Endi u novvot-u xo‘rozqandlar tayyorlabgina qolmasdan, yaqinda qurdirgan kattakon pechda savat-savat non, ko‘plab shirinlig-u pishiriqlar ham pishirar edi, bularni vodiy yo‘liga olib chiqib, atigi bir necha soatda sotib yuborishardi. Ursula, garchand oyog‘ini uzatib dam oladigan yoshga yetganiga qaramay, tinim bilmas, yildan yilga serharakat bo‘lib borardi. Ursula qandolatchilikdan kelayotgan daromadga, omadi yurishganiga berilib ketgandiki, hatto bir kuni kechqurun hindu qiz qozonga shakar solayotganida, derazadan hovliga xayolchan boqarkan, kechki mayin nurlar ostida nimadir tikayotgan yosh va chiroyli ikki qizga ko‘zi tushib, ularni taniy olmadi. Ular Rebeka bilan Amaranta

edi. Qizlar buvilarining motami munosabati bilan rosa uch yil kiyib yurishgan qora liboslarini gulli koʻylaklarga almashtirganlaridan tamomila oʻzgarib ketishgandi. Ayniqsa, Rebeka juda suluv edi. Uning badani tiniq, koʻzlari katta-katta, bosiq edi, sehrli qoʻllari matoga gul tasvirini goʻyoki ipsiz tushirayotganday tuyilardi. Rebekadan kichik Amaranta u qadar nozik boʻlmasa-da, ammo marhum buvidan tugʻma oliyjanoblik va oʻz qadrini bilish hissini meros qilib olgan edi. Otasiday baquvvat boʻlib oʻsayotgan Arkadio ularning oldida bolaga oʻxshardi.

Arkadio Aureliano boshchiligida zargarlik bilan shugʻullanardi. Aureliano oʻqish-yozishni ham oʻrgatgandi. Ursula xonadoni katta yoshdagi odamlar bilan toʻlib-toshganini, bolalari yaqin oʻrtada oila qurishib, uvali-juvali boʻlishi-yu, yaqin kelajakda bu uy ularga torlik qilishi haqida mulohaza yuritardi. Shunda har bir oilani alohida ajratish lozim boʻladi. Shunda u bir necha yil ogʻir mehnat evaziga yiqqan pullarini olib, quruvchilar bilan uyni kengaytirish xususida gaplashdi. Ularga mehmonlarga atalgan kattakon zal, oilaning oʻzi uchun moʻljallangan salqin, shinam xona, oʻn ikki oʻrinli yemakxona, toʻqqizta derazasiyam hovliga qaratilgan xobgoh, quyosh nurlaridan pana, qirqquloq va begonalar uchun tuvag-u guldonlar qoʻyishga moslangan uzun peshayvon qurishni buyurdi. Oshxonani ikkita pech sigʻadigan darajada kengaytirishga, Pilar Ternera Xose Arkadioga kelajagi xususida fol ochgan qaznoqni buzib, uylarida doimo kerakli oziq-ovqat boʻlib turishi uchun, unga ikki baravar keladigan yangi qaznoq qurishga ham bel bogʻladi. Hovlidagi

katta kashtan daraxti ostiga esa biri ayollarga, boshqasi erkaklarga mo‘ljallangan ikki hammom, orqa tarafda keng saysxona, simto‘r bilan o‘ralgan tovuqxona, molxona qurishni, daydi qushlarga boshpana – usti ochiq qafas qilishni ham rejalashtirdi. Go‘yoki erining jonsarak fikrlari yuqib qolganday, shijoatga to‘lib-toshgan Ursula uylariga kelgan o‘nlab g‘isht teruvchilar-u duradgorlarga bo‘lajak xonalarning eshik-derazalarini qaysi tomonga o‘rnatish lozimligi va qurish bilan bog‘liq boshqa ko‘plab muammolar bo‘yicha turli-tuman maslahatlar berardi. Makondoga asos solinganida qurilgan bu eski uy son-sanoqsiz ishchilar, qurilish mollari-yu asbob-uskunalari bilan to‘lib-toshgandi. Ustalar uy egalari oyoq ostida o‘ralashib yurganliklarini xayollariga ham keltirmas, aksincha: «Bizga xalaqit qilmanglar», – deya ularga tanbeh berishardi; suyak solingan qop har qadamda lop etib chiqib qolar, quruvchilar ustixonlarning shaqir-shuquridan jig‘ibiyron bo‘lishardi. So‘nmagan ohak hovuri va qaynoq mum hidi to‘la bu to‘polon ichida Makondo tarixida eng ulkan uy paydo bo‘ldi. Ko‘pchilik hayratdan yoqa ushladi; bu uy qo‘shni uylardan ham ko‘lami, ham mehmonnavozligi, ham salqinligi bilan ajralib turardi. Xose Arkadio Buendianing o‘zi ham uy qay tariqa qurilganiga ko‘pda tushunolmadi, negaki u ayni ish qizg‘in kezlarda Xudoning visolidan bahramand bo‘lish umidida tajriba o‘tkazardi. Ayni shunday kunlardan birida Ursula erining oromini buzdi. U bino peshtoqini o‘zimiz istaganday oqqa emas, ko‘kka bo‘yashga farmon berildi, deb aytganida, yangi uy bitayozgan edi. Xose Arkadio Buendia xotinining

gaplarini tuzukroq anglamadi, so‘ng u uzatgan farmonni qo‘lga olib, farmoyishchining imzosini sinchiklab o‘rganib chiqdi.

– Kim ekan u odam? – deb so‘radi.

– Korrexidor, – javob qildi horg‘inlikdan adoyi tamom bo‘lgan Ursula, – aytishlaricha, u boshlig‘imiz ekan, hukumat yuboribdi.

Don Apolinar Moskote, ya’ni korrexidor, Makondoga ortiqcha dabdabasiz, imi-jimida kirib keldi. Moskote savdogar arablardan biri qurgan «Yoqub mehmonxonasi», deya nom olgan karvonsaroyda tunadi, ertasiga esa Buendialar xonadonidan ikki ko‘cha naridagi, derazalari ko‘chaga qaragan uyni ijaraga oldi. Moskote xonaga Yoqubdan sotib olgan stol va kursini joylashtirdi, devorga o‘zi bilan birga olib kelgan respublika gerbini ilib, eshikka «Korrexidor» deb yozib qo‘ydi. So‘ng milliy ozodlik kuni sharafiga barcha uylarning devorlarini ko‘k rangga bo‘yash haqida ilk farmoyishini chiqardi.

Xose Arkadio Buendia farmon nusxasini keltirganida, korrexidor o‘zining kamtargina idorasiga o‘rnatilgan to‘r belanchakda tushki ovqatdan so‘ng dam olib yotardi.

– Shu qog‘ozni siz yozganmisiz? – deb so‘radi Xose Arkadio Buendia.

Yoshi bir joyga borib qolgan, xushchaqchaq, ammo ancha jur’atsiz ko‘rinadigan don Apolinar Moskote:

– Ha, – deya javob qaytardi.

– Nima haqingiz bor bunday qilishga? – yana savol berdi unga Xose Arkadio Buendia.

Don Apolinar Moskote stol tortmasidan allaqanday qog‘oz chiqarib uzatdi. Qog‘ozda:

«Ushbu shaharga korrexidor vazifasini bajarish uchun yuborilgan», degan yozuv bor edi.

– Shahrimizda hali hech qachon qog‘ozlar hukmdorlik qilmagan, – deya xotirjam e’tiroz bildirdi Xose Arkadio Buendia. – Esingizda tutingki, bizni o‘zgartirish uchun hech kim kerak emas, bizda tartib-qoidaga yo qolipga solish lozim bo‘lgan hech narsa yo‘q. U xotirjam tovushini balandlatmasdan don Apolinar Moskotega Makondoni qay yo‘sinda barpo etganlari, yo‘llar qurganlari, qancha qiynalganliklariga qaramay hukumatni bezovta qilmaganlari haqida batafsil gapirib:

– Endi hukumat ham bizni o‘z holimizga qo‘ysin! Biz beozor odamlarmiz, bizda, hatto hali hech kim o‘z ajali bilan o‘lgan emas, o‘zingiz ko‘rdingiz, Makondoda hanuzgacha qabriston yo‘q, – dedi Xose Arkadio Buendia. Yo‘q, u hukumatdan shikoyat qilmoqchi emas, aksincha, hukumat shaharchaning tinchgina rivoj topishiga xalaqit bermaganidan g‘oyat xursand va bundan keyin ham ana shunday bo‘lishini xohlaydi, binobarin, Makondoni duch kelgan begona odam ularga buyruq berishlari uchun bunyod etishmagan. Don Apolinar Moskote qo‘pol momiq kurtkasi-yu, rangdosh oppoq shimini kiygandan keyin ham odamshavandaligini yo‘qotmadi.

– Agar siz shahrimizda oddiy fuqaro bo‘lib qolishni istasangiz – bosh ustiga, – deya gapini yakunladi Xose Arkadio Buendia. – Ammo siz bu yerda tartibsizlik o‘rnatmoqchi, odamlarni o‘z uylarini ko‘k rangga bo‘yashiga majbur qilmoqchi bo‘lsangiz, lash-lushlaringizni ko‘tarib, ortingizga qaytib keting. Mening uyim masalasiga kelsak, u oq kaptardek oppoq bo‘ladi.

Don Apolinar Moskotening rangidan qoni qochdi. Xiyol ortga tislanib, tishlarini qahrli qisirlatgancha:

– Ehtiyot bo‘ling, menda qurol bor! – deb ogohlantirdi.

Xose Arkadio Buendia kutilmaganda yana o‘sha yoshligidagi, otni bir urib qulatishga qodir paytidagi kuchga to‘lganini sezmay qoldi. U don Apolinar Moskoteni yoqasidan tutganicha, yerdan dast ko‘tardi.

– Odam o‘ldirib, vijdonimga bir umr azob bergandan ko‘ra, tirik odamni bir necha daqiqa sudrab yurishni afzal ko‘rganimdan shunday qilyapman, – dedi u.

Xose Arkadio Buendia don Apolinar Moskoteni yoqasidan dast ko‘targancha ko‘chaning o‘rtasiga – Makondodan vodiyga qarab ketadigan yo‘lga chiqarib qo‘ydi. Oradan bir hafta o‘tgach, Moskote qurollangan olti nafar juldurvoqi askarni boshlab keldi: ho‘kizlar qo‘shilgan aravada esa uning xotini, yetti qizi o‘tirishardi. Keyinroq jihoz, sandiq va uy anjomlari ikkita aravada keldi. Korrexidor tuzukroq bir uy topilgunicha oila a’zolarini «Yoqub mehmonxonasi»ga joylashtirdi va yana idorasini ochib, eshik oldiga ikki soqchi qo‘ydirdi. Makondo ahli kelgindilarni haydab yuborishga qat’iy ahd qilishdi. Ular kelgindilarni badarg‘a qilish ishida bosh-qosh bo‘lar, degan umidda Xose Arkadio Buendianing uyiga bordilar. Lekin Xose Arkadio Buendia: «Don Apolinar Moskote xotini-yu bolalarini olib kelibdi, erkak kishini bola-chaqasining ko‘z o‘ngida sharmanda qilsak nojoiz bo‘ladi, endi bu ishni tinch yo‘l bilan hal qilish lozim», – dedi.

Xose Arkadio Buendia o‘g‘li Aurelianoni yoniga olib, korrexidorning uyiga yo‘l oldi. Endi Aureliano mo‘ylov qo‘yib, ovozi ham ozmuncha salobat kasb etgan navqiron yigit edi. Keyinchalik, Aureliano urushda qatnashganida ham uning ovozi boshqalarnikidan ajralib turardi. Ota-bola qurollanmagan bo‘lsa-da, soqchilarni pisand qilmay, korrexidorning idorasiga kirishdi.

Don Apolinar Moskote sarosimaga tushmadi. U mehmonlarni idoraga nogahon kirib qolgan qizlari – onasiga o‘xshash qorasoch, o‘n olti yoshli Amparo va zumrad ko‘zli, endigina to‘qqizga kirayotgan ko‘hlikkina Remedios bilan tanishtirdi. Opa-singillar g‘oyat odobli ekan. Ota-bola Buendialar kirib kelgan zahotiyoq, ularnig hurmati uchun joylaridan turib, kursi qo‘yib berishdi. Lekin mehmonlar o‘tirishga unashmadi.

– Mayli, birodar, – dedi Xose Arkadio Buendia, – biz sizlarga shahrimizda qolishga ijozat beramiz, lekin eshik yonida miltiq ko‘targan anavi qaroqchilardan cho‘chiganimizdan emas, balki oilangizning izzatini o‘ylab shu qarorga keldik...

Don Apolinar Moskote nimadir demoqchi edi, lekin Xose Arkadio Buendia og‘iz ochishga imkon bermadi.

– Ammo bizning ikki shartimiz bor, – davom etdi u. – Birinchisi: har bir odam o‘z uyini o‘ziga yoqqan rangga bo‘yaydi, ikkinchisi, askarlar hoziroq Makondoni tark etishlari shart. Shahardagi tartib uchun biz javob beramiz.

Korrexidor o‘ng qo‘lini baland ko‘tarib:

– Chin vijdon so‘zlaringmi bu? – deb so‘radi.

– Dushman so‘zi, – dedi Xose Arkadio Buendia kesatib, so‘ng hasrat bilan qo‘shib qo‘ydi:

– Bir gapni aytib qo‘yayki, endi ikkimiz umrbod dushman bo‘lib qolamiz.

Askarlar o‘sha kechasiyoq shaharni tark etishdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, Xose Arkadio Buendia korrexidorning oilasi uchun qulay uy topdi. Shu-shu, Aurelianodan boshqa hamma tinchlandi. Korrexidorning kenja qizi (garchand u hali kichkina qizaloq bo‘lsa-da) Remediosning siymosi uning qalbi to‘ridan joy olib, mudom azoblar edi. Bu hissiyot unga mislsiz ozor berardi. Naq oq kabutarni eslatuvchi uyning qurib bitganligi katta bazm bilan nishonlandi. Bazm Rebeka bilan Amaranta bo‘y yetib qolganini sezgan Ursulaning taklifiga binoan uyushtirildi. Ochig‘ini aytganda, ana shunday bazm uchun munosib joy hozirlash istagi yangi uy qad ko‘tarishiga sabab bo‘lgan edi. Ursula orzu-havas mevasini totish umidida, joni-ni jabborga berib ishlar, hatto qandolatchilik va novvoylikdan tushgan sarmoyasiga, hali qurilish bitmay turib, uyni bezash uchun g‘aroyib qimmatbaho jihozlar buyurtma bergan, buyurtmalar orasida ajoyib yangilik – pianola ham bo‘lib, Ursula bu xarididan shahardagilar lol qolib, yoshlarning dilini shod qilaman, deb o‘ylardi. Pianola bo‘laklab solingan qutilarni Vena jihozi, Bogemiya billuri, Xitoyning qimmatbaho chinni idish-tovoqlari, Niderlandiya gazmolidan bo‘lgan choyshablar, turli bejirim chiroqlar, qandillar, guldonlar-u gilamlar bilan qo‘shib olib kelishdi. U, hatto savdo uyidagilar pianolani yig‘ish, sozlash, chalishni va olti karton silindrga yozilgan zamonaviy kuylar ohangiga mos raqs tushishni o‘rgatish uchun o‘z hisoblaridan Petro Krespi ismli italyan ustasini ham jo‘natishgan edi.

Petro Krespi mallasoch yosh yigit edi. Makondoliklar shu choqqacha bunday xushro‘y-u xushfe’l erkakni ko‘rishmagan edi. U bashang kiyinishni xush ko‘rar, issiq paytlarda ham egnidagi kumush naqshli charm nimchasi bilan qora movutdan tikilgan kamzulini yechmasdi. Xonadon sohiblari bilan deyarli gaplashmas, mehmonxona eshigini qulflab, qora terga botgancha, haftalab ishlar, o‘z ishiga savdoyiligi jihatidan zargarlik ishiga oshufta bo‘lmish Aurelianodan qolishmasdi. Bir kuni ertalab Petro Krespi mehmonxona eshigini qulfladi, hech kimni ogoh etmay, pianolaga birinchi silindrni o‘rnatdi va shu zahotiyoq bolg‘a-yu murvatlarning taraq-turug‘i qaygadir chekinib, nafis kuy tarala boshladi. Hamma mehmonxonaga qarab yugurdi. Xose Arkadio Buendiani kuyning nafisligidan ko‘ra, o‘z-o‘zidan ko‘tarilib tushayotgan klavishlar hayratda qoldirdi. U ko‘zga ko‘rinmas ijrochini suratga tushirish maqsadida, hatto xonaga Melkiadesning kamerasini o‘rnatdi.

O‘sha kuni ertalab italiyalik usta butun oila davrasida nonushta qildi. Xonaga ovqat keltirib turgan Rebeka bilan Amaranta, yusufmonand bu odamning uzuk ham taqilmagan oqish barmoqlari bilan pichog‘-u sanchqini ishlatishiga biroz cho‘chib boqishar edi. Petro Krespi qo‘shni xonada ularga raqs bo‘yicha saboq bera boshladi. U qizlarga jips kelmagan holda turli muqomlarni o‘rgatardi. Saboq payti Ursula xonadan jilmas, bir chekkada azoblanib, qizlarining xulq-atvorini nazorat qilardi. Petro Krespi raqsbop poyabzal, judayam tor-u bashang shim kiyib olgandi. «Bekorga tashvishlanayapsan, – derdi Xose Arkadio

Buendia xotiniga. – Axir uning erkaklik siyog‘i yo‘q-ku!» Ammo Ursula to Petro Krespi qizlarni raqs tushishga o‘rgatib bo‘lib, Makondodan ketgunicha «soqchilik» qildi. Keyin bayramga tayyorgarlik boshlandi. Ursula mehmonlarning ro‘yxatini tuzib chiqdi, bular Makondoga asos solganlar-u, ularning barcha zurriyotlari edi. Shu paytga qadar otalari noma’lum yana ikki o‘g‘il tuqqan Pilar Terneragina mehmonlar ro‘yxatiga kirmadi. Mehmonlarni tanlashda tabaqachilikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa-da, baribir do‘stlik tuyg‘ulari hisobga olingan edi. Negaki, mehmonga keluvchilar Makondoni barpo etish bilan yakunlangan bu katta safarga otlanmasdan burun ham Buendialar oilasining do‘stlari hisoblanishardi, ularning o‘g‘illari bilan nevaralari bolalikdanoq Aureliano va Arkadio bilan do‘st tutinishgan, qizlari esa Rebeka va Amaranta bilan chevarlik qilishga ruxsat olgan dugonalari edi. Makondoning beozor hukmdori Moskote quruq savlat to‘kib yurar, uning bor-yo‘q ishi – o‘zining puch hamyonidan yog‘och hassali ikki politsiyachini boqishdan iborat edi, xolos. Qizlari ro‘zg‘or vajidan tikuvchilik ustaxonasini ochishdi. Ustaxonada sun’iy gullar, turli shirinliklar tayyorlanar, ba’zan esa maxsus buyurtma asosida ishqiy maktublar ham bitilar edi. Kamtar-u iltifotli, shahardagi eng go‘zal qizlar toifasiga kirishilari-yu, yangi raqslarni qotirib ijro etishlariga qaramay, bu bazmga aytilganlar qatoriga kirisholmadi.

Ursula, Amaranta va Rebeka jihozlarni o‘rnatib, kumush idishlarni tozalab, atirgul ortilgan qayiqqa tushgan qizlar tasvirlarini bo‘m-bo‘sh devorlarga ilishayotgan mahal, Xudo yo‘qligiga aniq

ishonch hosil qilib, uning vaslidan butkul umid uzgan Xose Arkadio Buendia, pianolaning sehri sirini bilish uchun uning ichak-chavog‘ini ag‘darib tashlagan edi. Xayriyat, allaqayerdan paydo bo‘lgan boltalar-u bolg‘achalar uyumi oldida, goh u, goh bu simlarni tortolmay garang bo‘lib, nihoyat, bayramga ikki kun qolganida, pianolani bir amallab qayta tikladi. Hali Buendialarning xonadoni hech qachon bunday katta tashvish-u to‘s-to‘polonni ko‘rmagan edi, ammo shunga qaramay, kerosinli yangi chiroqlar belgilangan kun va soatda yondirildi. Hali xonalaridan qatron va loy hidi anqib turgan uyning eshiklari lang ochildi va Makondo asoschilarining bolalari-yu nevaralari qirqquloq, begoniya o‘suvchi peshayvon, osudalik hukmron xonalar, atirgullarning anvoyi bo‘yi taraluvchi bog‘ bilan tanishdilar, so‘ngra mehmonxonaga, oq choyshab ostiga berkitilgan g‘aroyib mo‘jiza oldida to‘planishdi. Taraqqiy etgan shaharlarda keng rasm bo‘lgan pianolani ko‘rganlarning qiziqishi darhol so‘ndi, ammo pianola ko‘proq Ursulaning g‘azabini toshirdi – Rebeka bilan Amaranta raqs tushishib, bazmni boshlab berishlari uchun silindrni pianolaga o‘rnatganida, pianola ovoz chiqarmadi. Ko‘zlari ojiz, munkillab qolgan Melkiades eski afsungarligini ishga solib, pianolani tuzatishga urnasa hamki, hech bir natija chiqmadi. Nogahon Xose Arkadio Buendia bu kattakon sozdan sirg‘alib chiqqan allaqanday detalni siljitib yuborganida, pianoladan allaqanday tovush tarala boshladi: pianola oldiniga xirilladi, keyin esa kuy ovozlari aralash-quralash bo‘lib ketdi. Bolg‘achalar tarang tortilgan torlarni jon-jahdi bilan savalab, so‘ngra

birin-ketin shiddat bilan murvatlardan ajralib tushdi. Ammo dengizni qidirib topish maqsadida o‘tib bo‘lmas tog‘ tizmalarini zabt etgan jasur yigirma ikki odamning avlodlari pianolaning yerda sochilib yotgan qismlarini hatlab o‘tishib, ertalabgacha oddiygina bazm qurishdi.

Petro Krespi pianolani tuzatish uchun yana Makondoga qaytib keldi. Rebeka bilan Amaranta unga torlarni tartibga keltirishda ko‘maklashar, qorishiq kuylarning notalarini eshitib, miriqib kulishardi. Italiyalik usta o‘zini shu qadar odobli tutardiki, buni ko‘rib, Ursula uni nazorat qilmay qo‘ydi. Petro Krespi jo‘nashi sharafiga ziyofat uyushtirildi. Usta o‘zi tiklagan pianola kuyiga Rebeka bilan haqiqiy zamonaviy raqs san’atini namoyish etdi, Arkadio bilan Amaranta ham nazokat va chaqqonlikda ulardan qolishmadi. Ammo eshik bo‘sag‘asida tomoshabinlar qurshovida turgan Pilar Ternera, Arkadioning dumbasi ayollarnikiga o‘xshab ketarkan, degan ayolning sochiga chang solganidan so‘ng, raqsni to‘xtatishdi. Vaqt yarim tun bo‘lib qolgandi. Petro Krespi qalblarni larzaga soladigan nutq so‘zlab xayrlasharkan, qaytib kelishga va’da berdi. Rebeka uni ostonagacha kuzatib qo‘ydi. Eshiklar berkitilib chiroqlar o‘chirilgach, qiz xonasiga kirib, xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘lay boshladi. Yig‘i bir necha kun davom etdi, lekin buning sababini hech kim, hatto Amaranta ham bilmasdi. Rebekaning «ichimdan top»ligi uydagilarga ma’lum edi. Ko‘rinishdan xushchaqchaq Rebeka odamovi va hadeganda dil yormaydiganlar toifasidan edi. Endilikda u oyoqlari uzun, baquvvat va xushro‘y qizga aylangan bo‘lsa-da, Buendialarnikiga olib

kelgan o‘z tebranma kursisida o‘tirishni yoqtirardi; aytmoqchi kursini allaqachon bir necha bor qayta-qayta tuzatishgan, uning suyanchig‘i ham yo‘q edi. Rebeka shu yoshga yetsa-da, barmoq so‘rish odatini tark etmagan edi. Shu odati bois, u ba’zida hammomga berkinib olar, uxlaganda yuzini devorga qaratib yotardi. Yomg‘irli kechalari, begoniyalar o‘suvchi peshayvonda dugonalari bilan gazlamaga gul tikib suhbat qurish mahali gohida gapidan adashib qolar, chunki bog‘ning namxush yo‘lkalari chuvalchanglar loydan yasagan do‘ngliklarga tikilgach, og‘zi bir umr esdan chiqmaydigan o‘sha taxir kesak ta’mini qo‘msay boshlardi. Gap shundaki, Rebeka yig‘lay boshlaganida, bir vaqtlar apelsin sharbati va ravoch yordamida yo‘qotilgan bema’ni odati qaytadan qo‘zirdi.

Rebeka yana kesak yeya boshladi. Dastavval u ataylab emas, tuproqning bemaza ta’mi dardimga malham berar, degan xayolda shunday qilgan edi. O‘shanda og‘zidagi kesakni tuflab tashladi. Lekin qo‘msash dardiga chidolmadi va asta-sekin eski ko‘yiga tushib, kesak yeya boshladi. U cho‘ntagiga bir siqim tuproq solgancha, dugonalariga yangicha qaviqni o‘rgatar ekan, kesak yeyishga mutlaqo arzimaydigan erkaklar haqida gaplashardi. Rebeka qizlardan yashirincha chimdimlab-chimdimlab, cho‘ntagidagi tuproqni yeb tugatardi. Nazarida, bu tuproq chimdimlari muhabbatga loyiq erkakni ma’lum darajada yaqinlashtirganday bo‘lar, go‘yoki uning yumshoq etiklarining izi tushib qolgan bu tuproq Rebekaning vujudiga o‘sha erkak qonining haroratini o‘tkazar, tuproqning og‘izni kuydiruvchi ta’mi yuragiga taskin

berardi. Bir kuni kechqurun Amparo Moskote ularning yangi uylarini koʻrishga ruxsat soʻrab qoldi. Amaranta bilan Rebeka qoʻqqisdan tashrif buyurgan mehmonni, uyalganlaridanmi, ishqilib, sovuq va rasmiy kutib olishdi. Ular korrexidorning katta qizlariga xonalarni koʻrsatishdi, pianola qoʻyib berishdi, sharbat-u shirinlik bilan siylashdi. Amparo oʻzini shunchalar odobli tutdiki, qizlar tugul, sal kechikibroq kirgan Ursulada ham yaxshi taassurot qoldirdi. Ikki soatlardan soʻng, ya'ni suhbat adogʻiga yeta boshlaganida, Amarantaning xayoli nima bilandir band boʻlganidan foydalanib, Amparo Rebekaga maktub tutqazdi. Rebekaning koʻzlari xatjild ustidagi «Donya Rebeka Buendia» degan yozuvni ilgʻadi. Rebekaning ism-sharifi unga tanish boʻlgan oʻsha chiroyli imloda, oʻsha yashil siyohda yozilgan edi. Rebeka xatni korsajiga yashirib qoʻydi va Amparo Moskotega cheksiz minnatdorchilik hissi bilan tikildiki, koʻzlaridan Amparo bilan umrining oxirigacha yaqin sirdosh boʻlishga tayyorligini uqish mumkin edi.

Amparo Moskote bilan Rebeka Buendianing doʻstligi Aureliano qalbidagi umidni yangiladi. Kichkina Remediosning oʻyi unga hamon azob berar, ammo qizaloqni koʻrishga imkon topolmasdi. Doʻstlari Magnifiko Visbal va Xerineldo Markes – Makondoga asos solgan odamning oʻgʻillari bilan shahar boʻylab sayr qilarkan, chanqoq koʻzlari tikuv ustaxonasidan Remediosni izlar, lekin ustaxonada faqatgina uning opalariga duch kelardi, xolos. Amparo Moskotening har bir tashrifi yigit uchun bayramga aylanardi. «Remedios opasi bilan albatta keladi, – deya Aureliano oʻzi-

ga o‘zi pichirlardi, – albatta keladi». Bu gaplarni shu qadar komil ishonch bilan takrorlardiki, bir kuni kechqurun ustaxonada tilla baliqcha yasayotganida, to‘satdan Remedios o‘zining da’vatiga javob berganini his qildi va haqiqatan ham, oradan sal vaqt o‘tgach, qulog‘iga yosh qizaloqning ovozi chalindi. U boshini ko‘tardi-yu, eshik oldida turgan pushti ko‘ylak, oq poyabzalli qizaloqqa ko‘zi tushib, yuragi qo‘rquvdan muzlab qolayozdi.

– U yoqqa kirish mumkin emas, Remedios! – deya qichqirdi singlisiga Amparo Moskote peshayvondan turib. – Ustaga xalal berma.

Ammo Aureliano, qizaloq hali opasi aytgan gapni uqib olishga ulgurmayoq, unga zanjirga osilgan oltin baliqchani ko‘rsatib:

– Mayli, kiraver, – dedi.

Remedios ichkari kirib nimadir so‘radi, lekin Aurelianoning to‘satdan tomog‘i bo‘g‘ilib, bir narsa deyolmadi. U zumrad ko‘zli oppoqqina qizaloqning umrbod shu yerda qolishini istadi, toki Remedios ketmasa, uni xuddi otasiga murojaat qilayotgandek hurmat bilan «janob» deb chaqiraversa... Burchakdagi xontaxta yonida o‘tirib, o‘qilishi qiyin allambalolarni yozayotgan Melkiades hozir Aurelianoning ko‘ziga balodek ko‘rindi. Yigit esa cho‘chidi, ustaxonadan shosha-pisha chiqib ketdi. O‘sha kech Aurelianoning sabriga putur yetdi, ishini yig‘ishtirib qo‘yib, xayolan Remediosni ko‘p bora chorladi. Lekin qizaloq endi uning da’vatini javobsiz qoldirardi. Aureliano uni opalarining ustaxonadan, pardalari tushirilgan uylaridan, otasining idorasidan qidirar, lekin qizaloqni faqat o‘z qalbidagina uchratar va bu siymo yolg‘izlikdan qiynalgan yuragiga oz-

gina bo‘lsa-da, taskin berardi. U endi kun bo‘yi mehmonxonadan chiqmas, Rebekaga qo‘shilib, pianola kuyini tinglar edi. Rebeka kuyni Petro Krespi raqs tushishga o‘rgatgan chog‘da yangragani uchun, Aureliano bo‘lsa, hamma narsa, hatto musiqa ham unga go‘zal Remediosini eslatgani uchun tinglar edi.

Xonadon sevgi hislariga to‘lib-toshdi. Aureliano o‘z sevgisini na boshi, na oxiri bo‘lgan she’rlariga to‘kardi. She’rlarni Melkiades sovg‘a qilgan dag‘al qog‘ozlarga, hammom devorlariga va, hatto, qo‘llarining terisiga ham yoza boshladi. She’rlarning barchasida Remedios yo peshingi uyquda, yo osuda atirgullar orasida yoki non hidi anqiyotgan yorug‘ tong pallasida tasvirlanardi.

Rebeka deraza yonida chevarlik qilarkan, har kuni soat to‘rtda o‘z sevgilisini intiq kutardi. U xat-xabar tashuvchi xachir Makondoga oyiga ikki marta kelishini yaxshi bilardi, lekin baribir uni kunora poylar, pochtachi keladigan kunini adashtirib, muddatidan ilgari paydo bo‘larmikin, deb umid qilardi. Lekin umidi oqlanmadi: xachir mingan pochtachi doimo belgilangan muddatda kelaverdi. G‘ussadan adoyi tamom bo‘lgan Rebeka yarim kechasi boqqa chiqib, go‘yoki o‘zini o‘ldirishga ahd qilgan odamdek, badbaxtligiga yig‘lay-yig‘lay, mayda chig‘anoqlar parchalari milklarini qonatganiga beparvo kappalab-kappalab tuproq yeya boshladi. Ertalabgacha uning ko‘ngli aynib chiqdi. U jonsarak bir holga tushib, aql-u hushini yo‘qotdi va bir tun alahlagan mahali yuragidagi sirni behayolarcha oshkor qildi. Ursula darg‘azab bo‘ldi, sandiqning qulfini buzib, tubidan pushtirang tasma bilan bog‘langan

va atirgul hidi anquvchi o‘n oltita xat, eski kitoblarning varaqlari orasida saqlanayotgan barg-u gul qoldiqlari, shuningdek quritilgan, sal tegilsa kukunga aylanadigan kapalaklarni topdi.

Rebekaning dardini birgina Aureliano tushunardi. Ursula qizni so‘roqqa tutgan o‘sha kechasi Aureliano do‘stlari Maknifiko Visbal va Xerineldo Markes bilan Katarinoning ishratxonasiga yo‘l oldi. Endilikda bu joy xiyla kengaygan bo‘lib, yon tomonda qurilgan yangi peshayvonning taxta devor bilan ajratilgan katalakday xonalarida tanlaridan so‘lg‘in gul hidi kelgan baxtsiz ayollar istiqomat qilishardi. Akkordeonchi va nog‘orachilar ansambli bir necha yildan beri Makondoga kelmay qo‘ygan Fransisko Odamning qo‘shiqlarini ijro etishardi. Uch oshna shakarqamish musallasi buyurishdi. Aurelianoga tengdosh bo‘lsa-da, uncha-munchasini ko‘rib, firibgar bo‘lib qolgan Magnifiko va Xerineldo, tizzalariga o‘tirgan ayollar bilan shoshilmay may simirishardi. Tilla tishli so‘lg‘in bir ayol Aurelianoni erkalatmoqchi bo‘ldi. Ammo u ayolni itarib tashladi. Yigit ko‘p ichgani sayin, Remediosni shuncha ko‘p eslayotganini payqadi. Lekin xotirot azobi ham susayganday edi. Keyin Aureliano qaygadir suzib ketdi. Bu hol qanday yuz berganini o‘ziyam sezmay qoldi. Nazarida, do‘stlari ham, ayollar ham xira tuman uzra parvoz etishardi. Bir mahal Katarino qo‘lini uning yelkasiga qo‘yib: «Soat o‘n birga yaqinlashib qoldi», – dedi. Aureliano o‘girilib, ayolning yuzidagi qip-qizil dog‘larni, qulog‘iga qistirilgan sun’iy gulni ko‘rdi va xuddi uyqusizlik kasali avj olgan paytidagidek, yana xotirasidan ayrildi. Ertalab, o‘zini notanish bir xonada ko‘rdi – ro‘parasida

yalang‘och, sochlari to‘zg‘igan Pilar Ternera qo‘lida chiroq tutgancha yigitga hayratlanib boqardi:

– Aureliano!

Aureliano o‘ziga kelib, boshini ko‘tardi. U bu yerga qanday kelib qolganini bilmasdi, ammo nima maqsadda kelganini yaxshi eslardi; chunki u hali bolalik chog‘idanoq bu istagini yuragining tub-tubida yashirib yurardi.

– Men sizni ko‘rgani keldim, – dedi yigit.

Aurelianoning kiyimlari loy va safroga belangan edi. O‘shanda ikki kenjatoy o‘g‘ilchasi bilan yashaydigan Pilar Ternera boshqa hech narsa so‘ramadi. To‘shakka boshlab keldi, ho‘l latta bilan yuzini artdi. Uxlab yotgan o‘g‘illari uyg‘ongan taqdirda ularning ko‘zi tushmasligi uchun pashshaxonani tushirdi. Pilap Ternera ona qishlog‘ida ayrilgan oshig‘i, yana qaytib kelaman, deya va’da berib, badar ketgan bevafo va qartalarning foliga tushib, hanuz uyga kelishga yo‘l topolmayotgan son-sanoqsiz erkaklarni kutaverib charchagan edi. Intiqlikdan terisiga ajinlar tushdi, ko‘kraklari osildi, yuragidagi o‘t so‘ndi. Pilar Ternera qorong‘ilikda Aurelianoni topib, qorniga qo‘lini qo‘ydi va onalarcha mehribonlik bilan bo‘ynidan o‘pdi. «Bechora mittiginam», – deya pichirladi. Aureliano titrab ketdi. U g‘amning qoyali qirg‘oqlaridan hech bir shoshilmay ishonch bilan nari suza boshladi. Yo‘lga tushib turib, Aureliano yig‘lab yubordi. Dastlab, beixtiyor ravishda uzuq-yuluq piqilladi, so‘ng yoshlari selday yopirilib kela boshladi va u ichida madda boylab yotgan bir shish yorilganini his qildi. Ayol uning sochlarini silab, to Aureleano yukidan xalos bo‘lguncha kutdi. Keyin Pilar Ternera: «Kim

u qiz?» – deb so‘radi. Aureliano qizning kimligini aytdi. Ayol sekingina kulib yubordi; uning kulgisi kaptarlarni ham hurkitib yuborardi, endi esa uyqudagi bolalarni uyg‘otishga ojiz edi. «Qaylig‘ingga egalik qilishing kerak», – deb hazillashdi. Ammo yigit uning hazili zamirida chuqur hamdardlik borligini tushundi. U yuragini bir necha oydan beri bosib yotgan og‘ir g‘am toshini xonada qoldirib chiqayotganida, Pilar Ternera nogahon va’da berdi:

– Men o‘sha qizaloq bilan gaplashaman. Mana, ko‘rasan, uni senga naq taqsimchaga solib, qo‘lingga tutqazaman.

U o‘z va’dasini bajardi-yu, ammo hozir buning mavridi emasdi. Buendialar xonadoni oldingi tinchligini yo‘qotgan edi. Rebekaning sevgi siri oshkor bo‘lgandan keyin ko‘p o‘tmay, Amarantani to‘satdan «bezgak» tutib qoldi. U javobsiz muhabbat tig‘iga duchor bo‘lgan edi. Amaranta hammomga berkinib, qaynoq muhabbatini xatga solar, ammo maktublarni jo‘natmasdan, sandiq tubiga yashirib qo‘yardi. Ikkala bemor qizga qarash Ursulani judayam toliqtirardi. Amarantaning tushkunligi sababini ming bor ayyorlik qilib ham bilolmadi. Axiri, Ursula sandiq qulfini buzib, pushtirang tasma bilan tang‘ilgan, nilufarlar hidi tutgan, ustiga tomgan ko‘z yoshlari hali qurimagan xatlarni topdi. Xatlar Petro Krespi nomiga bitilgan edi. Ursula g‘azabdan yig‘ladi, pianola xarid qilish xayoliga kelgan o‘sha kunni beomon la’natladi. U tikish ishlarini taqiqlab, o‘liksiz bo‘lsa-da, motamga o‘xshash bir holat e’lon qildi. Motam to qizlar muhabbatlaridan voz kechishguncha davom etishi kerak edi. Petro Krespiga

munosabatni o‘zgartirib, uning ustalik san’atini maqtashga o‘tgan Xose Arkadio Buendianing aralashuvidan ham naf chiqmadi. Ana shu voqealar tufayli, Pilar Ternera Aurelianoga Remedios unga tegishga ko‘nganini xabar qilganida, yigit xushxabar ota-onalarining g‘amiga g‘am qo‘shishini tushunsa-da, gunohni bo‘yniga oldi. Rasmiy muzokara uchun mehmonxonaga chaqirilgan Xose Arkadio Buendia bilan Ursula o‘g‘illarining ahd-u qarorini sabr bilan tinglashdi. Lekin Xose Arkadio Buendia bo‘lajak kelinning nomini eshitdi-yu, g‘azabdan qizarib ketdi. «Nima, aqldan ozdingmi? – deb baqirdi u. – Atrofda shuncha go‘zal qizlar turganda, kelib-kelib dushmanimizning qizini tanlaysanmi?! Ursula esa o‘g‘lining qarorini ma’qulladi. U: «Moskotelar oilasidagi yetti qizning ham husn-jamoli, mehnatsevarligi, kamtarligi, odob-axloqi menga juda yoqadi, tanlab to‘g‘ri qilibsan», – deya o‘g‘lini maqtadi. Xotinining bu gapidan keyin noiloj rozilik bildirgan Xose Arkadio Buendia: «Rebeka Petro Krespiga turmushga chiqadi, Ursula ishdan biroz bo‘shagach, Amarantani viloyatning markaziy shahriga olib boradi. Sayohat-u iqlim Amarantaning yuragidagi ishq o‘tini sovitar», – degan shart qo‘ydi.

Bu haqda xabar topgan Rebeka darhol tuzalib, qaylig‘iga quvonchli maktub yozdi, uni ota-onasining tasdig‘idan o‘tkazib, pochtaga shaxsan o‘zi olib bordi. Amaranta go‘yoki kattalarning qaroriga rozi bo‘lib ko‘rinsa-da, ichida: «Rebeka Petro Krespiga faqat men o‘lganimdan keyin tegadi», – deb ont ichdi.

Kelasi shanba Xose Arkadio Buendia qotirma yoqali, qora movut kamzul, bazm kuni xarid qilgan

yumshoq charm etigini kiyib, Remedios Moskotega sovchi bo‘lib bordi. Kutilmagan bu muhtaram mehmonni ko‘rib, korrexidor va rafiqasi quvonish bilan barobar tashvishga ham tushishdi, chunki uning nima muddaoda kelganini bilishmasdi. Maqsad aytilgach, ular Xose Arkadio Buendia bo‘lajak kelinning ismini almashtirib yuborgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylashdi. Xose Arkadio Buendiaga xatosini anglatish uchun Moskotening xotini narigi xonada uxlab yotgan Remediosini qo‘lida ko‘tarib, mehmonxonaga olib keldi. Qizaloq hali uyqudan batamom uyg‘onmagan edi. Remediosdan: «Rostdan ham erga tegishni istaysanmi?» – deb so‘rashganida, u hiqillab: «Uyqumga xalaqit bermasliklaringni istayman», – dedi. Xose Arkadio Buendia, er-xotin Moskotelarning shubhasi bejizmasligini tushunib, o‘g‘lining maqsadini aniqroq bilib kelgani uyiga ketdi. U yana qaytib kelgunicha er-xotin bu quvonchli voqeaga yarashig‘li yangi liboslarini kiyib, mehmonxonani tartibga solishgan, guldonlarga yangi uzilgan gullarni qo‘yishgan, katta qizlarini chaqirishgan ham edi. Ham noqulay vaziyat, ham dag‘al yoqasi unga behad azob berayotgan Xose Arkadio Buendia o‘g‘li haqiqatan ham Remediosni tanlaganini amallab ma’lum qildi. «Axir, bu aqldan emasku! – dedi ruhi tushib don Apoliner Moskote. – O‘sha go‘dakdan boshqa yana olti qizimiz bor, ularning har birining bo‘yi yetib qolgan va har biri sizning o‘g‘lingizdek jiddiy, mehnatkash kabalyeroga xotin bo‘lishga jon-jon deb ko‘nadi. Aurelianongiz bo‘lsa hali o‘rnini ho‘llab qo‘yadigan qizaloqni tanlabdi». Ko‘hlikkina, ko‘zlari g‘am-g‘ussaga to‘lgan, harakatlari sust Moskote

xonim erini qo‘pollikda aybladi. Dasturxonga meva sharbati tortilgach, er-xotin Aurelianoning qat’iyatidan ko‘ngillari iyib, axiri oq fotiha berdilar. Moskote xonim yana bir narsani: bo‘lajak qudam Ursula bilan holi gaplashsam, deya iltimos qildi. Ursula bu iltimosni eshitib, avvaliga, sovchilik erkaklarning ishi, aralashib nima qilaman, deb to‘ng‘illadi, lekin, baribir, sinchkovligi ustun chiqdi – ertasi kuniyoq hayajonlanib, xiyol cho‘chinqirib, Moskotelarning uyiga yo‘l oldi. Yarim soat o‘tmayoq qaytib kelib, hali Remedios balog‘atga yetmagani xabarini keltirdi. Aureliano bu vaj unga to‘sqinlik qilolmasligini aytdi. U Remediosni juda ko‘p kutgandi, endi esa balog‘atga yetguncha kutishga tayyorligini bildirdi.

Qayta tiklanayotgan tinch hayot oqimini Melkiadesning o‘limi buzdi. Cholning kuni bitgani hammaga ayon edi, lekin uning qazo tafsiloti hayratga soldi. Makondoga qaytib kelganidan bir necha oy o‘tgach, Melkiades juda tez qariy boshladiki, u tez orada shunchaki soyaday bemaqsad kezib yuradigan, saodatli damlarini baland ovozda zikr etuvchi munkillagan cholga aylandi-qoldi. Odatda bunday chollar bilan birovning ishi bo‘lmaydi, kunlarning birida ertalab to‘shakda o‘lik holda ko‘rib qolmagunicha hech kim esga ham olmaydi. Ilgari dagerrotipiya va Nostradamus karomatlariga qiziqib qolgan Xose Arkadio Buendia endi o‘zi Melkiadesga yordam berib yurardi. Ammo keyin uni ko‘pincha yakka qoldiradigan bo‘ldi, negaki, endi chol bilan gaplashish kundan kunga og‘irlashib borardi. Ko‘r va garang Melkiades, suhbatdoshlarini o‘n yillar oldin bilgan odamlari bilan almashtirar, savollarga esa

turli tillar qorishig‘i bo‘lmish allaqanday tushunarsiz lahjada javob qaytarardi. Xonalar bo‘ylab kezarkan, sezish qobiliyati kuchli bo‘lgani uchunmi, ishqilib, uchragan buyumlarni chaqqon aylanib o‘tar, lekin, baribir har gal qo‘llari bilan havoni paypaslagani-paypaslagan edi. Melkiades bir kuni karavoti yonidagi suvli stakandagi sun’iy tishlarini unutib qo‘ydi va shu-shu ularni hech qachon stakandan qayta olmadi.

Uyni kengaytirishga ahd qilgan Ursula, shovqin-surondan nariroq bo‘lsin deb, Aurelianoning ustaxonasi yonidan Melkiades uchun keng va yorug‘ bo‘lma qurdirdi, so‘ng u yerga javonlar o‘rnatib, cholning chang bosib, kuya tushgan qog‘ozlarini, sun’iy tishlar solingan stakanini (endilikda bu idishda sarg‘ish gulli suv o‘tlari tomir ota boshlagan edi) shaxsan o‘zi eltib qo‘ydi. Bo‘lma Melkiadesga ma’qul tushdi, shekilli, u hatto yemakxonagayam chiqmay qo‘ydi. Uni faqatgina Aurelianoning ustaxonasida uchratish mumkin edi. Lo‘li ustaxonada soatlab o‘tirib, patir qatlamiday mo‘rt bo‘lib qolgan pergamentlarga o‘zining sirli fikrlarini yozardi. Chol ustaxonada tamaddi ham qilardi. Visitasyon unga har kuni ikki mahal ovqat olib borardi. Biroq so‘nggi damlar cholning ishtahasi bo‘g‘ilgan, nuqul sabzavot yer, natijada judayam holsizlanib qolgan edi. Egnidan tushmaydigan nimchasi-yu, badanlarigacha yupqa va mayin mog‘or qoplagan edi. Aureliano she’r bitish bilan mashg‘ul bo‘lib, axiri lo‘lining bor-yo‘qligiga e’tibor bermay qo‘ydi, lekin bir kuni Melkiadesning g‘o‘ldirashidan nimadir uqqandek bo‘ldi. Aureliano uning ming‘ir-ming‘irdan, av-

valo, xuddi bolg‘achaning zarbidek qayta-qayta zikr etilgan «kecha-kunduz baravar, kecha-kunduz baravar» degan gapni va yana Aleksandr fon Gumboldtning nomini ajratdi. Aurelianoga zargarlikda yordamga kelgan Arkadio chol bilan sal-pal til topishishga muvaffaq bo‘ldi. Melkiades uning suhbatiga monelik qilmas, goho o‘zi ham bitta-ikkita ispancha so‘z aytar, lekin odatda bu so‘zlarning ayni kun voqealariga mutlaqo aloqasi yo‘q edi. Bir kuni kechasi lo‘li tamoman tinchini yo‘qotdi. Oradan ko‘p yillar o‘tib, devor ostida otishlarini kutib turgan Arkadio, Melkiades a’zoyi badani qalt-qalt titrab, o‘zining sirli yozuvlaridan bir necha varag‘ini o‘qib berganini eslaydi; albatta, u cholning yozuvlarini tushunmagandi, ammo qiroat bilan o‘qilgan bu yozuvlar o‘shanda Arkadioga go‘yo Rim papasining kuyga solingan nomlari yanglig‘ tuyilgan edi. O‘qishni tugatgach, ko‘p vaqtlardan beri aqalli jilmaymagan Melkiades birdan kuldi, so‘ng ispanchalab: «Men o‘lganimdan so‘ng xonamda uch kun simob qaynatilsin», – dedi. Arkadio bu gapni otasiga yetkazdi. Xose Arkadio Buendia choldan ta’bir so‘raganida, lo‘li lo‘ndagina qilib: «Men mangulikka erishdim», – deya javob berdi. Nafasi badbo‘ylashib qolgan Melkiadesni Arkadio payshanba kunlari ertalab daryoga cho‘milishga eltardi. Melkiades bolalar bilan suvga tushar, ko‘r bo‘lsa hamki, atrofini ko‘rib-bilib turganday, daryoning chuqurroq xavfli joylariga mutlaqo yo‘lamasdi. «Bizlar hammamiz suvdan paydo bo‘lganmiz», dedi u bir kuni. Vaqt o‘tar, chol esa o‘sha bazm kechasi – pianolani tuzatishga urinishgan oqshomdan beri uy ostonasini

hatlamagan, o‘zining kichik bo‘lmasida yashar, uni qo‘ltig‘iga dastro‘mol va sochiq qistirib, Arkadio bilan daryoga boradigan payshanba kunlari uchratishardi, xolos. Payshanba kunlarining birida Arkadio uni cho‘milishga taklif qilganida, Melkiades: «Men Singapur botqoqliklarida bezgakdan o‘ldim», – deya pichirlayotganini nogahon eshitib qoldi. Melkiades daryoning har galgi o‘zi cho‘miladigan joyiga emas, mutlaqo boshqa joyga tushdi va uni ertasiga ertalab bir necha chaqirim naridan topishdi; lo‘lining jasadi burumdagi sayoz joyda yotar, qorniga bir bo‘lak tovuq tezagi yopishib qolgan edi. Lo‘li vafotiga, hatto o‘z otasining vafotidan ko‘proq kuyingan Ursulaning e’tiroziga qaramay, Xose Arkadio Buendia jasadni ko‘mishni taqiqladi. «Melkiades o‘lmagan, u umrboqiylik formulasini kashf qildi», dedi. Temirchilik o‘chog‘iga o‘t qalab ustiga simob solingan qozonni o‘rnatdi. O‘choq yonidagi jasad bora-bora ko‘m-ko‘k pufakchalar bilan qoplandi. Don Apolinar Moskote Xose Arkadio Buendiaga, dafn etilmagan jasad atrofdagi odamlar sog‘lig‘iga tahdid tug‘diradi, deb eslatishga urindi. «Hech narsa bo‘lmaydi, axir, u tirik-ku», e’tiroz bildirdi Xose Arkadio Buendia. U simobni rosa yetmish ikki soat davomida qaynatdi. Endi murda oq ko‘kish tuproq rangiga kirib, ustini qoplagan pufakchalar sekin-sekin yorila boshladi. Uyni yomon hid tutib ketdi. Ana shundagina Arkadio Buendia uni dafn etishlariga ruxsat berdi, ammo bu marosimni nomiga emas, balki Makondoning buyuk valine’matiga yarashiqli izzat-ikrom bilan o‘tkazishni talab

qildi. Melkiadesni ko‘mish shahardagi birinchi va eng gavjum marosimga aylandi, ikkinchi bor esa, oradan yuz yil o‘tgach, Katta Onaning dafn marosimidagina shuncha odam ishtirok etadi, xolos. Lo‘lining jasadini qabriston uchun ajratilgan o‘tloq o‘rtasiga ko‘mib, qabr toshiga u haqda odamlar bilishadigan yagona narsa – «Melkiades» degan ism yozib qo‘yildi. Keyin, udumlariga ko‘ra, hammalari to‘qqiz oqshom uxlashmadi. Odamlar qahva ichish yoki latifa eshitish uchun Buendialar hovlisiga to‘planishardi. Talato‘pdan foydalangan Amaranta qulay fursat topib, Petro Krespiga o‘z sevgisini izhor qildi. Rebeka bundan bir necha hafta burun Krespiga unashtirilgan va hozirda kuyov bir vaqtlar arablar to‘tiqushlarga mayda-chuyda buyumlarni almashtirishgan joy – Turklar ko‘chasida musiqa asboblari-yu, burab yurgiziladigan o‘yinchoqlar do‘koni ochish bilan mashg‘ul edi. Xuddi moylagandek tovlanib turuvchi qo‘ng‘iroq sochlari zaifalarning havasini keltiradigan italiyalik bu yigit Amarantani tantiq qiz deb o‘ylab, uning so‘zlariga jiddiyroq e’tibor bermadi.

– Bir bo‘ydoq ukam bor, – dedi u qizga, – yaqinda menga yordam bergani keladi.

Amaranta o‘zini tahqirlangan his qildi. U alamidan, hattoki uyning oldiga o‘z jasadimni qo‘yib bo‘lsa ham singlimning to‘yiga xalaqit beraman, deb po‘pisa qildi. Italiyalik bu haqda Rebekaga so‘zlab berishdan o‘zini tiya olmadi. Oqibatda Amaranta Ursulaning qo‘li tegmayotgani uchun qoldirilayotgan safarga belgilangan kundan bir hafta oldin chiqishga majbur bo‘ldi. Amaranta

bunga qarshilik koʻrsatmadi, lekin Rebeka bilan xayrlasha turib, uning qulogʻiga shivirladi:

– Umidingni uzaver. Meni dunyoning narigi burchagiga olib ketishsa-da, baribir toʻylaringni buzaman. Men, hatto seni oʻldirishdan ham toymayman.

Ursulaning yoʻqligi, koʻz ilgʻamas Melkiadesning xonalar boʻylab sirli kezishlari tufayli, uylari bahaybat va boʻm-boʻsh tuyilardi. Rebekaga xoʻjalik ishlari yuritilishini nazorat qilib borish topshirilgan, hindu ayol esa novvoylik qilardi. Kechqurun, muattar boʻylar taratib, qoʻlida sovgʻa-salom koʻtarib, Petro Krespi tashrif buyurardi. Rebeka qayligʻini gap-soʻz koʻpayib ketmasin, deb barcha eshiklari-yu derazalari lang ochiq kattakon mehmonxonada kutib olardi. Uning ehtiyotkorligi ortiqcha edi, negaki italiyalik oʻzini doimo odobli tutar, Rebekaga, hatto qoʻlini ham tegizmas edi. Uy sovgʻa-salomga kelgan oʻyinchoqlarga toʻlib-toshdi. Burama raqqosalar, akrobat maymunchalar, nogʻorachilar, chopqir otlar – Petro Krespi keltirgan bu mexanik jonivorlar Melkiadesning vafotidan soʻng gʻamga botib qolgan Xose Arkadio Buendiaga huzur bagʻishladi, oʻyinchoqlar uni ilgari oʻzi kimyo bilan shugʻullanib yuradigan davrga qaytardi. Xose Arkadio Buendia ichak-chavogʻi chiqib yotgan jonivorlar, mexanizm boʻlaklarini yana takomillashtirish, aniqrogʻi, bu oʻyinchoqlarga mangu harakat ato etishga urinardi. Aureliano boʻlsa, ustaxonasidagi yumushini yigʻishtirib qoʻyib, Remediosga oʻqish-yozishni oʻrgata boshladi. Aureliano uylariga keldi deguncha, ota-onasi qizaloqni oʻyinchoqlaridan ajratib, yuvintirib, yangi liboslar kiygizib, mehmon-

xonaga majburan olib chiqishar, qizaloq esa har kuni kechqurun tashrif buyuradigan bu begona erkakdan qo‘g‘irchoqlarini afzal ko‘rardi. Ammo bora-bora Aurelianoning sabr-u sadoqati maftun etgan Remedios soatlab harf o‘rganar, daftariga rangli qalamlarda uylar, o‘tlab yurgan sigirlar, tepalik ortiga botayotgan zarg‘aldoq rangli quyosh rasmlarini chizardi.

Birgina Rebeka o‘zini bebaxt hisoblardi; u Amarantaning po‘pisasini hech unutolmasdi. Amarantaning fe’li ma’lum, rostdan ham o‘ch olishi mumkin, deb qo‘rqardi. Bechora qiz kesak yeyish odatiga qarshi butun vujudi bilan kurashardi. Bir kuni u qo‘rquvni yengish uchun Pilar Ternerani chaqirtirib, qartada fol ochishini so‘radi. Folbin allaqanday mujmal so‘zlardan keyin qizga dedi:

– Ota-onangning jasadi dafn etilmaguncha sen baxtli bo‘lolmaysan.

Rebekani titroq bosdi. Qachonlardir ko‘rgan tushi yodiga tushib, o‘zini sandiqcha, yog‘och kursi va qop ko‘tarib (qopda nima borligini umuman bilmasdi), ilk bor Buendialar uyiga kelgan o‘sha bolalik damlarini xotirasida tiklashga urindi. Birdan kanop nimchali, ko‘ylagining yoqasiga tilla to‘g‘nag‘ich taqqan kal hukmdorni esladi. U qartada aks ettirilgan tappon qirolga mutlaqo o‘xshamasdi. Qizaloq go‘zal va yosh, qo‘llari haroratli, yoqimtoy, uning barmoqlari qartadagi begimning kasal barmoqlaridan keskin farq qilardi, ayolni ham yodiga keltirdi, ayol uni tungi shaharning ko‘chalari bo‘ylab sayrga olib chiqishidan oldin, qizaloqning sochlarini mudom gullar bilan bezardi.

– Tushunmayapman, – dedi Rebeka.

– Men o‘zim ham tushunmadim, – dedi taajjublanib Pilar Ternera, – lekin qartaga tushgani shu.

Rebeka bu g‘alati karomatdan tashvishga tushib, dardini Xose Arkadio Buendiaga aytdi. U qizni irimchiligi uchun koyib berdi, ammo shu zahotiyoq hech kimga bildirmay, suyaklar solingan qopni qidirib, sandiq va javonlarni kavlashtira boshladi, jihozlarni u yoqdan bu yoqqa surdi, pol taxtalarini bir-bir ko‘tarib ko‘rdi. Uylarini qayta qurgandan buyon qop biror marta ham ko‘zga tashlanmagan edi. Xose Arkadio Buendia yashirincha g‘isht teruvchilarni to‘pladi, shunda ulardan biri, xalaqit bermasin, deb qopni yotoqxonaning devoriga berkitib suvab yuborganini tan oldi. Suyaklarning sharaq-shurug‘ini eshitmaguncha, bir necha kun quloqlarini devorga tutib tekshirishdi. Nihoyat topishdi – suyak solingan qop bus-butun saqlangan ekan. O‘sha kuniyoq suyaklarni Melkiadesning mozori yoniga, hech bir qabr toshi o‘rnatmasdan ko‘mishdi. Xose Arkadio Buendia uyiga ruhi yengillashib qaytdi. U oshxonadan o‘tarkan, Rebekaning peshonasidan o‘pib qo‘ydi.

– Bu ahmoqona fikrlarni miyangdan chiqarib tashla, – dedi qizaloq. – Sen baxtli bo‘lasan.

Pilar Ternera Rebeka bilan do‘stlashgach, unga Ursula bir vaqtlar Arkadio bahonasida yopib qo‘ygan eshik qayta ochildi. Endi Pilar Ternera Buendialar xonadoniga istagan vaqtda kelar va eng og‘ir yumushlarni bajarib qaytardi. Gohida esa ustaxonaga kirib, dagerrotip plastinkalariga ishlov berishda Arkadioga mehribonlik va tirishqoqlik bilan yordamlashardiki, oxiri o‘spirin negadir tortinadigan bo‘lib qoldi. Bu ayolni ko‘rganida o‘zini yo‘qotib qo‘yardi. Uning harorat-

li badanidan taraluvchi tutun hidi, bu qorong‘i xonaga mutlaqo mos tushmaydigan jarangdor kulgisi o‘spirinning xayolini bo‘lar, shu bois, xato ustiga xato qilardi.

Bir kuni Pilar Ternera ustaxonada Aurelianoga duch keldi. Ayol xontaxtaga tirsaklarini tiraganicha, yigitning aniq va chaqqon harakatlarini shavq bilan kuzata boshladi. Bu voqea xuddi ana shunday paytda sodir bo‘ldi. Aureliano Arkadioning qo‘shni xonadaligiga ishonch hosil qildi va shundan so‘ng boshini ko‘tarib, Pilar Terneraga boqdi-yu, uning ko‘zlarida go‘yo choshgohdagi quyoshday porlab turgan charog‘on bir fikrni uqdi.

– Qani, nima gap? – deb so‘radi Aureliano.

Pilar Ternera lablarini qimtib, g‘ussali tabassum qildi.

– Sen jang uchun yaratilgansan, – javob qaytardi u. – Mo‘ljalga aniq otar ekansan.

Aureliano fikri to‘g‘ri bo‘lib chiqqanini bilib, yengil tin oldi. So‘ng go‘yoki hech narsa bo‘lmagandek, xontaxtaga engashib, ishga tushdi-da: «Bolani tan olaman, unga ismimni ham beraman», – dedi vazmin va qat’iy ohangda.

Xose Arkadio Buendianing orzusi ushaldi; soat mexanizmi prujinasini raqqosa qo‘g‘irchoqlardan biriga o‘rnatdi. O‘yinchoq o‘z musiqasi ohangiga rosa uch kun tinmasdan raqsga tushdi. Bu ixtiro Xose Arkadio Buendiani ilgarigi barcha ixtirolaridan ham ko‘proq hayajonlantirdi. U ovqat yemay qo‘ydi. Uyquning bahridan kechdi. Tuni bilan xonaning u burchagidan bu burchagiga borib kelar va soat kapgirini aravaga, omochga, qo‘yingki, odamlar uchun xizmat qiladigan har bir harakatlanuvchi uskuna-yu asbobga o‘rnatish

haqda ovoz chiqarib, o‘y surardi. Uyqusizlik uni nihoyatda toldirgan edi. Shu bois, bir kuni yotog‘iga sochlari qirovdek oppoq chol istar-istamay qadam tashlab kirib kelganida, uni taniyolmadi. Bu – Prudensio Agilyar edi. Mehmonning kimligini bilgandan so‘ng, Xose Arkadio o‘liklar ham qarishini ixtiro etib, ma’yus bir kayfiyatga tushdi. «Prudensio! – dedi u hayqirib. – Bu yerga qanday kelib qolding?» O‘liklar mamlakatida uzoq yillar yashagani sabab marhum tiriklar bilan muloqotda bo‘lib, to‘yib-to‘yib gaplashishni rosa sog‘ingan, o‘lim ichidagi yana bir o‘lim muhlati yaqinlashuvi tufayli, Prudensio Agilyar o‘zining eng yovuz dushmanini sevib qolgan edi. U Xose Arkadio Buendiani ko‘pdan buyon qidirardi. Uni Riocha, Valtede Upar hamda vodiydan kelgan o‘liklardan surishtirar, ammo unga hech kim yordam berolmasdi – chunki to Melkiades o‘lib, Makondo shahri ajalning chipor xaritasiga qora nuqta bo‘lib tushmaguncha, Makondo marhumlarga noma’lum edi-da, axir Xose Arkadio Buendia Prudensio Agilyar bilan tonggacha suhbat qurdi.

Nihoyat iligi qurib, bir necha soatdan keyin Aurelianoning ustaxonasiga kirib:

– Bugun qanday kun? – deb so‘radi.

– Seshanba, – deya javob berdi o‘g‘li.

– O‘zim ham shunday deb o‘ylagan edim, – dedi Xose Arkadio Buendia, – ammo keyin hanuzgacha dushanba davom etayotganini sezdim. Osmonga qara, quyoshning jaranglashini eshit, hammasi xuddi kechagiday va o‘tgan kungiday. Bugun – yana dushanba.

Otasining hardamxayolligiga ko‘nikib qolgan Arkadio uning so‘zlariga e’tibor bermadi. Erta-

siga, chorshanbada Xose Arkadio Buendia yana ustaxonada paydo bo‘ldi.

– Ko‘rgilik degin, bolam, – dedi u. – Osmonga qara, quyoshning jaranglashini eshit, hammasi – xuddi kechagi va o‘tgan kungidek. Bugun – yana dushanba-ya.

Kechqurun Petro Krespi uni peshayvonda uchratdi. Xose Arkadio Buendia, ko‘zi jiqqa yoshga to‘lgancha, chollarga o‘xshab xunuk hiqillab, Prudensio Agilyar, Melkiades, Rebekaning ota-onasi, o‘zining buvisi – bu dunyoni tark etgan barcha yor-birodarlariga aza tutardi. Petro Krespi unga simda dorbozlik qiluvchi qo‘g‘irchoq ayiq sovg‘a qildi hamki, Xose Arkadio Buendianing g‘ussasi tarqalmadi. Shunda Petro Krespi:

– Osmonga parvoz qiladigan mashina mayatnik yasamoqchi edingiz, nima bo‘ldi? – deb so‘radi.

– Bunday mashina yasashning iloji yo‘q, mayatnik hamma narsani tepaga ko‘tarishi mumkin, lekin o‘zini-o‘zi aslo ko‘tarolmaydi, – dedi Xose Arkadio Buendia.

Payshanba kuni u tag‘in ustaxonaga keldi. Ko‘rinishi zabun bo‘lib, allaqanday umidsizlikka tushgandi.

– Vaqt mashinasi buzildi, – dedi Xose Arkadio Buendia deyarli ho‘ngrab. – Ustiga-ustak, Ursula bilan Amaranta yiroqda!

Aureliano otasini xuddi yosh bolani koyigandek koyidi. Ota itoatkorlik bilan jimib qoldi. U olti soat ichida buyumlarning tungi ko‘rinishi kunduzgisidan farq qilish-qilmasligini aniqlash maqsadida ularga diqqat bilan tikildi. Vaqt harakatlanishini isbotlash uchun o‘jarlik bilan buyumlarda yuz bergan o‘zgarishni qidirar edi.

Xose Arkadio Buendia tun bo‘yi ko‘zlari ochiq holda yotdi va o‘z g‘am-tashvishlarini baham ko‘rish uchun Prudensio Agilyar, Melkiades hamda barcha marhumlarni huzuriga chorladi. Ammo oldiga hech kim kelmadi. Juma kuni ertalab, uyidagilar uxlab yotishganda, u yana atrofdagi buyumlar qiyofasini o‘rgana boshladi. Endi u dushanba hali ham davom etayotganligiga zarracha shubha qilmasdi. Xose Arkadio Buendia tutaqib ketdi va eshiklardan birining temir dastagini yulib oldi-da, kimyo uskunalarini g‘azab bilan parchalab tashladi, suratkashlik laboratoriyasi, zargarlik ustaxonasini chilparchin qildi. U xuddi shayton vasvasaga solganday, qandaydir notanish tilda baqirib-chaqirdi. Otasi boshqa xonalarni ham ag‘dar-to‘ntar qilmoqchi bo‘lganida, Aureliano hamsoyalarini yordamga chaqirdi. Xose Arkadio Buendiani yiqitishga o‘n kishi kerak bo‘ldi, o‘n to‘rt kishi esa qo‘l-oyoqlarini bog‘ladi, nihoyat, yigirma kishi bo‘lib, uni hovlidagi kattakon kashtan daraxti oldiga sudrab borib, daraxt tanasiga arqon bilan tang‘ib tashlashdi, ammo Xose Arkadio Buendia hamon o‘zining g‘alati shevasida so‘kinar, og‘zidan yashil ko‘pik chiqar edi. Ursula bilan Amaranta qaytib kelishganida, u qo‘l-oyog‘i bog‘liq holda yomg‘irda ivib o‘tirar, lekin endi ancha yuvosh va xatarsiz edi. Ursula uning qontalash tirsaklari va to‘piqlarini banddan ozod qilib, faqat belidagi arqonni qoldirdi. Keyinchalik quyosh va yomg‘irdan to‘sish uchun uning tepasiga soyabon ham o‘rnatishdi.

Aureliano Buendia bilan Remedios, padre Nikanor Reynening ko‘rsatmasiga binoan mehmonxonada qurilgan mehrob oldida mart oyining

yakshanbalaridan birida nikohdan o‘tishdi. Remediosda dastlabki balog‘at belgilari ko‘ringach, Maskotelar xonadonida butun oy davomida ro‘y bergan hayajon-u tashvishlarga to‘y kuni xotima berildi. Onasi qizga hayz nimaligini o‘z vaqtida tushuntirgan bo‘lishiga qaramay, fevral tunlaridan birida Remedios opalari Aureliano bilan suhbat qurib o‘tirgan mehmonxonaga qo‘rquvdan dod solib kirdi va o‘zining qoramtir dog‘ tushgan lozimini ko‘rsatdi. Shundan so‘ng to‘y muddati belgilandi. Bu qisqa vaqt davomida kelinchakka mustaqil yuvinish va kiyinishi hamda ro‘zg‘ordagi eng oddiy muammolarni hal qilishni zo‘r-bazo‘r o‘rgatishga ulgurishdi. Tunda ko‘rpani ho‘llab qo‘ymasligi uchun, uni issiq g‘isht parchalari ustiga peshob qilishga majbur etishardi. Remediosga er-xotinlik siri daxlsiz qolishi zarurligini tushuntirish, ayniqsa, qiyin kechdi: unga nikoh kechasi tafsilotlarini aytib berishganidayoq, qizaloq taajjublanib, shu qadar zavq-shavqqa to‘ldiki, endi bilganlarini duch kelgan odam bilan amalda baham ko‘rishga tayyor edi. Remedios uyidagilarni rosa tashvishga qo‘ydi, ammo to‘y kuni yaqinlashgani sayin u turmush ikir-chikirlarini opalaridan ham yaxshiroq tushunadigan bo‘ldi. Don Apolinar Maskote qizini qo‘lidan tutganicha, osmonga uchayotgan mushaklar yorug‘ida, musiqa sadolari ostida, gullar bilan bezangan ko‘cha bo‘ylab yetaklab borarkan, Remedios derazalar ortidan unga baxt tilayotgan qo‘shnilariga qo‘llarini silkib, minnatdorchilik izhor qilar edi. Aureliano qora movut kostyum va moylangan, oradan necha yillar o‘tib devor ostida o‘zini otishlarini kutayotganida ham oyog‘iga iladigan poyab-

zalini kiyib, qaylig‘ini mehmonxona ostonasida kutib oldi-da, mehrob sari boshladi. Kuyovning rangi oqarib ketgan, tomog‘ining tomirlari tortardi. Remedios o‘zini risoladagidek, kamtarona tutdi, hatto Aureliano qo‘lidagi uzukni unga taqaman, deb yerga tushirib yuborganida ham, o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi. Bu hol to‘planganlarni esankiratib qo‘ydi, mehmonlar allanarsalar deb pichirlay boshladi, lekin Remedios kuyov eshik tomon dumalayotgan uzukni oyog‘i bilan to‘xtatib, so‘ng xijolatdan qizarib mehrobga qaytib kelgunicha, uni xotirjam kutib turdi. Onasi, opalari marosim payti Remedios yanglishib qolmasin, deb shunchalik cho‘chishdiki, oxir-oqibatda qattiq toliqishib, o‘zlari qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yishdi, ya’ni Remediosga, kuyovni birinchi o‘pgin, deb tayinlashdi. Xuddi shu kuni Remediosdagi xotirjamlik, aql-u odob hissi tug‘maligi yaqqol namoyon bo‘ldiki, bu ajoyib xislatlar eng qiyin sharoitlarda ham uni tark etmadi. Kelin hech kimning maslahatisiz to‘y tortining eng yaxshi bo‘lagini taqsimchaga joyladi-da, Xose Arkadio Buendiaga eltib berdi. Kashtan daraxtiga bog‘lab qo‘yilgan keksa pahlavon quyosh nurlari va yomg‘irdan sarg‘aygan peshayvon ostidagi o‘rindiqda o‘tirardi. U tashakkur bildirib jilmaydi-da, qo‘lidagi shirinlikni olib, allaqanday duoni takrorlagancha, kavshana boshladi. Dushanba kuni ertalabgacha cho‘zilgan bu quvnoq bazmda birgina Rebeka Buendia o‘zini baxtsiz his qilardi, Rebeka ham o‘sha kuni nikohdan o‘tishi lozim edi, ammo juma kuni Petro Krespiga: «Onang o‘lim to‘shagida yotibdi», degan maktub tegdi-yu, to‘yi qoldirildi. Xat Petro Krespiga tekkach, viloyat poytaxtiga

ketdi. Onasi sog‘ ekan, u aytilgan vaqt – shanba kechasi Makondoga yetib kelib, o‘g‘lining to‘yiga atalgan qo‘shig‘ini Aurelianoning to‘yida aytib berdi. Petro Krespi to‘y tarqalgach, yakshanba kechasi ortiga qaytdi. Hattoki u to‘yga kech qolmayin deb shoshilib, besh otni harom o‘ldirgan edi. Bu mash’um xatning muallifini hech kim bilolmadi. Ursula Amarantani rosa qistovga oldi. Lekin Amaranta hali duradgorlar buzishga ulgurmagan mehrob oldiga kelib: «Bu ishda aybim yo‘q», – deya yig‘lab ont ichdi.

Don Apolinar Moskote nikoh o‘qitish uchun, ruhoniylik kasbini tanlagani uchun taqdiridan norozi Padre Nikanor Reyneni atay qo‘shni shahardan olib kelgan edi. Padre terisi ustixoniga yopishgan, rangi zahil kishi edi. Sal-pal qorin qo‘ygan bu kimsaning chehrasida, go‘yo munkillab qolgan farishtaning yuzidagi kabi, ezgulikdan ko‘ra soddadillik alomatlari zohir edi. U to‘ydan so‘ng o‘z cherkovi-yu o‘z qavmi yoniga qaytmoqchi edi-yu, ammo gunohga botib yashayotgan makondoliklarning bu qadar beg‘amligini ko‘rib, dahshatga tushdi: bular faqat tabiat qonunlariga bo‘ysunishar, na bolalarini cho‘qintirishar, na diniy bayramlarni tan olishardi. Padre hali omoch ko‘rmagan bu zarang dala baquvvat qo‘shchining yordamiga muhtoj degan fikrga keldi va kesilganlar-u butparastlarni cho‘qintirish, nikohsiz yashayotganlarni nikohlash, marhumlarning ruhiga duo aytish niyatida, Makondoda yana biror hafta qolishga ahd qildi. Lekin hech kim va’zlarini tinglashga ishtiyoq bildirmadi. Unga, necha yildirki, ruhoniysiz ham tuppa-tuzuk yashaymiz, do‘zax-u jannat – qay biriga tushishimizni Xu-

doning o‘zi hal qiladi, biz og‘ir gunoh qilganimiz ham yo‘q, deb aytishdi. Behuda tashviqot yurgizib horigan Nikanor Reyne Xudosizlik maskani bo‘lmish bu shaharda shunday bir muazzam ibodatgoh qurayki, aziz-avliyolarga, hatto Rimdan ham ziyoratchilar keladigan bo‘lsin, deb ont ichdi. So‘ng qo‘liga mis likopcha tutgancha, odamlardan sadaqa yig‘a boshladi. Unga saxiylik bilan xayr-ehson qilishar, ammo ruhoniy bo‘lajak ibodatxonaga, hatto cho‘kkanlarni ham suv betiga qalqitib chiqarishga ovozi qodir juda ulkan qo‘ng‘iroq o‘rnatilishini aytib, ko‘proq pul so‘rardi. Ruhoniy sillasi qurigancha yalinib-yolvorar, tovushi bitib, suyaklari qisirlardi.

Shanba kunlarining birida yiqqan pullarini hisoblab chiqib, mablag‘i ibodatxonaning eshigiga ham yetmasligini bildi, lekin baribir tushkunlikka tushmadi. U shahar maydoniga mehrob o‘rnatdi va bozor kuni, xuddi parishonxotirlik kasali tarqalgan paytdagidek, qo‘lidagi qo‘ng‘iroqchasini chalib, ko‘chadan ko‘chaga yugurgancha, odamlarni ibodatga chorladi. Aksariyat kishilar shunchaki sinchkovlik vajidan kelishdi. Kimdir bekorchilikdan, kimdir esa ruhoniyga ozor yetkazganlari uchun, Xudoning g‘azabiga duchor bo‘lishidan qo‘rqib, qadam ranjida qildi. Padre Nikanor ovozini baralla qo‘yib «Injil»ni o‘qir va o‘qishni tez-tez to‘xtatib, odamlardan pul so‘rardi. Maydonga shaharning deyarli yarim aholisi to‘plangan edi. Yig‘in tugab, odamlar tarqala boshlayotganida, Padre qo‘lini ko‘tarib, ularning e’tiborini jalb qildi.

– Bir daqiqa, – dedi u. – Hozir sizlar Xudoning cheksiz qudratiga imon keltirasiz.

Yig‘inda Padre Nikanorga ko‘maklashib yurgan bir bola hovuri chiqib turgan qaynoq shokolad keltirdi. Ruhoniy uni bir ko‘tarishda simirdi. So‘ng cho‘ntagidan ro‘molcha olib labini artdi-yu, ikki qo‘lini oldinga cho‘zib, ko‘zlarini yumdi va u kutilmaganda yerdan o‘n ikki santimetr balandga ko‘tarildi. Odamlar Xudoning qudratiga ishonishdi. Padre bir oy davomida shahar kezib, takror-takror qaynoq shokoladni yutdi, yerdan ko‘tarildi, katta mablag‘ to‘pladi va oradan bir oy o‘tar-o‘tmas, ibodatxona qurilishi boshlab yuborildi. Padre ayon etgan mo‘jiza Xudodan ekanligiga Xose Arkadio Buendiadan bo‘lak hamma ishonardi. Bir kuni ertalab Nikanorning galdagi ko‘tarilishini tomosha qilgani kashtan daraxti yonida olomon to‘plandi. Nikanor o‘zi o‘tirgan kursi bilan birgalikda havoga ko‘tarilayotganida, Xose Arkadio Buendia gavdasini xiyol tiklab, yelkasini qisgancha, unga sovuqqonlik bilan tikilib turdi-da:

– Hos est simplicissmun, – dedi Arkadio Buendia. – Homo iste statum mateviel invenit[1].

Ruhoniy Nikanor qo‘lini ko‘tarishi bilanoq stulning to‘rttala oyog‘i ham bir vaqtning o‘zida yerga tushdi.

– Nedo, – e’tiroz bildirdi u. – Factum hos existentiam. Den pvobot sine[2].

Ilgari Xose Arkadio Buendianing antiqa shevada gaplashishiga taajjublangan odamlar, hozir u lotin tilida gapirganini bilib olishdi. Nihoyat, Nikanorni tushunadigan odam topildi va

[1] Bu oddiy narsa. U materiyaning to‘rtinchi holatini ochgan, xolos (lotincha).

[2] Inkor qilaman. Bu Xudo borligining chinakam isboti emas.

ruhoniy bu baxtli tasodif tobora putur yetayotgan idrokni dinning sehrli kuchi bilan tiklashga imkon beruvchi qulay vaziyatligini sezdi. U har kuni kechqurun kashtan tagida o‘tirib, lotin tilida xutba o‘qir, ammo Xose Arkadio Buendia uning notiqlik san’atini tan olmas, sovg‘aga keltirilgan shokoladlarga qo‘l tegizmas, Padrega nuqul: «Agar Xudo bor bo‘lsa, avvalo uning fotosuratini ko‘rsating», – derdi. Shunda Padre unga ikona va gravyuralar, hatto Veronika ro‘molining nusxasini olib keldi, ammo Xose Arkadio Buendia, bularda ilmiy asos yo‘q, shunchaki kosiblik, deya e’tiroz bildirdi. U shu qadar o‘jarlik qildiki, oxiri Nikanor cholning yoniga diniy tashviqot emas, balki oddiy odamgarchilik yuzasidan keladigan bo‘ldi. Ana shunda Xose Arkadio Buendia tashabbusni qo‘lga olib, oqilona dalillari bilan ruhoniyning diniy e’tiqodiga zarba bera boshladi. Kunlarning birida Padre Nikanor shashka olib kelib, bahsdoshiga shashka o‘ynashni taklif qildi. Lekin Xose Arkadio, asosiy masalalar yuzasidan o‘zaro hamfikr raqiblarining kurashida hech qanday ma’no yo‘q, deb aytdi. Shashka o‘yiniga hali hech qachon bunday nuqtayi nazardan yondashmagan Nikanor ming harakat qilsa-da, baribir, Xose Arkadio Buendiani ko‘ndira olmadi. Xose Arkadio Buendianing o‘tkir zehniga tobora tan bera boshlagan ruhoniy uni nega daraxtga bog‘lab qo‘yishganini surishtirdi.

– Host est simricissinum, – javob qaytardi u, – meni telba bo‘lganligim uchun bog‘lab qo‘yishdi.

Shu-shu, o‘zi ham aqldan ozishidan qo‘rqib, Padre uning yoniga yo‘lamay qo‘ydi va o‘zini butkul ibodatxona qurilishiga bag‘ishladi. Rebe-

ka qalbida yana umid uyg‘onayotganini sezdi. O‘sha kuni Padre Nikanor bu xonadonda tushlik qilayotib, oila a’zolariga cherkov bitgandan so‘ng bo‘ladigan ajoyib ibodatlar to‘g‘risida gapirib bergandan boshlab, Rebekaning taqdiri imoratning bitishiga bog‘liq edi. «Hammadan ham Rebekaning omadi chopdi», dedi Amaranta. Ammo Rebeka gapini tushunmagach, u jilmayib, izoh berdi:

– Axir, sen cherkovni o‘z to‘ying bilan ochib berasan-da.

Rebeka bu imkoniyatni muhokama qilishdan o‘zini tortdi. Negaki qurilish judayam sust borar va uning bitishi uchun kamida o‘n yil talab qilinardi. Padre Nikanor Rebekaning fikriga qo‘shilmadi: dindorlarning tobora avj olayotgan saxiyligi bu muddatni ancha qisqaroq belgilashni taqozo etardi. Ursula Amarantaning gapini qo‘llab-quvvatladi. Rebeka ichida rad etib turgan paytda u: «Men ham qurilishni tezlatishga tuzukroq hissa qo‘shmoqchiman», – dedi. Padre Nikanor: «Agar kattaroq ehson qilinsa, ibodatxona uch yilda tiklanadi», – dedi. Shu kundan boshlab, Rebeka Amaranta bilan gaplashmay qo‘ydi, chunki singlisining fikri, garchand Amaranta o‘zini bu gapni shunchaki aytgandek ko‘rsatishga urinsa-da, Rebekaga og‘ir botgan edi. «Shunga ham rahmat degin, axir men senga bundan ham battar yomonlik qilishim mumkin edi-ku, – dedi Amaranta kechqurun bo‘lib o‘tgan ayovsiz mojaro payti. – Ibodatxona uch yilda bitarkan, demak, men seni yana uch yil davomida o‘ldirmas ekanman-da».

Rebeka uning da’vatini qabul qildi.

Petro Krespi to‘ylari bu gal ham ortga surilganini eshitgach, tushkunlikka tushdi, ammo kelin

unga bo‘lgan sadoqatini ayon etib: «Siz istagan paytingizda ikkimiz biror yoqqa qochib ketishimiz mumkin», – dedi. Lekin Petro Krespi bunday qaltis ishlarga moyil emas, unda qaylig‘iga xos jo‘shqinlik yetishmas va u berilgan va’daga nisbatan hurmatni o‘ng-u so‘lga sarf qilish taqiqlangan bir boylik, deb hisoblardi. Shunda Rebeka qaltis bo‘lmagan usullarni qo‘llashga o‘tdi: ba’zida to‘satdan turgan shamol mehmonxonadagi chiroqni o‘chirib qo‘yar va Ursula qorong‘ida o‘pishayotgan kelin-kuyovga duch kelib qolardi. Petro Krespi tutila-tutila yangi chiroqlarning sifati yomonligidan shikoyat qilardi. U, hatto mehmonxonaga birmuncha kuchliroq yoritish vositalarini o‘rnatishga bosh-qosh bo‘ldi. Ammo endi ko‘pincha chiroqdagi moy tugagan yoki uning piligi ishdan chiqqan bo‘lar, Ursula yana kelinning kuyov tizzasida o‘tirganini ko‘rib qolardi. Oxiri Ursula chiroq ataylab o‘chirilayotganini sezdi. U novvoylik yumushlarini hindu ayolning zimmasiga yuklab, o‘zi esa eski nayranglarga laqqa tushib qolmaslik uchun, tebranma kursiga o‘tirar, Rebeka bilan Petro Krespini jiddiy nazorat qilar edi. «Bechora onaginam, – derdi Rebeka kinoya-yu g‘azab aralash homuza tortayotgan Ursulaga ko‘zi tushib, – shu gunohlari uchun, albatta, narigi dunyoda jazosiz qolmas-ku!» Ibodatxona qurilishidan kunora xabardor bo‘lib turgan va ishning sust borayotganidan uqubat chekayotgan Petro Krespi, nazoratning uchinchi oyida Padre Nikanorga ancha pul tutqazdi. Bu yangilik Amarantaga ta’sir qilmadi. Har kech chevarlig-u gurung bahonasida peshayvonga to‘planadigan dugonalari bilan gaplasharkan, u yangidan yangi intiqom

usullarini qidirardi. Lekin bir jihatdan Amarantaning mo‘ljali chippakka chiqdi. Ibodatxonaning bitishiga ikki oy qolganda u Rebekaning kelinlik libosi saqlanayotgan javondan kuyadorini olib qo‘ydi. Ammo Rebeka, sabri chidamay, kelinlik libosini Amaranta ko‘zlagan muddatdan ancha ilgari tayyorlab qo‘ymoqchi bo‘ldi. Rebeka oldin javon tortmasidagi qog‘oz o‘ramini, so‘ngra libos o‘ralgan matoni ochib ko‘rdi-yu, hang-u mang bo‘lib qoldi. Shoyi ko‘ylak, to‘r-to‘r fata va, hatto, sun’iy gulchambarni ham kuya yeb, naq kukunga aylantirib tashlagan edi. Qiziq, javon ichiga ikki siqim kuyadori sepib qo‘yganini kechagidek eslardi, lekin bu baxtsizlik shunchalar tasodifiy bo‘lib tuyildiki, Rebeka, hatto Amarantadan shubhalanishga jur’at etolmadi. To‘ygacha ikki oy qolgan edi. Amparo Moskote unga bir hafta ichida yangi libos tikib beraman, deb va’da berdi. Yomg‘irli kunlarning birida Amparo oppoq matolarga burkanib, Rebekaga bitay deb turgan yangi libosni kiydirib ko‘rish uchun kelganida, Amaranta hushidan ketayozdi. Uning tili kalimaga kelmas, umurtqasi bo‘ylab muzdek sovuq ter oqib tushardi. Amaranta juda ko‘p oylardan buyon qo‘rqib-qaqshab yashardi, chunki u to‘yni to‘xtatishiga hech qanday chora yo‘q, Rebekani zaharlashini aniq bilardi. Rebeka Amparo Moskote sabr-toqat qilib, son-sanoqsiz to‘g‘nag‘ichlar yordamida egniga kiygazayotgan ko‘ylak ichida issiqdan zo‘rg‘a nafas olarkan, kashta tikayotgan Amaranta halqalarni sanashda tez-tez adashib, barmoqlariga nina sanchilsa-da, mudhish sovuqqon tarzda zaharlaydigan kun – to‘ydan oldingi birinchi juma, zaharlash

usuli – qahvaga qo‘shiladigan bir chimdim afyun bo‘ladi, degan qarorga keldi.

Kutilmaganda boshqa bir baxtsizlik to‘yni yana keyinga surdi. Rebeka bilan Petro Krespining nikohlariga bir hafta qolganida, kichik Remedios yarim kechasi ichidan qon ketib uyg‘ondi va uch kundan so‘ng o‘z qonidan zaharlanib o‘ldi. Ma’lum bo‘lishicha, ichida egizak homilasi ko‘ndalang turib qolgan ekan, Amaranta vijdon azobiga giriftor bo‘ldi. U Remediosnig o‘limida o‘zini aybdor hisoblar va Rebekaga zahar berib qo‘ymaslik uchun doim Xudodan o‘ziga o‘zi zavol tilardi. Yo‘q, u Xudodan ayni baxtsizlikni, ya’ni Remediosning o‘limini tilamagan edi. Remedios ularning xonadoniga baxt va quvonch keltirdi. U eri bilan ustaxona yonidagi yotoqxonada yashar va butun xonani o‘zi olib kelgan qo‘g‘irchoqlar bilan bezab tashlagan edi, uning shodonligi, hayotga bo‘lgan cheksiz muhabbati yotoqning to‘rt devoriga ham sig‘mas, gullar ekilgan peshayvon bo‘ylab shamoldek esardi. Remedios quyosh chiqqanidan boshlab qo‘shiq aytishga tushardi. Amaranta bilan Rebeka o‘rtasidagi janjallarga yolg‘iz Remediosgina chek qo‘yardi. U Xose Arkadio Buendiaga qarab turishdek og‘ir vazifani ham o‘z zimmasiga olgan edi. Unga ovqat tashir, sovun bilan ishqalab yuvintirar, soch-soqoliga bit tushmasligini nazorat qilib turar, shiyponchani supurib-sidirar, dovul paytlari shiyponcha ustiga suv o‘tkazmaydigan matoh to‘shardi. So‘ngi oylarda esa u Xose Arkadio Buendia bilan, garchand buzib gaplashsa-da, lotin tilida gaplashadigan bo‘ldi. Pilar Terneraning Aurelianodan tug‘ilgan o‘g‘li uylariga keltirilganida (xonadondagilar unga

Aureliano Xose deb nom qo‘yishgan edi), Remedios bu go‘dakni o‘zining ilk farzandiday qabul qildi. Undagi onalik mehri, hatto Ursulani ham lol qoldirgan edi. Aureliano o‘z hayotini Remediossiz tasavvur qilolmas, unga batamom suyanib qolgandi. U kun bo‘yi ustaxonada ishlarkan, Remedios unga shakar solinmagan qora qahva olib kelardi. Kechqurunlari ikkovlashib Moskotelarnikiga borishardi. Remedios opalari bilan suhbatlashayotganida yoki onasi bilan kattalarning yumushlari haqida fikr yuritayotganida, Aureliano qaynotasi bilan domino o‘ynab o‘tirardi. Buendia oilasi bilan qarindosh bo‘lgach, don Apolinar Moskotening obro‘si oshdi. U viloyat poytaxtiga qatnayverib, boshliqlarga Makondoda maktab qurish zarurligini isbotlab berdi. Maktabda bobosidan o‘qituvchilik iste’dodi yuqqan Arkadio muallimlik qilishi lozim edi. Moskote olib borgan tashviqot tufayli milliy mustaqillik kuni munosabati bilan Makondo ahlining aksariyati o‘z uylarini ko‘kka bo‘yadi. Moskote, Padre Nikanorning talabiga binoan, Katarino ishratxonasini chekka ko‘chaga ko‘chirdi, faoliyati kun sayin avj olib borayotgan shahar markazidagi boshqa bir qator ishratxonalarni berkitishga farmon berdi. Bir kuni don Apolinar Moskote viloyat markazidan olti nafar qurolli politsiyachi bilan qaytib, ular zimmasiga tartib-intizom nazoratini yuklaganida, Makondoda qurolli odamlarni saqlamaslik to‘g‘risidagi eski bitimni hech kim eslamadi ham. Qaynotasining shijoati Aurelianoga yoqardi. «Sen ham unga o‘xshab semiz bo‘lasan», – derdi unga do‘stlari. Ammo ustaxonada uzzukun o‘tiraverganidan hech semirmadi, yonoqlari turtib chiqib,

ko‘zlari ich-ichiga botib ketdi, fe’l-atvori ham bosiqligicha qoldi. Aureliano bilan rafiqasini har ikkala oiladagilar ham cheksiz sevishardi. Remedios farzand ko‘rayotganini aytganida, Amaranta bilan Rebeka yarashib, bo‘lajak chaqaloqlar uchun ikki xil ipdan – o‘g‘ilga ko‘k, qizga esa qizil tusli kiyimchalar to‘qishga kirishgandilar. Oradan ko‘p yillar o‘tgach, devor ostida otishlarini kutayotgan Aureliano o‘ylagan so‘nggi odam ham Remedios bo‘lib qoladi.

Ursula uyda motam e’lon qildi, barcha deraza va eshiklarni berkitdi, biron bir zarur va joiz uydan chiqish va uyga kirishni taqiqladi, bir yilgacha, qattiq ovoz chiqarib gaplashishni man qildi, devorga marhumaning qora tasmaga olingan suratini osib, tagiga chiroq yoqib qo‘ydi. Remediosning jasadi solingan tobut dafn kuni ana shu suratning tagiga qo‘yildi.

Remediosning ruhiga atab yoqilgan chiroqni aslo o‘chirmagan Buendia avlodining keyingi vakillari sochiga tasma taqqan, burmacha yubka va oq etikcha kiygan bu qizaloqning suratiga qarab, doimo taajjubga tushar edilar; qizaloqning siymosi Ulug‘ Momo haqidagi an’anaviy tasavvurga hech mos kelmas edi. Amaranta Aureliano Xoseni o‘z tarbiyasiga oldi. Uning nazarida, Rebekaga atalgan zahar Remediosning qahvasiga tushib qolgandek tuyilar, shuni o‘ylab, Amaranta ich-ichidan ezilardi. U endi yolg‘izlikda chekkan azoblarimga, og‘ir hasratimga shoyad tutingan o‘g‘lim Aureliano Xose sherik bo‘lsa, deb umid qilardi. Shlyapasiga qora tasma tang‘igan Petro Krespi uzun, yengil qora ko‘ylak kiyib olgan, faqat suratigina qolgan rangpar Rebekani ko‘rish

uchun har kuni kechqurun oyoq uchida sassiz kelib, ogʻiz ochmay qaytib ketardi. Hozir toʻy haqida gapirish shakkoklik boʻlib, ularning muhabbati cheksiz gunohkorlikka yuz tutgan, zerikarli, hech kimni qiziqtirmaydigan ermakka aylangan, goʻyoki chiroqlarni oʻchirib qoʻyuvchi va zulmatda oʻpishuvchi juft allaqachon nobud boʻlgandek tuyilardi. Umidi puchga chiqqan Rebeka ruhan tushkunlikka tushib, yana kesak yeya boshladi.

Bir kuni qoʻqqisdan, motam boshlanganidan ancha vaqt oʻtib, qizlar peshayvonda tagʻin oʻz tikuv ishlarini boshlab yuborishganda – rosa soat ikkida jazirama kunning tinchini buzib, kimdir darvozani shunday qattiq kuch bilan ochdiki, zarbidan goʻyo butun uy silkinib ketdi: bu Amarantaga va peshayvonda oʻtirgan uning dugonalariga, xonasida barmoq soʻrayotgan Rebekaga, oshxonada yurgan Ursulaga, ustaxonadagi Aurelianoga va yakka kashtan daraxti ostida oʻtirgan Xose Arkadio Buendiaga – hamma-hammasiga kuchli taʼsir qildi, goʻyo zilzila boshlandi-yu, uylari shu tobdayoq qulab tushadigandek boʻlib tuyildi. Ostonada antiqa koʻrinishli bir kimsa paydo boʻldi. Uning bahaybat yelkalari eshikka zoʻrgʻa sigʻardi, yoʻgʻon boʻyniga Bibi Maryamning tasviri solingan zanjir osilgan, qoʻli-yu koʻkragiga igna bilan suratlar chizilgan, oʻng bilagiga esa mis bilaguzuk taqilgan edi. Terisi goʻyoki shoʻr shamolda oshlangan, kalta sochlari xachir yolidek dikkaygan, iyagi turtib chiqqan, qarashlari gʻussali edi.

Kelgindining belidagi kamar otning ayilidan ikki baravar qalin edi. U poshnasiga temir nagʻal qoqilgan uzun qoʻnjli etik kiygan boʻlib, qadami-

dan yer larzaga kelardi. Notanish kimsa qo‘lidagi nimdosh xaltasini ko‘tarib, shiddat bilan mehmonxona, so‘ng zaldan o‘tib, Amaranta va uning dugonalari ignalarini ushlagancha qotib qolgan, gullar turgan osuda peshayvonga xuddi momaqaldiroqdek bostirib kirdi. «Salom», dedi u horg‘in tovushda va xaltasini qizlar yonidagi xontaxtaning ustiga irg‘itgancha, uyning ichkarisiga yo‘l oldi. «Salom», dedi yotog‘idan qo‘rqa-pisa boshini chiqargan Rebekaga. «Salom», dedi ishga butun vujudi bilan berilib ketgan Aurelianoga. Lekin hech qayerda to‘xtamadi va nihoyat, dunyoning narigi burchagidan boshlagan safarini oshxonada tugatdi. «Salom», dedi u Ursulaga. Ursulaning og‘zi lang ochilib, bir on qotib turdi, so‘ng kelgindining ko‘zlariga boqdi-da, quvonchdan baqirgancha yig‘lab, bo‘yniga osilib oldi. U – Xose Arkadio edi! Uydan gadoy bo‘lib ketib, gadoyligicha qaytib keldi. Ursula o‘g‘li kira qilib kelgan ot uchun ikki peso[1] to‘ladi. Xose Arkadio odatda dengizchilar qo‘llaydigan lahjada, qorishgan g‘alatiroq ispan tilida so‘zlardi. Undan, qayerlarda yuruvding, deb so‘rashganida, «O‘sha yoqda», deya javob qaytardi. Xose Arkadio o‘ziga ajratilgan xonaga osma to‘shagini ilib, naq uch kun uxladi. Uyg‘ongach, o‘n oltita qaynatilgan tuxumni paqqos tushirdi-da, to‘ppa-to‘g‘ri Katarinoning ishratxonasiga bordi. Uning ulkan gavdasi ayollarni sarosimaga soldi va ayni zamonda havasini keltirdi. Xose Arkadio o‘z hisobidan musiqa buyurdi, atrofdagilarni may bilan siyladi va besh erkakka qarab: «Hammangiz birgalashib

[1] Peso – Kuba va ba’zi Lotin Amerikasi mamlakatlarining pul birligi.

ham qo‘limni buka olmaysiz», – deb garov o‘ynadi. «Buning iloji yo‘q, shekilli, – deyishdi ular, hatto qo‘lini qimirlatisholmay. – Chunki sening sehrli bilaguzuging bor». Kuch ishlatiladigan tomoshalarga ko‘pda ishonmaydigan Katarino o‘n ikki peso tikib, Xose Arkadio bilan og‘ir marmar stolni ko‘tara olisholmasligiga garov boyladi. Xose Arkadio stolni boshi uzra baland ko‘tarib, ko‘chaga olib chiqib qo‘ydi. Stolni qayta kiritish uchun o‘n bir erkak ovora bo‘ldi. Xose Arkadio oilasidagilar bilan deyarli gaplashmasdi. Kunduzi uxlar, kechalari bo‘lsa fohishaxonadan beri kelmasdi. Onasi goho majbur qilib, oilaviy gurunglarga sudrab chiqqanida, u hammaning diqqatini o‘ziga tortar, ayniqsa, uzoq mamlakatlarda ro‘y bergan sarguzashtlardan gapirganda, hammaning og‘zi ochilib qolardi. U kema halokatiga uchrab, kichkina bir qayiqchada ikki hafta Yapon dengizida qolib ketganida, oftob urib o‘lgan do‘stining go‘shtini yeb kun kechirgan ekan. Aytishicha, do‘stining tuz sepib, oftobda toblangan go‘shti juda mazali ekan. Bir kuni, kemalari Bengal ko‘rfazi bo‘ylab suzayotganida, ekipaj a’zolari dengiz ajdahosini o‘ldirishibdi. Ajdahoning ichidan temir dubulg‘a, to‘qa va salbchilarning quroli chiqibdi. Karib dengizida esa Vintar Yungning qaroqchilik kemasi sharpasini ko‘ribdi, kemaning yelkanlari ajal shamollaridan titilib ketgan, machta va yelkan bog‘lanadigan yog‘ochlarini dengiz suvaraklari ilma-teshik qilib yuborgan ekan. O‘sha kema mudom Gvadalupaga qaytib borishga harakat qilar, biroq u mudom adashishga mahkum etilgan ekan. Ursula go‘yoki o‘zi ko‘p yillar davomida intiq kutgan, o‘g‘lining ja-

soratlari-yu sarguzashtlari yozilgan maktublarni o‘qiyotgandek (Xose Arkadio esa unga birortayam xat yozmagandi), piq-piq yig‘lar edi. «Uyimiz katta, o‘g‘lim, – derdi u entikib, – ovqat ham serob, ortib qolgan qanchasini cho‘chqalarga tashlaymiz!» Ammo ona bechora bir o‘tirishda yarimta cho‘chqani paqqos tushiradigan, nafasining shamolidan, hatto gullar ham so‘lib qoladigan manavi odam bilan qachonlardir lo‘lilar olib ketgan o‘sha kichkina bola aslida bir kishiligini hech tasavvuriga sig‘dirolmasdi. Boshqalar ham xuddi shunday taajjubda edi. Uning shundoqqina xontaxta yonida kekirish odatini ko‘rib, Amaranta ijirg‘anishini yashirolmasdi. O‘zining qay yo‘sinda tug‘ilganini bilmay o‘tayotgan va buni hech qachon bila olmagan Arkadio uni o‘ziga negadir yaqin tutishga urinayotgan Xose Arkadioning savollariga istar-istamas javob berardi. Aureliano akasiga hadeb ikkovi bir xonada birga uxlashgan paytlarini, o‘sha uzoq bolalik yillari bilan bog‘liq voqealarni eslatishga urinar, ammo xotirasi dengiz hayotining son-sanoqsiz kechinmalari bilan to‘lib-toshgan Xose Arkadio hech narsani eslayolmasdi. Rebeka uni bir ko‘rishdayoq yoqtirib qolgan edi. Xose Arkadio yotoqxonasining eshigi yonidan o‘tgan o‘sha kech, Rebeka vulqonsifat nafasi hamma xonalarda bemalol eshitiladigan o‘ta baquvvat bu erkak oldida Petro Krespi shunchaki chiroyli yasangan bir bola-ku, degan qarorga keldi. U turli bahonalar bilan Xose Arkadioga yaqinlashmoqchi bo‘lardi. Bir kuni Xose Arkadio uning qomatiga behayolarcha tikilib: «Sen yaxshigina ayol bo‘lib yetishibsan-a, singil», – deb qo‘ydi. Rebeka o‘zini batamom yo‘qotdi. U yana avvalgidek shosha-pisha kesak va ohak yer, barmog‘ini

so‘raverib, yara qilib tashlagan edi. Kechalari o‘zi bilan o‘zi olishib, uxlolmay, titrab-qaqshab chiqar va Xose Arkadio kelishidan darak beruvchi tongni, uyning larzaga tushishini kutardi. Oxiri, Rebeka chiday olmay, uning xonasiga kirdi. Xose Arkadio qayiq bog‘lanadigan arqonga osilgan to‘r belanchakda, ko‘zlari ochiq, birgina ishtonda yotardi. Uning misday badani Rebekani hayratga soldi va qiz ortiga qaytmoqchi bo‘ldi. «Kechirasiz, – dedi Rebeka, – men sizning bu yerdaligingizni bilmabman». U hech kimni uyg‘otib yubormaslik uchun shivirlab gapirdi. «Bu yoqqa kel», deb chaqirdi Xose Arkadio. Rebeka keldi. Qiz, dovulga o‘xshash shiddatli bir kuch belidan ko‘tarib, uch siltov bilan egnidagi kiyimini yirtib, uni xuddi kichkina qushcha kabi tapillatib ostiga bosganida, nafasi qaytib qolmasligi uchun jon talvasasida tipirchilay boshladi.

Uch kundan so‘ng ular nikohdan o‘tishdi. Nikoh arafasida Xose Arkadio Petro Krespining do‘koniga bordi. Italiyalik sitrada kuy chalishdan saboq berardi. Xose Arkadio uni chetga ham chaqirmay: «Men Rebekaga uylanyapman», – deb baqirdi. Petro Krespi oqarib ketdi, qo‘lidagi sitrani shogirdlaridan biriga berib, dars tugaganini e’lon qildi. Ular musiqa asboblari-yu o‘yinchoqlar bilan to‘la xonada ikkovlon qolishganida, Petro Krespi: «Axir, u singlingiz-ku», – dedi.

– Ahamiyati yo‘q, – javob qaytardi Xose Arkadio.

Petro Krespi muattar hidli ro‘molchasi bilan peshonasini artdi.

– Bu – tabiatga xilof ish, – deya tushuntira ketdi u, – bundan tashqari qonunda taqiqlangan.

Xose Arkadio uning vaj-karsonidan emas, balki shunchalar oqarib ketganidan darg‘azab bo‘ldi.

– Tupurdim o‘sha tabiatga, – dedi u. – Men buni siz qiynalmasligingiz va Rebekadan hech narsa so‘ramasligingiz uchun aytdim, xolos.

Ammo Petro Krespining ko‘z yoshlarini ko‘rib, biroz bo‘shashdi.

– Bo‘ldi, bo‘ldi, – dedi yumshoq ohangda. – Agar hamma gap sizga bizning oilamiz yoqib qolganida bo‘lsa, ana Amaranta qolyapti-ku.

Garchi Padre Nikanor o‘zining bozor kunidagi xutbasida Xosse Arkadio bilan Rebeka aka-singil emasligini e’lon qilgan bo‘lsa-da, Ursula ularning nikohlarini kechira olmadi. Ursula nikohni shakkoklik alomati hisoblab, cherkovdan qaytib kelgan kelin-kuyovni uyga kiritmadi. Endi ular go‘yo Ursula uchun o‘lganday edi. Yosh kelin-kuyov qabriston yaqinidan bir hujrani ijaraga olishdi. Oilaning ilk jihozi – Xose Arkadio uydan o‘zi bilan olib kelgan osma to‘r belanchakdan iborat edi, xolos. Birinchi oqshom kelinni poyabzaliga kirib qolgan chayon chaqdi. Rebeka tildan qoldi, ammo bu hol er-xotinga chillani ko‘ngildagidek o‘tkazishlariga to‘sqinlik qilolmadi. Ular yashagan mahalla ahli har tuni sakkiz marta ayol chinqirig‘idan uyg‘onib ketar va bu chinqiriq choshgohdagi ibodat chog‘ida ham yana uch marta takrorlanar, odamlar, boshvoqsiz hirs qabristondagi o‘liklarning oromini buzmasin-da, deb Xudoga nola qilishardi.

Yosh er-xotinga birgina Aureliano g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi. Ularga eng baquvvat va zarur jihozlarni olib berdi. Xose Arkadio uylari yonidagi tashlandiq joyni ekin-tikinga yaroqli qilguncha, pul bilan ta’minlab turdi. Garchand, hayot, hatto tushiga ham kirmagan baxt hadya etgan bo‘l-

sa-da, Amaranta hamon Rebekaga kek saqlardi: bu sharmandalikni yumshatish yo‘lini topolmayotgan Petro Krespi, Ursulaning xohishiga ko‘ra, ilgarigidek har seshanba ularning uyiga ovqatlangani kelar va baxtsizligini hech kimga sezdirmay, matonat bilan dosh berardi. Buendialar oilasiga hurmati yuzasidan u shlyapasidagi qora tasmani qoldirgan va har gal o‘zining Ursulaga bog‘langanidan mamnunligini namoyish etardi. Ursulaga har kuni antiqa sovg‘alar – portugal sardinalari, atirgul bargidan qilingan turkcha shinni olib kelardi. Hatto bir kuni Maniladan keltirilgan shol ro‘mol ham sovg‘a qildi. Amaranta Petro Krespining ko‘nglini ovlar, uning didini topar, ko‘ylagining yengida osilib qolgan iplarni kesar, tug‘ilgan kuniga esa Petro Krespining ism-sharifining bosh harflari bitilgan anchagina ro‘molcha tayyorlagan edi. Tushlikdan so‘ng peshayvonda chevarlik qiladigan Amarantaga quvnoq suhbatdosh bo‘lardi. Petro Krespining nazarida yosh boladek tuyiluvchi bu qizda hali noziklik yetishmasdi, ammo uning hislari nihoyatda nafis, qalbida yashirin bir nafosat bor edi. Hech kim Petro Krespining Amarantaga uylanishiga shubhalanmasdi. Haqiqatan ham, bir kuni seshanbada Amarantaga, menga tegsangiz, dedi. Qiz indamay, ishini davom ettiraverdi. Quloqlarini lovullatgan harorat pasayishini biroz kutib turgach, so‘ngra shoshilmay, o‘ziga ishonadigan odamlarga o‘xshab, dedi:

– Albatta, tegaman, Krespi. Ammo bir-birimizni yaxshiroq bilib olganimizdan so‘ng. Shoshqaloqlik yaxshilikka olib bormaydi.

Ursula nima qilishini bilmasdi. Petro Krespini qanchalik hurmat qilmasin, Rebeka bilan yigitning uzoq vaqt davom etgan va oxiri mojaro bilan tugagan fotihasidan so‘ng, bu ish axloq jihatdan to‘g‘rimi yoki noto‘g‘riligini anglolmasdi. Shubhasini baham ko‘radigan odam, oila boshlig‘i Aureliano esa o‘zining noaniq, ammo qat’iy fikri bilan Ursulani battar esankiratdi:

– Hozir to‘y haqida o‘ylaydigan vaqt emas.

Bu so‘zlarning mazmunini Ursula oradan bir necha oy o‘tgach tushundi. Bu – o‘sha damda Aurelianoning nafaqat to‘yga, balki urushdan bo‘lak barcha voqea-hodisalarga nisbatan bildirgan yakka-yu yagona samimiy fikri edi. Yillar o‘tib, u devor yonida otishlarini kutib turganida, bu yerga qadar yetaklab kelgan, ko‘rinmaydigan, ammo oldini olib bo‘lmas tasodif zanjiri qay yo‘sinda paydo bo‘lganini o‘ziga o‘zi aniq tushuntirib berolmaydi. Remediosning o‘limi Aurelianoni u qo‘rqqan darajada hayajonlantirmadi. Xotinining o‘limi mislsiz g‘azab uyg‘otdi va oqibatda bora-bora u bir vaqtlar ayollarni rad etgani singari umidlarni chilparchin qiluvchi sustkash va g‘amgin hislarga ko‘milib ketdi. Aureliano o‘zini yana butkul ishga bag‘ishladi, ammo qaynotasi bilan domino o‘ynashni ham kanda qilmadi. Motam ruhiga to‘la kechki suhbatlar ularning do‘stligini tobora mustahkamlardi. «Yana uylan, Aureliano, – derdi unga don Apolinar Moskote. – Mening yana olti qizim bor. Istaganingni olishing mumkin». Saylovga bir necha kun qolganida Makondoning korrexidori galdagi safardan mamlakatdagi siyosiy vaziyatdan jiddiy tashvishlangan holda qaytib keldi. Liberallar urush

ochishga tayyorgarlik koʻrishayotganmish. Aureliano oʻshanda konservator va liberallar haqida mutlaqo tasavvurga ega emasdi, faqat ularning urush ochish maqsadlari borligi taajjubga solardi. Siyosatdan yiroqda boʻlgan Makondoda saylov boʻlishi arafasida qaynotasining serjant hamda olti nafar qurollangan askarni chaqirtirishi Aurelianoga mutlaqo keraksiz chiranish boʻlib tuyildi. Shaharga kelgan askarlar barcha xonadonlarga kirib, ov miltiqlari va, hatto, oshxonada ishlatiladigan katta pichoqlarni ham tortib olishdi, soʻngra yoshi yigirma birdan oʻtgan erkaklarga konservator nomzodlarning nomlari bitilgan koʻk hamda liberal nomzodlarning nomlari yozilgan pushtirang varaqalar tarqatishdi. Shanba kuni, ayni saylov arafasida don Polinar Moskote bugun yarim kechadan keyin qirq sakkiz soat mobaynida spirtli ichimliklar sotish va bir oilaga mansub boʻlmagan uch nafardan koʻp odamning koʻchada toʻplanib turishi taqiqlangani haqidagi farmonni oʻqib eshittirdi. Saylov tinchgina oʻtdi. Yakshanba kuni ertalab soat sakkizda maydonga taxta quti oʻrnatishdi. Taxtani olti askar qoʻriqlab turardi. Ovoz berish mutlaqo erkin boʻldi, kun boʻyi qaynotasining yonida turib, bir odam ikki marotaba ovoz bermasligini nazorat qilgan Aureliano bunga toʻla ishonch hosil qildi. Kunduz soat toʻrtda nogʻora tovushi saylovning nihoyasiga yetganidan xabar berdi va don Apolinar Moskote oʻz imzosi chekilgan yorliq bilan saylov qutichasini muhrladi. Kechqurun Aureliano bilan domino oʻynayotganida, korrexidor serjantga, qutichani ochib, ovozlarni hisobla, deb buyurdi. Pushtirang va koʻk qogʻozlarning soni teng edi,

ammo serjant pushti qog‘ozlarning faqat o‘ntasini qoldirib, qolganlarini tashlab yubordi. So‘ng qutichaga yangidan muhr bosishdi. Ertasiga tong azonda u viloyatning markaziy shahriga olib ketilishi kerak edi. «Liberallar urush boshlashadi», dedi Aureliano. Don Apolinar o‘yindan bosh ko‘tarmadi ham. «Saylov qog‘ozlarining almashtirib qo‘yilganligi uchun deb o‘ylaysanmi?! Yo‘q, urush ochmaydilar, – dedi u. – Axir ular shikoyat qilishmasligi uchun qutichada oz-moz pushti byulletenlar qoldirildi-ku». Aureliano muxolif qanchalar noqulay sharoitdaligini angladi. «Agar men liberal bo‘lganimda, – ta’kidladi u, – ana shu qog‘ozlar yuzasidan, albatta, urush boshlagan bo‘lardim». Qaynotasi unga ko‘zoynak tepasidan qarab qo‘ydi.

– Eh, Aureliano, – dedi u, – agar sen liberal bo‘lganingda, garchand menga yuz marta kuyov bo‘lganingdayam qog‘ozlarning almashtirilishini ko‘rolmasding.

Saylovning yakuni emas, balki askarlarning musodara qilingan pichoqlar-u ov miltiqlarini egalariga qaytarib berishdan bosh tortishlari shaharda norozilik tug‘dirdi. Ayollar Aurelianoga: «Qaynotangga ayt, loaqal oshpichoqlarni qaytarsin», – deb iltimos qilishdi. Don Apolinar Moskote maxfiy ravishda unga askarlar musodara qilingan pichoqlar-u ov miltiqlarini liberallarning urushga tayyorgarlik ko‘rishayotganini daliliy ashyolari sifatida olib ketilganini ma’lum qildi. Bu qadar surbet bayonot Aurelianoga juda yomon ta’sir qildi. U lom-mim demadi, ammo bir kuni kechqurun do‘stlari Xerineldo Markes va Magnifiko Visbal bilan pichoqlar voqeasini muhokama qilayotib,

undan liberalmi yoki konservatorligini so‘rashganida, Aureliano bir on ham ikkilanmay:

– Agar kimdir bo‘lishim shart bo‘lsa, yaxshisi, liberal bo‘lardim, chunki konservatorlar g‘irt muttaham, – dedi.

Ertasiga u do‘stlarining qistovi bilan, jigarini davolatgani (garchand kasal bo‘lmasa-da) doktor Alirio Nogeraning qabuliga kirdi. Bu bahona nega kerak bo‘lib qolgani haqida u tasavvurga ham ega emasdi. Doktor Alirio Nogera Makondoga bundan bir necha yil oldin, anchagina nordon dorilar va odamlarga g‘alati tuyilgan – «Ponani pona bilan qoqib chiqarishadi» degan shior bilan birga kelgandi. Nogera hech qanday shifokor emasdi. Ushbu soxta doktor aslida terrorchi edi. Qo‘nji uzun poyabzali uning besh yillik surgun davomida temir kishanlardan chandiq tushgan to‘piqlarini begona ko‘zlardan yashirardi. Federalchilarning ilk qo‘zg‘olonidayoq qo‘lga tushirganlarida, u jinidan ham yomon ko‘radigan libos – shifokor kiyimini kiyib, Kyurasaoga qochishga muvaffaq bo‘lgandi. Uzoq muddat cho‘zilgan bu quvg‘inlikning oxirgi kunlarida, Kyurasaoga siyosiy muhojirlar Karib dengizining barcha orollaridan kelgan xushxabarlardan ruhlanib, kontrabandachilarning kemasiga tushib, dorilar to‘ldirilgan shisha idishlar (dorilar oddiy sharbatdan o‘zga narsa emasdi) va Leypsig universitetini tugatganligi haqidagi soxta diplom bilan (uni ham o‘zi tayyorlagan edi) Rioachada paydo bo‘ldi. Rioachada esa hafsalasi pir bo‘lib yig‘lab yuborayozdi. Siyosiy muhojirlar portlash arafasida turishibdi, deb ta’riflagan federalchilar saylov arafasida ishonchlarini yo‘qotishib, mutlaqo so-

vib qolishgandi. Omadsizlikdan g‘amga cho‘kkan va qarigan chog‘ida yashash uchun ishonchli joy qidirgan bu soxta shifokor Makondoga kelib yashirindi. U shahar maydoni yaqinidagi uyda, tor, bo‘sh shisha idishlar qalashtirilib tashlangan xonachada, tuzalmas bemorlar mablag‘i evaziga yashardi: barcha dori-darmonlarni tatib ko‘rgan bu bemorlar endilikda sharbatdan shifo axtarishar edi. Don Apolinar Moskote nomigagina hukmdor bo‘lib turgan paytda, doktor o‘z tashviqotchilik iste’dodini qo‘llay olmasdi. U ko‘proq vaqtini esdaliklar yozish-u, astmaga qarshi kurashga sarflardi. Nogera yaqinlashib kelayotgan saylovga katta umid bog‘lagan edi. U siyosat bobida no‘noq bo‘lgan shahar yoshlari bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi va yashirin ravishda qat’iy fitnachilik kompaniyasini boshlab yubordi. Saylov qutichasidagi son-sanoqsiz pushtirang qog‘ozlar don Apolinar Moskote o‘ylaganidek yoshlarning yengiltakliklari emas, balki Nogeraning faoliyati tufayli paydo bo‘lgan edi (bu yumush terrorchi ko‘zlagan rejaning bir bo‘lagi edi), u shogirdlari saylovning qanchalik lo‘ttibozlik ekaniga ishonch hosil qilishlari uchun ularni ovoz berishga majburlagan edi. «Bu – jabr-zulmning o‘zginasi», derdi Nogera ularga. Aurelianoning aksariyat do‘stlari konsevatorlar tuzumini nobud qilish istagida edi, ammo Aurelianoning korrexidor bilan qarindoshligidan emas, balki odamoviligi-yu fe’l-atvori o‘zgaruvchanligidan qo‘rqishib, unga o‘z rejalari haqida gapirishga jur’at qilisholmasdi. Bundan tashqari, qaynotasining ko‘rsatmasiga amal qilib konservatorlarga ovoz bergani ma’lum bo‘lgan edi. Shunday qilib, uning siyosiy qarashi ro‘y ber-

gan bu oddiy tasodif tufayli ochilib qoldi. Aureliano faqat shunchaki qiziqish yuzasidan ilk daf'a telba qadam tashladi – doktornikiga yo‘q kasalini davolatgani bordi. O‘rgimchak uyalari-yu kamfaraning achimsiq hidi qoplagan, cho‘chqaxona kabi iflos bu xonada u qari iguanaga o‘xshash, nafas olganda o‘pkasi go‘yoki hushtak chaladigan bir kimsani uchratdi. Doktor indamasdan Aurelianoni deraza yoniga olib bordi-da, pastki qovog‘ini ko‘zdan kechira boshladi. «U yerda emas, – dedi Aureliano do‘stlari o‘rgatgani bo‘yicha. Keyin qo‘lini jigariga bosib – ana shu yerimda og‘riq his qilyapman, kechasi bilan uyqu bermaydi», – dedi. Shunda doktor Nogera xona qizib ketganini bahona qilib, derazani yopdi va konservatorlarni o‘ldirishga ahd qilgan vatanparvarlarning burchi haqida qisqa va'z so‘zladi. Aureliano bir necha kun davomida cho‘ntagida dori solingan idish olib yurdi. U har ikki soatda uch dona hapdori olib, tilining ostiga tashlardi. Don Apolinar Moskote uning doktor nayranglariga laqqa uchganidan kular, fitnachilar esa Aurelianoni o‘z odamimiz, deb hisoblashardi. Fitnaga, garchand kelajakdagi ishlari nimadan iboratligini aniq bilishmasa-da, Makondoga asos solgan barcha kishilarning barcha o‘g‘illari jalb etilgan edi. Ammo doktor o‘z sirini oshkor etgani zahoti, Aureliano ular safidan chiqdi. O‘shanda Aureliano konservatorlarning nobud qilinishi zarurligiga qat'iy ishonsa-da, doktorning rejalari qabihligidan larzaga tushgan edi. Alirio Nogera yakka terror tarafdori edi. Uning rejasi – kelishilgan holda bir qator yakka tartibda suiqasd uyushtirishni, suiqasd bora-bora umummilliy

tus olishini, oxir-oqibatda barcha davlat maslahatchilari, ularning oila a'zolari, asosan erkak zotiga mansublari, yer yuzida konservatorlarning urug'iyam qolmasligi uchun – o'ldirilishlarini taqozo etardi. Tabiiyki, bu ro'yxatga don Apolinar Moskote, uning xotini va olti qizi ham kiritilgan edi.

– Siz hech qanaqa liberal emassiz, – dedi Aureliano qiyofasini o'zgartirmay. – Siz shunchaki qonxo'r kazzobsiz, xolos.

– Unday bo'lsa, – javob qaytardi doktor vazminlik bilan, – dorilarni qaytarib ber. Ular endi senga kerak emas.

O'shanda doktorning uni hech qanday kurashga yaroqsiz, lanj, ko'ngli bo'sh, bebaxt va yolg'izlikka moyil deb hisoblagani Aurelianoga oradan yarim yil o'tgach ma'lum bo'ldi. Fitnani sotib qo'yishdan xavfsiragan do'stlari Aurelianoni qo'rqitishga urinishdi. Aureliano ularni tinchlantirib aytdiki, men hech kimga hech narsa demayman, lekin Moskote oilasini o'ldirishga kelsangiz, sizlarni ostonada qurol bilan qarshi olishim tayin.

Aurelianoning qat'iyati fitnachilarga qattiq ta'sir qildi va ular rejalarini noma'lum muddatga kechiktirishdi. Shu voqealar sodir bo'layotgan mahalda Ursula Petro Krespi bilan Amarantaning to'yi xususida maslahatlashgani o'g'lining yoniga keldi va u, onasiga: «Hozir buning mavridi emas», – deya javob qaytardi. Bir haftadirki, Aureliano, qo'ynida eski to'pponcha yashirib, do'stlarini zimdan kuzatardi. Tushlikdan so'ng, o'z uylarini tartibga keltira boshlagan Xose Arkadio bilan Rebekanikiga qahva ichgani borar, kech soat oltidan keyin esa qaynotasi bilan domino

o‘ynagani o‘tirardi. Ertalab, nonushta payti Arkadio bilan suhbatlashardi: Arkadio endi norg‘ul yigitga aylangan bo‘lib, urush muqarrarligidan har safar hayajonga tushardi. U muallimlik qiladigan maktabda endigina gapirishni o‘rganishayotgan bolalar ham, yoshi Arkadiodan ancha katta so‘loqmonday odamlar ham bor edi. Arkadioga liberalizm vasvasasi yuqib ulgurgan edi. U Padre Nikanorni otib tashlash, cherkovni maktabga aylantirish, muhabbat erkinligini joriy etish kerak, deb tinmay gapirardi. Aureliano uning shashtini qaytarishga urinib, esingni yig‘, sal ehtiyot bo‘l, deb maslahat berdi. Ammo Arkadio maslahatga quloq solmas va hammaning oldida uni ko‘ngli bo‘shlikda ayblardi. Aureliano esa kutardi. Nihoyat, dekabrning boshida Ursula ustaxonaga hovliqib kirib:

– Urush boshlandi! – deya hayqirdi.

Urush uch oy davom etdi. Butun mamlakatda harbiy holat e’lon qilindi. Urush boshlanishini Makondoda faqat birgina odam – don Apolinar Moskotegina bilardi, ammo shaharga qo‘qqisdan bostirib kirishga buyruq olgan harbiylar kelmagunga qadar u, hatto xotiniga ham og‘iz ochmadi. Xachirlarga tirkalgan ikki yengil to‘p bilan qurollangan askarlar shaharga erta tongda shovqin-suronsiz kelishib, maktabni kazarmaga aylantirdilar. Kechki soat oltidan komendantlik vaqti joriy qilindi. Har bir xonadonda oldingi tintuvga nisbatan qattiqroq tintuv o‘tkazildi va bu gal, hatto dehqonchilik asboblarini ham tortib olishdi. Doktor Nogerani uyidan sudrab chiqib, shahar maydonidagi daraxtga bog‘lashib, sud-u tergovsiz otib tashlashdi. Padre Nikanor harbiy-

larga o‘zining ilohiy muallaqi bilan ta’sir qilmoqchi bo‘lgandi, askarlardan biri uning boshiga qo‘ndoq bilan tushirdi. Liberallik shamoli tinib, atrofni dahshatli sokinlik egalladi. Odamovi bo‘lib qolgan rangpar Aureliano qaynotasi bilan domino o‘ynashni davom ettirardi. U fuqarolik mansabi ustiga harbiy hokim unvoni ham berilgan don Apolinar Moskotening yana quruq savlatga aylanganini tushundi. Barcha farmonlarni garnizon boshlig‘i bo‘lmish kapitan berar, u har kuni ertalab jamoat tartibi muhofazachilarining ehtiyoji uchun odamlardan soliq to‘plardi, xolos. Uning to‘rt nafar askari quturgan it qopgan ayolni oila a’zolari qo‘lidan yulib olib, ko‘chaning qoq o‘rtasida miltiq qo‘ndoqlari bilan urib o‘ldirishdi. Shahar ishg‘ol qilinganidan ikki hafta o‘tgach, bozor kuni Aureliano Xerineldo Markesning uyiga bordi va ehtiyotkorlik bilan qandsiz qahva so‘radi. Ular oshxonaga faqat ikkovi qolishganida, Aureliano o‘ziga xos bo‘lmagan qat’iy buyruq ohangda dedi:

– Yigitlarni hozirla. Biz urushga boramiz.

Xerenildo Markes ishonmadi.

– Qurolimiz yo‘q-ku! – dedi u.

– Ularning qurollarini tortib olamiz, – javob berdi Aureliano.

Seshanba kuni tunda mardonavor qadam qo‘yildi: pichoq va temir-tersak bilan qurollangan, yoshi o‘ttizga ham yetmagan Aureliano Buendia boshchiligida qo‘qqisdan garnizonni ishg‘ol qilib, askarlarning miltiqlarini qo‘lga kiritdi va maydonda kapitan bilan birgalikda it qopgan ayolni o‘ldirgan o‘sha to‘rt askarni otib tashladi. O‘sha kechasi, hali maydondan to‘p ovozi eshitilib tur-

gan bir paytda, Arkadio Makondo qo‘rg‘onining ham fuqaro, ham harbiy hukmdori etib tayinlandi. Qo‘zg‘olonchilarning uylanganlari xotinlari bilan zo‘rg‘a xayrlashdi. Odamlarni terrordan xalos qilganliklari uchun cheksiz tashakkurga sazovor bo‘lgan Aureliano guruhining a’zolari, oxirgi axborotlarga qaraganda, Manauregа siljigan general Viktorio Medina boshliq inqilob lashkarlariga qo‘shilish uchun sahar payti Makondodan chiqib ketdi. Yo‘lga tushishdan oldin Aureliano don Apolinar Moskoteni javon ichidan chiqarib oldi. «Tashvishlanmang, ota, – dedi u. – Yangi hokimiyat siz va oilangizning daxlsizligiga kafillik beradi». Don Apolinar Moskote uzun etikli, yelkasiga miltiq osgan qo‘zg‘olonchi o‘zining kuyovi, har kuni kech soat to‘qqizgacha birga domino o‘ynaydigan odamligini zo‘rg‘a tanidi.

– Aureliano, bu bema’nilik-ku! – qichqirdi u.

– Yo‘q, bema’nilik emas, – dedi Aureliano. – Bu – urush. Endi meni hech qachon Aureliano deb atamang, endi men polkovnik Aureliano Buendiaman!

Polkovnik Aureliano Buendia o‘ttiz ikki marta qurolli qo‘zg‘olon ko‘tardi va o‘ttiz ikki gal ham mag‘lub bo‘ldi. U o‘n yetti ayoldan o‘n yetti nafar o‘g‘il ko‘rdi, kenja o‘g‘li endi o‘ttiz besh yoshga kirayotganda, hamma farzandlarini birin-ketin, bir kechaning o‘zida o‘ldirishdi. Ota esa o‘n to‘rt suiqasddan, yetmish uch pistirma-yu qatldan hamda qahvaga aralashtirilgan, naq bir otni bemalol o‘ldiradigan zahardan omon qoldi. U respublika prezidenti taqdim etgan «Hurmat» ordenidan voz kechdi. Barcha inqilobchi qo‘shinlarning bosh qo‘mondoni bo‘ldi va mamlakatning u

sarhaddan bu sarhadga qadar yastanib yotgan bepoyon yerlariga harbiy hukmdor va sudya etib tayinlandi. Hukumat ham cho‘chiydigan bu odam o‘zining fotosuratini oldirishga hech ruxsat bermasdi. U urushdan so‘ng, to umrining oxirigacha tayinlangan nafaqani rad etib, keksayganida Makondodagi ustaxonasida baliqchalar yasab, o‘shalardan tushgan mablag‘ evaziga kun kechirdi. U hamisha janglarda birinchi saflarda qatnashgan bo‘lsa-da, faqat bir martagina, qariyb yigirma yil davom etgan fuqarolar urushiga chek qo‘ygan Neerland bitimiga binoan taslim bo‘lishga imzo chekilganidan so‘ng, yarador bo‘ldi, aniqrog‘i, o‘zini o‘zi yaraladi. U qo‘lidagi to‘pponchasidan ko‘kragiga o‘q uzdi va o‘q yuragiga shikast yetkazmay, orqasidan teshib chiqdi. Makondoda nomiga qo‘yilgan ko‘chagina uning mislsiz jasoratlaridan nishona sifatida qoldi. Ammo u yigirma bir nafar odamdan iborat guruhni hech nimani ko‘zlamay, general Viktorio Medina qo‘shinlariga qo‘shilish uchun o‘sha dekabr tongida Makondoni tark etganini o‘limi oldidan tan oldi.

– Biz shaharni senga qoldiryapmiz, – degan edi o‘shanda u Arkadioga. – Bus-butun qoldirib ketyapmiz, biz qaytganimizdan keyin Makondo bundan ham obodroq bo‘lmog‘i darkor.

Arkadio uning ko‘rsatmasini butunlay boshqacha tushundi. U Melkiades kitoblaridagi rangli rasmlardan ruhlanib, marshallik galunlari tikilgan va epoletlar taqilgan antiqa harbiy kiyim tiktirdi, otib o‘ldirilgan kapitanning popukli qilichini kamariga taqib oldi. Keyin ikkala to‘pni ham shaharga kiraverishdagi joyga o‘rnatdi, otashin

xitoblaridan ruhlangan shogirdlariga harbiy kiyim kiydirib, chetdan qaragan odamlarga Makondo ishg‘ol qilib bo‘lmaydigan shahardek tuyilishi uchun qurollantirib, shahar ko‘chalari bo‘ylab kezib yurishni buyurdi. Ushbu makkorlikning oqibati ham yaxshi, ham yomon bo‘ldi: haqiqatan ham hukumat bir yil davomida Makondo qo‘rg‘onini bosib olish uchun buyruq berishga jazm etolmay yurdi, ammo nihoyat bu ishga kirishilgach, shaharga shunchalik ko‘p qo‘shin yuborishdiki, himoyachilarning qarshiligi yarim soat ichida sindirildi. Arkadio hukmdorlikning dastlabki kunlariyoq o‘zining qaror chiqarishga moyilligini oshkor qildi. U daf’atan miyasiga kelgan tasodifiy qarorlar qabul qilar, ba’zan bir kunda to‘rtta farmoyish chiqargan paytlari ham bo‘lgan edi. U o‘n sakkiz yoshlilar uchun majburiy harbiy xizmat joriy etdi: kech soat oltidan so‘ng ko‘chada qolgan uy hayvonlarining umumiy mulkka aylanishini e’lon qildi, katta yoshdagi erkaklarni yenglariga qizil latta bog‘lab yurishga majburladi. Padre Nikanorni xonaki bandi qilib qo‘ydi: «Agar uydan chiqsang, otilasan», – dedi unga. Padrega faqat liberallar g‘alabasini bayram qilganlaridagina va’z aytish-u, qo‘ng‘iroq chalishga ruxsat etildi. Arkadio, odamlar bilan hazillashmayotganligini ko‘rsatish uchun, askarlar bo‘linmasiga shahar maydonida qo‘g‘irchoqlarni otib, mashq qilishni buyurdi. Oldiniga buni hech kim jiddiy qabul qilmadi. Axir, Arkadio ham, uning askarlari ham bor-yo‘g‘i kattalarning o‘yinlarini o‘ynashayotgan yosh bolalar, maktab o‘quvchilari edi-da. Bir kuni kechqurun Arkadio Katarinoning ishratxonasiga kirganida surnaychi yangi boshliqni tantanali

marsh bilan qarshi olib, odamlarni kuldirgan edi. Arkadio hokimiyat egalarini behurmat qilgani uchun surnaychini otishga mahkum etdi. Bunga norozilik bildirishga jazm etganlarni esa sinf xonalaridan biriga qamab, ularga faqat non-u suv berilishini tayinladi. «Sen qotilsan! – deya baqirardi unga har safar Ursula, nevarasining o‘zboshimchaligini eshitib. – Mabodo, Aureliano eshitib qolsa, seni, albatta, otib tashlaydi va bundan birinchi bo‘lib men xursand bo‘laman». Ammo bu gaplarning bari behuda edi. Arkadio o‘zining mazmunsiz yovuzligini tobora kuchaytirardi. Nihoyat, u Makondo ko‘rgan eng yovuz hukmdorga aylanib qoldi. «Xayriyatki, odamlar oq-u qorani farqlayapti, – dedi bir kuni don Apolinar Moskote. – Mana, sizga liberallar va’da qilishgan jannat». Bu so‘zlarni Arkadioga yetkazishdi. U bir qancha askarlar bilan don Apolinar Moskotening uyini ishg‘ol qilib, jihozlarining kulini ko‘kka sovurdi, qizlarini beomon savaladi, sobiq korrexidorni esa ko‘cha bo‘ylab sudratib, kazarmaga olib keltirdi. Bundan xabar topgan Ursula uyatdan qizarib, qo‘lidagi mumlangan o‘rma qamchisini g‘azab bilan siltagancha, shahar ko‘chalari bo‘ylab yugura ketdi; u kazarma hovlisiga bostirib kirganida, bo‘linma askarlari don Apolinar Moskoteni otish uchun saf tortishgan va Arkadio: «Otinglar!» – deb buyruq berishga shaylanayotgan edi.

– Qani, otib ko‘r-chi, pastkash! – deb qichqirdi Ursula.

Dovdirab, o‘zini o‘nglashga ham ulgurmagan Arkadioni Ursula ho‘kiz paylaridan o‘rilgan og‘ir qamchi bilan savalay ketdi. «Otib ko‘r-chi, qotil!

– deb qichqirardi u. – Unga qo‘shib meni ham ot, nomard bola. O‘shanda meni senday maxluqni o‘stirganim uchun uyatdan yig‘lashimdan xalos etgan bo‘lasan!» U Arkadioni rahm-shafqatsiz, to u hovlining uzoq burchagiga borib, shilliqqurtday burkanib olguniga qadar savaladi. Ilgari o‘qlar ilma-teshik qilib yuborgan qo‘g‘irchoq osig‘liq turgan yog‘ochga bog‘lab qo‘yilgan don Apolinar Moskote hushsiz edi. Bo‘linma askarlari, Ursula qolgan g‘azabini bizga sochadi, deb qo‘rqqanlaridan qochib ketishgan edi. Ammo Ursula ular tomonga qiyo ham boqmadi. Og‘riq azobidan dodlayotgan Arkadioni tinch qo‘yib, don Apolinar Moskoteni yechdi va uyga olib ketdi. Kazarmadan chiqishdan oldin, bu yerda hibsda saqlanayotganlarni ozodlikka chiqardi.

Shundan so‘ng shaharni Ursula boshqaradigan bo‘ldi. U yakshanba ibodatini qayta tikladi, qizil latta bog‘lab yurishga chek qo‘ydi va Arkadioning barcha noo‘rin qarorlarini bekor qildi. Ammo shunchalik matonatiga qaramay, Ursula xoli qolgan paytlarida toleyidan yig‘lardi. U o‘zini shu qadar yolg‘iz his qilardiki, oxiri kashtan ostida esdan chiqqan erining suhbatidan taskin izlay boshladi. «Qarang, qancha kulfatlar tushdi boshimizga, – dedi u eriga palma shox-shabbalaridan qilingan peshayvonni oqizib ketishga harakat qilayotgan yoz yomg‘irining shovqini ostida. – Uyimiz huvullab qoldi, o‘g‘illarimiz tarqalib ketishdi. Yana ikkimiz qoldik». Ammo telbalik bag‘riga g‘arq bo‘lgan Xose Arkadio Buendia uning gaplarini eshitmasdi. U o‘zining o‘rindig‘ida o‘tirar, Ursula esa, erini yuvintirarkan, oila yangiliklarini so‘zlab berardi. «Aurelianoning urushga ketgani-

ga mana to‘rt oy bo‘ldi, biz hanuzgacha uning taqdiridan bexabarmiz, – derdi u, erining orqasini sovunli latta bilan arta turib. – Xose Arkadio esa qaytib keldi, gavdasi siznikidan ham norg‘ul, butun badani chorcho‘p tasviriga to‘lib-toshgan, lekin u xonadonimizga nuqul sharmandalik keltiryapti». Noxush xabarlar eriga ozor bera boshlaganini his qilib, endi uni aldashga tushardi. «Eh, shuncha vaysabman-a, siz menga ishonmang, – derdi u erining najosati ustiga kul sepib, so‘ng uni belkurakka yig‘arkan. – Xose Arkadioning Rebekaga uylanishi Xudoning qismati ekan, endi ular juda baxtli yashashyapti». Ursula haqiqat yordamida yolg‘on gapirishga shu qadar o‘rganib qoldiki, oxiri yolg‘onlaridan o‘zi ham taskin topa boshladi. «Arkadio jiddiy va nihoyatda jasur yigit bo‘lib yetishgan, – derdi u. – Harbiy kiyim-u qilich unga qanchalar yarashganini bir ko‘rsangiz edi». Bu hol murda bilan gaplashishga o‘xshab ketar, nega endi Xose Arkadio Buendiani biror narsa na xursand va na xafa qilardi. Ammo Ursula eri bilan suhbatlashishni kanda qilmasdi. Eri beozor-u befarqligini ko‘rgach, Ursula uni arqonlardan xalos qildi. Arqonlar yechilgan bo‘lsada, Xose Arkadio Buendia, hatto joyidan ham jilmadi. Go‘yoki arqonlarning hech bir ahamiyati yo‘qdek, go‘yoki uni kashtan daraxti tanasiga arqonlar va umuman ko‘zga ko‘rinadigan vositalar – zanjil-u kishanlar emas, balki ulardan yuz chandon baquvvat bir kuch bog‘lab tashlagandek, quyosh-u yomg‘ir ostida ham o‘rindiqda o‘tiraverardi. Avgustda, bu yil qish odatdagiga qaraganda cho‘zilib ketishi hammaga ayon bo‘lganida, Ursula nihoyat, eriga o‘zi ma’qul deb topganini ma’lum qildi:

– Baxt biz bilan qadam baqadam yuribdi, – dedi u. – Yaqinda Amaranta bilan pianola tuzatgan o‘sha italiyalikning to‘yini ko‘ramiz.

Ursula Petro Krespi bilan Amarantaning suhbatlarini ilgarigidek kuzatishni keraksiz deb bilgach, ularning do‘stona aloqalari xiyla ilgarilab ketdi. Kelin-kuyovlik qorong‘ilik pardasi ila chulg‘andi. Petro Krespi har kuni kechqurun Amaranta uchun Petrarkaning sonetlarini tarjima qilardi. Ular atirgullar hidi ufurib turgan peshayvonda to chivinlar oromlarini buzmagunlaricha o‘tirishar, so‘ng mehmonxonaga o‘tishardi. Yigit she’r o‘qir, qiz esa chevarlik qilar, ikkisi ham urush voqealariga loqayd edi. Amarantaning sezgirligi, uning vazmin nafosati yigitni o‘rgimchak iplari kabi o‘rab tashladi va har safar soat sakkizda uyiga ketishidan oldin kuyov ana shu ko‘rinmas iplarni uzib tashlardi go‘yo. Petro Krespi Vatanidan yuborilgan tabriknomalardan Amaranta ikkovi ajoyib albom tayyorlashdi. Bu tabriknomalarning har birida daraxtzorlarning xilvat burchagida o‘tirishgan mahbublar, kamon o‘qi bilan yaralangan yurak yoki ikki kabutar ikki uchini tumshug‘ida tutib turgan tillarang tasmalar tasviri tushirilgandi. «Bu – Florensiyadagi bog‘, – derdi Petro Krespi tabriknomalarni ko‘zdan kechirarkan. – Qo‘lingni cho‘zsang bas, kabutarlar kaftingga qo‘nib, non ushoqlarini yeya boshlashadi». Ba’zan Venetsiya shahri ko‘rinishlari tasvirlangan bo‘yoqli rasmlarni ko‘rishganida, Vatan sog‘inchi uning xotirasida kanallardan taraluvchi botqoq dengizning chirik chig‘anoqlari hidi-yu, gullarning yengil bo‘yini uyg‘otardi. Amaranta goho xo‘rsinib, goho kulib, go‘zal erk-

ag-u ayollari bolalar tilida so‘zlashuvchi bu mamlakat, shu kunlarda xarobazorga aylangan qadimiy shaharlar haqida orzu qilardi. Nihoyat, Petro Krespi izlaganini topgan edi. Muhabbat dardida okeanni kesib o‘tgach, Rebeka bilan shoshilinch, jo‘shqin tarzda o‘pishgan paytidagi havas bilan adashtirib yuborganidan so‘ng, nihoyat haqiqiy muhabbatini topgan edi. Baxt unga omad keltirdi. Endi Petro Krespining do‘koni deyarli butun ko‘chani egallar va go‘yo xayoliy bir makonga aylangan – bu yerda vaqtni soat bonglari orqali bildirib turadigan Florensiya qo‘ng‘iroqxonasining aniq nusxasini, Sorrentodan keltirilgan musiqali qutichani, qopqog‘i ochilishi bilanoq besh notadagi kuydan parchalar ijro etiladigan xitoy upadoni va, umuman, barcha musiqa sozlarini, odamzod tomonidan o‘ylab chiqarilgan, burab harakatga keltiriluvchi o‘yinchoqlarning turfa xilini uchratish mumkin edi. Musiqa maktabida dars berishga layoqatsiz bo‘lgan Bruno Krespi – Petroning ukasi do‘konga mutasaddi edi. Uning yelib-yugurishlari tufayli Turklar ko‘chasi o‘zining turli-tuman, ko‘zni qamashtiruvchi o‘yinchoqlar ko‘rgazmasi bilan sehrli qo‘riqxonaga o‘xshab qoldi, bu yerda odamlar Arkadioning jabr-zulmlarini, yiroq-yiroqlardagi urush tahlikasini batamom unutishardi. Ursulaning ko‘rsatmasiga binoan, yakshanba ibodati qayta tiklanganida, Petro Krespi ibodatxonaga nemis fisgarmoniyasini hadya etdi, u yerda bolalar xorini tashkil qilib, uning qatnashchilari bilan birgalikda gregorian repertuarini mashq qila boshladi. Bu Padre Nikanorning kamtarin xizmatiga allaqanday shukuh bag‘ishladi. Amaranta yaqin kunlar

ichida italiyalikning baxtiyor rafiqasi bo‘lishiga hamma ishonardi. O‘z hislarini ortiqcha qamchilamay, ularni nafis, tabiiy oqim ixtiyoriga havola qilgan kelin-kuyov, oxir-oqibatda to‘y muddatini aniqlash chegarasiga qadar kelishdi. Hech kim ularga mone’lik qilmoqchi emasdi. Ilgari, to‘yni ortga suraverganidan Rebekani badbaxt qilib qo‘ygani uchun ich-ichidan o‘zini gunohkor his qilayotgan Ursula, vijdon azobini yanada orttirishni istamasdi. Urush jafolari, Aurelianoning yo‘qligi, Arkadioning zulmi, Xose Arkadio bilan Rebekaning quvg‘in qilinishi tufayli Remediosga ochilgan aza ham unut bo‘ldi. To‘ylari bo‘lishga astoydil ishongan Petro Krespi bir kuni Aureliano Xoseni o‘zining to‘ng‘ich o‘g‘li deb hisoblashga moyilligini sezdirdi. Hamma, Amaranta baxtning osuda ko‘rfaziga tobora yaqin qoldi, deb o‘ylardi. Ammo Rebekadan farqli o‘laroq, u hayajonini mutlaq sezdirmasdi. Dasturxonga gul tikkan paytidagidek xotirjamlik bilan zarjiyak to‘qir, matoga tustovuqlar tasvirini tushirardi. Amaranta Petro Krespi inon-ixtiyorini butkul baxsh etadigan paytni kutar edi. Oxiri, kutaverib, oktabrning shiddatli yomg‘irlari mahali sabr kosasi to‘ldi shekilli, birdan o‘zgardi.

Petro Krespi o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. U hech bir uyalmay-netmay fig‘on chekkanida ham, umidsizlikka tushganidan barmoqlarini sindirib yuborishga sal qolganida ham, Amarantaning qarorini o‘zgartira olmadi. «Vaqtingni behuda o‘tkazma, – dedi unga Amaranta. – Agar meni haqiqatan ham sevadigan bo‘lsang, uyimizning bo‘sag‘asiga boshqa qadam bosmagin». Ursula uyatdan yer qa’riga kirib ketishga tayyor edi. Pet-

ro Krespi yalinishning barcha usullarini qo‘llab ko‘rdi. U o‘zini tasavvur qilib bo‘lmas darajada kamsitishgacha borib yetdi, – jonini qurbon qilib bo‘lsa-da, yigitga tasalli berishga tayyor turgan Ursulaning etagini tutib, butun oqshom bo‘yi yig‘ladi. Krespining yomg‘irli ko‘chalarda shohi soyabon tutib, Amarantaning derazasida chiroq bor-yo‘qligini kuzatib, uyni tentirab aylanib yurganini ko‘p ko‘rishardi. Petro Krespi hech qachon ana shu kunlardagidek bejirim kiyinmasdi. Uning behad azob-uqubat tortgan, imperatornikiga o‘xshagan boshi favqulodda ajoyib salobat kasb etgandi. U Amarantaning peshayvonda chevarlik qilishga keladigan dugonalaridan uning qarorini o‘zgartirishga ta’sir ko‘rsatishlarini iltijo qilib, ularni jon-holiga qo‘ymasdi. U hamma ishlarini o‘z holiga tashlab qo‘ydi. Krespi uzzukun vaqtini do‘konning orqa xonasida o‘tkazar, telbanamo maktublar bitib, orasiga gul barglari-yu quritilgan kapalaklarni joylab Amarantaga yo‘llar, xatlar esa ochilmasdan, yana o‘ziga qaytib kelardi. U uyga qamalib, soatlab sitrada kuy chalardi. Bir kuni kechasi qo‘shiq ayta boshlaganida Makondo ahli uyqudan uyg‘onib, sitraning sehrli kuyidan va yer yuzida mavjud eng kuchli muhabbatga yo‘g‘rilgan hazin ovozdan g‘oyat taajjubga tushishdi. Ana o‘shanda Petro Krespi Amarantaning derazasidan bo‘lak barcha derazalarda chiroq yonganini ko‘rdi. Ikkinchi noyabrda – marhumlarni xotirlash kunida do‘kon eshigini ochib, ichkariga kirgan ukasi barcha chiroqlar yoqilganini, barcha musiqali qutichalar ochilib, kuy ijro etayotganini, barcha soatlar to‘xtamay zang urayotganini va ana shu tuturiqsiz musiqa sadolari ostida yotgan

akasi Petro Krespini koʻrdi: uning bilaklaridagi koʻk tomirlari kesilgan, ikkala qoʻli esa boʻxoʻr[1] toʻldirilgan togʻoraga tushirilgandi.

Ursula uning jasadi solingan tobutni uylariga qoʻyishni buyurdi. Ruhoniy Nikanor diniy marosimni oʻtkazishga va oʻz-oʻziga suiqasd qilgan odamning jasadini muqaddas tuproqqa qoʻyishga qarshi chiqdi. Ursula u bilan bahslasha boshladi. «Menimcha, u shahid hisoblanadi, – dedi u. – Bu voqea qay sababdan sodir boʻlganini na men-u, na siz tushuna olamiz. Irodangizga qarshi borsam-da, uni Melkiadesning yoniga dafn etaman». U dabdabali dafn marosimida butun fikr-zikrini bir ovozdan qoʻllab-quvvatlaganidan soʻng ahdini bajardi. Dafn kuni Amaranta yotogʻidan chiqmadi. U toʻshagida yotarkan, Ursulaning nolasini, uyda toʻplangan odamlarning qadam tovushlarini, ularning past ovozlarini, goʻyandalarning marsiyalarini eshitdi. Xonaga toptalgan gullarning hidi anqib turgan chuqur sukunat choʻkdi. Amaranta uzoq muddat har oqshom lavandaning[2] hidini tuyardi, ammo u oʻzini telbalikka asir boʻlishdan xalos qilishga yetarli kuch topdi. Ursula uni butkul tashlab qoʻydi. Bir kuni kechqurun Amaranta oshxonaga chiqib, qoʻlini oʻchoqning laxcha choʻgʻiga tutib, to kuygan etining badboʻy hidi kelgunga qadar qimir etmay, ogʻriqqa chidab turganidayam unga rahmi kelmadi, hatto boshini koʻtarib ham qaramadi. Bu – vijdon azobini bosish uchun ishlatilgan kuchli ta’sir vositasi edi. Amaranta bir

[1] Boʻxoʻr – Osiyo janubidagi daraxtlar poʻstlogʻidan olinadigan xushboʻy shira.

[2] Lavanda – havorang yoki binafsharang oʻsimlik.

necha kun davomida qo‘lini tuxum sarig‘i solingan kosaga solib yurdi, keyin kuygan joylari bitib ketdi va yara o‘rni chandiq bo‘lib qoldi. Tuxum sarig‘i baayni uning yuragidagi jarohatlariga ham malham bo‘ldi. Boshidan kechirgan fojiani birgina qora gazmoldan qilingan latta eslatib turardi. Amaranta bu qora tasmani kuygan qo‘liga o‘la-o‘lguncha taqib yurdi.

Arkadio kutilmaganda muruvvat ko‘rsatdi – Petro Krespining o‘limi munosabati bilan rasmiy motam tutishga farmon berdi. Ursula buni xuddi adashib qolgan qo‘yning suruvga qaytganidek baholadi. Ammo u yanglishgan edi. Hali harbiy libos kiymasdan ilgari Arkadio uning uchun yo‘qotilgan edi. U Arkadioni o‘z farzandiday – xuddi Rebekani tarbiyalagandek, doim e’zozlab, hech narsaga zoriqtirmasdan tarbiyaladim, deb hisoblardi. Ammo Arkadio odamovi, qo‘rqoq bo‘lib o‘sdi. Axir uning bolaligi uyqusizlik kasali keng tarqalgan, Ursula qurilish ishlariga mukkasidan ketgan, Xose Arkadio telba bo‘lib qolgan, Aureliano uzlatga chekingan, Amaranta bilan Rebeka bir-biriga beomon raqib bo‘lib yurgan bir paytga to‘g‘ri kelgan edi-da. Aureliano uning xat-savodini chiqardi. U Arkadioga o‘z kiyimlarini batamom o‘ziga yaroqsiz bo‘lgandan keyingina hadya qilardi. Visitasyon esa Arkadioga moslab kichraytirib, qayta tikardi. Arkadio beso‘naqay poyabzalidan, shimidagi yamoqlardan, o‘zining zaifona dumbasidan xijolat chekardi. U ko‘pincha Visitasyon va Kataure bilan ularning tilida so‘zlashardi. Faqat birgina Melkiades unga haqiqiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatar, Arkadioga o‘zining odam tushunishi qiyin bo‘lgan yozuvlarini o‘qib berar, unga dagerro-

tipiya san'atini o'rgatardi. Yigitcha lo'lining o'limi tufayli yum-yum yig'laganini, cholning yozuvlarini behuda tadqiq qilib, hammadan dard-alamini yashirgan holda tavakkaliga marhumni tiriltirish yo'lini qidirganini hech kim payqamagandi. Hammaning hurmatiga sazovor o'zi ishlagan maktab, keyinchalik shafqatsiz qonunlar chiqarishga yo'l ochgan hokimiyat hamda ko'rkam harbiy libos Arkadioni biroz chalg'itib, yurakni siqadigan g'am-anduhdan qutqargandi. Bir kuni kechqurun Katarino ishratxonasida allakim unga: «Sen o'z ism-sharifingga munosib emassan», deyishga jazm qildi. Garchand hamma, Arkadio uni qatl qiladi, deb o'ylasa-da, negadir u haligi mard odamni otib tashlashga hukm etmadi.

– Baxtim shuki, men Buendia emasman, – dedi u.

Uning asrandiligi sirini bilganlar Arkadioga hamma gap ma'lum ekan-da, deb o'ylashdi, ammo aslida u ota-onasining kimligini bir umr bilmay o'tdi. U o'z onasi – Pilar Terneraga xuddi Xose Arkadio yoki Aureliano kabi tiyiqsiz bir mayl sezardi; Ternera Arkadio dagerrotipiya bilan mashg'ul bo'lgan qorong'i xonaga kirganida yigitning tomirlaridagi qon jo'sh urib ketardi. Pilar Ternera avvalgi jozibasi-yu jarangdor kulgisini yo'qotgan bo'lsa-da, undan taraladigan achimsiq dud hidi Arkadioga yoqardi. Kunlarning birida, urush boshlanmasdan sal oldin Pilar Ternera kenja o'g'lini maktabdan olib ketgani odatdagi vaqtdan xiyla kechroq keldi. Arkadio uni o'zi peshinda dam oladigan, keyinchalik kishanlarni va so'ngra qoliplarni saqlashni buyurgan xonada kutib turdi. Bola hovlida o'ynab yurardi. Arkadio, Pilar Ternera, albatta, ana shu xonadan o'tishini

bilardi. U to‘r belanchakda sabrsizlikdan titrab kuta boshladi. Ayol keldi, Arkadio uning qo‘llaridan tutib, to‘r belanchak sari sudray boshladi.

– Bo‘lmaydi, bo‘lmaydi, – derdi Pilar Ternera dahshatga tushib. – Senga mudom huzur bag‘ishlashni o‘ylashimni bilmaysan, ammo Xudo shohid – buning aslo iloji yo‘q.

Yigit Buendiadan meros qolgan kuchi bilan uning belidan quchib, dast ko‘tardi, badani badaniga tekkach, ko‘z oldi qorong‘ilashib ketdi.

– O‘zingni farishta qilib ko‘rsatma, – dedi Arkadio, – buzuqligingni hamma biladi.

Pilar o‘zining baxtsiz qismatiga nisbatan nafratini zo‘rg‘a bosdi.

– Bolalar ko‘rib qolishadi, – shivirladi u. – Yaxshisi, bugun tunda eshikni ochiq qoldir.

Kechasi Arkadio tishlari takillagancha talvasaga tushib, uni to‘r belanchakda kutdi. U ko‘zini yummas, chigirtkalarning chirillashini, go‘yo tuzilgan jadvalga rioya qilganday doimo bir vaqtda ovoz chiqaradigan ukkining qichqirig‘ini tinglarkan, vaqt o‘tgan sayin uni aldashganiga ishonch hosil qilardi. Uning hayajoni me’yordan osha boshlagan paytda, tuyqusdan eshik ochildi. Oradan bir necha oy o‘tib, devor yonida o‘q uzishlarini kutib turgan Arkadio ana shu onni yana bir bor tasavvuridan o‘tkazadi; oldin qorong‘ida qo‘shni xonada adashgan allakimning ohista qadam tovushi, kimdir urilib ketgandagi o‘rindiqning shovqini eshitildi, keyin zulmat quyuqlashib, ayol gavdasi shaklini oldi. Atrof yurak zarbidan larzaga kelardi. Yigit qo‘lini uzatib, barmog‘iga ikki uzuk taqilgan qo‘lga duch keldi: u o‘sha qo‘lni naq o‘z vaqtida – uni qorong‘i-

lik o‘z qa’riga yuta boshlaganida uchratgandi. U shox tomirlarning tarmoq otganini, tomirlarning qo‘rquvdan titrashini, hayot chiziqlari boshmaldog‘iga tutashgan joyda shum ajalning chizig‘i bilan bo‘lingan nimxush kaftni sezdi. Shunda bu ayol o‘zi kutayotgan ayol emas, balki boshqaligini tushundi – undan achimsiq dud emas, guldan tayyorlangan atir hidi kelar, xuddi yovvoyi kaptarday pitirlashi tajribasizligidan darak berardi. Hali bokira bo‘lgan qizning ismi ham ajabtovur – Sayta Sofiya de la Pyedad edi. Pilar Ternera ayni ishi uchun qizga o‘zi yiqqan bisotining teng yarmini – naq ellik peso to‘lagandi. Arkadio qizni oziq-ovqat sotiladigan do‘konchada ota-onasiga yordamlashib yurganini bir necha bor ko‘rgan bo‘lsa-da, hech e’tibor bermagan, chunki bo‘yi yetgan qiz to unga ehtiyoj sezishmagunlaricha o‘zini sezdirmaslikdek kamyob fazilatga ega edi. Shu tun Sayta Sofiya de la Pyedad Arkadioning issiq bag‘rida yuvosh mushukchadek g‘ujanak bo‘lib uxlab qoldi. Pilar Ternera bisotining qolgan qismini ham olgach, ota-onasining ruxsati bilan maktabga peshingi hordiq mahallari keladigan bo‘ldi. Keyinroq, hukumat jangchilari Arkadio bilan Santa Sofiya de la Pyedadni maktabdan ko‘chishga majbur qilishdi, endi ular do‘konning orqa xonasidagi sariyog‘ solingan qutilar va makkajo‘xori qoplari panasida yalab-yulqashardi. Oradan sal vaqt o‘tib, Arkadio kutilmaganda Makondoga hukmdor bo‘lib olgan paytda ayol qiz tug‘di.

Bu haqda qarindoshlaridan faqat Xose Arkadio bilan Rebeka bilardi. Arkadio ular bilan ancha qalin edi. Xose Arkadioning bo‘yniga turmush-

ning og‘ir xurjuni osilgan edi. Rebeka o‘z matonati, izzattalabligi bilan sarkash fe’lli erini shu qadar jilovlab olgandiki, Xose Arkadio tanbal, xotinboz bir odamdan katta va kuchli mehnatkash jonivorga aylangan edi. Ularning uylari hamisha saranjom-sarishta bo‘lardi. Ertalab Rebeka barcha derazalarni lang ochar, qabristondan esayotgan shamol xonaga kirib, devor-u jihozlarda yupqa chang qatlamini qoldirib, eshik orqali hovliga chiqib ketardi. Kesak yeyishga mayl, qopdagi ota-onasi suyaklarining qarsillashi, qiziqqonligi, Petro Krespining bo‘shangligi – bularning bari xotira tubida cho‘kib yotardi. Rebeka deraza oldida o‘tirib, urush vahimalariga e’tibor ham bermay, kun bo‘yi chevarlik qilardi, tokchalardagi ko‘zachalar titray boshlaganda qo‘shog‘iz miltiq tutgan, temir nag‘alli etik kiygan bahaybat Xose Arkadio loyga belangan ovchi itlar bilan uyga kelayotganini bilib, ovqat isitish uchun o‘rnidan turardi. Erining yelkasida gohida kiyik bo‘lar, ammo ko‘pincha quyon yoki yovvoyi o‘rdaklar otib kelardi. Endigina shaharga boshliq etib tayinlangan Arkadio bir kuni kechqurun Rebeka bilan erini yo‘qlab keldi. Garchi ular uydan chiqib ketganlaridan beri biror marta ham kelib ko‘rmagan bo‘lsa-da, o‘zini shunchalar yaqin, do‘stona tutdiki, er-xotin uni qovurdoqdan tatib ko‘rishga taklif etishdi.

Qahva ichilayotgan paytda Arkadio bu yerga kelishining asl sababini aytdi: unga Xose Arkadioning ustidan ma’lumot tushgan ekan. Ma’lumotga qaraganda, Xose Arkadio hovlisidagi yerlarni haydab bo‘lib, qo‘shnilarining ham dalasiga o‘tgan va ho‘kizlari yordamida to‘siqni yiqitib, imoratlar-

ni vayronaga aylantirib, atrofdagi barcha yaxshi yerlarni o‘ziniki qilib olgan ekan. Yerlari yaroqsiz ba’zi dehqonlarga tegmabdi, ammo ularga soliq solib, boqimanda undirish niyatida har shanba itlar galasini yetaklab yelkasiga qo‘shotarini osib kelarkan. Xose Arkadio qilmishlaridan tonmadi – egallagan yerlarining Makondoga asos solinganida Xose Arkadio Buendia tomonidan taqsimlanganini ro‘kach qildi. U, aslida, Buendialar oilasiga qarashli bo‘lgan bu tomorqalarning begonalar qo‘liga topshirgani uchun otasining o‘shanda ham telbaligini isbotlashga urindi. Bu izohlarning asli keragi yo‘q, negaki, Arkadio adolat o‘rnatish uchun kelmagan edi. U ko‘nmadi va tomorqalarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi tashkilot tuzmoqni taklif qildi: agar Xose Arkadio o‘z vaqtida unga soliq to‘plab turishini bo‘yniga olsa, hozirga qadar egallagan amloki tortib olinmas ekan. Oradan yillar o‘tib, polkovnik Aureliano Buendia yer taqsimlash tartibini qayta ko‘rib chiqqanida, barcha tomorqalar – qabristondan tortib, umuman Xose Arkadio hovlisidagi tepalikdan ko‘rinib turgan yerlarning hammasi akasiga qarashliligini va Arkadio o‘zining o‘n bir oylik hukmdorligi mobaynida faqat soliqlardan tushgan pullarnigina emas, Xose Arkadioga qarashli qabriston maydoniga o‘lik ko‘mish uchun to‘langan pullarni ham hamyoniga urganini aniqladi.

Hamma allaqachonoq voqif bo‘lgan, lekin alamiga alam qo‘shilmasin, deb Ursuladan yashirilgan bu sir, bechora onaga bir necha oydan so‘ng baribir ayon bo‘ldi. Avval ham unda andak shubha tug‘ilgandi. «Arkadio o‘ziga uy quryapti, – dedi u soxta mag‘rurlik bilan eriga, qoshiqdagi osh-

qovoq qiyomini unga ichkizarkan. Ammo xo‘rsinishdan o‘zini tiyolmadi. – Sababini bilmayman-u, lekin ko‘nglim bejo». Keyin Arkadioning nafaqat uy qurdirgani, balki o‘zi uchun Vena jihozlarini buyurganini eshitgach, u Arkadioning davlat mulkini talon-taroj qilayotganiga shubha qilmay qo‘ydi. Bir kuni yakshanba ibodatidan qaytayotganida, u Arkadioning yangi uyda yangi zobitlar bilan qarta o‘ynayotganini ko‘rib qoldi. «Sen oilamizni isnodga qoldiryapsan!» – qichqirdi Ursula, biroq Arkadio e’tibor bermadi. Ana o‘shandagina Ursula Arkadioning olti oylik qizalog‘i borligini va o‘g‘li bilan nikohsiz yashayotgan Santa Sofiya de la Pyedad yana og‘iroyoqligini bildi. Ursula oldiniga qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, polkovnik Aureliano Buendiaga xat yozib, yuz bergan barcha qing‘irliklardan uni xabardor qilib turishga so‘z berdi, ammo keyingi kunlarda avj olgan voqealarni ko‘rib niyatidan qaytdi, hattoki shunday qarorga kelganidan pushaymon yedi. Shu damgacha makondoliklarga mishmish bo‘lib tuyilgan «urush» so‘zi nihoyat fojiaviy haqiqatga aylandi. Fevral oyining so‘nggida shahar qopqasida orqasiga supurgi ortilgan eshak mingan, ust-boshi chang-to‘zon bir kampir paydo bo‘ldi.

Ko‘rinishi beozorligi uchun ham soqchilar uni osongina o‘tkazib yuborishdi, ular bu kampirni vodiydan kelgan odatdagi sotuvchi deb o‘ylashgandi. Kampir to‘ppa-to‘g‘ri kazarmaga yo‘l oldi. Arkadio uni qurol-aslahalar saqlanuvchi omborida qarshiladi: har joy-har joyda halqalarga osib tashlangan yoki o‘ralgan to‘r belanchaklar ko‘zga tashlanar, kunjaklarda to‘p-to‘p bo‘yralar uylan-

gan, miltiqlar, karabinlar, hatto ov miltiqlari shundoq yerda tartibsiz yotardi. Kampir harbiy-chasiga qaddini rostlab, g‘oz turarkan, o‘zini tanishtirdi:

– Polkovnik Gregorio Stivenson.

U noxush xabarlar keltirgan edi. Aytishicha, liberallarning so‘nggi istehkomi yanchib tashlanibdi. Rioacha atrofidagi janglarda chekinishga majbur bo‘lgan polkovnik Aureliano Buendia uni maxsus topshiriq bilan Arkadioning oldiga yuboribdi. Odamlarning hayoti va liberallar mulkini saqlab qolishga rostakamiga kirishgandagina ular Makondoni qarshiliksiz topshirishlari kerak ekan. Arkadio ojiz kampir qiyofasida kelgan bu g‘alati choparga nafratomuz xayrixohlik bilan nazar tashladi.

– Shubhasiz, yoningizda aqalli yozma buyruq bordir? – so‘radi u.

– Albatta, – deb javob qaytardi chopar, – lekin menda bunaqangi buyruq yo‘q. Qaltis vaziyatda bizga ziyon keltiradigan har qanday hujjat olib yurmasligimiz sizga ayon.

U belbog‘idan oltin baliqchani chiqarib, stolga qo‘yarkan: «Ana, shuni yetarli asos, deb bilaman», – dedi. Arkadio, haqiqatan ham, bu polkovnik Aureliano Buendia yasagan baliqchalardan biriligini tan oldi. Ammo uni kampir urush boshlanmasdan burun xarid qilgan bo‘lsa-chi, yo‘q guvohlikka o‘tmaydi. Chopar o‘z shaxsiga yanayam ishonch hosil qildirish uchun harbiy sirni buzishga majbur bo‘ldi. U Kyurasaoga, Karib dengizi orollaridan badarg‘a qilinganlarni yollash, qurol-yarog‘ topib, yil oxirida qirg‘oqqa chiqish uchun muhim topshiriq olganini aytdi: «polkovnik Aureliano Bu-

endianing bu rejasi muvaffaqiyat keltirishiga imonim komil, u behudaga qurbon bermaylik», deb hisoblaydi. Ammo Arkadio qat'iyatli edi. U choparni to shaxsi aniqlanguncha qo'riqlab turishga buyruq berdi, Makondo qal'asini esa hayot-mamot jangi bilan mudofaa etishga qasamyod qildi.

Kutish ko'pga cho'zilmadi. Liberallarning mag'lubiyati haqidagi xabarlarning to'g'riligi ayon bo'ldi. Martning so'nggi kechalaridan birida bemavrid jala Makondo ko'chalarini yuva boshlaganida, o'tgan haftalarning osoyishtaligini tuyqusdan karnaylarning yurakni siquvchi sadosi buzdi, keyin to'plar otildi, ibodatxonaning qo'ng'iroqxonasi o'pirildi. Qarshilik ko'rsatish jinnilik edi. Arkadioning ixtiyorida nochor qurollangan atigi ellik nafar odam bo'lib, o'q-dorilar zaxirasi kishi boshiga yigirma donadan oshmasdi. To'g'ri, bu odamlar orasida Arkadioning balandparvoz da'vatlariga uchgan va bu bo'lmag'ur ish uchun hayotlarini qurbon qilishga tayyor turgan sobiq talabalar ham bor edi. O'zini polkovnik Stivenson deb tanitgan odam Arkadio bilan gaplashishga ruxsat olganida, to'plar sadosidan yer larzaga kelar, o'qlarning betartib qasir-qusuri, etiklarning dukur-dukuri, telba-teskari buyruqlar-u, karnaylarning bema'ni ovozlari eshitilardi. «Meni taxtakachda va ayol kiyimida o'lishdan xalos eting, – yalindi u. – Yaxshisi, jang qilib o'layin». Arkadio mahbusga qurol, yigirma dona o'q-dori berishni buyurdi va uni besh nafar odam bilan kazarmani himoya qilish uchun qoldirdi-da, o'zi mudofaaga rahbarlik qilish maqsadida askarlari bilan chiqib ketdi. Arkadio vodiyga eltadigan yo'lga chiqishga ham ulgurolmadi. Makondoga kiraverishdagi bar-

rikadalar yakson etilgach, shahar himoyachilari ko‘chalarda jang qilishardi; ular to o‘q-dorilar qolmaguncha o‘q uzishdi, so‘ngra to‘pponchalarini ishga solishdi va nihoyat mushtlashish boshlandi. Mag‘lubiyat tahlikasi ko‘pchilik ayollarni oshpichoqlarda qurollanib, ko‘chalarga otilib chiqishga majbur qildi. Ana shu to‘s-to‘polonda Arkadio o‘zini qidirayotgan Amarantani ko‘rib qoldi: tungi ich ko‘ylakda, Xose Arkadio Buendianing eski to‘pponchasini ushlab olgan Amaranta aqldan ozganga o‘xshardi. Arkadio miltig‘ini jangda qurolidan ajragan zobitga berdi-da, Amarantani uyiga eltib qo‘ygani tor ko‘chaga qarab yurdi. Hatto qo‘shni uyning peshtoqini o‘pirgan qurollarning tovushiga ham e’tibor bermayotgan Ursula eshik yonida turib, ularni kutardi. Yomg‘ir tindi, ammo ko‘chalar irigan sovundek sirpanchiq, yumshoq edi. Tun qorong‘isida tusmollab yurishga to‘g‘ri kelardi. Arkadio Amarantani Ursulaga topshirib, iziga burildi-da, ularga qo‘shni burchakdan o‘q uza boshlagan ikki askarga qarata o‘t ochishga tushdi. Javonda anchadan buyon to‘pponchalar otilmay yotardi. Ursula Arkadioni gavdasi bilan to‘sib, uyga kiritishga urinardi.

– Ketdik, Xudo haqi! – baqirardi u. – Bema’nilikka chek qo‘y!..

Askarlar ularni mo‘ljalga ola boshlashdi.

– Bu odamni qo‘yib yuboring, senyora! – qichqirdi ulardan biri. – Yo‘qsa, biz hech narsa uchun javob bermaymiz!

Arkadio Ursulani nari surib, taslim bo‘ldi. Oradan biroz vaqt o‘tgach, otishma tugab, qo‘ng‘iroqlar chalina boshlandi. Qarshilik atigi yarim soat ichida bostirildi. Arkadioning birorta ham odami

tirik qolmadi, dushmanning uch yuz nafar askariga qarshi jangda hammasi mardonavor kurashib halok bo‘ldi. Kazarma ularning so‘nggi tayanchi edi. Hukumat jangchilari hal qiluvchi hujumga hozirlik ko‘rishayotganida, o‘zini polkovnik Gregorio Stivenson, deb atagan chopar bandilarni qo‘yib yubordi va o‘z odamlariga kazarmadan ko‘chaga chiqib jang qilishga buyruq berdi. Uning o‘ta chaqqonligi, derazaga joylashtirilgan miltiqlardan o‘q uzishga ulgurayotgani tufayli go‘yoki kazarma yaxshi mudofaa qilib turilgandek tasavvur hosil qilgan bosqinchilar kazarmani birdan to‘pga tutib, vayron qilishdi. Bu jangga rahbarlik qilgan kapitan kazarma xarobasida faqat birgina ishtonchang odam o‘lib yotganini ko‘rib, hayratga tushdi; jasadning snaryad yulib ketgan qo‘li o‘qsiz miltiqni mahkam ushlab yotardi. Ayollarnikiga o‘xshagan quyuq, uzun sochi boshining ortiga taroqda tang‘ilgan, bo‘yniga oltin baliqchali qatronli tumor osilgandi. Kapitan etigi uchida jasadni ag‘darib, yuziga tikildi-yu hayratdan dong qotib qoldi. «Buni qaranglar!» Boshqa zobitlar yugurib kelishdi.

– Qayerdan topganimizni qaranglar-a! – dedi kapitan. – Axir, bu Gregorio Stivenson-ku!

Harbiy-dala sudining hukmiga binoan, Arkadio ertalab qabristonga tutash devor yonida otib tashlandi.

Hayotining ikki soati qolganida uni bolaligidan buyon qiynagan qo‘rquv hissi yo‘qoldi, nima sababdan yo‘qolganini o‘zi ham tushunib yetishga ulgurmadi. U uzundan uzoq hukmnoma bandlarini xotirjam tingladi, bu bilan yaqindagina tug‘ilgan jasurligini ko‘z-ko‘z qilmoqchi emasdi, albat-

ta. Arkadio mushtipar Ursula, balki hozir kashtan daraxti ostida eri bilan o‘tirib, qahva ichayotgandir, deb o‘yladi. Arkadio o‘zining hali ism ham qo‘yilmagan sakkiz oylik qizalog‘i va avgust oyida tug‘ilajak farzandi, Santa Sofiya de la Pyedad haqida o‘ylardi. Kecha kechqurun, urushga ketayotganida ayol kelasi shanbaning tushlik ovqati uchun kiyik go‘shtini tuzlayotgani yodiga tushdi, uning yelkasiga tushuvchi timqora sochlarini, uzun va quyuq yasamadek kipriklarini eslab, diltang bo‘lib qo‘msadi. U qarindoshlar xususida ko‘ngli bo‘shlik qilmasdi, yigit o‘zi ashaddiy yomon ko‘radigan bu odamlarni aslida u qattiq sevishini anglab, hayotiga achchiq yakun yasardi. Harbiy-dala sudining raisi yakunlovchi so‘zini boshladi. Arkadio oradan ikki soat o‘tganini sezmay qoldi. «Garchand, bu sanab o‘tilgan ayblar dalillar bilan isbotlanmaganida ham, – dedi rais, – o‘ziga tobe odamlarni behuda o‘limga yuborgan aybdorning mas’uliyatsizligi, jinoyatkorona jur’atining o‘ziyoq o‘lim hukmiga yetarli asos bo‘la oladi». Arkadio xarobaga aylangan maktab binosida ilk bor hokimiyat nash’asini sezib, o‘ziga bino qo‘ygan va ayni shu joyda muhabbat tufayli o‘ziga ishonchini yo‘qotganini eslarkan, qatlga daxldor bu rasmiyatchilik allaqanday bema’nilik bo‘lib tuyilardi. To‘g‘risini aytganda, o‘lim uning uchun ahamiyatsiz edi, shu sababli ham hukmni eshitgach, qo‘rquv emas, balki sog‘inch hissini tuydi. Oxirgi iltimosi haqida so‘rashmaguncha lom-mim demadi.

– Xotinimga aytinglar, – javob berdi u baland ovozda, – qizimizga Ursula deb ism qo‘ysin, – biroz jim qolib, so‘ng ta’kidladi. – Xuddi buvisiga

oʻxshab, Ursula, deya atashsin. Yana unga aytinglar, agar tugʻiladigan farzandimiz oʻgʻil boʻlsa, unga Xose Arkadio deb ism qoʻyishsin, ammo amakisi emas, bobosi sharafiga.

Arkadioni devor yoniga olib bormaslaridan ilgari ruhoniy Nikanor uni tavba qildirishga urindi.

– Mening tavba qiladigan gunohim yoʻq, – dedi Arkadio va bir finjon qahva ichib, oʻzini askarlarning izmiga topshirdi. Otuvga bosh-qoshlikni Roke qassob deb nom olgan kapitanni bekorga tayinlashmadi – u ommaviy qatllar boʻyicha mutaxassis edi. Tinimsiz tomchilayotgan yomgʻir ostida qabriston tomon borayotgan Arkadio ufqda chorshanba tongining charogʻon nurlarini koʻrdi. Kechki tuman izidan uning sogʻinchi ham tarqalib, hadsiz sinchkovlik bilan almashgandi. Unga devor tomon orqa oʻgirib turish buyurildi. Shundagina u Rebekani koʻrdi. Sochlari hoʻl, pushti gulli koʻylak kiygan Rebeka uy derazalarini lang ochardi. Arkadio uning diqqatini jalb etish uchun bor iroda kuchini toʻpladi. Darvoqe, Rebeka bexosdan devorga nazar tashladi-yu, dahshatdan hayratga tushib qotib qoldi, keyin bor kuchini toʻplab, qoʻlini siltab vidolashdi, Arkadio ham unga shu tarzda javob qaytardi. Ana shu lahzada unga miltiqlarning dud bosgan ogʻzi toʻgʻrilangandi va u daf'atan Melkiades aytib ketgan tilsimotlarni soʻzma-soʻz eshita boshladi va qulogʻiga sinfxonada adashib qolgan Santa Sofiya de la Pyedadning qadam tovushlari chalindi, soʻng u xuddi marhuma Remediosning murdasiga qarab taajjublangan mahalidagidek burni sovqotganini his etdi. «Obbo, – yana oʻylashga ulgurdi u, – agar qiz tugʻilsa, ismini Remedios qoʻyishsin, deb aytishni unutibman». Shu

on unga butun umr bo‘yi azob berib kelgan o‘sha qo‘rquv yana qaqshatqich zarba bilan yopirilib keldi. Kapitan o‘q uzishga buyruq berdi. Boldirlarini kuydirayotgan issiq suyuqlik qayerdan oqayotganini anglamagan Arkadio, qaddini rostlab, boshini ko‘tarishga ulgurdi, xolos.

– Ablahlar! – qichqirdi u. – Yashasin liberallar partiyasi!

May oyida urush tugadi. Hukumatning bu haqda qo‘zg‘olon sababchilarini shafqatsiz jazolash va’da qilingan dabdabali chaqirig‘i rasmiy e’lon qilinishiga ikki hafta qolganida, tabib hindu kiyimida g‘arbiy chegaraga yetay-yetay degan joyida polkovnik Aureliano Buendia asirga olindi. U urushga o‘zi bilan yigirma bir nafar askarni olib ketgandi; ulardan o‘n to‘rt nafari janglarda o‘ldi, olti nafari yaralandi, faqat bir kishi – polkovnik Xerineldo Markes mag‘lubiyatning so‘nggi daqiqalarigacha yonida bo‘ldi. Polkovnik Aureliano Buendianing asir olinganligi haqidagi xabar rasmiy tarzda e’lon qilindi. «U tirik, – dedi Ursula eriga, – dushmanlar unga rahm qilishlari uchun Xudoga yalinaylik». Ayol uch kun ko‘z yoshi to‘kdi, to‘rtinchi kun, oshxonada qaymoqli shirinliklar tayyorlayotganida, o‘g‘lining ovozini yaqin bir joydan aniq-tiniq eshitdi. «Bu – Aureliano! – deb qichqirgach, eriga mujdani yetkazish maqsadida kashtan daraxti tomon yugurdi. – Qay mo‘jiza tufayli qutulganini bilmayman-u, ammo u tirik, nasib etsa, tez orada diydorini ko‘ramiz». Ursula shunday bo‘lishiga ishonardi. U pollarni yuvib, uydagi jihozlarni qayta joylashtirishni buyurdi. Oradan bir hafta o‘tgach, bashorati allaqayerdan paydo bo‘lgan va rasman qo‘llab-quvvatlanmagan mish-mishlarda o‘zining ayanchli tasdig‘ini topdi.

Polkovnik Aureliano Buendia o‘limga mahkum etilgan va endi, shahar ahliga dahshat solish maqsadida, hukm Makondoda ijro etilishi kerak edi. Dushanba kuni ertalab soat o‘n yarimlarda, Amaranta Aureliano Xoseni kiyintirayotganida, uning qulog‘iga uzoqdan betartib shovqin-suron, karnay sadolari chalindi, bir soniyadan so‘ng esa Ursula: «Olib kelishyapti!» deya xonaga baqirib kirdi. Askarlar miltiq qo‘ndoqlari bilan behisob olomon o‘rtasidan o‘zlariga yo‘l ochishardi. Ursula va Amaranta odamlarni surishib, qo‘shni ko‘chagacha chiqishdi hamda Aurelianoni o‘sha yerda ko‘rishdi. U xuddi gadoyga o‘xshardi. Yalang oyoq, egnida yirtiq kiyim, soch-soqoli to‘zg‘igan, oyog‘ini kuydirayotgan qaynoq tuproqni sezmay borar, orqaga qayrilgan qo‘llarining bir uchini otliq zobit kaftida qisib olgan arqon bilan tang‘ib bog‘lashgan edi. Polkovnik Xerineldo Markesni ham yonma-yon sudrab borishardi, uning ham yuzlari tuproqqa belangan, kiyimlarining uvadasi chiqqan edi. Ammo ularning yuzida qayg‘u ifodasi ko‘rinmasdi. Askarlarni turli haqoratlar bilan ko‘mib tashlayotgan olomonning xatti-harakatidan ikkalasi ham hayajonlanardi.

– O‘g‘lim! – shovqin ichra Ursulaning faryodi jarangladi. U o‘zini ushlab qolishga uringan askarni boplab tushirdi. Zobitning tagidagi ot oldingi oyoqlarini ko‘tarib, tippa-tik turdi. Polkovnik Aureliano Buendia titrab ketdi, onasini chetga tortib, uning ko‘ziga tik boqdi.

– Uyga boring, onajon, – dedi u. – Hukumatdan ruxsat so‘rab qamoqxonaga, mening oldimga keling.

U Ursulaning ortida iymanibgina turgan Amarantaga qaradi-da, jilmayib so‘radi:

– Qo‘lingga nima qildi?

Amaranta qora bog‘ichli qo‘lini ko‘tarib:

– Kuyib qoldi, – dedi-yu, Ursulani chetga, otlardan nariroqqa tortdi. Askarlar osmonga o‘q uzishdi. Otliq askarlar tag‘in asirlarni o‘rab oldi va otlarini yo‘rttirib, kazarma sari yurdi.

Kechqurun Ursula polkovnik Aureliano Buendianing oldiga keldi. U dastlab don Apolinar Moskotening ko‘magida ruxsatnoma olishga urinib ko‘rdi, ammo butun hokimiyat harbiylarning qo‘lida bo‘lganligi bois qudaning gapi o‘tmadi. Padre Nikonor esa jigar xuruji bilan og‘rib yotardi. Polkovnik Xerineldo Markesning (u o‘limga mahkum etilmagandi) ota-onasi o‘g‘illarini ko‘rmoqchi bo‘lishganida, qo‘ndoqlar bilan urib haydashdi. Vositachi topolmasligiga ko‘zi yetgan va ertasiga tongda Aurelianoning otilishiga qat’iy ishongan Ursula, o‘g‘liga ataganlarini tuguncha-ga tugib, yolg‘iz o‘zi kazarmaga bordi.

– Men polkovnik Aureliano Buendianing onasi bo‘laman, – dedi u.

Soqchilar uning yo‘lini to‘sishdi.

– Men baribir kiraman, – dedi Ursula. – Agar sizlarga otish buyurilgan ekan, hoziroq ota qolinglar.

U soqchilardan birini qattiq turtib yuborib, bir to‘da yarim yalang‘och askarlar qurollarini tozalab o‘tirgan sobiq sinfxonaga kirdi. Ko‘rinishidan odobli, yuzi qizg‘ish, qalin ko‘zoynakli, safar libosini kiygan zobit Ursulaning ketidan yugurgan soqchilarga imo qilgach, ular chiqib ketishdi.

– Men polkovnik Aureliano Buendianing onasiman, – deya yana takrorladi Ursula.

– Senyora, siz senyor Aureliano Buedianing onasiman, demoqchisiz, shekilli, – zobit iltifot bilan jilmayib, ayolning gapini tuzatgan bo‘ldi.

Ursula uning nafis nutqida yassitog‘liklar – xachakoliklarga xos cho‘zinchoq ohangni ilg‘adi.

– Mayli, senyor bo‘la qolsin, – rozi bo‘ldi u, – ishqilib, men uni ko‘rsam bo‘lgani. Qatlga mahkum etilganlarni yuqoridan berilgan buyruqqa ko‘ra ko‘rish mutlaqo ta’qiqlangan edi. Ammo zobit mas’uliyatni bo‘yniga olib, Ursulaga o‘n besh daqiqalik uchrashuvga ruxsat berdi. Ursula tugunda keltirgan narsalari: ichki ko‘ylak-ishton, o‘g‘li to‘yda kiygan poyabzalini, uni deb asrab qo‘ygan shirinliklarni ko‘rsatdi. Ursula polkovnik Aureliano Buendiani kishanlar qalashib yotgan xonada uchratdi. O‘g‘li qo‘ltig‘ining ostiga chiqqan behisob chipqonlardan azob chekib, qo‘llarini yozib yotar edi. Unga soqol oldirishga ruxsat berishgandi. Quyuq mo‘ylovining uchlari buralganidan yanoq suyaklari battar bo‘rtib ko‘rinardi. Ursulaning ko‘ziga o‘g‘lining rangi avvalgidan ko‘ra siniqqan, bo‘yi biroz o‘sgan va avvalgidan ham yolg‘iz, g‘arib ko‘rindi. O‘g‘li uylarida bo‘lib o‘tgan hamma voqeadan: Petro Krespining o‘zini o‘zi o‘ldirganidan ham, Arkadioning qonunga xilof ish tutgani-yu otib tashlanganidan ham, Xose Arkadio Buendianing kashtan ostidagi jinninamo qiliqlaridan ham xabardor ekan. U Amarantaning o‘zi qizligidayoq yesir qolib, butun borlig‘ini zehni o‘tkir Aureliano Xosening tarbiyasiga bag‘ishlaganini ham bilardi. Ursula ichkariga kirgan mahal o‘zini noqulay his etdi: o‘g‘lining ulg‘aygan qiyofasi, hukmdorlik salobati, jussasidan yog‘ilib turgan kuch-quvvat uni xijolatga soldi. Ursula uning hamma voqealardan voqifligidan ajablandi.

– O‘g‘lingizning bashorat qila olishini bilasizku, – deb hazillashdi polkovnik. So‘ngra jiddiy tortib qo‘shib qo‘ydi: – Men bu voqealarni erta-

lab, meni olib ketishayotgan paytda boshdan kechirgandek bo‘ldim. Haqiqatan ham olomon shovqin-suron solayotgan paytda, Aureliano Buendia atigi bir yil davomida shahar juda eskirib qolganidan hayratda edi. Bodom daraxtlarining barglari yulib tashlangan edi. Ko‘k rangdan pushtiga, so‘ngra yana ko‘kka bo‘yalgan uylar allaqanday noaniq tus olgan edi.

– Sen nima deb o‘ylaganding? – xo‘rsindi Ursula. – Axir, vaqt o‘tyapti-da. To‘g‘ri, – tasdiqladi Aureliano, – lekin har holda...

Ikkovi ham bu uchrashuvni uzoq vaqt kutib, savollar tayyorlab qo‘yishgan va, hatto, qanday javob olish ham puxta o‘ylab qo‘yilgan bo‘lsa-da, gaplari hech qovushmadi. Uchrashuv odatdagi jo‘n suhbatga aylandi-qoldi. Soqchi ajratilgan o‘n besh daqiqa tugaganini ma’lum qilganida, Aureliano safar karavotining bo‘yrasi ostidan naycha qilib o‘ralgan va ter hidi urib qolgan qog‘ozlarni oldi. Bu – uning Remediosga bag‘ishlagan va uyidan jo‘nayotganida o‘zi bilan olib ketgan – janglar orasidagi qisqa fursatli nafas rostlashlarda bitilgan she’rlari edi.

– Ularni hech kimga o‘qitmaslikka so‘z bering, – dedi u. – Bugun kechqurunoq ularni o‘choqda yoqib yuborasiz.

Ursula va’da berib, xayrlashish uchun o‘g‘lini o‘pgani o‘rnidan turdi.

– Senga qurol olib keldim, – deb pichirladi u.

Polkovnik Aureliano Buendia yaqin o‘rtada soqchining yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, ohista javob berdi:

– Menga uning nima keragi bor? Bo‘pti, mayli, bering, yo‘qsa, chiqib ketayotganingizda tintib qolishlari mumkin.

Ursula qurolni korsajidan chiqarib berdi, polkovnik Aureliano Buendia qurolni bo‘yra ostiga berkitib qo‘ydi.

– Endi men bilan vidolashib o‘tirmang, – dedi u xotirjam ohangda. – Hech kimga yalinmang, hech kimning oldida o‘zingizni yerga urmang. Meni allaqachonoq otib tashlashdi, deb o‘ylashga o‘zingizni majbur qiling.

Ursula ko‘z yoshlarini tiyish uchun labini tishladi.

– Chipqoningga issiq tosh bos, – dedi u va burilib xonadan chiqib ketdi.

O‘z fikrlariga g‘arq bo‘lgan polkovnik Aureliano Buendia eshik yopilgunicha qaqqayib turdi. So‘ng yana qo‘llarini yozib yotdi. U yoshlik chog‘i o‘zidagi g‘oyibona bilish sezgisini anglab yetgan paytdanoq, ajal yaqinlashsa bas, biror bexato alomat orqali daragi yetadi, deb ishonardi, ammo hozir, otilishiga bir necha soat qolgan bo‘lsa-da, o‘sha alomatdan darak yo‘qday edi. Bir kuni uning Tukurinkadagi harbiy qarorgohiga nihoyatda chiroyli qiz kelib, soqchilardan polkovnik Aureliano Buendia bilan uchrashishga ruxsat berishlarini so‘radi. Qizni o‘tkazib yuborishdi, chunki ayrim mutaassib onalar naslni yaxshilash maqsadida qizlarini mashhur lashkarboshilarga qo‘shib qo‘yishlari hammaga ma’lum edi-da. Qiz daf’atan xonaga kirib kelgan o‘sha oqshom polkovnik Aureliano Buendia yomg‘irda qolib, yo‘lini yo‘qotgan odam haqidagi she’rni tugallayotgan edi. Polkovnik qog‘ozlarni she’rlar saqlanadigan stol g‘aladoniga yashirib, mehmonga o‘girildi. O‘shanda ham xavfni aniq his etdi, ortiga burilib qaramay, g‘aladonda yotgan to‘pponchani qo‘liga olib:

– Iltimos, otmang, – dedi.

To‘pponchasini qo‘lida qisib, ortga o‘girilganida, qiz qurolini tushirib, sarosimada turar edi. Polkovnik Aureliano Buendia o‘n bir suiqasdning to‘rttasiga ana shu tarzda chap berdi. Ammo boshqa voqea ham sodir bo‘lgan: noma’lum bir kimsa tunda Manauredagi qo‘zg‘olonchilar qarorgohiga bildirmay kirib, yaqin do‘sti polkovnik Magnifiko Visbalni xanjar bilan bo‘g‘izlab qochib ketgandi. Bechorani bezgak tutgani uchun polkovnik Aureliano Buendia vaqtincha unga o‘z karavotini bo‘shatib berib, o‘zi esa yonidagi to‘r belanchakda uxlagan edi. Shu voqea bo‘ldi-yu, u o‘zining g‘oyibdan sezish tuyg‘usini tahlil qilishga urindi, lek butun sa’y-harakati behuda ketdi. Ayni tuyg‘u hech kutilmaganda, tepadan kelgan vahiy xuddi nur, xuddi mutlaq, bir oniy va aql bovar qilmas dahshat kabi tez paydo bo‘lardiki, ko‘ngliga kelgan g‘alati bir ishonchdan o‘zga belgini anglashga ulgurmay qolardi. Belgilar shu qadar mujmal bo‘lardiki, polkovnik Aureliano Buendia ularni bir sinoat sodir qilganidan keyingina payqab qolardi. Ba’zida esa ular nihoyat darajada aniq bo‘lar, lekin negadir amalga oshmay qolardi. Shu sabab, polkovnik ularni ko‘pincha oddiy irim-sirim bilan chalkashtirib yuborardi. O‘lim hukmini o‘qib berib, so‘ng, oxirgi tilaging ne, deb so‘rashganida, u ayni ko‘ngli buyurganidek javob berdi:

– Men hukm ijrosini Makondoga ko‘chirishni so‘rayman.

Harbiy sud raisi g‘azablanib:

– Bizni laqillatishga urinmang, Buendia, – dedi. – Fursatdan yutmoqchi bo‘lib, hiyla ishlatyapsiz.

– Istamasanglar, ixtiyoringiz, – javob qaytardi polkovnik, – ammo bu mening so‘nggi tilagim.

O‘sha ondan boshlab, uni bashoratchilik tuyg‘ulari tark etdi. Ursula o‘g‘lini ko‘rgani qamoqxonaga borganida, Aureliano Buendia uzoq mulohaza yuritib, bu gal qazo yaqinlashib kelayotganidan voqif etmasligi ham mumkin, negaki hozir u tasodiflarga emas, balki jallodlarining irodasiga bog‘liq, degan xulosaga keldi. Chipqonlari azob berib, tun bo‘yi bedor to‘lg‘anib yotdi. Tongga yaqin yo‘lakda qadam tovushlari eshitildi. «Kelishyapti», dedi u va negadir birdaniga Xose Arkadio Buendiani esladi. Ayni shu vahimali g‘ira-shira tong pallasida kashtan tagidagi o‘z o‘rindig‘ida bukchayib o‘tirgan otasi ham u haqda o‘ylardi. Polkovnik Aureliano Buendia qalbida na qayg‘u va na qo‘rquv bor edi, u faqatgina bemahal o‘lim tufayli o‘zi boshlagan ishlar yakunini bilolmay ketishidan g‘azablanardi. Eshik ochilib, askarlardan biri qahva keltirdi. Ertasi kuni, xuddi o‘sha mahal polkovnik qo‘ltig‘idagi yaralaridan avvalgiday azob chekayotganida bu holat yana takrorlandi. Chorshanba kuni u Ursula keltirgan shirinliklarni soqchilarga taqsimlab berdi, tor kelgan ko‘ylak-ishtoni-yu, moylangan poyabzalini kiyib oldi. Juma keldi hamki, uni otishmasdi.

Ochig‘ini aytganda, harbiylar hukmni ijro etishga jur’at etolmay garang edilar. Ular shaharda qo‘zg‘algan norozilikni ko‘rib, polkovnik Aureliano Buendianing otilishi nafaqat Makondoda, balki butun viloyatda ham og‘ir siyosiy vaziyat tug‘diradi, degan fikrga borishdi, shu bois viloyat poytaxtiga maslahat so‘rab murojaat qildilar. Hali javob olinmasdan burun, shanbaga o‘tar kechasi kapitan Roke qassob zobitlar bilan birga Katarinoning ishratxonasiga bordi. Ayollar-

dan faqat bittasigina kapitanning dag‘dag‘asidan qo‘rqib, uning ra’yini qaytarmadi.

– Yaqin kunlarda o‘ladigan odamga ayollarimizning birortasi mayl bildirgisi kelmayapti, – deya tushuntirdi u. – Buning qanday sodir bo‘lishini hech kim bilmaydi, ammo gap-so‘zlarga qaraganda, polkovnik Aureliano Buendiani otgan zobit va uning barcha askarlari, ular tupkani tagiga qochishsa ham, ertami-kechmi birin-ketin o‘ldiriladi.

Kapitan Roke qassob ayni taxminni zobitlar, ular esa kattaroq boshliqlari bilan maslahat qilishdi. Yakshanbada, garchand bu haqda hech kim ochiqdan ochiq aytmagan, harbiylar Makondoda hukm surayotgan og‘ir sukunatni hech bir qiliqlari bilan buzishmagan bo‘lsa-da, zobitlar mas’uliyatni bo‘yinlariga olishni istamay, turli bahonalarni ro‘kach qilib, qatlga ishtirok etishdan bo‘yin tovlayotgani butun shaharga oshkor bo‘ldi.

Dushanba kuni pochta orqali yozma buyruq olindi: hukm yigirma to‘rt soat ichida ijro etilishi kerak edi. Kechqurun zobitlar bitta bosh kiyimga o‘z ismlari yozilgan oltita qog‘oz parchasini solib aralashtirib, so‘ng bitta-bitta olishganida, tolening mash’um omadli chiptasi yana kapitan Roke qassobning chekiga tushdi.

– Taqdirdan qochib qutulolmaysan, – dedi kapitan hasrat qilib. – Bir beandisha behayoning bolasi bo‘lib tug‘ilgan edim, endi shu tarzda o‘lib ketaman.

U ertalab soat beshda qur’a tashlab, bir bo‘linma askarni tanladi, hovliga saf torttirdi va o‘limga hukm etilgan mahbusni an’anaviy tarzda uyg‘otdi:

– Ketdik, Buendia, – dedi u, – fursat yetdi.

– Ha, shunday demaysanmi? – dedi javoban polkovnik. – Tushimda chipqonlarim yorilganmish, gap bu yoqda ekan-da!

Rebeka Buendia Aurelianoning otilishidan xabar topgandan buyon, har gal tungi soat uchda uyg‘onar va qorong‘i yotoqda, Xose Arkadio xurragidan titrayotgan karavotga o‘tirib, qiya ochiq derazadan qabriston devorini kuzatardi. Petro Krespining xatlariga ko‘z tikkan paytlardagiday pinhoniy bir o‘jarlik ila butun hafta davomida kutdi.

– Uni bu yerda otishmaydi, – derdi Xose Arkadio. – Uni yarim tunda kazarmada xufiyona qatl qilishadi va o‘sha yerda ko‘mishadi.

Rebeka esa kutaverdi.

– Bu beor maxluqlar uni xuddi shu yerda otib tashlashadi, – deya javob qildi u eriga. Ayol o‘z fikriga shunchalar ishonar ediki, hatto Aureliano Buendia bilan qo‘l, silkib vidolashish uchun eshikni qay tarzda qiyalatib ochib qo‘yishgacha ham puxta o‘ylab qo‘ygan edi.

– Uni olti nafar qo‘rqoq askar soqchiligida hech qachon ko‘chadan olib o‘tishmaydi, – o‘jarlik qilardi Xose Arkadio. – Axir, ular xalq hamma narsaga tayyorligini bilishadi-ku.

Rebeka erining dalillariga e’tibor bermay, deraza yonidan jilmay o‘tirardi.

– Ularning qanchalik behayo va ablahligini hali ko‘rasan, – dedi u.

Seshanba kuni ertalab soat beshda Xose Arkadio itlarini bo‘shatib yuborib, qahva ichib bo‘lganida, Rebeka birdaniga derazani yopmoqchi bo‘luvdi, qulab tushmaslik uchun karavotning suyanchig‘ini zo‘rg‘a tutib qoldi.

– Olib kelishyapti, – dedi u xo‘rsinib. – Naqadar chiroyli u.

Derazaga qaragan Xose Arkadioning badanini to‘satdan titroq chulg‘adi. U bo‘zarib kelayotgan tongning xira nurlari ostida ukasini ko‘rdi. Ukasi Xose Arkadioning yoshligida kiyib yuradigan shimini kiygandi. Polkovnik Aureliano Buendia devor yonida ikkala qo‘lini beliga tirab turar, qo‘ltig‘idagi chipqonlari esa qo‘llarini tushirishga imkon bermasdi. «Nahotki, seni mana bu bichilgan olti askar otadi? Nahotki, ular otayotganda ojiz qaqqayib turish uchun azob-u mashaqqat chekkan bo‘lsang!» deya ichida qiynalardi polkovnik Aureliano Buendia. Kapitan Roke qassob esa uning bu g‘azabini tovbaga yo‘ydi, ibodat qilyapti, deb o‘ylab, ko‘ngli buzilib ketdi. Askarlar miltiqlarini ko‘tarishganida, polkovnik Aureliano Buendianing g‘azabdan tili tanglayiga yopishdi, ko‘zlari yumildi. O‘shanda tongning simoviy jilvasi birdan yo‘qoldi va u o‘zining kalta ishton kiyib, bo‘yniga tasma taqib olgan bolalik davrini, otasi oydin kechasi lo‘lilar chodiriga olib borganini, tomoshaga qo‘yilgan muz parchasini esladi. Nogahon hayqiriq yangraganda polkovnik Aureliano Buendia, askarlarga so‘nggi buyruq berildi, deb o‘yladi. Otilajak o‘qlarni ko‘rmoqchi bo‘lib, g‘ayritabiiy bir qiziqsinish bilan ko‘zini ochganida, qo‘lini ko‘tarib turgan kapitan Roke qassob va ov miltig‘ini o‘qtalib, ko‘chani kesib o‘tayotgan Xose Arkadioga nigohi tushdi.

– Otmang, – dedi kapitan Xose Arkadioga, – sizni menga Xudoning o‘zi yetkazdi.

Yana urush boshlandi. Kapitan Roke qassob va uning olti askari polkovnik Aureliano Buendia

bilan birga Rioachada o‘limga hukm etilgan inqilob generali Viktorio Medinani ozod etgani ketishdi. Vaqtdan yutish maqsadida bir zamonlar Xose Arkadio Buendia yurgan yo‘l bilan tog‘dan oshib o‘tishga ahd qilishdi, ammo bir hafta o‘tar-o‘tmas niyatlari puchga chiqdi. Oxiri askarlar qatl uchun berilgan o‘sha sanoqli o‘q-dorilari bilan tog‘ tizmalarining xatarli so‘qmoqlaridan pisib o‘tishga majbur bo‘lishdi. Har bir shahar yonida qarorgoh qurisharkan, bir kishi kiyimini o‘zgartirar, qo‘liga tilla baliqchani tutib, kuppa-kunduzi ko‘cha aylanib, liberallar bilan aloqa o‘rnatar, shunda liberallar ertasiga ertalab ovga chiqib, shaharga qaytishmasdi. Dovonga chiqib, Rioachani ko‘rishganda, general Viktorio Medina allaqachon otib tashlangan edi. O‘shanda polkovnik Aureliano Buendianing tarafdorlari uni Karib dengizi sohilidagi barcha inqilobiy kuchlar qo‘mondoni va general, deb tantanali sur’atda e’lon qilishdi. Aureliano Buendia qo‘mondonlik lavozimini egallashga ko‘ndi, lekin generallik unvonidan voz kechdi va o‘zicha, konservatorlar hokimiyati ag‘darib tashlangunicha bu unvonni olmayman, deya ahd qildi. Uch oy davomida mingdan ziyod odam to‘plashsa ham ularning aksariyati o‘ldirildi, omon qolganlari esa sharqiy chegaradan xorijga o‘tib ketishdi. Keyinchalik Antil orollaridan suzib, vatanlariga qaytishgani va Kabo de la Vela burniga chiqqanlari ma’lum bo‘ldi; shunda hukumatning polkovnik Aureliano Buendia o‘ldi, degan tantanavor xabari telegraf orqali mamlakatga yoyildi. Ikki kundan keyin esa yana uzundan uzun telegramma avvalgi mujdani quvib yetib, janubiy vohalarda ko‘tarilgan

yangi qo‘zg‘olondan darak berdi. Polkovnik Aureliano Buendianing bir vaqtning o‘zida hamma joyda hozir-u nozir bo‘lishi haqidagi afsona shu tariqa paydo bo‘ldi. Xabarlar bir-biriga zid edi: polkovnik Vilyanuyeveda zafar quchdi, Guakamayyada mag‘lubiyatga uchradi, hindularning Motilones qabilasi tomonidan yeb qo‘yildi, vodiy qishloqlaridan biridagi janglarda halok bo‘ldi, Urumiteda yana qo‘zg‘olon ko‘tardi. O‘sha paytda liberallarni parlamentga kiritish bo‘yicha muzokara olib borayotgan liberallar partiyasining boshliqlari uni firibgar va hech bir partiyaga mansub bo‘lmagan kimsa, deb e’lon qildi. Hukumat uni qaroqchilar safiga qo‘shib, boshi badaliga besh ming peso va’da qildi. Polkovnik Aureliano Buendia o‘n olti mag‘lubiyatdan so‘ng qo‘l ostidagi yaxshigina qurollangan ikki ming nafar hindu bilan Guaxironi tashlab chiqib, Rioachaga hujum boshladi; sarosimaga tushgan garnizon shaharni tashlab qochdi.

Polkovnik Aureliano Buendia o‘zining asosiy kuchlarini Rioachaga joylashtirdi-da, konservatorlarga qarshi umumxalq urushi e’lon qildi. Hukumat bunga javoban, agar qo‘zg‘olonchilar sharqiy chegaraga chekinmasa, polkovnik Xerineldo Markes qirq sakkiz soat ichida otib tashlanadi, deb rasmiy xabar berdi. Shtab boshlig‘i etib tayinlangan Roke qassob telegrammani qo‘mondonga topshirayotganida xiyla ma’yus edi, ammo qo‘mondon telegrammani kutilmagan bir quvonch bilan o‘qidi.

– Juda soz! – xitob qildi u. – Nihoyat, bizning Makondoga ham telegraf o‘tkazilibdi!

Polkovnik Aureliano Buendianing javobi qat’iy

edi. U, men yana uch oydan keyin asosiy kuchlarni Makondoga koʻchirishni moʻljallayapman, agar polkovnik Xerineldo Markesni tirik topmasam, asir tushgan barcha generallardan tortib, mayda zobitlargacha sudsiz va tergovsiz otib tashlayman, qoʻshinlarimga urushning soʻnggiga qadar shunday yoʻl tutishga buyruq beraman, deb javob berdi. Oradan uch oy oʻtib, polkovnik Aureliano Buendianing muzaffar jangchilari Makondoga gʻolibona kirishganida, uni vodiydagi yoʻlda kutib olib, bagʻriga bosgan ilk odam polkovnik Xerineldo Markes boʻldi.

Buendialar xonadoni hozir bolalar bilan gavjum edi. Ursula Santa Sofiya de la Pyedad, uning toʻngʻich qizi va Arkadio otilganidan besh oy oʻtgach, dunyoga kelgan egizak oʻgʻillarini oʻz uyiga koʻchirib kelgandi. Arkadioning oʻlimi oldidagi soʻnggi vasiyatini inobatsiz qoldirib, qizaloqqa Remedios, deb ism qoʻyishdi.

– Ishonchim komilki, – dedi u oʻzini oqlab. – Arkadio xuddi ana shuni aytmoqchi boʻluvdi. Ursula deb atamaymiz, negaki bunday ism qoʻyilgan bolaning qismati ogʻir kechadi.

Ursula egizaklarni Xose Arkadio Ikkinchi va Aureliano Ikkinchi, deb atadi. Amaranta bolalarni oʻz qaramogʻiga oldi, mehmonxonaga yogʻoch kursilar oʻrnatdi va qoʻshnilarining ham bolalarini yigʻib, goʻdaklar uchun yetimxona tashkil etdi. Polkovnik Aureliano Buendia mushak va qoʻngʻiroqlar ovozi ostida shaharga kirib kelganida, uni uyi oldida bolalar xori qutladi. Bobosidek boʻychan, inqilobiy qoʻshin zobiti libosini kiygan Aureliano Xose barcha qonun-qoidalarga rioya

qilgan holda unga harbiycha salom berdi.

Xabarlar birday quvonchli emasdi. Polkovnik Aureliano Buendia otilishdan qutulib qolganidan bir yil o‘tgach, Rebeka bilan Xose Arkadio marhum Arkadio qurgan uyga ko‘chib o‘tishdi. Xose Arkadioning polkovnik jonini omon saqlab qolganini hech kimsa bilmadi. Shaharning eng so‘lim go‘shasida joylashgan, uch juft qush uya qo‘ygan shundoq ulkan bodom daraxti tagidagi yangi uyning dabdabali eshigi-yu, to‘rtta derazasi bor edi. Er-xotin uni mehmonnavoz makonga aylantirishdi. Rebekaning dugonalari, shuningdek, hanuz qizligicha qolib kelayotgan to‘rtala opa-singil Moskotelar gul hidi ufurib turadigan peshayvonda necha yillar burun uzilgan gurunglarini yana shu uyga ko‘chirishdi. Xose Arkadio birovlardan tortib olgan yerlaridan foydalanishni davom ettirdi, negaki konservatorlar hukumati uning bu yerlarga egalik huquqini tasdiqlagan edi. Kechqurun Xose Arkadio bir gala qopag‘on ko‘ppaklarini yetaklab, qushotar miltig‘i-yu, o‘lja quyonlarni osib olganicha otida uyiga qaytardi. Sentabr kunlarining birida dahshatli bo‘ron turdi va u odatdagidan ertaroq qaytishga majbur bo‘ldi. Yemakxonada kuymalanib yurgan Rebeka bilan salomlashgach, itlarni hovliga bog‘ladi, quyonlarni tuzlash uchun oshxonaga kirgizib qo‘ydi-da, kiyimini almashtirgani yotoqxonaga kirdi. Keyinroq Rebeka, erim yotoqxonaga kirganda mo‘rchada cho‘milayotgan edim, hech narsani bilmayman, deb imon keltiradi. Uning gapi shubhali edi, ammo boshqa hech kim haqiqatga yaqinroq dalil topolmas va Rebeka o‘zini baxtli qilgan odam nimaga o‘ldirilganini tushunolmasdi. Chamasi,

bu voqea Makondoda ochilmay qolgan yakka-yu yagona sir edi. Xose Arkadio yotoqxona eshigini yopgani hamon uyda o‘q tovushi eshitildi. Eshik tagidan sizgan qon mehmonxonadan ko‘chaga, so‘ng notekis yo‘lakdan olg‘a jildi va zinapoyalardan enib, Turklar ko‘chasi bo‘ylab Buendia xonadoniga yo‘naldi. Yopiq eshik ostidan sizib, gilamlarni iflos qilmaslik uchun mehmonxonaning devori tarafdan oqib, ikkinchi mehmonxonaga ham o‘tdi, keyin yemakxonadagi katta kursi atrofini aylanib, gullar ekilgan peshayvondan ilonizi bo‘lib, Xose Aurelianoga hisob ilmini o‘rgatayotgan Amarantaning kursisi ostidan sezdirmay omborxonaga oqib chiqdi va nihoyat, oshxonada xamirga qo‘shiladigan tuxumdan endi o‘ttiz oltinchisini chaqishga shaylangan Ursulaning yonida paydo bo‘ldi.

– Yo qudratingdan, Bibi Maryam! – deya qichqirib yubordi Ursula.

Ursula qon izi bo‘ylab omborxonadan o‘tdi, Xose Aureliano, uchga uchni qo‘shsa olti, oltiga uchni qo‘shsa – to‘qqiz bo‘ladi, deb mashq qilayotgan peshayvon, yemakxona-yu mehmonxonalar orqali ko‘chaga chiqdi-da, to‘g‘riga yurdi, oldin o‘ng, so‘ng so‘l tomonga burildi va Turklar ko‘chasiga yetdi; shahar bo‘ylab peshband va shippakda ketayotganini sezmagan holda, shahar maydoniga kelib qoldi, o‘zi avval qadam bosmagan uyga kirdi, yotoqxona eshigini itarib ochib, kuygan poroxning hididan nafasi qaytib ketdi; shunda yuzini etigining qo‘njiga bosgancha (Xose Arkadio uni yechishga ulgurgan edi) muk tushib yotgan o‘g‘lini ko‘rdi. Endigina oqishdan to‘xtagan qon uning o‘ng qulog‘idan sizib chiqqan

ekan. Xose Arkadioning badanidan birortayam yara topishmadi, uning qanday qurol bilan o‘ldirilganini ham aniqlasholmadi. Jasadni uch marta sovunlab yuvishib oldiniga tuzli sirka, so‘ngra kul va limmu sharbati surib artishdi, so‘ng xlorli javhar to‘ldirilgan bochkaga olti soat solib qo‘yishsa ham, baribir, murdadan porox hidi anqiyverdi. Jasadni yana artishganda, hatto jimjimador naqsh bezaklar ham ancha o‘chib ketdi. So‘nggi chorani ham qo‘llab ko‘rishga jazm qilishdi: qalampir zira va dafna yaprog‘ini qo‘shib, jasadni kun bo‘yi past olovda qaynatishdi, shunda et ustixondan ajrala boshladi va dafn marosimini tezlashtirishga to‘g‘ri keldi. Marhumni uzunligi ikki metr-u o‘ttiz santimetr, eni bir metr-u o‘n santimetrli havo kirmaydigan, ichi temir taxtacha, po‘lat murvatlar bilan mahkamlangan maxsus tobutga solib berkitdilar, baribir porox hidi tobut baravarida barcha ko‘chalar bo‘ylab kezib yurardi. Jigari nog‘oraday shishib ketgan Padre Nikanor karavotidan tushmay, marhumga duo o‘qidi. Keyin qabr chetiga g‘isht terib, orasiga kul, qipiq va so‘ndirilmagan ohak tashlashdi, shundayam qabrdan toki banan kompaniyasining[1] muhandislari ustiga beton qoplamagunlaricha bir necha yil porox hidi anqib turdi. Tobutni olib chiqishlari bilan Rebeka uyning eshiklarini yopib oldi va odamovilik zirhini kiyib, o‘zini tiriklayin

[1] Lotin Amerikasining ko‘pgina mamlakatlarida AQSH kompaniyalari qit’a yerlarini egallab, banan plantatsiyalariga aylantirishgan. Bundan manfaatdor bo‘lgan mamlakat hukmdorlari ham kelgindilarning ko‘ngliga kelganini qilishiga yo‘l qo‘yib berishgan. Banan imperiyasini joriy etgan imperialistlarning zulmi bir necha yil xalqning qonini so‘rib, tinka-madorini quritgan.

ko‘mdi. U ko‘chaga faqat bir martagina munkayib qolganida oyog‘iga simrang eski poyabzal kiyib, atrofiga mayda gullar bilan bezatilgan shlyapada chiqdi. Bu voqea Makondoda paydo bo‘lgan O‘lmas juhud shaharga dahshatli jazirama yuborgan, issiqqa dosh berolmagan qushlar esa salqin axtarib, o‘zlarini derazaga o‘rnatilgan to‘rlarga urishib, yerga jonsiz tap-tap tushgan mahalda kechdi. Rebekani so‘nggi marta uyiga kirmoqchi bo‘lgan o‘g‘rini otib o‘ldirgan kechasi ko‘rishdi. So‘ngra oqsochi va sirdoshi Arxeniadadan bo‘lak hech kim u bilan uchrashmadi. Uning bir vaqtlar o‘z amakivachcham deb hisoblagan yepiskopga xat yozgani haqida gap tarqaldi, ammo javob olgan-olmaganligini hech kim bilmasdi. Shu-shu, shahar Rebekani tamoman unutib yubordi.

Polkovnik Aureliano Buendia jangdan zafar bilan qaytsa-da, xotirjamlikka berilmadi. Hukumat qo‘shinlari qal’alarni qarshiliksiz tashlab chiqishar va bu hol liberallarcha kayfiyatga chulg‘angan xalqqa g‘alabadek tuyilar, ammo qo‘zg‘olonchilar, ayniqsa, polkovnik Aureliano Buendia esa ochiq haqiqatni hammadan yaxshi bilishardi. Polkovnik qo‘l ostida besh mingdan ziyod askar yig‘ilgan bo‘lib, sohil bo‘yidagi ikki shtab ixtiyorida edi. Ammo u o‘zining mamlakatdan kesib qo‘yilgani, dengizga taqalib qolganini va noaniq bir siyosiy vaziyatdaligini aniq his qilardi. Ibodatxonaning hukumat qo‘shinlari to‘plaridan vayronaga aylangan qo‘ng‘iroqxonasini tiklashga ko‘rsatma berganida, to‘shakda yotgan bemor Padre Nikanor: «Bu qanday bema’nilik, nasroniy din homiylari ibodatxonani buzishadi, masonlar esa qayta tiklashga buyruq berishadi», – deb bejiz

aytmagan edi.

Polkovnik Aureliano Buendia biror najot ilinjida, qo‘zg‘olonchi guruhlarning komandirlari bilan maslahatlashib, soatlab telegraf yonida o‘tirar va har safar telegraf idorasidan, «urush boshi berk ko‘chaga kirib qoldi», degan ishonch bilan chiqardi. Qo‘zg‘olonchilar erishgan har bir g‘alaba darhol xalqqa tantanali xabar qilinardi, polkovnik xaritadan bu g‘alabalarning chinakam miqyosini aniqlab chiqar ekan, o‘zining shonli qo‘shinlari bezgag-u pashshalardan himoyalanib, asl yo‘nalishga butunlay teskari tomonga, changalzor-u botqoqlar tomon ketib borayotganini ko‘rardi.

– Vaqtni boy beryapmiz, – shikoyat qilardi u zobitlariga, – toki bu befahm siyosatdonlar o‘zlariga kongressdan ming tavallo qilib joy undirish bilan ovora ekan, biz bundan keyin ham behuda kun o‘tkazaveramiz.

Polkovnik Aureliano Buendia yaqindagina otilishini kutib yotgan o‘sha xonaga osig‘liq to‘r belanchakda uyqusizlik azobida chalqancha yotarkan, qora libos kiyib, bu qonunparastlarni tasavvur qildi: ularning muzdek tongda prezident saroyidan chiqib, yoqalarini quloqlarigacha ko‘tarib olishlarini, qo‘llarini bir-biriga ishqashlarini, o‘zaro shivirlashlarini va prezidentning haqiqatan ham «ha» deganida nima demoqchi bo‘lgani-yu, «yo‘q» degani nimani anglatishini muhokama qilishlari uchun tungi qahvaxonalarga bekinib olishlari-yu, hattoki prezident o‘zi o‘ylagan narsaga zid fikr bildirganida nimalarni nazarda tutganidan fol ochishlarini tasavvur etar va harorat o‘ttiz besh darajaga ko‘tarilganda o‘zining ayni lahzada, o‘ttiz besh darajali dim issiq-

da, chivinlarga yem bo‘lib yotganini o‘ylagan sari g‘azablanardi. U, hademay shunday bir mudhish dam keladiki, qo‘shinlarga: «O‘zlaringni dengizga tashlanglar», – deb buyruq bermoqdan o‘zga ilojim qolmaydi, deb xayol qilardi.

Ana shunday uqubatli tunlarning birida polkovnik hovlida askarlarga jo‘r bo‘lib qo‘shiq aytayotgan Pilar Terneraning tovushini eshitib qoldi va undan fol ochishini so‘radi. «Og‘zingga ehtiyot bo‘l, – dedi qartalarni uch marta chiylab, uch marta fol ko‘rgan Pilar Ternera, – neligini tushunmayapman-u, ammo tahdid judayam ravshan ko‘rinib turibdi, ishqilib og‘zingga ehtiyot bo‘l». Ikki kundan so‘ng noma’lum odam harbiy xizmatchilardan biriga bir finjon shakarsiz qahva uzatdi, u finjonni ikkinchi harbiy xizmatchiga, ikkinchisini uchinchisiga o‘tkazdi, shu tariqa qahva to polkovnik Aureliano Buendianing xonasida paydo bo‘lguncha, qo‘ldan qo‘lga o‘tib bordi. Polkovnik qahva buyurmagan edi, olib kelishgan ekan, mayli-da, deb uni olib ichdi. Qahvaga otni ham o‘ldirishga yetarli miqdorda zahar solingan edi. Polkovnik Aureliano Buendiani uyiga olib kelishganida, mushaklari akashak bo‘lib qotgan, tili og‘zidan chiqib yotardi. Ursula o‘g‘lini ajal panjasidan zo‘rg‘a qutqarib qoldi; oshqozonini qustirib tozalagach, qalin baxmal ko‘rpalarga o‘radi va ikki kun toki harorati tushguncha, tuxum sarig‘i bilan boqdi. To‘rtinchi kuni deganda polkovnik Aureliano Buendia xavfdan butunday qutuldi. Ursula va zobitlar qo‘yarda-qo‘ymay uni to‘shakda tag‘in bir hafta yotishga ko‘ndirishdi. Xuddi ana shu kunlari u o‘z she’rlarining yondi-

rib yuborilmaganligini bildi.

– Men shoshilishni istamadim, – deb tushuntirdi Ursula. – Pechkani yoqqani borgan o‘sha oqshomda, toki menga uning jasadini olib kelmagunlaricha, yaxshisi, sabr qilib turay, deb ahd qiluvdim.

Remediosning chang bosgan qo‘g‘irchoqlari qurshovida qolgan polkovnik tuzalish arafasida qo‘lyozmalarni o‘qib chiqarkan, hayotining eng totli lahzalarini bot-bot esladi. U yana she’r yoza boshladi. Uzoq xastaligi mobaynida, boshi berk ko‘chaga kirib qolgan urushni tamoman unutib, ajal bilan bekinmachoq o‘ynagan paytlarida to‘plagan tajribasini bo‘laklarga bo‘ldi-da, qofiyaga soldi. O‘shanda fikrlari shu qadar ravshan tortdiki, ularni chapdan o‘ngga va o‘ngdan so‘lga bemalol o‘qiy oladigan bo‘ldi. Bir kuni kechqurun u polkovnik Xerineldo Markesdan:

– Ayt-chi, do‘stim, sen nima uchun jang qilyapsan? – deb so‘radi.

– Jang qilishim zarur bo‘lgani uchun, birodar, – javob qaytardi polkovnik Xerineldo Markes, – liberallarning buyuk partiyasi uchun kurashyapman. Maqsadingni bilganing uchun baxtiyorsan. Men esa faqat o‘z takabburligim dastidan kurashayotganimni endigina anglab yetdim.

– Yaxshi emas bu, – dedi polkovnik Xerineldo Markes. Uning bezovtalanishi polkovnik Aureliano Buendianing biroz vaqtini xush etdi.

– Albatta, – dedi u. – Lekin harna, nima uchun jang qilishingni bilmaslikdan ko‘ra yaxshiroq-da, – u do‘stining ko‘zlariga qarab kuldi va qo‘shib qo‘ydi: – yoki xuddi sen kabi, hech kimga hech qanday nafi tegmaydigan narsa uchun jang qi-

lish kerak. Ilgari, liberallar partiyasi rahbarlari uni qaroqchi deb e'lon qilgan qarorlarini oshkora rad etmagunlaricha, mamlakat ichkarisidagi qo'zg'olonchilar bilan aloqa bog'lash uchun yo'l qidirishga polkovnikning g'ururi yo'l qo'ymasdi. Kasallik unga ko'p narsalarni o'ylab ko'rishga imkon berdi. U, Ursulani kattagina jamg'armasini va bobosining o'sha tabarruk sandiqda saqlanayotgan tillalarini berishga ko'ndirdi. Polkovnik Xerineldo Markesni Makondoga hokim etib tayinladi, o'zi esa mamlakat ichkarisidagi qo'zg'olonchilar bilan aloqa o'rnatmoq uchun shahardan chiqib ketdi.

Polkovnik Xerineldo Markes polkovnik Aureliano Buendianing eng ishonchli odamigina bo'lmay, balki Ursulaga ham o'z o'g'liday bo'lib qolgan edi. Yumshoq, uyatchan, odobli bu yigit o'z o'rnini amaldorlik xonasida emas, ko'proq jang maydonida hisoblardi. Siyosiy maslahatchilar miyasini gangitib qo'yishlari va nazariyaning boshi berk ko'chalariga olib kirishlari hech gap emasdi. U Makondoda bir zamonlar polkovnik Aureliano Buendia tilla baliqchalar yasab, qarigan chog'ida tinchgina o'lishni orzu qilgan qishloqqa xos osoyishtalig-u xotirjamlik muhitini yuzaga keltirdi. Polkovnik Xerineldo Markes ota-onasinikida yashar, haftasiga ikki-uch marotaba Ursulaning uyiga ovqatlangani kelardi. Yosh Aureliano Xosega miltiq otishni tez o'rgatdi, harbiy yurishni mashq qildirdi, so'ng, mayli, bir yo'la yigit bo'lib qo'ya qolsin, degan niyatda, Ursulaning ruxsati bilan uni bir necha oyga kazarmaga ko'chirdi. Bu voqealardan ko'p yillar oldin, hali o'smirligi-

da, Xerineldo Markes Amarantaga sevgi izhor qilgan edi. Ammo ko‘ngli Petro Krespiga bo‘lgan besamar muhabbat bilan band qiz, Xerineldoning ustidan kuldi. Xerineldo Markes kutishga ahd qildi. Bir kuni, qamoqda turib, Amarantaga maktub yo‘llab, bir dyujina[1] batis ro‘molchaga otasi ism-sharifining bosh harflarini tikib berishini iltimos qildi. Maktubga qo‘shib, pul ham yubordi. Bir haftadan keyin Amaranta qamoqxonaga tayyor ro‘molchalarni u yuborgan pul bilan birga qo‘shib, olib keldi va o‘tmishni eslab, uzoq suhbat qurdilar. «Bu yerdan chiqqanimdan keyin senga uylanaman», dedi unga xayrlasha turib Xerineldo Markes. Amaranta jilmayib qo‘ydi. Endi u qaramog‘idagi bolalarga o‘qishni o‘rgatarkan, nuqul polkovnik Xerineldo Markesni o‘ylar, zora uni o‘sha yoshlik ehtirosim bilan yaxshi ko‘rolsam, deya orzu qilardi. Qamoqxonadagi mahbuslarni ko‘rishga faqat shanbada ruxsat etilardi. Qiz o‘sha kunlari Xerineldo Markesning qarindoshlarini izlab borar va birga qo‘shilib, qamoqxonaga yo‘l olardi. Bir shanbada Ursula qizini oshxonada uchratdi: Amaranta biskvit pishirayotgan ekan. Ursula ajablanib:

– Unga tegib qo‘ya qol, – deya maslahat berdi, – yana shunday odamni uchratishing dargumon. Amaranta ijirg‘andi, qovog‘i osildi.

– Erkaklarning ketidan yugurish menga zarur keptimi? – javob berdi u. – Men Xerineldo Markesga rahmim kelganidan shirinlik eltaman, axir, ertami-kechmi uni otib tashlashadi.

U otish haqida gapirsa ham bunga ishonmas-

[1] Dyujina – o‘n ikki dona.

di. Ammo xuddi shu paytda hukumatning, agar isyon koʻtargan qoʻshinlar Rioachani topshirishmasa, polkovnik Xerineldo Markes qatl etiladi, degan qarori eʼlon qilindi. Mahbuslar bilan uchrashish bekor etildi. Amaranta yotoqxonaga berkinib oldi va Remedios oʻlganida yuragiga azob bergan oʻsha gunohkorlik hissiga oʻxshash tuygʻudan azob chekib, koʻz yoshi toʻkdi: goʻyo oʻzining kalondimogʻligi bilan yana bir odamning xuniga zomin boʻlganday edi. Onasi yupatdi: «Polkovnik Aureliano Buendia doʻstini ottirib qoʻymaydi, kelib qutqarar, deya ishontirdi, urush tugasin, Xerineldoni oʻzim chaqiraman», – deb vaʼda berdi. Ursula bu vaʼdasini belgilangan muddatidan avval ado etdi.

Xerineldo Markes hokimlik lavozimini egallab, uylariga kelganida Ursula uni oʻz oʻgʻlidek kutib oldi, uyda uzoqroq ushlab turish uchun nozik xushomad qilarkan, koʻnglida, iloyo yigit Amarantaga uylanish haqidagi ahdini eslasin-da, deya Xudoga astoydil yolvordi. Ursulaning oʻtinchi ijobatga oʻtdi, shekilli, polkovnik Xerineldo Markes Buendialar xonadoniga bot-bot keladigan, taomdan soʻng gullar ekilgan peshayvonda Amaranta bilan shashka oʻynagani qoladigan boʻldi. Ursula qahva va shirinliklar keltirar, xoli qolishlariga xalaqit bermasinlar, deb oʻzi bolalardan ogoh boʻlardi. Amaranta yoshligida yuragini oʻrtagan ehtirosni va unutilib, ustini kul qoplagan choʻgʻni alanga oldirish uchun zoʻr berib urinardi. Dildagi hayajon ortgandan ortib, endi polkovnik Xerineldo Markesning ovqat payti va kechqurun shashka oʻyinida hozir boʻlishini kutardi. Shashka donalarini surganida barmoqlari bilinar-bilinmas titrov-

chi, g‘ussali va shoirona ismli bu jangchi bilan suhbatlashganida vaqt o‘tganini sezmay qolardi. Ammo polkovnik Xerineldo Markes Amarantadan xotini bo‘lishini so‘ragan kuni rad javobi oldi:

– Men hech kimga erga tegmayman, – dedi qiz, – ayniqsa sizga. Siz Aurelianoni shu qadar sevasizki, unga uylana olishingiz mumkin emasligi uchun ham menga uylanmoqchisiz.

Polkovnik Xerineldo Markes sabr-toqatli odam edi.

– Men kutaman, – dedi u, – ertami-kechmi, seni baribir ko‘ndiraman.

U xonadondan oyog‘ini uzmadi. Amaranta xonasiga berkinib, pinhoniy alamini bosar, talabalarining Ursulaga urush yangiliklarini gapirib berayotganini eshitmaslik uchun qulog‘ini barmoqlari bilan mahkam berkitar, o‘zi ko‘rishga intiq bo‘lib tursa-da, huzuriga chiqmas edi.

O‘shanda polkovnik Aureliano Buendianing bo‘sh vaqti ko‘proq bo‘lganidan Makondoga har ikki haftada xabar yetkazib turardi. Lekin Ursulaga jo‘nab ketganidan qariyb sakkiz oydan keyingina xat yozdi, xolos. Mahbus chopar polkovnikning husnixatida: «Otamni ehtiyot qiling, u yaqinda o‘ladi», – degan so‘zlar bitilgan so‘rg‘ichli kattakon, muhrlangan xatjild keltirdi. Ursula tinchini yo‘qotdi. «Aurelianoning aytgani doimo o‘ngidan keladi». Darhol Xose Arkadio Buendiani yotoqxonaga ko‘chirishda odamlardan yordamlashishni so‘radi. Xose Arkadio Buendia avvalgiday bahaybat edi, qolaversa uzoq yillar mobaynida kashtan daraxti tagida o‘tiraverib, vaznini o‘z xohishiga ko‘ra, og‘ir qilishday g‘aroyib qobiliyatni ham bilardiki, uni olti nafar erkak ham o‘rindig‘idan ko‘tara olmadi, axiri karavotga-

cha sudrab borishga majbur bo‘lishdi. Quyoshda qoraygan, yomg‘irlardan rosa ivigan bu ulkan chol yotoqxonaga yotqizilganida, xona havosiga gullayotgan kashtan va ko‘p yillik rutubat hidi o‘rnashib qoldi. Ertasiga ertalab uning to‘shagi bo‘m-bo‘sh edi. Xonalarni qidirib chiqqan Ursula, erini yana kashtan tagidan topdi. So‘ng yana karavotga bog‘lab qo‘yishdi. Xose Arkadio Buendia oldingidek baquvvat bo‘lsa-da, ortiq qarshilik ko‘rsatmadi. U hamma narsaga loqayd edi, kashtan tagiga ham ataylab emas, balki tanasi o‘sha joyga o‘rganib qolgani bois borgan edi. Ursula eriga hamisha ovqat tashirkan, Aureliano haqidagi yangiliklarni gapirib berardi. Lekin, ochig‘ini aytganda, Xose Arkadio Buendia faqat bir kishi – Prudensio Agilyar bilan muloqot qilishga qodir edi. O‘lguday holsizlanib, to‘kilib qolgan Prudensio Agilyar kuniga ikki marotaba kelardi. Ular ko‘proq xo‘rozlar haqida suhbatlashishardi. Hatto birgalikda ajoyib parrandalar yetishtiradigan qo‘riqxona qurishga ahd qilishdi. Bu tadbir xo‘rozlar g‘alabasidan shodlanish niyatida emas, balki yaqinlashgan muqarrar o‘limning tugamas va zerikarli kunlarida nima bilandir ovunish uchun kerak edi (o‘shanda bu ermakning hojati ham qolmaydi). Prudensio Agilyar Xose Arkadio Buendiani yuvintirar, ovqatlantirar, so‘ng Aureliano ismli noma’lum va qayerdagi urushda yurgan polkovnik unvonidagi odam haqida qiziqarli xabarlarni so‘zlab berardi. Xose Arkadio Buendia yolg‘iz qolganida son-sanoqsiz xonalarni tush ko‘radi: go‘yo eshikni ochib, xuddi shu xonadagi temir suyanchiqli karavot-u xivichlardan to‘qilgan kursi qo‘yilgan va orqa devoriga

Bibi Maryamning kichik tasviri tushirilgan xonaga o‘tardi. Keyin ayni shunga o‘xshash, eshigi narigi xonaga ochiladigan boshqa xonaga, undan yana avvalgisiga o‘xshagan xonaga o‘tardi. Xonadan xonaga o‘tishlarning nihoyasi yo‘qdek edi. Unga bu ish xush yoqar, go‘yo uzun peshayvon bo‘ylab har ikki tarafga o‘rnatilgan ko‘zgularni oralab yurganday bo‘lardi... So‘ngra Prudensio Agilyar kiftiga qo‘lini qo‘yardi. Shunda asta-sekin uyg‘onar, yana xonama-xona yurib, ortiga qaytar va Prudensio Agilyar bilan haqiqiy xonada uchrashmagunicha, uzundan uzoq yo‘lni bosib o‘tardi. Ammo Xose Arkadio Buendiani karavotga ko‘chirganlaridan ikki hafta o‘tgach, bir kuni tunda endigina tushida narigi xonaga o‘tganida Prudensio Agilyar yelkasidan turtdi. U esa ana shu ro‘yoviy xonani haqiqiy xona deb o‘ylab, ortiga qaytmay, shu yerda muqim qolib ketdi. Ertasiga ertalab eriga nonushta olib kirayotgan Ursula yo‘lakda ro‘parasidan kelayotgan notanish erkakni bexosdan ko‘rib qoldi. Kichik jussali, girdig‘um, qora movut ko‘ylak kiygan, katta qora shlyapasi mungli ko‘zlarini deyarli bekitgan kishiga ko‘zi tushdi-yu: «Voy, Xudoyim-ey, – deb yubordi. – Axir, bu Melkiadesning o‘zi-ku!» Lekin bu odam Visitasyonning akasi – o‘sha uyqusizlik kasalidan qochib qutulgan va o‘shandan buyon dom-daraksiz yo‘qolgan lo‘li edi. Visitasyon undan nega kelganligini so‘radi, akasi unga o‘z qabilasining tantanali va tiniq lahjasida javob berdi:

– Men qirolni dafn etishga keldim.

O‘shanda hammalari Xose Arkadio Buendianing xonasiga kirishdi, uni bor kuchlari bilan silkitishdi, qulog‘iga baqirishdi, burniga ko‘zgu

tutishdi, lekin baribir uyg‘ota olishmadi. Anchadan keyin, duradgor marhumga tobut yasash uchun uning andazasini olayotganida deraza ortida mitti sariq gullar yomg‘ir bo‘lib yog‘ayotganini ko‘rishdi. Gullar kechasi bilan sim-sim yog‘ib chiqdi, tomlarni qopladi, eshiklarni ko‘mib yubordi. Gullar, hatto ochiqda uxlab qolgan jonivorlarni dimiqtirib o‘ldirdi. Osmondan shunchalik ko‘p gul yog‘diki, ertalab go‘yo butun Makondo uzra gilam to‘shalganday bo‘ldi; belkurak va xaskashlar yordamida tobutkashlar uchun yo‘l ochishdi.

Amaranta xivichdan to‘qilgan tebranma kursida kashtasini tizzasiga qo‘yib o‘tirgancha, yuzlari-yu iyagiga sovun ko‘pigi surtib, qo‘lidagi pakkisini xom teri kamarga qayrab, umrida ilk bor soqol ola boshlagan Aureliano Xosega boqardi. Yigitcha sarg‘ish tuklariga mo‘ylov shaklini berishga urinib, husnbuzarlarini ko‘chirib yubordi. Tepa labini kesib oldi va oldin qanday bo‘lsa, shundayligicha qoldi. Amaranta bu murakkab marosimni ko‘rib, Aureliano Xose ana shu paytdan boshlab qariy boshladi, degan xayolga bordi.

– Sen hozir Aurelianoning o‘zisan, aynan uning yoshidasan, – dedi yigitchaga. – Endi sen erkaksan.

Ammo yigitcha ancha ilgari, ammasi uni hanuzgacha bola hisoblab, odatdagiday mo‘rchaga kirishganida iymanmasdan kiyimlarini yechgan o‘sha olis kundayoq erkakka aylangan edi. Pilar Ternera bolani topshirib ketgan kundan buyon Amaranta shunday qilardi. Aureliano Xose hali go‘dakligidayoq har safar tongga yaqin o‘zining osma belanchagidan Amarantaning to‘shagiga chopqillab o‘tishga odatlangandi. Uning yoniga o‘tsa bas, barcha hadig-u xavotirlardan

xalos bo‘lardi. Ammo Amarantaning yalang‘och badaniga e’tibor bergan kundan boshlab, zimistondan qo‘rqish emas, balki tong mahali uning issiq nafasini tuyish istagi bolani pashshaxona ichidagi qizning o‘rniga o‘tishga undardi. Keyin ular holdan toydiradigan erkalashlarga batamom berilib, yalang‘och holda birga uxlaydigan, burchak-burchaklarga yashirinib oladigan va hayajonga chulg‘anib, istagan mahalda yotoqxonaga berkinadigan bo‘lishdi. Bir gal Ursula, ular endigina o‘pishib bo‘lishgan qaznoqqa bexosdan bostirib kelib qoldi. «Sen ammangni judayam yaxshi ko‘rasanmi?» – deb so‘radi u nevarasidan soddadillik bilan. Bola tasdiq ma’nosida javob qaytardi. «To‘g‘ri qilasan», – dedi Ursula, so‘ng xamirga un olib, oshxonaga qaytdi. Shu kichik voqeadan keyin Amaranta birdan hushyor tortdi. U haddidan oshib ketganini, endilikda bola bilan jo‘ngina o‘pish-o‘pish o‘ynamay, balki ancha kech tug‘ilgan besamar va qaltis ehtirosga berilganini tushundi, tushundi-yu, bu ishga uzil-kesil nuqta qo‘ydi. Harbiy o‘qishini oxiriga yetkazayotgan Aureliano Xose ham taqdirga tan berib, kazarmada tunay boshladi. Endi shanba kunlari u askarlar bilan birga Katarinoning ishratxonasiga borardi.

Oradan sal vaqt o‘tgach, Makondoga urushning borishi to‘g‘risida yana bir-biriga zid xabarlar kela boshladi. Hukumat qo‘zg‘olonchilarning g‘alaba ketidan g‘alaba qozonayotganlarini rasmiy tan olsa-da, Makondodagi zobitlar taslim bo‘lish muqarrarligi haqidagi maxfiy ma’lumotlarni bilar edilar. Aprelning boshida polkovnik Xerineldo Markes huzuriga chopar keldi. U, haqiqatan ham liberallar partiyasining rahbarlari o‘z viloyatla-

ridagi qo‘zg‘olonchilarning boshliqlari bilan muzokara olib borilyapti, yaqin orada hukumat bilan sulh tuziladi, sulh shartiga ko‘ra, liberallar uchta vazirlik kursisini olishadi, parlamentda liberallar guruhi vujudga keladi va qurollarini topshirgan qo‘zg‘olonchilar uchun umumiy afv e’lon qilinadi, deb tushuntirdi. Chopar ayni paytda polkovnik Aureliano Buendianing sulh shartlariga mutlaqo zid, maxfiy buyrug‘ini ham keltirdi. U polkovnik Xerineldo Markesga, eng ishonchli, hatto mamlakatni ham birga tashlab chiqib ketishga tayyor besh nafar odamni shaylab qo‘y, deb buyurgan edi. Buyruq g‘oyat maxfiy tarzda ijro etildi. Sulh haqida rasmiy xabar e’lon qilinmasidan bir hafta burun – Makondo bir-biriga zid turli mish-mishlar bilan to‘lib-toshganida – polkovnik Aureliano Buendia va uning sadoqatli o‘n nafar zobiti, jumladan, Roke qassob ham, tun qorong‘isida shaharga kirib kelishdi-da, garnizondagilarni uyiga tarqatib, qurollarni ko‘mishdi, arxiv hujjatlarini yo‘q qilishdi. Tongotarda esa polkovnik Xerineldo Markesning besh nafar ishonchli odami bilan birga Makondoni tark etishdi. Operatsiya shunchalik tez, shovqin-suronsiz bajarildiki, Ursula voqeadan eng so‘nggi daqiqada, yotoqxona derazasini allakim ohista chertib: «Agar polkovnik Aureliano Buendiani ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, tezroq chiqing», – deb shivirlaganida ogoh bo‘ldi. U karavotdan irg‘ib turdi-da, tungi ko‘ylakda ko‘chaga yugurdi, ammo hech kimni uchratolmadi. Faqat uzoq qorong‘ilikdan tuyoqlarning tovushi eshitildi – bir to‘da suvoriy jon boricha chang-to‘zon ko‘tarib, Makondoni tashlab ketishardi. Ertasi kuni Ursula Aureliano Xose ham otasi bilan birga

ketganini bildi.

Hukumat va unga qarshi kuchlarning urush tugadi, degan qo‘shma bayonoti chiqqandan keyin o‘n kunlar o‘tgach, polkovnik Aureliano Buendianing g‘arbiy chegarada ko‘targan birinchi qo‘zg‘oloni haqida xabar yetib keldi. Yomon qurollangan oz sonli qo‘zg‘olonchilar bir hafta ichida tor-mor qilindi. Ammo mamlakat ahlini liberallar bilan konservatorlar bir-birlari bilan yarashganiga batamom ishontirgunga qadar bir yil davomida polkovnik Aureliano Buendia yana yetti marta qurolli qo‘zg‘olon uyushtirdi. Bir kuni tunda u yelkanli kema bortidan turib, Rioachani to‘plardan o‘qqa tutdi. Rioacha garnizoni boshliqlari bunga javoban shahardagi o‘n to‘rt nafar eng taniqli liberalni to‘shagidan ko‘chaga sudrab chiqib, otib tashlashdi. Polkovnik Aureliano Buendia chegaradagi bojxonani ishg‘ol qilib, uni o‘n besh kundan ziyod saqlab turdi va shu yerdan mamlakatni umumxalq urushini boshlashga chorladi. U mamlakat poytaxti atrofidagi qishloqlarda qo‘zg‘olon ko‘tarish uchun hali inson qadami yetmagan changalzorlar oralab besh yuz chaqirim masofani uch oycha behuda tentiradi, hatto Makondoga yigirma chaqirim qolguncha yaqinlashib keldi, ammo hukumat qo‘shinlarining peshqadam bo‘linmasi zo‘rlik qilib, uni tog‘ tarafga bundan ancha yillar ilgari otasi ispan kemasi qoldig‘ini topgan o‘sha afsunkor yerlarga chekinishga majbur etdi.

Visitasyon xuddi ana shu damlarda o‘ldi. U asl niyatiga yetib, o‘z ajali bilan olamdan ko‘z yumdi va shu taxlit, uyqusizlik kasali yuqib, bemahal o‘limga giriftor bo‘lmayin, deb taxtdan voz ke-

chgani zoye ketmadi. Hindu ayol yigirma yildan ziyodroq xizmati mobaynida to‘plagan pullarini karavoti ostidan olib, urushni davom ettirsin, deb polkovnik Aureliano Buendiaga jo‘natishlarini vasiyat qildi. Ammo Ursula bu pullarga qo‘lini ham tekkizmadi, chunki o‘shanda polkovnik Aureliano Buendia viloyatning bosh shahri yaqinida qirg‘oqqa tushayotganida halok bo‘ldi, degan mish-mish tarqalgan edi. Bu uning o‘limi haqida so‘nggi ikki yil mobaynida tarqalgan rasmiy xabarlarning to‘rtinchisi bo‘lib, olti oygacha ishonib yurishdi. Ursula bilan Amaranta eski azalar tugamay turib, yangi aza ochganlarida, Makondo bo‘ylab odamlarni larzaga soluvchi boshqa xabar tarqaldi. Polkovnik Aureliano Buendia tirik, faqat u o‘z hukumatiga qarshi kurashishdan voz kechib, Karib dengizining qaysidir mamlakatida g‘olibona jang olib borayotgan federalchilarga qo‘shilib ketgan ekan. Ha, polkovnik ismini o‘zgartirib, har safar ona vatanidan yiroq-yiroqlarda paydo bo‘lardi. Keyinchalik uning Markaziy Amerikadagi barcha federal kuchlarni birlashtirish va butun qit’adagi – Alyaskadan to Patagoniyagacha bo‘lgan barcha konservator hukumatlarini ag‘darib tashlash g‘oyasidan nihoyatda ruhlangani ma’lum bo‘ldi. Ursula ko‘p yillardan so‘ng o‘g‘lidan maktub oldi; Santyago de Kubadan yuborilgan bu xat qo‘ldanqo‘lga o‘taverganidan rosa g‘ijimlanib, harflari xiralashib ketgan edi.

– Biz Aurelianoni bir umrga yo‘qotdik, – dedi xo‘rsinib Ursula xatni o‘qigach. – Shu ketishi bo‘lsa, yana bir yildan keyin dunyoning narigi chekkasiga ham yetib boradi.

Ursula bu so‘zlarni urush tugagach, Makondo-

ga hokim bo‘lgan general-konservator Xose Rakel Monkadaga aytdi, xatni ham ko‘rsatdi. «Eh, qaniydi Aurelianodek shovvoz yigit konservator bo‘lsa!» – dedi general Monkada. U polkovnik Aureliano Buendia bilan chinakamiga faxrlanardi. Konservatorlar partiyasining harbiy ishga aloqasi bo‘lmagan o‘nlab a’zolari singari Xose Rakel Monkada ham o‘z partiyasi manfaatlarini himoya qilish uchun urushda qatnashdi va general unvoniga erishdi. U partiyadosh do‘stlari kabi tajovuzkor harbiylarga tish-tirnog‘i bilan qarshi edi, bu betayin dangasalar, fitnachi va mansabparastlar tinch fuqaroni ezish uchun atay suvni loyqalayotir, deb o‘ylardi... Aqlli, yoqimtoy, xushchaqchaq, taomlarni-yu, xo‘roz urishtirishni yaxshi ko‘radigan Xose Rakel Monkada bir vaqtlar Aureliano Buendianing eng xavfli raqibi hisoblanardi. U sohil bo‘yi hududlaridagi harbiyga kirgan kishilar o‘rtasida katta obro‘ga ega edi. General bir gal, strategik mulohaza bo‘yicha Aureliano Buendia qandaydir qal’ani tashlab ketishga majbur bo‘lganida, uning nomiga ikkita xat qoldirgandi: mufassal bayon etilgan birinchi xatda, insof bilan, g‘irromsiz, odamlarni o‘ylab urishaylik, deb taklif qilingan; ikkinchisi esa qo‘zg‘olonchilar egallagan makonda qolgan rafiqasiga yozilgan edi. Shu voqeadan keyin urush eng avjiga chiqqan paytlarda ham ikkala qo‘mondon asirlarni ayirbosh qilish uchun sulh tuzishardi. O‘shanda tanaffus payti general Monkada polkovnik Aureliano Buendiaga shaxmat o‘ynashni o‘rgatardi. Ular inoq og‘ayniga aylanib qolishdi. Ba’zida ikkala partiyadagi oddiy odamlarni biriktirish orqali harbiylar hamda tajribali siyosatdonlarning ta’sirini barbod etish

va bu partiyalarning eng yaxshi nazariyalari tatbiq etilgan insonparvar tuzum o‘rnatish imkoniyati haqida orzu qilardilar. Urush tugagach, polkovnik Aureliano Buendia qo‘poruvchilik ishiga berildi, general Monkada esa Makondo shahrida avval harbiy, keyinroq fuqaroviy hokimlikni qo‘lga kiritdi. U harbiy kiyimini fuqaro libosiga almashtirdi, askarlarni qurolsiz jandarmachilarga aylantirdi. Monkada umumiy afv qonunlarini hurmatlashga da’vat etar, urushda halok bo‘lgan ayrim liberallarning oilalariga yordam berardi. U yelib-yugurib Makondoni munitsipal okrug markazi deb e’lon qildirishga erishdi, shaharda osoyishta turmush o‘rnatildiki, odamlar nazarida urush degani bir vaqtlar ko‘rilgan aloqchaloq tushga o‘xshab qoldi. Jigar og‘rig‘i to‘xtovsiz xuruj qilaverib, butunlay holdan toygan Padre Nikanorning o‘rnini birinchi federalchilar – urush qatnashchisi, Padre Koronel egalladi, Makondoda uni Vaysaqi deb atashardi. Amparo Moskotega uylanib, o‘yinchoqlar do‘konini ilgarigidek gullatayotgan Bruno Krespi shaharda teatr qurdi va endilikda Ispaniya teatr truppalari Makondoni ham gastrolga boriladigan manzillar ro‘yxatiga kiritishdi. Teatr ulkan, tomsiz binoda joylashgan bo‘lib, yog‘och o‘rindiqlar o‘rnatilgan, sahnaga yunon niqoblari tasviri tushirilib, baxmal pardalar osilgan va og‘zini katta ochib turgan sherlarning boshi tarzida ishlangan uchta kassada chiptalar sotilardi. Maktab binosini ham tartibga keltirishdi, unga vodiy shaharchalarining biridan yuborilgan keksa muallim don Melchor Eskalona boshchilik qilardi. U yalqov talabalarni chag‘irtosh to‘shalgan hovli bo‘ylab tizzalab

emaklashga, vaysaqilarini achchiq hind qalampiri yeyishga majbur etardi – bu jazolarning hammasi makondolik ota-onalarning tahsiniga sazovor bo‘ldi. Santa Sofiya de la Pyedadning o‘jar egizaklari Aureliano Ikkinchi bilan Xose Arkadio Ikkinchi tosh-taxtalarini, bo‘r va alyumin finjonlarini ko‘targancha, sinfxonaga birinchilar qatorida kelib o‘tirdilar; onasidek chiroyli Remedios endi go‘zal Remedios bo‘lib shuhrat qozongan edi. Qarilik ustma-ust motam va behisob tashvishlarga qaramay, Ursula hanuz bardam edi. U Santa Sofiya de la Pyedad yordamida qandolatchilik ishini yana shakllantirdi va o‘g‘li urushga sarflagan mablag‘ o‘rnini qoplabgina qolmay, balki oftobda quritilgan bir necha qovoqni tillaga to‘ldirib, yotog‘iga yashirib qo‘ydi. «Xudo omonatimni olgunicha, – qayta-qayta takrorlardi u, – bu telba xonadonda hamisha yetarli pul bo‘ladi». Otdek baquvvat, hindulardek qoramag‘iz, sochi uzun Amarantaga uylanishga ahd qilib, federalchilarning Nikaraguadagi qo‘shnilari safidan qochgan va hozir nemis kemasiga matroslikka yollangan Aureliano Xose oshxonaga kirib kelganida ahvol shunday edi.

Yigit bir og‘iz so‘z demasa-da, Amaranta uning nega qaytib kelganini darhol tushundi. Xontaxta atrofida ular bir-birlariga qarashga jur’at etisholmadi. Ammo ikki hafta o‘tgach, Aureliano Xose Ursulaning ko‘z o‘ngida Amarantaga tikilib:

– Men doimo sizni o‘yladim, – dedi.

Amaranta o‘zini olib qochardi. Yigitga duch kelmaslik uchun u doimo go‘zal Remediosdan ajralmasdi. Bir kuni Aureliano Xose Amarantadan:

– Qo‘lingizdagi qora tasmani qachongacha

taqib yurasiz, – deb so‘radi.

Amaranta bu gapning bokiralikka shamaligini tushunib, uyatdan qizarib ketdi, o‘zidan norozi bo‘ldi. U endi yotog‘ini qulflab uxlardi, biroq keyin Aureliano Xosening qo‘shni xonada bemalol xurrak otishini eshitib, ehtiyotkorlikni unutdi. Ikki oylar o‘tgach, bir tunda Amaranta yigitning yotoqqa kirganini sezdi. O‘shanda qochish yoki baqirish o‘rniga shirin bir entikdi-yu, qotib qoldi. O‘shal sahardan boshlab, ularning to tonggacha davom etadigan besamar kurashlari qayta tiklandi.

– Men ammangman, – shivirladi entikib Amaranta, – salkam onangman, yoshim ham katta, faqat seni emizmaganman, xolos.

Aureliano Xose tunda qaytib kelish uchun saharmardonda chiqib ketar va lo‘kidoni bekitilgan eshikni ko‘rganida battar hayajonga tushardi. U Amarantani qo‘msardi: zabt etilgan shaharlarning qorong‘i yotoqlarida uchratar, uning siymosi yaradorlarning dokalariga singgan qonning nafasni bo‘g‘uvchi hidida ham, o‘lim xavfi oldidagi lahzalik vahimasida ham ko‘z o‘ngida turardi go‘yo. Asli u quroldoshlari «dovyuraklik» deb atagan miyani gangituvchi shafqatsizlikka taqlid qilib, Amaranta haqidagi xotirani barbod etishga uringan va uydan qochgan edi, ammo u qiz siymosini urush o‘z balchig‘iga qancha ko‘p qorishtirmasin, hech esdan chiqarmadi. Toki o‘z ammasiga uylangan odam haqidagi eski latifani eshitmaguncha, quvg‘inlikda azob chekdi, o‘ziga o‘zi o‘lim tiladi, shu yo‘l bilan Amarantadan qutulishni istadi.

– Axir, odam o‘z ammasiga ham uylanadimi? – deb so‘radi o‘shanda Aureliano Xose.

– Nafaqat ammasiga, – javob qaytardi askarlar-

dan biri – axir, biz nega poplarga qarshi kurash-yapmiz? Kimki istasa, o‘zi undan ham yaqiniga uylanishi uchun kurashyapmiz-da!

Ana shu suhbatdan ikki hafta o‘tgach, Aureliano uyiga qochib keldi. Amaranta avvalgidan rangi siniqqan, bosiq, balog‘atning so‘nggi chegarasiga yaqinlashib qolgan, ammo yotoqning qorong‘iligida jo‘shqin, o‘zining jangari mudofaasi bilan har qachongidek hayajonga soladigan bo‘lib ko‘rindi.

– Sen hayvonsan, – derdi Amaranta uning ta’qiblaridan sillasi qurib. – Axir, ammaga uylanish uchun faqat Rim papasidan ruxsat olish kerakligini bilmaysanmi?

Aureliano Xose emaklab bo‘lsa-da, Yevropaga – Rimga borishga va hatto avliyo papaning boshmog‘ini o‘pishga va’da berdi.

– Gap ruxsatdagina emas, – rad qilardi Amaranta. – Axir, bunday nikohdan cho‘chqa dumli bolalar tug‘iladi-da.

Aureliano Xose uning vaj-korsonlarini eshitishni xohlamas edi.

– Timsoh tug‘ilsa ham mayliga, – derdi u.

Bir kuni tongda azobga dosh berolmay, Katarinoning muassasasiga yo‘l oldi. Aureliano Xose u yerdan arzongina pulga shirinso‘z, ko‘krak-lari salqigan, ammo dardiga vaqtincha malham bo‘ladigan ayolni topdi. U Amarantani soxta bepisandlik bilan yengmoqchi bo‘ldi. Peshayvondan o‘tar ekan, qizga, hatto bir og‘iz ham gapirmadi. Amarantaning yelkasidan tog‘ qulagandek bo‘ldi. U yana Xerineldo Markesni o‘ylay boshladi, kechqurun birga shashka o‘ynagan damlarini orziqib esladi va uni o‘z yotog‘ida ko‘rishni istab qoldi. Aureliano Xose o‘zining qanchalar katta

xato qilganini tasavvur ham etolmasdi. Beparvo ko‘rinish joniga tegib, bir gal kechasi yana tag‘in Amarantaning xonasiga bordi. Amaranta hech ikkilanmay qat’iylik bilan rad etib, eshigini mahkam qulflab oldi.

Aureliano Xose Makondoga qaytganidan bir necha oy o‘tgach, uylariga semiz, yosumangul hidi taratuvchi bir ayol besh yashar bolasi bilan kirib keldi. Ayol Ursulaga, bu bola polkovnik Aureliano Buendianing o‘g‘li, uni cho‘qintirish uchun sizga olib keldim, deb aytdi. Bu hech kimda shubha uyg‘otmadi, go‘dak polkovnikning o‘zginasi edi. Ayolning aytishicha, bola ko‘zlari ochiq holda tug‘ilgan va atrofga qandaydir dimog‘dorlarcha boqqan, uning bir buyumga mijja qoqmay tikilib turishi har qanday odamni cho‘chitar ekan.

– Otasining o‘zginasi, – dedi Ursula, – faqat ko‘z qiri bilan kursilarni qimirlatishi yetmay turuvdi.

Bolaga Aureliano deb ism qo‘yib, onasining sharifini berishdi: qonunga binoan, to otasi tan olmaguncha shunday bo‘lardi. General Monkada cho‘qintirgan ota bo‘ldi. Amaranta bolani o‘z tarbiyasiga olishga urinib ko‘rdi, ammo onasi ko‘nmadi.

Ilgari Ursula qizlarni xuddi tovuqlarni zotdor xo‘rozlar oldiga qo‘yib yuborgandek mashhur qo‘mondonlarning yotog‘iga yo‘llash udumini eslamagan bo‘lsa-da, uning borligiga ayni o‘sha yili ishondi: polkovnik Aureliano Buendianing yana shunday to‘qqiz nafar o‘g‘lini cho‘qintirish uchun uyiga olib kelishdi. Ularning to‘ng‘ichi qora soch, moviy ko‘zli g‘aroyib bola bo‘lib (u otasiga o‘xshamas edi) yoshi o‘ndan oshgandi. Yoshi har xil, turli tusdagi bolalarning bari o‘g‘il va ular-

ning bir-biriga o‘xshashligidan otasining bir kishi ekaniga shubha qilinmasdi. Ursula faqat ikki nevarasini aniq eslab qoldi: biri gavdasi yoshiga nisbatan ancha katta bo‘lib, u Ursulaning guldonini va bir necha likobchasini chil-chil sindirdi; go‘yoki qo‘llari tekkan narsa sinmay qolishi dargumondek tuyilardi. Boshqasi oq sariqdan kelgan, ko‘zlari onasinikidek kulrang ko‘kish, sochlari esa xuddi qizlarnikiday uzun va jingalak edi. U uyga xuddi shu yerda tug‘ilib o‘sgan va bu yerni mukammal biladigan odamdek, zarracha xijolat tortmay kirib keldi-yu, to‘g‘ri Ursulaning yotog‘idagi quticha tomon yurib: «Menga murvatli raqqosa kerak», – dedi. Ursula avvaliga cho‘chib tushdi. Qutichani ochib, Melkiades davridan qolgan eski-tuski narsalarni kavlashtirib, ichidan eski paypoqqa o‘ralgan raqqosani topdi; qachonlardir Petro Krespi olib kelgan bu o‘yinchoq hammaning esidan chiqib ketgan edi. Polkovnik Aureliano Buendianing o‘n ikki yil urushib, qadami tekkan joylarda orttirgan o‘g‘illarining barchasiga Aureliano deb nom berildi. Ularga Buendia nomi berilmadi. Polkovnik o‘g‘illarining jami soni o‘n yetti nafarga yetdi. Dastlab Ursula ularning cho‘ntaklarini pul bilan to‘ldirar, Amaranta bo‘lsa, bolalarni olib qolishga urinar edi. Ammo keyinchalik Ursula bilan Amaranta biron-bir sovg‘a berish-u, cho‘qintiruvchi onalar vazifasi bilan cheklanadigan bo‘lishdi.

– Biz ularni cho‘qintirib ham o‘z burchimizni bajaryapmiz, – derdi Ursula maxsus kitobchasiga galdagi onaning ism-sharifini va manzilini, bola tug‘ilgan kun va joyni yozarkan. – Hisob-kitobimiz aniq bo‘lishi darkor, Aureliano qaytib kelib,

farzandlariga otalik qiladi-da.

Ursula bir kuni tushlik mahali general Monkada bilan farzandining serpushtligini muhokama qila turib:

– O‘g‘lim tezroq kelib, bolalarini bir joyga yig‘sa yaxshi bo‘larmidi, – deb aytdi.

– Xavotir olmang, qarindosh, – sirli javob qaytardi general Monkada, – u siz o‘ylaganingizdan oldinroq keladi.

General Monkada ochishni istamagan sir shu ediki, polkovnik Aureliano Buendia hayotidagi eng uzoq, eng og‘ir va sertalafot qo‘zg‘olonga boshchilik qilish uchun allaqachonoq vatani tomon yo‘lga tushgan edi.

Vaziyat birinchi urush boshlangan vaqtdagiga o‘xshab tag‘in keskinlashdi. Hokimning o‘zi rag‘batlantirib turadigan xo‘roz urishtirishlar taqiqlandi. Garnizon qo‘mondoni kapitan Akiles Rikardo tinch fuqaroga ham hokimlik qila boshladi. Liberallar uni «ig‘vogar» deb e’lon qilishdi.

– Bir balo boshlanishi aniq, – derdi Ursula Aureliano Xosega. – Kech soat oltidan so‘ng ko‘chaga chiqma.

Uning yolvorishlari befoyda edi. Arkadio bir vaqtlar unga bo‘ysunmay qo‘yganidek, Aureliano Xose ham Ursulaning izmidan chiqqan, deyarli begona bo‘lgan edi. Uyga qaytib kelgach, havoyilikka o‘rgandi: yegani oldida, yemagani ketida, xullas, kayf-safoga berilib, xuddi amakisi Xose Arkadio kabi ishyoqmas, tanbal bir kimsaga aylandi. Amarantaga ishqivozligi yigit yuragida hech qanday jarohat qoldirmasdan so‘ndi. U go‘yoki tole to‘lqinlari ichra suzardi: bilyard o‘ynar, duch kelgan buzuq xotinga ilakishar,

Ursula yashirgan pullarni axtarib, uydagi burchag-u kavaklarni titar edi. Nihoyat, u uyga kiyimini almashtirish uchungina keladigan bo‘ldi.

– Bularning bari bir go‘r, – shikoyat qilardi Ursula. – Dastlab yuvosh, itoatkor, xuddi musichadek beozor o‘sishadi, iyagiga tuk bitdi deguncha, darhol gunohga botishadi.

O‘zining nasl-nasabiga qiziqmagan Arkadiodan farqli o‘laroq, Aureliano Xose so‘rab-surishtirib, onasi Pilar Terneraligini bilib oldi. Pilar Ternera o‘g‘lining peshingi hordig‘ini o‘ylab, uyiga Aureliano Xosening to‘r belanchagini osib ham qo‘ydi. Ularni chinakam ona-bolalik emas, balki yolg‘izlik hissi birlashtirardi. Pilar Terneraning qalbidagi so‘nggi umid uchqunlari ham so‘ngan edi. Uning kulgisi organ ovozidek yo‘g‘onlashib qolgan edi. Endi u puch umidlar bag‘ishlovchi folbinlikdan voz kechgan va begonalarning sevgisidan yupanch topib, osudagina hayot kechirardi. Aureliano Xose peshinda dam oladigan xonada qo‘shni qizlar o‘zlarining tasodifiy ma’shuqlari bilan uchrashib turishardi.

– Kirishga ruxsat ber, Pilar, – deyishardi xonaga bostirib kirib.

– Marhamat qilinglar, – javob berardi Pilar. Agar yonlarida yana biror odam bo‘lsa, tushuntirardi, – odamlarni baxtiyor ko‘rsam, quvonaman.

U xizmati uchun pul olmasdi. O‘zining xushtorlari – oladiganini olib evaziga na pul va na muhabbat hadya etishgan, faqat onda-sonda andak huzur bag‘ishlagan son-sanoqsiz erkaklarning iltimoslarini rad etmagani kabi, bu iltimoslarga ham yo‘q demasdi. Pilar Terneraning beshala qizi ham bo‘yi yetishi bilan qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketgan

edi. Ikki o‘g‘lidan biri polkovnik Aureliano Buendianing bayrog‘i ostida jang qilib halok bo‘lgan, ikkinchisi esa o‘n to‘rt yoshga kirganida vodiy shaharlaridan birida tovuqlar solingan savatni o‘g‘irlayotganida yaralanib, qo‘lga tushgan edi. Pilar Terneraga foldagi tappon shoh yarim asrdan beri va’da qilib kelayotgan uzun bo‘yli, qoramag‘izdan kelgan o‘sha erkak Aureliano Xose bo‘lib chiqdi, biroq qartalar va’da etgan barcha erkaklar kabi u ham Pilar Ternera qalbidan ancha kech, ajal soya sola boshlagan paytda o‘rin olgan edi. Pilar Ternera buni qartalardan bilib oldi.

– Bugun kechqurun ketma, – dedi u Aureliano Xosega, – shu yerda uxla, Karmelita Montel ko‘pdan beri sening oldingga kiritishimni so‘rab yuribdi.

Aureliano Xose onasining ovozidagi xavotirli iltijoni ilg‘amadi va:

– Unga ayting, meni yarim kechasi kutsin, – deb javob qaytardi-da, ispan truppasining «Sorro xanjari»[1] pyesasini ko‘rgani teatrga yo‘l oldi.

Asli bu Sorrili tragediyasi bo‘lib, kapitan Akiles Rikardoning buyrug‘iga binoan o‘zgartirilgan edi, negaki liberallar konservatorlarni «gotlar» deb chaqirishar edi. Aureliano Xose eshik yonida chiptasini ko‘rsata turib, kapitan Akiles Rikardo teatrga kirayotganlarning hammasini qurollangan ikki askar bilan birgalikda tintuv qilishayotganiga ko‘zi tushdi.

– Sekinroq, kapitan, – deya ogohlantirdi Aureliano Xose, – hali menga qo‘lini ko‘taradigan odam onasidan tug‘ilmagan.

Kapitan uni majburan tintimoqchi bo‘lgandi,

[1] Ispan shoiri va dramaturgi Xose Sorrilining (1817 – 1893) tragediyalaridan biri «Got xanjari» deb nomlangan.

qurolsiz Aureliano Xose qochishga tushdi. Askarlar buyruqqa bo‘ysunmay, unga o‘q uzishdan bosh tortishdi.

– Axir, bu Buendia-ku, – tushuntirdi ulardan biri.

Shunda darg‘azab kapitan miltiqni yulib oldi-da, olomonni yorib o‘tib, ko‘chaning o‘rtasiga chiqdi.

– Qo‘rqoqlar! – baqira boshladi u. – Ishqilib, u polkovnik Aureliano Buendia bo‘lib chiqsin.

O‘q tovushi eshitilganida, yigirma to‘qqiz yoshli qiz Karmelita Montel Pilar Terneraning karavotini gulob bilan artib, ustiga rozmarin barglarini to‘shab bo‘lgandi. Qartalarning bashoratiga ko‘ra, Aureliano Xosega Amaranta bermagan baxtni Karmelita baxsh etishi, ular olti nafar farzand ko‘rishlari va qarigach, Karmelita Montelning qo‘lida o‘lishi lozim edi. Biroq uning orqasidan kirib, ko‘kragini teshib o‘tgan o‘q, chamasi, qartalarning bashoratini unchalik yaxshi payqamagandi. Qazosi ayni o‘sha tun sodir bo‘lishi bashorat qilingan kapitan Akiles Rikardo haqiqatan ham Aureliano Xosedan to‘rt soat oldin o‘ldi. Miltiq tovushi gumburlagan zahotiyoq, ikki joyidan o‘q yegan kapitan ham qulab tushdi, kim o‘q uzganligini aniqlay olishmadi va odamlarning hayqirig‘i tun sukunatini larzaga keltirdi:

– Yashasin liberallar partiyasi! Yashasin polkovnik Aureliano Buendia!

Tungi soat o‘n ikkilarda, Aureliano Xosening yarasidan oqayotgan qon tiyilib, Karmelita Montelga fol ochish maqsadida qartalar yana aralashtirib bo‘linganida, teatr binosi yonidan o‘tgan to‘rt yuzdan ziyodroq kishining hammasi kapitan Akiles Rikardoning ko‘cha o‘rtasida yotgan jasadiga to‘pponchalaridan betinim o‘q uzish-

di. Qo‘rg‘oshinlardan og‘irlashib, bo‘kkan nonga o‘xshab qolgan jasadni zambilg‘altakka joylashtirish uchun bir necha askar ovora bo‘ldi.

Hukumat qo‘shinlarining bu xatti-harakatidan darg‘azab bo‘lgan general Xose Rakel Monkada yana harbiy libos kiydi va Makondo hukmdorligini zimmasiga oldi. Sentabrda kelgan xabarlar bir-biriga zid edi. Hukumat butun mamlakatni nazorat ostiga olgan bo‘lsa-da, liberallarga shtatlardan ko‘tarilgan qurolli qo‘zg‘olonlar haqida maxfiy ma’lumotlar kelib turardi. Harbiy tribunalning polkovnik Aureliano Buendiani sirtdan o‘limga hukm etgani haqidagi qaror xalqqa oshkor qilinganidan so‘ng hukumat urush holati yuz berganini tan oldi, polkovnikni qo‘lga tushirishga muvaffaq bo‘lgan garnizon hukmni darhol ijro etishi kerak edi. «Demak, u qaytibdi», – dedi quvonch bilan Ursula general Monkadaga. Ammo general bu haqda hali biror aniqroq ma’lumotga ega emasdi.

Aslida polkovnik Aureliano Buendia mamlakatga bir oy burun qaytib kelgan edi. Uning qaytishi turli mish-mishlarga to‘la, go‘yoki u bir vaqtning o‘zida bir-biridan yuzlab chaqirim uzoq yerlarda hozir bo‘lardi. Shu bois ham general Monkada, toki polkovnik Aureliano Buendianing qirg‘oq bo‘yidagi ikki shtatni bosib olganligini rasmiy e’lon qilmagunlaricha, uning qaytganiga ishonmagandi.

– Tabriklayman sizni, qarindosh, – dedi general Monkada Ursulaga. – Tez orada siz uni ko‘rasiz.

Faqat ana shundan keyingina Ursula xavotirga tushdi.

– Siz-chi, siz nima qilasiz? – so‘radi Ursula.

– O‘g‘lingiz nima qilsa o‘shani. O‘z burchimni

ado etaman.

Birinchi oktabr kuni tong mahali polkovnik Aureliano Buendia yaxshi qurollangan minglab askari bilan Makondoga hujum boshladi. Garnizon oxirigacha qarshilik ko‘rsatish haqida buyruq oldi. Choshgoh mahali, general Monkada Ursula bilan ovqatlanayotganda, qo‘zg‘olonchilarning to‘pi munitsipial xazinasi peshtoqini vayronaga aylantirdi.

– Ular bizdan yomon qurollanishmagan, – xo‘rsindi general Monkada, – buning ustiga havas bilan jang qilishyapti.

Kunduz soat ikkida, to‘plar otishmasidan yer titraganda mag‘lubiyatga uchrashlariga to‘la ishonch hosil qilgan general nihoyat Ursula bilan xayrlashdi.

– Aureliano bugun kechqurun uyda bo‘lmasligini Xudodan yolvorib so‘rayman, – dedi u. – Ammo kelib qolsa, men uchun quchib qo‘ying, uni boshqa ko‘rmasam kerak, deb o‘ylayman.

General polkovnik Aureliano Buendiaga urushni insonparvarona iziga solish haqidagi umumiy maqsadlari va harbiylar nayrangini eslatdi-da, ikkala partiyaning ham shuhratparast siyosatdonlari ustidan hal qiluvchi g‘alabani talab qiluvchi maktub qoldirib, Makondodan qochib ketishga uringan kechasiyoq qo‘lga olindi. Harbiy inqilob tribunali o‘z taqdirini hal qilmagunicha, Ursulaning uyida hibsda saqlanayotgan general Monkada ertasiga polkovnik Aureliano Buendia bilan birga ovqatlandi. Bu oilaviy davraga xos osuda bir uchrashuv edi. Raqiblar urushni eslaridan chiqarib, o‘tmish voqealariga cho‘mganlarida ham, Ursula o‘g‘lim vataniga bosqinchi bo‘lib qaytibdi, degan noxush taas-

surotdan xalos bo‘lolmasdi. Xavf-xatar yo‘qligiga to‘la ishonch hosil qilish uchun xonalarni ag‘dar-to‘ntar qilgan talaygina soqchilar kuzatuvida kelgan polkovnik, uy bo‘sag‘asidan hatlab o‘tgan o‘sha ilk daqiqadayoq Ursulada ana shunday fikr paydo bo‘ldi. Polkovnik Aureliano Buendia nafaqat bunga yo‘l qo‘ydi, monelik ko‘rsatib bo‘lmaydigan bir ohangda buyruq berdi va to uy atrofini soqchilar o‘ramaguncha, birorta odamni, hatto Ursulani ham uch qadamdan beriga yo‘latmadi. U egniga qo‘pol ip gazlamadan tikilgan belgisiz harbiy libos, oyog‘iga poshnasi baland temir tepkili etik kiygan, kamaridagi sovuq qurol qinining tugmasi yechilgan, asabiy tiralgan barmoqlari esa xuddi ko‘zlari singari ehtiyotkor va qat’iy edi. Ikki chakkasi qizarib, lovullay boshlagan kallasi sust yongan o‘tda qoq qilib quritilganga o‘xshar, Karib dengizining sho‘r suvlari shilib yuborgan yuzlari metindek qotib ketgandi. U burungiga nisbatan novcharoq, rangpar, suyakdor tuyilar va tug‘ishganlariga bo‘lgan mehr tuyg‘usini bosishga harakat qilayotganligi sezilib turardi.

– Voy, xudoyim-ey, – deya bezovtalana boshladi Ursula, – uning qo‘lidan har balo keladiganga o‘xshaydi.

Aslida ham shunday edi. U Amaranta uchun olib kelgan shol ro‘moli, dasturxon boshida aytgan esdaliklari, ichakuzdi latifalari bularning bari xuddi kul qoplagan ko‘mir otashini yodga tushirgani kabi ilgarigi Aurelianoni elas-elas eslatar edi. U hali o‘liklarni umumiy mozorga ko‘mishga ulgurmay turib, polkovnik Roke qassobga harbiy tribunalni tezlashtirish xususida

buyruq berdi, o‘zi esa ikkilanayotgan konservatorlarning idora usuliga tamoman zid, og‘ir islohot ishiga kirishdi.

– Biz liberallar partiyasi siyosatdonlarini dog‘da qoldirishimiz kerak, – derdi u yordamchilariga. – Ularning ko‘zlari ochilganida, juda kech bo‘ladi.

Ayni paytda u so‘nggi besh yil davomida ro‘yxatga olingan yerlarga bo‘lgan huquqni tekshirishga azm-u qaror qildi va akasi Xose Arkadioning qonunlashtirilgan talon-tarojiga duch keldi. U qalam tortib, yozuvlarni bekor qildi va ishlarini bir soat ortga surib, o‘z qarorini aytish uchun Rebekaning uyiga yo‘l oldi.

Qachonlardir maxfiy sevgisiga sirdosh bo‘lgan, o‘z qaysarligi bilan uning hayotini saqlab qolgan bu yakkash beva mehmonxonaning nim qorong‘isida o‘tmishga mansub sharpadek tuyildi go‘yo. Bilaklarigacha qora libosga o‘ralgan, yuragini allaqachon kul bosgan bu ayol, aftidan, hatto urush borayotganidan ham bexabar edi. Uning suyaklari go‘yo teri ostidan nurlanib turgandek taassurot qoldirar, aynigan havodan hanuzgacha ozgina porox hidi anqirdi. Polkovnik Aureliano Buendia suhbatni uzoqdan boshladi. Ayolga azani sal yengillashtirish, uydagi barcha derazalarni ochish, Xose Arkadioning o‘limi uchun odamlarni kechirishini va hayotga qaytishini so‘radi. Ammo Rebeka bu dunyo quvonchlaridan allaqachon yuz o‘girgan edi. O‘tganlarni tuproqning taxir ta’midan, Petro Krespining atir sepilgan xatlari-yu, erining jo‘shqin to‘shagidan qidirish behuda edi. Rebeka to‘qima kursiga suyanganicha, polkovnik Aureliano Buendiaga razm soldi. Shu tobda

polkovnik uning ko‘ziga bamisoli o‘tmishdan kelgan sharpadek tuyildi. Xose Arkadio o‘zlashtirgan yerlar qonuniy egalariga qaytarilgani Rebekani mutlaqo tashvishlantirgan emas.

– Bilganingni qil, Aureliano, – deb xo‘rsindi u. – Sen qarindoshlaringni sevmaysan, men hamisha shunday deb o‘ylardim, bildimki, adashmagan ekanman.

Yerga egalik huquqlarini qayta ko‘rib chiqish-u, harbiy dala sudlarining ishi bir vaqtga belgilandi. Polkovnik Xerineldo Markes raisligida olib borilgan sud majlislarining nihoyasida qo‘zg‘olonchilar asirga tushirgan barcha zobitlarni otishdi. Ursula oxirida sudlangan general Xose Rakel Monkadaning yonini olib:

– U Makondoning eng yaxshi hukmdorlaridan edi, – dedi o‘g‘liga. – Oilamizga mehribonligi, muhabbati haqida gapirmasam ham bo‘ladi, buni o‘zing hammadan yaxshi bilasan-ku.

Ammo polkovnik Aureliano Buendia:

– Sud ishlarini boshqaruvchi vakil emasman, – deya e’tiroz bildirdi, – agar gapingiz bo‘lsa, harbiy sud oldida ayting.

Ursula polkovnikning maslahatiga amal qildi, boz ustiga sudga makondolik qo‘zg‘olonchi zobitlarning onalarini ham boshlab keldi. Bu ayollar shaharda azaldan istiqomat qilishar, ayrimlari tog‘ tizmalari bo‘ylab kechgan o‘sha mashaqqatli safarning ishtirokchilari edi. General Monkadaning ajoyib xislatlarini biri qo‘yib, biri maqtardi. Ursula hammadan keyin so‘zladi. Uning qayg‘uga botgan, ammo tetik qiyofasi, odamlar orasidagi obro‘-e’tibori, so‘zlaridagi o‘ktamona komil ishonch adolat tarozisini bir-

pas ikkilantirib qo‘ydi.

– Siz bunday mudhish o‘yinga nihoyatda jiddiy yondashib to‘g‘ri qildingiz, sababki, o‘z burchingizni bajardingiz, – dedi u tribunal a’zolariga. – Ammo shuni esdan chiqarmangki, to biz hayot ekanmiz, onangiz bo‘lib qolamiz va o‘n karra inqilobchi bo‘lsalaring ham, bizni behurmat qilganingizda ishtonlaringni tushirib, qayish bilan boplab savalashga haqimiz bor.

Ko‘pni ko‘rgan ayol so‘zlari sud a’zolari maslahatga chiqib ketishganida ham kazarmaga aylantirilgan bu sinfxonada jaranglab turdi. Yarim tunda general Xose Rakel Monkada o‘limga hukm qilindi. Ursulaning ta’nalariga qaramay, polkovnik Aureliano Buendia mahkumning jazosini yengillashtirishdan bosh tortdi. U tongga yaqin mahkumning oldiga, kishanlar turadigan xonaga keldi.

– Esingda bo‘lsin, – dedi polkovnik, – seni men otayotganim yo‘q. Seni inqilob otyapti. General Monkada karavotdan ham turmadi.

– Ket, yo‘qol ko‘zimdan, – javob qaytardi u.

Qaytganidan buyon polkovnik Aureliano Buendia general Monkadaga xayrixohlik bildirishdan o‘zini tiydi. Generalning keksalik soya solgan yuzini, qaltirayotgan qo‘llarini, xokisorlik, itoatkorlik bilan o‘limini kutayotganini ko‘rib ajablandi va o‘ziga nisbatan chuqur nafrat tuydi, biroq uni qalbida uyg‘onayotgan rahmdillik bilan aralashtirib yubordi.

– Mendan ko‘ra, o‘zingga yaxshiroq ma’lum, – dedi u, – har bir harbiy tribunal aslida shunchaki qo‘pol hazil, xolos. Birovlarning jinoyati uchun sendan qasos olishyapti. Bu gal biz qanday qilib

bo‘lsa-da, urushda g‘olib chiqishimiz kerak. Sen mening o‘rnimda bo‘lganingda shunday qilmasmiding, axir?

General Monkada qalin ko‘zoynagini ko‘ylagining etagi bilan artib, joyidan turdi.

– Ehtimol, – dedi u, – lekin meni otishga shaylanayotganing tashvishlantirgani yo‘q, bu hol bizga o‘xshaganlar uchun tabiiy o‘lim. – U ko‘zoynagini to‘shakka qo‘ydi, soatini zanjiridan chiqardi. – Meni, – deya davom etdi so‘ng, – tajribali jangchilardan ko‘p vaqt nafratlanganingdan, beomon kurash olib borganingdan, ularni shunchalar koyiganingdan keyin o‘zing ham o‘shalarga o‘xshab qolganing ko‘proq xavotirga soladi va dunyodagi hech qanday g‘oya bunday razillikni oqlay olmaydi.

U barmog‘idagi nikoh uzugini, bo‘ynidagi Bibi Maryam tasviri osilgan zanjirni yechdi-da, ko‘zoynagi va soatining yoniga qo‘ydi.

– Agar shu hol davom etaversa, – deya so‘ziga yakun yasadi u, – sen mamlakatimiz tarixidagi nafaqat eng mustabid va qonxo‘r hukmdor, balki vijdoningga taskin berish uchun Ursulani otib tashlashdan ham toymaydigan kimsaga aylanasan.

Polkovnik Aureliano Buendia pinagini buzmadi. General Monkada ko‘zoynak, soat, uzuk va kichkina sanamini unga uzatib, endi yumshabroq:

– Ammo men seni bu yerda koyigani chaqirtirgan emasman. Mana bularni xotinimga yuborishingni so‘ramoqchi edim, – dedi.

Polkovnik Aureliano Buendia general uzatgan buyumlarni cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

– U haliyam Manaureda yashaydimi? – so‘radi u.

– Manaureda, – tasdiqladi general Monkada, – sen o‘tgan safar xat jo‘natgan cherkov ortidagi

o‘sha uyda.

– Men buni bajonidil bajaraman, Xose Rakel, – dedi polkovnik Aureliano Buendia.

U ko‘kish tuman cho‘kkan ko‘chaga chiqqanida, yuzi xuddi o‘sha uzoq tongdagidek namiqdi va o‘shandagina nega hukmni qabriston devori yonida emas, balki kazarma hovlisida ijro etishga buyruq berishganini tushundi. Eshik qarshisida safga tortgan bo‘linma askarlari uni davlat boshlig‘ini olqishlagandek olqishlashdi.

– Olib chiqishingiz mumkin, – dedi polkovnik.

Urushning behudaligini ilk bor polkovnik Xerineldo Markes anglab yetdi. U Makondoning xalq va harbiy hokimi sifatida polkovnik Aureliano Buendia bilan telegraf orqali haftasiga ikki marta bog‘lanardi. Oldiniga ularning so‘zlashuvi haqiqatda ham sodir bo‘layotgan urushning qay bosqichdaligini, qay yo‘nalishda avj olishini oldindan ko‘zda tutish imkonini yaratardi. Polkovnik Aureliano Buendia endi hatto eng yaqin do‘stlari bilan ham ochiq gaplashmas, bemaqsad so‘zlashardiki, tovushini darhol tanish qiyin bo‘lib qoldi. Ko‘pincha, u so‘zlashuvni hech bir asossiz cho‘zar va oilaviy yangiliklar qo‘shilishiga ham ruxsat berardi, lekin urush katta-katta maydonlarni egallashi va shiddatli tus olishi bilanoq, polkovnikning aft-angori birdan o‘zgarib, allaqanday mavhumlik kasb etardi. Nuqta va tirelardan tashkil topgan ovoz har safar qat’iyatsizlashib borar va endi telegraf tobora o‘z ma’nosini yo‘qotayotgan allaqanday jumlalar tuzardi. Shunday paytlarda polkovnik Xerineldo Markes telegrafdan kelayotgan ovozlarni eshitarkan, xuddi boshqa dunyodagi notanish kimsa bilan so‘zla-

shayotgandek yurakni ezuvchi his tuyardi.

– Tushunarli, Aureliano, – derdi u suhbatni yakunlab, telegraf kalitini tiqillatarkan. – Yashasin liberallar partiyasi!

Polkovnik Xerineldo Markes urush xabarlaridan mutlaqo uzilib qoldi. Ilgari urush uning uchun tiyiqsiz yoshlik ehtirosidan iborat edi, endi esa butkul ko‘ngli sovib, Amaranta chevarlik qiladigan xonadan najot izlardi: u bu xonaga har kuni kechqurun kelardi. Polkovnik go‘zal Remedios tikuv mashinasi dastasini aylantirayotgan mahal oppoq mato burmalarini bostirayotgan Amarantaning qo‘llariga qarab o‘tirishni yoqtirardi. Uy bekasi va mehmon churq etishmas, bir-biri bilan diydor ko‘rishish bilan qanoatlanishardi, xolos; Amaranta uning sadoqati so‘nmaganidan ich-ichidan shodlanar, Xerineldo Markes bo‘lsa, qizning yashirin niyatlaridan bexabar edi. Polkovnik Xerineldo Markesning Makondoga qaytganini eshitgan Amaranta nihoyatda hayajonlandi. Ammo polkovnik Aureliano Buendianing xushchaqchaq mulozimlari kabi yarador qo‘li bog‘langan Xerineldo Markesning qariganini, kir-chir va terga botgan badanidan otxona hidi anqiyotganini ko‘rib, Amarantaning hafsalasi pir bo‘ldi. «Xudoyim-ey, – ko‘nglidan o‘tkazdi u, – nahotki, men kutgan odam shu bo‘lsa!» Ertasiga polkovnik uning yoniga yuvinib-taranib keldi, mo‘ylovidan atir hidi ufurib turardi. Polkovnik Amarantaga muqovasiga sadaf qadab bezatilgan ibodatnoma hadya qildi.

– Siz erkaklar juda g‘alatisiz-da, – dedi Amaranta durustroq gap topolmay.

– O‘zlaring butun umr ruhoniylarga qarshi kurashasizlar-u, lekin shunga qaramay, ibodatno-

ma sovg‘a qilasizlar.

U o‘sha kundan boshlab, hatto urushning og‘ir damlarida ham kechasi Amarantaning huzuriga kelishni kanda qilmadi. Go‘zal Remedios bo‘lmaganda tikuv mashinasining dastasini aylantirardi. Uning sadoqati Amarantaning mehrini qo‘zg‘atar, nufuzli odamning qoshida bosh egishi, qilichi-yu to‘pponchasini mehmonxonada qoldirib, yoniga qurolsiz kirishi battar hayajonga solardi. Lekin shunga qaramay, polkovnik Xerineldo Markes qayta-qayta sevgi izhor qilgan ana shu to‘rt yil mobaynida Amaranta uning muhabbatini bir zaylda rad etardi. To‘g‘ri, Amaranta Xerineldo Markesning dilini og‘ritmaslikka urinar, negaki hali u polkovnikni sevib qolmagan bo‘lsa-da, endi usiz yashay olmasligini anglardi. Hozirga qadar hamma narsaga loqayd, hatto ko‘pchilik aqli kamroq deb o‘ylaydigan go‘zal Remedios Xerineldo Markesning haddan tashqari sadoqatidan ta’sirlanib, kutilmaganda uni himoya qilishga o‘tdi. Amarantaga o‘zi tarbiyalagan bu qizaloq Makondo hali hech qachon ko‘rmagan go‘zal qizga aylangani ayon bo‘ldi. U yuragida qachonlardir Rebekaga nisbatan tug‘ilgan o‘sha eski adovati qayta uyg‘onayotganini his etdi. Adovati olovlanib tang ahvolga solmasa-da, go‘zal Remediosning uvoliga qolmasligini, uning o‘limi tufayli azob chekmasligini Xudodan iltijo qilib, qizni xonasidan quvib yubordi. Xuddi shu kunlar polkovnik Xerineldo Markes urushni yomon ko‘ra boshlagan edi. Umr bo‘yi topgan shuhratini Amarantaga sadqa qilishga tayyor polkovnik bor mahorati-yu bisotidagi chiroyli so‘zlarini, uzoq muddat jilovlab kelayotgan mehrini ishga soldi hamki, baribir Amarantani ko‘ndirolmadi. Avgust

kechalarining birida sabotli jazmaniga uzil-kesil javob berib, o‘jarligining zalvorli zarbidan ezilgan Amaranta umrining oxirigacha aza tutib, yig‘lash uchun yotog‘iga berkindi.

– Bir-birimizni umrbod unutaylik, – dedi u, – chunki allaqachon sevib-sevilish yoshidan o‘tganmiz.

O‘sha kechasi polkovnik Xerineldo Markes polkovnik Aureliano Buendia tomonidan telegraf apparatiga chaqirildi. Suhbat tugaganda, polkovnik Xerineldo Markes xilvat ko‘chaga qarab, bodom barglarida osilib turgan suv tomchilarini ko‘rdi va yolg‘izlikdan adoyi tamom bo‘layotganini chuqur his qildi.

– Aureliano, – u ma’yus holda telegraf kalitini tiqirlatdi, – Makondoda yomg‘ir yog‘yapti.

Telegraf liniyasida uzoq sukunat cho‘kdi. So‘ngra apparat polkovnik Aureliano Buendia yuborgan shiddatli nuqta va tirelarni tera boshladi.

– Ahmoqlikni yig‘ishtir, Xerineldo, – javob qaytardi nuqta-yu tirelar, – avgust oyi bo‘lganidan keyin yog‘adi-da.

Polkovnik Xerineldo Markes anchadan beri ko‘rmagan do‘stining favqulodda keskin javobidan sarosimaga tushdi. Ammo oradan ikki oy o‘tib, polkovnik Aureliano Buendia Makondoga qaytib kelganida, bu sarosima qo‘rquv aralash hayratga aylandi. O‘g‘lining o‘zgarishini ko‘rgan Ursula iztirobga tushgandi. Havo issiq bo‘lishiga qaramay, o‘g‘li yomg‘irpo‘shga o‘ralgan holda, shovqin-suronsiz, mulozimlarsiz paydo bo‘ldi. Uch nafar ma’shuqasini bitta uyga joylashtirdi. Ko‘p vaqtini to‘r belanchagida o‘tkazadigan polkovnik urushning borishi haqida telegraf yo‘llayotgan diploma-

tik maktublar-u, shoshilinch axborotlarni o‘qishga arang vaqt topardi. Bir kuni polkovnik Xerineldo Markes unga chegara shahridagi qo‘shinlarni evakuatsiya qilish yuzasidan buyruq berishini so‘radi. Negaki, qo‘zg‘olonchi qo‘shinlarning u yerda qolishi xalqaro mojaro chiqarishi aniq edi.

– Arzimas gaplar bilan meni bezovta qilma, – buyurdi polkovnik Aureliano Buendia. – Tangrining o‘zidan maslahat so‘ray qol.

Bu urushning eng og‘ir payti edi. Inqilobni boshida qo‘llab-quvvatlagan zamindor liberallar yerga egalik huquqining qayta ko‘rib chiqilishiga xalaqit berish maqsadida konservator zamindorlar bilan maxfiy bitim tuzishdi. Urushda anchagina boylik to‘plagan siyosatchi liberallarning polkovnik Aureliano Buendia qabul qilgan shafqatsiz chora-tadbirlarni ommaviy ravishda muhokama etishlari ham uni loqaydlikdan xalos etolmadi. U besh jilddan iborat sandiqning bir chetida qolib ketgan o‘z she’rlarini ham o‘qimay qo‘ygan edi. Kechqurun yoki tushki uyqu mahali xotinlaridan birini to‘shagiga chorlab, o‘z haqini olgach, toshdek qotib uxlardi, uyqusini shovqin-suron ham buzolmas, telba yuragi mangu umidsizlik azobiga giriftorligini yolg‘iz o‘zi bilardi, xolos. Yurtiga zafar bilan qaytish-u, aql bovar qilmas g‘alabalardan sarxush bo‘lib, g‘oliblikning boshni gangitadigan tubsiz jarligi oldida bosh egdi. U harbiy san’at bo‘yicha ustozi, yo‘lbars terisidan tikilgan libosi katta yoshli odamlarda zavq-shavq, bolalarda hayrat uyg‘otuvchi gersog Malboroning[1] o‘ng yonida o‘tirishni yoqtirardi. O‘shanda polkovnik o‘ziga birorta odamni, hat-

[1] Gersog Malboro (1650–1722) – ingliz harbiy qo‘mondoni va siyosiy arbobi.

to Ursulani ham uch gazdan beriga yaqin yo‘latmaslikka ahd qilgan har bir joyda esa adyutantlari bo‘r bilan doira shaklini chizishardi. Boshqalarning kirishi qat’iy ma’n etilgan bu doiraning markazida turgan polkovnik Aureliano Buendia muxtasar va qat’iy buyruqlar berib, jahon taqdirini hal etardi. General Monkadoni otganidan keyin Manauraga borib qolganida o‘z qurbonining so‘nggi tilagini bajo keltirishga shoshildi: generalning bevasi erining ko‘zoynagini, soat, uzuk, kichik sanamini oldi-yu, biroq polkovnikka uyining ostonasini bosishga ijozat bermadi.

– Kirmang, polkovnik, – dedi u. – Siz urushda qo‘mondonlik qilasiz, o‘z uyimda esa men buyruq beraman.

Polkovnik Aureliano Buendia jahli chiqqanini sezdirmadi, ammo soqchilari bevaning uyini talon-taroj qilib, yondirganlaridan keyin ko‘ngli joyiga tushdi. «Yuragingni ehtiyot qil, Aureliano, – deya ogohlantirdi o‘shanda polkovnik Xerineldo Markes. – Sen tiriklayin chiriyapsan». Ana shu vaqtda polkovnik Aureliano Buendia qo‘zg‘olonchi qo‘shinlar komandirlarining ikkinchi kengashini chaqirdi. Kengashda idealistlar, shuhratparastlar, tavakkalchilar, jamiyatdan surilgan odamlar, jinoyatchilar, hatto davlat mulkini sovurgani uchun jazo olishdan cho‘chib, inqilob tomoniga o‘tgan bir maslahatchi-konservator ham bor edi. Ularning ko‘pchiligi nega jang qilayotganini bilmasdi. E’tiqodda ichki kelishmovchiliklardan portlash arafasida turgan bu bevosh olomon orasida hukmi o‘tadigan yagona kishi general Teofilo Vargas edi. Odamlarni telba mutaassiblarga aylantirishga xizmat qiladigan, makkorlig-u, o‘ta

firibgarlikni o‘zida mujassamlashtirgan bu qo‘pol, savodsiz general hindu qavmidan edi. Polkovnik Aureliano Buendia kengashda qo‘zg‘olonchilarni siyosatdonlarning hiyla-nayranglariga qarshi kurash olib borish uchun birlashtirishni ko‘zda tutgandi. Biroq general Teofilo Vargas rejani buzdi: bir necha soat ichida u eng tajribali qo‘mondonlarda ham ixtilof uyg‘otishga ulgurib, o‘zi bosh qo‘mondonlikni qo‘lga oldi.

– Bu shaytondan uzoqroq yurgan ma’qul, – dedi zobitlariga polkovnik Aureliano Buendia.

– Bunday odam biz uchun harbiy nozirdan ham xavfliroq. Shunda jur’atsiz yoshgina bir kapitan, ikkilana-ikkilana shahodat barmog‘ini ko‘tardi.

– Bu judayam jo‘n ish, polkovnik, – dedi u, – uni o‘ldirish kerak.

Polkovnik Aureliano Buendianing shaxsiy fikridan bir necha soniya ilgarilagan bu taklifning beshafqatligi emas, balki uni izhor qilish shakli polkovnikni taraddudlantirib qo‘ydi:

– Meni bunday buyruq beradi deb kutmanglar, – dedi u.

Haqiqatan ham, u buyruq bermadi, lekin oradan o‘n besh kun o‘tmasdan pistirmaga tushgan general Teofilo Vargas burda-burda qilindi. Polkovnik Aureliano Buendia esa tag‘in bosh qo‘mondonlikni qabul qildi. Hukmdorligi qo‘zg‘olonchilarning boshliqlari tomonidan tan olingan o‘sha kechada u vahimadan cho‘chib uyg‘ondi va ko‘rpa keltirishlarini buyurdi. Suyak-suyagiga singigan, hatto jaziramada ham azob beradigan pinhoniy isitma to polkovnik o‘rganguncha bir necha oy davomida muttasil uyqusiga xalal berardi. Mansabdan sarmast

bo‘lish o‘z-o‘zidan jiddiy norozilik hissi bilan almashdi. Polkovnik isitmadan qutulish chorasini izlar, general Teofilo Vargasni o‘ldirishni maslahat bergan o‘sha yosh zobitni otib tashlashni buyurgani ham kuyib ado bo‘lgan yuragiga malham bo‘lolmadi. Buyruqlar polkovnik hali yuzaga chiqarmasdan turib yoxud bir qarorga kelmasdan burun doim ortig‘i bilan ijro etilardi. U ko‘p yillik hokimiyat tug‘dirgan yolg‘izlik biyobonida adashib, o‘z tayanchini yo‘qotayotganini his qilayotgan edi. O‘zi ishg‘ol qilishga muvaffaq bo‘lgan shaharlardagi olomonning shodiyona qiyqiriqlaridan endi g‘ijinar, go‘yo bu odamlar g‘animlarini ham xuddi shunday olqishlagandek tuyilardi. Qayerda bo‘lmasin, ko‘zi ko‘ziga, tovushi tovushiga o‘xshash o‘spirinlar hadiksirab qutlashar va o‘zlarini uning o‘g‘illari deb atashardi. Shunda g‘alati bir tuyg‘uni his etar, nazarida go‘yoki jismini kimdir behisob ko‘paytirganga o‘xshar, lekin yolg‘izlik tuyg‘usi aslo susaymas, qaytaga battar azob berardi. U hatto shaxsiy zobitlari ham aldayotganiga ishonch hosil qildi.

Axiri gersog Malborodan ham ko‘ngli sovidi. «Eng yaxshi do‘stim, bu – haligina o‘lgan odam», – deya takrorlashni yoqtirardi o‘sha kunlari. U gumonsirashlardan, boshi-keti yo‘q urushning xavfli so‘qmoqlari bo‘ylab yuraverishdan horigan, qancha harakat qilmasin, nuqul bir joyda aylanaverib, tobora qartayar, tobora tinkasi qurir edi. U turadigan bo‘rli doira sarhadi atrofida hamisha kimlardir bo‘lardi. Biriga pul yetishmas, birining bolasi ko‘kyo‘talga giriftor, boshqa biri esa la’nati urushdan bezganidan, nuqul narigi dunyoni orzu qilardi, qolganlari esa bor kuchini to‘plab,

xuddi buyruq olganday qad rostlab turishar va: «Hamma narsa joyida, osoyishtalik, polkovnik», – deya yaltoqlanib, axborot berishardi. Urushdagi eng mudhish narsa – ayni shu osoyishtalik, u ahvol turg‘unligini anglatardi. Yolg‘izlikka mahkum etilgan, endilikda oldindan ko‘ra bilish hissini yo‘qotgan polkovnik Aureliano Buendia, o‘zini to qabrgacha kuzatib boradigan bu isitmadan xalos bo‘lish uchun Makondodan so‘nggi boshpana istab, eski xotiralar gulxani taftida isinishga urinardi. Polkovnik loqayd edi, unga liberallar partiyasining vakillari muhim siyosiy muammolar yuzasidan maslahatlashgani kelishganini xabar qilishganda ham ko‘zini ochmadi, narigi yoniga ag‘darilib qo‘ydi, xolos.

– Fohishalarga ro‘para qiling ularni, – deb to‘ng‘illadi u.

Vakillar – kamzul-u shlyapa kiygan olti nafar advokat jazirama oftobda qolib ketishdi. Axiri, Ursula ularni o‘z uyiga joylashtirdi. Ular yotoqxonaga berkinib, kuni bilan maxfiy yig‘ilish o‘tkazishar, kechasi esa soqchi akkordeonchilar ansamblini so‘rashar va Katarino ishratxonasini egallab olishardi.

– Xalaqit bermanglar, – buyurdi polkovnik Aureliano Buendia. – Men ularga nima lozimligini yaxshi bilaman.

Kutilgan muzokaralar dekabr oyida boshlandi va ko‘pchilik so‘ngsiz bahsga aylanib ketadi, deb o‘ylagan bo‘lsa-da, atigi bir soatga yetar-yetmas tugadi.

Polkovnik Aureliano Buendia bu gal baayni kafandek oq choyshabga o‘ralgan, arvohni eslatuvchi pianolasi bo‘lgan diqqinafas mehmon-

xonaga, adyutantlari chizgan bo‘rli doiraga kirmasdan siyosiy yordamchilari yonidagi kursiga cho‘kdi va yomg‘irpo‘shiga o‘rangancha lom-mim demay, vakillarning qisqa takliflarini tingladi. Ularning iltimoslari quyidagicha edi: birinchidan, liberallar zamindorlarning partiyaga madad berishlarini qayta tiklash, buning uchun yerlariga egalik huquqini taftish qilishdan voz kechish; ikkinchidan, dindorlar o‘rtasida tayanch topish uchun cherkovga qarshi kurashni to‘xtatish; va nihoyat, oila muqaddasligi-yu mustahkamligini saqlab qolish maqsadida qonuniy va noqonuniy tug‘ilgan bolalarni teng huquqli qilib qo‘ymaslik.

– Demak, – deb jilmaydi Aureliano Buendia, vakillar o‘z va’zlarini tugatgach, – biz faqatgina hokimiyat obro‘si uchun jang qilayotgan ekanmiz-da.

– Biz bu tuzatishlarni dasturimizga odob-axloq qoidalari nuqtayi nazaridan kiritdik, – e’tiroz bildirdi vakillardan biri. – Hozir eng muhimi – xalq o‘rtasida ko‘plab xayrixohlarga ega bo‘lish uchun shunday yo‘lni tutdik. U yog‘ini keyin ko‘raveramiz.

Polkovnik Aureliano Buendianing siyosiy maslahatchilaridan biri shoshqaloqlik bilan suhbatga qo‘shildi:

– Mutlaqo aqlga sig‘maydi, – dedi u, – basharti, tuzatishlaringizdan konservatorlarning ham idora usuli yaxshi, deb tan olishga to‘g‘ri keladi. Sizningcha, biz – liberallar xalq orasida obro‘yimizni qo‘shimcha tuzatishlar orqaligina oshirsak, demak, konservatorlar idora usulining busiz ham xalq tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanganini tan olgan bo‘lamiz. Endi bor-yo‘g‘i biz

yigirma yildan buyon millat manfaatlariga qarshi kurashgan ekanmiz-da, deb iqror bo‘lishimiz qoluvdi.

U gapini davom ettirmoqchi edi, polkovnik Aureliano Buendia to‘xtatdi:

– Vaqtingizni behudaga o‘tkazmang, doktor, kesatdi u. – Muhimi, biz shu kundan boshlab faqat hokimiyat uchun kurashamiz! – U vakillar uzatgan qog‘ozlarni olib, imzo chekishga hozirlandi. – Bas, shunday ekan, – dedi u, – nimayam qilardik, e’tirozimiz yo‘q.

Bo‘lib o‘tgan voqeadan esankirab qolgan zobitlar bir-birlariga taajjublanib qarashdi.

– Meni kechiring-u, polkovnik, – dedi sekin polkovnik Xerineldo Markes, – ammo bu xoinlik.

Polkovnik Aureliano Buendia siyohga allaqachon botirgan perosini havoda muallaq tutib turdi-da, bu shakkok do‘stiga hamla qildi.

– Qurolingizni menga topshiring!

Polkovnik Xerineldo Markes shartta o‘rnidan turib, qurolini stolga qo‘ydi.

– Kazarmaga boring, – dedi polkovnik Aureliano Buendia. – Siz inqilob tribunalining ixtiyoriga topshirilasiz.

So‘ngra deklaratsiyaga imzo chekib, vakillarga uzatarkan:

– Janoblar, mana qog‘ozlaringiz, – dedi, – unumli foydalaning.

Ikki kundan so‘ng, davlatga xiyonat qilishda ayblangan polkovnik Xerineldo Markes otuvga hukm qilindi. Yana to‘shagida o‘ralib, xayolga cho‘mgan polkovnik Aureliano Buendia do‘stining bir qoshiq qonidan kechishini iltijo qilib kel-

ganlarga e’tibor bermadi.

O‘g‘li hech kimni kiritmaslikka buyruq bergan bo‘lsa-da, Ursula qatl arafasida uning yotog‘iga kirdi. Qora kiyingan, nihoyatda basavlat ko‘rinadigan Ursula uch daqiqalik uchrashuv davomida tik turdi.

– Bilaman, sen Xerineldoni otib tashlaysan, – dedi u xotirjamlik bilan, – bunga xalal berish qo‘limdan kelmaydi. Ammo seni ogohlantirib qo‘ymoqchiman, ota-onamning xoki, Xose Arkadio Buendianing xotirasi haqi, Xudo oldida ont ichamanki, agar uning o‘ligini ko‘rsam, qayerda bo‘lmayin, seni topib, mana shu qo‘llarim bilan o‘ldiraman!

U javobni ham kutmay, xonadan chiqayotgan o‘g‘liga:

– Sen naq cho‘chqa dumli bo‘lib tug‘ilgan odamday ish tutyapsan, – deya so‘zini yakunladi.

Polkovnik Xerineldo Markes Amaranta xonasidagi kechalarni xotirlab, o‘z xayollariga mustag‘riq holda o‘tkazayotgan bu uzun tunda, polkovnik Aureliano Buendia yolg‘izlikning qalin zirhini yorib chiqishga muvaffaq bo‘ldi. Otasi muzni ko‘rsatishga olib borgan o‘sha uzoq kechadan keyin taqdir unga hadya etgan baxtiyor onlar zargarlik ustaxonasida o‘tgan bo‘lib, polkovnik u yerda oltin baliqchalar tayyorlar edi. U oddiy hayotning afzalliklarini kashf etmasidan burun, salkam qirq yilcha kechikib bo‘lsa-da, o‘ttiz ikkita urushning tugunini yechgan, bir necha o‘limga chap bergan, shuhrat balchig‘iga cho‘chqadek ag‘anagan edi.

Tong mahali, qatlga bir soat qolganida u uyqusizlikdan ado bo‘lay deganda, kishanlar saqla-

nadigan xonaga kirdi.

– O‘yin tugadi, do‘stim, – dedi polkovnik Xerineldo Markesga, – aroqxo‘rlarimiz seni otguncha bu yerdan ketaylik.

Polkovnik Xerineldo Markes uning muomalasidan nafratlanganini yashirolmadi.

– Yo‘q, Aureliano, – javob berdi u, – sening sotqinga aylanib qolganingni ko‘rganimdan o‘lganim afzal.

– Sen buni ko‘rmaysan ham, – dedi polkovnik Aureliano Buendia. – Etigingni ilib ol, keyin bema’ni urushni tugatishda menga yordamlashasan.

Urushni tugatish – uni boshlashdan ming chandon og‘irligini u hali bilmasdi. Hukumatni qo‘zg‘olonchilar manfaatini ko‘zlaydigan sulh tuzishga majburlashga rosa bir yil ketdi, o‘z tarafdorlariga bunday talablarni qabul etishlari shartligini tushuntirishga yana bir yil kerak bo‘ldi. U g‘alabani sotishni istamagan shaxsiy zobitlarining isyonini bostirishda mislsiz yovuzliklarga borib yetdi va ularning qarshiligini tamoman sindirib tashlash uchun, hatto dushman qo‘shinlarini ham ishga solishdan hazar qilmadi.

Hayotida hech qachon bunchalik keskin kurash olib bormagan edi. Siyosatdonlar sharoitga qarab, bemalol teskari tomonga burib yuboradigan mavhum g‘oya va shiorlar uchun emas, balki o‘z erki uchun kurash olib borayotganiga ishonch unga jo‘shqin shijoat bag‘ishlardi. Ilgari g‘alaba uchun qanday kurashgan bo‘lsa, mag‘lubiyat uchun ham ana shunday zo‘r e’tiqod-u sabot bilan jang qilgan polkovnik Xerineldo Markes uni behuda jasurlikda ayblardi.

– Tashvishlanma, – deb kulardi polkovnik

Aureliano Buendia. – O‘lish ko‘pchilik o‘ylaganidek, unchalik oson emas.

Bu gap uning o‘ziga nisbatan to‘g‘ri edi. U qazo soati oldindan belgilab qo‘yilganiga ishonar va bu ishonch uni urushning xavf-xatarlaridan eson-omon asrar, ammo oxir-oqibatda unga mag‘lubiyatga erishish imkonini berardi, bu esa g‘alabaga nisbatan ancha og‘ir bo‘lib, juda ko‘p qon-u qurbon talab qilardi.

Urushda o‘tkazgan yigirma yillik umrida polkovnik Aureliano Buendia uyiga tez-tez borib turardi. Ammo doimo qayergadir shoshib turishi, atrofini o‘ragan harbiy mulozimlarning salobati, hatto Ursulani ham loqayd qoldirmagan afsonaviy shuhrati bois bora-bora qarindoshlariga yot bo‘lib qoldi. Polkovnik Makondoga so‘nggi bor kelib, uchala ma’shuqasi bilan alohida uyni ijaraga olganida, o‘z oilasiga bor-yo‘g‘i ikki yoki uch marta mehmonga bordi, xolos. Go‘zal Remedios va urush eng qizigan paytda tug‘ilgan egizaklar uni deyarli tanishmasdi. Amaranta yoshligi oltin baliqchalar tayyorlash bilan o‘tgan akasi bilan qarindoshlari o‘rtasida uch gazlik tafovut o‘rnatgan afsonaviy sipoh ikkovi bir odamligini xayoliga singdirolmasdi. Ammo sulhning yaqinligi haqida mish-mishlar ko‘paygach, hammalari polkovnik Aureliano Buendianing tez orada uyga qaytishi va qarindosh-urug‘larini tushunadigan odamga aylanishi xususida o‘ylashardi. Buning ustiga unda ham qarindoshlik tuyg‘ulari qayta uyg‘ona boshlagandi.

– Xayriyat-ey, – dedi Ursula. – Uyimiz tag‘in erkak kishiga yolchiydigan bo‘ldi.

Ular polkovnikni bir umrga yo‘qotishgani haqida ilk bor Amarantada shubha paydo bo‘ldi.

Vaqtincha sulh tuzilishiga bir hafta qolganida, polkovnik uyga kirib keldi: mulozimlarsiz, shohona anjomidan qolgan yagona yodgorlik – she'rlari solingan sandiqcha hamda xachirning egar-jabdug'ini ikki nafar mulozimiga orqalatib, xona eshigi yonidan o'tayotganida, Amaranta akasini chaqirdi. Polkovnik qarshisida kim turganini eslay olmayotganga o'xshab ko'rindi.

– Men Amarantaman, – dedi qiz chehrasi yorishib, so'ng qora bog'ichli qo'lini ko'rsatdi. – Qarang!

Polkovnik Aureliano Buendia bundan ancha ilgari – o'limga hukm etilib, Makondo ko'chalari bo'ylab o'tayotganida, qizning latta bog'langan qo'lini ko'rib jilmayib qo'ygandi.

– Dahshat, – dedi polkovnik. – Vaqt shuncha tez o'tib ketibdi-ya!

Hukumat qo'shinlari uy yoniga soqchilar qo'yishga majbur bo'lishdi. Kattaroq pulga sotilish uchun urushni ataylab cho'zishda ayblangan polkovnik Aureliano Buendia uyga tahqirlangan holda qaytgandi. Uning a'zoyi badani bezgak va sovuqdan qaqshab titrar, qo'ltig'i ostiga yana chipqon toshib ketgan edi. Bundan olti oy ilgari vaqtincha sulh tuzilishidan voqif bo'lgan Ursula o'g'lining yotog'ini ochib, xonani tozalab, o'g'lim marhuma Remediosning eskirgan qo'g'irchoqlari orasida qarib-qartayguncha tinchgina yashagani keladi, deb o'ylagan va hamma kunjaklarga mirra[1] shirasini tutatgan edi. Aslida esa o'g'li so'nggi ikki yilda hayot bilan hisob-kitob qilib qo'ygan va hatto keksalik davri uning uchun allaqachon ortda qolib ketganday edi. U onasi alohida mehr

[1] Mirra – xushbo'y shira olinadigan daraxt, xushbo'y shira.

bilan yig‘ishtirgan zargarlik ustaxonasi yonidan o‘tayotib, hatto eshik qulfidagi kalitga ham e’tibor bermadi. Xonadonda yuz bergan qalbini titratuvchi xaroblik uning shuuriga borib yetmadi. Yuragini na devorlarining ko‘chgan suvoqlari, na burchaklarni bosgan o‘rgimchak uyalari, na o‘z holiga tashlab qo‘yilgan begoniyalar, na yog‘ochxo‘r chumolilar ilma-teshik qilib yuborgan to‘sinlar va na eshiklar yondorini po‘panak bosib ketgani achintirdi. Uning tosh ko‘ngli ayriliq tuyg‘usi qo‘ygan ayni tuzoqlarning birortasiga ilinmadi. Polkovnik uyga xuddi yomg‘irdan qochgan odamdek kirdi va etigini ham yechmay, yomg‘irpo‘shiga o‘ralib, peshayvonda o‘tirgancha, gullarni yuvayotgan yomg‘irni kechasi bilan kuzatib chiqdi. Shunda Ursulaga o‘g‘lining bu yerda uzoq yashamasligi ayon bo‘ldi. «Balki, yana urushni kutayotgandir, – o‘yladi u, – agar urush bo‘lmasa, demak, boshqa bir ajalga uchraydi». Bu fikr shunchalar aniq va ishonarli tuyildiki, shu bois, Ursula uni bashoratday qabul qildi.

Kechki ovqat paytida Aureliano Ikkinchi o‘ng qo‘liga non, chap qo‘liga qoshiq oldi. Uning egizak ukasi Xose Arkadio Ikkinchi nonni chap qo‘liga, qoshiqni esa o‘ng qo‘liga oldi. Ikkovining harakatlari shu qadar mos ediki, ular yuzma-yuz o‘tirgan egizaklar emas, balki bir odamning haqiqiy tusi va yoki ko‘zgudagi aksiday taassurot qoldirardi. Ammo polkovnik bu holatni payqamadi. U atrofdagilarga shunchalar yot ediki, hatto oshxona eshigi yonidan qip-yalang‘och holda o‘tgan go‘zal Remediosga ham e’tibor bermadi. Faqat birgina Ursula uning xayolini buzishga jur’at qildi:

– Agar sen yana ketishga taraddud ko‘rayot-

gan bo‘lsang, – dedi u, – aqalli shu kechada qay ko‘rinishdaligimizni eslab qolishga urin.

Polkovnik Aureliano Buendia qalbining qanchalar qashshoqlashib qolganini birgina Ursula payqaganini tushundi; u ajablanmadi, lekin uzoq yillar davomida ilk bor Ursulaga tik qarashga jur’at etdi. Onasining yuzini son-sanoqsiz ajinlar qoplagan, tishlari sarg‘aygan, sochlari xashakday quruq va tussiz bo‘lib, qarashida hayrat sezilardi. Aureliano Buendia uning ayni siymosini o‘zi esda saqlab qolgani – bolaligida qaynoq sho‘rva solingan xurmacha polga tushib ketajagini oldindan aytgan va xurmacha haqiqatan ham qulab, chilparchin bo‘lgan kundagi siymosi bilan taqqoslay boshladi. U nogahon onasining yuzida yarim asrlik umr bosgan muhrni – timdalangan izlar, qadoqlar, jarohat va chandiqlarni ko‘rdi, biroq bu qayg‘uli alomatlar ko‘nglida achinish hissini uyg‘otmadi. Shunda u yuragidan ezgu tuyg‘ularni ham barbod qilgan joyni topishga so‘nggi bor urindi-yu, lekin topolmadi. Ilgarilari uyatga o‘xshash bir tuyg‘u bor edi va ahyon-ahyonda beixtiyor onasi tomon talpinardi. Ammo urush bor mehrni quritib qo‘ygan edi. Hatto xotini Remedios ham hozir unga xuddi qizi tengi yot bir siymo bo‘lib gavdalanardi. Muhabbat sahrosida uchragan va uning naslini butun qirg‘oq bo‘ylab sochib yuborgan son-sanoqsiz ayollarning birortasi ham polkovnikning qalbida hech qanday iz qoldirmagan edi. Odatda, ayollar tunda kelishib, tongga yaqin chiqib ketishar, ertasiga esa u shunchaki qondirilgan hirsdan o‘zga narsani eslolmasdi ham. Polkovnik akasi Xose Arkadioga bo‘lgan mehrinigina bus-butun saqlab qoldi,

chunki bu tuyg‘u sevgi emas, balki harifxonalik hissi tufayli tug‘ilgan edi.

– Afv eting, – uzr so‘radi u Ursulaning talabidan so‘ng, – urush butunlay holdan toydirdi.

Ertasiga barcha buyumlarini yo‘qotishga kirishdi. Zargarlik ustaxonasida faqat o‘ziga tegishli bo‘lmagan buyumlarga tegmadi, kiyimlarini mulozimlariga ulashdi, qurolini esa, xuddi Prudensio Agilyarni o‘ldirgan otasi nayzasini ko‘mib tashlaganidek, qilmishidan o‘kinganicha, hovliga ko‘mdi. O‘ziga bittagina o‘q bilan to‘pponchani olib qoldi. Ursula hech narsaga aralashmadi. U faqat bir marta o‘g‘li mehmonxonada osig‘liq turgan Remediosning yonidagi chirog‘i mudom o‘chmaydigan suratini olib tashlamoqchi bo‘lganidagina qarshilik ko‘rsatdi.

– Bu surat allaqachonoq seniki emas, – dedi Ursula, – u oilamizning eng muqaddas merosi.

Vaqtincha sulh arafasida uyda polkovnik Aureliano Buendiani eslatuvchi birortayam narsa qolmaganda u Santa Sofiya de la Pyedad pechka yoqishga hozirlik ko‘rayotgan novvoyxonaga she’rlari solingan sandiqni ko‘tarib keldi.

– Manavini tutantiriq qila qol, – dedi unga sarg‘ayib ketgan qog‘ozlar o‘ramini uzatib, – bunday eski-tuski narsalar judayam yaxshi yonadi.

Kamgap-u ko‘ngilchan, hatto o‘z o‘g‘illarining ham ra’yini qaytarmaydigan Santa Sofiya de la Pyedadning nazarida, polkovnik unga shakkoklik qilishni taklif etayotganday tuyildi.

– Bu muhim qog‘ozlar-ku, – dedi ayol.

– Yo‘q, – deya e’tiroz bildirdi polkovnik, – bularni odam faqat o‘zi uchun yozadi.

– Unday bo‘lsa, ularni o‘zingiz yoqib tashlay qoling, polkovnik, – dedi ayol.

Polkovnik nafaqat qog‘ozlarni yoqdi, balki sandiqni bolta bilan chopib, payrahalarigacha olovga tashladi. Bu voqeadan bir necha soat avval uni Pilar Ternera yo‘qlab kelgandi. Polkovnik Aureliano Buendia Pilar Terneraning bunchalar qarib, semirib ketgani va kulgisi ham avvalgi jarangini yo‘qotganidan ajablandi, ayni chog‘da uning folbinlik mahorati nechog‘lik oshganidan hayratga tushdi. «Og‘zingni ehtiyot qil», – deb maslahat berdi Pilar Ternera. Polkovnik o‘yga toldi: «Axir, o‘tgan yili shon-shavkatim ayni gullagan bir paytda Pilar Ternera aytgan xuddi shu so‘zlar hayratomuz bashorat bo‘lib chiqmaganmidi, axir?» Pilar Ternera bilan uchrashuvdan so‘ng, polkovnik hozirgina chipqonlaridan yiring siqib chiqargan shaxsiy tabibini chaqirtirdi va sinchkovligini bildirib qo‘ymaslikka urinib:

– Yuragim qayda joylashganini ko‘rsatib ber, – deb so‘radi.

Shifokor uning yurak urishini tingladi-da, yodli paxta bilan ko‘kragiga doiracha chizib qo‘ydi.

Vaqtincha sulhga imzo chekilgan o‘sha seshanba sovuq va seryomg‘ir bo‘ldi. Polkovnik Aureliano Buendia bu safar oshxonaga har galgidek soat beshda emas, sal barvaqtroq keldi va odatdagidek bir finjon shakarsiz qahva ichdi.

– Sen xuddi mana shunday kunda dunyoga kelganding, – dedi unga Ursula. – Ochiq ko‘zlaring hammamizni qo‘rqitib yuborgandi.

U onasining gaplariga e’tibor bermadi, chunki saf-saf tizilgan askarlarning erta tong sukuna-

tini buzayotgan qadam tovushlari, ogohlantirish-u, uzuq-yuluq berilayotgan buyruqlariga quloq solayotgan edi. Umri jangi jadallarda kechgan polkovnik Aureliano Buendia allaqachon bu ovozlarga koʻnikkanligiga qaramay, hozir xuddi oʻspirinligida yalangʻoch ayolni ilk bor koʻrgandagidek tizzalari qaltirab, eti uvushganini sezdi. Agar oʻsha ayolga uylanganida, urush-u shuhratdan bexabar, oddiy hunarmand – baxtiyor odam boʻlib qolishi mumkinligini taxmin qilardi. Soat oltida polkovnik Xerineldo Markes bir guruh qoʻzgʻolonchi zobitlar bilan kirib kelganida, u odatdagiga nisbatan yanada mungʻaygan, xayolchan-u gʻarib koʻrinardi. Ursula polkovnikning yelkasiga yangi yomgʻirpoʻsh yopishga chogʻlandi:

– Hukumat odamlari nima deb oʻylashlari mumkin, – deya avradi u, – hatto yomgʻirpoʻshga ham puli qolmaganidan taslim boʻlayotir, degan xayolga borishadi-ku!

Aureliano Buendia yomgʻirpoʻshni kiymadi, lekin eshikdan chiqayotganida, osmondan sharillab quyilayotgan yomgʻirni koʻrib, eski shlyapasini olishga koʻndi.

– Aureliano, – deb iltimos qildi Ursula, – agar u yerda qiynalsang, albatta meni eslagin.

Polkovnik bunga javoban parishon tabassum qildi, barmoqlari yozilgan qoʻlini tepaga koʻtarib, soʻz bergan boʻldi-yu, lom-mim demay ostona hatladi. Ortidan esa butun shahar boʻylab ergashgan dagʻdagʻa, ta’na-yu la’natlar tomon yurdi. Ursula endi umrining oxiriga dovur eshikni ochmaslikka qaror qilib, loʻkidonni surib qoʻydi.

– Biz bu uyning eshiklari berk ibodatxonasida chirib ketamiz, – oʻyladi u. – Xokka aylana-

miz, ammo bu razil odamlarga hech qachon ko‘z yoshimizni ko‘rsatmaymiz.

U o‘g‘lining xotirasiga daxldor biror narsa topishga urinib ko‘rdi, ammo uyning eng xilvat burchaklaridan ham hech vaqo topa olmadi.

Marosim Makondodan yigirma chaqirim narida, ulkan seyba daraxti ostida o‘tdi, keyinroq uning atrofida Neerlandiya shahriga asos solindi. Hukumat va partiya a’zolari-yu qo‘zg‘olonchilarning qurollarini yig‘ishtirishga vakil qilib yuborilgan delegatsiyaga rahbarlikka tayyorgarlik ko‘rayotgan, yomg‘ir to‘zitib yuborgan kaptarlar to‘dasini eslatadigan oq libosli qizlar to‘dasi shovqin-suron ko‘tarib xizmat qilardi. Polkovnik Aureliano Buendia tullagan, isqirt bir xachirni minib keldi. Uning soch-soqoli o‘sib ketgandi. Polkovnik shirin xayollari puchga chiqqanidan emas, balki chipqonlarining og‘rig‘idan azob chekar, chunki endi mutlaqo umidsiz, barcha shuhrat-u shuhratparastligini allaqachon unutgandi. Uning istagiga binoan, na mushaklar otildi, na do‘mbiralar yangradi, na tantanali qo‘ng‘iroqlar jarangladi, na «ura!» hayqiriqlari eshitildi va na umuman, vaqtinchalik sulhning noxush tabiatini buzishga xizmat qiluvchi birorta boshqa ko‘rinish yuz berdi. Aureliano Buendiani rasmga olgan daydi suratkashni, hatto avlodlarga qolishi mumkin bo‘lgan suratga ishlov berishga ham qo‘ymay, negativni yo‘q qilishga majbur etishdi.

Vaqtinchalik sulh tuzish marosimi boshlandi. Vakillar tuzgan sirk chodirining qoq markaziga o‘rnatilgan oddiy stol atrofida o‘tirishar, atrofda esa polkovnik Aureliano Buendiaga eng so‘nggi damgacha sodiq qolgan zobitlar tik turishardi.

Respublika prezidentining shaxsiy vakili imzolarni to‘plashdan oldin taslim bo‘lish haqidagi hujjatini o‘qib eshittirmoqchi bo‘lganida, polkovnik bunga qarshi chiqdi.

– Vaqtni rasmiyatchilik uchun sarflamaylik, – dedi u hujjatni o‘qimay imzo chekishga shaylanib.

Shunda zobitlardan biri chodirning mudroq sukunatini buzdi:

– Polkovnik, – dedi u, – bizga iltifot qilib, birinchi bo‘lib qo‘l qo‘ymasangiz.

Polkovnik Aureliano Buendia ko‘ndi. Hatto peroning qog‘ozda qitirlashidan qanaqa harf yozilayotganini anglab olish mumkin bo‘lgan teran sukunat ichra stol atrofini aylanib chiqqan bo‘lsa-da, hujjatdagi birinchi qator hamon bo‘sh edi. Nihoyat, polkovnik Aureliano Buendia uni to‘ldirishga hozirlandi.

– Polkovnik, – dedi zobitlaridan boshqa biri, – o‘zingizni sharmandalikdan saqlab qolishingizga hali imkoniyat bor.

Polkovnik Aureliano Buendia pinak buzmay, hujjatning birinchi nusxasiga imzo chekdi. So‘nggi nusxaga qo‘l qo‘yayotganida, ikkita sandiq ortilgan xachirning no‘xtasidan tutgan qo‘zg‘olonchi qo‘shinlar zobiti chodir yonida paydo bo‘ldi. O‘zining o‘ta yoshligiga qaramay, bu zobit jiddiy va vazmin odamga o‘xshab ketardi. U qo‘zg‘olonchilarning Makondo okrugi xazinaboni edi. Xazinabon bu yerga vaqtida yetib kelish uchun ochdan o‘layozgan xachirni yetaklab, olti kunlik mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgandi. U xachir ustidagi sandiqlarni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan tushirib, ularning qopqog‘ini ochdi-da, stolga birin-ketin yetmish ikki dona tilla g‘isht chiqa-

rib qo‘ydi. Bu – bor-yo‘qligini hammalari unutib yuborgan katta boylik edi. Oxirgi yili markaziy qo‘mondonlik barbod bo‘lgan, inqilob esa boshliqlarning qonli raqobatiga aylangan, bu umumiy tartibsizlikda hech kim hech narsa uchun javob bermasdi. Qo‘zg‘olonchilarning g‘isht shaklida quyulib, so‘ng usti loy bilan qoplangan oltinlari nazoratsiz qolib ketgandi. Polkovnik Aureliano Buendia yetmish ikki oltin g‘ishtning barini kapulyatsiya[1] hujjatiga zo‘rlab kiritdi va hech qanday muhokamaga yo‘l qo‘ymasdan, imzo chekdi. Tinka-madori qurigan xazinabon yigit hanuzgacha tik turar va uning tiniq, shakar qiyomiga o‘xshash sarg‘ish ko‘zlari polkovnikka qadalgan edi.

– Yana nima? – deb so‘radi polkovnik Aureliano Buendia.

Yosh zobit tishini tishiga qattiq bosdi.

– Tilxat, – dedi u.

Polkovnik Aureliano Buendia unga tilxat yozib berdi. Keyin bir kosa sharbat ichdi va rohibalar taklif qilgan bir bo‘lak pishiriqni yedi-da, so‘ng o‘ziga ajratilgan chodiriga kirib ketdi. Bu yerda u ko‘ylagini yechdi, karavotning bir chetiga o‘tirdi va kunduzi soat uchdan o‘n besh daqiqa o‘tganida, shaxsiy tabibi ko‘kragiga yod bilan chizgan doiraga to‘pponchasidan o‘q uzdi. Xuddi shu mahal Ursula o‘choqda ancha vaqtdan buyon osig‘liq turgan xumchadagi sutning hadeganda qaynamayotganligidan hayratlanib, idishning qopqog‘ini ko‘tardi-yu, unda sut o‘rniga birtalay qurt bijg‘iyotganini ko‘rdi.

– Aurelianoni o‘ldirishdi! – deb xitob qildi u.

---

[1] Kapitulyatsiya – so‘zsiz ta‘lim olish..

So‘ng hovliga nazar tashlab, o‘lgan kunidan beri yanada keksaygan, g‘amgin, yomg‘irda shalabbosi chiqqan Xose Arkadio Buendiani ko‘rdi. – Uni nomardlik bilan o‘ldirishdi, – dedi Ursula. – Bechoraning qovog‘ini bostiradigan odam topilmadi.

Ursula tunda, go‘yoki qulayotgan yulduzlardek osmonni shiddat bilan kesib o‘tayotgan yarqiroq, to‘q sariq halqalarni ko‘rdi va ularni o‘lim alomati, deb o‘yladi. Qondan qotib qolgan yomg‘irpo‘shga o‘ralgan Aureliano Buendiani olib ketishganida, ona kashtan tagida, erining tizzalarini quchib, hanuzgacha bo‘zlardi. Polkovnikning ko‘zlarida g‘azab alangalanardi.

Polkovnik xavfdan xoli edi. O‘q teshgan yarasi shu qadar tekis-u toza ediki, tabib yod surkalgan chiyratma ipni ko‘kragidan suqib, orqasidan chiqarib oldi. «Men uchun eng nodir yara, – dedi tabib mamnuniyat bilan, – o‘q birorta a’zoga shikast yetkazmay o‘ta oladigan birdan bir joy aslida shu». Polkovnikni rohibalar o‘rab olishgan edi. Unga achinish bilan boqayotgan qizlar g‘oyat g‘amgin qo‘shiqlar kuylashardi. Polkovnik shundagina Pilar Terneraning folini mazaxlash niyatida to‘pponchani naq og‘ziga qo‘yib otmaganidan pushaymon bo‘ldi.

– Agar men yana hokimiyatga ega bo‘lganimda, – dedi u tabibga, – sizni sudsiz va tergovsiz otib tashlardim. Mening hayotimni saqlab qolganingiz uchun emas, balki meni kalaka qilganingiz uchun.

Amalga oshmay qolgan o‘lim Aureliano Buendianing obro‘sini bir soat ichida qayta tikladi. Kechagina polkovnik Aureliano Buendiani urushni devorlari oltin g‘ishtdan tiklangan xo-

naga almashtirganligi haqidagi latifani o‘ylab topganlar, bugun uning o‘z joniga qasd qilishga uringanini g‘oyat oliyjanob ish, deb baholadilar va jafokash, deb e’lon qildilar. Keyinroq, u respublika prezidenti tomonidan taqdim etilgan «Hurmat» ordenini olishdan bosh tortganida uning huzuriga liberallarga mansub eng ashaddiy dushmanlari kelishib, sulh shartlarini buzib, yangi urush boshlab yuborishni iltimos qilishdi. Uy odamlar avvalgi gunohlarini yuvish umidida jo‘natgan sovg‘alarga to‘lib-toshdi. Sobiq quroldosh do‘stlarining birmuncha kechikib bo‘lsada, qo‘llab-quvvatlayotganidan iyigan polkovnik Aureliano Buendia ularning iltimoslarini qondirish imkoniyatini inkor etmasdi. U bir zamon yangi urush g‘oyasidan shunchalar ruhlandiki, hatto Xerineldo Markes ham, polkovnik urush boshlash uchun bahona kutyapti, degan xayolga bordi. Respublika prezidenti urush qatnashchilari bo‘lmish liberallar-u konservatorlarga, to ularning har birining ishini maxsus komissiya ko‘rib chiqib, kongress mablag‘ ajratish haqidagi qonunni tasdiqlamaguncha harbiy nafaqa belgilashga ko‘nmaganida, chindan ham bahona topilardi. Polkovnik Aureliano Buendia g‘azabini socha boshladi: «Bu – zo‘ravonlik! Nafaqa olgunicha, ular qarib, o‘lib ketishadi». Sog‘ayish vaqtida Ursula olib bergan tebranma karavotni ilk bor tark etdi va yotoqxonaning u yog‘idan bu yog‘iga borib-kelib, respublika prezidentiga yuborish uchun mardonavor nomani aytib yozdirdi. Hech qayerda e’lon qilinmagan ushbu telegrammada prezidentni Neerland sulhi shartlarini buzishda aybladi va agar nafaqaga mablag‘

ajratish haqidagi masala yaqin ikki hafta ichida hal etilmasa, hayot-mamot urushi e'lon qilajagini bildirib, do'q urdi. Uning talablari shu qadar haqqoniy ediki, konservatorlar partiyasiga mansub urush ishtirokchilari ham qo'llab-quvvatlashlariga umid bog'lasa bo'lardi. Ammo hukumat javob o'rniga, polkovnikni qo'riqlovchi harbiy soqchilarni ko'paytirdi va uning yoniga kirishni man qildi. Har ehtimolga ko'ra, qo'zg'olonchilarning hukumat uchun xavfli hisoblangan boshqa komandirlariga nisbatan ham ana shunday tadbirlar qo'llanildi. Bu tadbirlar o'z vaqtida, keskin va muvaffaqiyatli olib borildiki, vaqtinchalik sulh tuzilganidan ikki oy o'tgach, polkovnik Aureliano Buendia batamom oyoqqa turganida, uning barcha eng sodiq yordamchilari o'ldirilgan, yo surgun qilingan bo'lib, boshqalari hukumatga sotilib ketgan edi.

Polkovnik Aureliano Buendia yotoqxonasidan dekabr oyida chiqdi-yu, yangi urush haqida hatto o'ylash ham mumkin emasligiga amin bo'ldi. Keksa Ursula yoshlarga xos g'ayrat bilan butun uyni yana bir bor yangiladi. «Endi mening kimligimni bilib qo'yishsin, – dedi u o'g'li tirik qolajagini xabar qilishgan kuni. – Mehmonnavozlikda bu telba xonadondan o'tadigan birorta ham uy bo'lmaydi». U xonalar polini yuvish-u bo'yash, jihozni almashtirish uchun ko'rsatma berdi, bog'ni tartibga keltirdi, yangi gul ko'chatlari o'tqazdi va ko'zni qamashtiruvchi yoz yog'dusi hatto yotoqxonalarga ham taralsin, deb barcha eshig-u derazalarni lang ochib qo'ydi. So'ngra uzoq davom etgan azadorlik muddati tugagani hammaga ma'lum qildi. Egnidagi eski qora ko'ylagini

yechib, yoshlarga o‘xshab yasandi. Uyda yana pianolaning sho‘x sadolari yangray boshladi. Ularni eshitgan Amaranta Petro Krespini, peshayvondagi tungi suhbatlarni, lavanda hidini esladi va uning so‘lg‘in yuragi tubida yana adovat uyg‘ondi; bu g‘oyat tiniq, vaqt o‘tishi bilan yanada yoqimliroq tus olgan bir adovat edi. Bir kuni kechqurun mehmonxonani yig‘ishtirayotgan Ursula uylarini qo‘riqlayotgan askarlardan ko‘maklashishni so‘radi. Ularning komandiri yoshgina zobit ruxsat berdi. Ursula askarlarga har kuni yangi-yangi yumushlar topshirardi. Ularni ovqatga chorlar, kiyim-kechak va poyabzal hadya qilar, o‘qish-yozishni o‘rgatardi. Keyinroq, hukumat soqchilikni bekor etgach, askarlardan biri xonadonda yashab qolib, Ursulaga ancha yillar xizmat qildi. Go‘zal Remediosning iltifotsizligidan jinni bo‘lib qolay degan yosh zobitning o‘ligini esa yangi yilning birinchi kuni tongida qizning derazasi ostidan topishdi.

* * *

Oradan ko‘p yillar o‘tdi va o‘lim to‘shagida yotgan Aureliano Ikkinchi o‘zi to‘ng‘ich farzandini ko‘rish uchun yotoqxonaga kirgan o‘sha yomg‘irli iyun kunini esladi. O‘g‘li majmag‘il-u yig‘loqi bo‘lib tug‘ilganiga qaramay, Buendialar avlodiga zarracha o‘xshamasa-da, otasi chaqaloqqa qanaqa ism berish to‘g‘risida uzoq o‘ylab o‘tirmadi.

– Biz uni Xose Arkadio deb ataymiz, – dedi u.

Aureliano Ikkinchi bundan bir yil oldin uylangan Fernanda del Karpio ismli go‘zal ayol erining fikriga qo‘shildi. Ursula esa aksincha, iztirobli tashvishini yashirolmasdi. Uning nazarida,

bu oilaning uzoq tarixi davomida bir xil ismlarning surunkali takrorlanishida yomon bir sinoat borday edi. Aurelianolar odamovi va zehni o‘tkir bo‘lib yetishar, barcha Xose Arkadiolar jo‘shqin fe’l-atvori, uddaburonligi bilan ajralib turishar va ularning qismatida, albatta, nedir fojia yuz berardi. Faqat Xose Arkadio Ikkinchi bilan Aureliano Ikkinchi bundan xoli edi. Bolalikda bir-biriga juda ham o‘xshab ketishar va ikkisi ham shu qadar tek turmas ediki, hatto Santa Sofiya de la Pyedad ham ularni ajratolmasdi. Cho‘qintirish kuni Amaranta ularning qo‘llariga ismlari bitilgan bilaguzuk taqdi va ikkoviga ism-shariflarining bosh harflari tikib yozilgan ikki xil rangda kostyum kiydirdi, ammo egizaklar maktabga borganda kiyim-boshlari, bilaguzuklari hatto ismlarini ham almashtiradigan qiliq chiqarishdi. Xose Arkadio Ikkinchini ko‘k ko‘ylagidan ajratishga odatlanib qolgan muallim Melchor Eskalona uning qo‘lida «Aureliano Ikkinchi» yozuvi bor bilaguzukni ko‘rib, jig‘ibiyroni chiqib ketdi. Oq ko‘ylak kiygan boshqa bola esa bilaguzugiga «Xose Arkadio Ikkinchi» deb yozilganiga qaramay: «Men Aureliano Ikkinchi bo‘laman», deya ishontirardi. Shundan beri odamlar egizaklardan birovining nomini atab chaqirishga botinolmay, xato qilib qo‘yishdan cho‘chishardi... Ursula hatto egizaklar ulg‘ayishib, hayot turlicha qilib qo‘yganida ham, ular bir-birining kiyim-kechaklarini kiyib o‘ynashgan paytida aqldan adashib, oxir-oqibatda bir umrga almashinib qolmadimikan, degan gumonga borardi. Balog‘at yoshiga qadar egizaklar xuddi ikki sinxron mexanizmga o‘xshardi. Ular bir vaqtning o‘zida uyg‘onishar, bir vaqtning o‘zida yuvinishar, bir xil kasallik bilan og‘ri-

shar, hatto bir xil tushlar koʻrishardi. To Santa Sofiya de la Pyedad ulardan biriga kosa sharbat bermagunicha va u sharbatni hoʻplayotgan paytda ikkinchisi «sharbat shirin emas» deb aytmagunicha, uydagilar haqiqatni bilishmas, egizaklar ularni laqillatish maqsadida oʻzaro xatti-harakatlarini oldindan kelishib olishyapti, deb oʻylashardi. Rostdan ham kosaga shakar solishni esidan chiqargan Santa Sofiya de le Pyedad bu haqda Ursulaga maʼlum qildi. «Ularning hammasiyam shunaqa oʻzi, – dedi Ursula zarracha ham ajablanmay, – savdoyi boʻlib tugʻilishadi». Vaqt oʻtishi bilan chigallik yanada ortdi. Kiyimni almashtirish nayrangidan soʻng Aureliano Ikkinchi ismida qolgan egizaklardan biri xuddi bobosi Xose Arkadio Buendiaga oʻxshagan norgʻul yigitga aylandi. Xose Arkadio Ikkinchi ismlisi esa polkovnik Aureliano Buendiaga oʻxshab ozgʻin boʻlib oʻsdi, egizaklarda saqlangan birdan bir umumiy jihat – butun oilaga xos boʻlgan yolgʻizlikni sevish xislati edi. Balki ularning boʻyi, ismi va feʼl-atvorlaridagi keyinchalik sezilgan nomutanosiblik tufayli ham Ursula egizaklar bolaligida almashib qolishgan, degan fikrga borgandir.

Asosiy tafovut urush qizigan bir paytda Xose Arkadio Ikkinchi polkovnik Xerineldo Markesdan odamlarni otishlarini koʻrishga ruxsat soʻraganida ayon boʻldi. Garchand, Ursula eʼtiroz bildirsa-da, uning talabi qondirilgandi. Aureliano Ikkinchi, aksincha, qatlni kuzatish mumkinligi haqidagi fikrni eshitiboq seskanib ketdi. U koʻproq uyda oʻtirishni maʼqul koʻrardi. Oʻn ikkiga toʻlganida, Ursuladan eshigi doimo berk turadigan xonada nimalar borligini soʻradi.

– Qogʻozlar, – deb javob berdi Ursula. – Melkia-

desning kitoblari-yu, u umrining oxirida bitgan ajoyib-g‘aroyib yozuvlar.

Bu izoh Aureliano Ikkinchini qoniqtirish o‘rniga qiziqishini battar oshirdi. «Xonadagi buyumlarga tegmayman», – deya yalinib-yolvorgach, Ursula unga kalitlarni berdi. Xonadan Melkiades jasadi olib chiqilib, eshigiga qulf osilgandan beri (qulfning zanglab ketgan qismlari go‘yoki bir-biriga chirmashib ketgandek edi), bu xonaga hech kim kirmagandi. Aureliano Ikkinchi derazani ochganda, xonaga yorug‘lik har kuni shu yerni yoritishga o‘rgangandek oqib kirdi. Hech qayerda chang yoki o‘rgimchak ini ko‘rinmas, anjomlar Melkiades dafn etilgan kundagidan ham toza va saranjom-sarishta; siyohdon ham siyohga to‘la edi. Zanglamagan ma’dan buyumlarning sirti nuqraday yaltirar, Xose Arkadio Buendia simob kuydiradigan o‘choqda olov yonib turardi. Tokchalarda ko‘hnaligidan andak bujmayib qolgan sarg‘ish-malla muqovali kitoblar turar, xuddi o‘sha yerda qadimiy qo‘lyozmalar ham bus-butun yotardi. Necha yillar davomida yopiq turganiga qaramay, xonaning havosi uydagi boshqa xonalardagiga nisbatan ancha toza tuyilardi. Oradan bir necha hafta o‘tgach ham xonadagi tartib mutlaqo buzilmadi. Pol yuvish uchun bir paqir suv, cho‘tka ko‘tarib kelgan Ursula bu yerda uning uchun hech qanaqa yumush yo‘qligini ko‘rdi. Aureliano Ikkinchi muk tushib, allaqanday kitobni o‘qirdi. Bola kitobning nomini bilmas (uning muqovasi yo‘q edi), ammo bu narsa kitobda naql etilgan voqealardan zavqlanishga monelik qilolmasdi. Kitobda xontaxta yonida o‘tirib, nuqul guruch yeydigan, har dona guruchini ikki-

ta tilla to‘g‘nag‘ichga sanchib oladigan ayol haqida; qo‘shnisidan to‘r so‘rab olgan va evaziga unga bitta baliq hadya etgan baliqchi va o‘sha baliq ichidan kattagina gavhartosh chiqqani to‘g‘risida; har qanday tilakni bajo keltiruvchi chiroq hamda uchar gilam haqida so‘z borardi. Bola naqllardan hayajonga tushib, Ursuladan ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini so‘radi.

– To‘g‘ri, – deya ma’yus tortib javob berdi Ursula, – bundan bir necha yil ilgari lo‘lilar Makondoga o‘zlari bilan sehrli chiroqlar-u, uchar bo‘yralar olib kelishgandi. – Endi bunaqangi voqealar yuz bermaydi, chunki oxirzamon bo‘lyapti.

Ko‘pgina hikoyalarning oxiri yo‘q, ancha sahifalari yirtilib ketgan kitobni o‘qib bo‘lgan Aureliano Ikkinchi Melkiades qo‘lyozmalarining sirini yechishni o‘ziga maqsad qilib oldi. Bu amalga oshirib bo‘lmaydigan yumush edi. Harflar quritish uchun sim dorga osib qo‘yilgan kirlarni eslatar, oddiy yozuvdan ko‘ra, ko‘proq musiqiy nota belgilariga ham o‘xshardi. Bir kuni jazirama choshgohda qo‘lyozmalarni hafsala bilan tadqiq qilayotgan Aureliano Ikkinchi xonada allakim borligini payqadi. Derazaning yaraqlagan romi yonida qo‘llarini tizzasiga qo‘ygan Melkiades o‘tirardi. U yoshi qirqdan oshmagan odamdek ko‘rinardi. Eski nimchasi-yu soyabonlari qarg‘aning qanotini eslatuvchi shlyapasini kiyib olgan, rangpar chakkasidan xuddi jazirama issiqda eriyotgan mayga o‘xshab ter quyilardi.

Lo‘lining qiyofasi uni Aureliano bilan Xose Arkadio bolaliklarida ko‘rgan paytdagidek edi. Aureliano Ikkinchi Melkiadesni darhol tanidi, chunki lo‘li haqidagi esdalik go‘yo bir meros kabi

avloddan avlodga o‘tib kelardi.

– Salom, – dedi Aureliano Ikkinchi.

– Salom, yigitcha, – dedi Melkiades.

Ana shundan buyon ular bir necha yilgacha deyarli har kuni uchrashib turishdi. Melkiades unga dunyo haqida hikoya qilib berar, bolaga o‘zining andak eskirgan donoligini yuqtirishga urinardi. Ammo o‘z qo‘lyozmalarini sharhlab berishni istamasdi. «To qo‘lyozmalarning saqlanayotganiga yuz yil to‘lmaguncha hech kim unda nima yozilganini bilmasligi kerak», – deya tushuntirardi u. Aureliano Ikkinchi ayni uchrashuvlarni bir umrga maxfiy saqladi. Ursula bir kuni xonaga naq Melkiades borligida kirib keldi, qo‘rqib ketgan Aureliano Ikkinchi hozir hammasi barbod bo‘ladi, deb o‘yladi. Ammo Ursula lo‘lini ko‘rmadi.

– Kim bilan gaplashyapsan? – so‘radi u.

– Hech kim bilan, – javob berdi Aureliano Ikkinchi.

– Katta buvang ham shunday edi, – dedi Ursula, – u ham doimo o‘zi bilan o‘zi gaplashardi.

Xuddi shu paytda Xose Arkadio Ikkinchining odamlarni otishayotganlarini ko‘rish orzusi amalga oshdi. U oltita miltiq og‘zidan baravariga gumburlab chiqqan ko‘kimtir o‘tni, tog‘lararo yangragan aks sadoni, jazoga hukm etilganning qayg‘uli tabassumi-yu, sarosima ichra boqishini; ko‘ylagi qonga belansa-da, tik turganini, garchand uni ustundan yechib, ohak to‘ldirilgan kattakon qutiga joylashtirishsa ham, kulishni davom ettirishini umrining oxirigacha eslab qoldi. «U tirik, – o‘yladi o‘shanda Xose Arkadio Ikkinchi, – uni tiriklayin ko‘mishdi». Bu hol bolaga shu qadar qattiq ta’sir qildiki, keyinchalik qatl uchun emas,

otilganlarni tiriklayin ko‘mishdek mudhish odat uchun barcha harbiylarga va urushga nafrat bilan qaraydigan bo‘ldi. Xose Arkadio Ikkinchining qo‘ng‘iroqxona minorasidan qo‘ng‘iroqlarni chalayotganini, Vaysaqining vorisi bo‘lmish Padre Antonio Isabelga ibodat chog‘ida va qavm uyining hovlisidagi urishqoq xo‘rozlarni boqishda yordam berayotganini hech kim payqamasdi. Biroq bu voqea oshkor bo‘lgach, polkovnik Xerineldo Markes har bir vijdonli liberalga nomunosib ish bilan mashg‘ulligi uchun Xose Arkadio Ikkinchini qattiq koyidi. «Bilasizmi, – dedi javoban Xose Arkadio Ikkinchi, – nazarimda, mendan konservator chiqadi». U peshonasiga ayni qismat yozilganiga ishonar edi. Polkovnik Xerineldo Markes o‘zining noroziligini Ursulaga ham bildirdi.

– Yaxshi-da, – dedi Ursula chevarasining fe’l-atvorini qo‘llab-quvvatlab, – qaniydi, u ruhoniy bo‘lib yetishsa, balki o‘shanda Xudo bizning xonadonimizga ham madad berarmidi?

Oradan ko‘p o‘tmay, Ursulaga Padre Antonio Isabelning o‘z shogirdini birinchi marosimga tayyorlayotgani ma’lum bo‘ldi. Ruhoniy xo‘rozlarning bo‘ynidagi tuklarini qirish chog‘ida Xose Arkadio Ikkinchiga aqoidni[1] o‘rgatardi, hozircha, kurk tovuqlarni in-inlariga joylashtirayotganlarida esa, shogirdiga olam yaralganining ikkinchi kunida Xudo jo‘jalarni ne sababdan tuxumdan chiqarishga ahd qilganini oddiy misollar asosida tushuntirardi. Padre Antonio Isabel o‘shandayoq qarib, miyasi ayniy boshlagan ediki, ayni zaiflik uni yana bir necha yil o‘tgach, Xudoni yenggan

[1] Aqoid (kataxezis) – nasroniylik aqidalarining savol-javob tarzidagi muxtasar bayoni.

shayton arshi a'loga xo'jayin bo'lib, ehtiyotsizlarni tuzoqqa ilintirish uchun hozircha o'zining kimligini bildirmayotir, degan gumonni aytishga majbur qildi. Xose Arkadio Ikkinchi bunday jasur murabbiy boshchiligida bir necha oy ichida nafaqat ilohiyotning shaytonni ham shoshirib qo'yadigan hiylalarini mukammal o'rgandi, balki ayni zamonda xo'roz urishtirish bobida ham rosa bilimdon bo'lib oldi va xo'rozboqarga aylandi. «Ularni boshqa joyga olib bor, – buyurdi Ursula u uyga saralangan xo'rozlarni ilk marta ko'tarib kelganida. – Xo'rozlar boshga solgan kulfatlar shusiz ham yetti pushtimizgacha yetib ortadi». Xose Arkadio Ikkinchi bahslashib o'tirmadi, xo'rozlarini Pilar Terneranikiga olib bordi. U esa nevarasini uyidan ketkazmaslik uchun hamma sharoitlarni muhayyo qilib qo'ygan edi. Padre Antonio Isabel o'rgatgan hiylalarni xo'roz urishtirishda qo'llagan Xose Arkadio Ikkinchi tez orada shunchalik ko'p pul tushirdiki, bu kataklarini yanada ko'paytirishga, boz ustiga, balki o'zining erkaklik talablarini qondirishga ham yetardi. Xose Arkadio Ikkinchini ukasi bilan taqqoslagan Ursula, bir-biriga monand egizaklardan qanday qilib turli odam chiqqanidan hayratlanardi. Ursula ayni mulohaza yuzasidan uzoq bosh qotirib o'tirmadi, chunki oradan ko'p o'tmay, Aureliano Ikkinchi ham dangasalik va beboshlikka berila boshladi. U Melkiadesning xonasiga berkingan chog'larida, polkovnik Aureliano Buendianing yoshligidagidek indamas-u xayolparast odam edi. Ammo Neerland bitimidan sal ilgari bir tasodif bilan xilvat maskandan chiqdi-yu, hayot bilan yuzma-yuz bo'ldi. Lotereya

sotuvchi yosh ayol to‘satdan u bilan xuddi eski tanishdek so‘rashdi. Yigit ajablanmadi, chunki ilgari ham uni ko‘p hollarda ukasi bilan adashtirishardi. Ammo qiz uning yuragini obidiyda qilib yumshatmoqchi bo‘lganda ham, uni o‘z xonasiga yetaklab kelganda ham qizning xatolarini yuziga solmadi. Keyin ayol unga qattiq bog‘lanib qoldi va mahbubiga yutuq chiqishi uchun lotereyalarni moslab chiylaydigan bo‘ldi. Ikki haftadan so‘ng Aureliano Ikkinchi ayolning Xose Arkadio Ikkinchi bilan ikkovini adashtirayotganini sezib qoldi. U gapni kavlashtirmadi, aksincha, bor kuchi bilan haqiqatni yashirishga harakat qildi. Endi u Melkiadesning xonasiga kirmay qo‘ydi. Kun bo‘yi hovlida o‘tirgancha, motam munosabati bilan uylarida musiqa chalishni man qilgan va busiz ham Fransisko Odamning vorislari bo‘lmish daydi musiqachilar sozi hisoblanadigan akkordeondan hazar qiladigan Ursulaning javrashiga quloq solmay, notasiz yodaki musiqa chalishni o‘rganardi. Pirovardida, Aureliano Ikkinchi mohir akkordeonchiga aylandi hatto bola-chaqali bo‘lib, Makondoning eng nufuzli odamiga aylanganida ham akkordeon chalishni tashlamadi.

U o‘sha ayolni salkam ikki oy ukasi bilan birga baham ko‘rdi. Ukasining ketidan kuzatar, rejalarini buzar, Xose Arkadio Ikkinchining jazmanlarinikiga bormasligiga to‘liq ishonch hosil qilgan kechalari unikiga o‘zi yo‘l olardi. Bir kuni ertalab dardga chalinganini angladi. Ikki kundan so‘ng mo‘rchaga kirib, devor yonida jiqqa terga botib, ko‘zlaridan qaynoq yosh to‘kib ho‘ngrab yig‘layotgan ukasini ko‘rib qoldi-yu, gapni tushundi. Ukasi ayolga xunuk kasallik yuqtirganini (kasallikni

ayol shunday deb atagan ekan) va ayol haydab yuborganini tan oldi. Pilar Ternera uni qanday davolashga urinayotganini so‘zladi. Aureliano Ikkinchi ukasiga bildirmay, o‘sha davo usullaridan foydalanadigan bo‘ldi. Uch oylik xufiyona muolajadan so‘ng ikkoviyam sog‘ayib ketdi. Xose Arkadio Ikkinchi ayol bilan boshqa uchrashmadi. Aureliano Ikkinchi esa undan kechirim so‘radi va umrining oxirigacha o‘sha ayol bilan birga bo‘ldi.

Lotereyachi ayolning ismi Petra Kotes edi. U Makondoga lotereya sotadigan bir erkak bilan kelgan edi. Erkakning vafotidan keyin esa uning ishini o‘zi davom ettiradigan bo‘ldi. Petra Kotes ozodalikni nihoyatda yoqtiradigan yoshgina mulat bo‘lib, sarg‘ish ko‘zlari yuziga qoplonga xos shafqatsizlik ifodasini berar, ammo aslida yuragi toza, mehribon, ishq-u muhabbatga moyilroq ayol edi. Xose Arkadio Ikkinchining urishqoq xo‘rozlarni urchitayotgani, Aureliano Ikkinchi esa jazmanlar uyidagi shovqin-suronli ziyofatlar paytida akkordeon chalayotgani haqidagi mish-mishlar qulog‘iga chalingan Ursula uyatdan jinni bo‘layozdi. Egizaklar go‘yo oiladagi barcha illatlarni o‘zida mujassamlashtirgan va oilaning birorta ham yaxshi fazilatini meros qilib olmaganday edi. «Endi avlodimizda hech kimga na Aureliano va na Xose Arkadio deb ism qo‘yamiz!» – deb ahd qildi Ursula. Lekin Aureliano Ikkinchi to‘ng‘ich farzand ko‘rganida, u chevarasining ra’yini qaytarolmadi.

– Men roziman, – dedi Ursula, – ammo shartim shuki, uni o‘zim tarbiyalayman.

Ursula yuzga kirgan, katarakta[1] tufayli ko‘zlari

[1] Katarakta – ko‘z gavharining xira tortishi.

unchalik yaxshi koʻrmasa-da, sergʻayrat, aqli raso edi. Ursulaning fikricha, chaqaloqni oʻzidan boshqa hech kim odamshavanda ajdodlarining ilgarigi nufuzlarini tiklashga qodir, sulolaning tanazzulga yuz tutishiga sabab boʻlmish toʻrt ofat – urush, xoʻrozlar jangi, yaramas ayollar hamda bema'ni, boʻlmagʻur niyatlar haqida hech narsa bilmaydigan odam qilib tarbiyalay olmasligiga ishonchi komil edi. «U ruhoniy boʻladi, deya tantanavor ruhda va'da qildi Ursula. – Agar Xudo menga yana umr bersa, u Rim papasi boʻladi». Ursulaning baralla aytgan soʻzlari faqat yotoqxonadagina emas, balki oʻsha kuni Aureliano Ikkinchining shoʻx-shodon doʻstlari toʻplanishgan uyda ham kulgiga sabab boʻldi. Xotira qatlariga allaqachon itqitilgan urush, shampan poʻkaklari otilganida, qisqa bir lahzaga boʻlsa-da, yana esga tushdi.

– Otamning salomatligi uchun ichamiz! – deb hayqirdi Aureliano Ikkinchi.

Mehmonlar unga bir ovozdan joʻr boʻlishib, qadah koʻtarishdi. Soʻngra uy egasi akkordeon chaldi, havoga mushaklar otildi. Toʻyib shampan ichgan mehmonlar saharmardonda oltita buzoqni boʻgʻizlab, goʻshtini koʻchaga – el ixtiyoriga joʻnatishdi. Bu esa xonadondagi hech kimni tashvishlantirmadi. Bu xil ziyofatlar, Aureliano Ikkinchi uydagi barcha tashvishlarni oʻz zimmasiga olgan kundan boshlab, oddiy voqeaga aylanib qolgandi. Uy hayvonlari-yu parrandalarni favqulodda koʻp urchitish xislatiga ega boʻlgan Aureliano Ikkinchi, garchi oʻzi urinmasa ham, kutilmagan omad tufayli vodiyning eng obroʻli kishilaridan biriga aylandi. Baytallari unga bir yoʻla uchtadan

toychoq hadya etar, tovuqlari kuniga ikki mahal tuxum tug‘ar, cho‘chqalari esa shu qadar tez semirardiki, odamlar buni afsungarlikdan boshqa hech narsaga yo‘yishmasdi. «Pulni asrab qo‘y, – uqtirardi Ursula o‘zining yengiltak chevarasiga, – bunday omad umrbod davom etavermaydi». Lekin Aureliano Ikkinchi buvisining so‘zlariga e’tibor bermasdi. Do‘stlarini mehmon qilish uchun qancha ko‘p shampan shishasining og‘zini ochsa, mollari to‘xtovsiz bolalagani sayin, chekiga tushgan bu ajoyib omad o‘zining sa’y-harakatiga emas, balki sevgisi, barcha jonzotlarni uyg‘otishga qodir mahbubasi Petra Kotesga bog‘liqligiga shuncha ko‘p ishonch hosil qilardi. U boylik manbai ayni shundaligiga tobora qattiq ishonar va Petra Kotesni o‘z podalari yaqinida saqlashga harakat qilardi; Aureliano Ikkinchi uylanib, farzand ko‘rgach ham, shar’iy xotini Fernandaning roziligini olib, jazmani Petra Kotes bilan uchrashardi. U bobolari kabi baquvvat va norg‘ul bo‘lib yetishdi, ammo ulardan hayotsevarligi-yu dilbarligi bilan ajralib turar, bobolariga o‘xshab, uning ham mol-holga qarash uchun deyarli vaqti bo‘lmasdi. Ammo Petra Kotesni molxonaga ergashtirib borsa yoki birgalikda otda yaylov kezsa bormi, u tamg‘a bosgan har bir hayvon tiyib bo‘lmas serpushtlik balosiga yo‘liqardi.

Aureliano Ikkinchi va Petra Kotesning uzoq hayotlari davomida yuz bergan barcha yaxshi hodisalar kabi beme’yor boylik ham aslo kutilmagan edi. Urushlar tugagunga qadar Petra Kotes lotereyadan tushgan daromadlari evaziga kun kechirar, Aureliano Ikkinchi bo‘lsa, ora-sira Ursulaning aqchadonidagi pullarni batamom qoqib

olardi. Ular ikkisi ham nihoyatda yengiltak bo‘lib, faqat bir narsani, hatto cherkov taqiqlagan kunlari ham ertaroq to‘shakka yotib, tongga qadar sho‘xlik qilishni o‘ylashardi, xolos.

«Bu ayol seni xarob qiladi, – deya qichqirardi Ursula oyparast odamdek oyog‘ini zo‘rg‘a sudrab uyi tomon kelayotgan chevarasiga. – Qarab tur, halizamon sanchiq tutib yotib qolasan, hali qorningga sovuq qurbaqa bosishga to‘g‘ri keladi». Muhabbat bobidagi sherigini ancha kechikib bilgan Xose Arkadio Ikkinchi akasining ehtirosiga hech tushunmasdi. Uning xotirasida Petra Kotes o‘ta jo‘n, umuman o‘lib-tirilishga arzimas bir ayolday saqlangandi. Ammo Aureliano Ikkinchi Ursulaning gaplariga ham, akasining mazaxlariga ham e’tibor bermadi. U Petra Kotes uchun ijaraga uy olib berdi. Polkovnik Aureliano Buendia mayli, men ham keksalik gashtini suray, deb ustaxonasini yana ochganida, Aureliano Ikkinchi tilla baliqchalar yasash serdaromad yumush bo‘lsa kerak, degan fikrga keldi. U polkovnikning metall taxtachalarga hayotdan bezgan odamga xos sabr-u toqat bilan ishlov berayotganini va ular asta-sekin tilla tangachalarga aylanayotganini kuzatgancha, havosi dim xonada soatlab o‘tirardi. Zargarlik Aureliano Ikkinchiga shu qadar qiyin, Petra Kotes haqidagi o‘y-fikri esa shu qadar qat’iy va barqaror ediki, axiri uch hafta deganda ustaxonadan bezor bo‘ldi. Keyin u lotereya o‘yiniga tikish uchun o‘zining sevimli quyonlarini jazmaniga olib keldi. Endi jonivorlar tez urchib-unadigan bo‘lib qolishdi. Petra Kotes lotereya chiptalarini sotishga zo‘rg‘a ulgurardi. Aureliano Ikkinchi avvaliga quyonlarning ko‘pay-

ishi dahshatli tus ola boshlaganini payqamadi. Ammo shaharda endi hech kim quyon chiqadigan lotereya haqida eshitishni ham istamaganida, bir kuni kechqurun hovliga qaragan devor ortidagi qattiq shovqin-surondan uyg‘onib ketdi.

«Qo‘rqma, bu quyonlar», – dedi Petra Kotes. Lekin uzoq davom etgan shovqin jonlariga tegib, ikkovi ham qayta ko‘z yummadi. Ertalab Aureliano Ikkinchi eshikni ochdi-yu, hovli quyonlar bilan to‘lib-toshganini ko‘rdi. Quyonlarning yungi tong shafag‘ida moviy tusga kirgandi. Petra Kotes jinnilarga o‘xshab xoxolardi.

– Bular shu kechasi tug‘ilgan quyonlar, – dedi u.

– Zo‘r-ku! – xitob qildi eri. – Buni sigirlarda ham bir sinab ko‘rsang-chi, a?

Petra Kotes hovlini quyonlardan bo‘shatish niyatida tez orada ularni sigirga almashtirdi, sigir esa uch oydan keyin biryo‘la uchta buzoq tug‘di. Aureliano Ikkinchi birpasda yaylovlar-u podalarga ega bo‘lib oldi. U cho‘chqaxonalarni kengaytirishga zo‘rg‘a ulgurardi. Buning bari tushga o‘xshar va Aureliano Ikkinchining kulgisini qistatardi. U sevinchini g‘alati qiliqlar qilib ifodalashdan o‘zga chora topolmasdi.

– Tezroq tug‘inglar, sigirlar, umr qisqa! – deya qichqirardi u.

Ursula, ehtimol, chevaram allaqanday yomon ishlar bilan shug‘ullanib, qaroqchi yoki mol o‘g‘risi bo‘lib ketmadimikin, deya shubhalanar va chevarasi har gal vaqtixushlik uchun shampan shishasining og‘zini ochib ko‘pigini boshidan quyganida, uni isrofgarchilikda ayblab koyirdi. Ursulaning tanbehlari joniga tekkan Aureliano Ikkinchi bir kuni tongda ruhi tetik bir holda uyga

kelib, bir quti qog‘oz pul, bir idish yelim va cho‘tka oldi-da, Fransisko Odamning eski qo‘shiqlarining ovozini baralla qo‘yib kuylagancha, butun uyning ich-tashiga qiymati bir pesolik pul yopishtirib chiqdi. Pianola keltirilganidan beri faqat oq rangga bo‘yab kelinayotgan bu qadimiy uy ibodatxonaga o‘xshash g‘aroyib bir tus oldi. Ursula va qarindoshlar darg‘azab bo‘lib baqirishayotgan bir paytda, ko‘chada to‘plangan odamlar isrofgarchilik madhiyasida ishtirok etishdan shod-xurram edi. Aureliano Ikkinchi hamma joyga peshtoqdan tortib, oshxona, hatto mo‘rcha devorlariga ham pul yopishtirib chiqdi va ortib qolganini hovliga uloqtirdi.

– Endi, – dedi u pirovardida, – ishonamanki, bu uyda birorta odam menga pul to‘g‘risida boshqa og‘iz ochmaydi.

Xuddi shunday bo‘ldi ham. Ursulaning ko‘rsatmasiga binoan, devorlardagi pullar yopishgan suvoq parchalari bilan birgalikda ko‘chirildi va uy yana oqqa bo‘yaldi. «Ey Xudo, – deb iltijo qilardi Ursula, – bu yerlarga kelganimizda qanchalar kambag‘al bo‘lsak, o‘shanday nochor bo‘laylik, yo‘qsa, u dunyoda shuncha isrofgarchilik uchun javob beramiz». Uning ibodati negadir aksincha talqin qilindi. Pullarni ko‘chirishayotgan ishchilardan biri, urush tamom bo‘lishidan sal ilgari allakim keltirgan avliyo Yusufning kattakon gips haykalini ehtiyotsizlik qilib turtib yubordi, haykal yerga tushib chil-chil sindi. Haykal uyga qachon kelib qolganini anchagacha eslasholmadi. «Uni uch erkak ko‘tarib keluvdi, – deb tushuntira ketdi Amaranta, – to yomg‘ir tingunicha shu yerda turishiga ruxsat so‘rashdi, men ularga haykal-

ga hech kim urilib ketmasligi uchun kunjakka qo‘yishlarini tayinladim, ular haykalni ehtiyotkorlik bilan o‘sha yerga qo‘yishdi, shundan beri o‘sha joyda turibdi, axir, uni olib ketish uchun hech kim kelmadi-da».

So‘nggi paytlarda Ursula haykalning oldiga shamlar yoqib, tiz cho‘kar, u avliyoga emas, balki naq ikki yuz kilocha chiqadigan tillaga sig‘inayotganini xayoliga ham keltirmasdi. O‘zining g‘ayriixtiyoriy butparastligini ancha kech anglagan Ursulaning dili battar g‘ash bo‘ldi. U polda yotgan tanga uyumini yig‘ib oldi va uchta xaltaga solib, chekka bir joyga ko‘mib qo‘ydi, chunki ertami-kechmi, baribir o‘sha uchala notanish kishi boylikni so‘rab keladi, deb o‘yladi. Oradan bir necha yil o‘tgach, munkillab qolgan Ursula uylariga keladigan musofirlardan har gal mabodo uyimizga yomg‘ir tinguncha turib tursin deya avliyo Yusufning ganchdan yasalgan haykalini tashlab ketmovdilaringmi, deya so‘rardi.

Ursulani tashvishlantirayotgan to‘kin-sochinlik o‘shanda oddiy bir hodisa edi. Makondoda ertaklardagi kabi rohat-farog‘at hukm surardi. Shaharda azaldan yashovchilarning loy-u qamishdan qilingan uylar o‘rnida dabdabali, ichi salqin g‘isht imoratlar qurila boshlandi. Chang bosgan bodom daraxtlari-yu shaffof suvli daryogina bir vaqtlar Xose Arkadio Buendia asos solgan qishloqni eslatib turardi. Xose Arkadio Ikkinchi daryo o‘zanini tozalab, uni kemalar qatnoviga moslamoqchi bo‘lganida, daryoning qadim darrandalarning ulkan tuxumlarini eslatuvchi davrdagi toshlari sangtaroshlarning bolg‘achalarini sindirib yubordi. Bu bema’ni reja bo‘lib, uni faqat Xose Arkadio

Buendianing xayoliy o‘ylariga taqqoslash mumkin edi, negaki daryodagi adadsiz toshlar Makondoni dengiz bilan bog‘lashga aslo imkon bermasdi. Ammo Xose Arkadio Ikkinchi o‘z loyihasini qattiq turib ma’qullardi. U hali biror marta ham tasavvur ko‘lamini ayni darajada namoyon qilmagandi. Agar Petra Kotesni hisobga olmaganda, xotinlar bilan ham oldi-berdi qilmagan edi. Ursula bu chevarasini Buendialar avlodidagi eng uquvsizi, hatto xo‘roz urishtirishga yaramaydigan, deb hisoblardi. Bir kuni polkovnik Aureliano Buendia Xose Arkadio Ikkinchiga dengizdan o‘n ikki chaqirimcha beriga chiqib qolgan ispan kemasi qoldiqlarini urush yillarida ko‘rganini so‘zlab berdi. Hamma polkovnikning uydirmasi deb hisoblaydigan bu hikoya Xose Arkadio Ikkinchi uchun kutilmagan yangilik bo‘ldi. U xo‘rozlarini kim oshdi savdosiga qo‘yib sotdi, puliga ishchilar yolladi, turli asbob-uskunalar xarid qildi va misli ko‘rilmagan ish boshladi: toshlarni maydaladi, kanallar qazidi, daryo tubini tozaladi, hatto shovvalarni ham tekisladi. «Men bularning barini yod bilaman! – deb qichqirardi Ursula. – Vaqt doira bo‘ylab aylanayotganga o‘xshaydi va biz nimadan ish boshlagan bo‘lsak, yana o‘shanga qaytib keldik». Xose Arkadio Ikkinchi, daryoda kema qatnay oladi, deb akasiga o‘z rejasini batafsil tushuntirdi va u Xose Arkadio Ikkinchiga bu rejaning amalga oshirilishi uchun yetarli miqdorda pul berdi. Shundan keyin ancha vaqtgacha qayoqqadir g‘oyib bo‘ldi. Makondoliklar Xose Arkadio Ikkinchi kema sotib olish bahonasida akasini aldadi, endi pulni sovuradi, deb o‘ylay boshlashganda, birdan shaharga yaqinlashayotgan qandaydir g‘ala-

ti kema haqida mish-mish tarqaldi. Xose Arkadio Buendianing telbanamo ishlarini allaqachon unutgan makondoliklar daryo tarafga yugurishdi va qirg‘oqqa yaqinlashayotgan – Makondoga qadar suzib kelgan birinchi va so‘nggi kemani ko‘zlariga ishonqiramay tomosha qilishdi. Bu atigi bals yog‘ochidan qilingan sol bo‘lib, uni qirg‘oq yoqalab yugurayotgan yigirma erkak yo‘g‘on arqonda sudrab kelardi, xolos. Solning tumshug‘ida turgan Xose Arkadio Ikkinchi ko‘zlari quvonchdan charaqlab, rulni boshqarib borardi. U o‘zi bilan bir gala ajoyib fransuz geteralarini[1] boshlab kelgan edi. Ayollar oftob nurlaridan ochiq rangli soyabonlar ostiga bekinishgan, bejirim yelkalariga shohi ro‘mol tashlangan, yuzlari qizg‘ish va oq upa-elik bilan chaplangan, sochlari gullar bilan bezalgan edi. Ularning qo‘llarida tilla bilaguzuklar, og‘izlarida esa tishlariga qadalgan gavharlar yarqirardi. Bals yog‘ochidan yasalgan sol Xose Arkadio Ikkinchi oqim bo‘ylab tepaga – Makondoga olib kelishga muvaffaq bo‘lgan yakka-yu yagona suzuvchi vosita hisoblansa-da, u baribir niyati puchga chiqqanini aslo tan olmadi, balki aksincha, o‘zining bu faoliyatini inson irodasining tabiat ustidan qozongan buyuk g‘alabasi, deb e’lon qildi. U akasidan olgan qarzini to‘la-to‘kis qaytardi va yana jangari xo‘rozlar parvarishiga astoydil kirishib ketdi. Endilikda ajoyib maqomlar bilan er-xotinlik san’atining an’anaviy usullarini butkul o‘zgartirib yuborgan, jamoat talablarini qondirishda jonbozlik ko‘rsatishlari tufayli Katarinoning eskirgan ishratxonasini yer bilan

[1] Getera – ersiz, mustaqil yashashni ixtiyor etgan, ziyoli, biroq yengiltak ayol.

yakson etishga undab, bu xilvat koʻchani xitoy fonuslari-yu, organchining hazin kuyi taraluvchi gʻaroyib yarmarkaga aylantirgan fransuz geteralarini Makondoga olib kelgan yangi hayot shabadasigina Xose Arkadio Ikkinchining omadsiz rejasini eslatib turardi, xolos. Makondoni uch kun davomida devonavor holatga tushirib qoʻygan va Aureliano Ikkinchiga Fernanda del Karpio bilan tanishish imkoniyatini yaratgan qonli karnavalning tashabbuskorlari xuddi ana shu fransuz ayollari edi.

Goʻzal Remedios karnaval qirolichasi, deb eʼlon qilindi. Chevarasining chiroyi qalbini hamisha larzaga soladigan Ursula bunga monelik koʻrsatolmadi. Shu paytgacha u goʻzal Remediosni ibodatxonaga borish uchun koʻchaga faqat Amaranta bilan birga chiqarar va oʻshanda ham chevarasiga albatta, yuzini qora toʻr bilan berkitishni uqtirardi. Hatto ruhoniy kiyimini kiyib olishib, Katarino ishratxonasida dinni tahqirlovchi ibodatlar qilishdan ham toymaydigan eng diyonatsiz erkaklar ham afsonaviy, chiroyi tillarda doston goʻzal Remediosning ruxsorini aqalli bir lahzaga koʻrish uchun cherkovga kelishardi. Havasmandlar qizning yuzini koʻrishlari uchun esa ozmuncha vaqt ketmadi. Aslida esa ularning bunday tasodifni kutmaganlari yaxshi edi, chunki shundan soʻng koʻpchilik bedorlikka mubtalo boʻldi. Ularning orzularini amalga oshirishga koʻmaklashgan, yaʼni goʻzal Remediosning yuzini koʻrishlariga sababchi boʻlgan odam – kelgindi bir kabalyero esa mutlaqo halovatini yoʻqotib, tubanlig-u qashshoqlik botqogʻiga botdi va oradan bir necha yil oʻtgach, temir yoʻlda uxlab qolganida

poyezd tagida qolib ketdi. Egnida ko‘k duxoba kamzul-u guldor nimcha kiygan bu kimsaning uzoq mamlakatdan kelgani ayon edi. Ibodatxona ostonasida ajnabiyning nazari go‘zal Remediosga tushdi-yu, o‘sha fursatning o‘zidayoq qizning sehr-jodusi o‘z domiga tortib, unga mubtalo bo‘ldi-qoldi. Yigit shu qadar xushro‘y-u xushqad bo‘lib, o‘zini shunchalar vazmin-u viqorli tutardiki, Petro Krespi uning oldida go‘yo chala tug‘ilgan odamga o‘xshardi. Ayollarning ko‘pchiligi hasad bilan jilmayib, go‘zal Remediosning emas, balki ana shu yigitning yuzini to‘r ro‘mol bilan berkitish kerak, deya pichirlashardi. U Makondoda hech kimni tanimas, har yakshanba tongda kumush uzangili va baxmal jabduqli otda, xuddi ertaklardagi shahzoda kabi paydo bo‘lar, ibodatdan so‘ng shaharni tark etardi.

Kabalyero cherkovga kirib kelgan ilk daf’adayoq, hamma unga o‘girilib qaradi va odamlar bu yigit bilan go‘zal Remedios o‘rtasida unsiz, keskin jang boshlangani, ular o‘zaro maxfiy bir shartnoma tuzishgani hamda oralarida nafaqat muhabbat, balki o‘lim bilan tugallanuvchi raqobat vujudga kelganini tushunishdi. Oltinchi yakshanbada u sariq atirgul ko‘tarib keldi. Kabalyero, odatdagicha, va’zni tik turib eshitdi. Ibodat tugagandan so‘ng go‘zal Remediosning yo‘lini to‘sib, unga gul taqdim qildi. Qiz buni anchadan buyon kutganday, gulni indamay oldi, keyin yuzidagi to‘r ro‘molini bir lahza ko‘tarib, notanish yigitga jilmaydi. Ming afsuski, faqat kabelero uchun emas, balki u bilan yonma-yon turgan barcha erkaklar uchun shu soniyaning o‘zi yetarli edi.

Shundan beri kabalyero go‘zal Remediosning derazasi ostiga butun boshli orkestrni yetaklab

kelar, orkestr ko‘pincha to ertalabgacha kuy chalardi. Buendia oilasida kabalyeroga chin yurakdan xayrixoh bo‘lgan birdan bir odam – Aureliano Ikkinchi uning qat’iyatini susaytirishga urindi. «Vaqtingizni behudaga sarflamang, – dedi unga bir kuni kechasi. – Bu xonadonning ayollari eshakdan ham battar o‘jar». U notanish yigitga, do‘st bo‘laylik, deb taklif qildi, uni shampan mayida cho‘miltirmoqchi, Buendialar avlodining ayol vakillari azaldan toshbag‘irligini tushuntirmoqchi bo‘ldi, lekin baribir kabalyeroni fikridan qaytarolmadi. Tungi konsertlardan jig‘ibiyroni chiqqan polkovnik Aureliano Bunendia kabalyeroga, seni faqat to‘pponcha g‘ussadan qutqarishi mumkin, deb po‘pisa qildi. Ammo og‘ir ishq dardiga yo‘liqqan yigitni to u chuqur tushkunlikka mubtalo bo‘lmagunicha, hech kim ahdidan qaytara olmadi. Kabalyero oxiri kelishgan-u bashang odamdan ayanchli chuvrindiga aylandi-qoldi. Garchand, hech kim yigitning nasl-u nasabini bilmasa-da, uzoq diyoridagi mansabi va boyligidan voz kechgan, degan mish-mishlar yurardi. U endi o‘jar, aroqxo‘r, jangari odamga aylandi. Deyarli har kuni tonggacha Katarino ishratxonasida bo‘lardi. Haqiqatan ham uning eng ayanchli fojiasi – go‘zal Remediosning, hatto u cherkovga shahzodalar kabi yasanib kelganida ham loqayd qaraganida edi. Go‘zal Remedios uning qo‘lidagi atirgulni hech bir noz-karashmasiz, yigitning shunchaki favqulodda muomalasidan biroz dimog‘i chog‘ bo‘lib olgan-u, to‘r ro‘molini bo‘lsa, yuzini ko‘rsatish uchun emas, balki yigitni yaxshiroq ko‘rish maqsadida ko‘targandi.

Ochig‘ini aytganda, go‘zal Remedios bu dunyoga begonadek edi. U yigirmaga kirgan bo‘lsa-da,

hamon na o‘qish-yozishni va na dasturxon boshida qoshiq-tovoqlardan foydalanishni tuzuk-quruq o‘rgandi. Qiz xonalar bo‘ylab hamisha yalang‘och holda kezar va bu odatini aslo tark etmasdi. Soqchilar boshlig‘i bo‘lmish yosh zobit unga sevgi izhor qilganida, rad javobini berdi, chunki Remediosni uning yengiltakligi ajablantirgandi.

– G‘irt ahmoq, sen tufayli o‘layapman, deydi-ya, nima, vabomanmi? – dedi u Amarantaga. Zobitning jasadini go‘zal Remediosning derazasi ostidan topishganda, u so‘zini yana bir karra takrorladi. – Mana ko‘rdingizmi? – dedi qiz. – G‘irt ahmoq ekan-da!

Allaqanday g‘ayritabiiy zakovat go‘yo qizga narsalarning botiniy-u zohiriy ko‘rinishini sidirib tashlab, ularning asl mohiyatini ko‘ra bilish imkonini berardi. Hamma aqli zaif deb hisoblaydigan go‘zal Remediosni polkovnik Aureliano Buendia ancha ziyrak qiz, deb o‘ylardi. «Unga qarasang, nazaringda, yigirma yillik urush bo‘lmagandek tuyiladi», – deya takrorlashni yoqtirardi u. Ursula ham oilalariga favqulodda beg‘ubor qizni hadya etgani uchun Xudoga tashakkur bildirardi. Biroq qizning chiroyi Ursulani tashvishga solar, chunki chevarasining go‘zalligi unga xislat emas, balki illat – shayton tuzog‘iday tuyilardi. Shu sababli, u go‘zal Remediosni odamlardan uzoqroqda tutishga, hayotning yo‘ldan ozdiradigan vasvasalaridan asrashga urinar, ammo Ursula chevarasi onaning qornidayoq har qanday xavf-xatardan abadiy muhofaza qilinganini bilmasdi. U chevarasini karnaval deb ataluvchi jinlar bazmining qirolichasi qilib saylashlariga hech qachon yo‘l qo‘ymasdi. Lekin bayramga yo‘lbars niqobini kiyib chiqish

ishtiyoqida kuyib-yonayotgan Aureliano Ikkinchi Padre Antonio Isabelni Ursulaga karnaval aslida majusiylar bayrami emas, balki katolik cherkovi tomonidan muqaddaslashtirilgan xalq udumi ekanini tushuntirishga ko‘ndirdi. Nihoyat, ruhoniyning gaplariga astoydil ishonganidan so‘ng, ijirg‘anib bo‘lsa-da, u chevarasining boshiga toj kiydirishlariga royish berdi.

Remedios Buendia bayram qirolichasi bo‘lishi haqidagi xabar bir necha soat ichidayoq butun okrugga, hatto hali qizning benihoya chiroyi dovrug‘i borib yetmagan olis go‘shalarga ham tarqaldi va hamon Buendia ism-sharifi isyon ramzi bo‘lib kelayotgani uchun ba’zi birovlar sarosimaga tushdi. Bu sarosimaga hech qanday asos yo‘q edi. Agar o‘shanda biror bir kimsani beozor deb atash kerak bo‘lsa, keksayib, ko‘ngli sovib, xalq hayoti bilan aloqasi tobora uzilib borayotgan polkovnik Aureliano Buendia bunga eng munosib nomzod bo‘lardi. U ustaxonasida ertadan kechgacha yolg‘iz o‘tirardi. Tinchlikning birinchi kunlari uning uyini qo‘riqlashga yuborilgan askarlardan biri baliqchalarni vodiyning shahar-u qishloqlariga chiqarib sotar va uyga tilla tangalar-u bir qator xushxabarlar bilan qaytardi. U, konservatorlar hukumati har bir prezident hokimiyat tepasida yuz yil turishi uchun liberallar yordamida yil jadvali – taqvimni o‘zgartirmoqchi bo‘layotgani; nihoyat diniy hukmdor bilan shartnoma tuzilgani va Rimdan kardinal tashrif buyurgani, uning tojiga son-sanoqsiz gavhartosh qadalgani, taxti esa quyma oltindan ekani; liberal nozirlar uning oldida tiz cho‘kib, uzugini o‘pganicha suratga tushishgani; ispan truppasi bilan poytaxtga gastrolga kelgan raqqosani par-

dozxonadan niqob taqqan noma'lum shaxslar o'g'irlab ketgani va u ertasiga ertalab, yakshanba kuni respublika prezidentining yozgi saroyida qip-yalang'och raqsga tushgani haqida hikoya qilib berardi. «Menga siyosatdan gapirma, – derdi unga polkovnik, – bizning ishimiz – baliqcha sotish». Polkovnikning mamlakat ahvolini bilishni istamaganini va o'z ustaxonasida o'tirib, tilla baliqchalar sotib boyib borayotganini eshitgan Ursula kulib yubordi. Turmush ikir-chikirlarini miridan-sirigacha biladigan Ursula baliqchalarni oltin tangalarga, keyin esa tangalarni tilla baliqchalarga aylantirib, shu tariqa qancha ko'p mol sotsa, shuncha ko'p ishlaydigan, og'ir ahvolga tushgan polkovnik mashg'ul ayni savdoning ma'nosi nimadan iboratligiga hech tushunolmasdi. To'g'risini aytganda, polkovnikni savdo-sotiq emas, balki ish jarayoni qiziqtirardi. U baliqchalar tanasiga shu qadar tangachalar yopishtirar, ularni qisqich orasiga joylab zig'irdakkina yoqut ko'z o'rnatar, jabralariga sayqal berar, dum yasardiki, urush va urushga bog'liq umidsizliklarni eslashi uchun umuman bo'sh vaqti qolmasdi. Zargarlik san'atining aniqligi va nozikligi shunday diqqat-e'tibor talab qilardiki, natijada u qisqa vaqt ichida ancha qarib qoldi; uzoq o'tirishdan beli bukchaydi, ishning nozikligidan ko'zlari xiralashdi. Ammo shunga qaramay, uning ko'ngli taskin topdi. Polkovnik urushga bog'liq masala bilan eng so'nggi marta unga liberallar-u konservatorlardan iborat bir guruh veteranlar hukumat tomonidan va'da qilingan va umrlarining oxirigacha tayinlangan nafaqaning paysalga solinayotganligi bo'yicha murojaat qilib, yordam so'rashganida shug'ullangan edi. «Nafaqani yodlaring-

dan chiqaringlar, – dedi polkovnik Aureliano Buendia. – Koʻryapsizlar-ku, umrimning oxirigacha kutaverib, azoblanmay deb nafaqadan voz kechdim». Dastlab kechalari uning yoniga polkovnik Xerinaldo Markes kelar, ikkalasi koʻcha eshigi yonida oʻtirgancha koʻrgan-kechirganlarini eslashardi. Ammo Amaranta nihoyatda horib-charchagan bu tepakal odamni koʻrishi bilanoq, qalbida uygʻonadigan xotiralar azobini koʻtarishga mutlaqo ojizlik qilardi va shu bois polkovnik Xerineldo Markesni har safar ataylab kamsitardi, oxir-oqibatda u uylariga kamdan kam hollarda keladigan boʻldi, keyinchalik umuman qadamini uzdi – polkovnik shol boʻlib qoldi. Odamovi, indamas, yangi hayotning uy boʻylab esayotgan shabadasiga befarq polkovnik Aureliano Buendia osuda keksalik siri – yolgʻizlik bilan haqqoniy ittifoq tuzishdan boʻlak yoʻl qolmaganini bora-bora tushundi. Qush uyqusiga giriftor polkovnik har kuni ertalab soat beshda uygʻonar, oshxonaga kirib odatdagidek bir finjon qora qahva ichar, soʻngra kun boʻyi ustaxonasiga berkinib olardi, kunduzi soat toʻrtlarda esa kursisini sudragancha peshayvon boʻylab oʻtar va hech narsaga: na atirgullarning yolqinlanib yonishiga, na yotogʻiga bosh qoʻyayotgan quyoshning atrofga latif nurlar taratishiga, na yuragidagi xalos boʻlolmaydigan hasrati gʻira-shira qorongʻilik sukuti ichra xuddi qozonda qaynayotgan suvning biqirlashi kabi quloqqa aniq chalinayotgan Amarantaning kekkaygan qiyofasiga e’tibor berardi. U koʻcha eshigi yonida chivinga yem boʻlib oʻtirardi. Bir kuni oʻtkinchilardan biri uning oromini buzishga jur’at etdi.

– Nimalar qilib yuribsiz, polkovnik?

– Oʻtiribman, – javob berdi u. – Jasadim solingan tobutni yonimdan olib oʻtishlarini kutyapman.

Go‘zal Remediosga toj kiydirilishi-yu, polkovnik Aureliano Buendia nomi yana hammaning tiliga tushishi bois, ayrim davralarda yuz bergan sarosimalik zamirida hech qanday aniq asos yo‘q edi. Ammo ko‘pchilik mutlaqo zid fikrda edi. Boshlari uzra osilgan fojiani ko‘rmayotgan makondoliklar to‘da-to‘da bo‘lib, shod-xurramlik bilan shahar maydoniga to‘planishardi. Karnavalning sho‘x telbaliklari eng yuqori nuqtasiga yetganida va olomon orasida u yoqdan-bu yoqqa yurib, to‘xtovsiz baqiraverganidan ovozi xirillab qolgan Aureliano Ikkinchining yo‘lbars niqobini kiyish haqidagi orzusi amalga oshgan bir mahalda, vodiyga eltuvchi yo‘lda banogoh maskarad libosidagi katta bir guruh paydo bo‘ldi. Ular bir ayol tik turgan zarrin zambilni ko‘tarib kelishardi. Ayolning jozibasi shu qadar maftunkor ediki, inson zoti bunday jozibani, hatto tasavvuriga ham sig‘dirolmasdi. Makondoning tinch aholisi ko‘zni qamashtiradigan zumrad qadalgan toj va bo‘rsiq mo‘ynali mantiya kiygan bu tengsiz go‘zalni yaxshiroq ko‘rishga intilib, o‘z niqoblarini bir daqiqaga yechishdi; u yaltiroq tangachalar-u qog‘ozlardan iborat yasama boylik egasi emas, balki qirolichalarga xos haqiqiy hukmdorlik bilan yo‘g‘rilgandek edi. Olomon orasida bu hol firibgarlik ekanini tushunib yetadiganlar anchagina bor edi. Ammo Aureliano Ikkinchi zudlik bilan tug‘ilishi muqarrar parokandalikning oldini oldi; u ajnabiylarni faxriy mehmonlar deb e’lon qildi va soxta qirolichani go‘zal Remedios bilan bir shohsupaga o‘tqazib, dono ish qildi. Badaviylar libosini kiygan kelgindilar ham umumiy

shodiyonalarda yarim kechagacha ishtirok etishdi va hatto, bayramga o‘z ulushlarini qo‘shishdi – lo‘lilarning allaqachon unutilgan san’atini eslatuvchi mohirona akrobatika mashqlari-yu turli pirotexnika yangiliklarini namoyish qilishdi. Ammo birozdan so‘ng, shodiyona avjga chiqqan mahali, bu omonat mutanosiblik buzildi.

– Yashasin liberallar partiyasi! – deya hayqirdi kimdir. – Yashasin polkovnik Aureliano Buendia!

O‘qlar chaqnashi mushaklarning jilvagar shu’lasini to‘sib qo‘ydi, musiqa ohanglari esa dahshatli baqir-chaqirlar ostida qolib ketdi. Shodiyona o‘rnini sarosima egalladi. Yana bir necha yil o‘tgach, xalq o‘sha soxta qirolichaning mulozimlari aslida doimiy qo‘shin eskadronchilari bo‘lib, ular badaviylarning serhasham yaktaklari ostiga karabinlarini yashirib olishgan edi, degan gap chiqardi. Hukumat o‘zining maxsus axborotida buni rad etdi va bo‘lib o‘tgan qonli voqeaning sababini aniqlashga so‘z berdi. Ammo baribir haqiqat yuzaga chiqmadi va soxta qirolichaning mulozimlari hech qanday asossiz, o‘z boshliqlarining ishorasiga binoan, olomonni ayovsiz o‘qqa tutganligi haqidagi taxmin g‘olib chiqdi. Osoyishtalik o‘rnatilib, shaharda birorta ham soxta badaviy qolmaganida, maydonda o‘liklar-u yaradorlar cho‘zilib yotardi, xolos; shu jumladan, besh nafar masxaraboz, to‘rt nafar kolombina, o‘n olti nafar qarta qiroli, bitta shayton, uch musiqachi, Fransiyaning ikki peri va uch nafar yapon imperator xotini. To‘s-to‘polon va umumiy sarosimada Xose Arkadio Ikkinchi go‘zal Remediosni xavfsiz joyga yashirishga muvaffaq bo‘ldi. Aureliano Ikkinchi esa ko‘ylagi yirtilgan va bo‘rsiq mo‘ynali

mantiyasi qonga belangan soxta qirolichani qo‘lida ko‘tarib, uyga olib keldi. Uni Fernanda del Karpio deb atashardi. Qizni mamlakatdagi besh ming go‘zal ayol ichidan tengsiz sohibjamol deya tanlashgandi. Qizga Madagaskar qirolichasi sifatida e’lon qilishga va’da berishib, Makondoga aldab olib kelishgandi. Ursula uning ortidan go‘yo uch qizining orqasidan ergashgandek yurardi. Shaharliklar bu sodda qizdan g‘azablanishmadi, aksincha, juda achinishdi. Maydondagi qirg‘indan so‘ng yarim yil o‘tib, barcha yaradorlar tuzalib ketgach va birodarlik qabristonidagi eng so‘nggi gul so‘lib bitgach, Aureliano Ikkinchi Fernanda del Karpioning ketidan uzoq shaharga borib, otasining roziligi bilan qizni Makondoga olib keldi va naq yigirma kun davom etgan dovrug‘i olamga ketgan to‘y qilib, unga uylandi.

* * *

Ikki oy o‘tgach, oilalari buzilishiga oz qoldi, sababi – Petra Kotes oldidagi gunohini yumshatmoqchi bo‘lgan Aureliano Ikkinchi uni Madagaskar qirolichasining libosida suratga tushirishga ko‘rsatma berdi. Bundan xabar toptan Fernanda sep-sidirg‘asini sandiqlarga joyladi-da, hech kim bilan xayrlashmay, Makondodan chiqib ketdi. Aureliano Ikkinchi unga vodiyga eltuvchi yo‘lda yetib oldi. Ko‘pdan ko‘p iltijo-yu va’dalardan so‘ng, xotinini uyga qaytarishga muvaffaq bo‘ldi, jazmanidan esa voz kechdi.

O‘z kuchiga ishongan Petra Kotes zarracha ham tashvish chekmadi. Axir, u Aureliano Ikkinchini erkakka aylantirgandi-da. Qiz uni Melkiadesning xonasidan olib chiqqanida va unga

hayotdagi o‘rni qayerdaligini ko‘rsatganida, u hali bola bo‘lib, miyasi turli xayollarga to‘lib-toshgan, haqiqiy dunyo haqida hech narsa bilmas edi.

U odamovi, mudom o‘zi tanho o‘y suradigan bo‘lib tug‘ilgan, Petra Kotes esa uning fe’l-atvorini butunlay o‘zgartirib, jo‘shqin, kirishimli, ochiq odamga aylantirgandi; bu ayol uning qalbiga hayot quvonchini olib kirgan, unda sershovqin o‘yin-kulgilarga va qo‘li ochiqlikka moyillik uyg‘otgan, oxir-oqibatda uni – zohiriy va botiniy jihatlardan o‘zi o‘smirlik yillaridayoq orzu qilib yurgan erkakka aylantirgan edi. So‘ng u uylandi. Har bir yigit ertami-kechmi baribir shunday qiladi. Uylanayotganini Petra Kotesga aytishga anchagacha jur’at etolmay yurdi. O‘zini xuddi bolalardek tutdi: goho bo‘lar-bo‘lmasga ta’nalar yog‘dirar, nimalardandir xafa bo‘lar, shu bahona, endi Petra Kotesning o‘zi men bilan boshqa gaplashmay qo‘yadi, deb umid qilardi. Bir kuni u jazmanini nohaq ayblayotganida, Petra Kotes uning tuzog‘iga ilinmadi.

– Hamma balo shundaki, – dedi u, – sen qirolichaga uylanmoqchisan.

O‘sal bo‘lgan Aureliano Ikkinchi darhol darg‘azab qiyofaga kirdi, o‘zini o‘rinsiz haqoratlangan odamday tutdi, jazmanini izlab kelmay qo‘ydi, Petra Kotes bardoshli edi. U zarracha ham tashvish tortmadi, uzoqdan taralayotgan kuylarni, fanfaralar tovushini, to‘y bazmining g‘ulduragan g‘ovur-g‘uvurini xuddi dam olayotgan yirtqich jonivor kabi xotirjam tinglar, nazarida unga to‘y Aureliano Ikkinchining yangi bir sho‘xligidek tuyilardi. Hamdardlik bildirganlarni o‘zining xotirjam kulgisi bilan yupatardi.

– Tashvish tortmanglar, kezi kelsa, qirolichalar ham menga yugurdaklik qiladi, – derdi Petra Kotes ularga. Yo‘qotilgan xushtorining surati yoniga duo-yu dam solingan sham yoqishni maslahat bergan qo‘shnisiga esa:

– Uni qaytishga majbur qiladigan yakka-yu yagona sham hali o‘chgani yo‘q, – dedi.

Ayol taxmin qilganidek, Aureliano Ikkinchi unikiga chilla o‘tishi bilanoq qaytib keldi. Har doimgi oshnalari va daydi suratkash ham u bilan birga edi. Aureliano Ikkinchi Fernanda karnavalga kiyib chiqqan ko‘ylak hamda qonga belangan bo‘rsiq mo‘ynali mantiyani ham ola kelgandi. Bazm shovqin-suronida Petra Kotesga qirolicha libosini kiydirib, uni Madagaskarning yagona va doimiy hukmdor ayoli deb e’lon qildi, suratkashga rasmga tushirishni buyurdi va suratlarni o‘z do‘stlariga ulashib chiqdi. Petra Kotes, Aureliano Ikkinchi ancha qiynalgani bois ham ana shunday g‘ayrioddiy yarashish yo‘lini o‘ylab topgan, shekilli, deb ich-ichidan unga rahmi keldi. Qirolicha libosini hanuz yechmagan Petra Kotes kech soat yettida Aureliano Ikkinchini kechirdi. Petra Kotes uylanganiga hatto ikki oy ham to‘lmagan bu yigitning xotini bilan aloqasi naridan-beriligini sezdi va nihoyat raqibasidan qasos ololganidan lazzatli bir qoniqish tuydi. Ammo oradan ikki kun o‘tib, Aureliano Ikkinchi o‘zi shaxsan kelishga jur’at qilolmay, uning yoniga qanaqa shartlar asosida ajralishlarini kelishib olish uchun vositachi yuborganida, Petra Kotes o‘zi o‘ylaganidan ko‘ra kattaroq sabr-bardosh talab etilajagini tushundi. Ayol Aureliano Ikkinchining xohishiga qarshilik qilmadi. Endi barcha odamlar uni, bechora qiz,

rahm-shafqat qilishga arziydi, deb hisoblashardi; Petra Kotesga ma'shuqidan faqat poyabzallarigina xotira bo'lib qoldi. Yigit ularni, o'zi aytishicha, tobutda kiyib yotishi uchun sotib olgandi. Kotes poyabzallarni lattaga o'rab, sandiqqa solib qo'ydi va tushkunlikka tushmay, bardosh bilan kutishga ahd qildi.

«Ertami-kechmi, baribir qaytishi kerak, – dedi u o'ziga o'zi. – Jillaqursa, ana shu poyabzallarni kiygani kelar-ku».

U o'zi o'ylaganchalik uzoq kutmadi. To'g'risini aytganda, Aureliano Ikkinchi Petra Kotesning yoniga o'sha moylangan poyabzallarni kiyishga majbur bo'lishidan ancha ilgari qaytajagini nikoh kechasiyoq tushundi: gap shundaki, Fernanda osmondan oyog'ini uzatib tushganlardan edi. U uzoq mamlakatdagi zimiston bir shaharchada tug'ilib o'sgandi. Bu shaharning o'ttiz ikki qo'ng'iroqxonasidan har kuni kech soat oltida dafn marosimining mungli jomi eshitilardi. Mustamlaka zamonidan qolgan, devorlariga qabr toshlari qoplangan ko'hna uylari oftob yuzini mutlaqo ko'rmasdi. Hovlida o'suvchi sarvning shox-butoqlari, bog'dagi namiqqan tabargullardan, rangi o'chgan darpardalardan jahannamga xos sukunat ufurib turardi. Fernanda balog'atga yetguncha, qo'shni uyda chalinayotgan pianinoning hazin kuylaridan boshqa birorta ham tovushni eshitmadi, o'sha uydagi ijrochi uzoq yillar davomida uni tushki uyqu halovatidan mahrum qiladi. U chang bosgan derazadan tushgan yog'duda yuzi ko'kish-sarg'ish tus olgan bemor onasining yonida o'tirib, tartibli, o'jar odamni g'ussaga cho'mdiruvchi ohanglarni tinglar, qabr

uchun gulchambarlar tayyorlar, horib-charchayotgan paytlari bu kuy nazdida yiroq bir o‘lkada chalinayotgandek tuyilardi. Galdagi bezgak xurujidan jiqqa terga botgan onasi ajdodlarining dabdabali o‘tmishi haqida so‘zlab berardi. Yoshgina Fernanda oydin kechalarning birida oppoq libos kiyib, kichik butxona tomon borayotgan go‘zal ayolni ko‘rib qolgan edi. Arvoh bilan bo‘lib o‘tgan bu bir lahzali uchrashuvda, o‘zining o‘sha ayolga tamoman o‘xshashini sezib, g‘oyat hayajonlandi. Notanish ayol uning o‘zginasi edi. «U – qirolicha, sening katta buving, – deb tushuntirdi onasi yo‘taldan o‘zini zo‘rg‘a tiyib. – U o‘lgan, chunki bog‘dagi tabargullarni butaganida ularning hididan zaharlangandi». Oradan bir necha yil o‘tib, Fernanda o‘zining katta buvisiga o‘xshashini yana bir bor his qila boshlaganida, bolaligidagi o‘sha uchrashuvni eslab, hech ishongisi kelmadi, ammo onasi Fernandani koyib berdi.

– Bizning boyligimiz va qudratimiz cheksiz, – dedi u. – Bir kuni borib, sen ham qirolicha bo‘lasan.

Garchand, chor-nochor ahvolda yashasa-da, uylaridagi uzun, ustiga yupqa dasturxon to‘shalgan va kumush sanchqi-pichoqlar qo‘yilgan xontaxtada unga hamisha bor-yo‘g‘i bir finjon shokoladli suv, bir dona shirinlik berishsa-da, Fernanda onasining gaplariga ishondi. Otasi don Fernando unga sep sotib olish uchun uyini garovga qo‘yishga majbur bo‘lgan bo‘lsa-da, Fernanda to to‘yi o‘tgan kungacha afsonaviy qirolichalik haqida shirin xayollarga botardi. Bu orzular soddalik yoki ulug‘lik vasvasasi emas, albatta, qizni ana shunday ruhda tarbiyalashgandi. Fernanda o‘zini tanibdiki, oilaviy tamg‘a tasviri tushirilgan tilla

tuvakka o‘tirardi. O‘n ikkiga kirib, monastirdagi maktabga jo‘nash maqsadida ilk bor uyini tark etganida, garchi masofa unchalik uzoq bo‘lmasa-da, uni faytonda olib ketishgandi. Sinfdosh dugonalarini bu yangi qizning g‘alati qiliqlari: ulardan ancha narida, juda baland suyanchiqli kursida o‘tirishi va hatto, tanaffusda ham ularga qo‘shilmasligi hayron qoldirardi. «U sizlardan tubdan farq qiladi, – deb tushuntirardi qizlarga rohiba ayollar, – u qirolicha bo‘ladi». Qizlar bunga ishonishgan, negaki Fernanda o‘shandayoq ular hayotda uchratgan eng suluv, himmatli va kamtarin qizaloq edi. Oradan sakkiz yil o‘tib, lotincha she’rlar yozish, musiqa chalish, kabalyerolar bilan lochin ovi, arxiyepiskoplar bilan esa apologetika[1] haqida suhbatlashishni, chet el hukmdorlari bilan muhim davlat ishlarini, papa bilan esa ilohiyotga taalluqli masalalarni muhokama qilishni o‘rgangan Fernanda ota-onasining kulbasiga qaytdi va yana dafn gulchambarlarini yasashga kirishdi. U uylari huvullab qolganini ko‘rdi. Unda faqat turmush uchun eng zarur jihozlar, qandillar-u kumush idish-tovoqlargina qolgan, boshqa narsalarni asta-sekin sotishga majbur bo‘lishgan edi. Onasi bezgak xurujidan o‘lgandi. Hamisha qop-qora kiyimda yuradigan yoqasi tarang, ohorlangan, soatning tilla zanjirini ko‘kragiga ko‘ndalang osib yuradigan otasi don Fernand unga har dushanbada ro‘zg‘or xarajati uchun bittadan kumush tanga berar va qizi bir hafta davomida to‘qigan gulchambarlarni olib ketardi. Boshqa paytlar u deyarli kun bo‘yi xo-

[1] Apologetika – ilohiyotning nasroniylikning barkamol-u barhaqligini isbotlashga bag‘ishlangan qismi.

nasida o‘tirar, onda-sonda shaharga chiqqanida ham, ibodatga qizi bilan birga borishga ulgurish uchun soat oltiga qolmay qaytardi. Fernanda hech kim bilan hech qachon do‘stlashmadi. Mamlakat urushda ko‘p qon yo‘qotib, holsizlanganini aslo eshitmadi. U har kuni kunduzi soat uchda pianinoda ijro etiladigan mashqlarni eshitishni kanda qilmasdi. Uyga kiraverishdagi eshikka osilgan bolg‘acha bir kuni to‘satdan ikki marta sabrsizlik bilan taqillagan kezda, u qirolichalikdan umidini uza boshlagandi. Fernanda eshik ochib, basavlat, favqulodda nazokatli, yuzi chandiqli, ko‘kragiga oltin nishon taqilgan harbiy kishini ko‘rdi. Mehmon uyga kirib, xonada qizning otasi bilan xoli gaplashdi. Oradan ikki soat o‘tgach, don Fernando qizining xonasiga keldi. «Shaylan, qizim, – dedi u, – sen uzoq safarga otlanasan». Shu tariqa Fernandani Makondoga – ota-onasi bir necha yillar davomida undan ustalik bilan yashirib kelishgan rosmana voqelik bor joyga olib kelishdi. Qiz uyiga qaytgach, xonasiga qamalib, tahqirlangan ko‘ngliga taskin berishga uringan don Fernandoning yalinib-yolvorishlari-yu vaj-korsonlarini eshitmay, uzoq yig‘ladi. Fernanda endi to o‘lguncha yotog‘idan chiqmaslikka ahd qildi, ammo shu payt uning ortidan Aureliano Ikkinchi kirib keldi. Bu aqlga sig‘dirib bo‘lmas omad edi, chunki g‘azabdan gangib qolgan Fernanda o‘shanda Makondoda o‘zining kimligini bildirmaslik uchun yigitga yolg‘on gapirgandi-da. Notanish qizni qidirish uchun yo‘lga otlangan Aureliano Ikkinchi qizning gapini eshitgan, lahjasidan tog‘lik ekanini, shuningdek, uning dafn gulchambarlari yasashini bilardi. Yigit uni izlab topish uchun kuch-qudrati-

ni hech ayamadi. Aureliano Ikkinchi Fernandani umidsizlanmay, Xose Arkadio Buendia Makondoga asos solish uchun tog‘ tizmasini kesib o‘tgani kabi jasorat, polkovnik Aureliano Buendia o‘zining barcha behuda urushlarini olib borganidagi kabi ko‘r-ko‘rona iftixor, o‘z zurriyotining halovati uchun kurashgan Ursula singari telba bir o‘jarlik bilan qidirdi. U odamlardan dafn gulchambarlari qayerda sotilishini so‘rab-surishtirardi. Odamlar uni eng yaxshi gulchambarni tanlab olishi uchun xonadonma-xonadon boshlashardi. U yer yuzidagi tengsiz go‘zal ayol qayerda yashashini so‘raganida, barcha onalar o‘z qizlari yoniga olib borishardi. Yigit noaniqlik daralari, xotiradan o‘chirib tashlangan qo‘riqxonalar bo‘ylab umidsizlikning chigal yo‘llarida ancha adashdi. U aks sado fikrlarini takrorlovchi, sog‘inch esa xayoliy bir sarob hosil etuvchi sarg‘ish sahroni kesib o‘tdi. Bir necha hafta davom etgan samarasiz qidiruvlardan so‘ng, barcha qo‘ng‘iroqlari xuddi marhumga motam tutayotgani kabi chalinib turgan noma’lum bir shaharga kirib keldi. U, hattoki biror marta ko‘rmagan va eshitmagan bo‘lsada, shimoldan esgan shamollar uchirib kelgan tuzlar ta’sirida devorlari yemirilgan, ravoqlarining yog‘ochi chirib qoraygan va eshigi tepasidagi bir parcha kartondagi «Dafn gulchambarlari sotiladi» degan yozuvi yomg‘irdan o‘chayozgan uyni (dunyoda bundan ko‘ra qayg‘uliroq yozuv bo‘lmasa kerak) darrov tanidi. Ayni lahzadan boshlab, to Fernandaning ona-Igumenya[1] nazorati ostida o‘z uyini bir umrga tashlab ketgan o‘sha muzday sovuq tonggacha bo‘lgan vaqt shunchalik tez

[1] Igumenya – ayollar ibodatxonasining boshlig‘i.

o‘tdiki, bu muddatda rohibalar kelinlik sarposini tikishga hamda qandil, kumush idish-tovoqlar, tilla tuvak va ikki asrdan beri davom etayotgan oilaviy halokatning son-sanoqsiz, foydasiz qoldiqlarini sandiqlarga joylashga zo‘rg‘a ulgurishdi. Don Fernando qizini kuzatib borishga ko‘nmadi. U qarzlaridan qutulgan zahotiyoq Makondoga yetib kelishga so‘z berdi va qiziga oq fotiha berib, yana o‘z xonasiga bekinib oldi-da, farzandiga gul hamda oilaviy tamg‘a tasviri tushirilgan qog‘ozlarga bitilgan qisqa maktublar yo‘llab turdi. Fernanda uylaridan chiqib ketgan kuni qayta tug‘ilganday bo‘ldi. Aureliano Ikkinchi uchun esa bu kun ham baxtning ibtidosi, ham intihosi edi.

Fernanda zarhal gulchalar bilan bezatilgan, er-xotinlik burchini ado etishdan tiyilish kunlari ruhoniy tomonidan binafsharang siyohda belgilab chiqilgan bejirim taqvim olib keldi. Undan bir qator sanalar, jumladan, yakshanbalar, har oyning ibodatbop ilk jumasi, ro‘za va nazr-niyoz kunlari, shuningdek, vaqti-vaqti bilan bo‘ladigan kasallik davrini hisobga olmaganda, binafsharang chorcho‘plar sochib tashlangan quyuq o‘rmonning har joy-har joyiga tashlab qo‘yilgan qirq ikki yaroqli kun qolardi, xolos. Vaqti kelib bu tikanli to‘siq kunpayakun bo‘lishiga ishongan Aureliano Ikkinchi to‘y bazmini sal uzoqroq davom ettirdi. Shampan-u sharobdan bo‘shagan shishalar uyumi uyni bosib ketmasligi uchun ularni axlat tashuvchiga tinimsiz chiqarib berishdan charchagan va kelin-kuyov turli vaqtda turli xonalarda yotishlaridan, fanfara-yu musiqa ovozlari tinmayotganidan, mol so‘yish hanuzga-

cha davom etayotgani xayolini band qilgan Ursula o‘zining kelinlik tajribasini eslab, Fernandadan uning iffat kamari bor-yo‘qligini surishtirdi. Shunday bo‘lgan taqdirda, bu hol ertami-kechmi shaharga ovoza bo‘lib, oxiri yomonlik bilan tugardi. Ammo Fernanda hech qanday kamari yo‘qligi, faqat to‘ydan keyin ikki hafta o‘tishini kutayotganini va shundan so‘ng o‘zini erining ixtiyoriga topshirajagini aytdi. Darhaqiqat, ana shu muddat o‘tgandan keyin u gunohlarning yuvilishi uchun o‘zini qurbon qilishga tayyorlab, kuyovi yotog‘ining eshigini ochdi. Aureliano Ikkinchi ko‘zlari hurkkan ohunikiga monand, misrang uzun sochlari yostiqqa yoyilgan, dunyodagi eng suluv qizni ko‘rdi. Mahliyo bo‘lib qolgan kuyov, Fernanda yenglari uzundan uzun, etaklari mahorat bilan kashtalangan qorday oppoq ko‘ylak kiyganini keyinroq payqadi. Aureliano Ikkinchi o‘zini kulgidan tiya olmadi.

– Umrimda bunaqasini ko‘rmaganman! – qichqirdi u kula-kula. Kulgisi butun uyni tutib ketdi. – Men rohibaga uylanibman.

Oradan bir oy o‘tdi. Xotini o‘sha oq ko‘ylagini yechavermagach, u Petra Kotesni qirolicha kiyimida suratga tushirish uchun bordi. Keyinchalik u Fernandani yo‘ldan qaytarishga muvaffaq bo‘lganida, kelin yarashuv shavqidan mast bo‘lib, kuyovning xohishiga rozi bo‘ldi, ammo u Aureliano Ikkinchi o‘ttiz ikki qo‘ng‘iroqli shaharga yo‘l olayotib, orzu qilgan oromni baxsh etolmadi. Bir kuni kechqurun, to‘ng‘ich o‘g‘illari tug‘ilmasidan ancha ilgari, Fernanda eri yashirincha Petra Kotesning yoniga borganini bilib qoldi.

– Ha, sen haqsan, – tan oldi Aureliano Ikkinchi xotiniga o‘z ixtiyori bilan hammasidan tamoman

voz kechishga tayyor odamday tushuntirdi: – Men podaning serpushtligini o‘ylab, shu ishni qildim.

Albatta, xotinini bu g‘ayrioddiy dalilga ishontirish uchun ancha vaqt ketdi, lekin Aureliano Ikkinchi rad qilib bo‘lmas dalillar keltirib, nihoyat bunga erishganidan keyin, Fernanda undan faqat bir narsani: jazman to‘shagida o‘lib qolmaslikka va’da berishini so‘radi, xolos. Ular uchovlon bir-birlariga aslo xalaqit bermay yashashni davom ettirishdi; Aureliano Ikkinchi ikkala ayolga ham mehribon edi. Petra Kotes o‘z g‘alabasidan zavqlanar, Fernanda bo‘lsa o‘zini hech narsani bilmaslikka olardi.

Garchand Fernanda eri bilan sulh tuzsa-da, qolgan Buendialar bilan til topisholmadi. Ursulaning iltimoslari bekor ketdi. Fernanda xotinlik burchini bajargan kechaning ertasiga qora jun kapot[1] kiyib chiqish odatini tashlamadi. Bu kapot allaqachonoq qo‘shnilarning shivir-shiviriga sabab bo‘lgandi. Shuningdek, Ursula Fernandani mo‘rcha va hojatxonadan foydalanishga, tilla tuvagini baliqchalar tayyorlash uchun polkovnik Aureliano Buendiaga sotishga ham ko‘ndirolmadi. Fernandaning so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz etib, nihoyatda pardalab, naq zarbulmasal qilib aytish odati Amarantaning jig‘iga tegar, shu sabab, u Fernanda bilan doimo qandaydir tushunarsiz bir tilda gaplashardi. «Bufa qizfa, hatto fe o‘zaro tezagidanfa burninife jiyrafa toifasidanfefe», – deb qoldi Amaranta to‘satdan bir kuni.

Fernanda oshkora mazaxdan darg‘azab bo‘lib, izoh so‘raganida, Amaranta pardalab o‘tirmadi:

– Sen ro‘za tutib, savobini ketidan kutadigan odamsan.

---

[1] Kapot – uy ichida kiyib yuriladigan kiyim.

Ana shu kundan e'tiboran, ular gaplashmay qo'yishdi. Juda zarur paytlari esa xat yoki vositachi orqali ish tutar edilar. Fernanda Buendialarga o'z ajdodlarining oliyjanob an'analarini singdirmoqqa urinardi. U har kimning o'zi xohlagan paytda oshxonaga kirib ovqatlanish odatini yo'qotdi va butun oilani ustiga qorday oppoq dasturxon, shamdon va kumush idish-tovoqlar qo'yilgan kattakon xontaxta atrofiga qat'iy bir soatda to'playdigan bo'ldi. Ursula eng jo'n narsa deb hisoblaydigan tamaddi jarayonining tantanali marosimga aylanishi, uyda shu qadar toqat qilib bo'lmaydigan batartib muhit yaratdiki, hatto kamgap Xose Arkadio Ikkinchi ham bunga qarshi chiqdi. Lekin baribir, bu yangi qoida, boshqa bir yangilik – kechki ibodat kabi tantana qildi; bu esa qo'shnilarining e'tiborini tortdi va Buendialarning xontaxta atrofida oddiy odamlardek o'tirmasliklari, ularning tamaddini naq ibodat marosimiga aylantirgani haqidagi ovozaga aylanib ketdi. Hattoki Ursulaning an'analar ta'sirida emas, balki oniy bir ilhom tufayli tug'iladigan irim-sirimlari ham Fernandaning otameros irimlariga mutlaqo zid bo'lib chiqardi. Ursulaning to'rt muchasi sog' payti oilaning eski an'analariga rioya qilinardi, u ko'zi ojizlanib, ro'zg'or yumushlaridan chetlashganidan so'ng Fernanda kelin bo'lib tushgach, xonadon qattiqqo'llik iskanjasida qoldi. Endilikda oila taqdiri Fernanda qo'lida edi. Ursulaning xohishiga ko'ra, Santa Sofiya de la Pyedad qandolat sotardi, Fernanda esa buni oila uchun nomunosib ish deb baholadi. Erta-yu kech lang ochiq turadigan uyning eshiklari oldin tushki uyqu paytidagina yopiq tursa, bora-bora umuman ochilmaydigan bo'ldi. Makondo bunyod bo'lgani-

dan beri eshik kesakisida osig‘liq turadigan bir tutam aloe va boshoq o‘rnini Isoning yuragi tasvirlangan tokcha egalladi. Polkovnik Aureliano Buendia bu yangiliklarni sezgach: «Biz oqsuyaklarga aylanib qolyapmiz, – deb norozilik bildirdi. – Bunaqada konservatorlarga qarshi urush ochib, ularning o‘rnini qirolga olib berishga to‘g‘ri keladi». Fernanda polkovnik bilan orani buzmaslikka harakat qilardi. Albatta, u polkovnikning mustaqilligidan, uyda joriy etilgan yangi qoidalarga monelik ko‘rsatishidan ichida norozi bo‘lardi. Uning sahar soat beshda qahva ichishdan, ustaxonasidagi tartibsizlikdan, ilma-teshik bo‘lib to‘zib qolgan yomg‘irpo‘shidan, kechqurunlari ko‘cha eshigi yonida o‘tirish odatidan Fernandaning fig‘oni chiqardi. Lekin Fernanda oila dastgohining bu bevosh murvati bilan murosa qilishga majbur edi. Chunki polkovnik yillar-u noumidlik bir amallab xonakilashtirgan yovvoyi hayvonligini, agar g‘azabi qo‘zisa, xonadondagi yangicha tartibni tag-tomiri bilan qo‘porib tashlashini yaxshi bilardi. Eri to‘ng‘ich farzandiga katta bobosining ismini qo‘yganida, Fernanda e’tiroz bildirolmadi. Ammo qizaloq ko‘rganida chaqaloqqa onasi sharafiga Renata deb ism qo‘yajagini baralla aytdi. Ursula esa, uni Remedios deb ataymiz, deya turib oldi. Aureliano Ikkinchi antiqa vositachilik vazifasini bajargan keskin bahslardan keyin, qizaloqqa Renata Remedios degan ism qo‘yishdi. Faqat onasigina uni Renata deb chaqirar, qolgan hamma esa Remediosning ismini qisqartirib, Meme deyishardi.

Fernanda dastlab ota-onasidan gap ochmasdi, ammo keyinchalik ularni ochiqchasiga ulug‘lay boshladi. U otasini naq avliyo qilib tasvirlar edi.

Qaynotasining bunchalar ko‘kka ko‘tarilishidan taajjublangan Aureliano Ikkinchi o‘zini tiyolmay, xotini yo‘q paytda qaynotasi haqida hazil-huzul qilardi, boshqalar ham unga ergashar edi.

Hattoki oila tinchini jon kuydirib qo‘riqlab, uylaridagi g‘avg‘olardan pinhoniy aziyat chekuvchi Ursula ham bir kuni: «Kenja nevaramni papalik taxti kutmoqda: chunki uning «bobosi avliyo, onasi qirolicha, otasi esa mol o‘g‘risi», – deb qoldi. Bu sho‘x fitnachilarning maynavozliklariga qaramay, Aureliano Ikkinchining bolalari bobolarini doimo diyonatga doir she’rlar bitilgan maktublar, rojdestvo arafasida esa sovg‘alar solingan ulkan quti (u shunchalar katta bo‘lardiki, eshikdan xonaga bazo‘r olib kirishardi) yuborib turadigan afsonaviy odam, deb o‘ylashga odatlanishdi. Don Fernando nevaralariga ajdodlaridan qolgan mulkning eng so‘nggi qoldiqlarini birin-ketin jo‘natardi. Bolalar xonasida ulardan kattaligi avliyolarning asliga teng keladigan shakllar-u mehrob yasashdi, shisha ko‘zli bu avliyolar xuddi tirikdek odamni g‘ulg‘ulaga solar, ularning egnidagi gul tasviri mohirona tikilgan movut kiyimlar esa Makondodagi eng chiroyli libos hisoblanardi. To‘ralar xonadonlarining dafnga daxldor ko‘hna, mungli hashami asta-sekin Buendialarning shinam va yorug‘ uyiga ham ko‘chdi. «Bizga butun oilaviy qabristonni yuborishdi, – dedi bir payt Aureliano Ikkinchi. – Majnuntol-u qabr toshlari yetishmay turibdi, xolos». Garchand bobolari yuboradigan qutilarda bolalarbop hech vaqo bo‘lmasa-da, nevaralar baribir dekabr oyini har yili sabrsizlarcha kutishar, chunki qadimiy va kutilmagan buyumlar ularning hayotiga doimo

allaqanday rang-baranglik baxsh etardi. O‘ninchi rojdestvoga o‘tar chog‘i, kichik Xose Arkadioni seminariyaga jo‘natishga hozirlik ko‘rishayotganlarida, bobolaridan tag‘in kattakon quti keldi. Odatdagi muddatdan ancha ilgari kelgan bu quti mixlangan, nam tegmasin uchun choklariga qatron surtilgan, ustiga gotik uslubda yozilgan harflarda «Senyora don Fernanda del Karpio de Buendia zoti oliyalariga», deb bitilgan edi. Fernanda yotog‘iga o‘tib, xatni o‘qiyotgan paytda, bolalar qutini ochishga oshiqib yugurishdi. Har galgidek Aureliano Ikkinchi ularga ko‘maklasha boshladi. Qatronni qirtishlab tashlashdi, mixlarni sug‘urib, qipiqlarni olib tashlashdi va uning ostida mis murvatlar bilan mahkamlangan uzun qo‘rg‘oshin sandiqni ko‘rishdi. Sandiqning sakkiz murvatini burab chiqargan Aureliano Ikkinchi nogahon qichqirib yubordi va bolalarni chetga olishga arang ulgurdi: u andak ko‘tarilgan qopqoq tagida don Fernandoning o‘ligini ko‘rdi. Marhumga qora libos kiydirilgan, ko‘kragiga xoch qo‘yilgan edi. Qurtlarning ko‘pikli, bijg‘igan qaylasida asta-sekin dimiqqan jasadning, terisi esa sassiq kekirikdek tovush chiqarib yorilardi.

Renata tug‘ilganidan so‘ng xiyla vaqt o‘tgach, Neerland muvaqqat bitimining galdagi yilligi munosabati bilan hukumat daf’atan polkovnik Aureliano Buendianing yubileyini nishonlashga ko‘rsatma berdi. Bunday qaror rasmiy siyosatga shu qadar qovushmasdiki, polkovnik hech ikkilanmasdan rad etdi va qutlash marosimidan voz kechdi. «Men «qutlash» so‘zini birinchi marta eshitishim, – dedi u. – Lekin u nimani anglatmasin, baribir, bu ochiqdan ochiq tahqirdir». Uning

tor ustaxonasi turli vakillarga to‘lib-toshdi. Ilgarilari polkovnikning atrofida quzg‘undek aylanadigan o‘sha qora kostyumli advokatlar yana paydo bo‘lishdi, ular endi keksayib qolishgan, ammo avvalgidan salobatliroq edi. Polkovnik advokatlarni ko‘rib, ularning urushni boshi berk ko‘chaga olib kirish maqsadida kelganlarini esladi, surbetlarcha maqtovlarga chiday olmay: «Meni xoli qoldiringlar, – deb buyurdi. – Siz ta’kidlayotgandek millat ozodligi kurashchisi emas, balki o‘tmishi yo‘q oddiy hunarmandman, birdan bir orzuyim oltin baliqchalar orasida holdan toyib, qashshoq va unutilgan odam sifatida o‘lish», – dedi u. Respublika prezidentining Makondodagi tantanada shaxsan ishtirok etishi hamda polkovnikka «Hurmat» ordenini topshirishi haqidagi xabar uni battar g‘azablantirdi. Polkovnik Aureliano Buendia prezidentga quyidagilarni so‘zma-so‘z yetkazishlarini iltimos qildi: «Hukumat qonunini buzayotgani, mansabni suiiste’mol qilayotgani uchun emas, balki beziyon qariyani behurmat qilgani uchun prezidentning peshonasiga o‘q uzadigan qulay vaziyatni sabrsizlik bilan kutaman». U shu qadar qiziqqonlik bilan do‘q-po‘pisa qildiki, oqibatda respublika prezidenti eng so‘nggi daqiqada ahdidan qaytib, ordenni shaxsiy vakili orqali berib yubordi. To‘rt tomondan o‘z holiga qo‘yishmagach, polkovnik Xerineldo Markes iltimos va talablarga ko‘ndi. Oxiri eski quroldosh do‘stini avrash maqsadida o‘zining shol yotgan to‘shagini tark etdi. Polkovnik Aureliano Buendia to‘rt kishi ko‘tarib olgan tebranma kursidagi katta yostiqlar orasida o‘tirgan do‘stini ko‘rganida, yoshlik yillaridan buyon g‘alaba, mag‘lubiyatni

birga totib kelayotgan polkovnik Xerineldo Markes huzuriga faqat bir maqsad – uning azmi qarorini qo‘llab-quvvatlash uchun bor kuchini to‘plab kelganiga bir zum ham shubha qilmadi. Ammo tashrifining asl muddaosini bilgach, ustaxonadagi kursini polkovnik Xerineldo Markes bilan birga chiqarib tashlashni so‘radi.

– Seni avvalroq otib tashlasam bo‘larkan, do‘stim, – dedi Aureliano Buendia, – o‘shanda bugungidaqa nomusga qolib yurmasding.

Xullasi kalom, qutlov marosimi Buendialarning ishtirokisiz o‘tdi. Qutlov karnavallar haftaligiga tasodifan to‘g‘ri keldi, ammo hukumat meni atay mazax qilyapti, degan fikr polkovnik Aureliano Buendiaga tinchlik bermasdi. U ustaxonada o‘tirib harbiy musiqa sadolari, artilleriya zalpini, qo‘ng‘iroqlar jarangi-yu ko‘chalariga uning nomi berilishi munosabati bilan so‘zlangan nutqlarning ayrim jumlalarini eshitdi. Qonli urush boshlay olishi va konservatorlar hokimiyatini tag-tomiri bilan yo‘q qilishi uchun endilikda o‘sha yoshlik matonati yetishmasligini sezgan polkovnik Aureliano Buendianing ko‘zlari mag‘lubiyatga uchragandan so‘ng ilk bor yoshlandi.

– Tinch qo‘yinglar, – dedi polkovnik Aureliano Buendia, – men bandman.

– Och, – Ursulaning tovushi hamishagidek vazmin edi. – Buning bayramga hech aloqasi yo‘q.

So‘ng eshik lo‘kidonini surib, dahlizda turgan o‘n yetti nafar erkakni ko‘rdi, garchand, ularning tashqi qiyofasi, aft-angori, rang-tuslari turlicha bo‘lsa-da, ularga xos bo‘lgan umumiy bir o‘xshashlik mavjud edi. Shu bois ularni dunyoning istagan burchagida ajratish mumkin edi.

Ular polkovnikning o‘g‘illari edi. Aka-ukalar garchi bir-birlarini mutlaqo tanimasalar-da, yubiley to‘g‘risidagi xabarni eshitib, har biri o‘zicha sohilning eng uzoq burchaklaridan kelishgan edi. Ular ismlari Aureliano ekanidan faxrlanishardi. Mehmonlar uch kun ichida uyini ostin-ustin qilib tashlashdi. Bundan Ursula quvonar, Fernandaning jahli chiqar edi. Amaranta eski qog‘ozlar orasidan Ursula bir paytlar har bir nevarasining tug‘ilgan va cho‘qintirilgan kuni hamda manzilini yozib qo‘ygan daftarchani qidirib topdi. Bu ro‘yxatga qarab yigirma yillik urushning har bir yilini xotirada qayta tiklash mumkin edi. Shuningdek, polkovnikning qo‘zg‘olonchilar safiga qo‘shilish xomxayoli bilan Makondodan yigirma bir kishini boshlab chiqqan tonggi safaridan tortib, to ustiga qotib qolgan qondan dag‘allashib ketgan yomg‘irpo‘shda uyiga qaytgan so‘nggi safarigacha bo‘lgan barcha yurishlarini kuzatish mumkin edi. Aureliano Ikkinchi qarindoshlarining tashrifini shampan va akkordeonli sershovqin bazm bilan nishonladi. Mehmonlar uydagi guldonlarning naq yarmini chilparchin qilishdi, kattakon ho‘kizni ko‘rpaga o‘rab gandiraklatish niyatida quva-quva atirgullarni payhon qilishdi, barcha tovuqlarni otib tashlashdi. Amarantani Petro Krespining hazin kuylariga raqsga tushirishdi, go‘zal Remediosga shim kiydirib, uchiga sovrin ilingan uzun xodaga chiqarishdi; ular yemakxonaga haydab kirgan, tanasiga yog‘ surkalgan cho‘chqa Fernandani turtib yiqitdi. Ammo ko‘ngilsizliklardan hech kim arz qilmadi, chunki butun uyni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlagan bu zilzila ularga allaqanday huzurbaxsh bo‘lib tuyildi. Dastlab o‘z

o‘g‘illarini allaqanday ishonchsizlik bilan kutib olgan va hatto ayrimlarining o‘z zuriyoti ekanligiga shubha qilgan polkovnik Aureliano Buendiani ham ularning qiliqlari quvontirdi. Bolalarining jo‘nab ketishidan ilgari u har biriga bittadan tilla baliqcha hadya etdi. Odamovi Xose Arkadio Ikkinchi esa amakivachchalarini xo‘roz urishtirishga taklif qildi. Bu voqeaning fojia bilan tugashiga oz qoldi. Aurelianolarning ko‘pchiligi xo‘roz urishtirishning hadisini olgandilar. Ular bellashuvda peshqadamlik qilayotgan Padre Antonio Isabelning muttahamligini darhol fosh etishdi. Qarindoshlari sayr-tomosha va o‘yin-kulgiga o‘chligini sezgan Aureliano Ikkinchi ularni olib qolishga ahd qildi. Uning taklifiga kuch-quvvatga to‘lib-toshgan va bobosi kabi tadqiqot ishlariga moyil zo‘r bahaybat mulat – g‘amgin Aurelianogina rozi bo‘ldi. U omad qidirib, dunyoning yarmini kezib chiqqan, endi unga qayerda yashashning qizig‘i yo‘q edi. Boshqalari esa, garchand, hali oilali bo‘lishmasa-da, o‘z taqdirimizni topganmiz, deb hisoblashardi. Ularning barchasi qo‘li gul hunarmandlar bo‘lib, ro‘zg‘or tutishni ham joyiga qo‘yadigan yigitlar ekan.

Chorshanbada, ulug‘ ro‘zaning birinchi kunida, yigitlar o‘z uylariga jo‘nab ketmaslaridan burun, Amaranta ularni kiyimlarini almashtirib, cherkovga borishga undadi. Polkovnikning o‘g‘illari cherkovga tavba-tazarru uchunmas, balki ermak uchun borishdi. Padre Isabel har birining peshonasiga kuldan xoch tasvirini chizib qo‘ydi. Qaytib kelishgach, kenjasining peshonasini artmoqchi bo‘lsa, hech o‘chmadi. Akalarining manglayidagi belgilar ham o‘chmadi, suv va sovun,

qum va chipta, oxiri esa jilvirtosh va javharni ishga solishdi, biroq xochni o‘chira olishmadi. «Qaytaga yaxshi-ku, – dedi Ursula aka-ukalar bilan xayrlashayotib, – endi sizlarni hech kim adashtirmaydi».

Ular orkestr sadolari ostida bir to‘p bo‘lib, shahardagilarga Buendialar pushti aslo qurimaydi, degan tasavvur qoldirib, yo‘lga tushdilar. Telba ixtirochi Xose Arkadio Buendia orzu qilgan o‘sha muz fabrikasini g‘amgin Aureliano shahar chetida bunyod etdi.

Makondoga kelganidan bir oy o‘tgandan so‘ng, hamma tanib, yoqtirib qolgan g‘amgin Aureliano onasi va erga tegmagan singlisi (u polkovnikning qizi emasdi) uchun qulay joy izlab, maydon kunjagidagi katta, beo‘xshov va eski imoratga qiziqib qoldi. Bu bino juda tashlandiq ahvolda edi. G‘amgin Aureliano odamlardan egasini surishtirdi, unga, bu uy bo‘sh, deb aytishdi. Kesakxo‘r bir beva yasharkan, uni o‘limidan oldin ikki marotaba – mayda sun’iy gullar qadalgan shlyapa va eski poyabzalda maydonni kesib, yepiskopga yozgan xatini jo‘natish uchun pochta idorasi tomon borayotganida ko‘rishgan ekan. Yigit bevaning yakka-yu yagona dugonasi bag‘ritosh bir oqsoch ayol bo‘lganini va u uyga kirib qolgan it, mushuk hamda boshqa jonivorlarni o‘ldirib, shaharni qo‘lansa hid qoplashi uchun jasadlarni ko‘chaning o‘rtasiga irg‘itishini bilib oldi. Uy sohibasi va uning oqsochi urush tamom bo‘lishidan ancha ilgari o‘lib ketganligiga hammaning ishonchi komil bo‘ldi. Imorat esa ko‘pdan buyon qattiqroq qish va bo‘ron bo‘lmayotgani uchungina qulab tushmagandi. Oshiq-moshiqlarini zang

yeb bitiray degan eshiklar go‘yo o‘rgimchak iplariga osilib turganday edi; deraza romlari namlikdan shishib ketgandi; peshayvondagi o‘ydim-chuqur bo‘lib ketgan sement poldan o‘t va dala gullari unib chiqqan bo‘lib, kaltakesak hamda boshqa jonivorlar o‘rmalab yurardi. Xullas, ayni manzara uyda qariyb ellik yildan buyon hech kim yashamayotganini bildirardi. Besabr g‘amgin Aurelianoga uyni egallash uchun bu dalillarning choragi ham kifoya qilardi. G‘amgin Aureliano oyog‘i ostidan chiqqan chang bosilgunicha ostonada kutib turdi, so‘ngra mehmonxona o‘rtasidagi o‘tgan asr modasida kiyingan ozib-to‘zgan ayolga ko‘zi tushdi, uning birorta tuki qolmagan boshidan bir necha dona sarg‘ish o‘t o‘sib chiqqan, hali go‘zalligini yo‘qotmagan yirik ko‘zlarida umid uchqunlari so‘na boshlagan, yolg‘izlik azobidan ajin tushgan ozg‘in yuzlari tirishib ketgandi.

Arvoh bilan uchrashuvdan hayajonga tushgan g‘amgin Aureliano ayol qo‘lidagi eski nusxa harbiy to‘pponchadan o‘zini nishonga olganini sal kechikibroq payqadi.

– Meni kechiring, – dedi u shivirlab. Ayol eski buyumlar bilan to‘lib-toshgan xonaning o‘rtasida turganicha, peshonasiga kuldan xoch tasviri tushirilgan keng yelkali bu pahlavonni diqqat bilan kuzatdi va hali batamom bosilmagan g‘ira-shira g‘uborda u ko‘ziga qo‘shog‘iz miltiq osib olgan, qo‘lida quyon tutgan odamdek tuyildi.

– Yo‘q! Xudo haqi! – qichqirdi ayol xirildoq tovushda. – Menga endi buni eslatish shafqatsizlik bo‘ladi.

– Men uyingizni ijaraga olmoqchi edim, – dedi g‘amgin Aureliano.

Shunda ayol yana to‘pponchasini g‘amgin Aurelianoning peshonasidagi xochga to‘g‘riladi va qat’iylik bilan tepkini ko‘tarib qo‘ydi.

– Keting, – deb buyurdi u.

Kechqurun, ovqat mahali g‘amgin Aureliano voqeani uydagilarga so‘zlab berdi va uning hikoyasidan qayg‘uga botgan Ursula ko‘z yoshi qilib oldi. «Voy Xudoyim-ey, – deya iltijo qildi u boshini changallagancha. – U hali tirik ekanda!» Vaqt, urushlar, behisob baxtsizliklar tufayli Ursula Rebekani butunlay unutib yuborgandi. Keksayib qolgan bir so‘zli Amarantagina, Rebeka tirik, degan o‘ydan xalos bo‘lolmasdi. U tonglari g‘arib to‘shagida cho‘chib uyg‘onib ketganida ham, so‘ligan badanini yuvayotganida ham, oq gazlamadan tikilgan kampirlarbop yubka va korsajini kiyayotganida ham, mudhish gunohini eslatuvchi qora bilak bandini almashtirayotganida ham Rebeka haqida o‘ylardi. Amaranta uxlayotganida ham, bedorligida ham, ruhi ko‘tarinki va niyati buzilgan daqiqalarda ham doimo Rebekani o‘ylardi; yolg‘izlik uning xotiralarini ma’lum bir tartibga soldi – turmush yuragiga qalab tashladi, ko‘ngilga g‘am-g‘ussalarni eslatuvchi suprindilarni yoqib yubordi va boshqa qator achchiq xotiralarini tozalab, ularga mangulik ato etdi. Go‘zal Remedios Rebekaning hayotligini Amarantadan yashirdi. Ular uning puturdan ketgan uyi yonidan o‘tishayotganida, Amaranta qizga har safar Rebekaning nonko‘rligi yoki raqibasining nomi bilan bog‘liq allaqanday ko‘ngilsiz yoki behayo voqea to‘g‘risida hikoya qilib berar va holdan toydirguvchi adovatini shu yo‘sinda go‘zal Remedios bilan birga baham ko‘rishga, uni o‘limidan

so‘ng davom ettirishga intilardi. Lekin uning urinishlari mudom samarasiz yakunlanar, chunki go‘zal Remediosga boshqalarni hayajonlantiruvchi ehtiroslar mutlaqo yot edi. Ursulaning hislari esa Amarantanikiga batamom zid edi. Rebeka u uchun barcha razilliklardan xoli bir xotira edi; Ursulanikiga ota-onasining shaqildoq suyaklari solingan qop bilan birga keltirilgan bu bechora mitti qizning siymosi Rebekani Buendialar avlodiga nomunosib qilib qo‘ygan o‘sha sharmandali xatti-harakati haqidagi xotiradan ustun chiqdi. Aureliano Ikkinchi Rebekani uylariga ko‘chirib kelib, unga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga qaror qildi, ammo Rebekaning o‘jarligi tufayli bu ezgu niyat amalga oshmadi. Rebeka yolg‘izlikning imtiyozini qo‘lga kiritish uchun juda ko‘p qayg‘u-musibat chekdi va bu imtiyozni u o‘zgalar panohidagi shafqatga, soxta lazzatlardan iborat beorom keksalikka almashtirishni xohlamadi.

Fevral oyida Makondoga polkovnik Aureliano Buendianing peshonalaridagi xoch tasviri hali ham o‘chmagan o‘n olti o‘g‘li yana kelganida, g‘amgin Aureliano Rebeka haqida gapirib berganda ular bir zumda bu uyni suvoqdan chiqarishdi, eshik va derazalarini almashtirishdi, peshtoqini dilni yayratadigan yorqin rangga bo‘yashdi, devorlarga tirkagich o‘rnatishdi, peshayvon polini qaytadan sementlashdi. Ammo uyning ichkarisini tuzatishlariga esa ruxsat bo‘lmadi. Rebeka hatto eshik yoniga ham yaqin kelmadi. Aka-ukalar shoshib-pishib ta’mirlash ishlarini tugatgach, Rebeka qiymatini hisoblab chiqdi-da, keksa oqsochi Arxenidadan ularga bir hovuch tanga berdirib yubordi (bu pullar oxirgi urushdan so‘ng mu-

omaladan chiqarilgan-u, Rebeka hamon yaroqli deb o‘ylar edi). O‘g‘lonlar Rebeka bilan bu dunyo o‘rtasida naqadar chuqur choh borligini sezishdi va tarki dunyo qilgan bu ayolni to qalbidagi hayot uchquni batamom so‘nmaguncha, biror joyga olib ketish mumkin emasligini tushunishdi.

Polkovnik Aureliano Buendianing o‘g‘illari bu gal kelishganida, endi Javdarrang Aureliano Makondoda qolib, G‘amgin Aureliano bilan birga ishlay boshladi. U polkovnikning cho‘qintirgani uyga olib kelingan ilk o‘g‘illaridan bo‘lib, Ursula bilan Amaranta yaxshi eslab qolishgandi, chunki u qo‘lga tushgan barcha mo‘rt buyumlarni birpasda sindirib tashlagan edi. Betida chechak izlari qolgan o‘rta bo‘yli bu yigitning bolalikdagi buzarmonligi hamon qolmagan edi. Eh-e, qancha likopchalarni sindirdi, hatto qo‘li tegmasa-da, yonida turgan idishlar chilparchin bo‘lardi. Qimmatbaho chinni buyumlarini ayagan Fernanda unga qalayi likopchalar xarid qilishga shoshildi, ammo tez fursatda bu mustahkam metall idishlarda ham zaxa-yu darz ketgan joylar paydo bo‘laverdi. Samimiyati va ishchanligi tufayli Javdarrang Aurelianoning o‘zini ham mushkul ahvolga solib qo‘yadigan tuzalmas qusurini odamlar kechirishardi. Qisqa vaqt ichida u muz ishlab chiqarishni shunchalik ko‘paytirdiki, mahsulot hajmiga mahalliy bozorning xarid imkoniyatlari torlik qildi va g‘amgin Aurelianoni vodiyning boshqa yerlarida ham muz sotish muammosi o‘ylantirib qo‘ydi. Xuddi shu payt uning miyasiga ajoyib fikr keldi.

– Temiryo‘l o‘tkazish kerak, – dedi g‘amgin Aureliano.

Bu – Makondoda «temiryo‘l» so‘zining birinchi marta jaranglashi edi. G‘amgin Aureliano chizgan chizmalar bir vaqtlar Xose Arkadio Buendianing hukumat rahbarlariga yo‘llagan quyosh urushi qo‘llanmasining bevosita davomi hisoblanar va buni ko‘rgan Ursulaning, vaqt oldinga emas, balki doira bo‘ylab harakat qiladi, degan shubhasi tasdiqlandi. Ammo g‘amgin Aureliano bobosidan farqli o‘laroq, na uyqusini, na ishtahasini yo‘qotdi va na dilgirlik kayfiyati bilan birovlarni qiynadi, aksincha, hayratomuz loyihalarini pishitar ekan, ularning yaqin fursat ichida amalga oshishiga qat’iy ishonar, qiymat-u muhlatga aloqador barcha hisob-kitoblarni uquv bilan tuzar va rejalarini hech ikkilanmay amalga oshirardi.

Aureliano Ikkinchining katta bobosiga o‘xshab ketishi va nimasi bilandir polkovnik Aureliano Buendiadan farq qilishi, eng avvalo, o‘tmishning achchiq saboqlariga mutlaqo befarqligidan edi; u bir vaqtlar ukasining behuda kemasozlik sanoatiga ayamay pul sochganidek temiryo‘l qurilishi uchun ham xasislik qilib o‘tirmadi. G‘amgin Aureliano taqvimga bir ko‘z tashlab oldi-da, yomg‘irlar mavsumi tugashi bilan qaytishga va’da berib, chorshanba kuni jo‘nab ketdi. Shu-shu dom-daragi bo‘lmadi. Javdarrang Aureliano fabrika ishlab chiqargan oshiqcha mahsulotlar orasida nafasi ichiga tushib, suv o‘rniga meva sharbatidan muz tayyorlash ustida tajribalar o‘tkazar ekan, kutilmaganda muzqaymoq ishlab chiqarishga asos soldi. Endilikda u o‘ziniki deb hisoblagan fabrikaning mahsulotlari turini ko‘paytirishni rejalashtirdi, negaki yomg‘irlar mavsumi va yoz o‘tib ketgan bo‘lsa-da, akasidan hanuz darak yo‘q edi.

Qishning boshlarida daryoda kir chayayotgan ayol asabiy bir holatda dod-voy solib, shaharning markaziy ko‘chasiga qarab yugurdi:

– Qaranglar, dahshatli bir narsa kelyapti! – baqirardi ayol. – Xuddi g‘ildirakli oshxonaga o‘xshaydi, ortiga butun bir shaharni tirkab olgan!

Makondo o‘sha zamon dahshatli hushtak va harsillagandagi pishqiriqni eslatadigan tovushdan larzaga keldi. Ko‘pchilik bundan bir necha hafta ilgari ishchilar guruhi a’zolarining yog‘och-u temir iz yotqizishganini ko‘rishgan, lekin bunga hech kim e’tibor bermagan, chunki hammalari buni o‘sha yuz yil burungidek hushtak va do‘mbira chalib, Quddusi Sharif daholari ixtiro qilgan g‘alati suyuq dorilarni ovoza qilish uchun qaytib kelgan lo‘lilar qavmining galdagi nayrangi, deb o‘ylashgan edi. Ammo dastlabki sarosima tarqagach, barcha makondoliklar ko‘chaga otilib chiqishdi va parovozda turib qo‘l silkiyotgan g‘amgin Aurelianoni, gullar bilan bezatilgan, rosa sakkiz oy kechikib kelgan birinchi poyezdni ko‘rishdi. Bu – Makondo boshiga cheksiz shubha-yu ishonch, ezgulik va yovuzlik, behisob o‘zgarish, ofat-u kulfat yog‘dirishga mahkum etilgan, ko‘rinishidan beozorgina sariq rangdagi poyezd edi.

Ketma-ket g‘aroyib ixtirolardan es-hushini yo‘qotgan makondoliklar, hatto hayratlanishga ham ulgurishmadi. G‘amgin Aureliano poyezdda olib kelgan elektr mashina (uning jonga teguvchi «tum-tum»iga o‘rganish uchun ancha vaqt va kuch kerak bo‘ldi) tokidan bo‘zargan chiroqlarini tomosha qilgancha, kechalari uxlamay chiqishar edi. Ular omadli tijoratchi don Bruno Krespi sherning jag‘iga o‘xshagan kassali teatr-

da namoyish etadigan harakatlanuvchi rasmlardan g‘azablanishar, negaki bir filmda o‘lib, dafn etilgan, rahmdil tomoshabinlarning achchiq ko‘z yoshini oqizgan qahramon boshqa filmda yana tirilib qolar yoki habashga aylangan bo‘lardi. Ikki sentavo haq to‘lagan olomon ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan bu masxarabozlikka chiday olmay, barcha kursilarni sindirib tashladi. Alkald[1] o‘zining maxsus axborotida, don Bruno Krespining qattiq talabiga binoan, olomonga turli tasvirlarni ko‘rsatuvchi kino bor-yo‘g‘i bir apparat ekanini, darg‘azab bo‘lishga arzimasligini tushuntirdi; bu mujmal izohlardan so‘ng lo‘lilarning yangi bir bema’ni nayrangiga qurbon bo‘libmiz-da, deb o‘ylashdi va o‘z kulfatimiz o‘zimizga yetib-ortardi, uydirma shaxslarning uydirma musibatlariga ko‘z yosh qilishimizga hojat yo‘q, deb kinoga bormaslikka qaror qilishdi.

Mahalliy cholg‘u orkestrining nonini yarimta qilgan grammofonlar paydo bo‘lganda ham xuddi shunday hodisa yuz berdi. Qiziquvchanlik ilgari odamlarning kelishi taqiqlangan bu ko‘chadagi mijozlar sonining o‘sishiga sabab bo‘ldi va hatto, aytishlaricha, bu jumboqli buyumni yaqindan ko‘rish istagida shaharning obro‘li ayollari erkakcha kiyinib kelishardi, ular grammofonlarning naq pinjiga tiqilib olishib, uzoq tikilishardiki, odamlar tez orada, grammofon hamma o‘ylagani va fransuz geteralari ishontirishga urinishgani kabi sehrli tegirmon emas, balki oddiygina o‘yinchoq, uning kuyini esa orkestrning qalbni to‘lqinlantiruvchi, insoniy, to‘la hayot haqiqati bilan yo‘g‘rilgan kuyiga mutlaqo taqqoslab bo‘lmaydi,

[1] Alkald – shahar hokimi.

degan qarorga kelishdi. Grammofonlar tez tarqalib, har bir xonadonda uchratish mumkin boʻlsada, odamlarning ixlosi qaytib ketgandi. Lekin uni bolalarning ovunchogʻi sifatida xarid qilishgan, kichkinalar endi bu antiqa mashinalarning «ichak-chavogʻi»ni agʻdarib, koʻngillarini xush etishardi. Shaharliklardan biri temiryoʻl stansiyasida oʻrnatilgan, uzun aylanma dastali, oldiniga grammofonning joʻn nusxasi, deb yurgan apparat telefon ekaniga ishonch hosil qilganidan soʻng, eng beoʻy odamlar ham sarosimaga tushib qolishdi. Xudo goʻyoki makondoliklarning hayratlari chegarasini tekshirib koʻrish maqsadida ularni mudom zavq va umidsizlik, shubha va e'tirof oʻrtasida ikkilantirib turishga ahd qilganga oʻxshardi. Bu – haqiqat bilan xomxayolning chalkash-chulkash qorishuvi ediki, hatto Xose Arkadio Buedianing kashtan ostidagi arvohi ham iztirobga tushib, kuppa-kunduz kuni uy boʻylab keza boshladi. Temiryoʻl rasmiy ravishda ochilib, chorshanba kuni soat oʻn birda poyezd keladigan boʻldi. Yozuv stoli qoʻyildi, telefon va chipta sotish uchun oynacha oʻrnatilib, yogʻoch pavilonli oʻrtamiyonagina stansiya qurilgach, Makondo koʻchalarida oʻzini oddiy yumushlar bilan yurgan toʻpori odamlar deb atagan, aslida esa sirk artistlariga oʻxshab ketuvchi erkag-u ayollar paydo boʻlishdi. Koʻchama-koʻcha tashib yurib, suvi qaynaganida hushtak chaluvchi dekchadan foydalanish hamda roʻzaning yettinchi kuni jonni sogʻomon saqlab qolish qoidalarini birday soʻzamollik bilan tushuntirayotgan bu daydi nayrangbozlar, garchi loʻlilarning qiliqlari bois ogʻzi kuygan bu shaharda hech qanaqa muvaffaqiyatga umid

bog‘lashmasa-da, lavanglar hisobiga (bundaylar esa hamma joyda topiladi) anchagina mablag‘ jamg‘arishdi.

Bir chorshanba kuni Makondoga bu tovlamachilar bilan birgalikda og‘zidan kulgi arimaydigan, pakana janob Gerbert ham keldi va oradan ko‘p o‘tmay, Buendialar oilasida yashay boshladi. U chavandozlar shalvari, charm qo‘njli etik, po‘kak quloqchin kiygan, po‘lat gardishli ko‘zoynagi oynasi ostidan ikki ko‘zi sarg‘ayib ko‘rinardi. Bir shingil bananni yeb tugatmagunicha, hech kim unga e’tibor qilmadi. Aureliano Ikkinchi uni «Yoqub musofirxonasi»da daf’atan, bo‘sh xona yo‘qligidan g‘azabi qaynab, ispan tilini buzib allanarsalar deyayotganida uchratdi va har safargidek, bu kelgindini ham uyiga boshlab keldi. Janob Gerbert bir-biriga bog‘lanadigan bir necha aerostatlari[1] bilan qariyb yer yuzining yarmini aylanib, hamma joyda ham kattagina daromad qilgandi, ammo u makondoliklardan birortasini ham osmonga ko‘tarishga muvaffaq bo‘lolmadi, chunki lo‘lilarning uchar bo‘yralarini ko‘rgan odamlar uchun aerostat bir qadam ortga chekinish edi. Janob Gerbert bir hafta yurgach, noiloj qaytib ketishga majbur bo‘ldi.

Odatdagidek tushlik paytida yemakxonaga yo‘lbars terisiga o‘xshash yo‘l-yo‘l bir bosh bananni olib kelishganda, Gerbert birinchi bananni hafsalasizlik bilan uzdi. Ammo keyin yana bittasini, so‘ng shosha-pisha boshqasini uzib oldi; suhbatini bir zum to‘xtatmay, banan ketidan banan yer, ularni obdan chaynab, lazzatini tatib, olimlikka xos loqaydlik bilan huzur qilardi. Birin-

[1] Aerostat – havo shari.

chi boshni tugatgach, yana banan olib kelishlarini so‘radi. So‘ngra doimo o‘zi bilan olib yuradigan asbob-uskunalar qutisidan o‘lchov asboblari solingan kichik g‘ilof chiqardi. Bananlardan birini gavharfurushga xos shubha bilan atroflicha o‘rganib chiqdi; unga maxsus jarrohlik nashtari bilan ishlov berdi, dorixona tarozisida tortib ko‘rdi, qurolsoz ustalar foydalanadigan kalibrda o‘lchadi, keyin qutisidan boshqa asboblar jamlanmasini olib, bananlarning haroratini, namligi-yu rangini aniqladi. Bu ish shu qadar qiziqarli tuyildiki, hech kim bemalol ovqatlanolmadi: barcha janob Gerbertning yakunlovchi fikrini aytishini va hamma narsa aniq-ravshan bo‘lishini kutardi. Lekin u dilidagisini sirtiga chiqarmadi. Keyin janob Gerbertni shaharning chekkasida ko‘rishdi, u qo‘liga dastali tur va savat ushlagancha, kapalak tutardi.

Navbatdagi chorshanbada esa bir guruh injener, agronom, gidrogeolog, topograf va yer o‘lchovchilar kelishdi, ular janob Gerbert kapalak quvib yurgan joylarni bir necha hafta o‘rganishdi. Anchadan so‘ng kumush bilan ishlov berilgan, divaniga baxmal tortilgan, tomi havorang oynalardan iborat sariq poyezdning dumiga ulangan vagonda janob Jek Braun keldi. Boshqa vagonda kelishgan, ilgarilari polkovnik Aureliano Buendiani hamma yerda kuzatib yurgan o‘sha advokatlarga o‘xshash qora kiyimdagi dimog‘dor huquqshunoslar janob Braunning atrofida girdikapalak bo‘lishayotgani tufayli agronomlar, gidrogeologlar, topograf va yer o‘lchovchilarni ham xuddi ayerostatlari va turli-tuman kapalaklari bo‘lgan janob Gerbert g‘ildirakli maqbara-yu qopong‘ich zotdor itlariga

ega janob Braun kabi urushga daxldor odamlar bo‘lsa kerak, deb o‘ylashdi. O‘y surish uchun esa vaqt yetishmasdi, Makondoning hamma narsadan shubhalanuvchi kishilari atrofda nimalar bo‘lyapti o‘zi, deya so‘rashga shaylanib turganda shahar kutilmaganda dunyoning turli go‘shalaridan kelgan ajnabiylar qarorgohiga aylandi. Orada hech qancha vaqt o‘tmay, gringolar[1] o‘zlarining xumorko‘z, etaklari keng ko‘ylag-u katta shlyapali xotinlarini olib kelishdi va temiryo‘lning narigi tomonidan yana bir shahar barpo etishdi; ko‘chalariga palmalar o‘tqazishdi, uylarining derazalariga simto‘r, ayvonlariga oq xontaxtalar qo‘yishdi, shiftga ulkan parrakli ventilyatorlar osishdi, uy biqinidagi kattakon yashil o‘tloqda tovus-u bedanalar sayr qilib yurishardi. Bu daha xuddi elektrlashtirilgan bahaybat tovuqxona kabi baland temir panjara bilan o‘raldi, yozning salqin tonglarida panjaraning bir chekkasi tin olish uchun qo‘nadigan qaldirg‘ochlardan qorayib turardi. Ajnabiylarning Makondoda nima qidirayotgani va ular chindan ham saxovatpeshami-yo‘qligini hech kimsa bilmas, ular esa allaqachon hamma joyni ostin-ustin qilib yuborishgan edi. Kelgindilar o‘zboshimchaligi lo‘lilarning o‘sha tartibsizligidan oshib tushgan va bu vaqtinchami yoki doimiymi, tushunib ham bo‘lmasdi. Boshida faqat Xudoga bo‘ysunuvchi kuchlar yordamida yomg‘ir yog‘ish maromini o‘zgartirishdi, daryoni (uning oq toshlari-yu muzdek suvi bilan) shaharning narigi burchagiga, qabristonning ortiga burishdi, xuddi shunda, daryo suviga suyaklaridan anqiyotgan porox hidi urib qolmasligi uchun

[1] Gringo – ajnabiy, kelgindi.

Xose Arkadionning g‘ishtlari nuray boshlagan qabri ustiga temir-beton maqbaracha qurishdi. O‘z dilbarlarini birga olib kelmaganlari uchun esa ishq-muhabbati qaynab turgan fransuz geteralarining ko‘chasi kattakon, temir panjarali shahardan ham yirikroq shaharga aylangandi va chorshanbalarning birida yo‘ldan ozdirishning qadimiy usullaridan tortib, qolgan hamma usullarini mukammal egallagan hamda jamiki lanjlarni uyg‘otib yuborishga, tortinchoqlarga turtki berishga, tamagirlarning nafsini qondirishga, kamtarlarning yuragiga cho‘g‘ tashlashga, dimog‘dorlarning ta’zirini berishga, tarki dunyo qilganlarni esa qayta tarbiyalashga tayyor antiqa qiyofali fohishalar va Vavilon fosiqlari liq to‘la poyezd bu tinch shaharga keldi. Eski arab do‘konlari o‘rnida qad ko‘targan, derazalari shu’la sochuvchi xorijiy mollar do‘konlari joylashgan Turklar ko‘chasi shanba oqshomlari mojaro ishqibozlari bilan to‘lib-toshardi: ularni qimor o‘ynayotgan stollar yoki tir oldida, fol ochadigan, tush ta’birini aytadigan tor ko‘chada, fritanga[1], chanqoqbosdi ichimliklar sotiladigan stollarning yonida mudom uchratish mumkin bo‘lardi; yakshanba kuni ertalab bu stollar toshko‘chada cho‘zilib yotgan devonavash aroqxo‘rlar, asosan kechki mushtlashuvda o‘q, pichoq yoki musht yegan, aroq shishasi bilan yaralangan badbaxt landavurlar oroliga o‘xshab ketardi. Makondo gavjumligidan shahar ko‘chalaridan hatto o‘tib ham bo‘lmasdi: har qadamda jihoz, sandiq yo egasiz yerga imorat quruvchilarning qurilish anjomla-

[1] Fritanga – qovurilgan go‘sht va sabzavotdan tayyorlangan milliy taom.

riga qoqilib ketishingiz yoki janjalga sabab bo‘luvchi antiqa manzara – bodom daraxtlari orasiga osib qo‘yilgan to‘r belanchakda kuppa-kunduz kuni hammaning ko‘z o‘ngida ishq-muhabbat bilan mashg‘ul qandaydir bir juft oshiqqa duch kelishingiz mumkin edi. Shahardagi eng osoyishta go‘sha beozor antil zanjilari tomonidan bunyod etildi: ular shaharning bir chekkasida butun boshli ko‘chadan iborat qoziq oyoqlarga qo‘ndirilgan yog‘och uylar qurib olishdi va kechalari hovlilaridagi kichik bog‘chada yig‘ilishib, tushunib bo‘lmas lahjalarda diniy qo‘shiqlar aytishardi. Janob Gerbertning tashrifiga atigi sakkiz oy to‘lgan bo‘lsa-da, shunaqayam ko‘p o‘zgarishlar sodir bo‘ldiki, eskidan istiqomat qiluvchilar ham o‘z shaharlarini zo‘rg‘a tanishardi.

– O‘zimizga-o‘zimiz boshog‘riq sotib oldik-a, – deya bot-bot takrorlardi o‘shanda polkovnik Aureliano Buendia, – hammasi esa qandaydir bir gringoni banan bilan mehmon qilganimizdan boshlandi.

Aureliano Ikkinchi esa ajnabiylar kelganidan xursand edi. Uylari tez orada jahonning turli go‘shalaridan kelgan har xil notanish odamlar, tuzalmas maishatparastlar bilan to‘lib-toshdiki, hovliga yangi yotoqxonalar qurishga, oshxonani kengaytirishga, avvalgi xontaxtani kattarog‘iga almashtirishga, yangi idish-tovoqlar xarid qilishga to‘g‘ri keldi, ammo shundan so‘ng ham galma-gal ovqatlanishga majbur bo‘lishdi. Fernanda o‘zlarining beandisha xulq-atvori bilan ajralib turuvchi mehmonlarga nisbatan nafratini bosib, ularning ko‘nglini qirolichalarga xos nazokat bilan ovlashdan o‘zga chorasi qolma-

gan edi. Ular peshayvonga loy poyabzallari bilan chiqishar, boqqa qaratib peshob qilishar, tushki uyqu paytida bo‘yralarini istagan joyga to‘shaganlaricha va na xotin-qizlarning uyalishiga, na erkaklarning istehzoli kulgisiga e’tibor berishar, xayoliga kelganini aytaverishardi. Amaranta qora suyaklarning bu g‘oratidan shu qadar qahri kelardiki, oxir-oqibatda xuddi ilgarigi paytdagidek yana oshxonada ovqatlanadigan bo‘ldi. Polkovnik Aureliano Buendia u bilan hol-ahvol so‘rashish uchun ustaxonaga kirayotganlarning ko‘pchiligini bu yerga bo‘lgan shu xayrixohlik yoki hurmat emas, balki tarixiy yodgorlik va muzey topilmalariga nisbatan qiziqish yetaklab kelayotganiga to‘liq ishonch hosil qilgach, eshikning lo‘kidonini surib qo‘ydi va endi uni faqat ko‘cha eshigi yaqinidagi o‘rindiqda ahyon-ahyondagina ko‘rish mumkin edi. Faqat Ursulagina, hatto oyog‘ini sudrab bosadigan, devorni ushlab paypaslab yuradigan bo‘lib qolsa-da, har bir poyezd kelishi arafasida xuddi bolalardek quvnab ketardi. «Go‘sht ham, baliq ham pishiringlar, – buyurardi u Santa Sofiya de la Pyedadning osoyishta qarorgohiga iloji boricha tezroq borishni orzu qilayotgan to‘rtala oshpaz ayolga. – Xilma-xil taom pishiringlar, kim biladi bu ajnabiylarning nima istab qolishini». Poyezd kunning ayni issiq paytida kelardi. Tushda uy xuddi gavjum bozordek shovqin-suronga to‘lib-toshar, oshpazlar sho‘rva hamda go‘sht, oshqovog‘-u sabzavot solingan boshqa qozonlarni, guruchli taomlarni ko‘tarib, u yoqdan-bu yoqqa zir yugurib, limon sharbatlari to‘la bochkadan shisha idishlarga quyishayotgan chog‘da badani ter bilan qoplangan o‘zlarining

saxiy xo‘jayinlarini hatto biror marta ham ko‘rmagan nonxo‘rlar uyga gala-gala bostirib kirib, xontaxta atrofidagi eng yaxshi joylarni egallashga urinishardi. Tartibsizlik, ba’zilarining ketma-ket ikki bor ovqatlanishi Fernandaning fig‘onini chiqarar, shunda ko‘pincha uyni ko‘cha oshxonasi bilan adashtirib, hisob-kitob talab qiladigan parishonxotir nonxo‘rlarni bozorchi xotinlarning so‘z bisotidagi uyat gaplar bilan boplab so‘kib, yuragini bo‘shatishni xohlardi.

Janob Gerbertning tashrifidan beri oradan bir yildan ko‘proq vaqt o‘tgan edi. Nihoyat, kelgindilar vaqtlar Xose Arkadio Buendia sheriklari bilan bir buyuk kashfiyotlar ochish niyatida bosib o‘tgan yerlarga banan ekishga tayyorgarlik ko‘rishayotgani aniqlandi. Polkovnik Aureliano Buendianing peshonasiga xoch tasviri tushirilgan yana ikki o‘g‘li Makondoga keldi. «Biz Makondoga hamma borayotgani uchun keldik», – deyishdi ular o‘zlarini oqlab, ehtimol, bu – Makondoga barcha kelayotganlarning niyatini izohlardi.

Go‘zal Remedios banan vasvasasi yuqmagan birdan bir odam edi. Qiz go‘yoki o‘z yoshligining ajoyib davrida qolgan va bu behisob tartibsizlik, shartliliklardan kunba-kun yotsirab, makkorlik, shubhalanishlardan tobora uzoqlashib, o‘z dunyosining oddiy haqiqatlaridan cheksiz baxt topardi. U ayollarga korsaj va yubkalar nega kerakligiga aqli yetmay o‘ziga allaqanday dag‘al matodan balaxon tikdi va yolg‘iz shungagina o‘ranib yurardi. Uning fikricha, qip-yalang‘ochlik uy sharoiti uchun yagona mos keladigan holat hisoblanardi. Uyidagilarning sochini biroz kesdirishi, chiroyli o‘rishi, rangli tasmalar bilan bezashi

haqidagi gaplari joniga tegdi va oxiri jahli chiqib, naq taqimiga tushgan sochini tamoman oldirib, ulardan avliyolarning haykallariga pariklar yasadi. Go‘zal Remediosning oddiylikka intilishining ajablanarli joyi shundaki, u qulaylik qidirib modadan xalos bo‘la borgan, erkinlik mayliga itoat etgan sayin aqlga sig‘maydigan chiroyi shu qadar gurkirab yashnar va qiz erkaklar bilan tobora bemalolroq gaplashardi. Aureliano Buendianing o‘g‘illari Makondoga ilk bor kelishganda ular bilan Go‘zal Remediosning qoni bir xilligini eslab, Ursula allaqachon unutilgan qo‘rquvdan seskanib tushdi. «O‘zingga ehtiyot bo‘l, – ogohlantirdi u qizni. – Ulardan ko‘rgan farzandlaring cho‘chqa dumli bo‘ladi». U esa katta buvisining o‘gitiga quloq solmadi. Ko‘p o‘tmay erkakcha kiyinib, uchiga sovrin o‘rnatilgan xodaga chiqish payti qumga rosa ag‘anadi va qaddi-qomatini ko‘rib, avzoyi buzilgan o‘n yetti aka-ukaning fojiali mojarosiga sababchi bo‘lishiga oz qoldi. So‘ng Ursula yigitlarning birortasiga ham uyda tunashga ruxsat bermadi. Ursulaning ko‘rsatmasiga muvofiq, Makondoga kelgan to‘rtovlon shahar chekkasidagi bir uyda ijarada yashardi. Agar Go‘zal Remedios ayni ehtiyotkorlik haqida eshitsa bormi, kulaverib ichagi uzilgan bo‘lardi. Qiz, taqdir uni umrining so‘nggi lahzasigacha erkaklar oromini go‘yo kundalik tabiiy ofat singari buzib turuvchi qilib yaratganini bilmasdi. U Ursulaning taqiqini buzib yemakxonada, ajnabiylar orasida paydo bo‘lganida har gal sarosima boshlanar, qarindoshlari nochor ahvolga tushib qolishardi. Go‘zal Remediosning qaddi-basti dag‘al balaxon ichida ko‘zga yaqqol tashlanib turardi. Sochi olingan,

bekami-ko‘st bu qiz biroz shabadalamoq uchun sonlarini ochishi va ovqatdan so‘ng barmoqlarini zavq bilan so‘rishi ham erkaklarni yo‘ldan ozdirish maqsadida qilingan jinoyatkorona xayosizlik emasligini tushunmas edilar. Ajnabiylar tez fursatda kashf etishgani: Go‘zal Remedios chiqib ketgandan keyin ham tahlika ruhi va jafo esib turajagi edi. Sevgi azoblarida ko‘zi pishgan, jahonning barcha mamlakatlarida sevgini boshdan kechirgan erkaklar Go‘zal Remediosning tabiiy hidi uyg‘otuvchi hayajonni hech qachon ko‘rmaganlarini tasdiqlashdi. Ular begoniya turgan peshayvonda, mehmonxonada, uyning istalgan kunjagidagi go‘zal Remedios turgan joyni bexato ko‘rsatishar, ketganiga qancha vaqt bo‘lganini aniq ayta olishardi, negaki u o‘zidan so‘ng havoda aniq iz qoldirardi. Ammo uyning kundalik hidiga qorishib ketgani tufayli Buendialar buni sezishmas, ajnabiylar bo‘lsa, darhol fahmlashardi. Ha, faqat ulargina qizga muhabbat qo‘ygan yosh zobitning nega o‘lib qolganini, uzoq o‘lkadan kelgan kabalyeroning tushkunlikka tushganini tushunishardi. Qiz bezovtalik ofati bilan qurshab olinganini, erkaklarda chidab bo‘lmas ichki halokat tuyg‘usini uyg‘ota olishini o‘zi bilmas, shu bois o‘zaro suhbatda zarracha mug‘ombirlik qilmas va sodda iltifoti bilan ularni hamisha adoyi tamom qilardi. Ursula chevarasini ajnabiylar ko‘zidan uzoqroqda tutishni istab, endilikda oshxonada Amaranta bilan birga ovqatlanishga majbur etganida, Go‘zal Remedios allaqanday tartiblarga bo‘ysunish zaruratidan qutulganidan ham quvondi. Ochig‘i, uning uchun qayerda, qaysi vaqtda ovqat yeyishning ahamiyati yo‘q edi. Ba’zan u

yengil-elpi ovqatlanish uchun ertalab soat uchda uyg‘onardi-da, so‘ng kechqurungacha dong qotib uxlardi va shu tariqa, butun kun tartibini chalkashtirib, qandaydir tasodif uni uyda o‘rnatilgan tartibga tushirmagunicha oylab yashayverardi. Lekin o‘shanda ham u yotog‘ini naq o‘n birda tark etar, mo‘rchaga ikki soatcha bekinib, teshik-tirqishlardan chiqadigan chayonlarni o‘ldirgancha, qattiq va uzoq uyqudan asta-sekin o‘ziga kelardi. Keyin hovuzchadan suv olib, tepasidan quya boshlar, bu uzoq davom etadigan va diqqat talab etiladigan yumush edi. Go‘zal Remediosni yaxshi bilmaydiganlar, qiz o‘z andomi bilan zavqlanyapti, deb o‘ylashardi. Aslida esa bu sirli marosim har qanday hissiyotdan xoli bo‘lib, Go‘zal Remedios uchun ishtahasi kelguncha vaqt o‘tkazish usuli edi, xolos. Bir kuni u endigina yuvinayotganida qandaydir ajnabiy kishi tomdagi cherepitsalarni bittalab ko‘chira boshladi. Qizning yalang‘och tanini ko‘rgan boyaqish ajnabiy entikdi. Go‘zal Remedios uning cherepitsalar orasidan mo‘ltirayotgan ma’yus ko‘zlaridan uyalmadi, sarosimaga tushdi, xolos.

– Ehtiyot bo‘ling, – dedi u, – qulab tushasiz.

– Men faqat sizga qaramoqchiman, – deya g‘o‘ldiradi ajnabiy.

– Shundaymi? – dedi qiz. – Mayli, lekin juda ehtiyot bo‘ling, tom chirib qolgan.

Ajnabiyning yuzi hayrat va azobdan bujmaygan, go‘yo bu ajib sarob yoyilib ketmasligi uchun vujudini qamragan hirs bilan sassiz kurashayotgandek tuyilardi. Go‘zal Remedios uni cherepitsa qulab tushishidan qo‘rqyapti, deb o‘ylab, bechorani ortiqcha tahlikaga solmaslik uchun

odatdagidan ko‘ra tezroq yuvinishga harakat qilardi. Qiz badaniga suv quyarkan, tom chirigan, chayonlar cherepitsa ustiga to‘kilib, yomg‘irdan namiqib ketgan barglar orasidan mo‘rchaga o‘tsa kerak, deb ogohlantirdi. Ajnabiyga qiz o‘z maylini mana shu safsata orqali pardalayotgandek tuyildi va Go‘zal Remedios badanini sovunlashga tushganida, u baxtini sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi.

– Ijozatingiz bilan sizni o‘zim sovunlab qo‘ysam, – deb shivirladi.

– Yaxshi niyatingiz uchun minnatdorman, – javob qaytardi qiz, – ammo o‘zim bemalol eplayman.

– Jillaqursa, yelkangizni, – deb o‘tindi ajnabiy.

– Nega? – taajjublandi qiz. – Odamlar yelkasini sovunlaganini qayerda ko‘rgansiz?

U yuvinib bo‘lib artinayotganida, ko‘zlari yoshga to‘lgan ajnabiy:

– Menga teging, – deb yolvordi.

– Cho‘milayotgan ayolni ko‘rish uchun o‘zini tushlik ovqatdan mahrum qilgan go‘l odamga hech qachon tegmayman, – dedi Go‘zal Remedios.

Oxiri qiz balaxonini kiydi. Ajnabiy ko‘pchilik shubhalanganidek, Go‘zal Remedios uni yalang‘och badani ustiga kiyishiga ishonch hosil qildi, hozirgina ochilgan sirning qizdirilgan temiri unga bir umrlik tamg‘a bosganini sezdi va bunga ortiq chiday olmadi. U mo‘rchaga tushish niyatida yana ikkita cherepitsani tortib oldi.

– Judayam baland-ku! – qo‘rquv aralash ogohlantirdi qiz, – Nobud bo‘lasiz-a!

Chirigan tom xuddi tog‘ ko‘chkisidek dahshatli tovush chiqarib pastga quladi, ajnabiy qo‘rquvdan qichqirishga arang ulgurib, sementli polga ag‘darilib tushdi va bosh suyagi chaqilib, til

tortmay joni uzildi. Shovqin-suronni eshitib, yemakxonadan yugurib kelgan ajnabiylar marhumni mo‘rchadan chiqarayotib, uning terisidan Go‘zal Remediosga xos g‘oyat anvoyi bo‘y taralayotganini sezishdi. Bu hid murdaga shu qadar singigandiki, go‘yo bosh suyagidagi yoriqlardan qon o‘rniga shu sehrli hid bilan yo‘g‘rilgan mushk-anbar chiqardi; shunda Go‘zal Remediosning anvoyi bo‘yi u dunyoda ham, to marhumlar suyagi xokka aylanguncha azob berishi ayon bo‘ldi. Ammo hech kim bu mudhish voqeani Go‘zal Remediosni deb halok bo‘lgan avvalgi ikki erkakning o‘limi bilan bog‘lamadi. Ajnabiylar va Makondoning tub aholisi Remedios Buendiadan sevgi emas, balki ajal nafasi ufurishi chinligiga ishonishlari uchun yana bitta qurbon kerak bo‘ldi. Ayni voqea oradan bir necha oy o‘tgach, Go‘zal Remedios dugonalari bilan banan plantatsiyalarini ko‘rgani borganida yuz berdi. Banan daraxtlari orasidagi rutubat arib turuvchi uzun «yo‘lak» bo‘ylab sayr qilish makondoliklar uchun odat tusiga aylangandi: bu yerda bokira bir osoyishtalik hukm surar, go‘yo uni uzoqlardan, sukunatli begona xilqatdan atay ko‘chirib kelingandek tuyilardi. Bu maskan go‘yo tovush yetkazishning hadisini olmaganday edi, shu bois, ba’zan bir qadam narida aytilgan gap eshitilmas, gohida esa plantatsiyaning narigi chetidagi gap ham quloqqa aniq-tiniq chalinar edi. Makondo qizlari bu g‘alati xususiyatni o‘yin va cho‘chish, hazil va qo‘rqitish vositasiga aylantirishgan, kechalari bilan esa plantatsiyadagi sayrlarini xuddi bema’ni tush kabi eslashar edi. Bananzordagi osoyishtalik shu qadar katta shuhrat qozondiki,

Ursula Go‘zal Remediosning beozor o‘yin-kulgisiga qarshilik ko‘rsatmadi va unga shlyapa hamda kiyim kiyish sharti bilan plantatsiyaga borishga ruxsat berdi. Qizlar bananzor chegarasiga kirib kelishlari bilanoq havo o‘sha anvoyi bo‘yga to‘lib-toshdi. Ariq qaziyotgan erkaklar allaqanday sehrli kuch izmiga tushib, o‘zlariga ko‘zga ko‘rinmas xatar tahdid qilayotganini sezishdi. Ko‘pchilik xo‘ngrab yig‘lab yubordi. Go‘zal Remedios va uning qo‘rqib ketgan dugonalari o‘zlariga tashlanishga shay turgan bu tizginsiz erkaklar to‘dasidan zo‘rg‘a qutulishib, yaqin oradagi uylarga berkinishga muvaffaq bo‘lishdi. Oradan sal vaqt o‘tgach, qizlarni berkingan pana joyidan peshonasidagi chizilgan xochlari hammaga ilohiy qo‘rquv kabi ta’sir etadigan, xuddi ularni aslo qo‘l tekkizib bo‘lmas oliy mazhab vakillaridek ko‘rsatadigan to‘rtovlon Aureliano xalos etishdi. To‘s-to‘polondan foydalangan ishchilardan biri Go‘zal Remediosning qorniga xuddi jar yoqasiga chang solgan burgutdek titrab-qaqshab chang solganini u hech kimga aytmadi. Go‘yo yashin chaqildi-yu, qizning ko‘zlari bir lahza qamashdi va u dilozorga o‘girilib, ma’yus nigohini yaqqol ko‘rdi, yuragida birgina rahm-shafqat uyg‘ondi. Kechqurun Turklar ko‘chasida o‘sha ishchi o‘zining botirligini gapirib, baxti chopganidan chirandi va oradan bir necha daqiqa o‘tmasdan ot tepkisiga uchrab, ko‘kragi majaqlanib ketdi; ishchini o‘ragan ajnabiylar tosh ko‘cha o‘rtasida uning o‘z qoniga bo‘kib, nafasi qaytganicha qontalash yotganini ko‘rishdi.

Go‘zal Remediosning erkak zotiga ajal keltirishi shunday qilib rad etib bo‘lmaydigan to‘rt-

ta dalil bilan isbotlandi. Garchand, maqtanishni xush koʻradigan ayrim erkaklar shunday jozibali qiz bilan bir kecha boʻlish uchun jonlarini qurbon qilishga tayyorliklarini aytishsa-da, aslida ularning birortasi ham bunga jur'at etolmasdi. Goʻzal Remediosni zabt etish, u keltirajak ajal yoʻlini toʻsish uchun joʻngina bir his – muhabbat darkor edi, lekin bu fikr hech kimning miyasiga kelmasdi.

Ursula chevarasiga e'tibor bermay qoʻydi. Ilgari u qizni oddiy roʻzgʻor yumushlariga qiziqtirishga urinar edi. «Erkaklarga koʻproq narsa kerak, – derdi u sirli qilib. – Sen oʻylaganlardan tashqari ovqat pishirish, supurish-sidirish, har xil mayda-chuyda narsalar uchun azob chekishga toʻgʻri keladi». Ursula chevarasining roʻzgʻorbop xotin boʻlmasligini sezardi. Chunki oʻz hirsini qoniqtirib boʻlgach, Goʻzal Remediosning aql bovar qilmaydigan yalqovligiga bir kun ham tob beradigan erkak zoti topilishi amri mahol edi. Kenjatoy Xose Arkadioning tugʻilishi va uni Rim papasiga voris qilish istagi bechora ayolni chevara tashvishidan kechishga majbur etdi. Ertami-kechmi moʻjiza yuz berishiga va bu dunyoda goʻzal Remediosdek dahmaza yukni yelkasiga oladigan erkak topilishiga ishongan Ursula qizni taqdir zayliga topshirib qoʻydi. Amaranta esa, goʻzal Remediosni tarbiyalash befoydaligini Ursuladan ancha ilgari tushunib, uni ovsar qizaloq, deb oʻylardi. «Seni lotereyaga tikish kerak», – derdi Amaranta uning erkaklar haqidagi suhbatga befarqligidan tashvishlanib. Keyinroq Ursula Goʻzal Remediosga cherkovga yuziga toʻr roʻmol yopib borishni buyurganida, Amaranta, bu hol e'tiborni tortadi va tez orada sohibjamolning yuragiga yoʻl ax-

taradigan birorta erkak paydo bo‘lishi mumkin, dedi. Ammo Go‘zal Remedios, hatto shahzodalardan ham jozibali da’vogarga o‘ylamay-netmay rad javobini berganida, Amarantaning so‘nggi umidi puchga chiqdi. Fernanda bo‘lsa, hatto Go‘zal Remediosni tushunishni ham istamas edi. Uni qonli karnaval kuni qirolicha libosida ko‘rgan Fernanda Remedios bu dunyoga begona, degan xulosaga kelgan edi. Lekin uning ovqatni qo‘l bilan yeyishini va barcha gaplari telba-teskariligini ko‘rgach, Buendia avlodida telbalar juda ko‘pligidan afsuslanib ketdi. Polkovnik Aureliano Buendia Go‘zal Remedios o‘zi bilgan va ko‘rgan odamlar orasida eng aqli teran insonligiga ishonar va buni odamlarni mazax qilishdek g‘aroyib qobiliyati orqali isbotlasa-da, qarindoshlari allaqachon qizni Xudo izmiga topshirib qo‘yishgan edi. Go‘zal Remedios yolg‘izlik sahrosida qoldi, lekin bundan zarracha azoblanmadi, u o‘zining sokin tushlari, uzoq cho‘milishlari, tartibsiz ovqatlanishi-yu, har neki xotiradan xoli umri davomida ulg‘ayib borardi. Bu hol to Fernanda bog‘dagi ipga osilgan choyshablarni yig‘ishtirib olishga ko‘maklashish uchun ayollarni chaqirgan bahor kuniga qadar davom etdi. O‘shanda, hali ish boshlanmay turib, Amaranta nogahon Go‘zal Remediosning yuzi oqarib, hatto allaqanday shaffof tus olganini sezdi.

– Tobing qochdimi? – deb so‘radi u qizdan.

Choyshabning narigi chetini tutgan Go‘zal Remedios ma’yus jilmaygancha:

– Aksincha, men hech qachon o‘zimni bu qadar yaxshi sezmagandim, – dedi.

Fernanda Go‘zal Remedios gapini tugatgani hamon mayin nurga yo‘g‘rilgan shamol qo‘lida-

gi choyshabni yulib olishga intilayotganini sezdi va choyshabning havoda bir zumda enlamasiga yoyilib tekislanganini ko‘rdi. Amaranta esa yubkasi etagidagi to‘rlarning sirli titrashini payqadi va o‘sha soniya Go‘zal Remedios ko‘kka parvoz qila boshlaganida, yiqilib tushmaslik uchun o‘z choyshabining bir chekkasiga mahkam yopishdi. Ko‘zlari deyarli ojiz bo‘lib qolgan Ursulagina yengib bo‘lmas bu shamolning tabiatini tushuna oldi; u choyshablarni shamolning nurli oqimi ixtiyoriga topshirdi va ko‘zni qamashtiradigan darajadagi oppoq, hilpirayotgan choyshablar orasida Go‘zal Remediosning vidolashish uchun qo‘lini silkiyotganiga qarab turdi; choyshablar ko‘kka o‘rlagandan o‘rlab, qiz bilan birga xotirotning eng baland uchadigan qushlari ham quvib yeta olmaydigan poyonsiz bo‘shliqda g‘oyib bo‘lishdi.

Ajnabiylar, nihoyat qiz biror erkakning domiga ilingan-u, oiladagilar o‘z sharafini me’roj haqidagi cho‘pchak bilan himoya qilayotir, degan fikrga kelishdi. Hasad o‘tida kuygan Fernanda bora-bora mo‘jizani tan oldi va ko‘p vaqtlar davomida choyshablarini qaytarib berishini so‘rayverib, Xudoning joniga tegdi. Makondo ahlining aksariyati ham mo‘jiza yuz berganiga ishondi va hatto, sham yoqishib, duo o‘qishdi. Agar mo‘jiza xususidagi hayratni barcha Aurelianolarning vahshiyona qirib tashlanishi haqidagi shumxabar siqib chiqarmaganida, balki odamlar Go‘zal Remediosning parvozi haqida yanada ko‘proq gapirishgan bo‘lishardi. Garchand, polkovnik Aureliano Buendia o‘z o‘g‘illarining fojiaviy o‘limi muqarrarligini qaysidir darajada sezsa-da, buni bashoratga yo‘ymadi. Ajnabiylarga qo‘shilib kelgan ikki o‘g‘li –

arrakash Aureliano bilan Aureliano Arkayya Makondoda qolish istagini bildirishganda, ra'yidan qaytarishga urindi. U qorong'ilik tushishi bilanoq xatarli joyga aylanadigan bu shaharda ularga nima borligiga tushunmasdi, ammo Aureliano Ikkinchi yigitlarni qo'llab-quvvatladi va Javdarrang Aureliano bilan G'amgin Aureliano ukalarini o'z korxonalariga ishga joylashtirib qo'yishdi. Polkovnik Aureliano Buendianing bu qarorga kelishida hali o'ziga ham ravshan bo'lmagan asosi bor edi. U janob Braunni Makondoda paydo bo'lgan ilk avtomobilda – usti ochiladigan, gudogi shahar itlarining yuragiga dahshat soladigan zarg'aldoq rangli mashinada ko'rgan paytdan boshlab, odamlarning gringo oldida qullarcha tiz cho'kishlaridan g'azablandi va tushunib yetdiki, ilgari yelkasiga miltiq osgancha, bola-chaqasini uyda qoldirib, urushga otlangan dovyurak erkaklarning tabiatida nimadir o'zgaribdi. Neerland muvaqqat sulhidan keyin Makondoni alkaldlar boshqarardi, tinchliksevar va juda toliqqan shahar konservatorlari orasidan nomustaqil va nochor hakamlar shunchaki nomigagina saylab qo'yilgan edi. «Bu – ojizlar hukmdorligi, – derdi polkovnik Aureliano Buendia bor-yo'g'i yog'och tayoq bilan qurollangan yalangoyoq jandarmchilarga. – Demak, biz uylarimizni ko'k rangga bo'yash uchun shuncha vaqt behuda jang qilgan ekanmiz-da». Banan kompaniyasi vujudga kelgach, mahalliy amaldorlar jazirama issig'-u pashshalardan, shaharliklar boshidan kechirayotgan ko'plab noqulayliklardan azob chekmasliklari uchun janob Braunning elektrlashtirilgan parrandaxonasiga joylashgan zo'ravon ajnabiylar bilan almashtirildi. Jandar-

machilar o‘rnini esa machete ko‘targan yollanma qotillar egalladi. Polkovnik Aureliano Buendia ustaxonasida o‘tirib, ayni o‘zgarishlar to‘g‘risida o‘yladi va urushni qat’iy turib, oxirigacha yetkazmay katta xato qilganiga amin bo‘ldi.

Ana shunday kunlarning birida hamma unutgan polkovnik Magnifiko Visbalning akasi o‘zining yetti yashar nevarasi bilan limon sharbati ichgani shahar maydonidagi do‘konchaga keldi. Bola tasodifan yonida turgan jandarm kapralining mundiriga limon sharbatini to‘kib yubordi, shunda vahshiy kapral o‘tkir machetesi bilan uni burdalab tashladi va nevarasini qutqarmoqchi bo‘lgan cholning boshini bir siltov bilan tanasidan judo qildi. Bir necha erkak uyiga ko‘tarib borayotgan cholning boshsiz tanasini, bir ayol sochidan ushlab olgan kallasini va bolaning burdalangan tanasi solingan qonli xaltani butun shahar ko‘rdi.

Bu voqea polkovnik Aureliano Buendiani tavbasini unutishga majbur qildi. U yoshligida, quturgan it qopgani uchun qo‘ndoq bilan urib o‘ldirilgan ayolning jasadini ko‘rganida qanchalar g‘azablangan bo‘lsa, hozir ham shunday g‘azablandi. Polkovnik ko‘chada yig‘ilgan tomoshabinlarga bir nazar soldi-da, momaqaldiroqdek ovozi bilan yuragiga sig‘mayotgan nafratning jami zalvarini ag‘dardi.

– Qarab turinglar, – qichqirdi u, – bu ablah gringolarga barham berish uchun men shu kunlarda o‘g‘illarimni qurollantiraman.

Afsuski qandaydir noma’lum jinoyatchilar polkovnikning o‘n yetti nafar o‘g‘lini xuddi quyonlarni ovlashgandek butun qirg‘oq bo‘ylab bir

hafta davomida ovlashdi; ular peshonaga kul bilan chizilgan xochning qoq markaziga o‘q uzishardi. G‘amgin Aureliano kechqurun soat yettida onasining uyidan chiqayotganida, qorong‘ilikda miltiq ovozi gumburladi va o‘q uning peshonasini teshib o‘tdi. Javdarrang Aureliano fabrikadagi osma belanchakdan topildi: uning qoshlari o‘rtasiga muz ushatiladigan misrang to dastasigacha qoqilgan edi. Arrakash Aureliano kinodan so‘ng qaylig‘ini uyiga kuzatib, sutday yorug‘ Turklar ko‘chasi bo‘ylab ortiga qaytardi: noma’lum qotil olomon orasida turib, unga to‘pponchadan o‘q uzgach, bechora yigit yog‘ eritilayotgan qozonga yiqilib tushdi. Oradan besh daqiqa o‘tgach, Aureliano Arkayya bir ayol bilan o‘tirganda xonaning eshigini kimdir taqillatib: «Tezroq chiq, akalaringni o‘ldirishyapti!» – deb baqirdi. O‘sha ayolning keyin hikoya qilib berishicha, Aureliano Arkayya joyidan irg‘ib turib, eshikni ochgan va eshik ortida bosh suyagini majaqlab tashlagan mauzer o‘qiga uchgan. Fernanda, uyda to‘rtala marhumga janoza o‘qishga tayyorgarlik ko‘rilayotgan ana shu qonli kechada Petra Kotes polkovnikning ismi bilan ataluvchilarning hammasini o‘ldirishsa kerak, deb o‘ylab, javonga yashirib qo‘ygan erini telbalarga o‘xshab butun shahar bo‘ylab qidirib chiqdi. Petra Kotes Aureliano Ikkinchini oradan to‘rt kun o‘tgach olingan telegrammadan noma’lum g‘animlarning g‘azabi faqatgina peshonasiga kuldan xoch tasviri tushirilgan aka-ukalarga qaratilganligi ma’lum bo‘lganidan so‘ng javondan chiqardi. Amaranta jiyanlari haqidagi ma’lumotlar yozilgan daftarchani qidirib topdi va olingan telegrammalarga qarab, to to‘ng‘ich

jiyanining ismini qoldirib, boshqa hammasining ismlarini o‘chirdi. Bug‘doyrang, ko‘zlari och yashil bu yigitni uydagilar yaxshi eslab qolishgan edi. Uning ismi Oshiq Aureliano bo‘lib, duradgorlik qilar va o‘zi tog‘ tizmalari orasidagi ovloq qishloqlardan birida yashardi. Ikki hafta davomida uning o‘limi haqida hech narsa eshitolmagan Aureliano Ikkinchi Oshiq Aureliano hech narsadan xabari yo‘q deb, uni xatardan qutqarib qolish niyatida oldiga chopar yubordi. Chopar, Oshiq Aureliano bexatar joyda, degan xabar keltirdi. Qirg‘in oqshomida unikiga ikki kishi kelib to‘pponchalardan o‘q uzgan, ammo yigitning peshonasidagi xochiga birorta ham o‘q tegmagan edi. U devordan sakrab tushib, mahalliy hindular bilan do‘stligi tufayli har bir so‘qmog‘i tanish bo‘lib qolgan toqqa yashiringandi. U haqda boshqa hech narsa eshitishmadi.

Bu kunlar polkovnik Aureliano Buendia uchun eng qora kunlar edi. Respublika prezidenti unga atroflicha tergov ishlari olib borish va’da qilingan, marhumlar maqtalgan telegramma yuborib, hamdardlik bildirdi. Prezidentning buyrug‘iga binoan, shahar dorug‘asi dafnga to‘rtta gulchambar olib keldi va ularni tobutlarning ustiga qo‘ymoqchi bo‘ldi, ammo polkovnik uni ko‘chaga haydab chiqardi. Dafn tugagach, u respublika prezidenti nomiga achchiq-tiziq telegramma yozdi va uni shaxsan o‘zi yubormoqchi bo‘lib, pochta idorasiga bordi, lekin telegrafchi bunday telegrammani yuborishdan bosh tortdi. Shundan so‘ng polkovnik Aureliano Buendia telegramma matnini oshkora so‘kishlar bilan kengaytirib, xat orqali jo‘natdi. U xotini va urushda eng yaxshi

do‘stlari o‘lgan mahaldagidek hozir ham uncha musibat chekmadi, balki butun vujudini xuddi o‘shandagidek behad bir ko‘r qahr qamradi. Hatto Padre Antonio Isabelni qotillarning sherigi, deb e’lon qildi. Bechora ruhoniy go‘yo uning o‘g‘illarini g‘animlar adashmay topib olishlari uchun ataylab o‘chmas xoch bilan tamg‘alagan ekan. Biroz aqldan ozib qolgan va Muqaddas kitobni bema’ni talqin qilib, o‘z xutbalari bilan qavm yuragiga g‘ulg‘ula soladigan Tangrining bu munkillab qolgan xizmatkori u kul bilan tasvirlagan xochlarning o‘chib ketishini isbotlashga urinib, ro‘zaning birinchi kuni uchun saqlab qo‘yadigan va suv bilan osongina yuviladigan kul solingan finjonni ko‘tarib keldi. Lekin fojiadan qo‘rqish oila a’zolari qalbiga shu qadar chuqur singgandiki, hatto xudojo‘y Fernanda ham sinovga dosh bera olmadi.

Vaqt betinim o‘tar, ammo polkovnik Aureliano Buendia o‘zi mahrum bo‘lgan bir vaqtdagi osoyishtalikni qayta tiklashga ojizlik qilardi. U tilla baliqchalar tayyorlashni yig‘ishtirib qo‘ydi. Ovqatini ham zo‘rg‘a yer, uzun yomg‘irpo‘shini polda sudragancha, pinhoniy qahrini ichga yutib, kechasi bilan uxlamay, xuddi oynaparastlarga o‘xshab, uyning u burchidan-bu burchiga borib kelardi. Uch oy o‘tdi deganda, uning sochlari butkul oqardi, mo‘ylovining ilgari tepaga qayrilib turadigan uchlari qonsiz lablari uzra osilib tushdi, lekin ko‘zlari hamon o‘sha tug‘ilganida hammani qo‘rqitib yuborgan-u, birgina nigohi bilan kursilarni o‘rnidan jildira oladigan paytlardagidek laxcha cho‘g‘ bo‘lib yonardi. Azob o‘tida kuyib kul bo‘layotgan polkovnik Aureliano Buendia

o‘sha o‘zini xavf-xatar so‘qmoqlari orqali shuhrat sahrosiga eltgan qudrati – oldindan seza bilish qobiliyatini qayta tiklashga behuda urinardi. U o‘zi tug‘ilib o‘sgan, endilikda butkul begona bo‘lib qolgan uyda adashib qoldi va asta-sekin tanazzulga yuz tutdi. Urush arafasidagi voqealarning izlarini qidirib topish niyatida, u bir kun Melkiadesning xonasiga kirdi, ammo necha yillardan buyon huvullab yotgan bu maskanda axlat va turli eski-tuskilar uyumini ko‘rdi, xolos. Anchadan beri birov ko‘z tashlamagan kitoblarning muqovalarini, nam yutib chirigan qo‘lyozmalarni murdarang po‘panak qoplagan, qachonlardir eng orasta va eng yorug‘ xonaning havosi esa chirigan xotiraning qo‘lansa hidiga to‘lib-toshgan edi. Boshqa kuni ertalab u kashtan daraxti ostida Ursulani uchratib qoldi. Ursula boshini marhum erining tizzalariga qo‘yib yig‘lardi. Uydagilardan faqatgina polkovnik Aureliano Buendiaga yarim asrlik iztirob va bo‘ronlardan qaddi bukilgan bu ulug‘vor cholni ko‘rish nasib etmagandi. «Otang bilan salomlash», – dedi Ursula. Polkovnik daraxt yonida bir daqiqacha turdi-yu, bu mungli joy ham ko‘nglida biror tuyg‘u uyg‘otolmasligini payqadi.

– Qani, u bugun nimalar dedi? – deb so‘radi polkovnik Aureliano Buendia.

– Otang g‘ussaga botgan, – javob berdi Ursula. – Nazarida sen hademay o‘lar emishsan.

– Unga shuni aytib qo‘yki, – deya jilmaydi polkovnik, – odam lozim paytda emas, balki o‘lishi mumkin bo‘lganida o‘ladi.

Marhum otasining bashorati polkovnik Aureliano Buendia qalbidagi hali bekinib yotgan g‘urur cho‘g‘ini puflaganday bo‘ldi. U ayni lahzada, av-

valgi qudratim qaytdi, deb xayol qildi. Onasidan avliyo Yusufning gips haykali ichidan chiqqan oltin tangalarning qayerga ko‘mib qo‘yilganini surishtirdi. «Buni bilish senga hech qachon nasib etmaydi, – dedi onasi o‘tgan yillarning achchiq saboqlari tug‘dirgan qat’iylik bilan. – Egasi topilgach, o‘zi kavlab oladi». O‘zining kamsuqumligi bilan nom chiqargan polkovnikning kun o‘tkazishga yetarli sarmoya emas, balki butun bir xazina (uning miqdorini eshitganda Aureliano Ikkinchi hayratdan qotib qoldi) haqida ochko‘zlik bilan orzu qilayotganini hech kim tushunmasdi. Polkovnik Aureliano Buendia o‘zining sobiq partiyadosh o‘rtoqlariga pul so‘rab murojaat qilganida, ular o‘zlarini olib qocha boshlashdi. Uning: «Konservator va liberallar o‘rtasidagi birdan bir farq shundaki, liberallar ertalabki ibodatga, konservatorlar esa kechki ibodatga borishadi», – degan so‘zlari ayni o‘sha vaqtda aytilgan edi. Ammo u shu qadar qat’iylik ko‘rsatdiki, izzat-nafsini ham unutib, naq tilanchilik yo‘liga o‘tdi, eshikma-eshik kezib, axiri sakkiz oy deganda Ursula bekitgan boylikdan ham ko‘proq pul to‘pladi. Shundan so‘ng yangi yalpi urushni boshlashga yordam so‘rab, bemor polkovnik Xerineldo Markesnikiga jo‘nadi.

Bir vaqtlar polkovnik Xerineldo Markes, falajlik kursiga mixlab tashlaganiga ham qaramay, haqiqatan ham kul bosgan qo‘zg‘olon o‘tini alanga oldirishga qodir yakka-yu yagona odam edi. Muvaqqat Neerland sulhidan so‘ng, polkovnik Aureliano Buendia o‘zining oltin baliqchalaridan taskin qidirayotgan mahalda, polkovnik Xerineldo Markes eng oxirgi daqiqagacha ham xoinlik

qilmagan qo‘zg‘olonchi zobitlar bilan aloqa qilib turdi. Polkovnik ular bilan birgalikda kundalik kamsitishlar, iltijolar va rasmiy xatlar, cheki yo‘q «ertaga keling», «ishingiz shu o‘rtada hal bo‘ladi», «biz ishingizni atroflicha o‘rganyapmiz» qabilidagi gaplardan iborat og‘ir jangda qatnashdi; veteranlarga umrbodlik nafaqa va’da qilishgan, lekin va’dalarining ustidan chiqishmagan «sizlarni hurmat qiluvchilar», «sadoqatli qullaringiz» bilan bo‘lgan bu jang mag‘lubiyat bilan tugadi. Jamiki muddatlarni mudom ortga surgan bu halokatli urush veteranlarga yigirma yil davom etgan qonli jangdan ham ko‘proq zarar yetkazdi. Uchta suiqasddan qutulib ketgan, besh marta yarador bo‘lib sog‘-omon qolgan va behisob janglarda ham hech joyi lat yemagan polkovnik Xerineldo Markesning o‘zi uzoq kutdi, axiri kutish iskanjasiga dosh berolmay eng so‘nggi mag‘lubiyati bo‘lmish qarilikni tan oldi; shunda u tebranma kursida o‘tirgancha, quyoshning derazadan polga tushgan to‘rtburchak yog‘dusiga tikilib, Amaranta haqida o‘yladi. U o‘z safdoshlarini oxirgi marta gazetada bosilgan rasmlarida ko‘rdi – bir necha veteranlar polkovnik Xerineldo Markes, hatto nomini ham bilmaydigan respublika prezidenti bilan o‘tirishar, sobiq jangchilarning yuzida darg‘azablik alomati ko‘rinardi; prezident ularga o‘zining tasviri tushirilgan nishon taqdim qilib, o‘lganda tobutlariga qo‘yish uchun chang va qon bilan qoplangan bayroqlardan birini qaytarib bergan edi. Boshqa, eng munosib veteranlar esa jamoat xayr-ehsonining qorong‘i go‘shalarida turishib, hanuzgacha nafaqa haqidagi xabarni kutishardi. Ba’zilari ochlikdan o‘lar, boshqalari –

ichidagi qaynoq g‘azabni tamaddi qilayotganlari – yashashni davom ettirar va shuhratning sara axlati ichida keksalikdan asta-sekin chirib borardi. Shu bois ham polkovnik Aureliano Buendianing Makondodagi chet ellik bosqinchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan bu sharmandali, tub-tubigacha chirigan tuzumni yer yuzidan butkul yo‘qotishga qaratilgan hayot-mamot urushi ochish haqidagi taklifini eshitgan polkovnik Xerineldo Markes o‘z taassufini yashirolmadi:

– Eh, Aureliano, – deb xo‘rsindi u, – sening qariganingni bilardim, ammo aqldan ozganingni bugun tushunib yetdim.

* * *

So‘nggi yillarning to‘s-to‘poloni tufayli Ursula Xose Arkadioni papa taxtini egallashi uchun tayyorlashga yetarli vaqt topolmadi. Uni seminariyaga yuborish payti juda yaqin qolgan, endi o‘sha boy berilgan soatlarni chegirib olish zarur edi. Xose Arkadioning singlisi Meme (uning tarbiyasini badjahl Fernanda bilan ma’yus Amaranta o‘zaro taqsimlab olishgan edi) maktab yoshiga yetganda, endilikda uni ibodatxona qoshidagi maktabda klavikord sozining mohir ijrochisi qilib tayyorlashlari kerak edi. Ursulani og‘ir shubhalar qiynardi – unga papalikka nomzodning lanj ruhini toblash usullari ta’sirchan emasdek tuyilardi, lekin u bunda o‘zining na keksayib, qoqinib yurishini, na ko‘z atrofini qoplayotgan qora bulutlarni (u ana shu bulutlar ortidan faqat atrofdagi narsalarning tashqi ko‘rinishini zo‘rg‘a ajrata olardi) aybdor hisoblardi. Ursula hamma baloni o‘zi ham aniq tasavvurga ega bo‘lmagan, vaqtning sifatiga

betinim putur yetkazuvchi, g‘ira-shira faraz qiluvchi allaqanday noma’lum bir hodisadan ko‘rardi. «Yillar endi oldingidan ko‘ra boshqacha o‘tyapti», – shikoyat qilardi u. Ilgari bolalarimiz juda sekin ulg‘ayishardi, deb o‘ylardi Ursula. Uning to‘ng‘ich o‘g‘li Xose Arkadio lo‘lilar bilan qochib ketganidan uyga tanasi xuddi ilonning terisi kabi rasm solib bezalgan, gapi munajjimga o‘xshab tushunarsiz holda qaytib kelgunicha, Amaranta bilan Arkadio hindular tilini unutishib, ispancha gapirishni o‘rganib olishguncha qancha vaqt o‘tganini yoki bechora Xose Arkadio Buendia kashtan daraxti ostida necha kecha-kunduzdan beri o‘tiribdi, jang-u azoblarni boshidan kechirgan, hatto yoshi ellikka ham yetmagan, o‘lim to‘shagida yotgan polkovnik Aureliano Buendiani uylariga olib kelguncha qancha vaqt o‘tibdi – mana shularni eslash kifoya. Ilgari u kun bo‘yi novvot tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘lishiga qaramay, bolalarga qarashga ham ulgurar, hatto ularning ko‘ziga boqib, kanakunjut moyini surish vaqti kelganini payqardi ham. Hozir Ursula ertalabdan kechgacha faqat Xose Arkadioga qarash bilan shug‘ullansa-da, zamon aynigani tufayli biror-bir ishiniyam oxirigacha yetkazolmasdi. Ammo aslida hamma gap, hatto yoshi nechadaligini ko‘pdan beri bilmaydigan Ursulaning hanuzgacha keksalikni bo‘yniga olmayotganida edi; u hamma yerda tentirab yurar, hamma narsaga aralashaverar, avliyo Yusufning gips haykalini kim tashlab ketdi, degan savolini takrorlayverib, ajnabiylarning joniga tegardi. Ursulaning ko‘zlari qachon xira torta boshlaganini hech kim aniq aytolmasdi. Hatto umrining so‘nggi yillari to‘shakdan turolmay-

digan darajaga yetganda ham, hamma Ursulani keksalik yengdi, deb o‘ylar, aslida esa u batamom ko‘r bo‘lib qolgan edi. Ursula ko‘zi ojizlana boshlayotganini Xose Arkadio tug‘ilmasidan sal ilgari sezgan edi. Oldiniga bu holni lohaslikka yo‘ydi va tezda o‘tib ketadi, deb o‘ylab, ilik yog‘idan sho‘rva ichdi, ko‘ziga asal tomizdi, ammo kun sayin battar zulmatga cho‘mayotganiga noiloj ishonch hosil qildi. U elektr haqida aniq tasavvurga ega bo‘lolmadi, chunki Makondoga elektr chiroqlarini o‘rnatishganda, Ursula ularni allaqanday bir g‘ira-shira shu’la sifatida idrok etadigan holga yetgandi. U ko‘zdan ayrilgani haqida hech kimga og‘iz ochmas, chunki bu – o‘zining foydasiz bo‘lib qolganini ko‘pchilik oldida tan olish edi-da. Ursula, uni ko‘rlik yorug‘ olamdan butunlay ajratib qo‘yganida ham xotira yordamida ko‘rishni davom ettirish maqsadida odamlardan yashirincha buyumlar orasidagi masofani hamda odamlarning tovushlarini diqqat bilan o‘rganardi. Keyinchalik esa u nogahon hidlardan najot topdi – ularni qorong‘ilikda buyumlarning shakllari-yu rangiga nisbatan ancha yaqqol aniqlash mumkin edi. Hidlar uni siri ochilib, sharmandasi chiqishdan batamom asrab qoldi. Ko‘z oldini qorong‘ilik qoplaganiga qaramay, Ursula ignaga ip o‘tkazar, kiyim ilgagiga tepchib chiqar va sutning qaynaganini bila olardi. U har bir narsaning qayerda ekanini aniq bilarkan, ba’zida ko‘rligini o‘zi ham unutib qo‘yardi. Bir kuni nikoh uzugi yo‘qolganida, Fernanda qichqirib, butun uyni boshiga ko‘tardi, Ursula esa uzukni bolalar yotoqxonasidagi tokchadan topib berdi. Buning sababi jo‘ngina edi: uydagilar xonalarning u boshidan-bu

boshiga beparvolarcha borib kelisharkan, Ursula o‘zining sirini bexosdan bilib qolmasliklari uchun sog‘ qolgan to‘rt sezgi a’zolari bilan ularning har bir harakatini kuzatardi. U tez orada oilasining har bir a’zosi o‘zi bilmagan holda kuniga faqatgina bitta yo‘lni bosib o‘tishini, harakatlari bir xildaligini hamda doimo ma’lum bir vaqtda bir xil so‘zlarni takrorlashini kashf etdi. Demak, Buendialar faqat odatdagi kun tartibi buzilsagina biror buyumni yo‘qotishlari mumkin edi. Shu bois ham Fernandaning yig‘i-sig‘isini eshitgan Ursula, uning yagona g‘ayriodatiy harakati bolalar xonasiga kirib, karavotlaridagi bo‘yralarni shamollatishi ekanini (chunki o‘tgan kechasi Meme qandala topib olgandi) esladi. Fernanda xonani yig‘ishtirayotganida yonida bolalar bo‘lgan va shu sababli ham u uzugini ularning qo‘li yetolmaydigan birdan bir joy – tokchaga qo‘ygan, deb taxmin qilgandi Ursula. Fernanda esa, aksincha, kundalik odatlar yo‘qolgan buyumlarni qidirishni qiyinlashtirishini, ular tufayli buyumlarni topish og‘irligini bilmagan holda, uzugini o‘zining har kungi yurgan yo‘llaridan izlardi.

Xose Arkadioning tarbiyasi bilan shug‘ullanish Ursulaga uydagi eng kichik o‘zgarishlarni ham ilg‘ashda qo‘l kelardi. Masalan, u Amarantaning yotoqxonadagi avliyolarni kiyintirayotganini bilib qolganida, o‘zini go‘yoki bolaga ranglarni ajratish bo‘yicha saboq berayotganga solardi.

– Qani, – dedi u Xose Arkadioga, – endi menga ayt-chi, avliyo Rafaelning kiyimi qaysi rangda?

Shu taxlit bola Ursulaga ko‘z bo‘lar, yetarli ma’lumotlarni yetkazardi. U seminariyaga ketishidan ancha oldin Ursula gazmolni pay-

paslab koʻrib, avliyolar kiyimlarining rangini aniqlashni oʻrganib oldi. Baʼzi vaqtda kutilmagan voqealar ham yuz berardi. Bir kuni u begoniyalar oʻsadigan peshayvonda kashta tikib oʻtirgan Amarantaga urilib ketdi.

– Xudo haqi, – Amarantaning jahli chiqdi, – koʻzingga qarasang boʻlmaydimi!

Ursula oʻzining haqligiga toʻla ishonardi va oʻylab koʻrib, birdan hali hech kimning miyasiga kelmagan narsani kashf etdi: fasllar oʻtishi bilan quyosh oʻz holatini sezdirmay oʻzgartirar va natijada peshayvonda oʻtirganlar ham oʻzlari sezishmagan holda oʻrinlaridan siljib, joylarini oʻzgartirishar ekan. Ursula Amarantaning qayerda oʻtirganligini bexato aniqlash uchun bugun qaysi kunligini eslasa kifoya edi. Ursula xuddi ilgariday, yaʼni uyning butun tashvishi gardanida paytidagi kabidek abjir edi. Garchand, u oʻzining qariligi tufayli yorugʻ olamdan ajralib, tanho boʻlib qolgan boʻlsa-da, xonadonlaridagi kichik voqea-hodisalarni ham favqulodda tiyraklik bilan bilish qobiliyatiga ega boʻldiki, ilgari ish bilan mashgʻulligi tufayli sezmagan narsalarini ilk bor ravshan koʻra boshladi. Xose Arkadioni seminariyaga tayyorlashayotgan paytda Ursula Buendia oilasini to Makondoga asos solingan kundan boshlab atroflicha tahlil qildi va avlodlari haqidagi oʻz fikrini tamomila qaytadan koʻrib chiqdi. Ursula, polkovnik Aureliano Buendia dastlab oʻylaganidek, yaʼni urush rahmsiz qilib qoʻygani uchun emas, balki u hech qachon hech kimni – xotini Remediosni ham, bir kechalik behisob jazmanlarini ham, hatto oʻgʻillarini ham sevmagani uchun oilasiga nisbatan sovib ketganiga

ishondi. Ursula polkovnik bu qadar ko‘p janglarni hamma o‘ylaganidek idealizm uchun olib bormaganini, muqarrar g‘alabadan hamma o‘ylaganidek charchagani tufayli voz kechmaganini, balki faqat chinakam shuhratparastligi uchungina g‘alaba qozongani-yu, mag‘lubiyatga uchraganini tushundi. Ursula kerak bo‘lsa joniniyam ayamaydigan bu o‘g‘li tabiatan birovni seva bilish qobiliyatidan mahrum etilgan, degan xulosaga keldi. Bir kuni kechqurun Ursula, ana shu o‘g‘li hali qornida bo‘lganidayoq, yig‘isini eshitgan edi; yig‘isi shu qadar yurakni ezadigan va aniq ediki, Ursulaning yonida yotgan Xose Arkadio Buendia uyg‘onib ketdi-da, balki o‘g‘li og‘iz ochmasdan gapiradigan bo‘lib tug‘ilar, deb rosa quvondi. Qolganlar esa u bashoratchi bo‘lishini karomat qilishdi. Ursula esa qornidan chiqqan bu yig‘i uning cho‘chqa dumli bo‘lib tug‘ilishidan berilgan ilk dahshatli alomat degan o‘ydan cho‘chib tushdi va Xudodan unga hali tug‘ilmasidanoq o‘lim tiladi. Ammo Ursula bolaning ona qornida yig‘lash uning og‘iz ochmasdan gapira olishi yoki bashorat qila oluvchiligidan nishona emasligi, balki uning hech qachon sevish nimaligini bilmay o‘tishini bexato ko‘rsatuvchi belgi ekanini qarilikning aql-farosati bilan angladi va keyin buni bot-bot ta’kidladi. O‘g‘lini qayta baholash daf’atan uning qalbida farzandiga berolmagan mehr-shafqatlarini uyg‘otib yubordi. Ursulani mudom qo‘rqitadigan, toshyurakligi qayg‘uga soladigan dil g‘ussasi to‘la Amaranta, aksincha, hozir onasiga ayollik nazokatining timsoli bo‘lib tuyildi. U achinish tufayli paydo bo‘lgan bir ziyraklik bilan yana shuni angladiki, Amarantaning Petro Krespiga

bergan nohaq azoblari hamma o‘ylaganidek o‘ch olish ishtiyoqi, ikkinchi kishi polkovnik Xerineldo Markesning hayotini barbod qilgani uzoqqa cho‘zilgan azob mutlaqo taxir, achchiq, dardi bedavo g‘am bilan bog‘liq emasdi. Aslida bularning bari cheksiz sevgi bilan yengib bo‘lmas qo‘rqoqlik o‘rtasidagi beomon kurash tufayli yuz bergan noziklik bo‘lib, bora-bora bu kurashda Amarantaning bechora yuragini mudom tilka-pora qilib turgan aql bovar qilmas qo‘rquv g‘olib chiqqandi.

Xuddi shu kunlari Ursula Rebekaning nomini tez-tez tilga oladigan bo‘ldi, u Rebekaning qachonlardir sevimli bo‘lgan siymosini xotirasida gavdalantirishga urinar, kechikkan pushaymon va daf’atan paydo bo‘lgan faxr tufayli bu sevgi yanada kuchayar, uning sutini emmagan, balki kesak yeb katta bo‘lgan, tomirida Buendialarning emas, balki suyaklari mozorda hanuzgacha shaqirlab yotgan noma’lum odamlarning noma’lum qoni oqadigan Rebekagina, yuragi betoqat, nafsini tiya olmagan Rebekagina Ursulaning nazarida, u o‘z naslida ko‘rmoqni orzu qilgan kuchli jasoratni mujassam etgan yakka-yu yagona odam edi.

– Rebeka, – deb g‘o‘ldirardi u devorlarni barmoqlari bilan paypaslarkan, – biz senga nisbatan nihoyatda adolatsizlik qilgan ekanmiz!

Hamma Ursula alahlayapti, deb o‘ylardi. Ayniqsa, u xuddi Jabroilga o‘xshab o‘ng qo‘lini oldinga cho‘zib yuradigan bo‘lganidan so‘ng shu fikr kuchaydi. Lekin Fernanda bu alahlash zulmati ba’zida aql quyoshi bilan yoritilishini oxiri payqadi. Ursula o‘tgan yil uylarida jami necha so‘m xarajat qilinganini tutilmasdan aytib berardi. Bir kuni oshxonada sho‘rva tayyorlayot-

ganida onasi hech kim yo‘q deb o‘ylab, o‘ziga o‘zi Makondoga ilk bor kelib, keyin Xose Arkadio yer yuzini oltmish besh marta aylanib chiqqaniga qadar g‘oyib bo‘lgan lo‘lilardan sotib olingan ilk tegirmonlari hanuzgacha Pilar Ternerada qolib ketganini aytganida, Amaranta ham Ursulaning aqli raso ekanini angladi. Qariyb yuzga yetib qolgan, kulishidan ilgari kaptarlarni cho‘chitgani kabi hozir bolalarni haybati bilan qo‘rqitadigan, benihoya semizligiga qaramay, hamon baquvvat va tetik Pilar Ternera Ursulaning so‘zlaridan aslo ajablanmadi: u keksalarning ziyrakligi ko‘pincha qartada ochilgan folga nisbatan chinroq ekaniga inona boshlagan edi.

Shunga qaramay, Xose Arkadio iste’dodini shakllantirish uchun yetarli vaqt topa olmayotganini sezgan Ursula tushkunlikka yuz tutdi. Bir kuni ertalab gul suvi deb xayol qilib, bolaning boshiga siyoh quyib yubordi. Hamma narsaga o‘jarlik bilan aralashaverishi tufayli, u xato ustiga xato qilar, o‘zini tobora ko‘proq qurshayotgan zulmat pardasidan qutulishga behuda urinardi. Ana shunda Ursulaning miyasiga bu uning ustidan qarilik va so‘qirlik qozongan birinchi g‘alabaning nishonasi emas, balki vaqtning aynigani – vaqtdan putur ketishining oqibati, degan fikr keldi. Xudo oy bilan yilning hisobida, go‘yoki, mato gazlaydigan turk do‘kondori singari aldashga yo‘l qo‘ymasidan ilgari, o‘ylardi u, hamma narsa boshqacha yo‘sinda edi. Endilikda nafaqat bolalar juda tez ulg‘ayishadi, hatto odamlarning hissiyoti ham ilgarigidan tamomila bo‘lakcha. Go‘zal Remediosning vujudi-yu ruhi

hali osmoni falakka batamom koʻtarilmay turib, behayo Fernanda u kunjakdan-bu kunjakka zir yugurib, nega choyshablarimni olib ketishdi, deb shangʻillardi. Oʻn olti nafar Aurelianoning jasadi sovib ham ulgurmay, goʻyoki nasroniylar emas, itlar oʻlgandek, Aureliano Ikkinchi yana uyiga mast-alastlar toʻdasini toʻplab, ularga akkordeon chaldirar, shampan quyib berardi.

Ursulaning nazarida bu telba uy faqat fosiqlik makoniga aylanib qolish uchungina qurilgan edi. Xose Arkadioning lash-lushlarini sandiqqa solishayotganida, Ursula achchiq xotiralarga gʻarq boʻlib, bundan koʻra lahadga yotqizib, ustimdan tuproq tortishsa yaxshi boʻlarmidi, deya oʻzidan soʻrar; odamlar haqiqatan ham temirdan yaralganmi, shuncha azob-u uqubatlarni koʻtarishadi, deya tap tortmay Xudodan soʻrar; ammo Xudoni va oʻz-oʻzini qancha koʻp soʻroq qilsa, fikrlari shunchalik chigallashar, unda xuddi ajnabiylar kabi tasodifan esga kelgan gapni aytaverish istagi tugʻilardi. Nihoyat, doimo oʻzgalarni oʻylab yashagani uchun shuncha paytlardan beri paysalga solib kelgan orzusi uygʻonar – aqalli bir soniya boʻlsa-da, isyon koʻtarishni gʻoyat istardi; hamma narsaga hech boʻlmasa bir martagina hafsala bilan boplab tupurishni, qariyb bir asrlik itoatgoʻyligi mobaynida oʻzini ezib tashlagan olam-jahon bemaʼni soʻzlar uyumini yuragidan itqitib tashlashni juda-juda xohlardi.

– Gazanda! – deb qichqirdi bir gal Ursula. Kiyimlarni sandiqqa joylashtirayotgan Amaranta onamni chayon chaqdi, shekilli, deb oʻyladi.

– Qani? – deya qoʻrqa-pisa soʻradi u.

– Nima?

– Chayon, – dedi Amaranta.

Ursula barmog‘i bilan yuragini ko‘rsatdi:

– Manavi yerda! – dedi u.

Payshanba kuni kunduzi soat ikkida Xose Arkadio seminariyaga yo‘l oldi. Ursula uning shu xayrlashuv paytidagi holatini doimo eslab yuradi: Xose Arkadio ozg‘in, qarashlari jiddiy edi, u xuddi Ursula tayinlaganidek, bir tomchi ham yosh to‘kmadi, – Xose Arkadio yemakxonadan chiqib ketganida, u yerda gul suvining o‘tkir hidi anqib turardi. Ursula bolani uydan osonroq topish uchun uning boshini doimo ana shu suv bilan yuvardi. Xayrlashuv dasturxoni atrofida to‘plangan oila a’zolari hayajonlarini sho‘x-shodon laqillashlar bilan berkitishga urinishar, Padre Antonio Isabelning hazillarini zo‘raki ishtiyoq bilan tinglashardi. Burchaklari kumush bilan bezatilib, baxmal qoplangan sandiqni olib chiqishayotganida, go‘yo uydan tobut olib chiqilayotgandek tuyildi. Polkovnik Aureliano Buendia kuzatish marosimiga ishtirok etishdan bosh tortdi.

– Bizga shu yetmay turuvdi, – to‘ng‘illadi u. – Avliyo papa emish!

Uch oydan so‘ng Aureliano Ikkinchi va Fernanda Memeni ibodatxona qoshidagi maktabga olib borishdi va u yerdan pianola o‘rnini olgan klavikordlar bilan qaytib kelishdi. Xuddi shu paytda Amaranta o‘ziga kafan to‘qiy boshlagandi. Banan mojarosi deyarli bosilib qolgan edi. Makondoning tub aholisi o‘zlarining ajnabiylar tomonidan chetga siqib chiqarilganini payqashdi. Ammo avvalgi arzimas daromadlarini bir iloj saqlab qolib, en-

dilikda bamisoli kema halokatidan omon qolgan kishilardek quvonishardi. Buendia xonadoniga to‘da-to‘da mehmon chaqirish haligacha davom etardi. Bir necha yil o‘tib, banan kompaniyasi tugatilgach, oilaning burungi osuda hayoti qayta tiklandi. Lekin an’anaviy mehmondorchilik tubdan o‘zgarib ketdi, chunki hokimiyat endi Fernandaning qo‘liga o‘tgan edi. Ursula ko‘r edi, mudom zulmatda yashardi, Amaranta esa kafan to‘qishdan bosh ko‘tarmas, shu bois qirolichalikka sobiq nomzod bo‘lmish xotinning didiga mos mehmon tanlashi, ota-onasi uqtirganidek, ularga jiddiy qoidalarni zo‘rlab yuklashi uchun hamma imkoniyat bor edi. Kelgindilar oson yo‘l bilan topgan pullarning o‘ng-u so‘lga sochilishi tufayli yuz berayotgan axloqsizliklardan larzaga tushgan Buendialarning xonadoni Fernandaning qattiqqo‘lligi bois eskirgan an’analarning tayanchiga aylangandi. Fernanda bilan kompaniyasiga aloqasi bo‘lmagan kishinigina nomusli odam hisoblardi. Hatto qaynisi Xose Arkadio Ikkinchi ham Fernandaning ana shunday kamsitishlari qurboniga aylandi, chunki u banan mojarosi boshlangan kunlardayoq o‘zining ajoyib urushqoq xo‘rozlarini yana sotib, banan kompaniyasiga nazoratchi bo‘lib ishga kirgan edi.

– Unga bexosiyat kelgindilarning kasofati urgan, qorasiniyam ko‘rmay bu yerda, – derdi Fernanda.

Uydagi hayot shu qadar rasmiy tus oldiki, Aureliano Ikkinchi o‘zini Petra Kotesning uyida o‘ng‘ayroq seza boshladi. U avvaliga xotinini mehmon kutish tashvishlaridan xalos etajagini bahona qilib, o‘zining dabdabali ziyofatlarini jazmani-

ning uyiga koʻchirdi. Soʻng mollari serpushtligini yoʻqotib qoʻyishini bahona qilib, molxona bilan otxonani ham oʻsha yerga koʻchirdi. Nihoyat, oʻsha joy salqinroq, degan vaj bilan kichik idorasini ham unikiga olib oʻtdi. Fernanda oʻzining tirik bevaga aylanganini sezib qolganida ancha kech edi. Aureliano Ikkinchi oʻz uyida deyarli ovqatlanmas, faqat tunagani kelardi. Bu uning odob qoidalariga birdan bir hurmati edi, bunga hamma ishonardi. Ammo u bir safar xatoga yoʻl qoʻydi: tongni Petra Kotesning toʻshagida kutib oldi. Biroq kutilmaganda xotinidan taʼna-dashnom eshitmadi, Fernanda aqalli yengilgina xoʻrsinib ham qoʻymadi, ammo oʻsha kuniyoq Petra Kotesning uyiga erining ikki sandiq kiyim-kechagini yubortirdi. Eng yomoni kuppa-kunduz kuni yubortirdi va sandiqlarni butun shahar ahli koʻrsin uchun koʻcha oʻrtasidan koʻtarib oʻtishlarini buyurdi. U oʻzicha, adashgan erim sharmandalikka chiday olmaydi, boshini egib qaytib keladi, deb oʻylagan edi. Afsuski, Fernanda oʻylaganidek boʻlmadi. Sandiqlarni koʻrgan har bir odam hammaga maʼlum ishqiy sarguzashtga nihoyat yakun yasaldi, deb hisoblardi. Aureliano Ikkinchi boʻlsa, oʻziga hadya etilgan ozodlikni uch kunlik bazm bilan nishonladi. Bechora Fernanda oʻzining qora va uzun libosi, modadan allaqachon qolgan taqinchoqlari va oʻrinsiz magʻrurligi tufayli erta qarib qolgandek tuyilar, asl shohidan yorqin koʻylak kiyib olgan Petra Kotes esa, poymol qilingan huquq qayta tiklanayotganidan koʻzlari porlar, goʻyoki yoshligining ikkinchi bahori qulf urayotgandek tuyilar edi. Aureliano Ikkinchi xuddi ilgarigidek, yaʼni Petra Kotes uni egizak akasi deb oʻylab,

birga yotib yurgan va Xudo unga misli koʻrilmagan baxt biryoʻla ikki kishidek sevish qudratiga ega erkakni roʻpara qilganidan boshi koʻkka yetgan vaqtdagi kabi kuchli bir yoshlik harorati ila oʻzini yana jazmani izmiga topshirdi. Qayta tugʻilgan ehtiros yuksak darajada edi: shunday paytlar boʻlardiki, ular ovqatga qoʻl urishdan oldin koʻz-koʻzga tushib qolsa bas, qozonchaning qopqogʻini yopishardi-da, ochlik va ishratdan oʻlish uchun yotoqxonaga yoʻl olishardi. Fransuz geteralari yoniga qilgan maxfiy sayrlarida orttirgan tajribasidan ilhomlangan Aureliano Ikkinchi Petra Kotesga xuddi arxiyepiskopnikiga oʻxshash chodirli karavot olib berdi, derazalarga baxmal pardalar ostirdi, yotoqxona shifti va devorlarini ulkan koʻzgular bilan qoplatdi. U endi avvalgidan ham quvnoqroq, devonaroq edi. Har kuni kunduz soat oʻn birda poyezdda uning nomiga shampan-u sharob shishalari toʻla qutilar kelardi. Aureliano Ikkinchi yukni stansiyadan olib qaytarkan, tanish yoki notanishligidan qat'iy nazar, duch kelgan odamni uyga yetaklardi. U, hatto ispanchani mutlaqo bilmaydigan janob Braunni ham imo-ishoralar bilan yoʻldan urdi va quv ingliz Petra Kotesning uyida bir necha bor oʻlguday ichdi, hatto bir kuni qopongʻich zotdor itlarini oʻzi akkardeon joʻrligida tutila-tutila aytgan texas qoʻshiqlariga raqs tushishga majbur qildi.

– Tugʻinglar, sigirlarim! – deb qichqirardi Aureliano Ikkinchi kayfi oshgan chogʻlarda. – Hayot qisqa, tugʻaveringlar!

U hech qachon ayni paytdagidek toʻlishmagan, hech qachon ayni paytdagidek qattiq sevilmagan, uning sigirlari hech qachon ayni paytdagidek

shiddat bilan ko‘paymagan edi. Bazmlarda shunchalar ko‘p buzoq, qo‘y va tovuq so‘yilardiki, hovli sahni qondan qorayib yelimshak bo‘lib qolgandi. Aureliano Ikkinchi semirib ketdi, qizil-binafsharangga kirgan yuzi to‘lishdi, gavdasi naq toshbaqaga o‘xshab qoldi. Aureliano Ikkinchining aql bovar qilmaydigan xo‘raligi, ayovsiz pul sovurishi va cheksiz hotamtoyligining ovozasi vodiydan tashqariga ham tarqaldi va eng dong‘i chiqqan mechkaylarning ham diqqatini tortdi. Petra Kotesning uyida ko‘p ovqat yeyish bo‘yicha uyushtiriladigan ahmoqona musobaqalarda qatnashish uchun Makondoga chor tarafdan dovrug‘i ketgan ochofatlar kelishardi. «Fil» laqabi bilan mamlakatga dong‘i ketgan Kamila Sagaustume ismli ayol kelgan o‘sha mash’um shanbaga qadar, mechkaylik bahsida hamisha Aureliano Ikkinchi g‘olib chiqardi. Ular orasidagi musobaqa shanbadan to seshanba kuni ertalabgacha davom etdi. Birinchi kuni manioka va qovurilgan banandan tayyorlangan garnir bilan bitta buzoq go‘shtini yeb, bir yarim quti shampan ichgan Aureliano Ikkinchi o‘z g‘alabasiga aniq ishongan edi. U tepsa-tebranmas raqibasiga nisbatan o‘zida zavq va hayotga tashnalik ko‘proq, deb hisoblardi. Kamilaning ovqat yeyish usuli ancha mukammal edi, xuddi ana shuning uchun ham u dastlab odamlarda unchalik katta qiziqish uyg‘otmadi. Aureliano Ikkinchi go‘shtlarni jon-jahdi bilan tortqilab yesa, «Fil» ularni xuddi usta jarroh kabi bo‘laklarga bo‘lar va shoshilmay, lazzat bilan yerdi. U yirik va semiz bo‘lsa-da, bahaybatligi deyarli sezilmasdi: «Fil»ning yuzi shu qadar chiroyli, qo‘llari shu qadar nozik, istarasi shunchalar issiq

ediki, u ilk bor uyga kirib kelganida, Aureliano Ikkinchi bu ayol bilan ovqat yeyishda emas, balki ishq-muhabbatda bellashishni afzal ko‘rishini pichirlab aytdi. Ammo «Fil»ning buzoqning butun-butun sonini yeyishini, yeganda ham eng nozik, yuqori tabaqaga xos odob qoidalarini buzmaganini ko‘rgan Aureliano Ikkinchi, bu sipo, dilbar va yeb-to‘ymasni tom ma’noda ideal ayol, deb atadi. U adashmagan edi. «Fil» – mechkay burgut deya tarqalgan mish-mishlar hech bir asossiz edi. Odamlar aytganidek, u go‘sht qiymalovchi ham, grek sirkida xizmat qiluvchi soqolli ayol ham bo‘lmasdan, bor-yo‘g‘i jo‘ngina ashula maktabining direktori edi; ko‘p ovqat yeyishni esa o‘z bolalarining ishtahasini sun’iy ravishda emas, balki tamomila ruhiy sokinlik yordamida kuchaytirish usullarini izlayotgan mahal o‘rganib olgandi. Uning amalda sinab ko‘rilgan nazariyasi: agar odamning vijdoni pok bo‘lsa, u to charchagunicha, betanaffus ovqat yeyishga qodir, degan naqlga asoslangan edi. Shunday qilib, u o‘z maktabi va oilasini shuhratparastligidan emas, balki axloqiy sabablarga ko‘ra – butun mamlakatda maslaksiz mechkay deb nom qozongan Aureliano Ikkinchi bilan yakkama-yakka bellashish niyatida tark etgandi. «Fil» Aureliano Ikkinchini ko‘rgan zahotiyoq, bu yigitni oshqozoni emas, balki fe’l-atvori sharmanda qilishini darhol tushundi. Darhaqiqat, bellashuvning birinchi kechasida «Fil» o‘z jangovarligini zarracha ham yo‘qotmadi, Aureliano Ikkinchi bo‘lsa, ko‘p kulgani hamda betinim valaqlagani sababli holdan toydi. Ular to‘rt soat uxlashdi. So‘ngra har biri ellikta apelsindan tayyorlangan sharbat, sakkiz litr qahva va o‘ttiz-

tadan xom tuxum ichishdi. Ikkinchi kuni ertalab salgina dam olib, ikkita qo‘y, bir shingil banan va to‘rt quti shampanni tinchitgan «Fil», Aureliano Ikkinchi mening usulimni o‘zi bilmagan holda kashf etdi, deb gumon qila boshladi. Shunday qilib, raqibi u o‘ylaganidan xavfliroq tuyildi. Petra Kotes qovurilgan ikkita kurka go‘shtini olib kelib xontaxtaga qo‘yganida, Aureliano Ikkinchi miyasiga qon quyilishi arafasida edi.

– Ko‘tarolmasangiz, mayli, boshqa yemang, – dedi unga «Fil». – Mayli, kurash durang bo‘la qolsin.

U chin ko‘ngildan gapirdi, chunki raqibi o‘lay deb turganini ko‘rgan odamning tomog‘idan luqma o‘tmaydi-da. Aureliano Ikkinchi, ayol atay jig‘imga tegyapti, deb o‘yladi va kurka go‘shtini ham paqqos tushirib, o‘sha zahoti hushidan ketdi. U kemirib tozalangan suyaklar yotgan laganga yuztuban ag‘darilib tushdi-yu, xuddi quturgan it kabi og‘zidan ko‘pik kela boshladi va jon berayotganday xirilladi, go‘yo qandaydir minoraning tepasidan tubsiz jarga tushib ketayotganday edi. Bir lahza hushiga kelganida, o‘zini ana shu jar tubida o‘lim kutayotganini sezdi.

– Meni Fernandaning yoniga eltinglar, – deyishga ulgurdi u.

Aureliano Ikkinchini uyiga olib kelishgan do‘stlari, u jazman to‘shagida o‘lmayman, degan va’dasini bajaryapti, deb o‘ylashdi. Petra Kotes, eri tobutda kiyib yotishni istagan moyli poyabzalni tozalab, eltadigan odam qidirayotganda unga, Aureliano Ikkinchi xavfdan xalos bo‘ldi, deya xabar berishdi. Chindan ham, u bir hafta ichida sog‘ayib ketdi, yana ikki haftadan so‘ng esa o‘zining qayta tirilishi munosabati bilan misli

koʻrilmagan darajada katta bazm uyushtirdi. U Petra Kotesning uyida yashashni davom ettirdi, ammo endi har kuni Fernandani yoʻqlab borar va baʼzan oilasi bilan birga ovqatlangani qolardi, goʻyo taqdir hamma narsaning oʻrnini almashtirib, uni jazmaniga er, xotiniga esa jazman qilib qoʻygan edi.

Nihoyat, Fernanda biroz boʻlsa-da, nafas rostladi. Bu kimsasiz ayolning sust va zerikarli yolgʻizlik kunlarini tush payti klavikodda kuy chalish-u, bolalaridan kelgan maktublargina bezardi, xolos. Uning koʻzi Xose Arkadio bilan Memega har oyda ikki marta uzundan uzoq va bir bor boshdan-oyoq uydirma xatlar yoʻllardi, lekin bolalardan baxtiqaroligini yashirardi. Fernanda quyosh nuriga koʻmilgan begoniyalari borligiga, choshgohdagi dimiqtiradigan issiqqa, koʻchadan damba-dam oqib keladigan bayram shodliklarining qahqahasiga qaramay, tobora ota-onasining oʻsha mudhish uyiga aylanib borayotgan bu xonadonning qaygʻusini ustalik bilan yashirardi. U uchala tirik arvoh bilan bir murda – odatda mehmonxonaning qorongʻi burchagiga oʻtirib olib, Fernandaning klavikordda kuy chalishini diqqat bilan tinglaydigan Xose Arkadio Buendianing arvohi oʻrtasida yolgʻiz oʻzi zoʻrgʻa sudralib yurardi. Polkovnik Aureliano Buendianing soyasigina qolgan edi, xolos. U soʻnggi bor uydan polkovnik Xerineldo Markesni yangi urush ochishga koʻndirish uchun chiqqandi, endi esa ustaxonasini faqat kashtan daraxti yoniga hojat uchun chiqqandagina tark etardi. U har uch haftada kelib turadigan sartaroshdan boʻlak hech kimni qabul qilmasdi. Kuniga bir marta keltiriladigan ovqatga

qanoat hosil qilar, avvalgidek tirishqoqlik bilan oltin baliqchalar tayyorlasa-da, ularni zeb-ziynat uchun emas, balki tarixiy yodgorlik sifatida xarid qilishayotganini eshitib, baliqchalarini savdoga chiqarmay qo‘ydi. U bir kuni marhuma xotini Remediosdan qolgan yotoqxonasini bezab turgan qo‘g‘irchoqlarni hovliga chiqarib yoqdi. Ziyrak Ursula o‘g‘lining nima qilayotganini sezdi-yu, ammo uni bu ishdan qaytarolmadi.

– Yuraging tosh ekan, – dedi ona o‘g‘liga.

– Bunga yurakning nima aloqasi bor, – deya javob qaytardi polkovnik. – Xona kuyaga to‘lib ketdi-ku.

Amaranta hamon kafan to‘qirdi. Fernanda Amarantaning goho Memega xat yozishiga, hattoki sovg‘alar ham yuborib turishiga, Xose Arkadio haqida esa gapirishni ham xushlamasligiga hayron qolardi. Fernanda Ursula orqali izoh so‘raganida, Amaranta: «Ular buning sababini bilishmay o‘lib ketishadi», – deya javob berdi; u Amarantaning ayni jumboqli javobini umrining oxirigacha yuragida saqladi. Novcha, xushqad, xuddi ko‘pikdek oppoq yubka kiyib yuradigan, yillar-u og‘ir xotiralar ham go‘zalligiga putur yetkazolmagan mag‘rur Amarantaning peshonasi kuldan chizilgan o‘z shaxsiy xochini, ya’niki iffat xochini ko‘tarib yurganday edi. U qora bilakbandini hatto kechalari ham yechmas, kir bo‘lganida esa o‘zi yuvib, o‘zi dazmollar edi. Amarantaning butun umri kafan to‘qish bilan o‘tardi. Aftidan, Amaranta kunduzi to‘qigan bo‘lagini kechqurun tarqatib yuborardi, lekin u yolg‘izlikdan qutulish uchun emas, balki aksincha, yolg‘izligini saqlab qolish uchun shunday qilardi.

Aureliano Ikkinchi ayri yashagan paytlari Fernanda Meme ta'tildan qaytib, otasini uyda ko'rolmasa nima bo'ladi, deb tashvishlanardi. Eri ovqatdan bo'kdi-yu, ayolning ko'ngli sal tinchlandi. Meme kelguniga qadar er-xotin qizlariga uylaridagi ko'ngilsiz ahvolni sezdirmaslikka kelishib olishdi. Aureliano Ikkinchi har yili surunkasiga ikki oy ibratli er vazifasini o'tar, mehmon aytib, ularni muzqaymoq va pishiriqlar bilan siylar edi; rohibalarning xushchaqchaq va chaqqon tolibasi bo'lmish Meme yig'inlarni klavikordda chaladigan kuylari bilan bezardi. Qiz onasiga ko'p tortmagani o'shandayoq ma'lum bo'lgan edi. Meme Amarantaning hali Petro Krespi ishqi yo'ldan urmagan o'n ikki-o'n to'rt yasharlik paytiga o'xshab ketardi. Ammo Amarantadan va boshqa hammadan farqli o'laroq, Memening ko'nglida butun Buendialar oila a'zolarining chekiga tushgan yolg'izlik hissi hali uyg'onmagandi. Hatto o'zini klavikordda kuy mashq qilgani har kuni soat ikkida muntazam tarzda mehmonxonaga yuborishsa-da, qizaloq dunyodan mamnun edi. Uylarini yaxshi ko'rishi, uni kutib oladigan yoshlarning shod-xurramligini butun yil davomida orzu qilishi va uning ham otasiga o'xshab o'yin-kulgi va mehmondo'stlikka moyil ekanligi ayon edi. Bu badbaxt merosning ilk alomatlari uchinchi ta'til paytida, Meme uyga to'rt nafar rohiba hamda oltmish sakkiz nafar sinfdosh dugonasi qurshovida kelganida namoyon bo'ldi. U hech kimdan so'ramay hatto, hech kimni ogohlantirmay, mehmonlarni rosa bir haftaga taklif etgan edi.

– Bu qanday ko'rgilik! – deya zorlanardi Fernanda. – Qizim xuddi otasiday telba chiqdi-ya!

Qo‘shnilardan karavot va to‘r belanchaklar so‘rab olishga to‘g‘ri keldi, ovqatlanish to‘qqiz navbatda tashkil qilindi, hammomdan foydalanish uchun ro‘yxat tuzildi. Egniga ko‘k ko‘ylak, oyog‘iga erkaklarning boshmog‘ini kiyib olgan bu qizlar kuni bo‘yi uyning u boshidan-bu boshiga behuda sandiroqlab yurmasliklari uchun qirqta kursi qarz olindi. Ishlar yomon edi: shovqin-suronli nonushta tugar-tugamas birinchi navbatdagi bir to‘da qizga tushlik ovqat berish vaqti kelar, keyin esa – hash-pash deguncha kechki ovqat payti ham yetardi; bir hafta davomida maktab o‘quvchilari plantatsiyaga bir martagina borib kelishga ulgurishdi, xolos. Bir kuni ular timirskilanib, Ursulani yiqitib yuborishlariga bir bahya qoldi. Boshqa safar esa rohibalar polkovnik Aureliano Buendia maktab o‘quvchilarining oldida uyalmay-netmay kashtan daraxti yaqinida peshob qilganini ko‘rib, qiy-chuv ko‘tarishdi. Amarantaning aybi bilan katta to‘polon chiqishiga sal qoldi: u sho‘rvaga tuz solayotganida oshxonaga kirib qolgan rohiba dovdirab, undan:

– Qozonga solayotgan oq talqoningiz nima? – deb so‘rab qoldi.

– Margimush, – deb javob berdi Amaranta.

Maktab o‘quvchilari birinchi kechasi yotar mahali hojatxonaga navbat kutib, rosa qiynalishdi: eng so‘nggi qizlar u joyga kirib chiqqanida soat tungi bir edi. Shunda Fernanda yetmish ikkita tuvak sotib oldi, ammo bu bilan tungi muammo tongga ko‘chdi, xolos. Endi hojatxona oldida erta tongdanoq qo‘llariga tuvak tutgan qizlar turnaqator tizilishardi. Garchand, maktab o‘quvchilaridan ayrimlari shamollab qolgan, boshqalarining

esa badanlari chivin chaqqanidan shishib, madda boylab ketgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati eng og‘ir sinovlarga ham sabot bilan dosh berishar, hatto eng issiq damlarda ham bog‘ oralab yugurishardi. Nihoyat, mehmonlar ketishgach, hamma gullar payhon qilingan, jihoz sindirilgan, devorlar turli rasm va yozuvlar bilan qoplangan edi. Fernanda ularning ketganidan shu qadar shod ediki, mehmonlar keltirgan barcha zararning bahridan o‘tdi. Karavot va kursilarni egalariga qaytardi, yetmish ikki tuvakning barini esa Melkiadesning xonasiga taxlab qo‘ydi. Qachonlardir xonadonning ma’naviy hayoti jo‘sh urgan bu tashlandiq xona shu paytdan boshlab «tuvakxona» degan nom oldi. Polkovnik Aureliano Buendiaga xonaning bunday nomlanishi ma’qul tushdi, chunki butun oila a’zolarini Melkiadesning xonasi hech vaqt chang bo‘lmasligi, undagi hech narsa buzilmagani lol qoldirgan bir paytda, lo‘lining xonasi polkovnikka axlatxona bo‘lib tuyilardi. Ammo, nima bo‘lgan taqdirda ham, u haqiqat kim tomonida ekaniga mutlaqo qiziqmas, xona haqida ham Fernanda kun bo‘yi tuvak tashiyverib, ishga xalaqit bergani uchun xabar topgan edi.

Bu mahal Xose Arkadio Ikkinchi yana uyga qaytib keldi. U hech kim bilan so‘rashmay, yo‘lakning narigi boshiga borib, polkovnik bilan gaplashgani ustaxonaga kirib ketdi. Ursula endi uni ko‘ra olmasdi, ammo uning bananzor nazoratchisiga beriladigan og‘ir etiklari tovushini o‘rgana boshladi va uning, hatto bolaligida ikkovlari kiyim almashtirish o‘yinini o‘ynagan, hozir esa unga o‘xshaydigan umumiy xislati yo‘q egizak ukasi o‘rtasida osmon bilan yercha

farq borligidan taajjublandi. Xose Arkadio Ikkinchi novcha, oriq va gerdaygan bo‘lib, xuddi saratsinlarnikiga[1] o‘xshash qoracha, o‘ychan va ma’yus yuzida mavhum bir shu’la aks etardi. Buendialardan farqli o‘laroq, ko‘proq onasi Santa Sofiya de la Pyedadga o‘xshab ketardi. Ursula ba’zida uning ismini unutib qo‘yardi. Xose Arkadio Ikkinchining qaytib kelgani va polkovnik ishidan qolib, uni ustaxonasida qabul qilayotganidan xabar topgan Ursula eski xotiralarini bir-bir xayoldan o‘tkazib, Xose Arkadio Ikkinchi bolaligida o‘z egizak ukasi bilan almashib qolgan, ukasi emas, u Aureliano deb nomlanishi lozim edi, degan shubhasining rostligiga ishonch hosil qildi. Uning qanday turmush kechirayotganini hech kim bilmasdi. Bir mahal Xose Arkadio Ikkinchi muqim bir boshpana yo‘qligi, uning Pilar Ternerаning uyida urishqoq xo‘rozlar yetishtirishi va onda-sonda o‘sha joyda tunashi, boshqa paytlar esa asosan fransuz geteralarining yonidan jilmasligi ma’lum edi. Uning hech kimga mehri yo‘q, hatto o‘z qadri uchun ham qayg‘urmasdi.

Gapning ochig‘i, polkovnik Xerineldo Markes uni o‘limga mahkum etilgan kishini otishlarini emas, balki otilayotgan mahbusning g‘ussali va biroz istehzoli kulgisini bir umr esida saqlab qolishi uchun kazarmaga olib borgan o‘sha uzoq tongdan boshlab, Xose Arkadio Ikkinchi nafaqat o‘z oilasiga, balki boshqa biror oilaga ham qaram bo‘lishga hushi yo‘qolgan edi. Ayni xotira ko‘p eski emasdi. Lekin u eslab qolgan yagona narsa shuning o‘zi edi, xolos. U yana bir narsani,

[1] Saratsinlar – Arabistonda yashaydigan qadimiy ko‘chmanchi xalq.

ya’niki almisoqdan qolgan ko‘sqi nimcha va soyaboni qarg‘a qanotlarini eslatuvchi shlyapa kiygan, shu’laga yo‘g‘rilgan chorkunjak deraza oldida o‘tirib turli-tuman mo‘jizalar haqida hikoya qilib bergan chol siymosini ham elas-elas eslardi. Ammo Xose Arkadio Ikkinchi ushbu xotira qaysi vaqtga daxldor ekanini bilmasdi. Ursula Xose Arkadio Ikkinchining ko‘magida polkovnik Aureliano Buendiani «mahbus»likdan ozod qilishga urinib ko‘rdi. «Uni kinoga borishga ko‘ndir, deya iltimos qildi Ursula. – To‘g‘ri, unga filmlar yoqmaydi, lekin shu bahonada toza havoda nafas olib qaytadi». Lekin tez orada Xose Arkadio Ikkinchining ham xuddi polkovnik singari beparvoligi va ikkovining ham umuman hech qanday mehr-oqibat kor qilmaydigan qattiq zirh bilan qoplanganligi ma’lum bo‘ldi. Garchand, Ursula ularning ustaxonaga berkinib, uzoq vaqt nimalar haqida gaplashishini bilmasa-da (buni hech kim bilmasdi), oiladagi shu ikki kishinigina o‘zaro ichki yaqinlik rishtalari birlashtirib turishini tushunardi.

To‘g‘risini aytganda, Xose Arkadio Ikkinchi o‘zi istaganida ham Ursulaning iltimosini bajarolmasdi. Maktab o‘quvchilari keltirgan g‘orat polkovnikning sabr kosasini to‘ldirgandi. Remediosning havasni keltiradigan qo‘g‘irchoqlari yo‘qotilgan bo‘lsa-da, u yotoqxonani haligacha kuya bosib yotibdi, degan bahona bilan ustaxonasiga to‘r belanchak osib qo‘ydi. Endi polkovnik u yerdan faqat hovliga hojat uchun chiqardi, xolos. Ursula uni, hattoki jo‘n suhbatga ham tortolmasdi. O‘g‘lining qoshiga borarkan, polkovnik ovqat solingan likopchaga qiyo ham boqmasli-

gini, sho‘rva betini yog‘ qoplab, go‘sht sovib qolishidan zarracha ham tashvishlanmay, uni xontaxtaning bir chekkasiga surib qo‘yishi-yu, tag‘in tilla baliqchalariga andarmon bo‘lishini oldindan bilardi. Polkovnik Xerineldo Markes yangi urush ochishdan bosh tortganidan beri Aureliano Buendia battar bag‘ritosh bo‘lib borardi. Doimo ustaxona eshigini zichlab olar, hech kimga qo‘shilmas va pirovardida, oila a’zolari uning nomini go‘yo marhumni eslaganday tilga olishardi. Polkovnik uylari yonidan o‘tayotgan sayyor sirkni ko‘rgani eshikka birrov chiqqan o‘sha o‘n birinchi oktabrga qadar, hech kim uning avzoyida insoniyroq biror tuyg‘u ko‘ringanini sezmagan edi. O‘sha kun polkovnik Aureliano Buendia uchun so‘nggi besh yil ichida o‘tgan son-sanoqsiz kunlardan farq qilmasdi. U tonggi soat beshda hovlidagi qurbaqa va qora chigirtkalar ko‘targan shovqindan uyg‘onib ketdi. Shanba kuni boshlangan yomg‘ir hanuzgacha tinmagan, polkovnik tomchilarning bog‘dagi daraxtlar bargidagi shitirini eshitmaganida ham suyak-suyakka sanchilayotgan sovuqdan yomg‘ir yog‘ayotganini baribir sezardi. Polkovnik Aureliano Buendia har galgidek movut yomg‘irpo‘shda, eski bichimi uchun o‘zi «gotik ishton» deb atagan, ammo kiyishga qulay, uzun-u keng, dag‘al matodan tikilgan ichki ishtonda yurar edi. Ishton ustidan tor shim kiygan, ammo uning tugmalarini qadamagan va yoqasiga har galgidek tilla to‘g‘nag‘ich taqmagan (u yuvinishga shaylanayotgandi) edi. Yomg‘irpo‘shini xuddi boshliq singari boshiga tortdi, osilib tushgan mo‘ylovini barmoqlari bilan to‘g‘riladi-da, yozilgani hovliga yo‘l oldi. Kun chiqishiga hali ancha vaqt bor edi. Xose

Arkadio Buendia tomiga yomg‘irdan chiriy boshlagan palma barglari to‘shalgan ayvoncha ostida uxlab yotardi. Polkovnik har safargidek otasini ko‘rmadi. Poyabzaliga nogahon issiq peshob oqa boshlaganidan uyg‘onib ketgan arvoh g‘udranganida ham polkovnik hech narsa eshitmadi. U ustaxonaga qaytayotganida dimog‘iga Santa Sofiya de la Pyedad o‘t yoqa boshlagan pechlarning hidi urildi va u o‘zining bir finjon qandsiz qahvasini olib ketish uchun oshxonada qahva choynagi qaynashini kutib turdi. Santa Sofiya de la Pyedad odatdagidek, bugun haftaning qaysi kuni, deb so‘radi. Polkovnik, seshanba, o‘n birinchi oktabr, deb javob qaytardi. Polkovnik ayolning sokin, tillarang olov shu’lasida qizil-sarg‘ish tuyilgan yuziga tikilarkan, nogahon o‘sha urush avjiga chiqqan paytda, ayni o‘n birinchi oktabr kuni birga bo‘lgan ayoli o‘lib qolgan bo‘lsa-ya, deya o‘ylab cho‘chib uyg‘onib ketganini esladi. Ha, rostdan ham o‘shanda ayol jon bergan bo‘lib chiqdi; polkovnik o‘sha kunni yodida saqlab qolishiga sabab, marhuma bor-yo‘g‘i bir soat oldin, bugun qaysi kun, deya so‘ragan edi. Polkovnik Aureliano Buendia bu hodisani eslasa-da, o‘zining bashorat qila olish layoqatiga nechog‘lik putur yetganini sezmadi va to suv qaynagunicha, havoyi mayl asnosida o‘sha ayol haqida o‘ylay boshladi. Polkovnik uning ismini ham bilmasdi (yuzini ham vafotidan keyin ko‘rdi), negaki ayol uning osma to‘r belanchagiga zim-ziyo qorong‘ilikda, qoqinib-surinib kirgan edi. Xuddi shu tarzda oldiga ko‘plab ayollar kelishgan va shu bois ham polkovnik ayni o‘sha ayolning birinchi bo‘sa talvasasidayoq ko‘z yoshlariga g‘arq bo‘layozgani-

ni va bechora qazosidan bir soat oldin, seni umrimning oxirigacha sevaman, deb ont ichganini eslay olmadi. Polkovnik ustaxonaga qaytgach, umuman ayollar haqida o‘ylashni bas qildi va tunuka idishda saqlayotgan tilla baliqchalarini sanab chiqish uchun chiroqni yoqdi. Idishda o‘n yettita baliqcha bor edi. Molini sotmaslikka ahd qilganidan beri u kuniga ikkitadan baliqcha yasar, so‘ng, soni yigirma beshtaga yetganida, baliqchalarni maxsus idishda eritib, qaytadan yasardi. U hech narsani o‘ylamasdan, ishga butkul sho‘ng‘ib ketdi, soat o‘nlarga borib yomg‘ir kuchayganini, hatto Ursula tamaddi keltirib, chiroqni o‘chirganini ham sezmadi.

– Yomg‘ir rosa quyyapti, – dedi Ursula.

– Yomg‘irlar mavsumida, – deb javob qaytardi u.

Shuni ayta turib, tayyorlayotgan birinchi baliqchasidan nigohini uzmadi, chunki endi qizil yoqutdan ko‘z o‘rnatayotgan edi. Ishini tugatib, baliqchani idishdagi boshqa baliqchalarga qo‘shib qo‘ygach, sho‘rva ichdi. So‘ngra shoshilmay guruch, piyoz bilan dimlab pishirilgan go‘sht va likopchadagi qovurilgan banan tilimlarini yedi. Uning ishtahasi hech qachon o‘zgarmas, hamisha – yaxshi sharoitda ham, tang ahvolga tushganida ham bir xil edi. Ovqatdan keyin dam olgisi keldi. Qaysidir jihatdan ilmiy asoslangan irimi tufayli, polkovnik ovqatdan keyin ikki soat o‘tmagunicha na ishlar, na o‘qir, na cho‘milar, na ayollarni qo‘msardi. Ayni odat uning tabiatiga shu qadar singib ketgandiki, polkovnik Aureliano Buendia jangchilar kuchli taomdan so‘ng bo‘kib yoki miyalariga qon quyilib o‘lmasliklari uchun, hatto harbiy operatsiyalarni boshlamay turgan paytlari

ham bo‘lgan edi. Nihoyat, u osma to‘r belanchagiga yotdi, qulog‘ini qalamtaroshi bilan nari-beri tozalab, tezda uxlab qoldi. Polkovnik tushida devorlari oppoq, bo‘m-bo‘sh uyga kirib borardi. Uy ostonasidan birinchi hatlayotgan odam ekanligidan ko‘ngli xijil edi. Tushida u o‘tgan kuni kechasi va so‘nggi yillar mobaynida juda ko‘p marta shu taxlit tushlar ko‘rganini esladi, biroq uyg‘ongan zahotiyoq ularning bari esidan chiqardi. Uning bu qaytariq tushlarining siri shunda ediki, ularni xuddi ana o‘sha tarzdagi tushda qayta eslash mumkin bo‘lardi. Bir necha daqiqadan keyin sartarosh eshikni taqillatdi, polkovnik daf’atan bir necha soniya pinakka ketish uchun ko‘zini yumgani va hech qanday tush ko‘rmaganiga to‘liq ishonch hosil qilgan holda eshikni ochdi.

– Bugun shartmas, – dedi u sartaroshga. – Juma kuni ko‘rishamiz.

Sochiga oq oralagan polkovnikning soqol oldirmaganiga uch kun bo‘lgan edi, ammo u soqol oldirishni xohlamadi, baribir juma kuni sochini oldirishi zarur edi, shu bois o‘sha kuni biryo‘la ikki ishni bajarsa bo‘laverardi. Kunduzgi noxush uyqudan keyin badanini shilimshiq ter qopladi, qo‘ltig‘i ostidagi chipqondan qolgan chandiqlar zirqiray boshladi. Yomg‘ir tindi. Ammo quyosh hali chiqmagan edi. Polkovnik Aureliano Buendia qattiq kekirdi va tanglayida nordon sho‘rvaning ta’mini sezdi. Yomg‘irpo‘shini ustiga tashlab, hojatga bordi va u yerda odatdagidan ko‘proq o‘tirdi. Bugun seshanba ekanini va Xose Arkadio Ikkinchi ustaxonaga kelmaganini esladi, chunki seshanba kuni banan kompaniyasidagilar ishchilarga maosh berardi. Ayni fikr, so‘nggi yillardagi

barcha xotira-yu o‘ylari kabi uni urush haqida fikrlashga chorlardi. U qaysidir kuni polkovnik Xerineldo Markes unga qashqa ot topib kelishni va’da qilganini va so‘ng bu haqda qaytib og‘iz ochmaganini esladi. Keyin ayrim urush lavhalarini xayolidan o‘tkazdi, ammo o‘tmish qalbida na quvonch, na qayg‘u uyg‘otdi. Endi o‘sha fikrdan qutulishning ilojini hech topolmagach, polkovnik urush haqida juda sokin, ortiqcha hayajonsiz o‘ylashga o‘rgangan edi. Ustaxonaga qayta turib, havo sal isiganini sezdi va yuvinishga ahd qildi, ammo mo‘rchani Amaranta egallab olgandi. U ichkari kirib, ikkinchi baliqchani tayyorlashga kirishdi. Polkovnik baliqchaga dum yasayotganida, quyosh ufqdan shu qadar katta kuch bilan otilib chiqdiki, go‘yo chor atrof xuddi eski qayiqday g‘ichirlab ketgandek tuyildi. Uch kunlik yomg‘irda chayilgan havoni qanotli chumolilar qopladi. Polkovnik zahartang bo‘lganini his etdi. Hovliga chiqqanida, soat to‘rtdan o‘n daqiqa o‘tgandi. Qulog‘iga uzoqda chalinayotgan mis karnay ovozi, katta nog‘oraning gumbur-gumburi, bolalarning shodon qiyqirig‘i elas-elas chalindi va uning ko‘nglida bolaligi o‘tganidan beri ilk bor zoriqish uyg‘ondi, otasi muz parchasini ko‘rishga olib borgan, lo‘lilarga to‘lib-toshgan o‘sha uzoq kunni yana qaytadan yaqqol his eta boshladi. Santa Sofiya de la Pyedad oshxonadagi ishlarini to‘xtatib, ko‘chaga yugurib chiqdi.

– Sirk keldi! – deb qichqirdi u.

Polkovnik Aureliano Buendia ham kashtan tagiga borish o‘rniga hovlidan tashqari chiqib, ko‘chadagi tantanali marosimni angrayib tomosha qilayotgan bekorchi olomonga aralashib ket-

di. U fil mingan zar kiyimli ayolni, bir o‘rkachli ma’yus tuyani va niderlandiyalik ayollardek yasantirilgan, kastryulkani qoshiq bilan nog‘ora qilib chalayotgan ayiqni ko‘rdi. Tantanali marosimning adog‘ida tomosha ko‘rsatayotgan masxarabozlarga ko‘zi tushdi. Ular o‘tib ketgach, bo‘m-bo‘sh ko‘chada oftob nurida cho‘milayotgan qanotli chumolilar va bir necha anqovdan boshqa hech kim qolmadi. Polkovnik yana o‘zining ayanchli yolg‘izligi bilan yuzma-yuz uchrashdi. Shunda u, navbatdagi yangilik – sirk haqida xayol surib, kashtan sari yurarkan, peshob qilayotganida ham sirkni o‘ylashga urindi, ammo endi hech narsani eslay olmasdi. U boshini yelkalari orasiga tortib, manglayini daraxt tanasiga bosgancha qotib qoldi. Uydagilar voqeadan ertasi ertalab soat o‘n birda, Santa Sofiya de la Pyedad axlat tashlash uchun hovlining orqa tomoniga o‘tgan paytida, kashtan atrofiga uchib kelayotgan o‘laksaxo‘r qushlarni ko‘rganidagina ogoh bo‘ldilar.

* * *

Memening so‘nggi ta’tili polkovnik Aureliano Bundiaga tutilgan motam kunlariga to‘g‘ri keldi. Deraza-yu eshiklari mahkam yopilgan bu xonadonda endi bayram haqida o‘ylash ham mumkin emasdi. Hamma shivirlab gapirar, ovqat ustida ham jim o‘tirishar, kuniga uch mahal ibodat qilishar, hatto tushki uyquning eng issiq paytlarida klavikordda chalingan kuylar ham xuddi motam musiqasidek tuyilar edi. Polkovnikni pinhona yomon ko‘rishiga qaramay, hukumat o‘zining marhum g‘animini dabdabali izzat-ikrom

bilan xotirlashidan hayratga tushgan Fernanda jiddiy aza ochdi. Aureliano Ikkinchi qizining ta'tili mobaynida o'z uyida yashadi, Fernanda o'zining xotinlik huquqini tiklash uchun ancha-muncha chora-yu tadbirlar ko'rdi, shekilli, Meme yana bir yildan keyin uyga qaytganida, yaqindagina tug'ilgan va onasining xohishiga qaramay, Amaranta Ursula deb nom qo'ygan singilchasini ko'rdi.

Meme o'qishini tugatdi. Uni konsert beruvchi iste'dodli klavikordchi ekanligi qizning o'qishi va uyda motam adog'iga yetganiga atab berilgan katta bazmda – Meme o'n yettinchi asr xalq kuylarini mohirona va jo'shqinlik bilan ijro etgandan keyin bir ovozdan tasdiqlandi. Mehmonlarni Memening san'atidan ko'ra, g'ayrioddiy tabiati ko'proq mahliyo qildi. Bir qarashda u yosh boladay yengiltak, jiddiyroq ishlarga bamisoli noloyiqday ko'rinardi, ammo klavikord yoniga o'tirsa, bas, butunlay o'zgarar, birdan o'ta jiddiy va komil odamga aylanib qolardi. Gapning rosti, Memening musiqaga layoqati aytarli emasdi, ammo u onasining ra'yini qaytarmaslik uchun klavikordni mukammal o'rganishga o'zini majbur etgandi. Xuddi shu yo'sinda u boshqa hunarlarni ham o'rgansa bo'lardi. Fernandaning o'ta qattiqqo'lligi va o'zbilarmonligi Memening bolalik paytidayoq joniga tekkanidan onasi bilan tortishib o'tirmaslik uchun har neki jafoga ham tayyor edi. Maktab bitiruvchilariga bag'ishlangan majlisda o'tirgan Meme, bejirim gotik harflar bilan bezatilgan diplom endilikda ona zug'umidan xalos etadi, shu kundan e'tiboran Fernanda klavikordni tamom esdan chiqaradi, deb umid qilgan edi. Chunki rohibalarning o'zlari ayni cholg'u asbobini muzey

topilmasi, deb atashlarini eshitib yurardi. Lekin uning taxmini xato chiqdi, garchand, shahar ahlining naq yarmi qiz chalgan eski kuylar ostida uxlasa-da, Meme oilaviy tantanalarda, xayr-ehsonga muhtojlar uchun uyushtirilgan barcha konsertlarda, maktab kechalari, vatanparvarlarni sharaflashga bag‘ishlangan yig‘inlarda klavikord chalsa-da, Fernanda qizining iste’dodiga baho bera olishga qodir yangi-yangi odamlarni uylariga taklif etaverardi. Faqat Amarantaning o‘limidan so‘ng xonadon yana aza ochganida, Meme klavikordini qulflab, kalitini onasi qachondir qistab qolishidan xavotirlanmay javonlardan biriga yashirib qo‘ydi. Fernanda qizining itoatkorligidan cheksiz quvonar, odamlarni qoyil qoldirishidan shu qadar faxrlanardiki, Memening uyga dugonalarini boshlab kelishiga, plantatsiya bo‘ylab sayr qilishiga, Padre Antonio Isabel cherkov mehrobida ma’qullagan filmlarga Aureliano Ikkinchi yoki ishonchliroq ayollar bilan borishiga mutlaqo qarshilik ko‘rsatmas edi. Ayni ko‘ngilochar tadbirlar davomida Memening nelarga moyilligi ayon bo‘ldi. U tartib-intizomni o‘lguday yomon ko‘rar, sho‘x bazmlarni, xilvat go‘shalarda soatlab o‘tirishni yoqtirar, o‘sha yerda dugonalari bilan kim kimni yaxshi ko‘rib qolgani haqida g‘iybat qilishar, chekishni o‘rganishar, erkaklar to‘g‘risida gaplashishardi. Bir kuni ular shakarqamish romidan uch shisha ichishdi, so‘ngra yechinishib, o‘z badanlarining turli bo‘laklarini o‘lchashdi, taqqoslashdi. Meme o‘sha kechani hech qachon unutmaydi: u og‘zidagi qizilmiya tomirini chaynagancha, Fernanda bilan Amaranta jimgina kechki ovqat yeyayotgan oshxona-

ga kirdi va kursiga o‘tirdi. Uning tobi qochganini hech kim payqamadi. Bundan oldin Meme dugonasining yotoqxonasida ikki soat davomida qattiq hayajonda o‘tirdi: ko‘zlaridan yosh chiqqunicha kuldi, qo‘rquvdan yig‘ladi, ammo bu holat o‘tib ketgach, qizning yuragini onasiga, klavikordingiz boshingizdan ordona qolsin, deb aytishga imkon berar darajada jasurlik hissi qopladi. Xontaxtaning to‘rida o‘tirib, oshqozoniga suvdek quyulayotgan tovuq sho‘rva icharkan, Meme to‘satdan Fernanda va Amarantaning asl qiyofasini ko‘rdi. Ularning munofiqligini, kaltabinligini yuzlariga solishdan o‘zini zo‘rg‘a tiydi. Ikkinchi ta’til paytidayoq, Memega otasi odob yuzasidangina uyda tunashi ma’lum bo‘lgandi. U Fernandani yaxshi bilgani, keyinchalik Petra Kotes haqida ham bir amallab tasavvurga ega bo‘lganidan so‘ng, otasiga yon bosa boshladi. Qiz otasining jazmanini onasidan afzal ko‘rardi. Romdan kayfi oshib qolgan Meme, agar hozir o‘ylaganlarimni ularga aytsam, qanday zo‘r janjal bo‘lardi, deya rohatlanib o‘yladi. Mamnunligi shu qadar kuchli ediki, Fernanda sergak tortdi.

– Senga nima bo‘ldi? – deb so‘radi u.

– Hech narsa, – javob berdi Meme. – Men ikkovlaringni qanchalar yaxshi ko‘rishimni hozir payqadim, xolos.

Bu so‘zlarda barq urib turgan nafrat Amarantani qo‘rqitib yubordi. Ammo onasi shunchalar hayajonlandiki, Meme yarim kechasi qattiq bosh og‘rig‘idan uyg‘onib ketib, qayt qila boshlaganida, Fernandaning aqldan ozishiga sal qoldi. Ona qiziga kanakunjut moyidan ichirdi, qorniga qizitilgan dori-darmon bosdi, boshiga esa muz solin-

gan xalta qo‘ydi va Meme oddiy ayollar kasaliga chalingan, degan noaniq bir qarorga kelgan afandinamo fransuz doktorining ko‘rsatmasiga binoan, qizini uydan chiqarmay, besh kun parhezda saqladi. Memening dadilligidan asar ham qolmadi, u ruhan cho‘kibroq qoldi. Batamom ko‘r bo‘lib qolgan, ammo hali tetik va ziyrak Ursulagina unga to‘g‘ri tashxis qo‘ydi. «Menimcha, – dedi u o‘ziga o‘zi, – aroqxo‘rlarnigina shu tarzda davolashadi». Ammo o‘shal zahoti tavba qilib, o‘zini andak yozg‘irdi. Memening ahvolini ko‘rib, Aureliano Ikkinchining vijdoni qiynaldi. Ota endilikda qiziga jiddiyroq e’tibor berishga ahd qildi. Aureliano Ikkinchini sarxush xursandchiliklar ichra og‘ir tanholikdan vaqtinchalik xalos qilgan, Memeni esa onasining me’daga tekkan vasiyligidan ozod etib, u bilan onasi o‘rtasidagi sodir bo‘lishi muqarrar to‘qnashuvning oldini olgan ota-yu qiz o‘rtasida quvnoq do‘stlik munosabatlari shu tarzda tug‘ildi. Aureliano Ikkinchi o‘sha kunlari kechqurunlari Meme bilan suhbatlashish, kino yoki sirkka borish uchun barcha uchrashuvlardan hech ikkilanmasdan voz kechar, bor vaqtini farzandiga bag‘ishlardi. Oxirgi yillarda Aureliano Ikkinchining fe’li ayniy boshladi, buning sababi – semizligi edi, u egilib poyabzalining bog‘ichlarini bog‘lay olmasdi. Bahaybat qorni tufayli boshqa turfa lazzatlardan ham mahrum edi. Qizining mehri, u keltiradigan xursandlik Aureliano Ikkinchini behad aysh-ishratdan tobora uzoqlashtirar edi. Meme xuddi bahordagi meva daraxti kabi gulladi. U Amaranta singari go‘zal bo‘lmasa-da, istarasi issiq, sodda va bir qarashdayoq odamga yoqa oladi. Uning zamonaviylikka mukkasi-

dan ketgan ruhi onasining eski aqidalar tarafdori bo‘lgani, oshkora qattiqqo‘lligini tahqirlardi, ammo bu xislati otasi Aureliano Ikkinchiga yoqar va shuning uchun har taraflama yoqlardi. U qizini avliyolarning iymangannamo nigohi mudom vahima solib turadigan yotog‘idan chiqardi, yangi xonasini taxtga o‘xshovchi karavot, katta pardoz stoli, baxmal pardalar bilan bezatdi va Petra Kotes yashaydigan xonaning yana bir nusxasini yaratganini o‘zi ham sezmay qoldi. Otaning qo‘li ochiq edi, qiziga sanamay pul berar, Memening o‘zi ham otasining cho‘ntagidan istagancha pul olaverardi. Aureliano Ikkinchi banan kompaniyasiga qarashli do‘kondan qiziga atab eng so‘nggi modadagi buyumlarni sotib olardi. Memening yotoqxonasi tirnoqni silliqlaydigan yostiqchalar, sochni jingalak qiladigan qisqichlar, tishni yaltiratuvchi eleksirlar, har xil surmalar va jozibani oshiradigan behisob vositalar bilan to‘lib ketgandi; Fernanda har safar bu xonaga kirganida darg‘azab bo‘lib, qizim anavi fransuz geteralarga o‘xshab boryapti, deb o‘ylardi. U eri bilan qizining tili birligini bilib, Aureliano Ikkinchiga Memeni hech qachon Petra Kotesnikiga olib bormasligiga qasam ichirdi. Bu ortiqcha ehtiyotkorlik edi, negaki ota-bolaning inoqligi Petra Kotesga mutlaqo yoqmas, hatto u Memening nomini eshitishga ham toqat qilolmasdi. Petra Kotesga notanish bir qo‘rquv azob berar, Meme Fernandaning ham qo‘lidan kelmagan ishni qilib, o‘zini Aureliano Ikkinchidan judo etishi mumkinligini ich-ichidan sezib turardi. Shunda Aureliano Ikkinchi ilk bor jazmanining qahrli nigohini ko‘rdi, xandasini eshitdi va u, jazmanim tag‘in sandiqlarimga qo‘shib,

o‘zimni ham tashqariga uloqtirsa-ya, deb cho‘chiy boshladi. Ammo ish u o‘ylaganchalik bo‘lmadi, sandiqlar o‘z joyida qoldi, Petra Kotes bo‘lsa, jazmanini qizining mehridan ham kuchliroq biror vosita bilan o‘ziga ag‘darib olishga qaror qildi. Lekin u behuda urinardi. Meme otasining ishiga aralashmas, mabodo shunday qilganida ham, bu mojaro Petra Kotesning foydasiga hal bo‘lardi. Birovga yomonlik qilish uchun Memening vaqti ham yo‘q edi. U rohibalar o‘rgatganidek, har kuni o‘z yotog‘ini o‘zi yig‘ishtirar, o‘zi joy solardi. Ertalablari esa kashtaga gul solar yoki peshayvonda Amarantaning eski qo‘l tikuv mashinasida o‘ziga kiyim tikardi. Tushlik ovqatdan so‘ng hammalari uxlashga yotishganida u ikki soat klavikordda kuy mashq qilar va bu mashg‘uloti Fernandaga huzur ato etishini bilardi. Garchand, unga kelayotgan takliflar soni kamaygan bo‘lsada, Meme xuddi shu vajdan cherkov bozorlari-yu o‘quvchilarning bayramlarida konsert berishni davom ettirdi. Kechqurun u oddiy ko‘ylagini va poshnasi baland, bog‘ichli poyabzalini kiyib olar, otasi bilan biror joyga bormagan taqdirda kechki ovqat mahaligacha dugonalarinikida bo‘lardi. Ammo Aureliano Ikkinchi deyarli hamma vaqt qizi oldiga kelib, uni kinoga ergashtirib ketardi.

Memening dugonalari orasida uch nafar amerikalik qiz bo‘lib, ulardan biri Patritsiya Braun edi. Aureliano Ikkinchining mehmondo‘stligidan minnatdor janob Braunning dargohi Meme uchun atay ochilib, qiz shanba kuni raqsga taklif etildi. Gringolar mahalliy aholi bilan faqat raqs vaqtidagina muloqot qilishardi, xolos. Bu taklifdan xabar topgan Fernanda bir daqiqalik yurakni ezadigan

janjal koʻtardi. «Tasavvur qilib koʻr-a, – dedi u Memega, – bu toʻgʻrida goʻrda yotgan polkovnik nima deb oʻylaydi?» Fernanda yordam soʻrab, Ursulaga murojaat qildi. Ammo bu koʻr kampir hech kutilmaganda, agar Meme oʻz e'tiqodida mahkam turib, protestant diniga oʻtib ketmasa, turgan gapki, raqsga borishi-yu, amerikalik tengdoshlari bilan doʻstlashishi andishasizlik boʻlmaydi, deb aytdi. Meme katta buvining fikrini tezda uqib oldi va raqs kechasining ertasigayoq ibodatga borib keladigan boʻldi. Amerikaliklar qizidan, klavikord chalib bersangiz, deb iltimos qilishganini eshitib, Fernandaning boshi osmonga yetdi. Klavikordni janob Braunning uyiga olib borishdi, Meme u yerda qarsak va olqish eshitdi. Shundan keyin uni nafaqat raqsga, balki har yakshanbada basseynda choʻmilishga va haftasiga bir marta tushlik ovqatga taklif etadigan boʻlishdi. U binoyiday suzishni, tennis oʻynashni, ananas boʻlagini Virginiya vetchinasiga qoʻshib yeyishni oʻrgandi. Raqs tushib, suzib, tennis oʻynab yurarkan, asta-sekin inglizchani oʻrganib oldi. Aureliano Ikkinchi qizining yutuqlaridan zavqlanardi, hatto unga sayoq bir sotuvchidan olti jildlik rang-barang rasmlar ilova qilingan inglizcha qomus sotib oldi. Meme bu kitobni boʻsh paytlari oʻqirdi. Mutolaa uni dugonalari bilan xilvat joylarga berkinishdan, sevgi haqida gʻiybat sotishdan qutqardi. Meme endi oʻqish majburiyatini boʻyniga olgani uchun emas, balki butun shaharga ma'lum sirli voqealarni muhokama etishga qiziqish yoʻqolgani uchun mutolaaga berilgan edi. U oʻzining mast boʻlguncha ichganini eslarkan, bu voqea shunchalar kulgili tuyildiki, uni otasiga soʻzlab ber-

di. Aureliano Ikkinchiga esa voqea yanada kulgili tuyildi. «Agar onang bilganida bormi!» – deya xitob qildi u ovozini balandlatib kularkan. Qizi biror-bir sirini ochgani sayin, otasi hamisha shu so‘zni takrorlardi. U qizidan ilk sevgisini ham ochiq gapirib berishga so‘z oldi va sal fursat o‘tmay, Meme otasiga, ta’tilga chiqib, ota-onasining yoniga kelgan malla soch amerikalikni yoqtirib qoldim, deb aytdi. «Mana shunaqa-da! – deb kuldi Aureliano Ikkinchi. – Agar onang bilib qolsa bormi?!» Lekin keyinroq Meme yigitning vataniga jo‘nab ketganini va boshqa xabarlashmaganini aytdi. Memening aqli rasoligi oila osoyishtaligini mustahkamlashga imkon bergani uchun Aureliano Ikkinchi Petra Kotesnikiga yana tez-tez qatnaydigan bo‘lib qoldi. Garchi, endi bazm deganlari avvalgidek lazzat bermasa-da, u kezi kelganda o‘yin-kulgidan yuz o‘girmasdi. Uyda Amaranta tinim bilmay kafaniga gul tikar, Ursulani esa keksalik – erining kashtan ostidagi arvohidan bo‘lak hech narsani ko‘rib bo‘lmaydigan qorong‘ilik tubiga tortib borardi. Fernanda o‘z hokimiyatini mustahkamlab oldi. U oy sayin o‘g‘liga yozib turadigan maktublarida endi biror satr ham yolg‘on bo‘lmasdi. Fernanda undan o‘zining tabibi g‘ayblar bilan yozishib turishini yashirardi, xolos, chunki bu tabiblar uning yo‘g‘on ichagidan beziyon shish topishgan va Fernandani telepatik jarrohlik bilan tuzatishga tayyorlashardi.

Hayot xarxashalaridan charchagan Buendialar oilasida endi uzoq yillarga na tinchlik, na osoyishtalik muqim turadi, deb o‘ylashganda, to‘satdan Amaranta vafot etdi. Uning o‘limi hamma uchun kutilmagan hodisa edi. Garchi Amaranta

keksayib, atrofdagilar uchun xuddi begonadek bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, qaddini hamon tik tutar, quvvatli, go‘yo o‘zining sog‘lig‘ini hanuzgacha saqlab qolgandek tuyilardi. U polkovnik Xerineldo Markesga qat’iy rad javobini berganidan so‘ng to‘yib-to‘yib yig‘lab olish uchun eshikni ichidan berkitib olganida, nimalarni o‘ylaganini hech kim bilmasdi. Amaranta o‘shanda yotoqxonadan chiqqanida, ko‘z yoshining zaxirasi tamoman tugab bitgandi. Na go‘zal Remedios samoga parvoz etganida, na barcha Aurelianolarni otib o‘ldirishganlarida, na dunyoda eng yaxshi ko‘radigan odami polkovnik Aureliano Buendianing o‘limidan so‘ng yig‘ladi. Garchi polkovnikni qanchalar yaxshi ko‘rishini faqat uning jasadini kashtan ostidan topib olishgan daqiqada payqagan bo‘lsada, o‘likni ko‘tarishda yordamlashdi. Unga harbiy libos kiygizdi, soqolini oldi, sochini taradi, mo‘ylovini chiroyli qilib buradiki, shuhrati gullab turgan mahalida ham polkovnik mo‘ylovini bunchalar burolmasdi. Biroq hech kim uning bu xatti-harakatlaridan polkovnikni yaxshi ko‘radi, degan o‘yga bormadi, qaytaga hammalari Amaranta dafn marosimini yaxshi biladi, deb hisoblashdi. U o‘zining barcha qayg‘ularini ko‘ngilga tukkancha, qarilik bo‘sag‘asiga qadam qo‘ygandi. Petro Krespining kuylarini qo‘yib eshitganida, go‘yo vaqt va achchiq tajribalar saboq bermaganiday, xuddi o‘sha yoshlik paytidagidek yig‘lagisi kelardi. Karton qog‘ozlari namiqib qoldi, degan bahonada musiqali silindrlarni o‘z qo‘li bilan axlatga tashlagan bo‘lsa-da, ular xotirasida hanuz charx urar, pianola bolg‘achalari go‘yo yuragiga urilib, musiqa chalayotganday edi... Polkovnik Aurelia-

no Buendia urush haqida o‘ylamasdan turolmagani kabi Amaranta ham Rebekani bir zum o‘ylamasdan turolmasdi. Polkovnik o‘z xatolarini o‘tkir qirralardan xalos etib, sal-pal to‘mtoq qila olgan bo‘lsa, Amaranta aksincha, tobora qizdirib toblardi. U Xudodan ko‘p yillar mobaynida faqat yolg‘iz bir narsani – Rebekadan oldin o‘lmaslikni zorlanib so‘radi. Har gal sobiq raqibasining uyi yonidan o‘tarkan, fatoratlarni ko‘rib, Xudo iltijolarimni eshityapti, deya quvonar edi. Bir kuni peshayvonda chevarlik qilib o‘tirarkan, daf’atan, xuddi shu joyda, shu alpozda o‘tirgan mahali Rebekaning o‘limini eshitajagini his qildi. Amaranta o‘sha joyda o‘tirib, mash’um xabarni kuta boshladi, zerikmaslik uchun esa qadalgan tugmalarni uzib olib, yana qaytadan qadab chiqaverdi. Amaranta o‘zi to‘qiyotgan ziynatli kafanni Rebekaga ataganiga hech kim shubhalanmasdi. G‘amgin Aureliano o‘shanda Rebeka bosh chanog‘idan sarg‘ish o‘t o‘sib chiqqan serajin arvohga aylanibdi, deya shipshitganida, Amaranta zarracha ajablanmadi, chunki jiyani ta’riflagan arvoh u o‘zi anchadan buyon tasavvur qilib yurgan arvohga o‘xshardi. Rebekaning jasadini o‘zim yuvaman, boshiga avliyolarning sochidan parik yasayman, deb ahd qildi u. O‘likni chiroyli qilib bezaydi, surp kafanga o‘rab, ichi to‘q qizil, ustiga baxmal qoplangan tobutga joylaydi va ajoyib dafn marosimini o‘tkazib, jasadni qurt-qumursqalarning ixtiyoriga jo‘natadi. Nafrati to‘lib-toshib reja tuzayotgan Amarantaning miyasiga Rebekani sevganimda ham shunday qilardim-ku, degan fikr keldi. Bu fikrdan seskanib ketdi, lekin ruhi cho‘kmadi va rejasini takomil-

lashtira bordi. O‘zining dahshatli rejasini pishitarkan, faqat bir narsani – Xudoga iltijolariga qaramay, Rebekadan oldin o‘zi o‘lishi mumkinligini hisobga olmadi. Asli xuddi shunday bo‘lib chiqdi ham. Hayotining so‘nggi lahzalarida Amaranta umidi puchga chiqqanidan afsuslanmadi, aksincha, barcha g‘am-u sitamlardan ozod bo‘layotganini sezdi. O‘lim unga iltifot ko‘rsatib, kuni bitganidan bir necha yil ilgari ogohlantirgan edi. Amaranta qazo soatini issiq choshgohda, Memeni ibodatxona qoshidagi maktabga yuborishgani zahotiyoq ko‘rgandi: Amaranta peshayvonda o‘limining yonida o‘tirib, tikish tikardi. Darhol tanigandi; hech bir qo‘rqinchli joyi yo‘q – ko‘k ko‘ylakli, uzun sochli, biroz eski po‘rimda kiyingan oddiy ayol bo‘lib, Ursulaga yordamlashib yuradigan Pilar Terneraning yoshlik paytiga o‘xshab ketardi. Peshayvonda Fernanda ham necha bor yonma-yon o‘tirsa-da, o‘lim sharpasini ko‘rmadi. O‘limi, hatto bir marta Amarantadan iltifot ko‘rsatishni – ignaga ip o‘tkazib berishni so‘radi. Lekin ko‘k ko‘ylakli ayol Amaranta qaysi yili, qaysi oy va kunda o‘lishini, Rebekadan oldinmi yoki keyin jon berishini aniq aytmadi, faqat aprel oyining oltinchi kunidan boshlab, o‘ziga kafan to‘qishini buyurdi. Kafan Amaranta xohlaganiday sernaqsh, chiroyli bo‘lishiga ruxsat berdi, ammo uni xuddi Rebekaning kafani singari astoydil tayyorlashi zarurligini ogohlantirdi, so‘ng esa Amarantaga, kafani tayyor bo‘lgan kuni kechasi, qiynalmasdan, qayg‘urmasdan, qo‘rqmasdan jon berasan, dedi. Amaranta o‘lim soatini ortga surish uchun asl zig‘ir tolasidan eshilgan kalava buyurib, kafanni o‘zi to‘qiy boshladi. Kafan

to‘qishning o‘ziga naq to‘rt yil ketdi, keyin kashta tikishga tushdi. Mudhish kun yaqinlasharkan, Amaranta kafan tayyorlashni Rebekaning o‘limiga qadar faqatgina tasodifiy mo‘jiza cho‘za olishi mumkinligini sezdi. Ammo ishga bo‘lgan ishtiyoqi ko‘ngliga osoyishtalik baxsh etardi. Xuddi o‘sha kezda Amarantaga polkovnik Aureliano Buendia tilla baliqchalardan yasagan mujmal da’voning mazmuni ayon bo‘ldi. Endilikda tashqi dunyoni tanasi his etar, qalbi esa qayg‘u-alamlardan yiroq edi. Amaranta ixtironi necha yillar ilgari xotiralarini tiklab, olamni yangitdan tushunish imkoniyatidan foydalanmaganidan afsus chekdi: o‘shanda Petro Krespi oqshomlari ufurgan lavandaning xushbo‘y hidini ham uzoqdan turib aniq sezar, Rebekani sevgani yoki nafratlanganidan emas, balki yolg‘izligi fojiasini teran tushungani uchun o‘ziniki kabi beg‘ubor va tiniq bo‘lishi lozim bo‘lgan-u, aslida beg‘uborligidan emas, qahr-g‘azabidan badbashara tus olgan yoshligi qaytarilayotganini sezib, tashvishga tushgan edi. U taqdirga tan bergan, hatto endi hech narsani o‘zgartirib bo‘lmasligini bilsa-da, zarracha iztirob chekmasdi; birdan bir tashvishi kafan to‘qishni tugallash edi. Boshida vaqtni cho‘zish uchun turli bahonalar qidirgan bo‘lsa, endilikda atay shoshila boshladi. Ish yakunlanishiga bir hafta qolganda, Amaranta oxirgi qaviq to‘rtinchi fevral kechqurun tikib bo‘linishini aniqladi va negaligini aytmasdan Memega, beshinchi fevralga tayinlangan konsertingni kechiktir, dedi. Meme bu iltimosga uncha e’tibor bermadi. Shunda Amaranta ishini yana qirq sakkiz soatga kechiktirish chorasini izladi va to‘rtinchi fevral kuni kechasi

bo‘ron elektrostansiyani safdan chiqargandan keyin, hatto o‘lim ham meni qo‘llab-quvvatlayapti, deb o‘yladi. Ammo ertasiga ertalab soat sakkizda dunyoda ayol zoti tayyorlagan eng chiroyli kafanning oxirgi qavig‘ini tikib, uydagilarga xotirjamlik bilan, kechqurun o‘lmoqchiman, deb e’lon qildi. Faqat oilasini emas, balki butun shaharni ogohlantirib chiqdi, u ziqna hayotning so‘nggi kunida gunohlarini yuvish uchun odamlarga sal bo‘lsada yaxshilik qilishni istardi, buning eng yaxshi yo‘li esa marhumlarga atalgan xatlarni narigi dunyoga olib borib egalariga yetkazish edi.

Amaranta Buendia kechqurun langar ko‘tarmoqchi, marhumlarga yozilgan hamma xatlar qo‘liga tegishi hamon narigi dunyoga suzib ketmoqchi, degan xabar peshingacha butun Makondoga tarqaldi va kunduzi soat uchlarga yaqin mehmonxonada xatlar bilan liq to‘la quti paydo bo‘ldi. Xat yozishni istamaganlar Amarantaga gaplarini og‘zaki aytishar, u esa murdaning ism-sharifini, o‘lgan vaqtini va gap tayinlangan qarindoshini daftarchasiga yozib qo‘yardi. «Tashvishlanmanglar, – deya tasalli berardi u maktub yozganlarga – narigi dunyoga borganimdan so‘ng darhol so‘rab-surishtirib, xatingizni topshiraman». Buning bari qo‘pol hazilga o‘xshab ketardi. Amarantaning yuzida na tashvish, na g‘am-g‘ussa alomatlari bor edi, hatto sharafli burch idrokidan yasharib ketganga o‘xshardi. U xatlarni qutiga solishni buyurdi va quti namdan saqlanishi uchun go‘rga qay tarzda joylashtirilishini tushuntirdi. Amaranta ertalab duradgor chaqirtirdi. Duradgor tobut uchun bo‘yini o‘lchayotganda Amaranta go‘yo bichiqchi ko‘ylakka an-

doza olayotgandek xotirjam edi. So‘nggi soatlarda g‘ayrati shu qadar toshdiki, Fernanda Amaranta, o‘laman, deb bizni kalaka qilmayaptimi, deb gumonsiray boshladi. Buendialar kasalga uchramay o‘lishini bilgan Ursula Amarantaning o‘limidan xabardor ekaniga ishonardi. Ammo u xat mashmashasini ko‘rib, marhumlarning qarindosh-urug‘lari gapimiz narigi dunyoga tezroq yetsin, degan niyatda bechora Amarantani hali tiriklayin ko‘mib yuborishlaridan xavotirlanar edi. Shu sabab, Ursula baqirib-chaqirib, talashib-tortishib bo‘lsa-da, uyni begonalardan bo‘shata boshladi. Soat to‘rtga borib, hech kim qolmadi. Bu paytda Amaranta o‘z buyumlarini kambag‘allarga ulashib chiqdi, tekis randalangan taxtadan yasalgan oddiy tobutga faqat o‘zining ich kiyimi-yu, baxmal poyabzalni solib qo‘ydi – bularni o‘limidan so‘ng kiydirishlari lozim edi. Polkovnik Aureliano Buendia o‘lganida ustaxonasida kiyib yuradigan shippagidan bo‘lak poyabzali bo‘lmagani uchun yangi poyabzal sotib olishganini eslatib, poyabzalini unutmanglar, deya qayta-qayta tayinladi. Soat beshga yaqinlashayotganida, Memeni konsertga olib ketgani kelgan Aureliano Ikkinchi uylari xuddi o‘lik chiqqandek saranjom ekaniga ajablandi. Agar o‘sha soatda tirik ko‘rinadigan yagona odam bo‘lsa, bu – Amaranta edi. U o‘zini nihoyatda sovuqqon tutar, hatto qo‘llaridagi qadoqlarni kesib tashlashga ham vaqt topgandi. Aureliano Ikkinchi va Meme hazil-huzul qilib xayrlashar ekanlar, bir haftadan so‘ng marhumaning qayta tirilishi munosabati bilan bazm uyushtirishga va’da berishdi. Amaranta Buendia o‘lganlarga maktub eltishga shaylana-

yotgani haqidagi mish-mishni eshitgan Padre Antonio Isabel duo-yu fotiha uchun soat beshda yetib kelib, uni mo‘rchadan yuvinib chiqqunicha kutishga majbur bo‘ldi. Nihoyat, qarshisida oq surp ko‘ylak kiygan, sochlari orqasiga yoyilgan Amaranta paydo bo‘lganida, keksa ruhoniy meni masxara qilishyapti, deb o‘ylab muqaddas suv ko‘tarib olgan bir bolani jo‘natib yubordi. Bu qulay fursatdan qariyb yigirma yildan beri tavba qilmaydigan Amarantaning gunohlarini to‘kish uchun foydalanishga ahd qildi. Shunda Amaranta hech qanday diniy yordamga muhtoj emasligini, vijdoni pokligini unga dangal aytdi. Bu gap Fernandaning jahlini chiqardi. U baland tovushda o‘ziga o‘zi savol bergan bo‘ldi: «Amaranta qanaqangi katta gunoh qilgan edi-ya! Endi aybini tan olib, tavba qilish o‘rniga o‘ziga shunchalar tahqirli o‘limni ravo ko‘ryaptimi?» Amaranta o‘ringa yotdi va bechora Ursulani o‘zining hali bokira qiz ekanini tekshirib berishga majburan ko‘ndirdi.

– Hech kim xom xayolga bormasin! – qichqirdi u Fernandaga eshittirib. – Amaranta Buendia bu dunyoga qanday kelgan bo‘lsa, o‘shanday ketmoqda.

Amaranta boshqa qaytib turmadi. Boshini yostiqqa qo‘ygancha, uzun sochlarini o‘rib turmakladi; o‘lim uni tobutda ayni tarzda yotajagini uqtirgan edi. So‘ng Ursuladan ko‘zgu keltirishni so‘radi. Qirq yillik tanaffusdan so‘ng o‘zining yillar-u azob-uqubatlar xarob qilgan yuzini ko‘rarkan, yuzi o‘zi tasavvur qilganidek ekanligidan hayron qoldi. Ursula yotoqxonaga cho‘kkan osoyishtalikdan qorong‘i tushayotganini angladi.

– Fernanda bilan rozilashgin, – deb o‘tindi u. – Yarashish dami bir umrlik do‘stlikdan ham afzaldir.

– Endi do‘stlikka ham hojat qolmadi, – deya javob qaytardi Amaranta.

Sahnada yana chiroqlar yonib, konsertning ikkinchi bo‘limi boshlanganida ham Meme Amaranta haqidagi o‘ylardan qutulolmadi. Konsertning o‘rtasida kimdir uning qulog‘iga shivirlab, sodir bo‘lgan hodisani aytdi va tomosha bo‘linib qoldi. Uyga kirgan Aureliano Ikkinchi xunuk, oqarib ketgan, qorabilak bandli, nafis kafanga o‘ralgan qariqizning jasadini ko‘rish uchun olomonni turtib-surtib o‘tishga majbur bo‘ldi. Tobut mehmonxonada, xatlar solingan qutining yonida turardi.

Amarantaning o‘limidan so‘ng to‘qqiz kun o‘tganda, Ursula yotib qolganicha qaytib turmadi. Santa Sofiya de la Pyedad unga qarab turishni o‘z zimmasiga oldi. Ayol kampirga ovqat, yuvingani suv keltirar va Makondoda bo‘lib o‘tayotgan voqealar haqida gapirib berardi. Aureliano Ikkinchi ham Ursulani dam-badam yo‘qlab kelar va har safar unga turli kiyim-kechaklar keltirardi. Ursula ularni karavoti yoniga taxlab qo‘yardi. Endi qo‘li yetadigan masofada butun bir olam bunyod etgandi. U o‘ziga juda-juda o‘xshab ketuvchi Amaranta Ursulaning muhabbatini qozondi va qizaloqqa o‘qishni o‘rgatdi. Ursulaning ko‘zi ojizligini bilishsa-da, hech kim uning batamom ko‘r bo‘lib qolganiga ishonmasdi. Bo‘sh vaqtning ko‘pligi va ichki bir osoyishtalik Ursulaga xonadon hayotini kuzatish imkonini berardi. Shu bois, u eng avvalo Memening sassiz dardlarini sezib qoldi.

– Bu yoqqa kel, – dedi u qizga. – Ikkimiz xoli ekanmiz, men bechora kampirga dardingni bemalol aytaver.

Meme uyalinqirab jilmaygancha, suhbatdan qochmoqchi boʻldi. Ursula koʻp qistab oʻtirmadi, ammo Meme oldiga boshqa kelmay qoʻyganidan soʻng uning shubhasi kuchaydi. Ursula Memening odatdagidek erta turishini va to uydan chiqib ketadigan vaqtgacha bir daqiqa ham tinch turmasligini, kechalari uxlolmay, u yondan-bu yonga agʻdarilib chiqishini, qoʻshni xonadagi kapalak uning uyqusiga xalaqit berishini bilardi. Bir kuni Ursula Memening, otamning oldiga boryapman, deganini eshitdi. Ammo oradan sal fursat oʻtmay, Aureliano Ikkinchi kelib, qizining qayerdaligini soʻraganida hech narsadan shubhalanmagan Fernandaning fahmsizligidan hayratga tushdi. Memening maxfiy yumushlari, kechiktirib boʻlmaydigan vaʼdalari, sirli tashvishlari shu qadar koʻpayib ketgandiki, bu narsa to Fernanda qizini kinoda bir erkak bilan oʻpishayotganini koʻrib, butun uyni oyoqqa turgʻizganidan ancha ilgariyoq Ursulaga oyday ravshan edi.

Iztirobga koʻmilgan Meme sirimni Ursula ochib qoʻygan, deb oʻylardi. Aslida esa u oʻzini oʻzi fosh qilgan edi. U koʻpdan buyon ketidan, hatto koʻrlarda ham shubha uygʻotuvchi iz qoldirib kelar, Fernanda ularni tabibi gʻayblar bilan maxfiy suhbatlarga berilib, alahsib qolgani bois sal kechroq payqagan edi. Shunday boʻlsa-da, u axiri qizining goho uzoq vaqt indamasligini, goho toʻsatdan seskanib tushishini, kayfiyati keskin oʻzgarishini va oʻzbilarmon boʻlib qolganini payqadi. Fernanda Memeni yashirincha kuza-

ta boshladi. Dugonalari bilan sayrga chiqishga ruxsat berar, shanba bayramlarida kiyinishiga yordamlashar, lekin hushyor torttiradigan o‘rinsiz savollar bermasdi. Meme unga bir narsani aytib, aslida esa boshqa narsa qilishini isbotlovchi anchagina dalillar to‘plagan bo‘lsa-da, asosiy dalilni kutib, o‘z gumonini bildirmasdi. Bir kuni kechqurun Meme otasi bilan kinoga borishini aytdi. Oradan biroz vaqt o‘tgach, Fernanda Petra Kotesning uyidan uchirilayotgan bayram mushaklarining qarsillashi-yu, Aureliano Ikkinchi chalayotgan akkordeon sadolarini eshitdi. Shunda u atay kinoga bordi va nim qorong‘ilikda birinchi qatorda o‘tirgan qizini ko‘rdi. Shubhasi to‘g‘ri chiqqanidan hayajonga tushgan Fernanda Memeni o‘pgan erkakni yaxshilab ko‘rib olishga ulgurmadi, lekin qiyqiruv, hushtak va quloqni batang qiladigan qah-qaha orasida uning hayajonli tovushini, «Kechir meni, sevgilim», deganini eshitdi va shu zahotiyoq, hech narsa demasdan, qizini zaldan tortib chiqdi va gavjum Turklar ko‘chasi bo‘ylab sharmandalarcha sudrab, uyga olib keldi-da, yotoqxonasiga qamab qo‘ydi.

Ertasiga ertalab soat oltida Fernanda uylariga atayin yo‘qlab kelgan odamni tovushidan tanidi. U yosh bo‘lib, qayg‘uli ko‘rinardi. Mehmon to‘zigan surp kamzulda edi, sal ko‘rimliroq ko‘rinishi uchun tirishqoqlik bilan bo‘yalgan eski poyabzal kiygan, qo‘lida esa o‘tgan shanbada sotib olgan arzon shlyapasi bor edi. U cho‘chidi, lekin obro‘ saqladi, esankiramadi, o‘zini shunday tutgani uchun Fernandaning tahqirlaridan asrab qoldi. Og‘ir mehnatdan qadoq bo‘lgan kir-chir qo‘llarini hisobga olmaganda, yigitda qandaydir

tug‘ma oliyjanoblik sezilib turardi. Lekin Fernandaga bu odamning oddiy ishchi ekanini bilish uchun bir marta boqish kifoya edi. Ayol yigitning bittagina jorava kamzuli borligini va badaniga banan kompaniyasining marazi singib ketganini payqadi. Uni og‘iz ochirgani qo‘ymadi. Hatto eshikdan ichkari kirishga ruxsat bermadi va darhol eshikni yopdi, chunki uy sariq kapalaklariga to‘lib ketdi.

– Yo‘qoling! – dedi Fernanda. – Nomusli odamlar orasidan sizdaqalarga hech vaqt o‘rin bo‘lmaydi.

Yigitning ismi Maurisio Babilonya edi. U Makondoda tug‘ilib o‘sgan bo‘lib, banan kompaniyasining ustaxonasida mexanik yordamchisi edi. Meme u bilan tasodifan, Patritsiya Braun bilan avtomobilda plantatsiyaga borayotganida tanishib qolgandi. Haydovchi betob bo‘lganligi uchun mashina haydashni Maurisio Babilonyaga topshirishgan edi. Meme haydovchi bilan yonma-yon o‘tirib, butun boshqarish tizimini kuzatib borgandi. Maurisio Babilonya unga xuddi shtatdagi haydovchi singari, hammasini aniq qilib tushuntirdi. U paytlar Meme janob Braunning uyiga endigina qatnay boshlagan va avtomobil haydash ayollarning ishi emas, deb hisoblardi. Shu sababli ham, Maurisio Babilonyaning nazariy ma’lumotlari bilan cheklanib, uni bir necha oy davomida qayta ko‘rmagan edi. Sayr mobaynida Meme yigitning mardonavor jozibasi diqqatini tortganini, ammo faqat qo‘pol qo‘llari yoqmaganini va uni, o‘zini takabburona tutarkan, deya Patritsiya Braun bilan muhokama qilishganini esladi. Shanba kunlarining birida Meme otasi bilan kinoga bordi va yana Maurisio Babilon-

yani uchratdi. U o‘zining o‘sha surp kamzulida bo‘lib, sal narida o‘tirardi. Bu film uni unchalik qiziqtirmayotganini sezdi. Film tugagach, Maurisio Babilonya Aureliano Ikkinchi bilan so‘rashgani keldi va shunda Meme ularning tanishligini bildi. Yigit qizning otasiga odatda boshliqlarga ko‘rsatiladigan izzat-ikrom bilan muomala qildi, chunki Maurisio Babilonya ilgari g‘amgin Aurelianoga qarashli kichkinagina elektrostansiyada ishlardi. Bu esa Memeni takabburligi tufayli Babilonyaga nisbatan paydo bo‘lgan adovatdan xalos etdi. Ular salom-alikdan nari o‘tishmagan, xilvatda uchrashishmagan bo‘lsa-da, bir kuni kechasi nogahon Memening tushiga Maurisio uni kema halokatidan qutqarib qolgani, u esa tashakkur bildirish o‘rniga qahr-g‘azabdan to‘lib-toshgani kirdi. Tushida go‘yoki u o‘zini Maurisio Babilonyaning ixtiyoriga topshirgandek bo‘lib qoldi, aslida esa qiz nafaqat Maurisio, balki unga maftun bo‘lgan har qanday erkakdan boshqacha munosabatni zo‘r ishtiyoq bilan qo‘msardi. Uyg‘onganida esa Maurisioni yomon ko‘rib qolmaganini, aksincha, u bilan uchrashishga zo‘r bir xohish sezdi. Hafta yakunlanar ekan, uning istagi yanada ortib, shanba kuni chiday olmaydigan darajaga yetdi. Maurisio u bilan kinoda salomlashganida, qizning yuragi qinidan chiqgudek bo‘ldi. Meme ilk bor qo‘l uzatdi va Maurisio Babilonya ilk bor uning qo‘lini siqdi. Meme hayajonini tutolmagani uchun bir soniya afsuslandi, ammo uning ham qo‘li terga botgani va muzday sovuq ekanini sezgach, o‘kinchi mamnuniyatga aylandi. Kechasi Memega, agar Maurisio Babilonyaga uning umidlari behuda ekanini isbotlay olmasa,

hech qachon orom bilmasligi ayon bo‘ldi. Qizning dugonasi Patritsiya Braunni avtomobil tomosha qilishga ko‘ndirish uchun qo‘llagan nayranglari ham samara bermadi. Nihoyat, mallasoch amerikalikning Makondoga kelganidan foydalanib, yigitni go‘yoki yangi avtomobillarning modellarini tomosha qilish bahonasida garajga yetaklab bordi. Lekin Maurisio Babilonyani ko‘rgan zahotiyoq yuragi u bilan yakka qolish istagida o‘rtanayotganini tushundi. Shu on eshik bo‘sag‘asida paydo bo‘lgan Maurisio Babilonya ham bu istagini payqagani qizning jahlini chiqardi.

– Men yangi modellarni ko‘rgani keldim, – dedi Meme.

– Nima ham derdik, bu yomon bahona emas, – deya javob berdi yigit.

Memeni javob naq kuydirib o‘tgandek bo‘ldi va qiz Maurisio Babilonyani kamsitish yo‘llarini axtara boshladi. Lekin yigit bunga imkon bermadi. «Qo‘rqmang, – dedi u tovushini pasaytirib, – ayollar erkaklar dardida birinchi marta jinni bo‘lishayotgani yo‘q». Meme o‘zini shu qadar ojiz his qildiki, hatto yangi mashinalarga ham qiyo boqmasdan garajdan chiqib ketdi va tuni bilan karavotda u yondan-bu yonga to‘xtovsiz ag‘darilib chiqdi, g‘azabdan o‘pkasi to‘lib-to‘lib yig‘ladi. Ochig‘ini aytganda, unga bir vaqtlar yoqa boshlagan mallasoch amerikalik Maurisioning oldida go‘dakdek tuyilardi. Xuddi o‘sha kezlarda u sariq kapalaklar Maurisio Babilonyaning kelishidan darak ekanini sezdi. Qiz kapalaklarni ilgari ham garajda ko‘rgan va o‘zicha ularni bu yerga bo‘yoq hidi olib kelgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylardi. Konsertdami, kinodami, cherkovdagi ibodatda-

mi, Meme sariq kapalaklarni koʻriboq, Maurisio Babilonyaning qayerda ekanini aniq ayta olardi. Bir kuni Aureliano Ikkinchi tinimsiz aylanaverib, joniga tekkan bu kapalaklarga laʼnat oʻqiganida, Meme otasiga oʻz sirini aytib qoʻyishiga sal qoldi: axir, muhabbati haqida unga gapirib berishga soʻz bergandi-da. Ammo nozik bir tuygʻu otasi bu gal har safargidek: «Agar onang bilganida bormi?» – deya kulib yubormasligini aytib turardi. Ertalab, Fernanda bilan Meme atirgullarni butayotganida, Fernanda kutilmaganda dod soldi va jon talvasasida qizini turgan joyidan chetroqqa yetaklab chiqdi – bogʻning xuddi oʻsha yeridan goʻzal Remedios osmoni falakka parvoz qilgandi. Onaning nazarida oʻsha moʻjiza takror yuz berib, hozir qizi uchib ketadigandek tuyildi. Ammo Fernandaning aslida kapalaklar sarosimaga solgan edi. Ular Memening koʻz oldida shu qadar kutilmaganda paydo boʻlishdiki, goʻyo toʻgʻridan toʻgʻri quyosh tarafdan yogʻdu boʻlib uchib kelishgandek edi. Qizning yuragi shuv etib ketdi. Oʻsha zahotiyoq boqqa Maurisio Babilonya kirib keldi va qoʻlidagi qogʻoz xaltani toʻkib, Patritsiya Braun sovgʻa yubordi, deb aytdi. Meme uyatdan qizarindi, lekin oʻsha zahoti oʻzini tutib oldi, iltifot yuzasidan jilmayib, mening qoʻlimga loy yuqibdi, iltimos xaltani peshayvonga eltib qoʻysangiz, dedi. Fernanda yigitni ilgari bir gal bogʻda koʻrganini ham, ostonadan haydab yuborganini ham eslay olmadi. U mehmonning dardchil, zaʼfaron rangi-roʻyiga eʼtibor berdi, xolos.

– Juda gʻalati odam ekan, – dedi Fernanda. – Kuni bitgani yuzidan bilinib turibdi.

Meme, onam kapalaklarni hanuzgacha esdan chiqarmagan ekan, deb oʻyladi. Gullarni bu-

tashni tugatgach, qo‘lini yuvdi-da, qog‘oz xaltani yotoqxonasiga olib kirib ochdi. Xaltada xuddi xitoy o‘yinchoqlarini eslatuvchi, bir-biriga kiydirilgan beshta quticha bo‘lib, oxirgisida yozishni go‘yoki endi o‘rganayotgan odamning qo‘li bilan: «Shanba kuni kinoda ko‘rishamiz», – degan so‘zlar bitilgan qog‘oz yotardi. Meme rosa qo‘rqib ketdi, chunki xalta ancha vaqt peshayvonda turgan va Fernanda uni titib ko‘rgan bo‘lishi mumkin edi. Qizga Maurisio Babilonyaning botirligi va topqirligi ma’qul tushdi. Ammo uning uchrashuvga, albatta, keladi, degan anoyi ishonchidan ranjidi. Meme shanba kuni kechqurun otasi band bo‘lishini bilardi. O‘sha hafta davomida shu qadar azob chekdiki, oxiri shanba kuni otasidan, meni kinoga kuzatib boring, seansdan so‘ng yana olib ketasiz, deb o‘tindi. Zaldagi chiroqlar o‘chgunicha, uning boshi uzra sariq kapalak betinim aylandi. Chiroqlar o‘chdi va Maurisio Babilonya yoniga kelib o‘tirdi. Meme go‘yo dahshatli girdob izmiga tushgan, uni faqat yonida o‘tirgan, badanidan mashina moyi anqiyotgan yigitgina qutqarishi mumkin edi.

– Agar kelmaganingizda, – dedi u, – siz meni boshqa hech qachon ko‘ra olmasdingiz.

Meme yigitning og‘ir qo‘llarini his qildi va ana shu ondan boshlab ikkovi ham ojiz emasligini tushundi.

– Nima mening jahlimni chiqaradi, – jilmaydi u, – so‘zlash nojoiz gapni aytish – sening odating.

Qiz uni telbalarcha sevib qoldi. U uyqusini, ishtahasini yo‘qotdi va yolg‘izlikka yuz tutdiki, hatto otasi ham endi xalal berayotgandek tuyilardi. Endilikda qayerda va qachon bo‘lmasin,

Maurisio Babilonya bilan uchrashish uchun Fernandani chalg‘itishga yaraydigan vaj-korsonlar ro‘yxatini tuzdi, dugonalarini tamom unutdi. Oldiniga qizga yigit qo‘polroq tuyilardi. Ular birinchi marta garaj orqasidagi sayhonlikda xoli qolishganida, u Memeni shafqatsiz ezg‘iladi. Keyinchalik Meme bu ham bir turfa erkalatish ekanini tushundi; bechora qiz oromini yo‘qotdi, faqat sevgilisining yodi bilan yashaydigan bo‘ldi va mashina moyi hamda xlor javharining aqlni ozdiradigan hidiga bot-bot mast bo‘lishni istardi. Amaranta o‘lmasidan sal ilgari nogahon Meme sal hushyor tortdi va muhabbatining istiqboli va kelajagiga ishonch yo‘qligini anglab, a’zoyi badani titrab ketdi. So‘ng qartada fol ko‘radigan ayol borligini eshitib, yashirincha o‘shaning oldiga bordi. Folbin – Pilar Ternera edi. U Memeni ko‘rishi bilanoq hamma gapni darhol tushundi. «Kel, – dedi unga. – Buendialarga fol ochish uchun qarta chiylab o‘tirmasam ham bo‘laveradi». Meme yuz yoshli bu alvastinamo kampir o‘zining katta buvisi ekanini bilmasdi va umrining oxirigacha ham bilolmadi. Pilar Terneraning, sevgi azobidan faqatgina yorning vasli qutqaradi, deb aytgan gaplaridan keyin Meme bunga ishonmasdi ham. Maurisio Babilonya ham Pilar Terneraning fikriga moyil edi, ammo Memening yigitga ishongisi kelmas, u kasbi ishchi bo‘lgani uchun ham shunday deyapti, deb o‘ylardi. Qizning fikricha, muhabbatning bir turi ikkinchi turini, albatta, nobud qilardi, chunki och odam yeb to‘yganidan keyin ovqatga qaragisi kelmay qoladi-da. Pilar Ternera nafaqat qizning savodini oshirdi, balki o‘zi oldin Memening bobosi Arkadioni, keyin Aureliano Xoseni tuqqan

to‘r karavotini Meme bilan yigitiga bo‘shatib berishga tayyorligini aytdi. U Memega bemavrid homiladorlikdan qochish yo‘llarini o‘rgatdi va bordi-yu, bunday baxtsizlik yuz bergan holda, homila tugul, hatto «vijdon azobi»dan ham xalos etguvchi ichimliklar tayyorlash uchun maxsus retsept berdi. Bu suhbatdan so‘ng Meme o‘zida xuddi dugonalari bilan may ichgan kunidagidek jasurlik sezdi. Lekin Amarantaning o‘limi tufayli o‘ylagan rejasini ortga surdi. O‘n kunlik ma’raka davomida uyga yig‘ilgan odamlar orasida bemalol kezib yurgan Maurisio Babilonyadan bir zum ham ajralmadi. So‘ngra uzoq davom etgan aza va majburiy mahbuslik sevishganlarni vaqtinchalik bir-biridan ayirib qo‘ydi. Nihoyat, azobli tutqundan xalos bo‘lib, uydan chiqqan kuni kechki payt Pilar Terneranikiga yo‘l oldi. Qiz hech bir qarshiliksiz, noz-firoqsiz, g‘oyat katta layoqat va dono tuyg‘ular ayon etgan holda o‘zini Maurisio Babilonya izmiga topshirdi. Sergumonroq erkak bo‘lsa, uning holatini ko‘rib, e, bu avval ham ancha-munchasini ko‘rgan ekan-da, deb o‘ylashi ham mumkin edi. Qizini onasi zulmidan ozod etish istagida Meme o‘ylab topgan o‘zini oqlashga xizmat qiluvchi har qanday vajlarning to‘g‘riligini tasdiqlovchi Aureliano Ikkinchining beixtiyoriy sherikligi panohida sevishganlar uch oy davomida haftasiga ikki martadan birga bo‘lishdi.

Fernanda kinoda Memeni Maurisio Babilonya bilan tutib qolgan kechasi Aureliano Ikkinchi vijdoni qiynalib, agar Meme o‘zi va’da qilganidek dilini yorsa, dardi harna yengillashadi, degan umidda qizi qamab qo‘yilgan yotoqxonaga keldi. Lekin Meme hamma gapni rad etardi. U o‘zi-

ga shunchalar ishonar, o‘zining yolg‘izligiga shu qadar yopishib olgandiki, Aureliano Ikkinchining nazaridagi barcha aloqalari butunlay uzilib qolgan, ular orasida hech qachon do‘stlik tili bir bo‘lmaganidek, bularning bari o‘tmishning sarobidek tuyildi. U balki sobiq xo‘jayinining gapi uni yo‘ldan qaytaradi, degan xayolda Maurisio Babilonya bilan gaplashmoqchi bo‘lganida, Petra Kotes uni ayollarning ishiga aralashish yaxshi emasligiga ishontirdi, shu tariqa ikkilangancha xayol dengiziga botib, tutqunlik qizining azob-uqubatiga malham bo‘ladi, degan umid bilan o‘zini yupantirdi.

Meme zarracha ham g‘am chekmasdi, aksincha, narigi xonada yotadigan Ursula uning kechalari dong qotib uxlashini, kunduzi o‘z ishlarini xotirjamlik bilan bajarishini, kanda qilmay ovqatlanishini va ovqatni hazm qilishda hech bir qiynalmayotganini bilardi. Memening nazorat ostiga olinganidan so‘ng ikki oycha o‘tib, Ursulaga Memening yuvinishga hamma qatori ertalab emas, balki har kuni kechqurun soat yettida borishi erishroq tuyildi. Bir kuni Ursula unga, odatda kechqurun mo‘rchada chayonlar ko‘payib ketadi, sal ehtiyot bo‘l, deb aytganida, ilgari meni Ursula sotgan, deb yurgan Meme, katta buvisidan o‘zini olib qochdi. Ursula ezma pand-nasihatlari bilan qizning joniga tegmaslik uchun indamay qo‘ya qoldi. Qosh qorayishi hamonoq uyni sariq kapalaklar bosardi. Har kech mo‘rchadan qaytayotgan Meme, qahr-g‘azabidan qaqshab, dori purkagancha kapalaklarni qirayotgan onasiga duch kelardi. «Baloyi ofat bular, – deb nola qilardi Fernanda. – Tungi kapalaklar baxtsizlik keltiradi, deb

menga bir umr uqtirib kelishgan». Bir kuni Meme mo‘rchada yuvinayotgan payt onasi uning xonasiga kirib, hammayoqni kapalak bosib ketganini ko‘rdi. Ularni haydab chiqarish uchun duch kelgan lattani qo‘liga oldi va har tomonga sochilib ketgan, odatda bemavrid homiladan asraydigan xantal qog‘ozlarini ko‘rib, dahshatdan qotib qoldi: ular bilan Memening kechki cho‘milishlari orasida qandaydir bog‘liqlik borligini tushundi. Endi Fernanda avvalgidek qulay fursatni kutmadi. U ertasigayoq shaharning alkaldini (alkald ham Fernanda kabi tog‘lik edi) tushlikka chaqirib, undan tashqari hovliga kechqurunlari qorovul qo‘ydirishni so‘radi, chunki nazarida uning tovuqlarini o‘g‘irlashayotgandek tuyilardi. Oradan bir necha soat o‘tganidan so‘ng, mo‘rchaga – chayonlar-u sariq kapalaklar orasida shu oylar davomida uni har kuni yalang‘och, xayajondan dir-dir titrab, intizorlik bilan kutgan Memening oldiga tushish uchun tomning cherepitsalarini ko‘chirayotgan Maurisio Babilonyani qorovul o‘q otib, yarador qildi. Umurtqa pog‘onasiga qadalgan o‘q yigitni umrbod to‘shakka mixlab tashladi. Tovuq o‘g‘risi deb nom chiqargan Maurisio Babilonya, qarib, batamom yolg‘izlikda, bir marta ham nolimay, hech narsadan nafratlanmay, hech kimni sotmay, shirin xotiralar azobida, uni bir daqiqaga bo‘lsa-da, tashlab ketmagan sariq kapalaklar qurshovida olamdan o‘tdi.

* * *

Meme Buendianing o‘g‘lini uyga olib kelishganida, Makondoni titratgan mash’um voqealar buluti ufqda bo‘y ko‘rsata boshlagan edi. Sha-

har shunchalar sarosimada ediki, oilaviy janjal hech kimning yuragiga sig‘masdi. Fernanda fursatdan foydalanib, chaqaloqni yashirmoqchi va uning dunyoga kelganini butunlay sir saqlamoqchi bo‘ldi. U nevarasini olib qolishga majbur edi. Go‘dakni shunday bir tarzda olib kelishgan ediki, Fernanda undan voz kecholmaydigan ahvolga tushdi. Shu sabab, qalbining tubida tug‘ilgan rejasini amalga oshirib, uni hammomning hovuzchasiga cho‘ktirib yuborishga jur’at etolmadi. U bolani polkovnik Aureliano Buendianing ustaxonasiga yashirib qo‘ydi. Santa Sofiya de la Pyedadni, chaqaloqni daryodan oqib kelgan savatdan topib oldim, deya ishontirdi. Ursula esa uning tug‘ilish sirini bilmay olamdan o‘tdi. Fernanda bolaga ovqat berayotganida bexosdan ustaxonaga kirib qolgan kichkina Amaranta Ursula ham chaqaloqning savatda oqib kelganiga ishondi. O‘zining yovuz xatti-harakatlari bilan Memeni baxtiqaro qilgan xotinidan batamom uzoqlashgan Aureliano Ikkinchi nevarasi borligini faqat uch yildan so‘ng, nevarasi Fernandaning allanarsa bilan mashg‘ul bo‘lganidan foydalanib, peshayvonga bir zumga yugurib chiqqanida ko‘rib qoldi; bola yalang‘och edi, sochlari hurpaygan, odamga emas, ko‘proq qomuslarda tasvirlangan odamxo‘rlarga o‘xshardi.

Fernanda o‘zining shum qismatidan bunday beshafqat qiliqni kutmagandi. Bola uyga Fernanda endi umrbod haydab yuborishdi, deb o‘ylagan sharmandalikni yana qaytarib olib kelgan edi. Yarador Maurisio Babilonyani olib ketishga ulgurmaslaridanoq, u rasvogarchilikning hamma izlarini yo‘qotishning mufassal rejasini tuzib

chiqqandi. Eri bilan maslahatlashmay, ertasiga o‘z narsalarini yig‘ishtirdi; kichik jomadonga qizi uchun uch sidra ich kiyim joyladi va poyezd jo‘nab ketishiga yarim soat qolganida, Memening yotoqxonasiga kirib keldi.

– Ketdik, Renata, – dedi unga.

Fernanda qiziga hech narsani tushuntirmadi. Meme esa buni kutmagan va istamasdi ham. U qayerga borishlarini bilmasdi, ammo endi unga baribir, hatto kushxonaga ham borishga tayyor edi. U tashqi hovlida o‘q uzilgani va shu zahotiyoq Maurisio Babilonya og‘riqdan dod solganini eshitgan lahzadan boshlab hech narsa demadi va endi umrining oxirigacha hech narsa deya olmas edi. Onasi yotoqxonasidan chiqishni buyurganida Meme na sochini taragan, na yuvingan edi. U hech narsaga, hatto boshi uzra aylanayotgan kapalaklarga ham e’tibor bermay, xuddi oyparastlardek poyezdga chiqdi. Fernanda qizi ataylab indamayaptimi yoki boshiga tushgan kulfatdan gung bo‘lib qoldimi, buni aslo bilolmadi va bilishni istamadi ham. Meme o‘tmishda sehrlangan yerlardan o‘tishganini sezmay qoldi. U temir yo‘lning har ikkala tarafidagi poyonsiz va sersoya banan plantatsiyalarini ham ko‘rmadi. U gringolarning jazirama va changdan qovjirab qolgan bog‘larini, oq uylarining ayvonida o‘tirib qarta o‘ynayotgan kalta shimli erkaklar-u oq-ko‘kish nimchali ayollarni ko‘rmadi. Meme banan ortilgan aravalarni chang-to‘zonli yo‘llardan tortib ketayotgan ho‘kizlarni ko‘rmadi. U shaffof daryolarda baliqlarday quvnab o‘ynashayotgan va do‘ng ko‘kraklari bilan poyezdlardagi yo‘lovchilarning yuragiga g‘ulg‘ula solayotgan qizlarni, ishchilar

istiqomat qiladigan iflos va xarob yog‘och uychalarni ko‘rmadi. Bu uylar tevaragida Maurisio Babilonyaning sariq kapalaklari uchishar, eshiklar yonidagi tuvaklarda oriq va zahil yuzli bolalar o‘tirishar, poyezd ketidan adabsiz so‘zlarni aytishayotgan homilador ayollar turishardi. Ilgari, qiz ibodatxona qoshidagi maktabdan uyiga qaytayotgan paytlari bunday bir lahzali lavhalar uning uchun naq bayram edi, endi esa yuragiga zarracha ham ta’sir qilmadi, chetlab o‘tdi. Meme, hatto namiqqan hovur ufuruvchi plantatsiyalar tugab, poyezd ispan kemasining ko‘mirga aylangan qoldiqlari hali ham qaqqayib turgan qizg‘aldoq dalasini kesib o‘tib, yana musaffo havoga, bundan yuz yil ilgari qirg‘oqlarida Xose Arkadio Buendianing puch xayollari chilparchin bo‘lgan, suvi iflos va ko‘pik bosgan dengiz yonidan chiqqanda ham derazaga qaramadi.

Kunduz soat beshda vodiyning so‘nggi bekatiga kelishdi va Fernanda Memeni vagondan chiqardi. Ular hansirab zo‘rg‘a nafas olayotgan ot qo‘shilgan, ko‘rshapalakka o‘xshovchi ekipajga chiqishdi va bu ma’yus shahar oralab yurishdi; uning ko‘z ilg‘amas ko‘chalari, dengiz tuzidan sho‘rlagan zamini uzra Fernanda yoshligida har kuni tushki uyqu paytida tinglagan kuyga monand musiqa eshitilardi. Ular zang yeb bitiray degan temir devorlaridan xuddi o‘choqdek issiq ufurib turuvchi, yog‘och g‘ildiragi esa suvni parragi bilan nasos kabi chovlayotgan daryo paroxodiga ko‘tarilishdi. Meme kayutaga berkinib oldi. Fernanda uning karavoti oldiga kuniga ikki marotaba ovqat solingan likopcha qo‘yar va har safar qizining qo‘liyam tegmagan ovqatni qaytarib olib ketardi. Yo‘q,

Meme o‘zini o‘zi ochlikdan sillasini quritishga ahd qilmagan, unga hozir har qanday taomning hidi yoqmas, oshqozoni hatto suvniyam qaytarib tashlardi. Fernanda bu haqda oradan salkam bir yil o‘tib, unga nevarasini olib kelgunlaricha hech narsa bilmagani kabi, Meme ham unga xantalli qog‘ozlarning bug‘i yordam bera olmaganiga shubha qilmasdi. Temir devorlarning doimiy titrashi va paroxod g‘ildiragi daryo tubidan ko‘tarayotgan suv o‘tlarining sassiq hididan nafasi qaytgancha tor kayutada borayotgan Meme kunlarning hisobidan adashgan edi. Eng so‘nggi sariq kapalak ventilyatorning parragiga tushib nobud bo‘lgani, Maurisio Babilonya o‘lgani va endi uni hayotga qaytarib bo‘lmasligini anglaganidan buyon ancha yil o‘tgandi. Ammo u sevgilisidan voz kechmadi. Ular Aureliano Ikkinchi yer yuzidagi eng go‘zal ayolni qidirgan, saroblarga to‘la sahrolardan xachir minib o‘tishayotganlarida ham, hindular asos solgan so‘qmoq orqali toqqa ko‘tarilib, so‘ng o‘ttiz ikki cherkovning qo‘ng‘iroqlaridan taralayotgan motam kuyiga to‘lgan shaharning tosh ko‘chalariga tushishganida ham Meme u haqda o‘ylashni qo‘ymadi. Ular tashlandiq bir uyning burganlar o‘sgan xonasida tunashdi. Fernanda yerga yozib qo‘ygan taxtalar ko‘rpa vazifasini o‘tadi. U derazalardagi allaqachonoq uvadaga aylangan darpardalarni olib, yalang taxtalarning ustiga to‘shashdi. Tana sal qimirladi deguncha darpardalar kulga aylanardi. Meme qayerdaliklarini bildi, chunki uyqusi kelmay yotganida uzoq rojdestvo arafasida uylariga ruh sandiqda yuborilgan qora libosli kabalyero yonidan o‘tganini ko‘rib, dahshatdan titrab ketdi.

Ertasi kuni ibodatdan keyin Fernanda motamsaro bir binoga olib bordi. Meme, onasining ibodatxona haqidagi ko‘p marta eshitgan hikoyalari bois, bu binoni tanidi. Fernanda idorada kim bilandir gaplashayotganida, Meme ispan yepiskoplarining moybo‘yoqda chizilgan qadimiy suratlari ilingan qabulxonada o‘tirarkan, yupun kiyingani uchun (egnida qora gulli yupqa matodan tikilgan ko‘ylak, oyog‘ida esa sahro muzida tob tashlagan baland poshnali poyabzal bor edi) sovuqdan dir-dir titrardi. Deraza oynalaridan tushayotgan sariq nurlar bilan yo‘g‘rilgan mehmonxonaning o‘rtasida turarkan, Maurisio Babilonya haqida o‘yladi, so‘ng esa idoradan qo‘lida Memening uch sidra ich kiyimi solingan jomadonchani ko‘tarib, rohibaning shogirdi go‘zal qiz chiqdi. Memega yaqinlashgach, u qo‘lini cho‘zib dedi:

– Yur, Renata.

Meme uning qo‘lini ushlab, itoatkorlarcha ergashdi. Fernanda qizini so‘nggi marta ko‘rganida, u ibodatxona hovlisining narigi tarafida bo‘lib, hozirgina yopilgan temir darvozaning ortida rohiba shogirdining qadamiga moslab qadam tashlab borardi. Meme Maurisio Babilonya, undan anqiydigan mashina moyi, yigitning sariq kapalaklardan iborat mulozimlari haqida har kuni, to qarib, Krakov shahridagi zimiston bir shifoxonada uzoq kuzning erta tongida bir og‘iz so‘z aytmay, begona odamning ismi-sharifida olamdan o‘tguniga qadar o‘yladi.

Fernanda Makondoga qurollangan jandarmachilar qo‘riqlab kelgan poyezdga qaytdi. Yo‘lda uni yo‘lovchilar yuzidagi jiddiylik, shahar va qishloqlarning ko‘chalaridagi harbiy qo‘shinlar, sodir

bo‘lishi muqarrar allaqanday voqeaning sharpasi Fernandani taajjublantirardi, ammo Makondoga yetib kelmagunicha va unga Xose Arkadio Ikkinchi banan kompaniyasida ishlovchilarni ish tashlashga undaganini aytib bermagunicha, gap nimadaligini tushunmadi. «Endi bizga shu yetmay turuvdi, – dedi ichida Fernanda. – Oilamizda anarxiyachi paydo bo‘libdi». Ish tashlash ikki haftadan keyin boshlandi va hamma xavfsiragani kabi fojiaviy yakunlanmadi. Ishchilar yakshanba kuni banan uzish va uni vagonlarga yuklashdan bosh tortishdi, ularning talablari tamomila haqqoniy bo‘lib, hatto Padre Antonio Isabel ham, Xudoning irodasiga mos, deya qo‘llab-quvvatladi. Bu hamma so‘nggi oylardagi birdaniga boshlanib ketgan boshqa ish tashlashlarning g‘alabalari shaharni fransuz fohishalari bilan to‘ldirishdan boshqa hech narsaga yaramaydi, deb xalq orasida nom chiqargan Xose Arkadio Ikkinchining jo‘n shaxsini g‘oyat mashhur qilib yubordi. U hech qanday ma’nisiz kemasozlik korxonasi qurish maqsadida bir vaqtlar urushqoq xo‘rozlarini sotganidek jasorat ko‘rsatib, banan kompaniyasida nazoratchi bo‘lib ishlashdan voz kechdi va ishchilar tomonga o‘tdi. Oradan sal fursat o‘tmay, Xose Arkadio Ikkinchini jamoat tartibiga qarshi uyushtirilgan xalqaro fitnaning agenti, deb e’lon qilishdi. Haftaning dahshatli mish-mishlaridan qayg‘uga botganicha qorong‘i tunda yashirin yig‘ilishdan qaytayotgan Xose Arkadio Ikkinchini yo‘lda poylab turib otgan noma’lum odamning to‘rttala o‘qidan ham mo‘jiza qutqarib qoldi. So‘nggi oylarda vaziyat shu qadar keskinlashgandiki, buni o‘zining dunyoni ko‘rishdan mahrum

olamida bo‘lgan Ursula ham sezdi va nazarida u o‘g‘li Aureliano qo‘zg‘olon dardida oromini yo‘qotgan o‘sha mash’um kunlarni yana boshidan kechirayotgandek edi. U Xose Arkadio Ikkinchi bilan hangomalashib, boshidan o‘tgan tajribasini baham ko‘rmoqchi bo‘ldi, ammo Aureliano Ikkinchi unga suiqasd uyushtirilgan o‘sha kechasidan beri Xose Arkadio Ikkinchining kushxonasini hech kim bilmasligini xabar qildi.

– Aurelianoning o‘zginasi, – hayratlandi Ursula. – Haqiqatan ham dunyo aylana bo‘ylab harakatlanarkan.

Fernanda bu kunlarning hayajonidan yiroqda turardi. Memening taqdirini undan so‘ramay hal qilganlari uchun darg‘azab bo‘lgan eri bilan qattiq janjallashgandan keyin u tashqi dunyoning ishlariga aralashmay qo‘ydi. Aureliano Ikkinchi qizini ibodatxonadan, albatta qutqarishni, agar lozim bo‘lsa, bu ishda jandarmlarning yordamiga tayanishi mumkinligini aytib dag‘dag‘a qilganida, Fernanda unga Meme rohibalikni o‘z ixtiyori bo‘yicha qabul etdi, degan ma’noni anglatadigan hujjat ko‘rsatdi. Meme haqiqatda bu qog‘ozga ibodatxonaning temir panjarali darvozasining narigi tomonida ekanida, uni uydan onasi olib chiqishiga qarshilik ko‘rsatmagani kabi loqaydlik bilan imzo chekkandi. Aureliano Ikkinchi Maurisio Babilonya uylariga tovuq o‘g‘irlagani kelganiga hech qachon ishonmaganidek, Memega taalluqli xotini ko‘rsatgan bu hujjatning haqiqiyligiga inonmadi, ammo Fernandaning bu har ikkala izohi vijdonini tinchlantirishga, o‘zini qiynamasdan Petra Kotesning panohiga yana qaytishga va uning uyida tag‘in qizg‘in vaqti-

nchog‘lik, to‘kin-sochin bazmlar uyushtirishga yordam berdi.

Butun shaharni qoplagan vahimadan begona, Ursulaning dahshatomuz bashoratlariga parvoyi falak Fernanda o‘z rejasi mexanizmining so‘nggi murvatlarini buradi. U klerk[1] unvoni olish arafasida turgan Xose Arkadioga uzundan uzun maktub yo‘llab, unga singlisi Renata bezgak isitmasiga mubtalo bo‘lgani va bu olamni tark etganini yozgandi. Keyin u Amaranta Ursulani Santa Sofiya de la Pyedadning tarbiyasiga topshirib, tabibi g‘ayblar bilan Memening mojarolari tufayli uzilib qolgan yozishmasini yo‘lga qo‘ydi. U avvalo telepatik operatsiyaning aniq kunini tayinladi. Ammo ular Makondodagi to‘polonlar bosilmagunicha operatsiya qilish juda ham ehtiyotsizlik bo‘ladi, deb javob qaytarishdi. Nihoyatda sabrsiz, atrofdagi voqealardan chala xabardor Fernanda navbatdagi maktubida shaharda hech qanday alg‘ov-dalg‘ov bo‘lmayotgani, hamma gap ilgari xo‘roz urishtirish va kemasozlik shaydosi bo‘lgan, endilikda esa kasaba uyushmada maynavozchilik qilayotgan telbanamo qaynisining ahmoqona qiliqlarida ekanligini yozib yubordi. Chorshanba kuni jaziramada, hali bir qarorga kelib ulgurishmaganda, ularnikiga qo‘lida savat ko‘targan keksa rohiba keldi. Eshikni ochgan Santa Sofiya de la Pyedad usti nafis to‘rli sochiq bilan yopilgan savatni ko‘rgach, kimdir berib yuborgan sovg‘a deb o‘ylab, uni rohibaning qo‘lidan olmoqchi bo‘ldi. Ammo kampir uni berishga rozi bo‘lmadi: unga savatni shaxsan va mutlaqo

[1] Klerk – ayrim mamlakatlar idora xizmatchisiga beriladigan unvon.

maxfiy ravishda Fernanda del Karpio de Buendiaga topshirish buyurilgandi. Savatda Memening o‘g‘li yotardi. Fernandaning sobiq piri unga yo‘llagan xatida, bola ikki oy ilgari tug‘ildi, onasi bir og‘iz ham gapirmagani uchun istagini bilolmadik, shu bois chaqaloqqa bobosining sharafiga Aureliano deb ism qo‘yishni o‘zimizga ep ko‘rdik, deb yozgandi. Fernanda taqdirning bunday tahqiriga qarshi ichida g‘alayon ko‘tardi, lekin buni rohibaga sezdirmaslikka kuchi yetdi.

– Masalan, uni daryodan oqib kelgan savatdan topib oldik, desak, – dedi u jilmayib.

– Bunga hech kim ishonmaydi.

– Axir, Muqaddas kitobda shunday deyilganiga hamma ishonadi-ku, – e’tiroz bildirdi Fernanda. – Nega endi menga ishonishmas ekan.

Ortga qaytadigan poyezdni kutayotgan rohiba ularnikida tushlik qilishga qoldi. Garchand, u bola haqida og‘iz ochmagan bo‘lsa-da, sharmandalikka beixtiyor guvoh bo‘lib turgan bu kampirning suhbati Fernandaning yurak-bag‘rini ezardi, u ichida o‘rta asrdagi udum – yomon xabar keltirgan elchini osish odati qolib ketgan-da, deb pushaymon yerdi. Shunda Fernanda, rohiba jo‘nab ketishi bilanoq chaqaloqni quduqqa cho‘ktirib yuboraman, deb ahd qildi, ammo bunday qilishga jur’ati yetmadi va uni bu dardisardan Xudoning cheksiz marhamati qutultirmagunicha kutishga ahd qildi.

Makondoni qurshagan keskinlik daf’atan portlashga aylanganida kenja Aureliano bir yoshga kirgandi. Xose Arkadio Ikkinchi va kasaba uyushmasining yashirin ish olib borishga o‘tgan boshqa rahbarlari haftaning oxirida to‘satdan

shaharda paydo bo‘lishdi va banan hududida namoyishlar uyushtirishdi. Politsiya tartibni saqlash bilan cheklandi. Ammo dushanbaga o‘tar kechasi kasaba uyushmasi boshliqlarini yotgan joyidan sudrab chiqarib, oyoqlariga besh kiloli kishan urishdi va provinsiyaning bosh shahridagi qamoqxonaga olib ketishdi. Boshqalar qatori Xose Arkadio Ikkinchi va Makondoga surgun qilingan Meksika inqilobining qatnashchisi, kimsan Artemio Krus[1]ga qarindosh va uning jasoratlarini ko‘rgan polkovnik Lorenso Gavilanni ham qamoqqa olishdi. Lekin oradan uch oy o‘tar-o‘tmas ularni qo‘yib yuborishdi, chunki hukumat va banan kompaniyasi mahbuslarning ovqatiga ketadigan xarajat xususida bir bitimga kelolmagandi. Bu safar ishchilarning noroziligiga oziq-ovqat sifatining pastligi va g‘oyat og‘ir mehnat sharoiti sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, ishchilar ularga qog‘oz pul emas, balki bona, ya’niki mahalliy hukumat tomonidan chiqarilgan vaqtinchalik pul to‘lanayotganidan shikoyat qilishar, chunki bonaga kompaniya do‘konidan cho‘chqa go‘shtidan boshqa hech narsa xarid qilish mumkin emasdi. Xose Arkadio Ikkinchini bona sistemasining mohiyatini fosh qilgani uchun qamashgan edi. U ushbu sistema kompaniyaning savdo flotiga ketadigan xarajatni birmuncha kamaytirishini, ya’ni banan tashiydigan kemalar qaytishda kompaniya do‘koni uchun mol olib qaytishini, aks holda kemalar Yangi Orleandan banan ortiladigan portlargacha bo‘m-bo‘sh kelishini tushun-

[1] Artemio Krus – Meksika yozuvchisi Karlos Fuentesning “Artemio Krusning o‘limi” romanining bosh qahramoni.

tirdi. Ishchilarning qolgan e'tirozlari turmush sharoiti va meditsina xizmatiga taalluqli edi. Kompaniyaning vrachlari bemorlarga mutlaqo qaramasdi. Bemorlar shifoxona yonida navbatga tizilishar va hamshira kim qanday dardga chalinganidan: bosh og'rig'imi, ich og'riqmi, qat'iy nazar, har birining tiliga mis kuporosiga o'xshovchi dumaloq dori quyib chiqarardi. Bu shunchalar bema'ni davo ediki, bolalar ham navbatga qayta-qayta turib, o'zlariga tekkan dumaloq dorilarni uylariga olib borib, loto o'yinida fishkalar o'rnida foydalanishardi. Ishchilar qulay-qulay deb turgan baraklarda, g'oyat tig'iz bir ahvolda yashar edilar. Ishchilarga hojatxona qurib berish o'rniga, rojdestvoda har ellik kishiga bittadan ko'chma hojatxona olib kelindi va ko'proq xizmat qilish uchun undan qanday foydalanish kerakligini namoyish qilishdi. Ilgari polkovnik Aureliano Buendiani holi-joniga qo'ymagan, qora syurtukli keksa advokatlar endilikda banan kompaniyasining manfaatini himoya qilishar, ishchilar qo'ygan barcha ayblarni ming xil nayrang bilan rad etishardi. Ishchilar tomonidan tuzilib, bir ovozdan ma'qullangan petitsiyaning banan kompaniyasiga rasmiy ravishda borib yetgunicha ancha vaqt o'tdi. Janob Braun petitsiyadan xabar topdi-yu, o'zining hashamdor, oynaband tomli vagonini poyezdga tirkab, firmaning ko'zga ko'rinarli vakillari bilan Makondodan qochib qoldi. Kelasi shanba kuni ishchilar kompaniya boshliqlaridan birini, uni domiga ilintirishga rozilik bildirgan ayol bilan yalang'och holda tutib olishdi va petitsiya nusxasiga imzo chekishga majbur qilishdi. G'alamis

qonunparastlar esa sudda bu odamning banan kompaniyasiga mutlaqo aloqasi yo‘qligini ta’kidlashdi va o‘zini firmaning odami qilib ko‘rsatgan o‘sha kimsani hukumat vakillariga ayttirib, qallobligi uchun qamashib, o‘zlarining haq ekanligini isbotlamoqchi bo‘lishdi. Keyinchalik ishchilar uchinchi klass vagonida yashirincha o‘tirgan janob Braunning o‘zini ham qo‘lga tushirishdi va petitsiyaning qolgan nusxasiga qo‘l qo‘ydirishdi. Ertasiga u sudga chaqirilganda, sochlari qoraga bo‘yalgan bo‘lib, sof ispan tilida gapirdi. Advokatlar bu odam Alabama shtatidagi Pratvill shahrida tug‘ilib o‘sgan, banan kompaniyasining bosh direktori janob Jek Braun emas, balki Makondoda tug‘ilib o‘sgan va shu yerda Dagoberto Fonseka deya nom olgan kishiligini isbotlashdi. Ishchilar janob Braunni yana bir bor qo‘lga kiritishga urinishganidan so‘ng, qonunparastlar jamoat joylariga elchixonaning konsuli hamda maslahatchilari tomonidan imzolangan, janob Braunning o‘limini tasdiqlovchi hujjatning nusxalarini ilib qo‘yishdi, unda bosh direktorini Chikagoda yong‘in o‘chiruvchi mashina bosib ketgani aytilgan edi. Bu munofiq hiylalardan toliqqan ishchilar mahalliy hukumatdan qo‘lni yuvib qo‘ltiqqa urishdi-da, oliy sud organlariga shikoyat bilan murojaat qilishdi. Ammo u yerdagi lo‘ttiboz qonunshunoslar ham, banan kompaniyasining ishi mavsumiy bo‘lgani sababli ishchilarni doimiy xizmatga tortish mumkin emas va demak, ishchilarning talablari mutlaqo qonunga zid, deb aytishdi. Shunday qilib, dudlangan baliq go‘shti, shifobaxsh dorilar va roj-

destvo hojatxonalari haqidagi go‘yoki uydirma gaplarga chek qo‘yildi va sud tantanavor bir holda banan kompaniyasida umuman ishchilar bo‘lmagan, deb e’lon qildi.

Katta ish tashlashlar boshlandi. Plantatsiyalardagi ishlar taqqa to‘xtadi, mevalar chiriy boshladi. Bir yuz-u yigirma vagondan iborat eshelonlar temiryo‘l shoxobchasida harakatsiz yotardi. Shahar-u qishloqlar ishchilar bilan to‘lib-toshdi. Turklar ko‘chasidagi «Yoqub» mehmonxonasining bilyardxonasini navbat kutayotgan o‘yinchilar bosib ketgandi. Armiya jamoat tartibini qayta tiklash uchun buyruq olgan kuni Xose Arkadio Ikkinchi bilyardxonada edi. Garchi, u bashorat qilish xususiyatiga ega bo‘lmasa-da, bu xabarni polkovnik Xerineldo Markes uni odamlarning otilishini ko‘rsatishga olib borgan o‘sha uzoq tongdan beri kutayotgan o‘lim darakchisi, deya qabul qildi. Ko‘ngildagi g‘ashlik Xose Arkadio Ikkinchini doimiy sipolik odatidan mahrum etolmadi. U kiy bilan sharni urdi-da, ko‘zda tutilgan karmbolni[1] amalga oshirdi. Anchadan so‘ng ko‘chadan eshitilgan do‘mbiralarning gumburi, gorn[2] ovozi va qiy-chuv tovushlari nafaqat bilyard o‘yini, balki u o‘sha qatl tongidan boshlab o‘zi bilan olib borayotgan barcha sassiz o‘yinlarning tugaganidan darak berdi. Shunda u ko‘chaga chiqdi va to‘plangan uchta polkni ko‘rdi. Do‘mbira sadolari-yu bir maromda tashlanayotgan qadamlardan yer larzaga kelardi. Charaqlagan choshgoh bu ko‘pboshli ajdaho nafasidan anqiyotgan qo‘lansa hidga

[1] Karmbol – bilyard o‘yinida bir shar bilan ikkinchisini urib, uchinchisiga tekkizish va shu tarzda to‘rga tushirish.

[2] Gorn – signal.

koʻmilib ketgandi. Askarlar hammasi past boʻyli, yoʻgʻon va dagʻal edi. Ulardan terlagan ot hamda oftob qizdirgan xom teri hidi kelar, bu odamlarda togʻliklarga xos sassiz va yashirin dovyuraklik sezilib turardi. Garchand, Xose Arkadio Ikkinchining yonidan qariyb bir soatdan buyon oʻtib borishsa-da, askarlarning soni ozday edi. Ular bir necha boʻlinmadan iborat boʻlib, aylana boʻylab betinim borib-kelishayotgandek tuyilardi, chunki askarlar xuddi bir onaning farzandlari kabi bir-biriga oʻxshardi. Ular safar xaltalari va suvdonlarining zalvari ostida nayzali miltiqlar keltirgan isnod-u koʻr-koʻrona itoatgoʻylik va or-nomus vabosini bir xildagi befahmlik bilan koʻtarib borishardi. Ursula oʻzining koʻrlik dunyosida oʻtirib, gurs-gurs qadamlarni eshitdi va barmoqlarini bukkancha, qoʻlini tepaga koʻtardi. Santa Sofiya de la Pyedad gul tikilgan dasturxonni dazmollay turib, bir lahzaga qotib qoldi va «Yoqub» mehmonxonasi eshigi yonida turib, saf boʻlib oʻtayotgan soʻnggi askarlarga qarayotgan oʻgʻli Xose Arkadio Ikkinchi haqida oʻylay boshladi.

Harbiy holat qonunlariga koʻra, qoʻshinlar ushbu mojaroda oʻz zimmasiga vositachilikni olishi kerak edi. Lekin aslida ikkala tomonni yarashtirib qoʻyish uchun hech narsa qilinmadi. Askarlar Makondoning u boshidan-bu boshiga yurib, kuchlarini koʻz-koʻz qilishgach, miltiqlarini nayzalari bilan bir-biriga suyab qoʻyishib, rosa banan uzishdi, keyin ularni poyezdlarga orta boshlashdi. Shu paytgacha xotirjam turgan ishchilar, qoʻllariga machete koʻtarib, shtreykbrexerlar[1]ga

[1] Shtreykbrexer – ish tashlash paytida ish tashlamagan yoki ishni davom ettirib, ishchilar sinfiga xiyonat qilganlar.

qarshi chiqishdi. Ular kompaniya qo‘rg‘oni va do‘konlarga o‘t qo‘yishdi, telefon hamda telegraf simlarini uzib tashlashdi, pulemyotdan o‘q uzib, o‘ziga yo‘l ochayotgan poyezdlarning harakatini to‘xtatish uchun temir yo‘llarni buzishdi. Ariqlarda suv bilan qon qo‘shilib oqdi. Askarlar elektrlashtirilgan parrandaxonada o‘tirgan, birorta tukiyam to‘kilmagan janob Braunning oilasi va uning vatandoshlarini xavfsiz joyga olib borishdi. Hokimlar ishchilarga, Makondoga to‘planinglar, deya murojaat qilishganda mojaro beshafqat va qirg‘inbarot fuqarolar urushiga aylanish arafasida turardi. Murojaatda: kelasi juma kuni viloyatning fuqaro va harbiy hokimi kelib, mojaroni ko‘rib chiqadi, deyilgan edi.

Xose Arkadio Ikkinchi juma kuni ertalabdan stansiyaga borganlar orasida edi. U kasaba yushmasi rahbarlarining yaqinda bo‘lgan yig‘ilishida qatnashgandi. Yig‘ilishda unga va polkovnik Gavilanga xalq ichiga kirish va sharoitga qarab uning harakatlarini boshqarish topshirildi. Xose Arkadio Ikkinchi o‘zini behuzur sezardi. Qo‘shinlar stansiya yonidagi maydon tegrasiga pulemyot o‘rnatganini, banan kompaniyasining temir panjara bilan o‘ralgan qo‘rg‘onchasi to‘plar bilan himoya qilinayotganini eshitganidan so‘ng, og‘zida allaqanday sho‘r va taxir bir ta’m sezdi. Soat o‘n ikkilarda stansiya yonidagi maydon va maydonga tutash ko‘chalarda kechikayotgan poyezdni kutayotgan uch mingdan ziyod odam – ishchilar, ayollar va bolalar to‘plandi. Dastlab, bu yig‘in bayram sayliga o‘xshab ketardi. Turklar ko‘chasidan soyabonli stollar va ichimliklar sotiladigan do‘konlar keltirishgach, xalq intiq-

lik va jazirama azobidan sal qutulgandek bo‘ldi. Soat uchlarga yaqin, rasmiy shaxslar tushgan poyezd uzog‘i bilan ertaga kunduzi keladi, degan gap tarqaldi. Kutaverib hafsalasi pir bo‘lgan olomon chuqur xo‘rsindi. To‘rtta pulemyotning og‘zi odamlarga qaratilgan stansiya pavilyonining tomiga chiqqan qandaydir zobit hammani osoyishtalikka chaqirdi. Xose Arkadio Ikkinchining yonida taxminan to‘rt va yetti yoshlarda bo‘lgan ikki o‘g‘lini ergashtirib olgan semiz, yalangoyoq ayol turardi. U kichik o‘g‘lini ko‘tarib oldi va Xose Arkadio Ikkinchini tanimasa-da, katta o‘g‘limni ko‘tarib oling, yaxshiroq eshitsin, deb iltimos qildi. Xose Arkadio Ikkinchi bolani yelkasiga o‘tqazdi. Oradan ko‘p yillar o‘tgach, bu bola o‘shanda zobitning viloyat hukmdori chiqargan to‘rtinchi raqamli dekretini og‘ziga grammofon karnayi tutib o‘qiganini ko‘rganini aytganida, unga hech kim ishonmaydi. Dekretda general Karlos Kortes Vargas va uning kotibi mayor Enrike Garsia Isasaning imzosi bilan sakson so‘z va uch moddadan iborat bu hujjatda ish tashlaganlar «jinoyatchilar to‘dasi» deb e’lon qilingan va askarlarga ularga qarata ayamay o‘q uzish uchun vakolat berilgan edi.

Dekret qattiq norozilik uyg‘otdi. Shunda tomdagi zobitning o‘rnini kapitan egalladi va grammofon karnayini silkitib, gapirmoqchiligini bildirdi. Olomon yana jimib qoldi.

– Xonimlar va janoblar, – dedi kapitan past va sal toliqqan tovushda, – tarqalib ketish uchun ixtiyoringizda besh daqiqa vaqt bor.

Muhlat sanog‘i boshlanishidan darak beruvchi gorn sadosi hushtak va qichiqiriqlarga ko‘milib ketdi. Hech kim joyidan qimirlamadi.

– Besh daqiqa o‘tdi, – dedi kapitan o‘sha ovozda, – yana bir daqiqadan so‘ng o‘t ochiladi.

Muzday terga botgan Xose Arkadio Ikkinchi bolani yelkasidan tushirib, onasiga berdi. «Bu ablahlar otishdan ham toymaydi», – deb pichirlaydi ayol. Xose Arkadio Ikkinchi unga javob qaytarishga ulgurmadi, chunki u shu daqiqadayoq ayolning gapini xuddi aks sado kabi baland tovushda takrorlagan polkovnik Gavilanning do‘rilloq tovushini eshitdi. Vaziyat keskinligi va odamni hayratga soluvchi osoyishtalikdan mast bo‘lgan, shuningdek, ajalning dahshatli nigohidan qotib qolgan olomonni joyidan ko‘zg‘atadigan kuch yo‘qligiga ishonch hosil qilgan Xose Arkadio Ikkinchi, oyog‘ining uchida xiyol ko‘tarildi-da, oldingi qatordagilarning boshi uzra, umrida birinchi marta ovozini baland ko‘tarib qichqirdi:

– Ablahlar! Shu bir daqiqa boshingizdan ordona qolsin!

Bu so‘zlar jaranglab bo‘lishi bilanoq, Xose Arkadio Ikkinchida dahshat emas, balki bo‘layotgan voqealar noaniq, degan tasavvur uyg‘otgan allaqanday tasavvur paydo bo‘ldi. Kapitan o‘t ochishni buyurdi va birdan o‘n to‘rtta pulemyot o‘q uza boshladi. Avvaliga bari hazilga o‘xshab tuyildi. Go‘yo paxtavon o‘q otilayotgandek edi: pulemyotlar quloqni batang qilib otilar, g‘azab bilan olov purkar, ammo tig‘iz turgan olomon orasidan na birorta baqiriq, na xo‘rsinish eshitilar, go‘yo bir daqiqada hammalari o‘q o‘tmaydigan toshga aylanib qolganday edi va birdan kimdir: «Voy, onajon!» – deya o‘lim talvasasida dodladi-yu, maydondagi karaxtlikni tarqatib yubordi. Go‘yo kuchli bir zilzila yoki vulqon tiyiqsiz bir toshqin

olomonni larzaga soldi. Xose Arkadio Buendia bolani qo‘liga olishga zo‘rg‘a ulgurdi. Kichik o‘g‘lini ko‘targan ayolni esa sarosimadan yugurayotgan olomon nariga surib ketgan edi.

Oradan ko‘p yil o‘tgach, qo‘shnilari aqldan ozgan chol deya tahqirlaydigan o‘sha bola Xose Arkadio Ikkinchi uni boshi uzra qanday ko‘targani va go‘yoki havoda muallaq turib, olomonni qamragan dahshat ichra suzib, odamlarni maydonga tutash ko‘chaga boshlaganini betinim gapirardi. Bola tepada turib, ayqash-uyqash olomon ko‘cha burchagiga burilganini va u yerdagi pulemyotlardan o‘q uzilganini ko‘rdi. Ko‘pchilik birvarakayiga: «Yotinglar! Yotinglar!» – deb qichqirdi.

Birinchi qatordagilar pulemyot o‘qlaridan quladi. Tirik qolganlar esa yotish o‘rniga yana maydon tomon burilishdi. Shunda dahshat-u sarosima ajdahosi ularni dumi bilan urib, pulemyotlar betinim otilayotgan narigi ko‘chadan chiqqan odamlar to‘lqiniga tomon irg‘itib yubordi. Odamlar qo‘radagi mol kabi qamalib qolishgandi. Ular asta-sekin o‘z domiga torta boshlagan bahaybat girdob ichra aylanishardi, chunki girdob tegrasini, xuddi piyoz archilgani kabi pulemyotlar o‘ti kesib turardi. Bola sirli bir sababga ko‘ra, o‘q tegmayotgan yalang joyda tizzalarini bukib cho‘qinayotgan ayolni ko‘rib qoldi. Olomon to‘lqini o‘sha bir parcha yerni, cho‘qinayotgan ayolni, charaqlab turgan osmon-u va Ursula Iguaran o‘zining behisob xo‘rozqandini sotib ulgurgan bu qabih olamning bus-butunicha yutib yuborishiga bir lahza qolganida, Xose Arkadio Ikkinchi yuzlari qonga belanib qulab tusharkan, bolani bexavotir bir joyga irg‘itishga ulgurdi.

Xose Arkadio Ikkinchi hushiga kelganida chalqancha yotar va atrof qorong‘i edi. U qanday-dir uzundan uzun, shovqinsiz poyezdda ketayotganini tushundi: boshini qotib qolgan qon qatlami siqib turar, suyaklari sirqirab og‘rirdi, qattiq uyqusi kelardi. Bu yerda, barcha dahshat va razilliklardan bexatar joyda, bir necha soat mizg‘ish o‘yida Xose Arkadio Ikkinchi kamroq og‘riyotgan yoniga ag‘darildi va shundagina murdalar ustida yotganini angladi. Butun vagon o‘liklarga to‘la, faqat o‘rtada ozgina bo‘sh joy qolgan edi. Murdalarning sovuqligiga qaraganda, xunrezlik nihoyasiga yetganidan beri uch-to‘rt soat o‘tgani bilinardi. Qolaversa, o‘liklarni poyezdga ortgan odamlar ularni banan yuklagandek sarjin qilib joylashtirishga ham ulgurgan edilar. Xose Arkadio Ikkinchi vagonma-vagon o‘tib, parovoz tarafga qarab emakladi, poyezd uyquga ketgan shaharlardan o‘tganida, vagon tirqishlaridan tushgan yorug‘da xuddi chirigan bananlar kabi dengizga uloqtirib yuborish uchun olib ketilayotgan o‘lik erkaklarni, o‘lik ayollarni, o‘lik bolalarni ko‘rdi. Xose Arkadio Ikkinchi ulardan ikkitasini – maydonda sharbat sotib yuruvchi ayol bilan polkovnik Gavilanni tanidi. Polkovnikning qo‘lida hamon to‘g‘asi Meksika kumushidan qilingan kamar bor edi, u sarosimaga tushgan olomon orasidan shu kamar yordamida yorib o‘tishga uringan edi. Birinchi vagonga yetgan Xose Arkadio Ikkinchi qorong‘ilik qa’riga sakradi va so‘nggi vagon o‘tib ketgunga qadar temir yo‘l bo‘yidagi ariqchada yotdi. Umri bino bo‘lib ko‘rgan eng uzun poyezdi shu edi – qariyb ikki yuzta yuk vagonidan iborat tarkibning boshiga, oxiriga va hatto, o‘rtasiga ham parovoz tirkalgandi. Poyezd-

da na qizil, na yashil chiroq bor edi, u relslardan deyarli tovush chiqarmay, shiddat bilan sirg‘alardi. Vagonlarning tomlariga o‘rnatilgan pulemyotlar yonida askarlar qorayib ko‘rinardi.

Yarim kechaga yaqin jala quya boshladi. Xose Arkadio Ikkinchi qayerda tushib qolganini bilmasdi, lekin poyezd kelgan tarafga qarab yuraversa, bora-bora Makondodan chiqishini anglardi. Xose Arkadio Ikkinchi kiyimlari shalabbo bo‘lib, boshi tars yorilgudek og‘rib, g‘ira-shira tong payti shaharcha chetidagi uylarga yetdi. U qahva hidi anqiyotgan oshxonaga kirdi va qo‘lida bolasini ko‘tarib, o‘choq oldida turgan ayolni ko‘rdi.

– Salom, – dedi zo‘rg‘a. – Men Xose Arkadio Ikkinchi Buendia bo‘laman.

U tirik qolganiga batamom ishonish uchun ism-sharifini to‘liq, harfma-harf aytdi. Shunday qilgani yaxshi bo‘ldi, chunki ayol eshik yonidagi g‘amgin, horg‘in, qonga belangan va manglayiga ajal tamg‘asi urilgan bu odamni ko‘rib, uni arvoh deb xayol qilgan edi. Ayol Xose Arkadio Ikkinchi kiyimlari o‘choq ustida quriguncha o‘ranib olishi uchun ko‘rpa olib keldi, yarasini yuvgani suv isitdi, boshini tang‘ishga toza latta berdi. So‘ng kichkina finjonda qandsiz qahva keltirdi – ayol Buendialar qahvani qandsiz ichishini eshitgandi, kiyimlarini esa o‘choq ustiga ilib qo‘ydi.

Xose Arkadio Ikkinchi qahvani ichib bo‘lguncha biror og‘iz ham gapirmadi.

– Ular uch mingtacha edi, – deb shivirladi u.

– Nima?

– O‘lganlar, – deb tushuntirdi Xose Arkadio Ikkinchi. – Menimcha, stansiyaga to‘plangan barcha odam.

Ayol unga taassuf bilan qaradi.

– Birortayam odam o‘lgani yo‘q, – dedi u. – Polkovnik Aureliano Buendianing davridan buyon Makondoda hech qanday voqea ro‘y bermadi.

Xose Arkadio Ikkinchi to uyiga yetguncha uchta oshxonaga kirdi, uchalasida ham: «Birorta odam o‘lgani yo‘q», – deb aytishdi. U vokzal maydonida batartib taxlangan stollarni ko‘rdi, xunrezlikdan go‘yo iz ham qolmaganday edi. Yomg‘ir betinim yog‘ayotgan ko‘chalar bo‘m-bo‘sh, mahkam berkitilgan uylarda hayotdan birortayam nishona yo‘q edi. Ertalabki marosimga chorlayotgan qo‘ng‘iroqlargina bu yerda hayot borligiga yakka-yu yagona guvoh edi. Xose Arkadio Ikkinchi polkovnik Gavilanning eshigini qoqdi. U ilgari bir necha bor ko‘rgan homilador ayol eshikni qars etib yopib qo‘ydi. «U ketdi, – dedi ayol cho‘chib, – vataniga qaytib ketdi». Elektrlashtirilgan parrandaxonaga kiraverishda odatdagidek ikkita mahalliy politsiyachi turardi. Ular egnilaridagi plash va katak-katak shimda yomg‘ir ostidagi tosh haykallarga o‘xshab ketishardi. Chetroq ko‘chada Antil orollaridan kelib qolgan habashlar diniy qo‘shiqlar aytishardi. Xose Arkadio Ikkinchi hovli devoridan oshib o‘tib, oshxonaga kirdi. Santa Sofiya de la Pyedad unga yarim shivirlab: «Ehtiyot bo‘l, yana seni Fernanda ko‘rib qolmasin, u hali uyg‘oq», – dedi. Ayol o‘g‘lini «tuvakxona»ga boshladi, Melkiadesning to‘zigan yig‘ma karavotiga joy solib berdi, keyin kunduzi soat ikkida, Fernanda uyquga ketganida yana bir xabar olib, Xose Arkadio Ikkinchiga derazadan ovqat uzatdi.

Aureliano Ikkinchi jala bois o‘z uyida tunadi va ertasi soat uchgacha ham havo ochilib ketishini kutdi. Santa Sofiya de la Pyedad uning qulog‘iga

sekingina, ukang keldi, deb aytdi. Aureliano Ikkinchi Melkiadesning xonasiga bordi. U ham na maydondagi xunrezlikka, na poyezd murdalarni dengizga olib ketishganiga ishondi. Chunki kecha kechqurun Makondoda hukumatning favquloddagi rasmiy axboroti e'lon qilinib, unda ishchilar vokzalni tark etishga berilgan buyruqqa bo'ysunishib, saf-saf bo'lib uylariga tinchgina tarqalgani aytilgan edi. Shuningdek, axborotda kasaba yushmasining yuksak vatanparvarlik ruhidagi rahbarlari o'z talabnomalaridagi ikki qism: meditsina xizmati islohoti va baraklar yonidan hojatxonalar qurish talabi bilan chegaralangani ham xalqqa ma'lum qilingan edi. So'ng Aureliano Ikkinchi ishchilar g'alayonini bir yoqli qilishgan harbiy hukmdorlar bu haqda janob Braunga ma'lum qilganini va janob Braun ishchilarning yangi talablarini qondirishga rozi bo'lish bilan bir qatorda, tuzilgan bitimni kompaniya hisobidan uch kunlik xalq sayli bilan nishonlashga va'da berganini eshitdi. Ammo harbiylar janob Braundan bitimni qachon imzolash mumkin bo'ladi, deb so'rashganida, u chaqmoqdan tez-tez yorishib turgan derazaga qarab, mujmalroq bir ishora qilgani ham ma'lum bo'ldi.

– Havo ochilib ketsin, – dedi u. – Biz yog'ingarchilikda har qanday ishni to'xtatib turamiz.

Uch oy davomida yomg'ir yog'may, qurg'oqchilik hukm surdi. Ammo janob Braun o'z qarorini e'lon qilganidan so'ng butun bananzorlar uzra Xose Arkadio Ikkinchi Makondo yo'lida uchratgan o'sha jala quya boshladi. Ikki hafta o'tgach ham hukumat ixtiyoridagi barcha axborot vositalari tomonidan aholiga ming bor uqtirilgan rasmiy ri-

voyat oxiri har bir odamga zo‘rlab tiqishtirildi va talablari qondirilgan ishchilar uylariga ketishdi, banan kompaniyasi esa ishini to yomg‘ir tingunicha to‘xtatib turishga ahd qildi. Harbiy holat tinmayotgan sel tufayli sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ofat hamda favqulodda ko‘riladigan chora-tadbirlar uchun saqlanardi. Qo‘shinlar endi kazarmaga ko‘chishgan edi. Askarlar kunduzlari shimlarini tizzasigacha qaytarib, ko‘chalardan shiddat bilan oqayotgan suvda bolalar bilan birgalikda kemachalar oqizishardi. Kechasi, komendantlik soati boshlanganidan keyin esa, ular miltiqlarining qo‘ndoqlari bilan eshiklarni buzib, shubha ostiga olinganlarni uyqusidan uyg‘otib, noma’lum joylarga olib ketishdi. Jinoyatchilarni, qotillarni hamda to‘rtinchi raqamli dekretni buzganlarni qidirish va o‘ldirish hanuzgacha davom etar, ammo harbiylar qurbonlarning taqdirini bilish uchun garnizon boshlig‘i idorasini to‘ldirishgan qavmu qarindoshlar oldida ham buni rad qilishardi. «Mening ishonchim komilki, bu sizning tushingizga kirib chiqqan, xolos, – deb ta’kidlardi boshliq. Makondoda hech narsa sodir bo‘lgani yo‘q, hech narsa bo‘lmayotir va hech qachon hech narsa bo‘lmaydi ham. Makondo – toleyi kulgan shahar». Shu tariqa kasaba uyushmasining barcha rahbarlari nobud etildi.

Faqat birgina Xose Arkadio Ikkinchi omon edi. Bir kuni fevral kechasi uyning eshiklari miltiq qo‘ndoqlarining zarbidan larzaga keldi. Uydan chiqib ketish uchun hanuzgacha havoning ochilishini kutib o‘tirgan Aureliano Ikkinchi eshikni ochdi va plashlari yomg‘irda ivib qolgan zobit-u olti nafar askarni ko‘rdi. Ular hech narsa demas-

dan xonalarni, javonlarni, hatto qaznoqni ham tintuv qilishdi. Ursula xonasiga chiroq yoqilganda uyg‘onib ketdi. Tintuv davom etarkan, nafasini ichiga yutib yotdi, ammo barmoqlarini xoch shaklida bukib, uni askarlar o‘tgan joylarga yo‘naltirib turdi. Sante Sofiya de la Pyedad Melkiadesning xonasida uxlab yotgan Xose Arkadio Ikkinchini uyg‘otishga ulgurdi, lekin endi qochib bo‘lmasligi ayon edi. Santa Sofiya de la Pyedad eshikni qayta qulfladi. Xose Arkadio Ikkinchi ko‘ylagi va poyabzalini kiyib, karavotda o‘tirganicha askarlarni kuta boshladi. Bu paytda askarlar zargarlik ustaxonasini tintuv qilishardi. Zobit osma qulfni ochishga buyruq berdi-yu, qo‘lidagi fonarini chaqqon bir siltab, xonani ko‘zdan kechirdi. U ish stoli, kislota solingan shisha idishlarni, uy sohibi qayerda qoldirgan bo‘lsa, o‘sha yerda yotgan asbob-uskunalarni ko‘rdi va bu xonada hech kim yashamasligini tushundi. Lekin shunday bo‘lsa-da, Aurelino Ikkinchidan zaharxanda bilan, mabodo zargar emasmisiz, deb so‘radi. U esa bu yer polkovnik Aurelino Buendianing ustaxonasi ekanini tushuntirdi. «Shunday deng!» – dedi zobit va xonadagi chiroqni yoqib, jiddiy tintuv o‘tkazishlarini buyurdi. Tintuvdan shishalar ostidagi tunuka idishda yotgan o‘n sakkizta tilla baliqcha ham omon qolmadi. Zobit ularni stolga ag‘darguncha, har birini diqqat bilan ko‘rib chiqdi va shundan keyingina biroz yumshadi. «Agar ruxsat bersangiz, bitta baliqchani o‘zimga olsam, – dedi u. – Ular bir vaqtlar qo‘zg‘olonchilarga xizmat qilardi, ammo hozir esa tarixiy yodgorlik hisoblanadi». U juda yosh, deyarli o‘smir bo‘lsa-da, o‘ziga bino qo‘ygan edi. Aureliano Ikkinchi tilla

baliqchani hadya qilganida, zobitning ko‘zlari quvonchdan xuddi bolalarnikiday porlab ketdi, baliqchani cho‘ntagiga yashirdi, qolganlarini esa idishga solib, eski joyiga qo‘ydi.

– Bebaho sovg‘a bu, – deya ta’kidladi u. – Polkovnik Aureliano Buendia bizning eng buyuk odamlarimizdan biri edi.

Ko‘nglining bir zumga bo‘shagani uning professional xatti-harakatiga zarracha ta’sir qilmadi. Ular Melkiades xonasining eshigiga yaqinlashganida Santa Sofiya de la Pyedad eng so‘nggi hiylasini ishlatdi. «Bu yerda qariyb yuz yildan beri hech kim yashamaydi», – dedi u. Zobit xonani majburan ochtirdi-da, chiroq nurini xona burchaklariga yo‘naltirdi va nur Xose Arkadio Ikkinchining yuzlari bo‘ylab sirg‘ala boshlaganda Aureliano Ikkinchi va Santa Sofiya de la Pyedad uning arabona ko‘zlarini ko‘rdi va shunda ular bu bir xatarning davomi hamda itoatkorlik yo‘li ila qutulish mumkin bo‘lgan ikkinchi bir xatarning boshlanishi ekanini tushunishdi. Ammo zobit, to javonga terib qo‘yilgan yetmish ikkita tuvakka ko‘zi tushmaguncha, hech narsani sezmay, xonani chiroq nurida tekshirishni davom ettirdi. Tuvaklarni ko‘rganidan keyin tepadagi chiroqni yoqdi. Har qachongidan ham salobatli va o‘ychan, karavotning bir chekkasida o‘tirgan Xose Arkadio Ikkinchi o‘rnidan turib, xonadan chiqib ketishga tayyor bo‘lib turardi.

Uning ortida titilgan kitoblar-u qo‘lyozmalar turgan tokchalar, siyohdon qo‘yilgan toza stol ko‘rinardi. Xonada Aureliano Ikkinchiga bolaligidan tanish o‘sha shaffof havo, chang hamda vayronagarchilikning kuchi yetmaydigan va

polkovnik Aureliano Buendia sezmay o‘tgan vaziyat mavjud edi. Ammo zobitning butun e’tibori faqat tuvaklarga qadalgan edi.

– Bu uyda qancha odam yashaydi? – so‘radi u.

– Besh kishi.

Aftidan, zobit hech narsaga tushunmadi. Uning nigohi Aureliano Ikkinchi bilan Santa Sofiya de la Pyedad ikkisi Xose Arkadio Ikkinchini ko‘rib turgan joyga qadaldi. Endi Xose Arkadioning o‘zi ham harbiy unga qarayotganini, ammo ko‘rolmayotganini tushundi. Zobit chiroqni o‘chirdi va eshikni sekin yopib qo‘ydi. U askarlar bilan gaplashganidan so‘ng Aureliano Ikkinchi Melkiadesning xonasini polkovnik Aureliano Buendia qanday ko‘z bilan ko‘rgan bo‘lsa, yosh harbiy ham o‘shanday ko‘zda ko‘rganini angladi.

– Bu xonaga rostdan ham yuz yildan buyon hech kimning nazari tushmagan ekan, – dedi zobit. – U yerda, menimcha, ilonlar ham bo‘lishi mumkin.

Eshik yopilganida Xose Arkadio Ikkinchi urush nihoyasiga yetganiga ishondi. Bundan bir necha yil ilgari polkovnik Aureliano Buendia unga urushning tortish kuchi haqida gapirib bergan va fikrlarini o‘z hayoti misollari bilan isbotlagan edi. Xose Arkadio Ikkinchi unga ishongan edi. Ammo o‘sha kechasi, zobit uni ko‘rolmay tikilib turganida, oxirgi oylarning dahshatini, qamoqdagi marazliklarni, stansiya maydonidagi vasvasani, o‘liklar ortilgan poyezdni esladi va polkovnik Aureliano Buendia yo qallob, yo jinni ekan, deb xulosa chiqardi. Urush hissini tasvirlash uchun ko‘p so‘z ishlatish behuda, buning uchun birgina «QO‘RQUV» degan so‘z

kifoya. So‘nggi paytlarda bir soniya ham xotirjam yasholmagan Xose Arkadio Ikkinchi o‘zini yomg‘ir shovqinidan asrayotgan va sehrli nurlari ko‘magida ko‘zga ko‘rinmas qilgan Melkiadesning xonasida shirin halovat topdi. Uni faqat bir narsa – ishqilib, tiriklayin ko‘mib yuborishmasin-da, degan xavotir bezovta qilardi. U Santa Sofiya de la Pyedadga bu haqda gapirib berganida, ayol o‘g‘liga, seni tiriklay ko‘mib yuborishmasliklari uchun umrimni cho‘zaman, deya va’da berdi. Nihoyat, barcha qo‘rquvlardan xalos bo‘lgan Xose Arkadio Ikkinchi Melkiadesning qo‘lyozmalarini o‘rganishga kirishdi. Ularni qancha kam tushunsa, shuncha ko‘p ishtiyoq bilan o‘rganardi. Ikki oydan so‘ng sukunatning yangi shakliga aylanib qolgan yomg‘ir shovqiniga ko‘nikdi.

Uning yolg‘izligini faqatgina Santa Sofiya de la Pyedadning tashrifi buzardi. Xose Arkadio Ikkinchi onasidan ovqatni deraza tokchasiga qo‘yib ketishni, eshikni qulflab tashlashini so‘radi.

Xose Arkadio Ikkinchining tutqunligiga yarim yil to‘lib, harbiylar Makondoni tark etganlaridan keyin, hamon yomg‘ir tinishini kutib o‘tirgan Aureliano Ikkinchi ozgina valaqlashmoqchi bo‘lib, xona qulfini ochdi. Xonaga kirishi bilanoq, dimog‘iga tuvaklardan anqigan o‘tkir hid urildi. Polga tizilgan o‘nlab tuvaklarning hammasi axlatga to‘la edi. Sochlari to‘kilib ketgan Xose Arkadio Ikkinchi nafasni qaytaruvchi sassiqqa e’tibor ham bermay, qo‘lyozma o‘qirdi. Uning butun borlig‘i xuddi farishtalar kabi shu’la sochardi. Ochilgan eshikning tovushini eshitib, stoldan ko‘z uzdi. Akasiga uning nigohida katta bobolarining tuzalmas qismati yana bir karra takrorlanganini

payqashi uchun ana shu bir lahza kerak bo‘ldi, xolos.

– Ular uch mingdan ziyod edi, – dedi Xose Arkadio Ikkinchi. – Imonim komilki, stansiyaga to‘planganlarning soni shuncha edi.

* * *

Yomg‘ir to‘rt yil-u bir oy va yana ikki kun yog‘di. Ba’zan u go‘yoki tinayotgandek bo‘lar va bunday paytlarda Makondo ahli havo ochilib ketishiga umid bog‘lab, bayramona kiyinishar, yuzlarida endigina sog‘aya boshlagan bemorlarning jur’atsiz tabassumiga o‘xshash tabassum paydo bo‘lardi. Ammo tezda ayni shunday holdan so‘ng yomg‘ir yanada qattiqroq quyishi ayon bo‘ldi. Momaqaldiroqning qattiq guldirashi osmonni tilka-pora qilardi; shimoldan Makondoga kuchli bo‘ron yopirildi, u toshlarni ko‘chirib ketar, devorlarni qulatar, plantatsiyadagi so‘nggi banan daraxtlarini tag-tomiri bilan sug‘urib tashlardi. Ammo bu ofat Ursula shu kunlari tez-tez eslaydigan uyqusizlik kabi o‘ziga qarshi qanday chora ko‘rish lozimligini aytib turardi. Aureliano Ikkinchi bekorchilikka qarshi eng faol kurashchi edi. Janob Braunning sovuq nafasi tufayli quya boshlagan jala uni kechqurun allaqanday arzimas yumush bilan Fernandaning uyiga kirib qolgan mahali qarshiladi. Fernanda eriga qaysidir javondan qidirib topgan buzuq soyabonni berdi. «Kerak emas, – dedi Aureliano Ikkinchi. – To yomg‘ir tinguncha men shu yerda bo‘laman». Albatta, bu qasamyod bo‘lmasa-da, Aureliano Ikkinchi o‘z so‘zida qat’iy turishga ahd qildi. Uning kiyim boshi Petra Kotesnikida qolgandi va endi u

har uch kunda usti boshini yuvish uchun yechib, bitta ich kiyimda kiyimlarining qurishini kutardi. Zerikmaslik uchun uyning u yer bu yerini tuzatishga kirishdi. Eshiklarga oshiq-moshiq qoqdi, qulflarni moyladi, tambalarni mustahkamladi. Uni so‘nggi oylarda, aftidan Xose Arkadio davridagi lo‘lilardan qolib ketgan asbob-uskunalar solingan qutini qo‘ltig‘iga qistirgancha uyni kezishini ko‘rish mumkin edi, jismoniy mehnatdanmi, o‘ta zerikishdanmi, yoki bazmlardan majburan o‘zini saqlayotganidanmi, ishqilib, qorni may bo‘shatilayotgan mesh singari asta-sekin kichrayar, baqbaqasidagi qo‘shqavatlik, ulkan toshbaqaning tumshug‘iga o‘xshovchi yuzidagi to‘q qizil shu’la yo‘qolib borardi. Nihoyat, Aureliano Ikkinchi shu darajada ozdiki, poyabzallarining ipini o‘zi boylaydigan bo‘ldi. Uning tirishqoqlik bilan eshik lo‘kidonini tuzatayotganini, osma soatni qismlarga ajrayotganini ko‘rgan Ursula, polkovnik Aureliano Buendia tilla baliqchalar yasagani, Amaranta kafan to‘qigani-yu tugmalarni qayta qadagani, Xose Arkadio Ikkinchi qo‘lyozmalarni o‘qiyotgani va Ursula o‘z xotiralarini betinim kavshayotgani kabi behuda ishlar bilan shug‘ullanyapti, deb o‘ylardi. Lekin aslida bunday emasdi. Yomg‘ir shunchaki hamma narsani ostin-ustin qilib tashlagan, agar uch kun yog‘lanmasa, hatto temir mexanizmlarning murvatlari orasidan ham gul unib chiqar, gazmollarning yaltiroq iplari zang bilan qoplanar, nam tortgan kiyimlardan esa za’faron suv ko‘katlari o‘sib chiqardi. Havo shu qadar nam ediki, baliqlar ochiq eshiklar orqali uyga kirib, xonalar bo‘ylab suzgancha, ochiq derazadan chiqib ketishi mumkin edi. Bir kuni

ertalab Ursula g‘oyat holsizlanib uyg‘ondi. Umri oz qolganini sezib, o‘zini zambilga solib, Padre Antonio Isabelning oldiga olib borishlarini so‘rayman, deb turganida Santa Sofiya de la Pyedad kampirning orqasi zuluklar bilan to‘lib toshganini bilib qoldi. Qondan shishib ketgan bu yaramas jonivorlar Ursulaning so‘nggi qonini so‘rib bitirmasligi uchun, ularni, chala kuygan kosov bilan kuydirishdi va bittalab ko‘chirib olishdi. Uydagi suvlarni chiqarish uchun ariq qazishga, xonalarni qurbaqa-yu chig‘anoqlardan tozalashga to‘g‘ri keldi, ana shundan keyin pollarni yuvish, karavotlarning oyoqlari ostidagi g‘ishtlarni olib tashlash va poyabzalda yurish mumkin bo‘ldi. Diqqati yuzlab mayda yumushlarga chalg‘iyotgan Aureliano Ikkinchi qariyotganini sezmasdi. Ammo u bir kuni kechqurun tebranma kursida qorong‘ilikka tikilib, Petra Kotes haqida o‘ylarkan, daf’atan qariganini sezib qoldi. Yoshi o‘tgan sayin yanada ochilayotgan Fernandaning shirin bag‘riga yana qaytishiga hech narsa halaqit bermasdi. Ammo yomg‘ir uning barcha istaklarini yuvib yubordi va qalbini hayotdan to‘ygan odamga xos loqaydlikka to‘ldirdi. Aureliano agar bir necha yilga cho‘zilgan bunday yomg‘ir ilgari sodir bo‘lganida, nimalar qilishi mumkinligini eslab, miyig‘ida jilmayib qo‘ydi. U Makondoga birinchilar qatori, hali banan kompaniyasi tunuka tomlarini modaga kiritmasidan ancha ilgari, oq tunuka olib kelgan edi. U tunukalarni faqat bir maqsadda – ularni Petra Kotesning tomiga qoplatish va yomg‘ir shovqini uyg‘otadigan chuqur hisdan lazzatlanish uchun olib kelgandi. Ammo bu o‘tkinchi tentakliklar-u yoshlikdagi g‘alati-g‘alati qiliqlarni eslash ham

Aureliano Ikkinchini hayajonlantirmadi, go‘yo u oxirgi aysh-ishratda o‘zining barcha his-tuyg‘ularini sarflab bo‘lganday edi. Buning evaziga u o‘tmishning quvonchlari to‘g‘risida g‘am-g‘ussasiz, o‘kinmay o‘ylashdek ajoyib xislatga ega bo‘ldi. Bir qarashda, yomg‘ir nihoyat unga bemalol o‘tirib o‘y surish imkoniyatini yaratgandek, yog‘don-u asbob-uskunalar solingan quti esa u shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan, ammo shug‘ullanmagan ishlarga nisbatan qalbida sog‘inch uyg‘otgandek tuyilardi. Aslida esa bunday emasdi. Aureliano Ikkinchining birdaniga o‘troq bo‘lib qolgani va uyda saranjom-sarishtalik o‘rnatishga ruju qo‘ygani bir xotiraga yoki biror achchiq tajribaga bog‘liq emasdi. U yomg‘ir vajidan shunday qilardi, boshqacha aytganda, yomg‘ir uni bir zamonlar Melkiadesning xonasiga gilam-samolyotlar, butun uchar gilamlar, butun boshli kemalarni ekipaji bilan qo‘shib yutib yuboruvchi kitlar haqidagi sehrli ertaklarni o‘qigan uzoq yoshligiga qaytardi. Fernandaning qarovisiz qolgan kenja Aureliano bir kuni peshayvonga yugurib chiqib qoldi. Aureliano Ikkinchi bir qarashdayoq bola o‘zining nevarasi ekanini his qildi. Go‘dakning sochini oldi, kiyintirdi, odamlardan cho‘chimaslikka o‘rgatdi va tez orada hech kim bolaning rosmana Aureliano Buendia ekaniga shubhalanmaydigan bo‘ldi; uning yonoqlari turtib chiqqan, qarashlari hayratga to‘la, ko‘rinishi yolg‘izlikdan darak berar va umuman unda Buendia zotiga xos barcha xislatlar mujassam edi. Fernanda ham insofga keldi. U anchadan beri o‘z takabburligini jilovlashga urinar, ayni vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlab, boshi qotardi. Agar u Aureliano

Ikkinchi nevarasini shu qadar iliq va mehribonlik bilan qarshi olishini bilganida, bolani unga oldinroq koʻrsatar edi va ehtimolki, jigarbandini oʻldirishni xayoliga ham keltirmagan boʻlardi. Tishlari bir tushib chiqqan jiyancha Amaranta Ursulaga ovungan edi. Ikkovi zerikarli yomgʻir kunlari oʻyin oʻynashardi. Bir kuni Aureliano Ikkinchi hamma unutgan ingliz ensiklopediyasi Memening xonasida yotganini esladi. U bolalarga kitobdagi rasmlarni: hayvonlarning tasvirini, soʻng geografiya xaritalarini, uzoq oʻlkalar manzarasi-yu mashhur kishilarning suratini koʻrsata boshladi. Aureliano Ikkinchi ingliz tilini bilmas va eng mashhur shaharlar-u tarixiy shaxslarnigina qiynalib-qiynalib topar, shu bois, rasmlardagi boshqa odamlarga oʻzi ism oʻylab topar, ularga atab afsonaviy nomayi aʼmol toʻqir, ishqilib, sinchkov bolalarning birorta savolini ham javobsiz qoldirmas edi.

Fernanda, havo ochilib ketsa bas, erim yana jazmanining yoniga ketadi, deb ishonardi. Yomgʻirning ilk oylarida u erining yotogʻiga kirishga botinolmadi, agar kirsa Amaranta Ursulani tuqqanidan keyin oʻzining xotinlikka yaramay qolganini xijolatdan qizarib boʻlsa-da, eriga aytishga majbur boʻlardi. Ayni hadik vajidan bechora ayol tabibi gʻayblar bilan yozishmasini kuchaytirdi, lekin yozishma pochtaning yomon ishlashi tufayli tez-tez uzilib qolardi. Yomgʻirning birinchi oylarida qattiq dovul turib, bir qator temir yoʻl halokatlariga sabab boʻldi va Fernanda tabibi gʻayblardan biri yuborgan xatni oʻqib, oʻzining maktublari ularga yetib borganini angladi. Keyinchalik, yozishma butunlay toʻxtab

qolgach, u eri o‘sha qonli maskaradga kiyib borgan yo‘lbars niqobini yuziga tortib, banan kompaniyasi shifokorlariga begona ism-sharif ostida uchrashish haqida jiddiy o‘ylay boshladi. Ammo toshqin ofatlarini so‘zlab yuruvchi tanish ayoldan kompaniya shifoxonasi qurg‘oqchil o‘lkalarga ko‘chib ketganini eshitdi. Fernandaning umidlari puchga chiqdi. Taqdirga tan berib, yomg‘ir tinishini va pochta aloqasi qayta tiklanishini kutishga ahd qildi. Endi pinhoniy dardini o‘zi davolar, chunki Makondoda qolgan yagona tabib – molga beriladigan o‘tni yeydigan g‘alati fransuz tabibga borishdan o‘lim afzal ko‘rinardi. Fernanda, biror yordami tegib qolar, degan umidda Ursula bilan inoqlashib oldi. Baxtga qarshi, bechora Fernanda narsalarni o‘z nomi bilan atamasdi, shu bois, sababni oqibat, ichki hodisalarni tashqisi bilan almashtirishga, ya’niki ichidan qon ketishini shunchaki isitma deb atashga majbur bo‘ldi. Kasalini ochiq aytishdan uyalgani tufayli shunday dedi va natijada Ursula uning dardi bachadonida emas, balki oshqozonida, deb xayol qildi-da, Fernandaga karameldan tayyorlangan dori ichishni maslahat berdi. Agar boshqa ayollar kabi ochiq-sochiq bo‘lganida edi, Fernanda yomg‘irga e’tibor ham bermasdi, chunki avval boshdan xuddi rutubatli bir muhitda hayot kechirardi. U ovqatlanish vaqtini ham, oiladagi o‘zi joriy etgan boshqa udumlarni ham o‘zgartirmadi. Yemakxonadagi stol oyog‘i ostiga g‘isht qo‘yishardi. Ovqat payti xo‘randalarning oyoqlari ho‘l bo‘lmasligi uchun, kursilar qalin paxta ustida turardi. Fernanda hamon golland matosidan tikilgan dasturxon-

ga chinni idishlarni terib, kechki ovqatdan oldin hamisha sham yoqardi. Uning fikricha, tabiiy ofat an'analarni muhim saqlashga g'ov bo'lolmasdi. Hech kim uydan ko'chaga chiqmasdi. Fernandaga qolsa edi, u barcha eshiklarni ochilmas qilib mixlab tashlagan bo'lardi. Lekin shunga qaramay, uylari yonidan polkovnik Xerineldo Markesning jasadi solingan tobutni ko'tarib o'tishayotganlarida, Fernanda birinchi bo'lib derazaga yugurdi, ammo nim ochiq derazadan ko'rganlari hafsalasini pir qildiki, ayol oniy soniyalik ojizligi uchun o'zini ancha vaqtgacha koyib yurdi.

Bundan g'aribroq dafn marosimini, hatto tasavvur ham qilib bo'lmasdi. Tobut ho'kizlar qo'shilgan oddiy aravaga ortilgan bo'lib, arava ustida banan barglaridan qilingan peshayvon silkinib turardi. Yomg'ir to'xtamay quyar, g'ildiraklar yarmigacha loyga botib qolardi. Tobut ustiga yopilgan jiqqa ho'l bayroqdan sharros suv quyilardi. Bu o'sha porox hidi va qon singib ketgan, endilikda barcha veteranlarning g'azabini qo'zg'atadigan bayroq edi. Tobut ustiga o'sha polkovnik Xerineldo Markes Amaranta chevarlik qiladigan xonaga kirishdan oldin dahlizda qoldirilgan zardo'zi shokilali qilich qo'yilgandi. Neerland sulhidan so'ng tirik qolgan so'nggi veteranlar shimlarini tizzalarigacha ko'tarib, ayrimlar yalang oyoq holda, bir qo'lda hassa, ikkinchisida yomg'irdan rangi o'chib ketgan qog'oz gulchambar ushlagancha, loy kechib, tobut ortidan borishardi. Ular haligacha polkovnik Aureliano Buendiya nomi bilan atalib keladigan ko'chadan xuddi arvohlardek o'tishardi. Nogahon ular, xuddi buyruq

olgandek, polkovnikning uyi tomon yuz burishdi, so‘ng uydan uzoqlashib, maydonga chiqishdi. Bu yerda ular marosim ishtirokchilaridan yordam so‘rashga majbur bo‘lishdi, chunki dafn aravasi loyga botib qolgandi. Ursula Santa Sofiya de la Pyedadga, meni eshik oldiga eltinglar, deb iltimos qildi. U marosim ishtirokchilariga shu qadar diqqat bilan tikilardiki, odamlar kampir hamma narsani yaqqol ko‘ryapti, degan xayolga borishdi.

– Alvido, Xerineldo, o‘g‘lim! – deb qichqirdi Ursula. – Jigarimga duoyimni yetkaz, aytki, biz havo ochilgan kuni, albatta, uchrashamiz.

Aureliano Ikkinchi katta buvisini yana o‘rniga eltdi. So‘ng odatdagidek beandishalik bilan, boyagi gapingizdan muddao ne, deb so‘radi.

– Bor gapni aytdim-da, – deb javob qildi Ursula. – Yomg‘ir to‘xtashi bilan bu olamdan ketaman.

Ko‘chalarni bosgan balchiq Aureliano Ikkinchini bezovta qila boshladi. Garchand, kechikib bo‘lsa-da, mol-holini o‘ylab tashvishlandi va yelkasiga brezent yopganicha, Petra Kotesnikiga yo‘l oldi. Petra Kotes hovli sahnida beli barobar suv kechib, harom qotgan otning o‘ligini joyidan qo‘zg‘atishga urinardi. Aureliano Ikkinchi qo‘liga xoda olib yordamlashdi. Otning shishib ketgan bahaybat tanasi bir chayqaldi-da, loyqa suvda oqib ketdi. Petra Kotes yomg‘ir boshlanganidan buyon hovlisini mol o‘ligidan tozalash bilan band edi. U dastlabki haftalarda Aureliano Ikkinchiga ofatga qarshi biror chora-tadbir ko‘rish kerak, degan mazmunda xatlar yo‘lladi. Ammo u shoshilishga hech qanday hojat yo‘qligi, ishlari yomon emasligi, yomg‘ir to‘xtashi bilanoq, albatta, biror narsa o‘ylab topishini aytdi. Keyin Petra Kotes

yaylovlarini suv bosgani, mollari toqqa qochayotgani, u yerda hech qanday yegulik yo‘qligi, aksincha, ularning o‘zini yaguar va epidemiya nobud etayotganini ma’lum qildi. «Tashvishlanma, – javob berdi unga Aureliano Ikkinchi, – baribir molsiz qolmaymiz, faqat yomg‘ir tinsa bo‘lgani». Petra Kotesning ko‘z o‘ngida o‘nlab hayvonlar halok bo‘lar, u ba’zilarini zo‘rg‘a halollab qolardi. U ilgari Makondoda eng katta va ishonchli bo‘lgan, hozirda faqat qo‘lansa hidi qolayotgan boyligi – mollari toshqin tomonidan yemirilayotganini chor-nochor kuzatardi. Nihoyat, Aureliano Ikkinchi u yerda nimalar bo‘layotganidan xabar olgani borganida, nimjon xachir va vayrona otxonada yotgan otning o‘ligini uchratdi. Petra Kotes jazmanini ko‘rganida na hayratlandi, na quvondi va na jahli chiqdi, kinoyali jilmayib qo‘ydi, xolos.

– Xush kelibdilar! – dedi Petra Kotes.

Ayol qarib, eti suyagiga yopishib ketgan, bodom ko‘zlarida benihoya ma’yuslik va taqdirga tan bergani ko‘rinib turardi. Aureliano Ikkinchi tag‘in yelkasiga brezent yopinib yurishdan eringani bois, Petra Kotesnikida uch oy qolib ketdi. «Qayergayam shoshilaman, – derdi xuddi Ursulaga o‘xshab. – Havoning ochilishiga ham ozgina qoldi». U Petra Kotesning so‘lg‘inligiga birinchi haftadayoq ko‘nikib qoldi. Vaqt va yomg‘ir uning go‘zalligiga sezilarli ta’sir o‘tkazgan edi. Ammo Aureliano Ikkinchi unga bora-bora go‘yo ilgarigi Petra Kotes deb qaraydigan bo‘ldi, ilgarigi tentakliklarini, mollarning beomon ko‘payishiga sabab bo‘lgan sevgilarini esladi. Ikkinchi haftaning tunlaridan birida, qisman istak va qisman tamagirlik ta’sirida, Petra Kotesni erkalatibroq turdi. Lekin

ayol loqayd edi. «Tinchgina uxlang, – to‘ng‘illadi u, – hozir tentaklik qiladigan vaqt emas». Shu payt Aureliano Ikkinchi shiftdagi ko‘zgularda o‘zini va Petra Kotesning so‘lg‘in aksini ko‘rdi-yu, ayolning haqligini tushundi. Angladiki, vaqt hech o‘zgarmagan, lekin ularning o‘zlari endi shirin tentakliklarga yaramay qolishgan edi.

Birgina Ursula emas, balki butun Makondo ahli ham yomg‘irning tinishini o‘lishlari uchun kutishayotganiga ishongan Aureliano Ikkinchi Fernandaning uyiga sandiqlarini ko‘tarib keldi. U ko‘chalardan o‘tarkan, ko‘zlari murdalarnikidek qotib qolgan odamlarni ko‘rdi. Ular qo‘llarini qovushtirgancha derazalari oldida o‘tirib, vaqtning yaxlit, bo‘ysunmas, tartibsiz oqimini butun vujudlari bilan his qilishardi. Yomg‘irga tikilishdan bo‘lak ishlari qolmagani uchun ham vaqtni oy va yillarga, kun-u soatlarga bo‘lish befoyda edi. Bolalar Aureliano Ikkinchini quvona-quvona kutib olishdi. Endi u bolalarni eskirib qolgan, ovozi zo‘rg‘a chiqadigan akkordeoni bilan ovuta boshladi. Lekin Buendialarning kenja avlodiga ingliz ensiklonediyasidagi rasmlarni ko‘rish ko‘proq yoqardi. Aureliano Ikkinchining tasavvuri dirijabli tasvirini bulutlar orasidan o‘ziga boshpana qidirayotgan filga aylantirardi. Boshqa varaqda chavandozning rasmi bor edi. Kiyimi g‘ayrioddiy bo‘lishiga qaramay, suvoriy juda tanish tuyilardi; rasmni boshidan-oxirigacha o‘rganib chiqqan Aureliano Ikkinchi, bu polkovnik Aureliano Buendia, degan xulosaga keldi. Rasmni xotiniga ko‘rsatdi, Fernanda chavandoz nafaqat polkovnikka, balki barcha Buendialarga o‘xshab

ketarkan, dedi. Aslida esa u rasmda tatar jangchisi tasvirlangan edi. Xotini uylarida atigi olti kilo tuzlangan go‘sht-u bir qop guruch qolganini aytgunicha, Aureliano Ikkinchi o‘z vaqtini Rodoskiy haykallari va ilon o‘rgatuvchilar o‘rtasida beg‘alvagina o‘tkazardi.

– Xo‘sh, mendan nima istaysan? – so‘radi u.

– Bilmayman, – javob berdi Fernanda. – Bu – erkaklarning ishi.

– Yaxshi, – dedi Aureliano Ikkinchi, – yomg‘ir tinsin, biror narsa o‘ylab toparman.

Tushlikka atigi bir bo‘lak go‘sht bilan bir chimdim guruch tegsa-da, u ensiklopediyani qo‘ldan qo‘ymasdi. «Hozircha karam sho‘rva qilib bo‘lmaydi, – dedi u, lekin yomg‘ir ham mangu yog‘maydi-ku». Aureliano Ikkinchi ro‘zg‘or g‘amini yemay qo‘ygani sayin Fernandaning g‘azabi ortardi. Uning g‘alvalari ertalab gitaraning yo‘g‘on torlari chalgan kuy kabi zerikarli ohangda boshlanar, kechasi yorqin ranglarga chulg‘anib, eng yuqori pardalarga ko‘tarilardi. Dastlab Aureliano Ikkinchi xotiniga e’tibor bermadi, ammo ertasiga nonushtadan so‘ng yomg‘ir shovqinidan ham battar to‘ng‘illash joniga tegdi. Fernanda, garchand, qirolichalardek tarbiya ko‘rgan bo‘lsa-da, bu jinni xonadonning cho‘risiga aylanib qolganidan, puf desa uchib ketadigan bu uyni odam qilaman deb ertadan-kechgacha qora terga botib yurgan bir paytlarda nuqul karavotda ag‘anab yotadigan dangasa, imonsiz va buzuqi erining ustidan nolirdi: ya’niki, har safar uxlashdan oldin ko‘zlari qum tiqilganday achishadi, ertalab hech kimsa undan hol-ahvol so‘ramaydi, ochig‘ini aytganda, uni bu oila a’zolari issiq qozonni ushlaydigan kir

lattachalik koʻrmaydi, bu oiladan hech qachon marhamat kutmagan. Hamma uni gʻiybat qiladi: munofiq, riyokor, mugʻombir deb atashadi, hatto bir kuni joyi jannatda boʻlgur Amaranta hammaning oldida, Fernanda orqa teshik bilan roʻzaning farqiga bormaydi, degan edi. Mayli, bunisiyam mayli, bechora Fernanda Xudoning izmiga boʻysunib, barchasiga chidadi, lekin endi sabr kosasi toʻlib toshdi, chunki bir marta ablah Xose Arkadio Ikkinchi, uyimizga yubkali hokimiyatparastni olib kelgani uchun ham oilamiz nobud boʻlyapti, deb aytdi. Tasavvur qiling-a, yubka kiygan hokimiyatparast kachakoni, jinsi ayol kachakoni, hukumat ishchilarni oʻldirishga yuborgan kachakolardan birini aytganday boʻldi, lekin u ablah aslida gertsog Albaning choʻqintirgan qizini, hattoki prezidentlarning xotinlari hasad qiladigan, taniqli avlodga mansub, qoni toza, oʻn bitta ispancha ism-sharif ostida imzo chekish huquqi berilgan, bu nokas shaharda ilk oʻn olti odamga moʻljallangan stol tuzgan yakka-yu yagona fuqaroni, ya'niki, Fernandani nazarda tutdi. Suyuqoyoq er esa kulgidan ichaklari uzilib, buncha koʻp qoshigʻ-u sanchqining, pichogʻ-u choyqoshiqlarning biz nasroniylarga nima keragi bor, ular balki qirqoyoqlar bazmiga yarab qolar, dedi. Aslida esa, kulgili joyi yoʻq edi, negaki bu yerda qachon oq va qachon qizil may tortilishiga, qaysi yoʻl bilan va qaysi qadahga quyilishini Amaranta, oq may kunduzi, qizili kechasi ichiladi, deb yuradigan oʻsha marhuma Amaranta emas, balki Fernanda biladi, yolgʻiz ugina tilla tuvakka yozilishi bilan faxrlanishi mumkin. Goʻringda tikka turgur polkovnik Aureliano Bu-

endia esa uni mazax qildi, tuzukroq qaranglar, tag‘in kelinimizning najasi gul emasmikan, deb aytdi. Hatto o‘z qizi Renata bir kuni yotoqda uni uyalmay-netmay kuzatib, so‘ngra boshqalarga, tuvak tilladan, ammo ichidagisi oddiy najosat, eng oddiy najas, hatto oddiydan ham oddiyroq, shunchaki, kachakoning najasi, deb aytdi. O‘zi tuqqan shunday dedi, buyam mayli, u hech kimdan najot kutmay qo‘ydi, ammo eridan zarracha bo‘lsa-da, hurmat talab qilishga haqi bor-ku, axir Aureliano Ikkinchi uning mahrami, yagona homiysi edi-ku, lekin bu to‘nka er uni diqqinafas do‘zaxga boshlab keldi. Ro‘za paytida eri bilan yotishdan iymangani bahona er degani yupqaga o‘rab tashlasa it ham qaramaydigan bir suyuqoyoq ayolnikiga jo‘nadi. O‘sha baytalining korsonini ko‘rgan zahotiyoq kimligini bilib olasan, o‘sha bilan solishtirsa, shohona saroyda ham, molxonada ham, dasturxon atrofida ham, to‘shakda ham, qonunparast, itoatgo‘y va jabrdiyda o‘rtasida osmon bilan yercha farq bor. Fernandaning, donya Renata Argote va naq avliyo, haqiqiy nasroniy, «Muqaddas maqbara» ordeni nishondori don Fernando dol Karpioning yakka-yu yagona sevimli qizlari Fernandaga, Xudoning qudrati tufayli hech qachon mozorda chirimaydigan, terilari o‘lganlarida ham kelinchaklarning atlas ko‘ylagi kabi silliq va toza turadigan, ko‘zlari hamisha yoqutday nur sochaveradigan ulug‘ zotlarning tirnog‘i bo‘lmish Fernandani xo‘rlashga hech kimning haddi sig‘maydi.

– Sal oshirib yubording, – deya uning gapini bo‘ldi Aureliano Ikkinchi, – otangning jasadini olib kelishganda ancha hidlanib qolgan edi.

U Fernandaning gaplaridan ayni shu xatoni topguncha uning diydiyosini kun bo‘yi tishini-tishiga qo‘yib eshitdi. Fernanda savolga javob bermadi, lekin ovozini sal-pal pasaytirdi. Kechki ovqatdan keyin xotinining diydiyosi yana kuchayib, ko‘chada quyib yotgan jala shovqinini bosib ketdi. Aureliano Ikkinchi ko‘zini yerdan uzmadi, ozgina tamaddi qildi-yu, yotog‘iga juda erta ketdi. Ertasiga nonushta paytida Fernandaning a’zoyi badani titrar, uning kechasi bilan mijja qoqmagani bilinib turardi. Ammo endi o‘tmish xotiralari unga azob bermayotgandek tuyilardi. Lekin eri qaynatilgan tuxum bormi, deb so‘raganida, u tuxum o‘tgan haftada tamom bo‘ldi, degan oddiy gap bilan cheklanmasdan, vaqtini o‘zining isqirt kindigiga mahliyo bo‘lish bilan o‘tkazib, so‘ngra dasturxonga to‘rg‘ayning qovurilgan jigarini olib kelishni talab qilishga or qilmaydigan erkaklarga qarata achchiq nutq so‘zladi. Aureliano Ikkinchi odatdagidek bolalarni to‘plab, birgalikda ensiklopediyasidagi rasmlarni ko‘rishga tushdi. Fernanda go‘yoki Memening yotoqxonasini yig‘ishtira boshladi, aslida esa u bir narsani – qo‘lidan bechora, begunoh bolalarga ensiklopediyadagi rasm polkovnik Aureliano Buendianing rasmi ekanini uqtirishdan boshqa hech vaqo kelmaydigan, oxirgi uyatini yo‘qotgan eri barcha gaplarini eshitishini istardi. Kunduzi peshin mahali, bolalar uxlab qolishganida Aureliano Ikkinchi peshayvonga chiqib o‘tirdi, lekin Fernanda uni o‘sha yerdayam topib oldi, ustidan rosa masxaralab kuldi, atrofida so‘nadek g‘o‘ng‘illab aylandi. U xushqomat erchasi uyida to yegani tosh qolguniga qadar xuddi eron shohidek yomg‘irga

tikilib o‘tiraverishi, chunki u dangasa, tekinxo‘r pastkash, landavur ekanini, xotini evaziga yashashga ko‘nikib qolganini va nuqul gap bilan qornini to‘ydiruvchi ayolga uylandim, deb o‘ylashini uqtirdi. Aureliano Ikkinchi xotinini indamay xuddi kardek rosa ikki soat eshitdi, butun ta’na-yu malomatlarini kechgacha tingladi. Axiri sabr kosasi to‘ldi, shekilli, Fernandaning gaplari miyasida xuddi do‘mbira sadosidek yangrayverdi.

– Xudo haqi, ovozingni o‘chir! – deb baqirdi u xotiniga.

Fernanda bunga javoban ovozini battar balandlatib:

– O‘chirmayman! – dedi. – Gaplarim kimga yoqmasa, bu yerdan chiqib ketsin!

Shundan so‘ng Aureliano Ikkinchi o‘zini tuta olmadi. U go‘yo kerishmoqchi bo‘lgandek asta o‘rnidan turdi va sovuq bir g‘azab bilan begoniya, qirqqulog‘-u boshqa gullar o‘sgan tuvaklarni birin-ketin polga uloqtirib, chil-chil sindirdi. Fernanda qo‘rqib ketdi. U o‘zining asabiy javrashi bu qadar ulkan kuchli ta’sir qilishini o‘ylamagan, murosa-yu madora uchun fursat qolmagan edi. Nogahoniy ozodlikdan mast bo‘lgan Aureliano Ikkinchi oynaband javondagi idishlarni oldi va shoshmasdan polga irg‘ita boshladi. U bir vaqtlar uyining devorlariga qog‘oz pullar yopishtirgani kabi, xotirjam va jiddiy bir qiyofada, qimmatbaho billur idishlarni, qo‘lda ishlov berilgan vazalarni, atirgullar to‘ldirilgan kema ichidagi qizlar tasvirlangan suratlarni, tilla suvi yuritilgan ko‘zgularni, xullas, uydagi sinishi mumkin bo‘lgan barcha buyumlarni devorga ura boshladi. Eng oxirida

qo‘lida oshxonada turgan kattakon sopol ko‘za ilindi. Ko‘za sindi-yu, xuddi portlagan bombadek hovliga sochilib ketdi. Nihoyat, Aureliano Ikkinchi qo‘lini yuvdi, yelkasiga brezentini tashlab ko‘chaga chiqdi-da, tun yarimlay deganda tuzlangan go‘sht, guruch, makka va picha banan solingan qoplarni olib keldi. Shu-shu, ro‘zg‘ori oziq-ovqatdan zoriqmaydigan bo‘ldi.

Amaranta Ursula bilan kichik Aureliano yomg‘irli kun va yillarni hayotlaridagi eng baxtli paytlar deb eslashardi. Fernandaning taqiqlariga qaramay, ular hovlidagi ko‘lmaklar bo‘ylab kezishar, kaltakesak ushlab, ularni tilka-pora qilishar, kapalaklarning qanotidan olishgan changni Santa Sofiya de la Pyedaddan yashirincha sho‘rvaga solib, go‘yo ovqatni zaharlagan bo‘lishardi. Ammo ularning eng ajoyib o‘yinchog‘i Ursula edi. Bolalar u bilan xuddi kattakon to‘zigan qo‘g‘irchoqdek muomala qilishar, burchakdan burchakka yetaklab, rangli lattalar bilan bezashar, yuziga qorakuya surtishardi. Bir kuni qurbaqaning ko‘zlarini o‘yishgani kabi bechora kampirning ko‘zlarini bog‘bon qaychisi bilan o‘yib olishlariga sal qoldi. Ular, ayniqsa, kampir alahlaganda xursand bo‘lishardi. Yog‘ingarchilikniig uchinchi yilida Ursulaning miyasi ayniy boshladi chog‘i, endi bugungi kunni uzoq o‘tmish bilan chalkashtira boshladi. U yuz yilcha ilgari dafn etilgan katta buvisi Petrolina Iguaraining o‘limi munosabati bilan uch kun to‘xtamay yig‘ladi. Kenja Aurelianoni o‘sha muz parchasini tomosha qilishga borgan o‘g‘li Aureliano bilan adashtirib yubordi, kichik Xose Arkadioni esa o‘zining lo‘lilar bilan qochib ketgan to‘ng‘ichi bilan almashtirdi. Ursula oila

tarixini shu qadar ko‘p so‘zlardiki, natijada o‘yinqaroqlik qilib, bechora kampirning allaqachon olamdan o‘tgan qarindosh-urug‘larini «mehmon»ga olib kelishardi. Sochlariga kul sepilgani-yu ko‘zi qizil latta bilan bog‘laganiga qaramay, Ursulaning quvonchi ichiga sig‘masdi. Nazarida bolalar batafsil tasvirlab berishgan qarindoshlari orasida o‘tirganday bo‘lardi. Ursula bobosining bobosi ham tug‘ilmagan paytlardan oldinroq sodir bo‘lgan voqealar haqida so‘rar, ular keltirishgan yangiliklar bilan juda-juda qiziqar, olamdan o‘tgan qarindoshlarini eslab, suhbatdoshlariga qo‘shilib yig‘i-sig‘i qilardi. Ursulaning urush paytida avliyo Yusufning bahaybat gips haykalini olib kelib, to yomg‘ir tinguncha turib tursin degan odamning kimligini o‘jarlik bilan so‘rab-surishtirishiga darrov uydagilar e’tibor berishdi. Shunda Aureliano Ikkinchi yolg‘iz Ursulagina biladigan yashirin xazina borligini esladi, ammo uning hiylalari hech qanday samara bermadi. Garchand, Ursula alahlab, odamlar-u voqealarni qorishtirsa-da, bu sirini ochmaslikka yetarli es-hushini saqlab qolgan edi. Kampir o‘sha oltinning haqiqiy egasi ekanini isbotlab beroladigan odamgagina ishonishi mumkin edi. Ursula shu qadar puxta va sabotli ediki, bir kuni Aureliano Ikkinchi o‘zining sobiq hamtovoqlaridan birini xazina egasi sifatida boshlab kelganida, birpasda da’vogarning kimligini fosh etib tashladi.

Ursula o‘sha sirni o‘zi bilan narigi dunyoga olib ketishiga qattiq ishongach, Aureliano Ikkinchi oqava suvga ariq qazdirish bahonasida yer qazuvchilarni boshlab keldi va ularga qo‘shilib, hamma joyni ilma-teshik qilib yubordi, lekin

holdan toydiradigan darajadagi uch oylik qidirishlar behuda ketdi. Shundan keyin u Pilar Terneradan fol ko‘rishni iltimos qildi, lekin folbin qartalarni Ursula chiylab bersagina haqiqat ayon bo‘ladi, deb tushuntirdi. Folbin ayol xazina mavjudligini tan oldi, aytishicha, xazina og‘zi mis sim bilan bog‘langan qopga solingan yetti ming ikki yuz-u o‘n to‘rtta oltin tangadan iborat bo‘lib, ular Ursulaning karavotidan bir yuz-u yigirma ikki metrli radiusli doira uzoqlikda ko‘mib qo‘yilgan ekan. Pilar Ternera to yomg‘ir tinib, uch yoz fasli o‘tib, botqoqliklar quyoshda qurib bitmagunicha xazinani qo‘lga kiritib bo‘lmasligini ogohlantirdi. Ursulaning karavotidan hovli devorigacha bo‘lgan masofaning rosa bir yuz-u yigirma ikki metr chiqqani Aureliano Ikkinchini taajjubga soldi va hatto, o‘yga toldirdi. Fernanda Aureliano Ikkinchining xonalarini o‘lchayotganini va yer kovlovchilarga ariqni yana bir metr chuqurlashtirishga ko‘rsatma berganini ko‘rib, erim ham egizak ukasi kabi aqldan ozgan bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. Katta bobosidek qidiruv bezgagiga mubtalo bo‘lgan Aureliano Ikkinchi ozib-to‘zib, ukasiga o‘xshab qoldi; endi u Xose Arkadio Ikkinchiga nafaqat oriqligi va yonoqlarining turtib chiqqanligi, balki qarashining parishonligi-yu, allaqanday g‘aribnamoligi bilan ham o‘xshab ketardi. U bolalarga ortiq e’tibor bermay qo‘ydi. Boshdan-oyog‘igacha loyga botib yurar, oshxonaning bir burchagiga tiqilib, apil-tapil ovqatlanar, onasi Santa Sofiya de la Pyedadning savollariga zo‘rg‘a javob qaytarardi. Aureliano Ikkinchi xotini hatto tasavvur ham qilmagan g‘ayrat bilan ishlardiki, buni ko‘rgan Fernanda undagi

qiziqqonlikni mehnatsevarlikka, boylikka tashnaligini fidokorlikka, o‘jarligini esa tirishqoqlikka yo‘ydi; erini tanballikdan xalos qilmoqchi bo‘lib andishasiz zahar sochganlarini eslab, vijdoni qiynala boshladi. Ammo Aureliano Ikkinchi Fernandaning yarashishga shay turganini sezmasdi. Shox-shabbalar va chirigan gullardan iborat, naq tomog‘igacha keladigan botqoqda tik turganicha bog‘ni kovlardi, u endi ichki va tashqi hovlilarni kovlab bo‘lgan, sharqiy peshayvonning poydevorini shu qadar chuqur qazigan ediki, bir tun uydagilar qayerdadir yer ostida sodir bo‘lgan silkinish va dahshatli tovushdan uyg‘onib ketishdi. Avvaliga zilzila deb o‘ylashdi, aslida esa uydagi uchta xonaning poli cho‘kib ketgan, peshayvon polida hosil bo‘lgan katta yoriq esa to Fernandaning yotog‘igacha cho‘zilgandi. Aureliano Ikkinchi o‘shanda ham qidiruvdan voz kechmadi. Garchand, umidlari so‘nganiga qaramay, bo‘shab qolgan poydevorni mustahkamlashdi, yoriqni qorishma bilan to‘ldirdi va ishni g‘arb tomonga ko‘chirdi. Yanagi yil iyun oyining yomg‘ir susaya boshlagan ikkinchi haftasida ham Aureliano Ikkinchi hovlining kunbotar tarafini kovlab yotardi. Bulutlar siyraklashdi, hammada bugun-erta havo ochilib ketadi, degan umid uyg‘ondi. Shunday bo‘ldi ham, juma kuni kunduz soat ikkida quyosh ko‘rinish berdi. U misoli pishiq g‘isht kabi qizil va dag‘al, misoli suvdek shaffof edi. O‘sha kundan boshlab, o‘n yil davomida bir tomchiyam yomg‘ir yog‘madi.

Makondo xarobazorga aylangan edi. Ko‘chalar shilta bo‘lib ketgan. Ko‘lmaklarda bu yerga qanday tez kelgan bo‘lsa, shunday tez daf bo‘lgan

ajnabiylar qoldirib ketgan jihoz qoldiqlari mog‘or bosib yotardi. Banan bezgagi paytida yashin tezligida qurilgan uylar huvullab qolgandi. Banan kompaniyasi arzigulik mol-mulkini tashib ketgan, uning temir panjara bilan o‘ralgan qo‘rg‘oni o‘rnida tog‘-tog‘ axlatlar yotardi. Salqin ayvonida kechalari qarta o‘ynaladigan yog‘och uylarni go‘yo bir necha yillardan so‘ng Makondoni yer yuzidan supurib tashlaydigan dahshatli bo‘ronga zamin hozirlagan shamollar uchirib ketgandek edi. Bu yerda qachonlardir odamlar yashaganini isbotlovchi birdan bir dalil Patritsiya Braun avtomobilda unutib qoldirgan, ustiga gul chekilgan qo‘lqop edi, xolos. Bir zamonlar Xose Arkadio Buendia tomonidan o‘rganilgan va keyinchalik banan plantatsiyalari paydo bo‘lgan yayloq dalalar endi u yer-bu yerida chirik to‘nkalar yotgan botqoqlikka aylangan bo‘lib, ularning narigi ufqida necha yillar davomida kulrang bir dengiz sassiz ko‘pirib yotdi. Birinchi yakshanbada shaharda nima gapligini bilish uchun ko‘chaga chiqqan Aureliano Ikkinchi dovdirab qoldi. Yomg‘irdan so‘ng tirik qolganlar – ular Makondoga banan bezgagi qoplamasdan ilgari ko‘chib ketganlar edi – ko‘chaning o‘rtasida o‘tirib, badanlarini oftobga tutishardi. Hali ularning terisida suv o‘tiga xos yashil tusini, yog‘in kezida o‘rnashgan mog‘or hidini hamon saqlab qolgan edi, lekin ona shaharlari yana o‘zlarining ixtiyorida ekanini anglaganlari bois, yuzlarida quvnoq tabassum aks etardi. Turklar ko‘chasi eski ahvoliga qaytgan – oyoqlariga shippak kiyib, quloqlariga og‘ir temir sirg‘a taqib, qo‘lbola buyumlarini to‘tiqushlarga almashtirgancha jahon kezgan va nihoyat, ming yillik dar-

badarlikdan so‘ng Makondodan boshpana topgan arablar davriga qaytgan edi. Do‘konlardagi mollar chirib ketgan, peshtaxtalarni yog‘ochxo‘r chumolilar ilma-teshik qilib yuborgan, devorlar nurab tushgan edi, ammo arablarning uchinchi avlodi vakillari hamon ota-bobolarining joylarida o‘tirishar, ular kamso‘z, beparvo, na vaqtga, na tabiiy ofatlarga bo‘ysunuvchi odamlar bo‘lib, uyqusizlik kasali yoki polkovnik Aureliano Buendianing o‘ttiz ikki jangidan keyingi paytlardagi kabi tirik va balki o‘lik edilar. Arablarning qimor stollari, soyabonli stollari, merganlik tiri qoldiqlari hamda tushlar ta’bir qilinib, kelajak fol ko‘riladigan tor ko‘chaning vayronasi orasida o‘z matonatini saqlab qolganlari Aureliano Ikkinchini shu qadar taajjubga tushirdiki, odatdagiday beandishalik bilan, bu to‘fonda qanday qilib cho‘kmay qoldinglar, axir, suv yutib o‘lish hech gap emas-ku, deb so‘radi. U ayni savolini eshikma-eshik yurib takrorlar va hamma joyda ayyorona tabassum, xayolchan nigohlarga duch kelar, hamma joyda bir xil:

– Biz suzishni bilardik, – degan javobni eshitardi.

Makondo ahli o‘rtasida birgina Petra Kotes arablarday yuragi tosh bo‘lib chiqdi. Ko‘z oldida molxona-yu otxonalarning devorlari qulab tushsa-da, u o‘zini xotirjam saqlab, uyidagi tartibning buzilishiga yo‘l qo‘ymasdi. Yomg‘irning so‘nggi yili u Aureliano Ikkinchini uyiga xat orqali bir necha bor chaqirtirdi. Jazmani esa, garchand aniq kunini bilmasa-da, baribir qaytib borajagini, borganda ham naq bir qop tilla ko‘tarib borajagini va shu barobar Petra Kotesning yotog‘ini tillaga

ko‘mib tashlamoqchi ekanini ma’lum qildi. Petra Kotes yuragidan bu achchiq qismatga dosh beradigan kuch izladi-yu, muttasil qahr – haqqoniy, sovuq bir qahr topdi; o‘ynashi va yog‘ingarchilik tufayli yo‘qotilgan oromini qayta tiklashga ont ichdi. Uning qarori shu qadar qat’iy ediki, Aureliano Ikkinchi oxirgi xatni olganidan so‘ng sakkiz oyni o‘tkazib unikiga kelganida, zahil yuz, sochlari to‘zg‘igan, ko‘zlari ich-ichiga botib ketgan, terisi yara-chaqaga to‘lib-toshgan Petra Kotes qog‘oz parchalariga raqam yozib, ularni lotereya chiptasiga aylantirardi. Aureliano Ikkinchi ayol qarshisida tong qotib turar, shu qadar oriq, shu qadar sertakalluf ediki, Petra Kotes unga qarab, axir bu xushtorim emas, balki egizak ukasiga o‘xshaydi-ya, deb o‘yladi.

– Aqldan ozdingmi? – dedi Aureliano Ikkinchi. – Lotereyaga balo bormi? Endi unga o‘lgan mol-holning suyagini tikasanmi?

Shunda ma’shuqasi uni yotog‘iga olib kirdi va Aureliano Ikkinchi u yerda turgan xachirni ko‘rdi. Xachir bekasi kabi oriq bo‘lib, eti ustuxonga yopishgan, lekin bekasiga o‘xshab dadil va harakatchan edi. Petra Kotes uni o‘zining qahri bilan boqqan edi. Uyda na o‘t, na makkajo‘xori va na o‘t-o‘lanlarning tomiri qolganida xachirni yotog‘iga olib kirib, uning qornini choyshab, eron gilamlari, duxoba ko‘rpa, baxmal pardalar, odatda arxiyepiskoplar yopinadigan, zardo‘zi shokila bilan bezalgan ko‘rpa g‘ilofi bilan to‘ydirgan edi.

* * *

Ursula va'dasiga vafo qilib, yog'in tingani zahotiyoq o'lish uchun ancha mehnat qildi. Atirgullarni nobud qilgan, barcha botqoqliklarni toshga aylantirgan, Makondoning zang bosgan tunuka tomlarini-yu, yuz yillik bodom daraxtlarini issiq tuproqqa ko'mib ketgan garmsel turgan avgust oyida kampirning ongi sal-pal ravshanlashdi. Ursula uch yil davomida bolalarga o'yinchoq bo'lganini anglab, o'ziga rahmi kelib, rosa yig'ladi. U yuzidagi qorakuya izlarini yuvib tashladi, ust-boshiga osilgan latta-luttalarni, quritilgan kaltakesak va qurbaqalarni, turli taqinchoqlarni uloqtirdi va Amarantaning o'limidan keyin birinchi marta birovning yordamisiz, oila hayotiga yana aralashishga tayyor holda to'shakdan o'zi turdi. Zulmatda yo'l topib yurishda unga sarkash yuragi ko'maklashardi. Harakatdagi ishonchsizlikni payqagan odamlar zaiflashib qolgan Ursulaga rahmlari kelardi, ammo hech kim uning chippa ko'r ekanini xayoliga keltirmasdi... Ursula ko'r edi, lekin ko'rligi unga o'zi ekib parvarish qilgan gulzor yomg'irdan yuvilib ketganini va u yerni Aureliano Ikkinchi kovlab tashlaganini, uyning devori-yu pollari yorilganini, jihozning shalog'i chiqib, rangi o'chganini, eshiklar oshiq-moshiqlardan sug'urilgani-yu, oilada yangi, notanish bir itoatgo'ylik hamda g'amginlik ruhi paydo bo'lganini payqashga monelik qilolmasdi. Paypaslay-paypaslay bo'm-bo'sh yotoqxonalarga kirgan Ursula taxtalarni kemirayotgan chumolilarning betinim g'o'ng'illashini, kiyim javonlaridagi kuyalarning shitirlashini, yog'in-

garchilik paytida paydo bo‘lib, uning poydevorini ilma-teshik qilib yuborgan sariq qumursqalarning shovqinini eshitdi. Bir kuni u kiyim-bosh solingan sandiqni ochishi bilanoq, Santa Sofiya de la Pyedadni yordamga chaqirishga majbur bo‘ldi, chunki sandiqdan son-sanoqsiz suvaraklar otilib chiqdi. Barcha kiyimlar kukunga aylangan edi. «Bunday qarovsiz joyda yashab bo‘lmaydi, – dedi u. – Bu yaramaslar bir kuni o‘zimizni ham yeb qo‘yishadi». Shu kundan boshlab, Ursula tinchini yo‘qotdi. Saharmardondan uyg‘onib, hammani, hatto bolalarni ham ko‘makka chaqirardi. Omon qolgan yaroqli kiyimlar-u ko‘rpa-to‘shakni oftobga yoydi, suvaraklarni dori sepib haydadi, eshik va deraza romiga o‘tgan chumolilarni qirib tashladi, uyalariga so‘ndirilmagan ohak tiqib, ustidan suv quydi. Hamma narsani qayta tiklash ishtiyoqida kuyib-yonayotgan Ursula, uyning eng xilvat burchaklarigacha yetib bordi. Xose Arkadio Buendia hikmat toshini qidiraverib, miyasi achib ketgan xonani axlat-u qo‘lansa hididan aritdi, askarlar ostin-ustin qilib yuborgan zargarlik ustaxonasini tartibga keltirdi va nihoyat, Melkiadesning xonasini tekshirib ko‘rish niyatida kalit berishlarini so‘radi. Xose Arkadio Ikkinchi o‘lmaguncha xonaga hech kimni qo‘ymaslikka ont ichgan Santa Sofiya de la Pyedad turli nayranglar qo‘llab, Ursulani bu niyatidan qaytarishga urindi. Ammo uyning barcha xonalaridagi hasharotlarni o‘ldirishga qat’iy ahd qilgan kampir hech ko‘nmadi, axiri uch kundan so‘ng Melkiadesning xonasini ochishdi. Dimog‘iga urilgan badbo‘y hiddan yiqilib ketayozgan Ursula eshik yondorini zo‘rg‘a

tutib qoldi, ammo ikki soniya o‘tar-o‘tmas, xonada Memening maktabdosh dugonalariga atalgan yetmish ikkita tuvak saqlangani-yu, yomg‘irli bir tunda askarlar Xose Arkadio Ikkinchini qidirib, butun uyni titib tashlashgan bo‘lsa-da, uni baribir topolmagani yodiga tushdi.

Xose Arkadio Ikkinchi xonada o‘tirgancha, qo‘lyozmalarni tahlil qilardi. Butun yuzini qoplagan uzun soch-soqoli orasidan esa yashil tus olgan tishlari-yu, qotib qolganga o‘xshash ko‘zlari ko‘rinardi, xolos.

– Voy Xudoyim-ey! – deb qichqirdi Ursula xuddi ko‘zlari sog‘ odamdek. – Seni ozodalikka o‘rgatish uchun ozmuncha kuch sarflovdimmi, cho‘chqadan battar iflos bo‘lib ketibsan-ku!

Katta buvisini tovushidan tanigan Xose Arkadio Ikkinchi boshini eshik tomon burdi, jilmayishga harakat qildi va Ursula qachonlardir aytgan gapni o‘zi sezmagan holda takrorladi:

– Siz nima deb o‘ylovdingiz? – deya to‘ng‘illadi u. – Vaqt o‘tyapti-ku, axir.

– Rost-a, – dedi Ursula murosaga kelib, – lekin baribir, insof ham kerak-da.

Shunda u o‘limga mahkum etilganlar kamerasida o‘tirgan polkovnik Aureliano Buendia ham o‘ziga ayni javobni qaytarganini eslab, vaqtning o‘tishidan kelajakka qarab emas, balki doira bo‘ylab harakat qilishi haqidagi fikrdan yana cho‘chib ketdi. Lekin Ursula bu safar ham bo‘sh kelmadi. U Xose Arkadio Ikkinchini xuddi yosh boladek urishdi, soqolini oldirtirdi, yuvintirdi va to‘zib ketgan katta ro‘zg‘orni tiklashda yordam berishini talab qildi. Xose Arkadio Ikkinchi ixtiyoriy mahbuslikka ko‘nikib qolganidan-

mi, o‘zi tinchlik va orom topgan xonani tashlab ketishni o‘ylab, dahshatga tushdi. Uni xonadan chiqarishga qodir birorta kuch yo‘q edi, chunki u murdalar ortilgan ikki yuz vagonli poyezdning har kuni kechqurun Makondodan dengizga yo‘l olishini ko‘rishni istamasdi. «U yerda stansiyada to‘plangan hamma odam bor edi! Uch ming to‘rt yuz-u sakkiz nafar odam!» – deb baqirdi u. Shundagina Ursula chevarasi ko‘rlik dunyosidan ham battarroq bir zulmat ichida, xuddi katta bobosi kabi, bu dunyoni tamom unutib, bir o‘zi, yolg‘izdan ham yolg‘iz bir ahvolda, hududsiz tanholik olamida yashayotganini tushundi. U Xose Arkadio Ikkinchini tinch qoldirdi, ammo uning xonasi eshigidagi osma qulfni oldirib tashladi, xonani har kuni yig‘ishtirishga, bittagina tuvakni qoldirib, qolganlarini chiqarib tashlashga va mahbusning katta bobosini kashtan ostida qanday ozoda saqlashgan bo‘lsa, uni ham shunday ozoda asrashga ko‘rsatma berdi. Fernanda Ursulaning xatti-harakatlarini oldiniga galdagi jinnilik xuruji deb o‘ylab, g‘azabdan o‘zini zo‘rg‘a tutardi. Ammo birdan Rimdan xat kelib qoldi – kenja Xose Arkadio muqaddas ont oldidan Makondoga bormoqchi ekanligini xabar qildi. Xushxabar Fernandani shunchalar quvontirib yubordiki, avlod-ajdodlari maskani o‘g‘lida yomon taassurot qoldirmasligi uchun uyni yig‘ishtirishga va gullarga kuniga to‘rt martadan suv quyishga kirishdi. U peshayvonga qirqquloq jambilli guldonlarni, begoniya ekilgan tuvaklarni, ularni Aureliano Ikkinchi jini qo‘ziganda nobud qilganidan Ursula xabar topmasdan burun peshayvonga qo‘yib chiqdi va tabibi g‘ayblar bilan yozishmasini qay-

ta tikladi. Kumush idish-tovoqlarni sotib, o‘rniga sopol va qalay idishlar xarid qildi, shundan so‘ng doimo eng asil va eng qimmatbaho chinni-yu billur idishlar turadigan javon g‘arib bir tusga kirdi. Ammo Ursulaga bular kamlik qilardi. «Deraza va eshiklarni ochishsin, – deb qichqirardi u. – Go‘sht va baliq qovurishsin, eng katta toshbaqalarni sotib olishsin, yana ajnabiylar kelib, bo‘yralarini to‘shasin, shundoq atirgullarni nobud qilsin, istagancha ovqatlanishsin, mayli, qusaversin, so‘kinsin, xullas, ko‘ngilga siqqanini qilaversin, balki o‘shanda qashshoqlikni cho‘chitish mumkin bo‘lardi». Lekin Ursulaning gaplari xom xayol edi. U juda qarib qolgan, oshini oshab, yoshini yashagan va endilikda xo‘rozqand yasashga quvvati yetmas, avlodlariga esa uning matonati nasib etmagan edi.

Sandiqlarini yana Petra Kotesning uyiga qaytarib olib borgan Aureliano Ikkinchining mablag‘i oilani ochdan o‘ldirmaslikka yetardi, xolos. Yutug‘iga xachir tikilgan lotereya chiptalaridan tushgan daromadga Petra Kotes ikkovi bir-ikkita mol sotib olib, eski ishlarini zo‘rg‘a tiklashdi. Aureliano Ikkinchi uyma-uy yurib chipta sotar, lotereya diqqatni tortsin deya, shaxsan o‘zi har parcha qog‘ozni turli rangdagi siyohlar bilan bo‘yab chiqardi. Birovlar chiptalarni minnatdorchilik hissi tufayli, boshqalar esa rahmi kelganidan xarid qilayotganini u hatto payqamasdi ham. Ammo eng rahmdil xaridorlar ham chipta bilan birga yigirma sentavoga qo‘y yoki o‘ttiz ikki sentavoga buzoq yutish umidini ham o‘ylab, sotib olishardi. Bu umid shunday hayajonga solardiki, har seshanba kuni kechqurun Petra Kotesning

hovlisi kichkina bir bola qopdagi baxtli raqamni tortib chiqaradigan baxtli onlar ilinjida kelgan odamlarga to‘lib ketardi. Bu yig‘inlar haftalik yarmarkaga aylanar – kech kira boshlagach, hovliga soyabonli stollar-u ichkilik sotadigan do‘koncha o‘rnatilardi. Ko‘pchilik baxtli chipta egalari yutuqqa chiqqan qo‘y-u buzoqlarni, kimdir musiqachilarni taklif etadi, boshqa birov ichkilik sotib oladi, degan shart bilan umum qozoniga qurbon qilishardi. Aureliano Ikkinchi beixtiyor yana akkordeonini olib, mechkaylik bellashuvida ishtirok etardi. Bu o‘tmishdagi bazmlarga g‘aribona taqlid edi, xolos. Aureliano Ikkinchi mechkay Filni bellashuvga chaqirganida vazni bir yuz-u yigirma kilo kelardi, hozir esa yetmish sakkiz kiloga tushib qolgandi. Bir zamonlar ichkilikdan shishib, naq toshbaqaning tumshug‘iga o‘xshab qolgan yuzi cho‘zilib, iguananing tumshug‘idek ingichka tortgan, qiyofasida behad ma’yuslik va charchoq aks etardi. Petra Kotes Aureliano Ikkinchini har qachongidan ham qattiqroq sevardi. Ularning ko‘pkari ko‘raverib, shalog‘i chiqqan karavotlari endilikda osoyishta suhbat maskaniga aylangan edi. Oshiqlarning har bir harakatini aks ettirgan ko‘zgular sotilib, o‘rniga lotereyaga tikiladigan turli uy hayvonlari xarid qilindi. Qonni ko‘pirtirguvchi choyshablar-u duxoba ko‘rpalarni xachir chaynab tashlagan edi. Sobiq xushtorlarning oldin o‘pichlarga sarf bo‘ladigan kuchlari endilikda kundalik yumushlar yakuni va lotereyadan tushgan sentavolarni sanashga ketardi. Ular ba’zan ertalabgacha pullarni uyumlarga ajratishib, tangalarni u uyumdan bunisiga o‘tkazishardi. Hisob-kitob aniq bo‘lishi shart edi:

bu uyumdagi pullar Fernandaning xarajatlariga, narigisi Amaranta Ursulaga poyabzal olishga, unisi necha yillardan beri yangi ko‘ylak kiymagan Santa Sofiya de la Pyedadga, bunisi – mabodo Ursula olamdan o‘tsa, tobut buyurtmasiga, boshqasi narxi har uch oyda bir sentavoga oshayotgan qahva xaridiga, unisi – qandga, anavisi – o‘tinga, narigisi – lotereya chiptalari tayyorlashda ishlatiladigan qog‘oz va rangli siyohlarga atalgan edi. Qolaversa, bu pullar aprel oyida sotilgan lotereya chiptalarining pullarini egalariga qaytarib berishga ham yetishi kerak edi, negaki, lotereyaga tikilgan buzoq kuydirgi kasaliga chalingan ekan. Ularning yeb-ichishi ham juda kamtarin edi. Aureliano Ikkinchi bilan Petra Kotes Fernandaga ko‘proq pul berishardi. Vijdonlari qiynalib yoki rahmlari kelib emas, balki Fernandaning yashashini o‘zlarinikidan ham afzal ko‘rgani uchun ham shunday qilishardi. Ochig‘ini aytganda, ko‘ngillarining tub-tubida ular ikkovi ham Fernandani o‘zlari tusagan-u, lekin Xudo bermagan qizlari, deb hisoblashardi. Bu gal Fernandaga qimmatbaho dasturxon olib berishga yetarli pul to‘plash uchun uch kun davomida faqat jo‘xori bo‘tqasini yeyishdi. Ammo ular jonlarini qanchalik jabborga berishmasin, pul topishmasin, qanaqangi nayranglar ishlatishmasin, baribir biri ikki bo‘lmas, pullari hayotlarini tebratishga zo‘rg‘a yetardi va hamisha ertalabgacha u yoki bu narsa xarid qilish uchun tanga uyumlari yasashib, ularni anchagacha sanashar, so‘ng uxlashmaganidan kunduzlari azob chekishar va o‘zlaricha o‘zlari dunyoda nimalar bo‘lyapti, nega mollar oldingidek bolalamaydi, nega pullar o‘z

qiymatini yo‘qotyapti, nega yaqindagina qo‘llariga sham o‘rnida yondirilgan qog‘oz pullarni tutib kumbiamba raqsiga tushganlar naq oltita tovuq tikilgan lotereya o‘yinida qatnashish uchun atigi o‘n ikki sentavo so‘rashganida, kuppa-kunduzi odamlarni talashyapti deb jar solishardi, deya savol berishardi. Aureliano Ikkinchining o‘ylashicha, garchand u bu haqida hech qachon, hech kimga, hech narsa demagan bo‘lsa-da, ushbu balo-yu ofatlar ildizi Petra Kotesning sirli yuragida edi. Go‘yo yog‘ingarchilik mavsumida uning yuragida nedir o‘zgarish bo‘lgan, shu bois mollarning urchishi to‘xtagan, pullar esa suvdek oqadigan bo‘lib qolgan edi. Aureliano Ikkinchi mahbubasining qalbiga juda chuqur razm soldi, avvaliga yolg‘iz tama vajidan Petra Kotesning ehtirosini qo‘zg‘atishga urindi va oqibatda o‘zi unga oshiq bo‘lib qoldi.

Aureliano Ikkinchining mehri tobora ortayotganini sezgan Petra Kotes ham uni qattiqroq sevdi. U umri xazonrez fasliga yuz tutgan chog‘da «qashshoqlik bor joyda muhabbat ham bo‘ladi» degan maqolga bolalarcha beg‘uborlik bilan ishonib qoldi. Endi ular mo‘l-ko‘lchilik oshib-toshgan o‘sha bema’ni bazmlarni, tiyiqsiz sho‘xliklarini uyat va o‘kinch bilan xotirlashdi va, nihoyat, ikkovi uchun yolg‘izlik jannatini juda katta mashaqqatlar bilan qo‘lga kiritishganidan hasrat qilishdi. Shuncha yillik behuda muloqotlardan so‘ng bir-biriga chuqur ehtiros bilan oshiq bo‘lib qolishgan Aureliano Ikkinchi bilan Petra Kotes bir-birlarini faqat to‘shakda emas, balki dasturxon atrofida ham shu qadar seva olish mumkinligini kashf etishgan bo‘lib, bu ixtirodan cheksiz lazzatlanishardi.

Charchashlariga, keksayib qolganlariga qaramasdan, quyonlardek sho‘xlik qilishni va bir-birini itdek g‘ajishni davom ettirishardi.

Lotereyadan tushadigan pullar hech ko‘paymasdi. Dastlabki vaqtlarda o‘zining ilgari mollarning savdo sotig‘i bilan shug‘ullanuvchi eski idorasiga haftada uch kun berkinib, lotereyalarga tikilgan hayvon-u parrandalar – qizil sigir, zangori cho‘chqa, tovuqlarning rasmini qo‘lidan kelgunicha chizardi va Petra Kotesning xohishi bilan «Ilohiy taqdir» deb atagan o‘z korxonalarining nomini chiptalarning ostiga nihoyatda tirishib, katta-katta harflar bilan yozib chiqardi. Keyinchalik unga haftasiga ikki mingdan ziyod chipta tayyorlashga to‘g‘ri keldi va shu qadar charchadiki, oxiri lotereyaning nomi hamda raqami bitilgan, hayvon va parrandalarning rasmi aks ettirilgan rezina tamg‘a tayyorlatdi. Ana shundan buyon uning ishi o‘sha tamg‘alarga turli ranglardagi siyohlar surkab, uni qog‘oz parchalariga chiroyli qilib bosishdan iborat bo‘lib qoldi. Aureliano Ikkinchi umrining so‘nggi yillarida lotereya chiptalaridagi raqamlarni topishmoqlar bilan almashtirib, yutuqlarni ana shu topishmoqlarni topganlarga bo‘lib beradigan bo‘ldi, ammo bu usul juda murakkab edi, shuningdek, bir qator shubhalargayam yo‘l ochib berardiki, shu sababli ikkinchi gal topishmoqli lotereyalarni yana raqamlariga almashtirdi.

Aureliano Ikkinchi erta tongdanoq lotereya savdosiga kirishar, bolalardan xabar olishga vaqti ham qolmasdi. Fernanda Amaranta Ursulani odatda yiliga olti nafar o‘quvchi oladigan xususiy maktabga berdi, ammo kichkina Aurelianoga

shahar maktabiga qatnashi uchun ruxsat bermadi. Uning uyda bemalol yurishga ruxsat olgani ham katta gap edi. Ustiga-ustak, o‘shanda maktabga katolik nikohida bo‘lgan ota-onalardan tug‘ilgan qonuniy bolalargina qabul qilinardi. Aurelianoni savatga solib keltirishgan, savatda uning emizik va tashlandiq bola ekani qayd etilgan guvohnoma bor edi. Shunday qilib, Santa Sofiya de la Pyedad hamda ongi ravshanlashgan paytdagi Ursulaning iliq nazorati ostida bo‘lgan Aureliano hamon xilvatda umr kechirar, uyning devorlari bilan cheklangan tor dunyoni o‘rganish va ikkala kampirning hikoyalari bilan cheklanardi. U xushmuomalali, obro‘talab, qiziqqon bola edi, savol beraverib, kattalarni hol-joniga qo‘ymas, ammo uning nigohi polkovnikning ana shu yoshidagi kabi o‘tkir va bashoratomuz emas, aksincha, allaqanday parishonxotirlik bilan boqardi. Amaranta Ursula maktabda o‘qiyotgan bir paytda, Aureliano bog‘ida chuvalchang qidirar, hasharotlarga azob berardi. Bir kuni Ursulaning to‘shagiga qo‘yib yuborish uchun qutichaga chayon terib yurganida uni Fernanda tutib oldi va Memening sobiq yotoqxonasiga qamab qo‘ydi. Aureliano u yerda ensiklopediyadagi rasmlarni ko‘zdan kechirar, yolg‘izlikdan qutulish yo‘llarini o‘ylardi. Qo‘lidagi bir bog‘ qichitqi o‘t bilan devorlarga shudring suvini purkab yurgan Ursula bolaga o‘sha joyda duch keldi, u avvallari ham necha bor uchrashganiga qaramay, Aurelianodan kimligini so‘radi.

– Men Aureliano Buendiaman, – dedi bola.

– To‘g‘ri, – dedi Ursula. – Sen endi zargarlikni o‘rganaversang ham bo‘ladi.

U yana bolani o‘g‘li polkovnik Aureliano bilan adashtirdi, chunki jala tugab, Ursulaning zehnini sal-pal ravshanlashtirgan garmsel tingan edi. Kampirning aqli yana xira torta boshladi. U yotoqxonaga kirganida har safar qarindoshlarini: serhasham kripolin[1] kiyib, yelkasiga kiborlar bazmiga mos shol ro‘molini tashlab olgan Petronila Iguaranni, tovus patidan qilgan yelpig‘ich tutib, tebranma kursida o‘tirgan falaj buvisi Trankilina Mariya Miniata Alokoke Bueidiani, vitse-qirol gvardiyachilari libosini kiygan katta buvasi Aureliano Arkadio Buendiani, duo zo‘ri bilan so‘na tuxumini quritib yuborgan otasi Aureliano Iguaran, otasining onasi, cho‘chqa dumi bilan tug‘ilgan jiyani, eri Xose Arkadio Buendia va uning marhum o‘g‘illarini uchratardi. Marhumlar devor yonidagi kursilarda xuddi motam tutgandek g‘amgin o‘tirishardi. Ursula ular bilan turfa mavzularda qizg‘in suhbat qurardi. Maktabidan qaytgan Amaranta Ursula bilan ensiklopediya me’dasiga tekkan Aureliano yotoqxonaga kirishganlarida ko‘pincha Ursula karavotda o‘tirguncha, xotirotning dunyosida tentirab, o‘zi bilan o‘zi baralla gaplashayotgan bo‘lardi. Bir kuni u «yonayapti!» degan dahshatli qichqiriq bilan butun uyni oyoqqa turg‘azdi. Keyin ma’lum bo‘ldiki, kampir to‘rt yasharligida otxonalari yonib ketganini eslagan ekan. Ursula bo‘lib o‘tgan voqealar bilan hozirgilarini shu qadar qorishtirardiki, o‘limidan oldingi uch-to‘rt daqiqalik ravshanlanish paytidagi gaplaridan qay biri xotirasiga, qay biri hozirgi davrga taalluqli ekanini hech kim anglolmasdi. Uning jismi asta-sekin qurib-qovji-

[1] Kripolin – o‘rta asrlarda urfga kirgan yubka.

rab borardi, go‘yo tiriklayin murdaga aylanardi. Umrining oxirgi oylarida Ursulaning vujudi bir burda bo‘lib, mudom tepaga ko‘tarib yuradigan qo‘li esa maymunning panjasiga o‘xshab qoldi. Ba’zida kun-u tun qimir etmay yotardi. Shunday paytlari Santa Sofiya de la Pyedad kampirning tirikligiga ishonch hosil qilish uchun uni silkitib ko‘rar, so‘ng tizzasiga olib, choyqoshiqda shirin suv ichirardi. Ursula chaqaloq kampirga o‘xshardi. Amaranta Ursula bilan Aureliano uni qo‘llarida ko‘tarib yurishar va uning go‘dak Isodan sal vazminroq ekanini isbotlash uchun atay mehrobga qo‘yishardi; bir kuni kechqurun qaznoqdagi javonga berkitib qo‘yishganlarida, Ursulani kalamushlar yeb qo‘yishiga oz qoldi. Fernanda pasxadan bir hafta oldingi ibodatga ketganida bolalar yotoqxonaga kirib, Ursulaning boshi va to‘pig‘idan ushlab ko‘rishdi.

– Katta buvimning bechora buvisi, – dedi Amaranta Ursula, – u qarilikdan o‘libdi.

Ursula seskanib tushdi.

– Men tirikman! – e’tiroz bildirdi u.

– Ko‘rayapsanmi, – dedi Amaranta Ursula, o‘zini kulgidan zo‘rg‘a to‘xtatib, – hatto nafas ham olmayapti.

– Men gapirayapman-ku! – qichqirdi Ursula.

– Hatto gapirmayaptiyam, – dedi Aureliano. – Qora chigirtkaday o‘lib qolibdi.

Shunda Ursula oshkora haqiqatni tan oldi. «Xudoyim-ey! – sekin pichirladi u. – O‘lim deganlari shu ekan-da». U ikki kun davomida uzundan uzoq duo o‘qidi, seshanba kuni esa duosiga amaliy maslahatlar omixta bo‘lib ketdi: sariq chumolilarni qirib tashlanglar, yo‘qsa uy qulab

tushishi mumkin; Remedios rasmi ostidagi chiroq o‘chmasligi kerak. Buendialarning birortasi ham qarindoshiga uylanmasligi lozim, aks holda cho‘chqa dumli bolalar tug‘iladi. Aureliano Ikkinchi Ursulaning alahlashidan foydalanib, xazina yashirilgan joyni bilib olishga rosa urindi, ammo harakatlari zoye ketdi. «Qachonki Xudo yorlaqagur egasi kelsa topadi, – dedi Ursula, – faqat ugina topadi». Santa Sofiya de la Pyedad Ursulaning yaqin orada o‘lishiga ishondi. Chunki shu kunlarda allaqanday g‘aroyib voqealar sodir bo‘la boshladi: deylik, atirgullardan yavshan hidi anqir, likopchadan yerga to‘kilgan loviya donalari o‘z-o‘zidan dengiz yulduzi shaklida tizilardi. Bir oqshom esa osmondan gala-gala sarg‘ish halqalar uchib o‘tdi.

Ursula payshanba kuni ertalab soat to‘rtda ko‘z yumdi. Marhuma oxirgi marta qarindosh-urug‘lari yordamida o‘z yoshini aniqlashga uringanida hali banan kompaniyasi tugatilmagan edi. O‘shanda Ursula, bir yuz-u o‘n beshdan oshganim aniq, ammo hali bir yuz-u yigirma ikkiga kirganimcha yo‘q, deb aytgan edi. Uni chaqaloq Aurelianoni solib kelishgan savatdan sal kattaroq tobutda ko‘mishdi; dafn marosimida uncha ko‘p odam bo‘lmadi. Buning sababi, birinchidan ko‘pchilikning Ursulani unutib yuborganida, ikkinchidan, chidab bo‘lmas jazirama edi: o‘sha kuni choshgohda havo shu qadar qizib ketgandiki, qushlar o‘z yo‘nalishlarini yo‘qotib, o‘zlarini devorga yoki derazadagi temir to‘rlarga urib nobud bo‘lishardi.

Dastlab, qushlar o‘latga chalinibdi, deb o‘ylashdi. Uy bekalari xonalarni qush o‘ligidan

tozalayverib joni xalqumiga kelardi. Jonivorlar, ayniqsa, peshingi hordiq paytida ko‘plab o‘lardi. Erkaklar qush o‘liklarini aravalarga joylab, daryoga eltib tashlashardi. Zindayi Maseh kuni yuz yoshli padre Antonio Isabel cherkov minbaridan turib, O‘lmas juhud qushlarga o‘lat balosini yubordi, u dajjolni o‘tgan kecha o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, deb aytdi. Padrening aytishicha,O‘lmas juhud take bilan Xudosiz bir ayolning zurriyodi ekan, uning nafasi havoni o‘tdek qizdirib yuboradi, ul do‘zaxini ko‘rishning o‘ziyoq ayollarni valadi zinolarni tug‘ish jazosiga mustahiq etadi... Padrening matalini deyarli hech kim jiddiy qabul qilmadi, negaki yuzdan nari hatlagan hazratning allaqachon aqldan ozgani butun shahar ahliga ayon edi. Lekin chorshanba kuni erta tongda ayol kishining dahshatli baqirig‘i shaharni oyoqqa turg‘izdi. Ayol noma’lum ikki oyoqli hayvonning ayri tuyog‘i izlarini ko‘rib qolgandi, izlar shu qadar aniq va ravshan ediki, uning egasi o‘sha ruhoniy ta’riflagan dahshatli mavjudot ekaniga zarracha shubha qolmadi. Odamlar hovlilariga tuzoqlar qo‘yishdi. Oradan sal o‘tmay bir sirli kelgindi qo‘lga tushdi. Ursulaning o‘limidan so‘ng ikki hafta o‘tgach, Petra Kotes bilan Aureliano Ikkinchini yarim kechasi qo‘shni hovlidan eshitilgan novvoscha ovoziga o‘xshash vahimali yig‘i uyg‘otdi. Ular uydan yugurib chiqishganlarida, bir to‘da erkaklar maxluqni usti quruq shox-shabba bilan niqoblangan xandaq tubidagi o‘tkir qoziqlardan tortib chiqarishardi. Maxluq boshqa bo‘kirmadi. Garchand, jussasi kichik bo‘lsada, vazni kattagina – ho‘kiznikidan qolishmasdi, yarasidan yashil rangli, yopishqoq qon oqardi.

Tanasi kana-yu eski chandiqlarga to‘lib-toshgan dag‘al jun bilan qoplangan maxluq ruhoniy aytgan do‘zax balosiga o‘xshamas, aksincha, ba’zi a’zolari odamga ham o‘xshab ketardi; aniqrog‘i, u odamni emas, kasalmand farishtani eslatardi, qo‘llari oppoq o‘ta nozik, ko‘zlari g‘amgin va katta-katta edi, har ikkala kurak suyagida to‘mtoq, chandiqli qoldiqlari ko‘rinib turar, aftidan uning baquvvat qanotlari o‘tinchining boltasi bilan kesib tashlangan edi. Jasadni hamma ko‘rsin deb, bodom daraxtiga to‘pig‘idan osib qo‘yishdi, sasiy boshlaganidan keyin gulxanda yoqib yuborishdi, chunki murda daryoga tashlab yuborilishi kerak bo‘lgan hayvonga yoki dafnga munosib nasroniyga tegishlimi – buni hech aniqlab bo‘lmasdi. Shuningdek, qushlarning qirilishiga rostdan ham u sababchi edimi – buni ham bilisholmadi. Ammo birorta ham kelinchak ruhoniy aytgan valadi zino tug‘madi, jazirama issiq ham pasaymadi.

Yilning oxirida Rebeka olamdan o‘tdi. Uning sodiq xizmatkori Arzenida hukumat vakillariga uch kun ilgari bekasi berkinib olgan yotoqxona eshigini buzishlarini so‘rab murojaat qildi. Eshikni buzishganda, temiratkidan sochlari to‘kilib ketgan Rebeka katta barmog‘ini og‘ziga solib, o‘zining g‘aribona to‘shagida changak bo‘lib yotardi. Aureliano Ikkinchi dafn marosimini o‘z gardaniga oldi. Uyni birorta odamga sotish niyatida tuzattirmoqchi bo‘ldi, ammo bu binoga vayronalik ruhi judayam chuqur singgan: devorlarni bo‘yash bilanoq tag‘in yorilib ketar, ohakning eng qalin qatlami ham pollar orasidagi zararkunanda o‘tlarning o‘sishiga xalaqit berolmas, chirmoviqlar beomon ravishda

bo‘g‘izlashayotgan tirgovichlar esa chirib tugagandi.

Yomg‘ir tingan paytda Makondoda hayot ana shu tarzda kechardi. Odamlar g‘oyat lanj va tanbal bo‘lib qoldilar. Ularning xotirasi juda susayib ketdi. Neerland bitimining navbatdagi yubileyi munosabati bilan polkovnik Aureliano Buendia necha marta rad etgan ordenni uning avlodlariga topshirish uchun respublika prezidenti Makondoga o‘z vakillarini yubordi. Vakillar polkovnikning zot-zurriyodini axtarib, kechgacha ovora bo‘lishdi. Aureliano Ikkinchi ordenni sof tilladan qilingan deb o‘ylab, olishga rozi bo‘ldi. Prezident vakillari mukofotni tantanali topshirish marosimi uchun orkestr yollab, nutqlar tayyorlab qo‘yishgan bo‘lsa-da, Petra Kotes: «Bu qilig‘ing nomunosib», – deganidan so‘ng Aureliano Ikkinchi avvalgi fikridan qaytdi. Xuddi shu asnoda Makondoga lo‘lilar – Melkiades ta’limotining so‘nggi targ‘ibotchilari kelishdi. Ular tashlandiq shaharni, uning ovsar odamlarini ko‘rib, tag‘in qo‘lda ohanrabo parchalarini tutgancha, uyma-uy yurib, ularni Bobil olimlarining eng so‘nggi ixtirosi, deb e’lon qilishdi. Yana kattakon zarrabinni namoyish etishdi. Ohangrabo ta’sirida idish-tovoqlarning qimirlashini ko‘rib, ko‘pchilik odamlarning og‘izlari ochilib qoldi. Lo‘li qizning og‘zidagi sun’iy jag‘ini olib, yana joyiga qo‘yishini ko‘rish uchun ellik sentavo to‘laganlar ham anchagina edi. Kimsasiz va yuksiz bir necha vagonni zo‘rg‘a sudrab kelayotgan shalog‘i chiqqan poyezd huvullab yotgan stansiyada ora-sira to‘xtab o‘tardi. Avvallari janob Braunning shisha tomli, bejirim o‘rindiqli vagoni tirkalguvchi, doimo

yo‘lovchilar bilan limo-lim poyezddan, to kechgacha stansiyaga galma-gal kelib turadigan bir yuz-u yigirmatacha vagon sovutgichdan iborat meva tashuvchi tarkibdan shugina qolgan edi, xolos. Padre Antonio Isabelning qushlarga qiron keltirgan o‘lat va O‘lmas juhudning o‘ldirilgani haqidagi g‘alati xabarini tekshirib ko‘rish uchun Makondoga sud amaldorlari keldi. Ular mo‘tabar padrening bolalar bilan bekinmachoq o‘ynayotganini ko‘rishdi. Xullas, padrening xabari e’tiborsiz qoldi va uning o‘zi jinnixonaga topshirildi. Bir necha kundan so‘ng shaharga padre Augusto Anxel keldi. U yangilikka intiluvchan ruhoniylardan bo‘lib, murosasiz, dovyurak va hatto, qo‘pol edi, padre dindorlar ruhini ko‘tarish va g‘ofil bandalarni uyg‘otib, ibodatga chorlashi uchun kuniga bir necha marta qo‘ng‘iroq chaldi. Ammo bir yil o‘tar-o‘tmas padre Augusto Anxel mag‘lubiyatini tan oldi: shahar ahli ibodat qilishdan ko‘ra, tuzukroq ovqatlanishni, so‘ng bemalol cho‘zilib yotishni afzal ko‘rardi.

Ursulaning o‘limidan so‘ng uy tashlandiq bo‘lib qoldi. Oradan ko‘p yillar o‘tgach, dinsiz, xushchaqchaq, zamonaviy ayol bo‘lib yetishgan, xarobalik ruhini cho‘chitib yuborish uchun eshik va derazalarni lang ochgan, bog‘ni qayta tiklagan, hatto kuppa-kunduz kuni yo‘laklar bo‘ylab bezbetlarcha o‘rmalagan sariq chumolilarni qirib tashlagan va Buendialar maskanidagi so‘nib qolgan mehmondorchilik ruhini tiklamoqchi bo‘lgan keskin va irodali Amaranta ham uyni bu g‘ariblikdan qutqara olmadi. Fernandaning uzlatchilik ehtirosi Ursulaning jo‘shqin yuz yillik yo‘liga g‘ov bo‘lib tushdi. Garmsel tinganida Fernanda na-

faqat eshiklarni ochtirishdan bosh tortdi, balki ota-onasining maslahatiga binoan, o‘zini tiriklay ko‘mish uchun derazalarga yog‘och butlar qoqishni buyurdi. Uning tabibi g‘ayblar bilan yozishmalari hech qanday natija bermasdi. Axiri, ularning xatlarida belgilangan kun yotog‘iga kirib, eshikni ichidan berkitib oldi, boshini shimolga qaratib to‘shakka yotdi va oppoq choyshabga o‘raldi; kechasi soat birda yuziga muzday latta bosishganini his qildi. Uyg‘onganida derazadan quyosh nurlari yog‘ilardi. U badanida chotidan boshlanib, to ko‘krak suyagigacha cho‘zilgan yoysimon chandiqni ko‘rdi. Fernanda tabibi g‘ayblardan hali jarrohlikdan so‘nggi dam olish muddati tugamasdanoq noxush maktub olgandi. Xatda u olti soat davomida obdan tekshirilganligi, lekin tanasida nomi bir necha marta takrorlangan kasallikni qo‘zg‘ovchi hech qanday belgi topisha olmaganligi aytilgan edi. Narsalarni o‘z nomi bilan atamaslik odati Fernandani yana bir karra dog‘da qoldirdi, chunki jarroh-telepatlar unda faqat yagona kasallik – bachadonning pastga tushganini aniqlashgan bo‘lib, bu dardni jarrohlik yo‘li bilan emas, balki oddiy bandaj yordamida davolash mumkin edi. Fernandaning hafsalasi pir bo‘lib, tabibi g‘ayblardan aniqroq izoh talab qildi, ammo tabiblar uning xatlariga javob bermay qo‘yishdi. Notanish «bandaj» so‘zining zalvari ezib tashlagan Fernanda uyatni yig‘ishtirib, shahardagi fransuz shifokoridan so‘rab bilmoqchi bo‘ldi, lekin fransuz uch oy ilgari og‘ilxonada o‘zini o‘zi osib o‘ldirgan, urush veteranlaridan biri, polkovnik Aureliano Buendianing eski quroldosh do‘sti xalqning istagiga qarshi borib, uni

qabristonga dafn etgan ekan. Shunda Fernanda Xose Arkadiodan ko‘mak so‘radi va o‘g‘li Rimdan onasiga bandaj, undan qanday foydalanish haqida qo‘llanma yubordi. Fernanda yozuvlarni yodlab, xastaligini oshkor etmasligi uchun qo‘llanmani hojatxonaga tashlab yubordi. Bu o‘rinsiz ehtiyotkorlik edi, chunki xonadon ahli Fernandaga mutlaqo e’tibor bermay qo‘ygan edi. Santa Sofiya de la Pyedad qarigan edi. U butun oila a’zolari uchun ovqat tayyorlab, qolgan vaqtini esa Xose Arkadio Ikkinchiga bag‘ishlardi. Go‘zal Remediosning jozibasini qisman meros qilib olgan Amaranta Ursula esa, ilgarilari Ursulani qiynashga ketadigan vaqtini endi dars tayyorlashga sarflardi. Aureliano Ikkinchining qizi o‘tkir aql alomatlarini namoyish eta boshladi. Qolaversa, u juda tirishqoq edi. Ayni xislatlari otasining qalbida ilgari Meme uyg‘otgan umidni yana jonlantirib yubordi. U qiziga, banan kompaniyasi davrida rasm bo‘lgan odatga muvofiq, Bryusselga o‘qishga yuboraman, deb so‘z berdi. Bu orzu Aureliano Ikkinchini uzluksiz toshqin yeb bitirgan dalalarni qayta o‘zlashtirishga majbur qildi. U uyga juda kam, o‘shanda ham qizalog‘ini ko‘rgani kelar, xotini Fernandaga mutlaqo begona bo‘lib qolgan edi. Kichik Aureliano esa voyaga yetgani sayin odamovi bo‘lib borardi. Chamasi, yolg‘izlikni yoqtirib qolgan va ostonadan hatto bir qadam hatlab, tashqi dunyoni o‘rganishga zarracha qiziqmasdi. Ursula Melkiadesning xonasini ochtirganida, Aureliano tirqishdan qaragancha yonida aylanardi. Uning Xose Arkadio Ikkinchi bilan qanday tanishgani va qay tariqa do‘stlashib qolgani noma’lum edi. Aureliano Ikkinchi bu do‘stlikdan kenja Au-

reliano stansiyadagi qirg‘inbarot haqida gap ochganda voqif bo‘ldi. Bir kuni ovqat payti kimdir, banan kompaniyasi Makondodan bekorga ketdi, ketdi-yu, shahar tushkunlikka tusha boshladi, deb afsuslandi. Bola bu bahsga qo‘shildi. Uning o‘z fikrlarini aniq ifoda qila olishi, ya’ni balog‘atga yetganligi sezilib turardi. Bolaning bu masalaga qarashi boshqalarnikidan keskin farq qilardi. Aurelianoning fikricha, banan kompaniyasining ishchilarga yon bosishini istamagan muhandislar to‘g‘ri yo‘ldan yurmagani, uni talon-taroj qilmaguncha Makondo gurkirab yashayotgan hamda kelajagi porloq shahar bo‘lgan. Bola shunchalar oqilona gapirardiki, Fernandaning nazarida bu Isoni masxaralagandek tuyilardi. Aureliano stansiyaga to‘plangan uch mingdan ziyod odamni pulemyotlardan otishganlarini, ularning jasadini ikki yuzta vagondan iborat tarkibga qay tarzda ortishgani va dengizga qanday qilib tashlanganini aniq va ishonchli tafsilotlar bilan so‘zlab berdi. Fernanda ham ko‘pchilik kabi, o‘sha kuni go‘yo stansiyada hech narsa sodir bo‘lmadi, degan rasmiy xabarga ishonardi. U nevarasi polkovnik Aureliano Buendianing sarkashligini meros qilib olganini o‘ylab, dahshatga tushdi, unga: «Ovozingni o‘chir!» – deb qichqirdi. Aureliano Ikkinchi esa, aksincha, egizak ukasining hikoyasi rost ekanini ta’kidladi. Hamma jinniga chiqarib qo‘ygan Xose Arkadio Ikkinchi aslida oiladagi eng aqlli odam edi. U kenja Aurelianoga o‘qish-yozishni o‘rgatdi, qo‘lyozmalarni o‘rganishga jalb etdi va muhimi, Makondoga banan kompaniyasi keltirgan ofatlar haqida o‘z shaxsiy fikrlarini uqtira oldi; bu fikr tarixchilar ta’kidlagan va darsliklarga bitilgan

uydirma rivoyatlardan tubdan farq qilgani uchun ham, oradan ancha yillar o‘tib, Aureliano ulg‘ayib hayotga aralashganida, bu hikoyalariga hech kim ishonmasligi tayin. Na garmsel, na chang va na jazirama kira oladigan xilvat xonada ikkovi o‘tirarkan, soyaboni qarg‘aning qanotiga o‘xshagan shlyapa kiyib olgan, ular tug‘ilmasdan ancha ilgari shu yerda, derazaga orqasini tutib, koinot haqida hikoyalar so‘zlab bergan qariyaning sharpasini eslashdi. Ular bu xonada mart oyi hamda dushanba kunlari mangu turishini baravar anglashdi va oila a’zolari Xose Arkadio Buendiani nega jinni atab yanglishganlarini ham fahmlashdi. Ha, vaqt ham halokatga uchrashi, shu bois, uning bir parchasi xonalardan biriga tushib, xuddi toshqin selning bir bo‘lagi ko‘lmakda qolib ketgani kabi to‘xtab qolishi mumkin edi. Bundan tashqari, Xose Arkadio Ikkinchi qo‘lyozmalarning kriptografik belgilarini turkumlarga ajratib, shu asosda jadval tuzishga muvaffaq bo‘ldi. U Melkiadesning chiroyli husnixatida yozilgan, kichkina qandala-yu o‘rgimchakkanalarga o‘xshash yozuvi qirq yettidan ellik uchtagacha harfi bor alifboga mos kelishiga ishonch hosil qildi. Shunga monand alifboni ingliz ensiklopediyasida ko‘rganini esladi-yu, taqqoslash uchun o‘sha kitobni olib keldi. Jadvallar haqiqatda bir xil edi.

Aureliano Ikkinchi ilgari, jumboqli lotereya tashkil etgan paytlari, har kuni ertalab tomog‘ini nimadir qisayotganini sezardi, go‘yoki o‘sha joyda ko‘z yoshi tiqilib qolgandek edi. Petra Kotes buni vaqtinchalik bir kasallik deb o‘yladi va yarim oy davomida jazmanining tanglayiga tish cho‘tkasi yordamida asal hamda sholg‘om suvini surtdi.

Tomog‘idagi shish yiriklashib, nafas olishi qiyinlashib qolganida, Aureliano Ikkinchi dardga qarshi biror chora bor-yo‘qligini bilish uchun Pilar Terneraning qoshiga bordi. Ammo yuz yoshini yashirin islovatxona bekasi lavozimida dadil kutib olgan buvisi hanuz tibbiyotni xurofot deb bilar, shu bois qarta foliga murojaat qilardi. Foliga tomog‘iga qarg‘a valet qilichi qadalgan tappon qirol chiqdi. Pilar Ternera Fernanda erini siyqasi chiqqan usul, ya’ni uning rasmiga ninalar sanchib, uyga qaytarmoqchi bo‘layotganini, ammo afsungarlikda yetarli malakasi bo‘lmagani sababli, Aureliano Ikkinchining tomog‘idagi shish bilan cheklanganini aytdi. Lekin Aureliano Ikkinchi oilaviy albomlarida bus-butun saqlanayotgan, to‘yda tushirilgan rasmidan boshqa birortayam surati yo‘qligini esladi. Xotindan yashirincha butun uyni tintib ko‘rdi va kiyim javonidan antiqa qilib o‘ralgan bir necha dona bandaj topib oldi. Bu qizil rezinkalar jodu bo‘lsa kerak, deb o‘yladi-da, birinchi cho‘ntagiga tiqib, Pilar Terneraga olib bordi. Folbin bandajning ne maqsadda qo‘llanilganini aniqlay olmadi, lekin bu matoh unga shu qadar shubhali tuyildiki, Aureliano Ikkinchiga qolganlarini ham olib kelishni buyurdi, so‘ng hovlida gulxan yoqib, ularni har ehtimolga qarshi kuydirib yubordi. Fernanda o‘qitgan duo Aureliano Ikkinchiga biror zarar yetkazmasligi uchun Pilar Ternera bitta kurk tovuq sotib ol, ustiga peshobingni sepib, keyin tovuqni kashtan ostiga tiriklayin ko‘mib yubor, deb tayinladi. Aureliano uning aytganlarini ixlos bilan bajardi va tovuqni ko‘mib, biroz yengil tortgandek bo‘ldi. Fernanda bandajlarning yo‘qolishini tabibi

g‘ayblarning intiqomiga yo‘ydi, ko‘ylagining ichiga tikib, o‘g‘li yuborgan yangi bandajlarni o‘sha yerga solib qo‘ydi.

Tovuq ko‘milganidan olti oy o‘tgach, Aureliano Ikkinchi yarim kechasi yo‘taldan uyg‘onib ketdi. Go‘yo ulkan qisqichbaqaning temir qisqichlari ichini tilka-pora qilayotganday edi. Sehrli kamarlarni gulxanda yoqmasin, qancha tovuqqa peshobini sepmasin, baribir o‘lishi aniq, ha, faqat shugina yagona qayg‘uli haqiqat ekan. Bu haqida hech kimga og‘iz ochmadi. Amaranta Ursulani Bryusselga yuborishdan oldinroq o‘lib qolishdan qo‘rqib, endi haftada bir marta emas, uch martadan lotereya o‘yini tashkil qilardi. Hali quyosh chiqmasdan butun shaharni kezib chiqar, hatto eng uzoq va qashshoq kvartallarga ham yetar va o‘limini bo‘yniga olgan bandalarga xos ma’yuslik bilan lotereya chiptalarini sotishga urinardi: «Ilohiy taqdir deganlari shu! – deb baqirardi. – Uni qo‘ldan chiqarmanglar, negaki faqat yuz yilda bir marotaba keladi!» Aureliano Ikkinchi bor irodasini to‘plab, o‘zini xushchaqchaq va baxtiyor ko‘rsatishga urinar, ammo uning qonsiz, ter bosgan yuziga qarab, bu dunyodan nasibasi uzilganini bilib olish mumkin edi. Aureliano Ikkinchi ba’zan begona ko‘zlardan qochib, yaydoq dalaga chiqib ketar, ichini tilka-pora qilayotgan temir qisqichlardan loaqal bir daqiqa tin olgani o‘tirar edi. Peshtaxta yonida xaridorsiz mudom zerikib turadigan yolg‘iz ayollarni lotereya olishga tashviqot qilish maqsadida yarim kechasi islovatxonalar kasabasi bo‘ylab kezardi. «Manavi raqam to‘rt oydan beri hech kimga tushgani yo‘q, – derdi ayollarga chipta ko‘rsatib. – Qo‘ldan chiqar-

manglar, hayot siz o‘ylagandan ham qisqaroq». Oxir-oqibat odamlar uni hurmat qilmay qo‘yishdi va hayotining oxirgi kunlarida odatdagidek, don Aureliano emas, hech bir uyalmay-netmay, Don Ilohiy Taqdir, deb atashardi. Aureliano Ikkinchining ovozi tobora pasayib, oxiri itning irillashiga o‘xshab qoldi, ammo u o‘zida xalqni Petra Kotesning uyida o‘ynaladigan lotereyaga jalb etishga yetarli kuch topardi. Dard kuchaygandan kuchayib, lotereyaga tikilayotgan qo‘y-u echkilarning puli qizini Bryusselga o‘qishga yuborishga yetmasligini payqadi. Shunda miyasiga yalt etib bir fikr keldi: endi u lotereyaga toshqin yuvib ketgan dalalarni tikadi, puldor odamlar bu o‘lik dalalarni bemalol o‘zlashtirishi mumkin. Ayni fikr odamlarga jozibali tuyildi, hatto yangicha lotereya haqida alkald, ya’ni shahar hokimining o‘zi e’lon chiqardi... Chipta qimmat – yuz peso turardi. Odamlar o‘zaro pul to‘plab, uni xarid qilishardi. Hattoki mustaqil shirkatlar tuzildi. Bir hafta deganda chiptalar sotilib bo‘lindi, yutuq chiqqanlar kechqurun katta bazm uyushtirishdi. Bazmda Aureliano Ikkinchi akkordeonda so‘nggi bor Fransisko Odam qo‘shiqlarining kuyini chaldi, lekin so‘zini aytolmadi.

Shunday qilib, ikki oydan keyin Amaranta Ursula Bryusselga jo‘nab ketdi. Aureliano Ikkinchi qiziga nafaqat bu g‘ayrioddiy lotereyadan tushgan daromadni, balki so‘nggi oylarda yiqqan hamma mablag‘ini, shuningdek, pianola, klavikord va yaroqsiz holga kelgan jihozlarni sotib tushirgan pullarni ham tutqazdi. Uning hisob-kitobicha, bu pullar to qizi o‘qishni tugatishiga qadar yetardi. Bryussel shahrining gunohga botgan Parijga ya-

qinligidan darg‘azab bo‘lgan Fernanda qizining safariga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Lekin padre Anxel Amaranta Ursulaning o‘qishi tugagunicha yashab turishiga so‘z bergan rohibalar ixtiyoridagi katolik qizlar pansioniga yozib bergan tavsiyanomasini ko‘rgach, tinchlandi. Bundan tashqari, padre Anxel Toledoga boruvchi rohibalarni qidirib topdi va qizni o‘zlari bilan birga olib ketishga, Toledoda esa uni naq Bryusselning o‘zigacha kuzatib qo‘yadigan ishonchli yo‘ldoshlarga topshirishga ularni ko‘ndirdi. Bu masala yuzasidan qizg‘in yozishma borayotgan paytda Aureliano Ikkinchi Petra Kotes yordamida Amaranta Ursulani safarga hozirlar edi. Uning kiyim-boshi ilgari Fernandaning sepidan bo‘shagan sandiqqa joylandi. Safar shu qadar puxta o‘ylangan ediki, bo‘lajak talaba, hatto Atlantika okeanini kesib o‘tayotganlarida qaysi ko‘ylagi-yu poyabzalini kiyishini, qirg‘oqqa yetganda kiyadigan mis tugmachali ko‘k paltosi-yu saxtiyon boshmoqchasi qayerda yotganini yoddan aytib berardi; kemadan tushayotganida suvga yiqilib ketmaslik uchun trapda o‘zini qanday tutishini, rohibalardan bir qadam ham ortda qolmasligini, kayutadan faqatgina ovqat yeyish uchun chiqishini, ochiq dengizda hech kimning – na ayol, na erkakning savollariga javob qaytarmasligini juda yaxshi bilardi. U o‘zi bilan birga dengiz kasaliga qarshi dori solingan shisha idish va padre Anxel o‘z qo‘li bilan yozgan bo‘ronga qarshi oltita duo bitilgan daftarni oldi. Fernanda qiziga pul saqlash uchun brezent kamar tikib berib, uni tunda ham yechmaslikni tayinladi. Yana xlor bilan yaxshilab yuvilgan, spirt shimdirilgan paxtada artilgan tungi tilla tuvagini

ham hadya qilmoqchi bo‘ldi-yu, lekin qizi bo‘lajak kursdoshlarim kuladi, deb tuvakni qaytarib berdi. Oradan bir necha oy o‘tgach, o‘lim to‘shagida yotgan Aureliano Ikkinchi qizini oxirgi marta qay holatda ko‘rganini eslaydi – o‘shanda Amaranta Ursula Fernandaning so‘nggi maslahatlarini eshitish uchun ikkinchi klass vagonining chang bosgan oynasini ochishga befoyda urinadi. Sun’iy kapalakgul qadalgan ko‘ylak kiygan, keng poshnali saxtiyon poyabzal-u elastik bog‘ichli paypoqda bo‘lgan, o‘rta bo‘yli, uzun sochlari yelkasiga yozilgan bu qizning qarashi Ursulaning xuddi ana shu yoshdagi qarashidek o‘tkir edi. Uning yig‘lamay, kulmay jiddiy xayrlashish odati, Amaranta Ursula katta buvisining ruhiy qat’iyatini ham meros qilib olganini bildirardi. Joyidan qo‘zg‘alayotgan vagon bilan yonma-yon borayotgan Aureliano Ikkinchi xotini qoqilib ketmasligi uchun uni qo‘lidan ushlagan edi. U qizi qo‘l uchida o‘pich uzatganini ko‘rdi va bunga javoban zo‘rg‘a qo‘l silkishga ulgurdi. Er-xotin quyosh to ufqdagi kichik nuqtaga aylanguncha uzoq turishdi. Ular to‘ylaridan so‘ng ilk bor qo‘l ushlashib turishardi.

To‘qqizinchi avgust kuni qayg‘uli keldi. Bryusseldan hali birinchi xat kelmay turib, Xose Arkadio Ikkinchi Melkiadesning xonasida Aureliano bilan suhbatlasharkan, xuddi tomdan tarasha tushgandek:

– Bir umrga eslab qol, – dedi, – ular uch mingdan ko‘proq edi va hammasini dengizga uloqtirishdi.

U shunday dedi-yu, qo‘lyozmalar ustiga yuztuban yiqilib, ko‘zlari ochiq holda jon berdi. Xuddi shu daqiqaning o‘zida Fernandaning to‘shagida

egizak akasining tomog‘idan temir qisqichlar bilan azobli kurashi xotima topdi. Ushbu voqeadan rosa bir hafta burun Aureliano Ikkinchi ovozidan ayrilib, nafasi qisilib, eti terisiga yopishgan bir aftodahol holda uyiga qaytib keldi. U o‘zining sandiqlari-yu abjag‘i chiqqan akkordeonini ham ola kelgan, xullas, xotinining ko‘z oldida o‘laman, deb bergan va’dasining ustidan chiqmoqchi edi. Petra Kotes kiyimlarini joylashda ko‘mak berdi, mahbubi bilan xayrlasha turib bir tomchi yosh to‘kmadi, ammo u Aureliano Ikkinchi tobutda kiyib yotishni istagan moylangan poyabzallarni sandiqqa solishni esidan chiqarib qo‘ydi. Shu sababli Petra Kotes Aureliano Ikkinchining o‘limini eshitgani hamon qora libos kiydi, poyabzalni gazetaga o‘radi va Fernandaga, uning jasadini ko‘ray, ruxsat ber, deb yalindi. Biroq Fernanda uni ostonaga ham yo‘latmadi.

– O‘zingizni o‘rnimga qo‘yib ko‘ring, – deya iltijo qildi Petra Kotes. – Uni sevmasam, o‘zimni shunchalar xo‘rlarmidim?!

– Birovning eri bilan o‘ynashgan ayolga har neki xo‘rlik ham ozlik qiladi, – deb javob qaytardi Fernanda. – Yaxshisi, o‘zing ilakishgan boshqa erkaklardan birining o‘limini kuta qol, poyabzalniyam o‘shanga kiygizasan.

Va’dasiga sodiq qolgan Santa Sofiya de la Pyedad Xose Arkadio Ikkinchini tiriklay ko‘mishmayotganlariga ishonch hosil qilish uchun, o‘g‘lining boshini oshpichoq bilan kesib tashladi. Aka-ukalar bir xil tobutga joylashtirildi, shunda odamlar egizaklar o‘lganlaridan keyin yana bir-biriga o‘xshab qolganini ko‘rishdi. Aureliano Ikkinchining eski hamtovoqlari uning tobuti

poyiga: «Tug‘inglar, sigirlar, umr qisqa!» – deb yozilgan tasma o‘ralgan gulchamlar qo‘yishdi. Fernanda bu tahqirdan g‘azabga keldi va gulchambarni hojatxonaga uloqtirishni buyurdi. G‘ussaga cho‘mgan aroqxo‘rlar tobutlarni qabristonga eltishdi, biroq so‘nggi onlarda sal dovdirab qolishdimi, Xose Arkadio Ikkinchiga atalgan qabrga Aureliano Ikkinchini ko‘mishdi.

* * *

Aureliano Melkiades xonasida ancha yillar band bo‘ldi. U to‘zigan kitobdan aql bovar qilmas afsonalarni, rohib German Shol ta’limotining qisqacha bayonini, demonologiya[1] fani tavsiflagan maqolani, hikmat toshini qidirish qo‘llanmasini, Nostradamusning «Asr» asarini, uning o‘lat haqidagi tadqiqotlarini yodlab oldi va shu tariqa alahsib, o‘zi yashayotgan zamondan bexabar qoldi. Ammo o‘rta asrlarga doir barcha muhim bilimlarga ega edi. Endi bu paytga kelib, kenja Aureliano tuppa-tuzuk o‘smir edi. Santa Sofiya de la Pyedad xonaga qay soatda kirib kelmasin, u doimo kitob o‘qiyotgan bo‘lardi. Ayol ertalab bir finjon qandsiz qahva, tushda qovurilgan banan-u bir likopcha qaynatilgan guruch (Aureliano Ikkinchining o‘limidan so‘ng shu taomga kunlari qolgan edi) olib kelardi. Santa Sofiya de la Pyedad o‘smirning sochini olar, bitlarini terar, eski sandiqlardan topilgan kiyimlarni unga moslab kichraytirardi, mo‘ylovi sabza ura boshlaganida esa unga polkovnik Aureliano Buendianing ustarasi bilan shisha idishini keltirib berdi. Me-

[1] Demonologiya – nasroniylarning mifologiyasida shayton va ajinalarni o‘rganadigan fan.

mening o‘g‘li marhum polkovnikka o‘z pushtidan bo‘lgan o‘g‘illaridan ko‘ra ko‘proq o‘xshab ketardi, buni yigitning bo‘rtib chiqqan iyagi, og‘zi atrofidagi keskin, mag‘rurona chiziqlardan ham bilsa bo‘lardi. Bir vaqtlar Aureliano Ikkinchi Melkiades xonasida o‘tirar ekan, go‘yo o‘zi bilan o‘zi gaplashayotgandek tuyilardi Ursulaga. Santa Sofiya de la Pyedad kenja Aurelianoda ham shu holatni kuzatdi, faqat u Melkiades bilan suhbatlashardi. Egizak aka-ukalarning o‘limidan keyin sal o‘tib, issiq choshgoh mahali charog‘on deraza yonida soyaboni qarg‘a qanotini eslatuvchi shlyapa kiygan ma’yus chol paydo bo‘ldi. Aureliano qo‘lyozmalar alifbosini turkumlarga bo‘lishni endigina tamomlagani bois, Melkiadesning, qog‘ozlar qaysi tilda yozilganini bilib oldingmi, degan savoliga hech ikkilanmasdan:

– Sanskritda yozilgan, – deb javob berdi.

Melkiades hademay bu xonaga kelib-ketishi tugashini aytdi. Qo‘lyozmalarni ular bitilganiga rosa yuz yil to‘lgunicha o‘qish uchun Aureliano sanskrit tilini mukammal bilib olishi kerak edi, o‘shandagina Melkiades ajal maskaniga xotirjam ketadi. Melkiades kenja Aurelianoga banan kompaniyasi zamonida folbinlar o‘tiradigan joy – daryoga eltuvchi tor ko‘chada yashaydigan kataloniyalik bir olimning do‘konida sanskrit tili qo‘llanmasi borligini, agar tezroq xarid qilmasa, kitobni olti yildan keyin kuya yeb qo‘yishini ma’lum qildi. Yigitcha Santa Sofiya de la Pyedadga o‘sha olimning do‘koniga borib, «Ozod Quddusi Sharif» kitobini va Milton poemalari o‘rtasida, kitob tokchasining ikkinchi qatorida, o‘ng burchakda turgan kitobni ham olib keling, deb

so‘raganida, ayol hayratga tushdi. Ayni hayrat – Santa Sofiya de la Pyedadning umrida birinchi bor tuyg‘ularini oshkor etishi edi. Ayol savodsiz edi, shu sababli, Aureliano aytgan gapni qattiq yodda tutdi, ustaxonaga yashirib qo‘yilgan o‘n yetti tilla baliqchadan birini sotib, kitobga yetarli pul topdi – askarlar uylarini tintuv qilishgan o‘sha oqshomdan so‘ng, baliqchalar yashirib qo‘yilgan joyni faqat Aureliano ikkovi bilardi.

Aureliano sanskrit tilini qunt bilan o‘rganardi. Melkiades endi juda kam kelardi. U go‘yo chosh-gohning ko‘zni qamashtiruvchi yorug‘iga qo-rishib, borgan sari uzoqlashar edi. Lo‘li oxirgi bor kelganida Aureliano cholni ko‘rolmadi, ammo: «Men Singapur botqoqlarida bezgakdan o‘ldim», – deb pichirlaganini zo‘rg‘a eshitib, xonada ekanini his qildi. O‘sha kuniyoq xonaga chang, jazirama issiq, chumolilar, kitob-u qo‘lyozmalarni ularga jo etilgan hikmatlariga qo‘shib yeb tashlaydigan kuchlarning kirishiga monelik qiladigan sehrli kuch ham yo‘qoldi.

Xonadonda oziq-ovqat yetarli edi. Aureliano Ik-kinchi vafotining ertasi kuni aroqxo‘r do‘stlaridan biri Fernandaga: «Men marhum eringizdan qarz oluvdim», – deb anchagina pul berdi. Endi har chorshanbada uylariga turli yeguliklar solingan to‘qima savat olib kelishardi. Savatni tahqirning zo‘ri – g‘animga sadaqa berish, deb o‘ylagan Petra Kotes yuborishiga hech kim shubhalanmas edi. Petra Kotesning qalbida to‘planib qolgan adovat o‘zi o‘ylaganidan ham tezroq tarqab ketdi, ammo Aureliano Ikkinchining sobiq mahbubasi oldiniga takabburlikdan, so‘ngra esa azbaroyi achinganidan marhumning bevasiga oziq-ovqat yuborishi-

ni kanda qilmadi. Keyinchalik, lotereya tarqatishga kuchi qolmagan kezlari ham garchand o‘zi och qolsa-da, kundoshiga ovqat yuborib turdi. Bu hol kundoshining tobutini yerga qo‘yishganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagunicha davom etdi. Xonadon ahli kamayib, yarim asrdirki ro‘zg‘orni yelkasida tutgan Santa Sofiya de la Pyedadning ishlari kamayganday bo‘ldi. Oilaga farishtalardek oliyjanob Go‘zal Remediosni, mag‘rur Xose Arkadio Ikkinchini hadya qilgan, o‘zini go‘daklar tarbiyasiga, garchi ular o‘zlarining shu ayolga o‘g‘il yoki nevara ekanligini bilishmasa-da, bag‘ishlagan ayol Aurelianoga ham mehr bilan qarardi. U Aureliano aslida o‘ziga chevara ekanini bilmasdi. Bu indamas va odamovi ayolning dunyodan noliganini hech kim eshitmagan edi. U kalamushlar shovqin solib chiqadigan qaznoqning polida, yaydoq yerga bo‘yra to‘shab uxlardi. Santa Sofiya de la Pyedad bir kuni yarim tunda unga allakim qorong‘ilik qa’ridan tikilayotganini sezib, cho‘chib uyg‘onganini hech kimga aytmadi. Bu keyin uning qornidan o‘rmalab o‘tgan qora ilon edi. Agar bu to‘g‘rida Ursulaga gapirib berganida, u tunagani, albatta, o‘z to‘shagini bergan bo‘lardi. O‘shanda hech kim hech narsani sezmasdi, chunki birovning diqqatini jalb etish uchun peshayvonga chiqib ayyuhannos solish zarur edi – non yopishning zahmati, urushning beqarorligi, bolalar tarbiyasi tashvishlari yaqin odamingning ro‘shnoligi haqida o‘ylashga imkon bermasdi. Bechora ayolning tashvishini yeydigan yagona kishi Petra Kotes edi. Santa Sofiya de la Pyedad uni biror marta ko‘rmagan edi. Petra Kotes eng og‘ir kunlari – Aureliano Ikkinchi bilan lote-

reyadan tushgan tangalarni kechalari taqsimlab chiqishgan paytlarida ham Santa Sofiya de la Pyedadning koʻchaga chiqqanda kiyadigan birorta koʻylagi yoki poyabzali boʻlsin, deya joni halak boʻlardi. Fernandani xonadonida qabul qilganida, Santa Sofiya de la Pyedadni bor-yoʻgʻi oqsoch ayol deb oʻylardi. Fernandaga bu izohlar gʻayritabiiy tuyilar, oqsoch ayolning aslida oʻziga qaynona ekanini zoʻrgʻa anglasa-da, uning kimligini tez orada esidan chiqarib qoʻydi. Santa Sofiya de la Pyedad esa oʻzining oʻta itoatkorligidan mutlaqo aziyat chekmas, aksincha, xonalar boʻylab betinim, sassiz kezish, oʻzi yoshligidan beri yashab kelayotgan, banan kompaniyasi davrida oilaviy maskandan koʻra koʻproq kazarmaga oʻxshab qolgan bu bahaybat uyni hamisha saranjom-sarishta saqlash yoqardi. Lekin oʻzining haddan tashqari serharakatligi va odamlarni lol qoldiruvchi ishchanligiga qaramay, Ursulaning oʻlimidan soʻng uyam qarilikni tan oldi. Uy ham oʻz navbatida munkillab qolganday edi. Devorlarni mayin poʻpanak qopladi, hovlini oʻt-oʻlanlar bosib ketdi, peshayvonning sement polini yovvoyi oʻtlar tarstars yorib yubordi. Yoriqlardan rosa yuz yilcha oldin Ursula qurgan, Melkiades sun'iy jagʻini solib qoʻygan suvli stakanda qulf urgan oʻsha tanish sariq gulchalar unib chiqdi. Tabiatning beomon qudratiga qarshi kurashgani na vaqti, na kuchi boʻlgan Santa Sofiya de la Pyedad kechqurun yana baribir qaytib keladigan kaltakesaklarni haydash uchun kun boʻyi yotoqma-yotoq aylanardi. Bir kuni u ertalab poydevorni ilma-teshik qilib yuborgan sariq chumolilarning bogʻni kesib, rangi yer rangiga oʻxshab qolgan begoniyalar

o‘suvchi peshayvonga, undan uyning ichiga kirib borayotganlarini ko‘rib qoldi. Santa Sofiya de la Pyedad dastlab ularni supurgida yo‘q qilmoqchi bo‘ldi, ketidan turli zaharli dorilar sepdi. Oxiri, so‘ndirilgan ohak qo‘lladi hamki, urinishlari behuda ketdi – o‘jar bu hasharotlar ertasiga tag‘in paydo bo‘lishardi.

Bolalariga xat yozish bilan band Fernanda vayronagarchilik dahshatli tus olganini, uni ortga qaytarish mumkin emasligini hali anglamagan edi. Santa Sofiya de la Pyedad tanho o‘zi kurashishga majbur bo‘ldi. U oshxonaga kirishga urinayotgan yovvoyi o‘tlarga qarshi jang qilar, birpasdan so‘ng devorlarda yana paydo bo‘luvchi o‘rgimchak uyalarini sidirib tashlar, termitlarni inlaridan quvib chiqarardi. Ammo u o‘zi ozoda saqlashga urinib, kuniga uch mahal supurib-sidirayotgan Melkiadesning xonasida ham chang va o‘rgimchak uyasi paydo bo‘layotganini, polkovnik Aureliano Buendia bilan uyni tintuv qilgan quyosh zobitgina guvoh bo‘lgan o‘sha iflos va g‘arib holga tushayotganini ko‘rganidan so‘ng, xona taslim bo‘lganini tan oldi. Shunda u ko‘chaga chiqish uchun asrab qo‘ygan ko‘sqi ko‘ylagini, Ursulaning eski poyabzalini, Amaranta Ursula sovg‘a qilgan oddiy paypoqni kiydi, qolgan kiyimlarini esa tugib oldi.

– Ortiq chidolmayman, – dedi u Aurelianoga. – Bu katta uy tashvishi endi menga og‘irlik qiladi.

Aureliano undan qayoqqa borishni o‘ylayotganini so‘raganda Santa Sofiya de la Pyedad mujmal qo‘l siltab qo‘ydi, ammo sal turib, hayotining so‘nggi yillarini Rioachadagi jiyani yonida o‘tkazmoqchi ekanini aytdi. Uning uydan faqat shax-

siy jamg‘armasi – bor-yo‘g‘i bir peso-yu yigirma besh sentavo bilan chiqib ketayotganini ko‘rgan Aureliano Santa Sofiya dela Pyedadga o‘n to‘rtta tilla baliqcha berdi. Ayolning yillar zalvaridan bukchayib, oyog‘ini zo‘rg‘a sudragancha, qo‘lidagi g‘arib tugun bilan sokin hovlini kesib o‘tganini, lo‘kidonni tushirib qo‘yish uchun qo‘lini darcha tirqishiga suqqanini ko‘rdi. Shu-shu, Aureliano Santa Sofiya de la Pyedadni boshqa hech qachon ko‘rmadi va u to‘g‘rida hech narsa eshitmadi ham.

Santa Sofiya de la Pyedadning uyni tark etganini eshitgan Fernanda kun bo‘yi javradi. Sandiqlarni, javonlarni titib, buyumlarini birma-bir tekshirib ko‘rib, qaynonasi hech narsa olib ketmaganiga ishonch hosil qildi. Keyin umrida birinchi bor pechka yoqishga urinib, barmog‘ini kuydirdi, axiri, o‘zini kamsitib bo‘lsa-da, Aurelianodan, qahva qanday tayyorlanadi, deb so‘rashga majbur bo‘ldi. Bu o‘smir bora-bora oshxonadagi hamma ishlarni o‘z zimmasiga oldi. Fernanda uyg‘onganda stolda nonushta tayyor turardi. Ovqatlangach, u yana yotog‘iga qaytib kirardi. Huvullagan xonadonda Aureliano bilan Fernanda qolishgan bo‘lsa-da, ularning har biri o‘z tanholigi qobig‘iga o‘ralib, ayri-ayri yashashni davom ettirardi. Faqat o‘z yotoqlarini yig‘ishtirishar, boshqa xonalarga deyarli e’tibor berishmasdi. Xuddi o‘sha kunlari Fernandada, uyda ajina paydo bo‘ldi, degan taassurot tug‘ildi. Buyumlar go‘yo oyoq chiqarganday edi. Fernanda qaychini kechqurun karavotga qo‘yganiga ishonchi komil bo‘la turib, uni bir soat izlar va oxiri, butun ko‘rpa-to‘shakni ag‘dar-to‘ntar qilib chiqqanidan so‘ng, oshxonadagi tokchadan topardi. Ba’zida

qutidagi sanchqilar yo‘qolib qolar, ertasiga ayol oltita sanchqi mehrobda va uchtasi yuvinish joyida yotganini ko‘rib qolardi. Buyumlar go‘yoki bekinmachoq o‘ynayotgandek edi. Fernanda ayniqsa, xat yozishga tutinganida rosa xunob bo‘lardi. Hozirgi o‘ng yoniga qo‘ygan siyohdoni chap tomonga o‘tib ketardi, press-pape stoldan umuman g‘oyib bo‘lar, uch kun o‘tgandan keyin Fernanda uni yostig‘ining ostidan topardi. Xose Arkadioga yozilgan xat Amaranta Ursulaning xatjildiga tushib qolardi. Bir kuni Fernanda ruchkasini yo‘qotdi. Ruchkani cho‘ntagidan topib olgan va egasini qidirib uyma-uy yurgan pochtachi uni o‘n besh kundan so‘ng keltirib berdi. Fernanda oldiniga bu sinoatda tabibi g‘ayblarniig qo‘li bor, deb o‘yladi. Ularga, tinch qo‘yinglar, deya iltijoli xat yoza boshladi, ammo hojatga chiqqisi keldi-yu, xatni chala tashlab o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Qaytib kelganida maktub g‘oyib bo‘lgan. Fernandaning o‘zi ham uni esdan chiqargan edi. Bir muddat u Aurelianodan shubhalanib yurdi. Fernanda nevarasini tutish maqsadida yo‘liga turli-tuman narsalarni qo‘yib, poylay boshladi, ammo tezda Aureliano faqat oshxona-yu hojatxonaga chiqishiga, qolaversa, hazil-mutoyibaga tobi yo‘qligiga amin bo‘ldi. Shundagina Fernanda, bularning bari ajinalarning ishi, degan fikrga keldi va har bir buyumni qayerda turishi lozim bo‘lsa, o‘sha yerda bog‘lab qo‘yishga ahd qildi. U qaychini uzun ip bilan karavotining bosh tomoniga, pero qutichasi-yu press-papeni stolning oyog‘iga bog‘lab qo‘ydi, siyohdonni esa stolning odatda qog‘oz qo‘yadigan yeridan chap tomoniga yopishtirdi. Ammo natija kutgandagidek bo‘lmadi,

chunki biror narsa tika boshlaganidan uch-to‘rt soat keyin go‘yoki ajinalar ipni qisqartirib qo‘yardi. Press-pape bog‘langan ip ham o‘z-o‘zidan qisqardi, nafaqat ip, balki Fernandaning qo‘li bilan ham xuddi shunday voqea sodir bo‘lardi: xat yoza boshlaganidan so‘ng xiyol vaqt o‘tmay, qo‘li siyohdonga yetmay qolardi. Bu ko‘ngilsizliklarni na Bryusseldagi Amaranta Ursula, na Rimdagi Xose Arkadio bilishardi. U farzandlariga baxtli ekani haqida yozardi. Betinim ravishda xat yozish tufayli Fernanda vaqtni his qilishni yo‘qotdi, bu hol ayniqsa, Santa Sofiya de la Pyedad ketganidan keyin yaqqol sezildi. U kunlar, oylar va yillar hisobini bolalarining uyga qaytar vaqtiga chamalab olib borardi. Ammo o‘g‘li bilan qizi uyga kelish muddatlarini har gal orqaga suraverganlari natijasida kunlar qorishib, xuddi egizaklardek bir-biriga o‘xshab ketdi va ularning qanday o‘tayotganligi bilinmasdi. Muddatlarning kechiktirilishi Fernandaning g‘azabini qaynatmas, aksincha chuqur qoniqish hissini uyg‘otardi. Bir necha yil butun nazr qabul qilish arafasida turganini yetkazgan Xose Arkadio negadir yana ilohiyotning oliy kursini bitirish va diplomatiyani o‘rganishga umid bog‘layotganini ma’lum qilganida, Fernanda undan aslo xafa bo‘lmadi, chunki u avliyo Pyotrning huzuriga eltuvchi narvonning baland va tik ekanini tushunardi-da. Boshqalar eshitganida zarrachayam e’tibor bermaydigan oddiy voqealar, masalan, o‘g‘lining papani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani haqidagi xabar ham uni hayajonga solardi. Hatto qizning otasi tasavvur qilmagan imtiyozga ega bo‘lgani – o‘zining katta qobiliyati tufayli Bryusseldagi o‘qish muddatini belgilan-

ganidan anchaga cho‘zish huquqini qo‘lga qiritgani ham uni rosa sevintirdi.

Aureliano Santa Sofiya de la Pyedad sanskrit tili darsligini olib kelganidan rosa uch yil o‘tganda qo‘lyozmalarning birinchi varag‘ini tarjima qilishga ulgurdi, xolos. U juda katta ish qildi, lekin hozircha bu ilk qadam – ispancha tarjimasi hech narsani anglatmaydigan jumboqli bir she’r edi. Aureliano bu jumboqni ochadigan kalit qayerdaligini bilmasdi, ammo daf’atan Melkiadesning katoloniyalik olimning do‘konida qo‘lyozma mazmuniga doir kitoblar bor, deb aytganini esladi. Fernandadan ruxsat olib, ana shu kitobni qidirmoqchi bo‘ldi. Aureliano axlat uyumlari juda tez ko‘payayotgan xonada o‘tirar ekan, bo‘lajak suhbatga tayyorlanar, murojaatning ishontirarli shakllarini qidirar, gapni nimadan boshlashni o‘ylardi, ammo pechkadan ovqatini olayotgan Fernanda bilan oshxonada baqamti kelganida (u bilan uchrashishga boshqa hech bir imkoniyati yo‘q edi), boyagi pishitib qo‘ygan jumlalari yodidan ko‘tarilib, ovozi chiqmay qolardi. Fernandani umrida ilk bor kuzatarkan, uning yotoqxonadagi qadamlarini qulog‘ini ding qilib tinglardi. Ayol pochtachidan bolalari yo‘llagan maktubni olgani va o‘zi yozgan maktubni bergani eshik tomon borayotib, peroning yarim kechagacha qog‘oz bo‘ylab jazavali qitirlashini, so‘ngra chiroqning «chirq» etib o‘chirilgani-yu, shivirlab o‘qilgan duoni eshitardi. Aureliano ana shundan keyin kelasi kun kutilgan natija beradi, degan xayolda uyquga cho‘mardi. U ayoldan kitobni qidirish uchun ruxsat olishiga shu qadar ishonardi. Bir kuni ertalab yelkasiga tushgan uzun sochini, soqolini oldi, tor shim-u

kimdandir meros qolgan qotirma yoqali ko‘ylagini kiyib, oshxonaga bordi va ovqatga keladigan Fernandani orziqib kuta boshladi. Fernanda oq suvsar terisidan tikilgan sarg‘ayib ketgan mantiya, boshida tilla suvi yuritilgan karton toj kiygan g‘oyat go‘zal kampir qiyofasida kirib keldi. Uning ko‘zlari toliqqan, go‘yoki tun bo‘yi yig‘lab chiqqanday edi. Fernanda Aureliano Ikkinchining jomadonidan malikalarning kuya yegan libosini topganidan beri uni tez-tez kiyib ko‘rardi. O‘zining shohona soxt-sumbatidan zavqlanib, ko‘zgu oldida aylanganini ko‘rgan odam, Fernanda aqldan ozibdi, derdi, lekin u soppa-sog‘ edi. Malika libosi shunchaki xotirotni qamchilovchi vosita edi, xolos. U o‘zini keksa, yaroqsiz, hayotning eng yaxshi onlaridan bebahra his qilardiki, ilgari eng qora deb yurgan kunlarini qo‘msadi – shamol peshayvon bo‘ylab taratgan jambil hidi qorong‘ilikda atirgullardan va hatto, hayvondan, qo‘pol kelgindilar ustidan ko‘tarilayotgan tutunning qanchalar yetishmayotganini endi tushundi. Uning kundalik turmushning eng og‘ir zarbalariga chidab kelgan yuragi qotirilgan bir siqim qum, xotirotning ilk hamlasidayoq sochilib ketdi. G‘amdan baxt qidirishga bo‘lgan ehtiyoj Fernandani tobora o‘zining tuban iskanjasiga olar va oxiri uning illatiga aylanib qolgandi. Yolg‘izlik azobini tatib ko‘rgach, u qaytadan odam bo‘ldi. Ammo o‘sha kuni ertalab oshxonada bir finjon qahva uzatayotgan qoqsuyak, rangpar ko‘zlari g‘alati chaqnayotgan o‘smirni ko‘rganida, o‘ziga o‘zi kulgili tuyilib ketdi. Fernanda nafaqat Aurelianoning iltimosini rad etdi, balki uyning kalitlarini bandaj saqlaydigan yashirin cho‘ntagiga

solib qo‘ydi. Bu ehtiyotkorlik ortiqcha edi. Aureliano istasa uydan bildirmay chiqib ketib, yana bildirmay qaytib kelishi mumkin edi. Ammo atrofini qamragan olamga ishonchsizlik, necha yildirki davom etayotgan tarkidunyochilik va itoatkorlik odati yigitning qalbida isyon urug‘ini tamom bo‘g‘ib tashlagan edi. U hujrasiga qaytib, yana qo‘lyozmalarni o‘rganishga mukkasidan ketdi. Bir kuni ertalab odatdagidek pechka yoqish uchun oshxonaga chiqdi va Fernandaga atalgan ovqat sovib qolganini ko‘rdi, unga hech kim qo‘liniyam tekkizmagan edi. Shunda u yotoqxonaga kirib, Fernandaning karavotda oq suvsar mantiya yopinib yotganini ko‘rdi. Fernanda o‘limidan so‘ng har qachongidan ham chiroyliroq bo‘lib ketganday edi. Oradan to‘rt oy o‘tgach, Makondoga kelgan Xose Arkadio ham onasini xuddi ana shu holatda ko‘rdi.

Xose Arkadio onasiga quyib qo‘ygandek o‘xshar edi. U qora kostyum, qotirma yoqali ko‘ylak kiyar, bo‘yniga bo‘yinbog‘ o‘rniga ingichka shoyi tasma bog‘lab yurardi. Xose Arkadioning nigohida hayrat ifodasi qotib qolgandek tuyilar, yuzi rangparroq edi. O‘rtasidan to‘g‘ri va nozik farq ochilgan qop-qora, yaltiroq va silliq sochi avliyolarning yasama sochiga o‘xshardi. Uning do‘ndiq tomir qoplagan qo‘llari mehnat ko‘rmagan edi. Eshik ochgani chiqib, ro‘parasida turgan odam olis yo‘l bosib kelganini payqadi. Xose Arkadiodan hali-hanuzgacha so‘qir Ursula osonroq topib olish uchun bolaligida boshiga purkagan gul suvining hidi anqib turardi. Oradan shuncha yillar o‘tsada, Xose Arkadio hech o‘zgarmagan, bevaqt qarigan yosh bolaga o‘xshardi. U jasad chirimasli-

gi uchun Aureliano rosa to‘rt oydan buyon Melkiadesning retsepti bo‘yicha simob qaynayotgan xonaga kirib bordi. Xose Arkadio jiyanidan hech narcha so‘ramadi, o‘lik Fernandaning peshonasidan o‘pdi, yubkasining cho‘ntagidan hali ishlatilmagan uchta bandaj va kiyim javonining kalitini oldi. Uning qat’iy va keskin harakatlari g‘amnok ko‘rinishiga hech mos tushmasdi. Javondan oilaviy tamg‘a tasviri tushirilgan qutichani olib, Fernandaning xatini chiqardi. Marhuma onasi xatga yuragidagi barcha dardlarini to‘kib-sochgan, tirikligida o‘g‘lidan yashirib kelgan gaplarini ham batafsil yozgan edi. Xose Arkadio maktubni tik turgancha, katta qiziqish bilan o‘qidi, ammo zarracha ham hayajonga tushmadi. Uchinchi betga yetganida to‘xtadi va xuddi endi ko‘rayotganday jiyani Aurelianoga diqqat bilan tikildi.

– Shunday qilib, – dedi u keskin tovushda, – sen o‘sha qarindoshvachchamizmisan?

– Men Aureliano Buendiaman.

– Bor, xonangga kir, – dedi Xose Arkadio.

Aureliano xonasiga bordi va u yerdan hatto Fernandaning g‘aribona dafn marosimini ko‘rishga ham chiqmadi. U ba’zida oshxonaning nim ochiq eshigidan Xose Arkadioning og‘ir-og‘ir nafas olib, uy bo‘ylab yurishini ko‘rib qolar, yarim kechalari esa nurab borayotgan yotoqxonalardan kelayotgan qadam tovushlarini eshitardi. Xose Arkadio uni suhbatiga munosib ko‘rmagani uchungina emas, balki o‘zining ham unga biror og‘iz gapirishga istagi yo‘qligi va qo‘lyozmadan bosh ko‘tarishga imkoni bo‘lmagani sababli, Aureliano uning tovushini bir necha oydan beri eshitmagan edi. Fernandaning o‘limidan so‘ng,

u oxirgi tilla baliqchani oldi-da, o‘ziga zarur kitobni xarid qilish uchun kataloniyalik olimning kitob do‘koniga yugurdi. Balki tuzukroq xotirasi bo‘lmaganligi va ko‘rganlarini taqqoslay olmasligi bois yo‘lida uchragan voqealar unda hech qanday qiziqish uyg‘otmadi: bo‘m-bo‘sh ko‘chalar, huvullab qolgan uylar, ularni quvona-quvona ko‘rishi uchun hatto jonini fido qilishga rozi bo‘lgan kuni xayolida qanday tasavvur qilgan bo‘lsa, xuddi o‘shanday edi. Fernandadan ololmagan ruxsatnomaga muyassar bo‘lgan Aureliano uydan bir marta va yagona maqsad uchun hamda qisqa muddatga chiqishga ahd qildi, shuning uchun ham uyidan to ilgari tushlarni ta’birlovchi tor ko‘chagacha bo‘lgan o‘n bir kvartalni bosib o‘tguncha, hech qayerda to‘xtamadi va kitoblar bilan to‘lib toshgan, qorong‘i, hatto zo‘rg‘a burilish mumkin bo‘lgan xonaga kirarkan, yuragi hapriqib ketdi. Bu yer kitob do‘konidan ko‘ra, ko‘proq termitlar ixtiyoriga tashlab qo‘yilgan; is bosgan tokchalarda, nafaqat tokchalarda, balki polda, tokchalar orasidagi tor yo‘lkalarda betartib qalashib yotgan qadimiy kitoblarning birodarlik qabristoniga o‘xshab ketardi. Uzun, ustidagi kitoblarning og‘irligidan xiyol egilgan uzun stol yonida o‘tirgan do‘kon egasi daftardan yulib olgan varaqlarga binafsharang aji-buji harflarda na boshi va na oxiri bor yozuvlarni bitardi. Uning to‘tiqush kokiliga o‘xshash kumushrang sochlari peshonasiga xiyol tushib turardi. Chaqnoq va qisiq ko‘k ko‘zlarida dunyodagi hamma kitoblarni o‘qib chiqqan odamning beozor mehri tovlanib turardi. Do‘kondor jiqqa terga botib, bittagina ishtonda o‘tirardi. U Aureliano kirib kelganida hat-

to qayrilib ham qaramadi. Yigit betartib qalashib yotgan kitoblar orasidan o‘ziga kerakli beshtasini osongina qidirib topdi, chunki ular Melkiades aytgan joyda yotardi. U bir so‘z demasdan, tanlagan kitoblari-yu oltin baliqchani do‘kondorga uzatdi, olim ularni varaqlab chiqdi-da, ko‘zlarini yumdi. «Aqldan ozibsan» pichirladi u katalon tilida, so‘ng Aurelianoga kitoblar va baliqchani qaytarib berdi.

– Olaver, – dedi u ispanchalab. – Menimcha, bu kitoblarni oxirgi marta o‘qigan odam Isaak Ko‘r edi. Nima qilayotganingni yaxshilab o‘ylasang bo‘lardi.

Xose Arkadio Memening yotoqxonasini ta’mirlab, baxmal pardalar va g‘iloflarni yamab, tozalashni buyurdi. Basseyn va devorlari allaqanday qora va dag‘al g‘ubor bilan qoplangan hammomni tartibga keltira boshladi. U o‘z mulkini yotoqxona va hammom bilan chekladi, ularni turli arzimas buyumlar: yag‘iri chiqqan ekzotik bezaklar, arzon atir va qalbaki javohirlar bilan to‘ldirdi. Boshqa xonalarda esa uning diqqatini bolalar xonasining mehrobi ustidagi avliyolarning haykallari jalb etdi. Haykallar unga negadir yoqmadi va Xose Arkadio ularni mehrobdan tushirib, hovliga olib chiqdi-da, gulxanda kuydirib yubordi. Odatda u har kuni kunduzi soat o‘n ikkida uyg‘onardi. Turgach, eski ajdaholar tasviri tushirilgan zardo‘zi xalat, zardo‘zi shippak kiyib, hammomga borar va u yerda o‘zining tantanavor sokinligi bilan go‘zal Remedios amal qilgan urf-odatga o‘xshab ketuvchi marosimni bajarishga kirishardi. Basseynga tushishdan oldin suvga uch shishadagi xushbo‘y tuzlarni separdi. U go‘zal Remedios singari qovoqqa suv

solib yuvinmasdi. Muattar suvga tushib, uning tiniqligidan zavqlanib, Amarantani eslab, ikki soat chalqancha yotardi. Xose Arkadio uyga kelganidan bir necha kun o‘tgach, yakka-yu yagona bayram kostyumini yechib, bir vaqtlar Petro Krespi kiyadigan shimga o‘xshagan tor shim, ko‘kragiga ism-sharifining bosh harflari yozilgan shoyi ko‘ylak kiyib oldi. U kiyimlarini basseynda haftasiga ikki marta yuvar, kir qurigunicha xalatda yurardi, chunki kiygani boshqa hech narsasi yo‘q edi. Issiq sal bosilgach, ko‘chaga chiqar, so‘ng yana Amaranta to‘g‘risida o‘y surgancha, og‘ir-og‘ir nafas olib, xonalar bo‘ylab aylangani yarim kechada qaytib kelardi. U faqat ikki narsa – Amaranta va avliyolarning tungi chiroqning miltillashida dahshatli bo‘lib ko‘rinadigan ko‘zlarini xotirasida saqlab qolgandi. Yurakda chuqur hissiyot uyg‘otuvchi sokin avgust oqshomlari Amaranta uning xayolida tez-tez namoyon bo‘lardi, u jimjimador yubkasi va tarki dunyolikning g‘ussasi bilan bezatilgan qora bilakbandida marmar hovuzdan ko‘tarilardi. Amarantaning siymosini urushning qonli botqog‘iga cho‘ktirib yuborishga uringan Aureliano Xosedan farqli o‘laroq, onasini o‘zining diniy layoqati haqidagi afsonalar bilan laqillatib yurgan Xose Arkadio Amarantaning siymosini qalb to‘rida g‘oyat e’zozlar edi. Rimga kelganidan biroz fursatdan so‘ng Xose Arkadio seminariyani tashlab ketdi, ammo Fernandaning uydirma xatlarida ta’kidlangan afsonaviy merosdan mahrum bo‘lmaslik uchun, o‘zining ilohiyot va cherkov aqidalarini izchillik bilan o‘rganayotgani haqida onasiga yolg‘on axborot beraverdi. Bu mulk uni qashshoqlikdan, Trasteverda-

gi uylarning birida ikki do‘sti bilan och-yupun yashayotgan iflos chordoqdan xalos etishi kerak edi. Fernanda o‘limi yaqinligini his etib yozgan oxirgi xatini olib, yasama ziynatlarini jomadonga joyladi, muhojirlar kushxonaga tiqilgan podadek qalashib yotgan, sovuq makaron-u quritilgan pishloqni chaynamay yutishadigan kemaning tryumida okeanni kesib o‘tdi. Hali Fernandaning musibatlar ro‘yxatidangina iborat vasiyatnomasini o‘qimay turiboq, tuzoqqa tushganini va endi bahorning olmos yog‘dusini qayta ko‘rmasligini, uning ko‘hnalik bilan yo‘g‘rilgan havosidan qayta nafas ololmasligini angladi. Ko‘ksovning sillani quritadigan darajada zo‘rayishi tufayli ro‘y beradigan uyqusizlik soatlaridan qachonlardir keksa Ursulaning qiliqlari unda dunyo oldida mudom qo‘rquv uyg‘otadigan zimziyo uy bo‘ylab daydirkan, o‘z baxtsizligining chuqurligini qayta-qayta o‘lchardi.

Xose Arkadioni yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqqan Ursula bolaligidan uni yotoqxona burchagida miq etmay o‘tirishga o‘rgatgan edi. Ursulaning ta’kidlashicha, kech tushishi bilan paydo bo‘lib, butun uy bo‘ylab sanqiydigan o‘liklar faqat o‘sha burchakka yaqin yo‘lamasdi. «Agar sen birorta bema’ni ish qilsang, – deb po‘pisa qilardi unga Ursula, – aziz avliyolar menga shu zahotiyoq aytib berishadi». Xose Arkadio bolaligida burchakdagi kursida qimir etmay, ayg‘oqchi avliyolarning sovuq nigohidan terga tushib, uyqu vaqtigacha qo‘rqa-pisa o‘tirib chiqardi. Ushbu qo‘shimcha azobga hech bir hojat yo‘q, chunki Xose Arkadio shusiz ham atrofini qurshagan hamma narsadan: odamlardan, voqea-hodisalardan, qon-

ni buzuvchi ko‘cha ayollaridan, cho‘chqa dumli bola tug‘adigan xonaki ayollardan, birovlarga ajal, boshqalarga bir umrlik vijdon azobi keltiruvchi urishqoq xo‘rozlardan, birinchi muloqotdayoq kishini yigirma yillik urushga yo‘liqtiradigan quroldan, oxir-oqibatda umidlarni puchga chiqaruvchi va jinnilik bilan yakunlanuvchi yengiltak yumushlardan va umuman, Xudo yaxshilik uchun yaratgan-u, ammo shayton yo‘ldan ozdirgan barcha narsalardan qo‘rqishga shay edi. Tunlari mudhish tushlar azobida qiynalib chiqar, ertalab esa derazadan tushayotgan quyosh nurlari-yu, uni basseynda cho‘miltiradigan Amarantaning mehribon qo‘llari qalbiga najot-u umid ato etardi. Quyoshda charaqlab turgan bog‘da Ursula ham boshqacha bo‘lib tuyilardi. Kampir endi dahshatli hikoyalari bilan cho‘chitmas, balki tabassumi Rim papasiniki kabi yoqimtoy bo‘lsin, deya mayda ko‘mir bilan bolaning tishini yuvar, Rimga yer yuzining turli burchaklaridan ziyoratga kelganlar papa o‘z qo‘lini naqadar ozoda tutishini ko‘rib taajjublansin, deya tirnoqlarini olar, chevarasi ham papaday xushbo‘y bo‘lishi uchun uning boshiga gul suvini purkardi.

Papaning Kostelgandelfs qasri hovlisiga qaragan balkonda turib, ziyoratga kelgan olomon huzurida yetti tilda nutq so‘zlaganini ko‘rgan Xose Arkadio, bosh ruhoniy qo‘llarining sutga chayilganday oqligini, yozgi kiyimining g‘oyat orastaligini va undan taralayotgan muattar atirning hidini payqadi, xolos.

Xose Arkadioning uyga qaytib, bir yil ichida kumush shamdonlarni va tamg‘alar bilan bezatilgan tilla tuvakni (ochig‘ini aytganda tuvakning

faqat tamg‘alarigina oltindan edi) sotib bo‘ldi. Endi uning birdan bir mashg‘uloti – uyga shahar bolalarini to‘plab, ularga to‘la erk berishdan iborat edi. U peshin mahali ularga bog‘dagi arqondan sakrashlariga, peshayvonda qo‘shiq aytishlariga, yumshoq jihozlarning ustida o‘mbaloq oshib o‘ynashlariga ruxsat berar, o‘zi esa bolalarga yaxshi odatlarni o‘rgatgancha, u guruhdan bunisiga o‘tardi. Bu vaqtda u tor shimi-yu shoyi ko‘ylagini tashlab, arablarning do‘konidan olgan oddiy kostyumda yurar, ammo haliyam qarashlari horg‘in va papaga xos odatlarini tashlamagandi.

Bolalar, xuddi Memening maktabdosh dugonalari singari, uyni tezda o‘zlariniki qilib olishdi. Uy intizomsiz maktab-internatga o‘xshab qoldi: kechasi allamahalgacha bolalarning chug‘ur-chug‘ur suhbati, qo‘shig‘i va yer depsinib raqsga tushayotgani eshitilardi. Oldiniga Aureliano bunga e’tibor bermadi, lekin bolalar tez orada Melkiadesning xonasini ham ishg‘ol etishdi. Bir kuni ertalab xona eshigidan mo‘ralagan ikki bola stol yonida qo‘lyozma o‘qiyotgan irkit, sochlari to‘zigan odamni ko‘rib, cho‘chib tushishdi. Bolalar ichkariga kirishga jur’at qilisholmadi, ammo o‘sha kundan boshlab xonadagi g‘alati kimsaga qiziqib qolishdi. Ular xonaga derazachadan iflos narsalarni otishardi. Bir gal hatto deraza-yu eshiklarni mixlab tashlashdi. Aureliano naq yarim kun qamalib qoldi. Qiliqlari jazosiz qolavergach, bolalar battar haddan oshdilar. Aureliano oshxonaga chiqqanida to‘rt nafar bola, qo‘lyozmalarni yo‘qotish uchun Melkiadesning xonasiga kirdi. Ammo ular sarg‘ayib ketgan qog‘ozlarga qo‘l tegizgan zahoti, allaqanday kuch ularni tepaga ko‘tardi

va Aureliano qaytib kelib, qo‘lyozmalarga egalik qilmaguncha havoda muallaq ushlab turdi. Shushu, bolalar uni qaytib bezovta qilishmadi.

Garchand, o‘smirlik yoshiga yetishsa-da, haligacha kalta ishtonchalarini tashlamagan to‘rt nafar bola ertalab hammadan oldin kelishib, Xose Arkadioning soqolini olishar, badanini uqalashar, qo‘l-oyoqlarining tirnoqlarini egovlab, boshiga gul suvini purkashardi. Ulardan biri – sochi malla va jingalak, quyonko‘z bola odatda tunagani qolardi. Bola ustoziga shu qadar bog‘lanib qolgan ediki, Xose Arkadio astmadan azoblanib, kechalari qorong‘i xonalar bo‘ylab bedor kezganida ham uning yonidan jilmasdi. Bir kuni yarim tunda ular Ursulaning yotog‘idagi sement polning yorig‘idan taralayotgan sarg‘ish yog‘duni payqab qolishdi. Go‘yoki pastdan yerosti quyoshi nur sochayotgandek tuyilardi. Ular Ursulaning karavoti ostidagi plitalarni ko‘tarishdi: Aureliano Ikkinchi o‘jarlik bilan uzoq vaqt qidirgan xazina pol tagida edi. Bu yerda og‘zi mis simlar bilan bog‘langan uchta brezent qop yotar, ularning ichida qorong‘ilikda cho‘g‘dek shu’la sochayotgan yetti ming ikki yuz-u o‘n to‘rtta asl tilla tanga bor edi.

Xazina topilishi qorong‘ilik qa’rida yalt etib chiqqan chaqmoqqa o‘xshardi. Ammo Xose Arkadio och-yupun paytlarida qalbida olib yurgan orzusini amalga oshirish – oyog‘i ostidan chiqib qolgan xazinani Rimga olib ketish o‘rniga, uyni dekadentlik jannatiga aylantirdi. Yotoqxonadagi baxmal pardalar va baldaxin yangilandi, hammomdagi polga plita to‘shaldi, devorlarga koshinlar qoplandi. Oshxonadagi sovutgichni shirin-shakar mevalar, dudlangan go‘sht bilan

to‘ldirildi, doimo yopiq turadigan omborxona eshigi ochilib, u behisob may va likyorlarni o‘z bag‘riga oldi, ichimliklar ustiga Xose Arkadioning nomi yozilgan qutilarga kelardi. Bir kuni u o‘ziga yaqin to‘rt nafar o‘smir bilan tonggacha bazm qildi. Ertalab soat oltida yotoqxonadan qip-yalang‘och holda chiqishdi va basseyn suvini chiqarib yuborib, shampan bilan to‘ldirishdi. Bolalar yakdillik bilan suvga sakrashdi. Xose Arkadio ulardan sal nariroqda chalqancha tushib yotardi. U o‘z fikrlariga g‘arq bo‘lib, ko‘zlari ochiq, Amarantani xotirlar edi. Bolalar tezda toliqishdi va to‘rtovi ham yotoqxonaga kirib, baxmal pardalarni yulib olib artinishdi, so‘ngra rosa to‘polon qilib, qimmatbaho ko‘zgularni sindirishdi, keyin karavotga chiqib, baldaxinni uzib, yerga uloqtirishdi. Xose Arkadio ichkariga kirib, ko‘z oldida namoyon bo‘lgan bu noxush manzaradan emas, balki bema’ni aysh-ishrat tufayli shu qadar tubanlikka tushgani uchun o‘zidan nafratlanib ketdi, ko‘zlari g‘azabga to‘ldi. U sandiq tubida hirqa va temir-tersaklar orasida yotgan darrani qo‘liga oldi-da, jinnilarcha baqirib, bolalarni savalay boshladi. Xose Arkadio sobiq do‘stlarini shu qadar g‘azab bilan urardiki, hatto o‘laksaxo‘r chiyabo‘rilar to‘dasiga ham hech qachon bunchalar shafqatsizlik qilmagan bo‘lardi. Nihoyat, u xonada yolg‘iz qoldi. G‘oyat toliqdi, astma tag‘in xuruj qilib, uch kun surunkasiga azob berdi. Nihoyat, og‘riq sal pasaygach, Xose Arkadio xuddi o‘layotgan odamga o‘xshab qoldi. Astma xurujining uchinchi kechasi azobga chidayolmay, Aurelianoning xonasiga kirdi va undan dorixonaga borib kelishini iltimos qildi. Aureliano umrida

ikkinchi bor ko‘chaga chiqdi. U atigi ikki ko‘cha nariga o‘tganidan so‘ng, chang bosgan peshtaxtasiga chinni idishchalar terib qo‘yilgan kichkina dorixonani ko‘rdi. Nil daryosi iloni kabi silliq bir qiz unga Xose Arkadio nomini bir parcha qog‘ozga yozib bergan dorini uzatdi. Osma chiroqlarning sarg‘ish nuri g‘ira-shira yoritgan kimsasiz ko‘chalar Aurelianoda zarracha qiziqish uyg‘otmadi, entikib-entikib, oyoqlarini zo‘rg‘a bosib yurardi. Tun-u kun bir joyda bosib o‘tiraverganidan a’zolari paxtaday bo‘lib bo‘shab qolgan edi. Qaytib kelganida, Xose Arkadio uni qochib ketgan, deb gumonsirab o‘tirgan ekan. Lekin Aureliano yorug‘ dunyoga shu qadar loqayd ediki, bir necha kundan so‘ng Xose Arkadio xohlagan paytida ko‘chaga chiqishga ijozat berganida:

– Mening ko‘chada ishim yo‘q, – deb javob qildi. Aureliano xonasidan umuman chiqmas, hali yozuvlarning ma’nosiga tishi o‘tmasa-da, qo‘lyozmalar tilsimini ochishga urinardi. Xose Arkadio unga dudlangan go‘sht, shakar qiyomiga botirilgan, og‘izda bahor ta’mini qoldiruvchi gullar keltirib turardi. Hatto ikki marta bir qadahdan asil may ham olib keldi. Xose Arkadio qo‘lyozmalarga mutlaqo e’tibor bermas, ularni shunchaki ermak deb tushunardi. Ammo endi zohid qarindoshiga juda qiziqib qolgan edi. Ma’lum bo‘lishicha, Aureliano inglizchani ham bilarkan. U qo‘lyozmalardan bosh ko‘targan qisqa tanaffus paytlarida olti tomli inglizcha ensiklopediyani boshidan adog‘igacha, xuddi qiziqarli roman singari o‘qib chiqqan edi. U Rim to‘g‘risida xuddi Rimda ancha yashagan odamdek hikoya qilardi. Avvaliga Aure-

lianoning hikoyalarini ensiklopediyadan olingan ma'lumotlarga yo'ygan Xose Arkadio bora-bora, Aurelianoning ensiklopediyada yo'q narsalarni, masalan, mollarning bahosi haqida ham chuqur ma'lumotga ega ekanligi ayon bo'ldi. Bularni qayerdan o'rganib olganligi haqidagi savollarga u doimo «hamma narsani bilib olish mumkin» deya javob qaytardi. O'z navbatida, Aureliano ilgari faqat uzoqdan, xonalar bo'ylab kezayotganida ko'radigan Xose Arkadioni yaqinroq taniganidan so'ng, u haqida paydo bo'lgan oldingi tasavvuri butunlay boshqacha ekanidan taajjublandi.

Xose Arkadio ham kulishga qodir ekan, ba'zida xonadonning ilgarigi shukuhini eslab qayg'urarkan, Melkiadesning xonasi xarob bo'lganidan dili ozor chekarkan, endi Xose Arkadio Aurelianoga bemalol murojaat qiladigan, ayrim turmush ikir-chikirlarini hal qilishda uning yordamiga suyanadigan bo'ldi. Aurelianoga peshayvonga chiqib o'qishga, Amaranta Ursuladan keladigan xatlarni olishga va hatto hammomdan foydalanishga ruxsat berildi.

Issiq tonglarning birida ularni eshikning bezovta taqillashi uyg'otib yubordi. Ostonada qandaydir notanish chol turardi. Uning yirik-yirik yashil ko'zlari xushbichim yuzini yoritib o'tganday edi. Uvadasi chiqqan kiyimi, yamalgan poyabzali, yelkasidagi eski qopidan darbadar gadoyga o'xshasa-da, kelgindi o'zini g'arib ahvoliga zid bir viqor bilan tutardi. U polkovnik Aureliano Buendianing o'n yetti o'g'lidan yakka-yu yagona tirik qolgani oshiq Aureliano edi. U ta'qib-u qochoqlikdan bezor bo'lib, ozgina bo'lsa-da, orom axta-

rib kelgan edi. Chol o‘zining ismini aytdi, uyqusiz tunlarimda eng so‘nggi makon bo‘lib tuyilgan shu aziz maskandan panoh beringlar, deb iltijo qildi. Ammo Xose Arkadio bilan Aureliano uni mutlaqo tanimas edilar, shu bois, cholni anchayin daydi deb o‘ylab, ko‘chaga haydab chiqarishdi va ikkovi eshik yonida turgancha, hali Xose Arkadio tug‘ilmasidan oldin boshlangan fojianing yakunini ko‘rishdi: ko‘chaning narigi yuzidagi bodom daraxtlari ostida politsiyaning ikki agenti paydo bo‘ldi. Ular oshiq Aurelianoni iskovich itlardek necha yillardan beri poylab yurishardi, ikkita o‘q uzildi va oshiq Aureliano yuztuban ag‘darildi – o‘qlar peshonasidagi xochga bexato tekkan edi.

Xose Arkadio bolalarni uydan haydab yuborgan kundan boshlab, har kuni transatlantik kemani kutardi, u o‘sha kemada rojdestvo bayramigacha Neapolga suzib ketishi kerak edi. Niyatini Aurelianoga ham aytdi va hatto, senga kuning o‘tib turishi uchun yaroqli biror tijorat ishi ocharman, deya va’da qildi. Chunki Fernandaning o‘limidan so‘ng Petra Kotes oziq-ovqat solingan savat yubormay qo‘ygan edi. Lekin Xose Arkadioga orzulari ijobatini ko‘rmoq nasib etmagan ekan. Sentabr tonglaridan birida u Aureliano bilan oshxonada qahva ichib bo‘ldi, so‘ng basseynga borib cho‘milayotganida, o‘sha o‘zi darralab haydab yuborgan to‘rt o‘smir tomdan pastga sakrab tushdi. Ular basseynga kiyimlari bilan tushib, Xose Arkadioning sochidan ushlashdi, to suv sathidagi havo pufakchalari yo‘qolib, papa taxti vorisining oppoq tanasi xushbo‘y suv tubiga cho‘kib ketmaguncha boshini suvga tiqib turishdi. So‘ng ular marhum va o‘zlaridan boshqa hech kimsa bilmaydigan xil-

vatgohdan uch qop tillani olib ketishdi. Bu jinoyat tezlik, uyushqoqlik va yovuzlik bilan o‘tkazildi.

Xonasida biqinib o‘tirgan Aureliano hech narsani sezmadi. Kechqurun oshxonaga kelganida Xose Arkadioni esladi, uni butun uy bo‘ylab qidirdi va nihoyat, hammomdan topdi. Tani meshday shishib ketgan Xose Arkadio hamon Amaranta haqida o‘ylagancha, muattar suv sathida qalqirdi. Aureliano shundagina uni yaxshi ko‘rib qolganini tushundi.

* * *

Amaranta Ursula dekabr oyining boshlarida keldi. Qo‘lidagi shoyi tizginning bir uchi ortidan ergashgan erining bo‘yniga bog‘langan edi. U hech kimni ogohlantirmay, to‘satdan paydo bo‘ldi. Ayol oq ko‘ylak kiygan, bo‘ynidagi marvarid shodasi tizzasiga tushar, barmoqlaridagi zumrad va topaz ko‘zli uzuklari ko‘zni qamashtirar, dumaloq shaklda kesilgan silliq sochlari qaldirg‘ochning qayrilgan qanoti kabi yonoqlariga tushib turardi.

Yarim yilcha ilgari nikohdan o‘tgan flamandiyalik xushqomat eri dengizchilarga o‘xshab ketardi. Amaranta Ursula mehmonxona ostonasidan hatlashi bilan, uzoq hayallab qolganini, uylari o‘zi o‘ylagandan ham battar g‘ariblashganini angladi.

– Xudoyim-ey! – deb xitob qildi u, g‘amdan ko‘ra shodlik ustunroq bir ohangda. – Bu uyda ayol yo‘qligi shundoq bilinib turibdi!

Uning yuklari peshayvonga sig‘madi. O‘zi Bryusselga olib ketgan Fernandaning eski sandig‘idan tashqari, ikki javon kiyim-kechak, to‘rtta jomadon, bir qop soyabon, shlyapa solinadigan

sakkizta quti, ellik sa’va solingan ulkan qafas, maxsus g‘ilofga solingan yig‘ma velosiped olib kelgan edi. Og‘ir yo‘l bosib kelganiga qaramay, bir soniya ham dam olmadi. Erining dag‘al korjomasini kiyib, uyni yig‘ishtira boshladi. Peshayvonni ishg‘ol etgan sariq chumolilarni haydadi, atirgullarni suv quyib tiriltirdi, begona o‘tlarni tag-tomiri bilan yulib tashladi, guldonlarga qirqquloq, jambil va begoniya ko‘chatlari o‘tqazdi. Amaranta Ursula pol yoriqlarini yamashda, deraza romlari-yu eshiklarni joyiga o‘rnatishda, jihozni tuzatishda, ichki va tashqi devorlarni oqlashda bir to‘da duradgor, chilangar va g‘isht teruvchilarga boshchilik qildi. Uch oy deganda u yana avvalgi holiga qaytdi. Xonadonda pianola davridagi kabi yoshlik sururi va sho‘x-shodonlik hukm sura boshladi. Bu devorlar har qanday vaziyatda ham tushkunlikka tushmaydigan hamda qo‘shiq aytishga, raqs tushishga va axlatxonaga eski buyumlar-u ko‘hna urf-odatlarni tashlab yuborishga doimiy shay turadigan Amaranta Ursuladek odamni hech qachon uchratmagan. U dafn marosimlariga taalluqli buyumlarni, burchaklarda to‘planib qolgan barcha keraksiz lash-lushlarni chiqarib tashladi. Ursulaga bo‘lgan hurmati yuzasidan birgina Remediosning suratini qoldirdi, xolos. «Qaranglar – derdi Amaranta Ursula o‘zini kulgidan zo‘rg‘a tiyib, – o‘n to‘rt yoshli katta buvim! Qanchalar go‘zal!»

G‘isht teruvchilardan biri uyning arvohlarga to‘lib-toshganini va ularni qochirib yuborishning yagona to‘g‘ri yo‘li ularning yashirib qo‘yilgan xazinalarini qidirish ekanini ayta boshlaganida,

Amaranta Ursula xaxolab kuldi-da, erkaklarning irimga ishonmasligini aytdi.

Amaranta Ursula shu qadar ochiqko‘ngil, mustaqil, zamonaviy ayol ediki, uni ko‘rgan Aureliano qo‘l-oyoqlarini yashirgani joy topolmadi. «Uh, senimi! – deb qichqirdi Amaranta Ursula unga quchog‘ini ocharkan. – Qaranglar-a, mening odamxo‘rim yigit bo‘lib qolibdi-ya!» Aureliano og‘iz ochishga ham ulgurmasidan Amaranta Ursula o‘zi olib kelgan kichkina patefonni qo‘ydi-da, yigitga zamonaviy raqs o‘rgata boshladi. Keyin unga polkovnik Aureliano Buendiadan qolgan yog‘ bosgan ishtonini almashtirishni talab qildi, guldor ko‘ylaklar-u bejirim poyabzal sovg‘a qildi.

Ursulaga o‘xshagan jo‘shqin, kichik jussali, tiyiqsiz Amaranta Ursula go‘zallik va joziba bobida go‘zal Remediosdan qolishmasdi. Unda eng yangi kiyimlar modasi qanday bo‘lishini oldindan sezishdek noyob bir qobiliyat bor edi. Uylariga pochtadan kelgan va so‘nggi modalar jurnali Amaranta Ursula o‘zi ixtiro qilgan va Amarantaning almisoqdan qolgan tikuv mashinasida tikkan kiyimlarining modellari ayni zamonaviy ekanligini tasdiqlardi. U Yevropada chiqadigan barcha moda jurnallariga, san’at va musiqaga taalluqli nashrlarga obuna bo‘lgandi, ammo ularni varaqlashi bilanoq dunyodagi hamma narsa o‘zi tasavvur etganidek borayotganini ko‘rardi. Shunday dono va zukko ayolning chang-to‘zon bosgan jazirama issiqdan fig‘on chekayotgan bu o‘lik shaharga qaytib kelganiga, boz ustiga puli dunyoning istalgan qismida o‘ynab-kulib hayot kechirishga bemalol yetarli, uni hatto bo‘yniga tizgin soldirish darajasida sevadigan eri bilan birga kelganiga

hech aql bovar qilmasdi. Ammo bir-birini quvlab o‘tayotgan kunlar Amaranta Ursulaning niyati bu yerda doimiy qolish ekanini oshkor qiladi; uning barcha rejalari uzoq muddatga mo‘ljallangan, harakatlari esa keksayganida Makondodagi hayoti qulay va tashvishsiz bo‘lishini ta’minlashga borib taqalardi. Sa’va solingan qafas uning qarori tasodifiy emasligini isbotlardi. Onasining maktublaridan Makondoda qushlarga o‘lat tekkanini bilgach, Amaranta Ursula Kanar orollariga boradigan teploxodni kutish uchun Yevropada bir necha oy ushlanib qoldi va o‘sha oroldan Makondo osmonini qushlar bilan to‘ldirish maqsadi-da yigirma besh juft sa’va sotib oldi. Endi Amaranta Ursula bola ochgan juftlarni qafasdan bo‘shatar ekan, qushlar shu zahotiyoq Makondoni tashlab ketishardi. Amaranta Ursula uy birinchi marotaba qayta qurilganida Ursulaning buyurtmasi asosida yasalgan qafaslar bilan ham qushlarning diqqatini jalb etolmasdi. Ular uchun bodom shoxlariga uvadadan inlar yasash ham, tomlarga don sepib qo‘yish ham, tovushlari qochoqlarni ortga qaytarishi mumkin degan o‘y bilan qafasdagi sa’valarni sayrashga o‘rgatishlar ham ijobiy natija bermadi. Ozodlikka chiqqan qushlar shiddat bilan osmonga ko‘tarilib, faqat bir maqsadda – Kanar orollari jahonning qaysi tomonida ekanini aniqlash uchun shahar uzra bir bora aylanib, so‘ng ko‘zdan g‘oyib bo‘lishardi.

Amaranta Ursulaning qaytib kelganiga bir yil to‘ldi. Bir yil ichida u na Makondo ahli bilan do‘stlashishga va na biror bayram uyushtirishga muvaffaq bo‘ldi. Lekin u bu mudroqqa cho‘mgan shaharni baribir uyg‘otishiga ishonar edi. Uning

eri Gaston, garchi u o‘sha jazirama choshgoh mahali poyezddan tushganidayoq xotinining bu yerga qaytib kelishiga yagona sabab Vatan sog‘inchi ekanini tushungan bo‘lsa-da, xotinining mayllariga monelik qilmasdi. Amaranta Ursulaning xayolparastligi ado bo‘lishiga qattiq ishongani bois, Gaston hatto velosipedini yig‘ishni o‘ylamasdi. U kun bo‘yi g‘isht teruvchilar devordan supurib tushirgan o‘rgimchak inlarini titib, eng chiroyli o‘rgimchak tuxumlarini qidirardi. So‘ng ularni tirnog‘i bilan yorar va zarrabin tutib, tuxum ichidan chiqayotgan o‘rgimchaklarni tomosha qilardi. Keyinchalik u velosipedini yig‘di-da, bo‘sh vaqtlarini hasharotlarni tutib quritishga bag‘ishladi. Hasharotlarni murabbodan bo‘shagan idishlarga joylab, Lede universitetidagi keksa tabiatshunos professorlardan biriga jo‘natardi. Gaston, garchi sevimli sohasi aviatsiya bo‘lsada, ancha ilgari ana shu professor rahbarligida etimologiya fani sirlarini o‘rgangandi. U har gal velosiped minishdan oldin akrobatlarning trikosini, volinka[1] chaluvchi musiqachilar kiyadigan paypoq kiyar, boshiga maxfiy agentlarning bosh kiyimini bostirib olardi. Piyoda sayrga chiqqanida esa u hatto gard ham yuqmagan kanop kostyum, oq poyabzal, tepa qismi pastroq poxol shlyapa kiyib, shoyi bo‘yinbog‘ bog‘lar va qo‘liga yangi hassa ko‘tarib olardi. Ko‘zlarining qoramtirligi tufayli u dengizchiga yanada ko‘proq o‘xshab ketar, mo‘ylovi xuddi olmaxonning mo‘ynasiday sarg‘ish-malla edi. Garchand, u xotinidan kamida o‘n besh yosh katta bo‘lsa-da, yoshlarga xos odatlari, rafiqasining ko‘nglini olishga doimiy

[1] Volinka – puflab chalinuvchi soz.

shayligi ayni farqqa barham berardi. Bo‘yniga tizgin solingan, velosiped minib yuradigan bu vazmin kishini ko‘rganlar Gaston yosh xotini bilan uning ehtirosli istaklarini hech qachon qaytarmaslikka bitim tuzganday ko‘rinardi. Er-xotin agar qalblarini sevgi xayajoni qamrasa, o‘z tuyg‘ularini tizginlashga intilmasdilar ham. Ular tanishuvlarining ilk kunlaridanoq shunday qilishardi, vaqt va favquloddagi hayotiy sharoitlar ularning ehtirosini yanada chuqurlashtirar, yanada boyitardi. Gaston nafaqat bitmas-tuganmas tasavvuri, sevgi bobida ham chuqur bilimga ega, balki o‘zi-yu qaylig‘ining hayotini xavf ostida qoldirib bo‘lsa-da, tarixda samolyotni binafshazorga qo‘ndirgan birinchi erkak hamdir. Ular binafshalar qulf urib ochilgan dala ustida uchib borisharkan, Amaranta Ursulada ayni gulzor bag‘rida visol lazzatini totmoq istagi tug‘ilgan edi.

Ular to‘ylaridan uch yil ilgari tanishdilar: bir kuni Gaston Amaranta Ursula o‘qiydigan kollej ustida sportchilar biplanida[1] turli shakllar yasab uchayotganida, tomdagi bayroq dastasiga urilib ketmaslik uchun keskin burildi. Parusina va alyumindan yasalgan samolyotning dumi simga ilinib, havoda muallaq osilib qoldi. O‘sha kundan boshlab, Gaston taxtakachlangan oyog‘iga ham e’tibor bermay, rohibalar pansioniga har shanbada Amaranta Ursulani so‘roqlab kirar va uni sportchilar klubiga olib ketardi. Ular bir-birlarini sevishlarini ilk bor havoda, yerdan besh yuz metr balandlikda bilishdi. Buyumlarning shakli kichraygan sari ularning o‘zaro tuyg‘ulari o‘shancha ravshanroq namoyon bo‘lardi. Qiz unga ja-

[1] Biplan – ustma-ust qanotli samolyot.

hondagi eng go‘zal va eng tinch maskan – Makondo haqida so‘zlar, o‘sha joyda, jambil hidi ufuruvchi ulkan bir uyda yashasam, vafodor erim bo‘lsa, ismlari Aureliano yoki Xose Arkadio emas, balki Rodrigo va Govsalo degan ikki o‘g‘lim, ismi Remedios emas, Virjiniya degan qizim bo‘lsa, deb orzu qilardi. Amaranta Ursula sog‘inch tufayli yanada aziz ona shahri siymosini o‘jar bir hayajon bilan chizardiki, Gaston, agar u bilan Makondoga bormasam, menga tegishi qiyin, deb o‘yladi. U keyinchalik bo‘yniga tizgin solishlariga rozi bo‘lgani kabi, Amaranta Ursulaning navbatdagi talabiga ham e’tiroz bildirmadi, chunki bularning hammasini o‘tkinchi tantiqlik, deb hisoblar edi. Makondoga qaytganlariga ikki yil to‘lsa-da, Amaranta Ursula hech zerikmas, o‘sha birinchi kundagidek shod edi. Buni ko‘rgan Gaston tashvishlana boshladi. U Makondodagi barcha hasharotlarni quritib bo‘lgan, ispan tilini mahalliy shevada gapirish darajasida o‘rganib qolgan, pochta keltirgan barcha jurnallardagi krossvordlarni yechib bo‘lgan edi. Issiq iqlim Gastonning qaytib ketish muddatini tezlashtira olmas, chunki tabiat uning jigarini go‘yoki koloniyalardagi hayot uchun yaratgandek edi: jigari choshgohdan so‘nggi jazirama issiqqayam, sasigan suvgayam hech qanday qarshiliksiz tob berardi. Gastonga mahalliy taomlar ham yoqib qolgandi, u hatto bir kuni iguanalarning[1] sakson ikkita tuxumidan tayyorlangan quymoqni paqqos tushirgandi. Amaranta Ursula uchun esa poyezd muz solingan qutichalarda baliq va ustiritsalar,

[1] Iguana – tropik mamlakatlarda yashaydigan ulkan kaltakesak.

tunuka idishlarda konsevalangan go‘sht va meva keltirardi, chunki u boshqa ovqatlarni yeya olmasdi. Garchand, yasan-tusan qilib boradigan joylari bo‘lmasa-da, eri uning kalta yubkalarini, sal qiyshaytirib kiyadigan fetr shlyapalarini, yetti shodali marvaridini munosib baholay olmasa-da, Amaranta Ursula yevropacha urfda kiyinish va modalar jurnalini olib turishni kanda qilmasdi. Chamasi uning siri shunda ediki, u o‘ziga hamisha biror bir yumush topardi va o‘zi vujudga keltirgan turmush muammolarini o‘zi hal qilardi. Yo‘l qo‘ygan xatosini ertasigayoq uning o‘zi tuzatishga urinar, eri uning bu fe’lini ko‘rib, nihoyatda tirishqoqlik bilan shug‘ullanishdek bema’ni xislatni meros qilib olgan, deb o‘ylardi. Amaranta Ursuladagi quvnoqlik xislati buloq suvidek qaynardi. Har gal yangi plastinkalar kelganida u erini mehmonxonada olib qolar, birgalikda yarim tungacha yangi raqslarni o‘rganardi. Raqslarni sharhlovchi izoh va suratlarni maktabdosh dugonalari yuborib turardi. Raqs saboqlari odatda visol lazzati bilan yakunlanar, er-xotin tebranma kursida o‘tirib yoki shundoq yaydoq polga yotib ishlarini bitirib qo‘ya qolar edilar. Amaranta Ursulaning to‘la ma’noda baxtli bo‘lmog‘i uchun farzand yetishmasdi, xolos. Lekin er-xotin dastlabki besh yilda bolali bo‘lmaslikka kelishib olishgan edi.

Gaston bo‘sh soatlarida ovunish maqsadida har kuni ertalab Aureliano bilan suhbatlashgani Melkiadesning xonasiga kirardi. U o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtning eng xilvat go‘shalarini eslashni yoqtirardi. Aureliano, garchand, u yerlarda biror marta bo‘lmagan bo‘lsa-da, Gastonning vatani haqida go‘yo o‘sha joyda ko‘p yillar yasha-

gan odam kabi batafsil so‘zlashardi. Gaston undan, bu gap ensiklopediyada yo‘q-ku, qayerdan o‘rganding, deb so‘raganida Aureliano mudom: «Hamma narsani bilib olish mumkin», – deya javob berardi. Aureliano sanskritdan tashqari ingliz va fransuz tillarini ham o‘rganib oldi, hatto lotin va yunon tillari bo‘yicha ham ancha ma’lumotga ega bo‘ldi. Endi u har kuni kechqurun uydan chiqardi. Amaranta Ursula unga bir haftalik xarajat uchun pul berib turardi. Melkiadasning xonasi kataloniyalik olimning kitob do‘koni filialiga o‘xshab borardi. Aureliano yarim tungacha kitob o‘qib o‘tirardi. Ammo uning fikr yuritishini tinglab ko‘rgan Gaston, Aureliano o‘z bilimini boyitish uchun emas, balki o‘ziga ma’lum bo‘lgan haqiqatlarga dalillar axtarish uchun kitob o‘qiydi, degan xulosaga keldi. Yigitni dunyoda hammadan ko‘p qo‘lyozmalar qiziqtirardi. Aureliano qo‘lyozmalarni o‘rganishga ertalabki eng yaxshi soatlarini bag‘ishlar edi. Gaston ham, Amaranta Ursula ham jon-jon deb uni o‘zlarining oilaviy davralariga qo‘shgan bo‘lardi, ammo Aureliano mudom o‘zini olib qochardi. Uning qiyofasi vaqt o‘tishi bilan tobora qalinlashayotgan bulutsimon bir sir bilan zirh edi. Gastonning u bilan do‘stlashishga bo‘lgan urinishlari natija bermadi, keyin boshqa ermak axtara boshladi. Xuddi shunda uning miyasiga aviapochta xizmatini tashkil qilish fikri keldi.

Aslida bu fikr unchalik yangi emasdi. Hali Amaranta Ursulaga uylanmasdan oldin ham shu gaplar xayoliga kelgan, o‘shanda yigit oilasi palma yog‘i xarid qiladigan Belgiya Kongosida aviapochta kompaniyasi tashkil etishni rejalashtirib

yurardi. Lekin uylanishi va xotini bilan Makondoga ketishga majbur bo‘lgani uchun reja fursati ancha keyinga surildi. Ammo Amaranta Ursula shaharni obodonlashtirish jamiyati tuzishga kirishganini ko‘rib, Makondoda yana xiyla vaqt qolajagini tushundi va Bryusseldagi sheriklariga xat yozib yubordi. Afrikada aviapochta tashkil etdi nima-yu, Karib dengizi havzasida aviapochta tashkil etdi nima? Muzokara olib borilarkan, Gaston shag‘al qoplagan dalada samolyot qo‘nadigan joy tayyorladi, shamol yo‘nalishini o‘rgandi, uchish trassalarini aniqladi, u o‘zining janob Gerbertning xatti-harakatiga o‘xshab ketuvchi faoliyati makondoliklar ko‘ngliga xatarli bir shubha solayotganini sezmasdi ham. Makondo ahli Gaston banan ko‘chatlari o‘tqazishni rejalashtiryapti, ayeroplan haqidagi gaplar bilan bizni chalg‘itmoqchi, xolos deb o‘ylashardi.

Gaston viloyat poytaxtiga bir necha marta bordi, poytaxtdagi ma’murlar bilan uchrashib, ulardan ruxsatnoma oldi hamda aviapochta xususida imtiyozli bitim tuzdi. Bryusseldagi oldingi sheriklar bilan ham xat yozishib turdi. Ayni yozishma Fernandaning tabibi g‘ayblar bilan yozishmasiga o‘xshab ketardi. Axiri, Gaston ularni dengiz orqali birinchi samolyot yuborishga, samolyotni Makondoga eng yaqin portda yig‘ib, so‘ng unda oxirgi manzilga qadar uchib keladigan mexanikni ham yo‘llashga ko‘ndirdi. Dastlabki hisob-kitob va meterologik kuzatishlar tugaganidan bir yil o‘tgach, Bryusseldagi sheriklarining va’dasidan madad olayotgan Gaston tez-tez osmonga tikilib, shamolning tovushiga quloq osgancha shahar ko‘chalari bo‘ylab kezadigan odat chiqardi: u samolyot kelishini kutardi.

Garchand, Amaranta Ursulaning o‘zi buni sezmasa-da, uning qaytishi Aurelianoning hayotida tub o‘zgarishlar yasagan edi. Xose Arkadioning o‘limidan keyin u kitob do‘koniga serqatnov bo‘lib qoldi. Endi butkul ozod bo‘lib, bo‘sh vaqti ko‘p edi, shu sabab, Makondoni bamaylixotir o‘rgana boshladi. Aureliano huvullagan chang ko‘chalar bo‘ylab kezar, vayronaga aylangan uylarni, derazalarning zanglab ketgan to‘rlarini shunchaki qiziqish uchun emas, balki olimona sinchkovlik ila o‘rganar, xotiralar zalvaridan azob chekayotgan makondolik bilan tanishardi. Uning tasavvuri shu qadar kuchli ediki, o‘zicha shahar va banan kompaniyasining oldingi shukuhini xayolida tiklashga harakat qilardi. Banan shirkatining suzish basseyni endilikda chirib tamom bo‘layotgan erkak va ayollar poyabzallariga to‘lgan edi. Aureliano devorlari qulab, yovvoyi o‘t-o‘lanlarga ko‘milib ketgan xarobalar orasida temir zanjirga bog‘lab qo‘yilgan nemis zotdor itining suyaklarini topdi. O‘sha yerda hali-hanuzgacha jiringlab yotgan eski telefonni ko‘rdi, go‘shakni qulog‘iga tutib, ingliz xotinining tashvishli ovozini eshitdi, unga: «Ha, ish tashlash tugadi, uch ming o‘lik dengizga uloqtirildi, banan shirkati ko‘chib ketdi va nihoyat Makondoda osoyishtalik hukm sura boshladi», – deb javob qaytargach, telefon boshqa jiringlamay qo‘ydi. Sayr qilib yurarkan, ilgari yolg‘iz bir maqsad – kumbiamba raqsi, boylam-boylam pullar tikilgan, hozirda esa u yer-bu yerida qizil chiroqlar g‘ira-shira yonib turgan, ko‘chalari shahardagi eng g‘amgin, eng ayanchli, uvada gulchambarlar bilan bezatilgan raqs salonida oriq va semiz bevalar, er nimaligini

bilmay o‘tgan fransuz kampirlar va bobillik onaboshilar hanuzgacha viktrol yonida o‘tirgancha kimlarnidir kutayotgan fohishaxonalar joylashgan qasabaga kelib qoldi. Aureliano Buendialar oilasini biladigan, aqalli polkovnik Aurealiano Buendiani eslaydigan birorta odamni uchratmadi. Faqat birgina chol – uyi yonidagi bog‘chada kechqurunlari diniy qo‘shiq aytib o‘tiradigan keksa habash bundan mustasno edi. Paxtaday oppoq sochi habashni fotonegativga o‘xshatib qo‘ygan edi. Aurealiano u bilan o‘zi bir necha hafta ilgari o‘rganib olgan murakkab shevada gaplashardi. Ba’zida cholning kechki ovqati – xo‘roz kallasidan pishirilgan sho‘rvaga sherik bo‘lardi. Sho‘rvani cholning chevarasi, yo‘g‘on habash juvon pishirardi. Ayolning silliq biqini biyanikiga, ko‘kragi esa qovunga o‘xshar, boshidagi quyuq, simday qattiq soch turmagi go‘yoki o‘rta asr jangchisining dubulg‘asini eslatardi. Juvonning laqabi Jodugar edi. O‘sha paytlar Aureliano idish-tovoqlar, shamdon va boshqa keraksiz buyumlarni sotib, kun kechirardi. Cho‘ntagida bir miri ham qolmagan kezlarda esa, bozorga borib, axlatxonaga tashlab yuboriladigan xo‘roz kallalarini so‘rab olib, semizo‘t va yalpiz qo‘shib, sho‘rva pishirishi uchun Jodugarga eltardi. Chol o‘lgach, Aureliano u yerga bormay qo‘ydi, ammo Jodugar bilan kechalari bodom daraxti ostida, juvon yengil xushtak chalib, o‘tkinchilarni o‘ziga jalb qilayotgan joyda uchrashib turar, antiqa kalla-sho‘rva-yu, qashshoqlikning boshqa tanqis taomlari haqida gaplashgancha sayr qilardi. Juvon, mijozlarimni cho‘chitayapsan, deb shama qilmaganida, balki Aureliano u bilan yana anchagacha quruq

suhbat qilgan boʻlardi. Garchi, Aureliano oʻzini shayton yoʻldan ozdirayotganini sezsa-da, garchi Jodugar bilan tungi suhbatlari shunday yakun topishini tabiiy bir hol, deb hisoblasa-da, ular haligacha biror marta ham birga yotishmagan edi. Xullas, Bryusseldan kelgan Amaranta Ursula unga opalarga xos oʻpich hadya qilganida, Aureliano hali buzilmagan edi. Amaranta Ursula bilan uchrashganida, ayniqsa, xolasi unga zamonaviy raqslarni oʻrgatayotgan paytlarida, u oʻzini ojiz his qilar, nazarida suyaklari paxtaday yumshoq boʻlib qolayotgandek tuyilardi. Bu – Pilar Ternera qartada fol ochish bahonasi bilan qaznoqqa olib kirganida bobosining bobosi polkovnik Aureliano Buendia his qilgan oʻsha tuygʻu edi. Aureliano yana qoʻlyozmalarga berildi, xolasining beozor erkalashlaridan qochishga harakat qila boshladi, ammo qochishga qancha koʻp urinsa, uning kulgisini, tunlari erining bagʻrida baxtiyor mushukday nola chekishini shuncha koʻp qoʻmsar edi.

Bir kuni kechasi er-u xotin qoʻshni xonada sobiq zargarlik ustaxonasida Aurelianoning karavotidan oʻn metrcha naridagi stol ustiga oʻzlarini tappa tashlashib, shisha idishlarni sindirishdi, ammo xlorat kislotasi koʻlmagi ichida ham ish qilaverishdi. Aureliano ertalabgacha mijja qoqmadi. A'zoyi badanini titroq qopladi, boʻgʻziga dahshatli faryod qadaldi. Oʻsha kuni unga cheksiz uzun tuyildi va nihoyat, intizor boʻlib kutilgan oqshom tushib, koʻchadagi bodom daraxti tagiga bordi. Aureliano Jodugarni kutar, ter qoplagan kaftida bir yarim pesoni tutib turar, bu pulni oʻzida pul yoʻqligi uchun emas, balki oʻzi yuz tutgan tubanlikka Amaranta Ursulani ham sherik qilish

niyatida xolasidan so‘rab olgan edi. Jodugar uni o‘zining sham yoqilgan kulbasiga, choyshablarida behisob visol izlari saqlanib qolgan yig‘ma karavotiga boshlab keldi va o‘zining jasur, bag‘ritosh, dag‘al tanini yigitning ixtiyoriga topshirdi. U Aurelianoni shunchaki mishiqi bolakay deb xayol qilgan edi, ammo tez orada haqiqiy erkakka duch kelganini tushundi; Aurelianoning kuchi ayolni titratib yubordi.

Xullas, ular oshiq-moshiq bo‘lib qolishdi. Aureliano ertalab qo‘lyozmalar ustida ishlar, peshingi hordiq paytida esa Jodugarning kulbasiga borardi. Aureliano mahbubasining belida go‘yo violonchel toriga o‘xshash, po‘latday qattiq sim chambarak borligini payqagunicha, oradan bir necha hafta o‘tdi. Chambarakning choki ko‘rinmas, chamasi, Jodugar onadan o‘sha chambarak bilan tug‘ilgandi. Ular chavandozlikdan charchab, odamni karaxt qiluvchi jazirama issiqda o‘tirib ovqatlanishardi. Jodugar ilk bor, o‘zi kula-kula aytganidek, yosh oshig‘iga ega bo‘ldi. Munosabatlar shu darajagacha borib yetdiki, ayol ko‘nglida ma’lum bir umidlar g‘imirlay boshladi, ammo Aureliano nogahon o‘zining Amaranta Ursulani sevishini tan oldi. Bu azobdan o‘zga ayol quchog‘i ham qutqara olmas, aksincha, tajriba orttirgani sayin, xolasiga bo‘lgan ishtiyoqmandlik ufqi tobora kengayib borardi. Jodugar bu gaplardan keyin ham Aurelianodan sovimadi, lekin endi xizmatlari uchun yigitdan haq so‘raydigan bo‘ldi. Agar jazmanida pul bo‘lmasa, nasiyaga ko‘nar, lekin uning qarzini, albatta, devorga barmog‘i bilan chizib qo‘yardi. Jodugar kechki ovqatga chiqib ketgan payt Aureliano uyga qaytardi.

U peshayvonda Amaranta Ursula bilan Gastonga shunchaki bosh irg‘ab o‘tardi. Er-xotin ayni paytda dasturxonga o‘tirishar, keyin yana xonaga berkinib olishardi. Ularning shivir-shiviri, kulgisi Aurelianoning qonini ko‘pirtirar, u hayajon azobida na o‘qir, na yozar va o‘y sura olar edi. Aureliano bir gal katoloniyalik olimning do‘koniga borib, u yerda o‘rta asrlarda suvarak qay usulda yo‘q qilingani xususida munozara qilayotgan to‘rt nafar vaysaqi yigitni uchratmagunicha, uning hayoti shu tarzda kechdi. Aurelianoning birgina Muhtaram Beda[1] o‘qigan kitoblariga ixlosi zo‘rligini bilgan do‘kondor, uni ayni ilmiy munozaraga hakamlik qilishga chorladi va yigit o‘sha zahoti yoq, suvaraklar yer yuzidagi eng qadimiy qanotli hasharot, deb aytdi, ular, hatto Tavrotda ham tilga olingan, odatda bu hasharotlar shippak bilan urib o‘ldiriladi, ammo barcha kurash turlari – pomidor bo‘lakchalarini dorilab qo‘yishdan tortib, to shakar sepilgan ungacha – hamma-hammasi hech bir samara bermaydi, suvaraklarning fanga ma’lum bir ming olti yuz turi insoniyat tarixidagi eng ko‘hna, qat’iy va shafqatsiz ta’qib ob’yekti sanaladi. Hali odamzot tomonidan birortayam tirik mavjudot, shu jumladan, odamlarning o‘zlari ham bu qadar ta’qib qilinmagan, umuman, suvaraklarni yo‘qotishga bo‘lgan intilishni insoniyatga xos asosiy instinkt – ko‘payish instinkti qatoriga qo‘shish mumkin. Shu bilan birga, suvaraklarning hanuzgacha batamom qirilib ketmaganiga sabab shuki, ular qorong‘i burchaklarga berkinib olishadi. Bu hol tug‘ilishdanoq qorong‘ilikdan qo‘rqadigan odamlarning ularga

[1] Muhtaram Beda (673-735) – anglosaks rohibi, tarixchi olim.

qo‘li yetmasligini ta’minlaydi, ammo charog‘on choshgohda yana odamlarga nishon bo‘lishadi. Xulosa qilib aytganda, o‘rta asrlarda ham, hozirgi vaqtda ham va kelajakda ham suvaraklarni o‘ldirishning eng ishonchli usuli ularning ko‘zini quyosh nurlari bilan qamashtirishdir, deb nutqini tamomladi.

Uning fatalizm[1] va donolik bilan yo‘g‘irilgan nutqi ularning o‘zaro do‘stligiga asos soldi. Endi Aureliano hayotidagi ilk va oxirgi do‘stlari – bahsga o‘ch Alvaro, Xerman, Alfonso va Gabriel bilan har kuni kechqurun uchrashib turardi. Kech soat oltida kitob do‘konida boshlanib, tong mahali fohishaxonalarda tugaydigan shovqin-suronli yig‘inlar kitobxo‘r zohid uchun naq bayram edi. Adabiyotning odamlarni masxara qilish uchun o‘ylab topilgan eng yaxshi ermak ekanligi shu paytgacha uning miyasiga kelmagan edi, ammo kechqurungi ichkilikbozliklardan birida Alvaro uni bunga ishontirdi. Alvaroning bu qadar dadillik bilan fikr yuritishi, agar bilimlar turk loviyalarini tayyorlashning yangi usulini ixtiro qilishga ko‘mak berolmasa bir chaqaga ham qimmat, deb hisoblovchi kataloniyalik olimga taqlid ekanini tushunishi uchun ancha vaqt ketdi.

Aureliano suvaraklar to‘g‘risida ilmiy axborot bergan o‘sha oqshomdagi bahs Makondo chetida – qizlar ochlikdan tanlarini sotib kun kechirayotgan g‘aribgina fohishaxonada tugadi. Islovatxona bekasi eshiklarni ochib-yopib turishga ishqiboz edi. Garchi, uning yuzida qotgan tabassumini ko‘rgan mijozlar ayni makonni jiddiy tarzda qabul qilishsa-da, bu uydagi barcha narsalar, hatto

[1] Fatalizm – taqdirga ishonish.

buyumlar ham ro‘yoga o‘xshardi: jihoz o‘tirishlari bilanoq sinib ketardi, ichak-chavog‘i sug‘irib olingan viktrol ichida tovuq tuxum bosib yotar, bog‘da qog‘oz gullar «ochilgan», devorga banan shirkati tuzilmasidan ilgari chiqarilgan kalendarlar va hech qachon chop etilmagan jurnallardan qirqib olingan rasmlar qo‘yilgan ramkalar osilgan edi. Hatto bekaning mijozlar kelgani haqidagi xabarni eshitishib, chet-chetlardan kelishadigan tortinchoq fohishalar ham ro‘yoviy tuyilardi. Ular uyga salomsiz kirib kelishar va egnilaridagi gullari o‘chib ketgan ko‘ylaklarini ilgari qanday soddalik bilan kiyishgan bo‘lsa, o‘shanday soddalik bilan yechishar, hayajonga tushgan chog‘larida: «Voy-y!.. Zo‘rsiz-ku? Qarang, shiftning suvog‘i ko‘chib tushyapti-ku!..» – deya xitob qilishardi. Bir peso-yu ellik sentavo olgan qizlar, pullariga o‘sha zahoti bekalaridan buterbrod sotib olishardi. Aureliano uchun bu g‘arib islovatxona tanholikdan asraguvchi yagona najot edi. Dastlab Aureliano juda uyalardi, negaki, endi ish boshladi deguncha fohishaxona bekasi xonaga kirib, to‘shakda ot surayotgan chavandozga turli-tuman maslahat berar edi. Ammo o‘spirin bora-bora turmushning bu mayday-chuyda ishkallariga parvo qilmaslikka o‘rgandi.

Aureliano to‘rtala do‘stiga birday bog‘lanib qolgan bo‘lsa-da, baribir Gabriel ismli do‘stini ko‘ngliga yaqin sezardi. Bir kuni kechqurun Aureliano polkovnik Aureliano Buendia haqida gap ochganida, birgina Gabriel uning gaplariga ishondi. Hatto, odatda suhbatlariga qo‘shilmaydigan islovatxona bekasi ham, ashaddiy g‘iybatchilarga xos o‘jarlik bilan, men polkovnik Aureliano Bu-

endiani eshitganman, lekin u odam shunchaki bir uydirma, uni hukumat liberallarni o‘ldirish uchun bahona tariqasida o‘ylab chiqargan, deb ta’kidladi. Gabriel esa, aksincha, polkovnik Aureliano Buendianing real shaxs ekaniga hech qanday shubha yo‘q, deb aytdi, chunki polkovnik bilan uning katta bobosi polkovnik Xerineldo Markes ikkovi quroldosh va ajralmas do‘st bo‘lishgan ekan. Gap ishchilarning otilishiga borib taqalganida, makondoliklarning xotirasidagi zaiflik, ayniqsa, kuchayardi. Aureliano ushbu mavzu haqida so‘z ochishi bilanoq, nafaqat fohishaxona bekasi, balki yoshi undan kattaroq odamlar ham stansiya maydonida qo‘shin bilan qurshab olingan ishchilar va o‘liklar ortilgan ikki yuzta vagondan iborat poyezd tarixini uydirma sifatida inkor etishar va o‘z vaqtida sud tergovchisi tomonidan to‘qilgan hamda boshlang‘ich maktablarning darsligiga kiritilgan xulosani pesh qilishardi – unda banan, kompaniyasining hech qachon mavjud bo‘lmaganligi aytilgandi. Shunday qilib, Aureliano bilan Gabriel ulardan o‘zga hech kim tan olmagan haqqoniy dalillarga ishonch asosida do‘stlashgan edilar. Bu dalillar ikkala do‘stga ham katta ta’sir ko‘rsatdi, ularni allaqachon halokatga uchragan va o‘zidan g‘amdan bo‘lak hech narsa qoldirmagan dunyoga xuddi qirg‘oqqa urilib ortga qaytgan to‘lqindek sudrardi. Gabriel qayerda uyqu bossa, o‘sha joyda uxlab qolaverardi. Aureliano uni bir necha bor zargarlik ustaxonasida tunagani olib qoldi, ammo Gabriel bu yerda kechasi bilan mijja qoqmadi, unga to ertalabgacha xona bo‘ylab kezgan o‘liklar xalal berishdi. Keyinchalik Aureliano do‘stini Jodugarga

topshirdi. Ayol ishdan bo‘sh paytlarida Gabrielni ham kulbasiga kiritar, Aurelianoning qarzlari bitilgan devorga tirnog‘i bilan chiziqlar chizib, Gabrielning ham qarzlarini yozib qo‘yardi.

Do‘stlar guruhi o‘zlarining batartib hayot tarziga qaramay, katoloniyalik olimning maslahatlariga binoan, allaqanday umrboqiy narsalar yaratishga urinishardi. Odamlar o‘zlarining boshlang‘ich maktab doirasidagi bilimlarni kengaytirishga na istagi va na imkoniyati bor bu shaharda ularning o‘ttiz yettinchi dramatik vaziyatni qidirib topish niyatida kechasi bilan o‘tirib chiqishlari do‘kondor olimning adabiyot o‘qituvchisi sifatida to‘plagan tajribasi hamda undagi noyob kitoblarning borligi tufayli edi.

Do‘stlik hissiga asir tushgan, ilgari Fernandaning toshbag‘irligi tufayli mahrum bo‘lib, endilikda dunyo go‘zalliklariga maftun bo‘lib qolgan Aureliano bashoratli she’rlarning tilsimi ochilay degan mahalda, qo‘lyozmalarni o‘rganishni bas qildi. Lekin sal o‘tib, garchi, islovatxonaga qatnashini tark etmasa-da, yana qaytib qo‘lyozmalarni qo‘lga oldi. Bu paytda Gaston hamon ayeroplan kelishini kutardi. Amaranta Ursula o‘zini shu qadar yolg‘iz sezardiki, oxiri bir kuni ertalab Aurelianoning xonasiga kirdi.

– Ishlar qalay, odamxo‘r? – deb so‘radi u. – Yana g‘oringga berkinib oldingmi?

Egniga alomat ko‘ylak kiygan, bo‘yniga baliq ustixonidan yasalgan qo‘lbola munchoq taqib olgan Amaranta Ursula juda ochilib ketgan edi. U endi erining sodiqligiga tamom ishonib, uning bo‘ynidagi tizginini olib tashladi va nihoyat unda Makondoga qaytib kelganidan so‘ng ilk marotaba

bo‘sh vaqt topildi. Aurelianoda Amaranta Ursulani ko‘rish va tovushini eshitishga hojat yo‘q edi, u shusiz ham uning kelganini bilardi. Amaranta Ursula xonaga kirib, stolga tirsaklarini qo‘yganida u shu qadar yaqin, shu qadar himoyasiz ediki, Aureliano suyaklari ich-ichidan sirqirab ketganini sezdi va o‘zini jonholatda kitobga urdi. U hayajonini bosishga urinib, allaqayoqqa g‘oyib bo‘lishga intilayotgan ovoziga, uni tashlab ketmoqchi bo‘layotgan hayotga, to‘satdan toshday qotib qolgan xotirasiga jonholatda yopishdi. Amaranta Ursulaga sanskritning kelib chiqishi, yoritilgan vaqt qatlamlari orqali xuddi yoruqqa tutilgan qog‘oz ortidagi harflarni ko‘rganing kabi kelajakni ko‘ra bilishning ilmiy imkoniyatlari, qo‘lyozmadagi bashoratlar o‘z-o‘zini barbod etmasligi uchun ularning tagiga yetish zarurligi hamda Nostradamusning «Asr» degan asari-yu, Kontabriyaning avliyo Milyan bashorat qilgan halokati haqida gapira boshladi. Gapira turib, g‘ayrishuuriy tarzda kaftini Amaranta Ursulaning qo‘liga qo‘ydi – shu bilan hayajonim bosiladi, deb o‘yladi. Ammo Amaranta Ursula xuddi bolaligidagi kabi begunoh bir erkalik va mayinlik bilan uning barmog‘ini ushladi va to savollariga Aureliano javob berishni davom ettirgunicha qo‘yib yubormadi. Ular harakatsiz, muzday ko‘rsatkich barmoq bilan bog‘lanishguncha turib qolishdi, keyin Amaranta Ursula to‘satdan manglayiga bir urib: «Chumolilar!» – deb qichqirdi-da, o‘sha zahoti qo‘lyozmalarni tamom esdan chiqarib, eshik tomon oshiqdi va u yerdan turib, Bryusselga ketayotganida otasi bilan xayrlashgani kabi barmoqlarining uchida Aurelianoga bo‘sa uzatdi.

– Keyin tushuntirarsan, – dedi Amaranta Ursula. – Chumoli iniga ohakli suv quyish esimdan chiqay debdi.

Juvon uyning shu tomonida biror ishi chiqib qolganida yoki eri osmonga uzoq tikilib o‘tirgan chog‘larda Aurelianoning xonasida bir-ikki daqiqa ushlanib qolardi. Aureliano yana uyda ovqatlana boshladi. U Gastonga yoqib qoldi. Ovqat paytida Gaston o‘z sheriklaridan shikoyat qilardi. Aftidan, sheriklari uni laqillatishgan edi, negaki ular ayeroplanni dengiz orqali yubordik, deb xabar berishsa-da, kemachilar hali hech narsa olmadik, deb turib olishardi. Rostdan ham, ayeroplan Karib dengizi portlaridagi birorta ham daftarda qayd etilgani yo‘q edi. Lekin Gastonning sheriklari hamon ayeroplanni yubordik, tag‘in sen o‘zing bizni aldayotgan bo‘lma, deb sha’ma qilishardi. O‘zaro ishonchsizlik shu qadar keskinlashdiki, oxirgi yozishmani yig‘ishtirib, shaxsan o‘zi Bryusselga borishni o‘ylay boshladi. Ammo Amaranta Ursula hech qachon – hatto eridan ajralishga to‘g‘ri kelgan taqdirdayam – Makondoni tark etmayman, deb ta’kidlagach, Gastonning bu rejasi ham barbod bo‘ldi. Dastlab Aureliano, Gaston velosiped mingan jinni degan umumiy fikrga qo‘shildi va unga nisbatan noaniq bir rahmdillik seza boshladi. Keyinchalik fohishaxonalarda erkaklar tabiati haqida chuqurroq bilimga ega bo‘lganidan so‘ng esa, flamandiyalikning xotiniga bu qadar itoat qilishini uning telba ehtirosiga yo‘ydi.

Gastonni yaxshi bilganidan keyin esa Aureliano uning haqiqiy tabiati bilan yasama itoatgo‘yligi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni sezdi va uning bar-

cha xatti-harakatlari, hatto ayeroplanni kutishi ham shunchaki puxta uyushtirilgan o‘yin ekaniga bo‘lgan shubhasini ichiga yutdi. Shunda u Gaston hamma o‘ylaganidek go‘l emas, aksincha, to tevarak-atrofidagi sarob ortidagi zerikishlarga tob berolmay, oxiri Yevropaga ketish uchun jomadonlarini shaylab qo‘yadigan kungacha xotini o‘z girdobiga o‘zi g‘arq bo‘lib yotaverishi uchun imkon yaratgan, o‘zining doimiy yon bosishi, aqalli biror martayam «yo‘q» deya olishga qodir emasligi va yolg‘ondakam itoatgo‘yligi bilan xotinining tinka-madorini quritib, uning ustidan g‘alaba qozonishga ahd qilgan, barqarorligi ulkan, nihoyatda epchil va cheksiz sabr-toqatli odam, degan qarorga keldi. Shundan so‘ng Aurelianoning qalbidagi Gastonga bo‘lgan rahmdillik dahshatli g‘azabga aylandi. Gastonning usuli unga be’mani, biroq shu qadar ta’sirchan tuyildiki, u bundan Amaranta Ursulani asrashga harakat qilish uchun kuch topdi. Ammo u yuragidagi sevgi, ishonchsizlik va rashk yukining qanchalar og‘ir ekanini o‘spiringa mutlaqo sezdirmagani holda, uning shubhasi ustidan kulib qo‘ydi, xolos. Amaranta Ursula to bir kuni konservalangan shaftoli idishini ochayotib barmog‘ini kesib olmagunicha, Aurelianoning unga bo‘lgan mehri opa-ukalari hissidan ayricha ekanini o‘ylamasdi ham. O‘shanda Aurealiano uning barmog‘ini shunchalar hassoslik va sadoqat bilan so‘ra boshladiki, Amaranta Ursulani titroq bosdi.

– Aureliano! – deb kuldi u, ayni voqeadan tashvishga tushib. – Judayam beshafqatsan, sendan tuzukroq qonxo‘r chiqmaydi.

Shunda Aureliano bir zum ixtiyorini yo‘qotdi. U ayolning yaralangan qo‘lini ojiz bo‘salarga

ko‘markan, yuragining tub-tubiga yashirgan sirlarini oshkor etdi. Yarim tunda uyg‘onib, Amaranta Ursulaning quritish uchun vannaxonaga osib qo‘yilgan ich kiyimlariga yuzini burkagancha, umidsizlik va g‘azabdan o‘kirganini aytdi, Jodugarga, «mushukday baqir», quloqlarimga «Gaston, Gas odamxo‘r – qon so‘ruvchi, Gaston!..» deb shivirla, deya iltijo qilganlarini aytdi, ochlikdan o‘lmaslik uchun tanlarini sotuvchi bechora qizlarning bo‘yniga surtish uchun Amaranta Ursulaning atirlarini o‘g‘irlaganlarini aytdi. Uning ehtirosli hasratidan cho‘chib ketgan Amaranta Ursula barmoqlarini musht qilib tuga boshladi.

– Hayvon, – dedi u, – birinchi kema bilanoq Belgiyaga jo‘nayman!

Alvaro kunlarning birida kataloniyalik olimning do‘koniga eng so‘nggi yangilik – zoologik ishratxona xabarini olib kirib keldi. «Tilla bola» deb ataluvchi bu maskan usti ochiq ulkan salon bo‘lib, unda o‘zining sehrli ovozlari bilan vaqtni belgilovchi ikki yuzga yaqin ko‘lbuqa kezib yurardi. Rake maydoni atrofida, sim to‘r bilan o‘rab olingan qo‘tonlarda, ulkan kameliyalar orasida turfa rangdagi qarqarlar, hirsday semiz timsohlar, o‘n ikkita shaqildog‘i bor chinqiroq ilonlar va tillarang suv toshbaqalari yashardi. U yerdagi havoning zichligi shu qadar ibtidoiy bo‘lib, uni go‘yoki hozirgina kashf etishgandi. To‘qqizil gullar va allaqachonoq urfdan qolgan plastinkalar qurshovida erkaklarni kutishaverib, umidlarini yo‘qotgan go‘zal mulat qizlari esa sevgining qirq xilidan xabardor edilar. Do‘stlar birinchi kechasiyoq bu ajoyib makonga borishdi va kiraverishda, liana novdalaridan to‘qilgan kursida o‘tirgan

ulug‘vor va kamso‘z kampirni ko‘rishdi. Kampir besh yigit ichida yonoqlari tatarlarnikiday turtib chiqqan, oriq, g‘amgin va abadul-abadga yolg‘izlik chechagi bilan muhrlangan erkakni ko‘rgach, vaqt bir joyda toptalayotganini his qildi.

– Vuy! – deb pichirladi u. – Aureliano!

Uning qarshisida yana polkovnik Aureliano Buendia paydo bo‘ldi. Hali janglar shuhrati-yu umidlarini ko‘kka sovurgan uzoq quvg‘inlar boshlanmasidan ancha ilgari, umridagi ilk buyruq: unga o‘zini sevish haqida buyruq berish uchun o‘sha uzoq tongda yotog‘iga kirib kelgan va xira chiroq ostida turgan Aureliano Buendia. Kampir Pilar Ternera edi. U bir yuz-u qirq beshga kirgach, yosh sanashdek bema’ni odatdan voz kechgan va kelgusi hayoti aniq hamda bir umrga belgilangan – xom xayol taxminlar-u qartalarning bashorati asosida qurilgan burungi o‘sha omonat kelajagidan ancha yiroq bo‘lgan kimsasiz go‘sha – hatto vaqt ham harakatga keltirolmaydigan xotiralari ichra yashay boshlagandi. Aureliano xotirasida Buendialar avlodining qudrati va halokati, Makondoning yer bilan yakson qilingan shukuhini tiklardi. Bu paytda Alvaro o‘z kulgisi bilan kaymanlarni cho‘chitar, Alfonso bo‘lsa, ko‘lbuqalar o‘zlarini yomon tutgan to‘rt mijozning ko‘zini o‘yib olgani haqida dahshatli latifa to‘qir, Gabriel esa chegarachilar ichsurar dori berib, tuvakka o‘tqazib, keyin unga tushgan olmoslarni topib, Orinokoning nariyog‘idagi qamoqxonaga tiqib qo‘ygan kontrabandachining qaylig‘i bo‘lmish – xizmatlari evaziga pul olmay, mahbubiga maktub yozdiradigan mulat qizning xonasida aysh-ishrat surardi.

Aureliano bu yerda o‘zini shu qadar yaxshi his etardiki, Amaranta Ursula orzularini chilparchin qilgan kechasi shu yerga najot axtarib keldi. U yuragini darddan bo‘shatishni, qalbidagi tugunlarini kimdir yechib yuborishini istardi. Pilar Terneraning etagiga yuzlarini burkagancha, qaynoq ko‘z yoshlarni to‘kib, boshiga tushgan savdoni gapirib berdi. Pilar Terneraga uning sochlarini silab, sal tinchlanishini kutdi.

– Bas qil, kichkintoy, – dedi mehribonlik bilan. – Endi menga ayt-chi, kim u?

Aureliano ayolning nomini aytgan zahotiyoq, Pilar Terneraga xuddi ilgarigidek yurak-yuragidan to‘lib-toshib kuldi. Endi uning kulgisi kaptarlarning g‘uvullashiga o‘xshab qolgandi. Buendialar avlodining barcha vakillari yuragidagi sirlarning eshiklari unga doimo ochiq edi. Qartalar-u to‘plagan tajribalari tufayli bu oila tarixi muqarrar voqealar takroridan tashkil topgan zanjir bo‘lib, abadul-abad aylanaveradigan g‘ildirakka ham monandligini kashf etgandi-da.

– Tashvishlanma, – deb jilmaydi Pilar Ternera. – U qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, seni kutyapti.

Amaranta Ursula soat to‘rt yarimda xalatiga o‘ralib, boshiga sochiq bog‘lab, vannaxonadan chiqdi. Aureliano oyoq uchida uning ketidan ergashdi. U xuddi mast odamday chayqalardi. Amaranta Ursula xalatini yozib yuborgan damda yotoqqa bostirib kirdi, qo‘rqib ketgan ayol etaklarini tezda yig‘ishtirib oldi va indamay barmog‘ini bigiz qilib, eshigi qiya ochiq qo‘shni xonani ko‘rsatdi: Gaston o‘sha yerda xat yozib o‘tirganini bilardi.

– Ket, – dedi Amaranta Ursula pichirlab.

Aureliano jilmaydi, ayolning belidan tutgancha, xuddi guldondek dast koʻtardi va karavotga chalqancha yotqizdi. Amaranta Ursula biror harakat qilishga ulgurmay qoʻpollik bilan ich koʻylagini yirtib tashladi. Shunda yigitning koʻz oldida goʻyo boshni aylantiruvchi jarlik kabi hozirgina yuvilgan toza va yalangʻoch badan namoyon boʻldiki, bu badanda Aureliano oqshomlari xayolida tasavvur etmagan birorta ham tuk, birorta ham xol yoʻq edi hisob. Amaranta Ursula xuddi yovvoyi mushukdek rostakamiga qarshilik koʻrsatardi; uning xushboʻy, silliq va qayishqoq badani toʻlgʻanar, tizzalari bilan yigitning buyragini moʻljallab tepar, ayni zamonda yuziga chang solardi. Ammo ikkisi ham ovoz chiqarmasdi. Bu shiddatli olishuv, hayot-mamot jangi boʻlsayam, ehtiyotkorona hujum va chekinishlardan iborat ediki, olishuv davomida petunyalar[1] yana bir bor gullashi qoʻshni xonada oʻtirgan Gaston esa ayeronavtika haqidagi oʻz orzularini unutib yuborishi mumkin edi. Ushbu manzara goʻyoki ikki janjallashib qolgan oshiqning tiniq hovuz tubida yarashib olishga intilayotganiga oʻxshab ketardi.

Qat'iy va namoyishkorona qarshilik avjga chiqqan pallada, Amaranta Ursula ayni osudalik shubha uygʻotishi mumkinligini tushundi. Shunda lablarini qimtibroq kulishga tushdi, lekin kurashdan voz kechmadi. Endi u yolgʻondakam tishlash bilan himoyalanar, tanini ilgarigidek shiddat ila xalos qilishga urinmasdi. Nihoyat ular biryoʻla ham raqib, ham sherik ekanliklarini his etishgach, mudofaa joʻngina nozlanishga hujum

[1] Petunyalar

esa erkalatishga aylandi. So‘ngra Amaranta Ursula birorta yangi qiliq o‘ylab topish maqsadida, go‘yoki hazillashganday bo‘lib, bir daqiqa mudofaani bo‘shashtirdi, lekin qilgan ishidan o‘zi ham cho‘chib, yana qarshilik ko‘rsatishga kirishganida, g‘isht qolipidan ko‘chgan edi. Ayol qo‘llari bilan paypaslab, zo‘rg‘a sochiq topdi va bo‘g‘zidan otilay deb turgan baqiriqni chiqarmaslik uchun jonholatda uni tishlab oldi.

* * *

Pilar Ternera bayram arafasida, liana novdalaridan to‘qilgan kursida o‘tirgan joyida jon berdi. Marhumaning eng so‘nggi istagiga binoan, uni tobutda emas, balki shu kursining o‘zida ko‘mishdi. Uning jasadini raqs maydonining markazida qazilgan qabrga sakkiz nafar erkak arqonlar yordamida tushirdi. Ko‘z yosh qilaverib oqarib ketgan, qop-qora libos kiygan mulat qizlar taqinchog‘-u uzuklarini yechishib, qabrga tashlashdi. Qabr ustiga yozuvsiz tosh plita qoplandi, uning usti bir zumda gullarga to‘lib ketdi. So‘ngra mulat qizlar barcha hayvonlar va qushlarni zaharlashdi, deraza-yu eshiklarga g‘isht terib chiqishdi va ichiga avliyolarning tasviri, rangli jurnallardan qirqib olgan rasmlar hamda beqaror, haqiqatdan yiroq, afsonaviy qalliqlarining suratlari yopishtirildi, yog‘och sandiqchalarini ko‘targanlaricha turli tomonga tarqalib ketishdi.

Hammasi tugadi. Fohishalarning Pilar Ternera qabriga tashlangan bir chaqaga qimmat taqinchoqlariga qo‘shilib butun o‘tmish, yurtini qo‘msab, O‘rta yer dengizidagi qishlog‘iga qaytib ketgan katoloniyalik olim kitoblarini kim oshdiga

sotib yuborgandan so‘ng qolgan arzirli narsalar ham chirib borardi.

Olimning ketib qolishini hech kim kutmagan edi. U Makondoda banan kompaniyasi ayni gurkirab yashnayotgan bir paytda, sanoqsiz urushlarning biridan qutulish maqsadida paydo bo‘lgan edi. Shu yerda kitob do‘koni ochib, turli tillarda chop etilgan birinchi nashrlarni to‘play boshladi; do‘kon qarshisidagi uyda tushlarga rom ochilar, u yoqqa navbatda turgan kishilar ba’zida do‘konga ham kirishar va go‘yoki axlatxonadan ko‘tarib olgandek, kitoblarni sal hadiksirab varaqlashardi. Kataloniyalik olim ko‘pincha do‘kon ortidagi issiq xonada, maktab daftaridan yirtib olingan varaqlarga allanarsalarni yozib o‘tirar edi, nimalarni yozayotganini hech kim aniq aytib berolmasdi. Aureliano u bilan tanishgan paytda cholning qo‘lyozmalari naq ikki qutiga jo bo‘lardi. Cholning qo‘lyozmalari Melkiadesning qo‘lyozmalariga o‘xshab ketardi. Safari qarigan chog‘da uchinchi qutini ham qo‘lyozmaga to‘ldirdi. Chamasi, katoloniyalik olim Makondoda yashagan paytida biror kun ham yozuvdan bo‘shamagan edi. U bizga ma’lum to‘rtala do‘stidan boshqa hech kim bilan oshnachilik qilmadi. Olim hali ular maktabda o‘qib yurgan paytlaridayoq varaklarini garovga olib qolib, kitob berar va shu yo‘sinda ularni Seneka va Ovidiyning asarlarini o‘qishga o‘rgatgan edi. Chol klassiklar haqida bemalol, hech bir hayiqmay, go‘yoki qachonlardir ular bilan bir xonada yashagandek gapirar, ular haqida birov bilmaydigan narsalarni, masalan, Avliyo Avgustinning jubba ostidan jun nimcha kiyib yurishini va uni to‘rt yil davomida biror

marta ham yechmaganini yoki xurofotchi Arnaldo de Vildano chayon chaqib olgani uchun bolaligidayoq oila qurishga yaroqsiz bo‘lib qolganini bilardi. Katoloniyalik olimning kitobga mehri chuqur hurmat va do‘stona bepisandlik qorishmasidan iboratday tuyilardi. Bu narsa, hatto o‘z qo‘lyozmalariga bo‘lgan munosabatida ham sezilardi. Cholning qo‘lyozmasini ispan tiliga tarjima qilish uchun katolon tilini maxsus o‘rgangan Alfonso bir gal anchagina qo‘lyozmani cho‘ntagiga tiqdi, (uning cho‘ntaklari hamisha gazetadan qirqib olingan maqolalar hamda g‘ayrioddiy kasblar haqidagi qo‘llanmalar bilan to‘lgan bo‘lardi), so‘ng ularni fohishaxonada, ochdan o‘lmaslik uchun tanlarini sotib kun ko‘ruvchi qizlar orasida yo‘qotib qo‘ydi. Chol voqeani eshitib, Al’fonso kutganidek shovqin ko‘tarmadi, balki kulgidan o‘zini zo‘rg‘a to‘xtatib, ayni hol adabiyot uchun tabiiy, deb aytdi, lekin shu gapni aytsa-da, ona qishlog‘iga uch quti qo‘lyozmasini olib ketishdan erinmadi; u qo‘lyozma to‘la qutilarni yukxonaga topshirishni talab qilgan temiryo‘l nazoratchilarini qachonlardir Karfagenda qo‘llangan uyat so‘zlar bilan so‘kdi va to qutilarni passajir vagonida qoldirishga ruxsat bermagunlaricha osoyish topmadi. «Odamlar kitoblarni yuk vagoniga joylab, o‘zlari birinchi klass vagoniga chiqib olishgan kuni qiyomat qo‘padi», – dedi u, so‘ng to jo‘nab ketguniga qadar churq etmadi. Safar tayyorgarligiga rosa bir hafta ketdi. Jo‘nash muhlati yaqinlashgani sari cholning qovog‘i uyulardi, qiladigan yumushini unutib qo‘yar, bir joyga qo‘ygan buyumlari esa hech kutilmaganda boshqa yerda paydo bo‘lardi, go‘yoki ularni bir vaqtlar Fernan-

daga azob bergan ajinalar u yoqdan-bu yoqqa ko‘chirib qo‘yayotganday edi.

Collons[1] – deb so‘kinardi u. – He, London sinodining yigirma yettinchi moddasini undog‘u mundoq qilay.

Xerman bilan Aureliano unga vasiylik qila boshlashdi. Ular cholga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishardi; cho‘ntaklariga poyezd chiptasi-yu yo‘lga taalluqli boshqa hujjatlarni joylashtirib, ingliz to‘g‘nog‘ichlari bilan qadab qo‘yishdi, to Makondodan Barselonaga yetgunicha qilishi lozim bo‘lgan yumushlar ro‘yxatini tuzib berishdi. Lekin shunga qaramay, katoloniyalik olim cho‘ntagiga yarim sarmoyasi solingan shalvarini o‘zi sezmagan holda axlatga tashlab yubordi. Jo‘nash arafasida, qutilarning qopqog‘i mixlangach, kiyimkechaklari u Makondoga ilk bor ko‘tarib kelgan jomadoniga joylashgach, chol tahqirli bir duoni eslatuvchi imo-ishora bilan o‘zining chig‘anoqqa o‘xshash qovog‘ini qisib qo‘ydi. Qo‘llarini uzoq hijronga chidashga yordam bergan kitoblar uyumiga qo‘yib:

– Bu axlatni sizlarga qoldiraman! – dedi.

Oradan uch oy o‘tgach, choldan kattakon quti keldi. Unda dengiz safari davomida to‘planib qolgan yigirma to‘qqizta xat va ellikta surat yotardi. Garchi katoloniyalik oy va kunlarni yozmagan bo‘lsa-da, maktublardan voqealarning qay paytda sodir bo‘lganini bilib olish mumkin edi. U ilk xatlarida sayohat sarguzashtlari haqida o‘ziga xos yumor bilan ma’lumot berib: qutilarni kayutaga qo‘yishga ruxsat bermagan nazoratchini kemadan uloqtirib yuboray dedim, o‘n uch

[1] Collons – katoloncha so‘kish.

raqamidan irim tufayli emas, balki bu raqam tugallanmagan bo‘lib tuyilgani uchun ham dahshatga tushadigan qandaydir ahmoq senyorinani uchratdim, kemada g‘amlangan chuchuk suv Lerida bulog‘idan olingan, deya garov o‘ynadim va garovda yutib chiqdim, deb yozardi. Ammo kunlar o‘tgan sayin olimni kema hayoti tobora kamroq qiziqtirar, Makondodagi eng so‘nggi arzimas voqealarni ham sog‘inganini yozar, xullas, kema uzoqlashgani sari esa uning xotiralari ham tobora g‘amginlashib borardi. Sog‘inchning kuchayish jarayoni fotosuratlarda ham o‘z aksini topgan edi. Odatda suvi oktabr oyida mavjlanadigan Karib dengizi fonida oq ko‘ylak kiyib tushgan va kumushrang sochlari xiyol to‘zigan birinchi suratlarda g‘oyat baxtiyor ko‘rinardi. So‘nggilarida esa, qora palto kiyib, bo‘yniga shoyi sharf bog‘lab, kuzgi okean suvlarida adashib qolgan nomsiz kema palubasida turar, qarashlaridan ma’no uqib bo‘lmasdi. Xerman bilan Aureliano uning xatlariga javob yozishdi. Dastlabki oylarda chol shu qadar ko‘p maktub yo‘llardiki, do‘stlar uning Makondodan butunlay ketganiga ishonmay qo‘yishdi. Chol dastlab, hammasi joyida, uydagi qizg‘ish dengiz chig‘anog‘i hanuzgacha bus-butun turibdi, bir bo‘lak nonning ustiga qo‘yilgan dudlangan baliqning ta’mi o‘zgarmadi, qishlog‘idagi buloqlarning suvi haliyam muattar, deya xabar berdi. Maktab daftaridan yirtib olinib, qing‘ir-qiyshiq harflar bilan to‘ldirilgan varaqlar do‘stlarning oldida tez-tez paydo bo‘lardi, odatda ularning har biriga bittadan varaq bag‘ishlanar edi. Go‘yoki sog‘aya boshlagan bemorning quvonchi bilan yo‘g‘rilgan maktublardagi umid uchqun-

lari, sekin-asta so‘na boshladi. Qish oqshomlari kamin ichiga qo‘yilgan qozondagi sho‘rva qaynayotganida, chol kitob do‘koni ortidagi torgina issiq bo‘lmasini, bodom daraxtining chang bosgan barglari orasidan nur taratuvchi charog‘on quyoshni, peshingi hordiqni buzuvchi parovoz signalini; xuddi ilgari Makondoda yashagan paytlarida o‘z vatanini, uydagi kaminda sho‘rva qaynayotgan qozonchasini, ko‘chada baqirib-chaqirib yurgan qahvafurushni, bahorda yurtiga qisqa fursatga uchib keladigan to‘rg‘aylarni qo‘msagandek sog‘inardi. Go‘yoki ikki ko‘zguda bir xil aks etayotgan bu ikki sog‘inch hissidan azoblangan chol oromini yo‘qotib qo‘ydi, uning azoblari shu darajaga borib yetdiki, do‘stlariga Makondodan jo‘nab ketishni, olam haqida va inson qalbi xususida bergan barcha o‘gitlarini unutib yuborishni, Goratsiyga tupurishni maslahat berdi. Ular qayerda bo‘lishmasin, o‘tmish yolg‘on ekani hamda xotiraga qaytishning yo‘li yo‘qligini va eng telba, muqim muhabbat ham aslida bir lahzalik o‘tkinchi hodisa ekanini hech qachon esdan chiqarmaslikni uqtirdi.

Cholning Makondoni tashlab ketish haqidagi maslahatiga birinchi bo‘lib Alvaro amal qildi. U hamma narsasini, hatto hovlisiga zanjirlab qo‘ygan qo‘rqinchli qoplonini ham sotdi va so‘nggi bekati yo‘q poyezdga mangu chipta xarid qildi. Alvaro poyezd uzuq-yuluq to‘xtab o‘tgan joylardan yo‘llangan, undov belgilari qalashtirib tashlangan pochta taklifnomalarida vagon derazasidan ko‘zga elas-elas ko‘ringan manzaralarni tasvirlardi. Alvaroni ayni qisqa lahza haqidagi uzun dostonida Luiziana plantatsiyasidagi arvohsimon habashlar, Kentuk-

kining yashil o‘tloqlaridagi qanotli otlar, Arizona quyoshini emib yurgan grek oshiq-ma’shuqlar, Michigan ko‘li yonida suv bo‘yoqda rasm chizayotgan qizil sviterli qiz tasvirlanar edi. O‘sha qiz Alvaroga qo‘lidagi mo‘yqalamini silkidi, bu imoda vido emas, balki umid aks etdi – bechora qiz uning yonidan o‘tib ketayotgan poyezd hech qachon qaytib kelmasligidan bexabar edi.

Keyinroq Alfonso bilan Xerman jo‘nab ketishdi. Ular dushanbada qaytib kelish niyatida shanba kuni jo‘nashdi, lekin o‘shandan buyon dom-daraklari chiqmadi. Katoloniyalik olim jo‘nab ketganidan bir yil o‘tgach, bu yerda faqat Gabrielning yolg‘iz o‘zi kalovlanib qoldi. U Jodugarning xatarli marhamatidan foydalanishni davom ettirardi. Ayni zamonda fransuz jurnallaridan biri tashkil etgan, birinchi sovriniga Parij sayohati tikilgan tanlov savollariga javob yozardi, Aurealiano ham jurnalga obuna edi, anketa savollariga javob berishda Gabrielga ko‘maklashar, bu yumushni ba’zan uyda, ko‘pincha esa valerianka hidi urib qolgan, Gabrielning yashirin qaylig‘i Mersedes yashaydigan Makondodagi yakka-yu yagona dorixonada, chinni idishlar orasida bajarardi. Shahar o‘tmishidan nishona bo‘lib shu dorixona qolgandi, xolos. Makondo shu darajada huvullab yotardiki, tanlovda g‘olib chiqib, ikki juft ich kiyim, poyabzal hamda Rablening to‘la asarlar to‘plamini olib Parijga jo‘nayotgan Gabriel, poyezd ushbu stansiyada to‘xtamay o‘tmasin, deb cho‘chidi va mashinistga qo‘lini siltashga majbur bo‘ldi. Turklar ko‘chasi tashlandiq makonga aylanib qolgan edi. O‘limlarini loqaydlik bilan kutayotgan eng so‘nggi arablar, garchi gazmollar

bir necha yil burun sotilib ketgan va g‘amgin vitrinalarda faqatgina boshsiz manekenlar qolgan bo‘lsa-da, ming yillik taomillariga ko‘ra do‘konlari oldida o‘tirishardi. Irqiy tengsizlik va tuzlangan bodringlar vatani bo‘lmish Alabama shtatida Pratvill shahrida istiqomat qiluvchi Patritsiya Braun, balki o‘z nevaralariga hikoya qilib berishi mumkin bo‘lgan banan shirkati o‘rnida endilikda o‘t-o‘lan qoplagan yaydoq dala yastanib yotardi. Padre Anxelning o‘rnini egallagan ruhoniy chol (uning ismini hech kim surishtirmasdi ham) haddan tashqari ko‘p gumonsirashi tufayli artrit va uyqusizlikka chalingan, to‘r belanchakda yuztuban yotar, uning yonida kaltakesaklar bilan kalamushlar cherkovga yakka hukmronlik qilish uchun jang olib borishardi. Hatto qushlar ham tark etgan, doimiy jazirama hamda chang-to‘zondan bo‘g‘ilib o‘layotgan Makondoda, chumolilar shovqinidan mijja qoqib bo‘lmaydigan uyda sevgi yolg‘izligi domiga ilingan Aureliano bilan Amaranta Ursula yagona baxtiyor odamlar va yer yuzidagi eng baxtli mavjudotlar edi.

Gaston Bryusselga qaytib keldi. U imtiyozli litsenziyani nemis aviatorlari ilib ketmasligi uchun, jomadoniga eng kerakli buyumlari-yu yozishmalarini joylab, Makondoni tark etdi. O‘sha ilk oqshomdan keyin Aurealiano bilan Amaranta Ursula ora-sira Gaston uydan ketgan paytlardagina uchrashib turishar, ammo uning to‘satdan kelib qolishini o‘ylab, visol damlarida o‘zlarini tizginlashga majbur edilar. Uyda tanho o‘zlari qolishgach, uzoq tiyilgan hislar girdobida telbalarcha aylanishardi. Bu beo‘y, halokatli, tanlarni mudom shay ushlaguvchi va go‘rda yotgan Fer-

nandaning suyaklarini zirqiratuvchi hislar edi. Amaranta Ursulaning ovozi kunduzi soat ikkida oshxonadan, kechasi soat ikkida esa qaznoqdan eshitilardi. «Alam qiladigani shuki, – derdi Amaranta Ursula kula-kula, – biz shuncha vaqtimizni behuda o‘tkazibmiz». U chumolilar bog‘ni vayron qilayotganini, go‘yo vulqondan oqqan lava misoli peshayvon bo‘ylab olg‘a siljiyotganini ko‘rib turardi, lekin Amaranta Ursula hayajondan gangib qolgan edi. U chumolilarni yotoqlarida paydo bo‘lgandagina yana qira boshladi. Aureliano qo‘lyozmalarni tashlab qo‘ydi. U uydan deyarli chiqmas va onda-sonda katoloniyalik olimning xatlariga javob yozardi, xolos. Oshiq-ma’shuqlar voqelik hissini, vaqt haqidagi tushunchani yo‘qotishdi, kundalik odatlarni tamom unutishdi. Eshik va derazalarni berkitib, yechinish uchun ortiqcha vaqt sarflamaslik uchun, go‘zal Remedios orzu qilgan o‘sha holatda – qip-yalang‘och bo‘lib uyni kezishar, duch kelgan joyda, hatto hovli sahnidagi ko‘lmakda ham bir-biriga intilishardi. Bir kuni basseynda suvga cho‘kib ketishlariga oz qoldi. Qisqa vaqt mobaynida ular uyni chumolilardan ham ko‘proq yemirib ulgurishdi: mehmonxonadagi jihozlarni sindirishdi, polkovnik Aureliano Buendianing o‘zi va son-sanoqsiz ma’shuqalarining zalvariga dosh bergan to‘r belanchakni tilka-pora qilishdi, matraslarni yorib, uvadalarini polga ag‘darishdi. Garchand, Aureliano shiddat bobida Makondodan jo‘nab ketgan raqibidan mutlaqo qolishmasa-da, bu vayrona jannatda serqiliq va uncha-munchaga to‘ymaydigan Amaranta Ursula yetakchilik qilardi. U go‘yoki buvisining buvisi qandolatchilikka

sarf qilgan barcha kuch-quvvatni ishq-u ishratga baxsh etgandek edi. Amaranta Ursula olgan lazzatidan miyovlab, yangi o‘ylab topgan usullariga mahliyo bo‘lib, rosa rohat qilib kulayotgan paytlarda Aureliano yanada o‘ychan va indamas bo‘lib qolar, chunki muhabbati yurak tubida yotgan, uni kuydirib kul qilardi.

Amaranta Ursula o‘ziga kelgan paytlari Gastonning xatlariga javob yozardi. Gaston unga shu qadar yot va uzoq bo‘lib tuyilardiki, Amaranta Ursula erining qaytib kelishini tasavvur ham qilolmasdi. Gaston ilk maktublarida, sheriklari haqiqatan ham ayeroplan yuborishibdi, ammo Bryusseldagi dengiz agentligi adashib uni Tanganikaga jo‘natibdi, u yerdagilar esa ayeroplanni makondolar qabilasiga topshiribdi, deya xabar qilgan edi. Shu hol qo‘shimcha tashvish tug‘dirar, ayeroplanni topish uchun yana ikki yil ketishi mumkin ekan. Shu bois ham Amaranta Ursula, erim muddatidan ilgari qaytib keladi, degan o‘ydan voz kechdi. Aurelianoni tashqi dunyo bilan katoloniyalik olimdan kelib turgan xatlar-u, dorixonaning indamas bekasi Mersedes do‘sti Gabriel haqida aytadigan gaplar bog‘lab turardi, xolos. Oldiniga bu haqiqiy bir aloqa edi. Gabriel Parijda yashash niyatida, tanlovda yutgan chiptaning o‘rniga pul olgan, endilikda eski gazetalarni va Dofina ko‘chasidagi g‘arib mehmonxona xizmatkorlari eshikka chiqarib tashlaydigan shishalarni sotib kun ko‘rardi. Aureliano do‘stini qiynalmay tasavvur qilardi: Gabriel baland yoqali sviterda yurar, uni faqat bahorda, Monparnas xiyobonlari sevishganlar bilan to‘lib-toshgan paytdagina yechar, ochlikni laqillatish uchun

kunduzlari uxlar, kechalari esa Rokamadur[1] o‘zini o‘ldirgan, karamsho‘rva hidi bosib ketgan xonaga biqinib olib kitob yozardi. Ammo Gabrieldan kelayotgan xabarlar bora-bora tuman kabi xiralashar, katoloniyalik olimning xatlari tobora kamayar va tobora g‘amgin tus olardiki, oqibatda Amaranta Ursula eri haqida qanday fikrlasa, Aureliano Gabriel va chol to‘g‘risida xuddi ana shunday fikrlay boshladi. Endi sevishganlar kimsasiz bir dunyoga tushib qolishdiki, bu olamning yakka-yu yagona va mangu haqiqati muhabbat edi, xolos.

Ongsiz baxtiyorlik qasrida Gastonning qaytib kelish xabari misoli o‘qday jarangladi. Aureliano bilan Amaranta Ursula ko‘zlarini ochishdi, qalblarini tintishdi, bir-birining ko‘ziga tik boqishdi va tushunishdiki, ular allaqachon bir jon-u bir tan bo‘lib qolishgan va ayriliqdan o‘limni afzal ko‘rishar ekan. Shunda Amaranta Ursula eriga mazmuni yolg‘onga to‘la maktub yozib, seni sevganim yo‘q, seni hamon intizorlik bilan kutyapman-u, lekin e-vohki, peshonamga Aureliano bilan yashash yozilgan ekan, ne qilayki, taqdir izmini o‘zgartishga holim yo‘q, deb aytdi. Ular Gaston keskin javob yozadi, deb qo‘rqishdi, ammo uning xati bosiqlik va g‘amxo‘rlik ruhida bitilgan bo‘lib, maktubning naq ikki betida keksalik ofatidan saqlanish maslahat berilgan, oxirgi qismida esa, Gaston hech bir ikkiyuzlamachilik qilmay, sizlarga o‘sha men o‘zim qisqa muddat totib ko‘rgandek oilaviy baxt tilayman, deb yozgan edi. Erining bu xatti-harakati Amaran-

[1] Rokamadur – argentinalik yozuvchi Xuliyo Kortasarning «Sinflar o‘yini» romani qahramoni.

ta Ursula uchun hech kutilmagan bir hol edi. U o‘z taqdirimni erimning qo‘liga topshirish uchun o‘zim imkoniyat yaratdim, deb o‘yladi va o‘zini andak tahqirlagandek his qildi. Oradan yarim yil o‘tib, nihoyat Gaston ayeroplanni olganidan so‘ng Lespoldvilldan turib velosipedini yuborishni iltimos qilgan (chunki Makondoda qolgan narsalari ichida eng azizi shu velosiped ekanligi aytilib, boshqa hech narsa deyilmagan) maktub yo‘llaganidan keyin Amaranta Ursulaning fig‘oni ko‘kka o‘rladi. Aureliano qayg‘uga cho‘mgan Amaranta Ursulani zo‘r sabr-toqat bilan yupatar, nafaqat baxtiyor chog‘larda, balki kulfat mahali ham yaxshi er bo‘la olishini isbotlashga urinardi. Gaston qoldirgan pul tugaganidan so‘ng boshlariga tushgan turmush tashvishlari ularni yanada yaqinlashtirdi. Pilar Ternera o‘lgan vaqtida ular farzand kutishardi.

Homiladorlik davrida Amaranta Ursula baliq suyaklaridan munchoq yasab sotmoqchi bo‘ldi. Ammo Gabrielning qaylig‘i Mersedes sotib olgan o‘n ikki munchoqdan boshqa molga xaridor chiqmadi. Aureliano o‘zining til o‘rganishga bo‘lgan layoqati, ensiklopedik ma’lumoti, uzoq voqealar va joylarga taalluqli narsalarni, aslida bular haqida hech narsa bilmasdan turib, xotirasida saqlay olish qobiliyati nihoyatda kuchliligi xotinining Makondodagi eng so‘nggi yashovchilarning hamma pulini jamlasa teng keladigan oilaviy taqinchoqlari kabi befoyda ekanini umrida ilk bor his etdi. Ularni faqat mo‘jiza asrab qoldi. Amaranta Ursulaning na kayfiyati buzildi va na qichig‘i susaydi. Biroq u ovqatdan so‘ng uxlamasdan xayolga cho‘mgan holda peshayvonda uzoq o‘tirishni odat

qildi. Aureliano uning yonida bo‘lardi. Ba’zan ular lom-mim demasdan, bir-birining ko‘ziga termulgancha, kechgacha o‘tirib dam olishardi. Kelajakka ishonchsizlik ularning qalblarini o‘tmishga o‘girdi. Ular o‘zlarini cheksiz yomg‘irlardan iborat bo‘lgan o‘sha yo‘qotilgan jannatda yurgandek his etishdi: hovli sahnida ko‘lmak kechganlarini, kaltakesaklarni o‘ldirib, Ursulaning kiyimlariga osganlari-yu, kampirni tiriklay ko‘mish o‘yinini o‘ynaganlarini, xullas, betinim yomg‘ir ostida o‘tgan bolalik damlarini go‘yo jannatni eslagandday eslashardi. Xotiralar haqiqatni oydinlashtirganday bo‘lar, ular aqllarini tanishganidan beri ikkisi birga bo‘lgan damlardagina rostakam baxt tuyganlariga amin bo‘lishardi. Amaranta Ursula bir gal zargarlik ustaxonasiga kirgani-yu, onasi unga, kichik Aureliano begonaning farzandi, uni daryoda oqib kelgan savatdan topib oldim, deb aytgan oqshomni yodiga keltirdi. Ayni xotira-yu izohlar unchalik ishontirmasa-da, ularning qo‘lida boshqa haqqoniyroq ma’lumot yo‘q edi. Hamma dalillarni tekshirib bo‘lishgach, Fernanda Aurelianoning onasi bo‘la olmasligiga ishonch hosil qilishdi. Amaranta Ursula Aureliano Petra Kotesning o‘g‘li bo‘lishi mumkin, degan xayolga bordi, ammo u otasining o‘ynashi haqida shu qadar yomon gaplarni eshitgan ediki, ushbu faraz ularning ikkovida ham kuchli nafrat uyg‘otdi.

Aureliano xotiniga uka bo‘lishi ehtimolidan vijdoni qiynalib, mog‘or bosgan, kuya yeb tashlagan arxiv hujjatlari orasidan biror ma’lumot topish umidida padrening uyiga bordi. U eski hujjatlarni ko‘rib, padre Nikanor Reyna tomonidan o‘smirlik paytida cho‘qintirilgan Amaranta Buendianing

ismini topdi. To‘rt jildlik yozuvlarini qarab, turli paytlarda cho‘qintirilgan o‘n yetti Aurelianolarga duch keldi. Ko‘nglida, o‘zim ham o‘shalardan biri bo‘lsam ajabmas, degan umid yalt etdi, ammo adashlari cho‘qintirilgan yillar uning yoshiga mutlaqo to‘g‘ri kelmasdi. Aureliano ajdodlarini axtarayotgan mahal o‘z to‘r belanchagida kuzatib yotgan ruhoniy undan nomini so‘radi.

– Men Aureliano Buendiaman, – javob berdi yigit.

– Unday bo‘lsa o‘zingni behudaga qiynama, – dedi ishonch bilan ruhoniy. – Ancha yillar ilgari bu yerda shunaqa bir ko‘cha bo‘lardi, o‘shanda ko‘pchilik o‘z farzandlariga ko‘chaning nomini qo‘yardi.

Aureliano g‘azabdan titrab ketdi.

– Nima? – dedi u. – Demak, siz ham ishonmas ekansiz-da?

– Nimaga?

– Polkovnik Aureliano Buendianing o‘ttiz ikki marta fuqarolar urushi ochgani va hammasida boy bergani daliliga, – deya javob qaytardi Aureliano. – Harbiylar uch ming ishchini qurshab, so‘ngra otib tashlagani, so‘ng dengizga uloqtirib yuborish uchun o‘liklarni ikki yuzta vagon tirkalgan poyezdda olib ketishganiga ishonmaysizmi hali?

Ruhoniy unga achinibroq qaradi.

– Eh, o‘g‘lim, – deb xo‘rsindi u, – menga hozir ikkovimizning tirik ekanimizga ishonishning o‘zi ham kifoya.

Shunday qilib, Aureliano bilan Amaranta Ursula savat haqidagi uydirmani, uning rostligiga ishonganlaridan emas, balki bu uydirma ularni vijdon azobidan xalos etishi mumkinligi uchun

qabul qilishdi. Amaranta Ursulaning oy-kuni yaqinlashgani sayin, ular tobora inoqlashib borishar, qulab tushishi uchun shamolning birgina hamlasi kifoya bo‘lgan bu uydagi yolg‘izlikka tobora ko‘nikishardi. Endi ular uyning kichik bir bo‘lagida Fernandaning yotog‘idan va peshayvonning Amaranta Ursula bo‘lajak farzandiga qalpoqcha tikib, Aureliano esa gohida katoloniyalik olimga xat yozib o‘tiradigan qismidan nariga chiqishmasdi hisob. Uyning qolgan qismlari – zargarlik ustaxonasi, Melkiadesning xonasi, Santa Sofiya de la Pyedadning bo‘lmasini chirmovuq bosib ketdi, endi qalin to‘qayzorni eslatuvchi bu xonalarga kirishga birov jur’at qilolmasdi. Ochko‘z tabiat qurshovida qolgan Aureliano bilan Amaranta Ursula chumoli va chirmoviqlar hujumini daf etish uchun so‘nmagan ohakdan chegara chizig‘i tortgan edilar. Amaranta Ursulaning taroq ko‘rmagan sochlari paxmoq bo‘lib ketgan, oyoqlari shishgan, yuzlariga dog‘ tushib, qaddi-basti xunuklashib qolsa-da, u hamon ruhan tetik edi. «Jin ursin! – deb kuladi u. – Bizning bora-bora rostdan ham odamxo‘rlardek hayot kechirishimiz kimning xayoliga kelibdi deysan!» Ularning tashqi dunyo bilan aloqasi homiladorlikning oltinchi oyida olingan xatdan so‘ng batamom uzildi. Xatni katoloniyalik olim yozmagan edi. Garchi, u Barselonadan yuborilgan esa-da, xatjilddagi manzil odatda rasmiy nomalar bitishga ishlatiladigan ko‘k siyoh va husnixatda yozilgan edi. Ko‘rinishdan jo‘n, mazmuni noma’lum xat dushman tomonidan jo‘natiladigan sovg‘ani eslatardi. Amaranta Ursula xatjildni ochishga shaylanganida, Aureliano maktubni uning qo‘lidan tortib oldi.

– Qo‘y, o‘qimaylik, – dedi u. – Xatda nima yozilganini bilishni ham istamayman.

Xullas, katoloniyalik olimdan boshqa xabar kelmadi. Begona odamlar yozgan va hech kim o‘qimagan xat esa, Fernanda qachonlardir o‘zining nikoh uzugini esdan chiqarib qoldirgan tokchada kuyalarga yem bo‘lib yotar va o‘ziga jo etilgan noxush xabar alangasidan kuyib kulga aylanardi; bu asnoda tarki dunyo etgan ikki oshiq o‘zlarini umidsizlik va unut dunyosiga aldab kiritishga urinayotgan mash’um oqimga qarshi suzishardi. Falokat muqarrarligini sezishgan Aureliano va Amaranta Ursula so‘nggi oylarda bir-birining qo‘lidan mahkam tutib, telba ehtiroslar tufayli orttirilgan pushtlarini mehr bilan avaylashardi. Kechasi, karavotda quchishib yotganlarida, na oydinda shovqin-suron solishayotgan chumolilardan, na kuyalarning pitirlashidan, na qo‘shni xonadagi burgalarning tobora kuchayib borayotgan betinim hushtaklaridan qo‘rqishardi. Amaranta Ursula bilan Aurelianoni tez-tez arvohlar to‘poloni uyg‘otib yuborardi. Ular Ursulaning o‘z avlodini asrash uchun yaratuvchi bilan jang qilayotgani, Xose Arkadio Buendia buyuk ixtirolarning besamar haqiqatini axtarayotganini, Fernandaning duo o‘qishini, umidsiz urushlar, tilla baliqchalar polkovnik Aureliano Buendiani hayvon holiga solayotganini, sho‘x bazmlar ayni avjiga chiqqan paytda Aureliano Ikkinchining yolg‘izlikda o‘layotganini ko‘rishardi; nihoyat, ular yelimdek yopishqoq g‘oyalargina o‘limga bo‘yin bermasligini tushunishdi, hozir hasharotlar odamlardan tortib olayotgan bu kichik va g‘arib jannatni boshqa bir tur mavjudotlar tortib

olishidan keyin ham bir-birlarini sevaverishlariga amin bo‘lishdi va yana ko‘ngillarida saodat barq ura boshlaganini tuyishdi.

Yakshanba kunlarining birida, kech soat oltida Amaranta Ursulani to‘lg‘oq tuta boshladi. Ochlikdan tanlarini sotib kun ko‘ruvchi qizlarni davolab yuruvchi doya xotin jilmayib turib, uni ovqat stoliga yotqizdi, o‘zi ayolning qorniga o‘tirib olib, to Amaranta Ursulaning faryodini chaqaloq yig‘isi bosib ketmaguncha, bechora ayolning ustida chayqalaverdi. Amaranta Ursula ko‘z yosh pardasi orasidan farzandi haqiqiy Buendia ekanini – Xose Arkadiolar kabi yo‘g‘on, chayir va qaysar, Aurelianolar kabi ko‘zlari ochiq, tiyrak ekanini ko‘rdi va umid qildiki, u Buendialar urug‘ini qayta tiklaydi, ularni ajalga giriftor etuvchi illatlar-u yolg‘izlikka moyilikdan asrab qoladi. Negaki yuz yil davomida tug‘ilgan Buendialar orasida faqat shu chaqaloqgina haqiqiy sevgi mevasi bo‘lib dunyoga kelgan edi.

– Odamxo‘rning o‘zginasi, – dedi Amaranta Ursula, – unga Rodriga deb ism qo‘yamiz.

– Yo‘q, – deb e’tiroz bildirdi eri. – Biz uni Aureliano deb ataymiz, nasib etsa, u o‘ttiz ikki urushda ham g‘olib chiqadi.

Doya chaqaloqning kindigini kesib, badanidagi allaqanday ko‘kish dog‘larni latta bilan arta boshladi. Aureliano chiroq ko‘tarib turdi. Ular bolani yuztuban yotqizib, haligacha sezmagan belgini ko‘rib qolishdi. Bolaning ketida cho‘chqa dumchasi bor edi. Lekin ular sarosimaga tushmadilar. Chunki Aureliano bilan Amaranta Ursulaning Buendialar avlodida ilgari ana shunday voqea

sodir bo‘lganini bilishmas, Ursulaning dahshatli ogohlarini yodidan chiqarishgan, buning ustiga doya xotin ularga, bu dumni bolaning sut tishlari tushganda kesib tashlasa ham bo‘lar, deya tasalli berdi. Keyin esa bu haqda o‘ylashlariga vaqtlari qolmadi, chunki Amaranta Ursulaning ichidan qon keta boshladi. Qonni to‘xtatishning hech bir iloji bo‘lmadi. O‘rgimchak uyasi va kul bosishlar ham xuddi favvorani qo‘l bilan yopib bo‘lmaganidek befoyda edi.

Amaranta Ursula dastlab o‘zini dadil tutishga urindi. Aurelianoning qo‘lidan tutganicha, undan aslo qo‘rqmaslikni iltijo qilar, axir menga o‘xshaganlar o‘z ixtiyorisiz o‘lish uchun tug‘ilmaydi, deb aytar, doya ayolning sarosimasini ko‘rib, qotib-qotib kulardi. Aurelianoning umidi puchga chiqqan sari, Amaranta Ursula tobora qorayib borar, go‘yoki uni ichki nur tark etardi. Nihoyat, u og‘ir uyquga cho‘mdi.

Dushanba kuni saharmardona uyga Amaranta Ursulaning to‘shagi yonida duo o‘qish uchun allaqanday ayolni boshlab kelishdi. Ayolning duolari qon oqishini shu zahotiyoq to‘xtatardi. Lekin Amaranta Ursulaning qaynoq qoni muhabbatdan o‘zga afsunga befarq edi. Kechqurun, rosa yigirma to‘rt soatlik azoblardan keyin, Amaranta Ursulaning o‘lib yotganini ko‘rishdi; ayolning yonoqlari bo‘rtib chiqqan, azob asorati yuzidagi oqish yog‘dudan yo‘qolib ketgan, labida yana tabassum paydo bo‘lgan edi.

Aureliano shundagina do‘stlarini qanchalar qattiq sevishini, ularning yordamiga qanchalar muhtoj ekanini sezdi. U chaqaloqni marhuma tayyorlab qo‘ygan savatga joyladi, murda-

ning ustiga yopinchiq yopdi va o‘tmishga eltuvchi so‘qmoq topish niyatida, huvullab qolgan shahar bo‘ylab tentiray boshladi. O‘zi ko‘pdan beri qadam bosmagan dorixona eshigini qoqdi, lekin u yerda duradgorlik ustaxonasi borligini ko‘rdi. Qo‘lida chiroq tutgan notanish kampir unga, bu yerda hech qachon dorixona bo‘lmagan, bu yerda xushqad, ko‘zlari g‘amgin, Mersedes ismli ayolni umrim bino bo‘lib ko‘rganim yo‘q, deb javob qaytardi.

Aureliano peshonasini katoloniyalik olimning sobiq kitob do‘koni eshigiga urgancha yig‘larkan, sevgi sehriga putur yetkazmaslikni o‘ylab o‘z vaqtida aza ochmagan o‘sha o‘limga mana endi, ancha kechikib bo‘lsa-da, motam tutayotganini sezdi. Ko‘lbuqalar izg‘ib hovlida aysh-ishrat surayotgan paytlari parvozini doimo bolalarcha qiziqqonlik bilan kuzatgan osmonda o‘sha qizg‘ish halqalar uchib yurishiga ham e’tibor bermasdan, «Oltin bola» deb atalmish islovatxona devorlarini mushtlagancha, Pilar Ternerani chorladi. Fohishalar ko‘chasining omon qolgan eng so‘nggi salonida akkordeonchilar ansambli yepiskopning jiyani va Fransisko Odam sirlarining vorisi bo‘lmish Rafayel Esklaona qo‘shiqlarini ijro etardi. O‘z onasini urgani uchun qo‘li qurib qolgan salon xo‘jayini Aurelianoga ozgina ichishni taklif qildi. Shishani bo‘shatgach, Aureliano ham bir shisha ichimlik qo‘ydi. Salon xo‘jayini unga, onamni urgan qo‘lim qurib qoldi, deb hikoya qildi. Aureliano bo‘lsa, o‘z opamni yaxshi ko‘rganim bois, yuragim kuyib kul bo‘ldi, deb so‘zladi. Ikkovining ham ko‘zlari yoshga to‘ldi. Aureliano azobli og‘riq bir lahzaga dilini tark etganini payqadi. Ammo Makondo tarixidagi eng so‘nggi tong sha-

fag‘i ostida yolg‘iz qolgach, shahar maydonining o‘rtasiga chiqib, qo‘llarini yozdi-da, xuddi butun dunyoni uyg‘otib yuborishga shaylanayotganday, yurak-yuragidan chiqarib qichqirdi:

– Do‘stlar do‘st emas, shaytondan tarqaganlardir!

Jodugar uni ko‘z yoshi-yu, safro ko‘lmagidan tortib chiqardi. Xonasiga boshlab keldi, kiyim-boshini tozaladi-da, bir kosa bulon ichirdi. Unga taskin berish uchun Aurelianoning devorga yozilgan qarzlarini ko‘mir bilan o‘chirdi va u yolg‘izlikdan yig‘lamaslik uchun atay o‘zining eng qayg‘uli kunlarini xotirlashga tushdi. Ertalab, qisqa va og‘ir uyqudan keyin Aureliano o‘ziga keldi. U dastlab boshi qattiq og‘riyotganini sezdi, so‘ng ko‘zini ochdi-yu, bolasini esladi.

Chaqaloq savatda ko‘rinmasdi. Birdan Aurelianoning yuragini quvonch qopladi – Amaranta Ursula o‘g‘liga qarash uchun tirilgan bo‘lsa-ya, deb o‘yladi. Ammo u yopinchiq ostida toshdek qotib yotardi. Aureliano uyga kirib kelgan mahali yotoqxona eshigi ochiq turganini esladi. Gullarning tonggi nafasiga to‘la peshayvondan o‘tib, hanuzgacha tug‘ruq alomatlari turgan oshxonaga kirdi: u yerda katta qozon, qonga belangan choyshab, so‘xta solingan sopol idishlar, qaychi va chaqaloqning buralib qolgan kindigi yotardi. Doya xotin kechasi kelib bolani olib ketgandir, deb o‘yladi. Ayni o‘y andak taskin berdi. Amaranta Ursula chaqalog‘i uchun kiyim-bosh tikib o‘tiradigan tebranma kursiga cho‘kdi, qalbini bosib kelayotgan ulkan o‘tning og‘irligiga bardosh berolmasligini anglab yetdi. O‘zi va o‘zgalar musibatining zaharli nayzasi yaralagan Aureliano

o‘lik atirgullarni o‘rab olgan o‘rgimchak inlariga, har yondan o‘jarlik bilan unib chiqayotgan begona o‘tlarga, fevral oyining sof va osuda tongiga hayratlanib boqdi. U daf’atan chaqaloqni ko‘rib qoldi. Qurib-qaqshab qolgan vujudni go‘yo butun dunyodan to‘plangan chumolilar parcha-parcha qilib, bog‘ning tosh to‘shalgan yo‘lkasidan o‘z inlariga sudrab borardi. Aureliano qotib qoldi. Taajjub yoki qo‘rquvdan emas, balki ayni shu lahzada Melkiades qo‘lyozmalari siriga kalit topganidan qotib qoldi. Qo‘lyozmalar epigrafi yaqqol ko‘z oldiga keldi: «Avlodning birinchi vakilini daraxtga bog‘lab qo‘yishadi, avlodning so‘nggisini chumolilar yeb bitiradi».

Aureliano hayotida hech qachon ayni daqiqadagi kabi oqilona harakat qilmagan edi. U o‘liklar va azani esdan chiqardi, dunyo tashvishlari xalaqit bermasligi uchun, barcha eshig-u derazalarni mixlab chiqdi. Endi u Melkiadesning qo‘lyozmalarida o‘z taqdiri ham yozilganini bilardi. Nodir qadimiy o‘simliklar, ko‘lmaklar hovuri va xonadagi odamzod izlarini yo‘qotgan qandaydir nurli hasharotlar qurshovida yotgan qo‘lyozmalar bus-butun edi. Aureliano betoqat bo‘lib, qo‘lyozmalarni yoruqqa ham olib chiqmay, shu yerning o‘zida, tik turgancha, ovozini chiqarib o‘qiy boshladi. Aureliano, go‘yoki qog‘ozlar ispan tilida yozilgandek, hech bir qiynalmay o‘qirdi. Bu – Buendialar oilasining Melkiades tomonidan bitilgan tarixi bo‘lib, bugungi kun rosa yuz yil oldin bashorat qilingan edi. Lo‘li ularni o‘z ona tili sanskritda yozgan bo‘lib, undagi juft she’rlar imperator Avgustning, toqlari esa lakedemoniyaliklarning harbiy shifrlari bilan tilsimlangan

edi. O‘zining Amaranta Ursulaga bo‘lgan muhabbatini o‘qib uyalib ketgan mahali Aurelianoning Melkiadesning so‘nggi ogohlantirish sirini ocha boshlaganining sababi shunda ediki, chol voqealarni odatdagidek vaqti-bevaqt qilib emas, balki barcha kundalik lavhalarni bir asrga shu tarzda jamlagandiki, go‘yo ularning hammasi bir lahzada sodir bo‘lgandek tuyilardi. O‘z ixtirosiga mahliyo bo‘lgan Aureliano Melkiades qachonlardir Arkadioga o‘qib berishga uringan «musiqaga solingan ensiklika»larni ovoz chiqarib o‘qiy boshladi. Aslida bu Arkadioning otilishi haqidagi bashorat edi; so‘ngra Aureliano osmoni falakka parvoz etadigan dunyodagi eng go‘zal ayol haqida, otalari o‘limidan so‘ng egizak bolalar tug‘ilishi va egizaklar layoqatsizlik yoki dangasalik sababli emas, balki bemavrid tug‘ilganlari uchun ham qo‘lyozmalarni o‘qiy olmasliklari haqida bilib oldi. Aureliano shu yerga yetganida, o‘zining qismatini tezroq bilishni istab, bir necha varaqni qoldirib ketdi. Shu lahzada shamol esa boshladi. O‘tmishga mansub tovushlar – keksa teraklarning g‘ijirlashi va umidsizlik nolasi bilan yo‘g‘rilgan bu shamol hali ancha sust edi. Aureliano uni deyarli sezmadi, chunki o‘sha daqiqalarda o‘ziga baxt berolmaydigan go‘zal ayolni qidirish maqsadida sarob sahrosida tentiragan shahvatparast bobosini uchratib qolgan edi. Aureliano uni tanidi. U shajaraning sirli so‘qmoqlari bo‘ylab yurarkan, o‘zi bunyod bo‘lgan joyga duch keldi: chayonlar va kapalaklar to‘lib-toshgan nimqorong‘i mo‘rchada qandaydir bir ishchi chiroyli ayol bilan yaqinlik qilgan edi. Aureliano o‘qishga shunchalar berilib ketdiki, bo‘ronning ikkinchi ham-

lasini ham payqamadi. Qoplondek shiddatli bo‘ron deraza-yu eshiklarni oshiq-moshiqlaridan ko‘chirdi, peshayvonning sharq tomonidagi toshni uchirib, poydevorni buzib tashladi. Bu vaqtda Aureliano Amaranta Ursula o‘ziga opa emas, balki xola ekanini, cho‘chqa dumli maxluq tug‘adigan kishilarning begona qonlari ichra bir-birini qidirib topishi uchun Rioachani Frensis Dreyk ishg‘ol etganini bildi. Aureliano o‘ziga ma’lum bo‘lgan voqealarga vaqt sarflab o‘tirmasdan, yana o‘n bir varaqni tashlab, bugungi kunlar bitilgan baytlarning tilsimini ocha boshladi. Uning taqdiri shu qadar oydin bashorat etilgan ediki, Aureliano go‘yoki gapiruvchi ko‘zgu oldida turganday edi. Makondo qiyomat yanglig‘ dahshatli bo‘ron girdobiga tushib qoldi. U qazo muhlati va sababini bilish niyatida yana bir necha varaqni tashlab o‘tdi. Ammo hali so‘nggi she’rga yetmasdan, o‘ziga shu xonadan chiqish nasib etmasligini tushundi. Qo‘lyozmalar bashorat qilardiki, Aureliano Babilonya ularni o‘qib chiqqan zahotiyoq, bo‘ron bu g‘arib shaharni yer yuzidan supurib tashlaydi, uning nomini odamlar xotirasidan batamom o‘chiradi, bayon etilmish voqealar esa boshqa takrorlanmaydi, chunki yolg‘izlikning yuz yiliga mahkum etilgan odamlar avlodi yer yuzida qayta paydo bo‘lmaydi.

OSHKORA QOTILLIK QISSASI

...Ko‘p yillar mobaynida biz faqat o‘sha voqea xususida gapirib yurdik. O‘sha mash’um kungacha har birimiz o‘zimizcha yashab, peshonamizdagini ko‘rib kelayotgandik, hammaning ko‘ngliga g‘ulg‘ula solgan o‘sha hodisa esa fikr-zikrimizni o‘z komiga tortdi, go‘yo har yoqda sochilib oqayotgan umrimiz irmoqchalari kutilmaganda o‘sha voqea girdobiga quyildi... Ommaning og‘zida shu gap, ammo biror inson zotining dilida sirni ochib, qurbonni suiqasddan ogohlantirish istagi yo‘q edi, inchunun, hech bir kishi falokat ro‘y bergach, unga nechog‘lik aloqador bo‘lmog‘i va keyin taqdiri qanday kelajagi bobida biror aniq fikrga ega emasdi.

Takabburlik bilan ham mehr-muhabbat
qozonish mumkin.

Jil Visenti[1]

O‘sha qotillik yuz bergan kuni tonggi kemada kelayotgan yepiskop hazratga peshvoz chiqish niyatida Santyago Nasar ertalabki soat besh yarimda uyg‘ondi. Uyg‘onishdan avval tush ko‘rdi: anjirzordan o‘tib borayotganmish, sevalab ohista yomg‘ir yog‘ayotganmish, mana shunday xush saodat ro‘yo muddatida u birmuncha o‘zini baxtiyor his qildi, ammo ko‘zini ochib, boshiga bexos-

[1] Jil Visenti – taxminan 1470–1536-yillarda yashagan portugaliyalik atoqli dramanavis va hajvchi shoir.

dan qush axlati sochilganday, ta’bi tirriq bo‘ldi. Oradan yigirma yetti yil o‘tgach, uning onasi Plasida Linero o‘sha mash’um va musibatli dushanbani batafsil xotirlarkan: «U tushida ko‘pincha daraxtlarni ko‘rardi», – dedi menga. «O‘limidan bir hafta oldin ham tush ko‘rgandi, aytishicha, yakka o‘zi qo‘rg‘oshin qog‘ozdan yasalgan samolyotda uchganmish, uchoq bodomzorlararo parvoz qilarmish-u qanotlari birortayam daraxtga urilmasmish», – qo‘shib qo‘ydi u yana. Plasida Linero o‘zgalar tushiga darrov ta’bir aytuvchi, muabbirlikda ustasi farang ayol edi, lekin u o‘z o‘g‘lining qandaydir daraxtlarga bog‘liq tushlarida ham, o‘ldirilgan kuni va undan bir hafta avval ko‘rgan tushida ham hech bir yomon alomatni sezmagandi.

Santyago Nasarning o‘ziyam falokat belgisini tuymagandi. U aslida oz uxlar, yotganida ham kiyimlarini yechmasdi. Uyqusi behalovat, yomon uxlaganidan doim ertalab boshi og‘rib uyg‘onardi. Ichida it o‘lganday og‘zidan biram qo‘lansa hid kelardiki, ko‘ngli aynib, to‘yda yarim kechagacha ichishning jazosi shu-da, deya o‘zini koyib qo‘yardi. Uning ertalab oltidan besh daqiqa o‘tganda uyidan chiqqanini va rosa bir soat keyin cho‘chqaday chavaqlab tashlagunigacha ko‘rgan barcha kishilarning eslashicha, u o‘shanda yuzko‘zidan hali uyqusi o‘chmagan bo‘lsa-da, vaqti chog‘ odimlab borarkan, duch kelganlarga bugungi kun ochiq bo‘ladi, deya ta’kidlayvergan. Biroq shohidlarning birortasi ham bu gapning ob-havoga nechog‘lik aloqadorligini aniq, beishtiboh aytib berolmadi. Ularning ba’zisi, quyoshli kun edi, dengiz tarafdagi bananzorlardan yengil

shabada esayotgandi, deyishsa, ba'zilari, aksincha, osmon tund, past, qorong'i, rasvo kun edi, havodan achigan suv hidi anqirdi, baxtsizlik ro'y bergan mahalda esa, ayni Santyago Nasar tushida ko'rgan yomg'irga o'xshab, maydalab yomg'ir yog'ardi, deb tasdiqlashdi.

Men ham o'sha kuni to'yda tongotarga qadar maishatbozlik qilgancha, mast bo'lib, ishq-ishrat ilohasi Maryam Lexandrina Servantes xonadonida ko'zim ilingan ekan, basma-basiga chalingan jom sadolaridan uyg'onarkanman, bu mahobatli sadolar yepiskop hazrat sharafiga yangrayapti, deya o'yladim.

Santyago Nasar o'sha kuni saharda oq shimini kiydi, ko'ylagini egniga ildi, bu liboslar kechagi to'yga kiygan ust-boshi kabi ohorlanmagan edi. Illo, yepiskop hazratning tashrifi bo'lmaganda, u odatdagi oddiy ko'ylak-shimini, suvoriy etigini kiyardi. U har dushanbada, shunday qiyofada Divano Rostro – Tangri tal'at makonidagi otameros qo'rg'oniga jo'nardi. Qo'rg'onda otasidan qolgan molxona bor edi, bu mulkdan aytarli foyda ko'rmasa-da, Santyago Nasar mol-holiga yaxshi qarardi. Tog'dagi yaylovga borsa, «magnum-357» to'pponchasini beliga qistirib olardi, o'zining aytishicha, agar to'pponchaning og'ir po'lat o'qi otga tegsa, miyasining qatig'ini chiqarib yuborardi. Kaklik ovi mavsumida u lochinotar miltig'ini ham olib yurardi. Bundan tashqari, javonida «malinxershyonauer-30.06», «xolland-magnum-300», «xornet-22» kabi nishondori qo'shdurbinli beshotarlari, ko'po'qli «vinchester»i saqlanardi. U otasiga o'xshab, yostig'i ostiga to'pponchasini qo'yib uxlardi; o'sha kuni, uydan chiqishidan avval,

to‘pponchadan o‘qlarni sug‘urib, qurolni karavoti yonidagi javonchaga tashlab qo‘ygan. Onasi menga: «U qurolini hech mahal o‘qlangancha qoldirmasdi», – dedi. Men buni bilardim. Shu bilan birga uning to‘pponchani alohida bir joyda, o‘qlarni boshqa yerda asrashi, biror falokat bosmasin, deya shunday qilishi ham menga ayon edi. Bu oqilona tadbir ham unga otameros edi: bir kuni xizmatkor xotin o‘rinni yig‘ayotib, yostiqni ko‘targanda to‘pponcha pastga tushib, yerga tegishi bilanoq varanglab otilib ketgan. O‘q xonadagi kiyim-kechak javonini tors yorib, devorni teshib o‘tgan-da, chiyillaganicha qo‘shnining oshxonasi osha borib, cherkov maydonidagi sarmehrobda turgan odam bo‘yi keladigan avliyoning bo‘rdan yasalgan haykaliga tekkan va changini chiqarib yuborgan. Santyago Nasar hali u zamonlar yosh bola edi, ammo mana shu voqea unga katta saboq bo‘lgan.

Onasining eslashicha, o‘g‘li o‘sha kuni yotog‘idan shoshib vannaxonaga o‘tgan va ana shu holat volida yodida so‘nggi xotira kabi muhrlanib qolgan. U vannaxonadagi dorilar turadigan qutichadan bosh og‘rig‘ini qoldiruvchi dori qidirib paypaslanarkan, sharpadan onasi uyg‘onib ketgan. U chiroqni yoqarkan, bir qo‘lida suvli piyola tutib, dori ichmoqqa taraddudlanib, eshik yonida turgan o‘g‘lini ko‘rgan. Bu holatni onaizor bir umr so‘zlab-bo‘zlab yurdi. Xuddi ana o‘shanda Santyago Nasar unga ko‘rgan tushini aytgan, biroq onasi daraxtlar xususidagi iboraga e’tibor bermagan.

– Tushda qushlarni ko‘rsang, bu faqat yaxshilik alomatidir, – deya ta’kidladi u menga ham.

Men Santyago Nasar fojiasi va unga bog‘liq siniq xotirotning chil-chil parchalarini topib, qaytadan butlash niyatida yana o‘sha matlub va unut go‘shaga kelganimda, Plasida Linero ancha qarib, umr shami pirpirab qolgan, jigarbandini so‘ng bor ko‘rgan to‘r belanchakda ohista tebranib yotar edi. U kuppa-kunduzi ham odamzod qiyofasini elas-elas ilg‘ardi; ensasiga dorivor giyoh barglari ho‘llab yopishtirilgandi – o‘g‘lini oxirgi bor ko‘rganiga oid musibatli xotira boshini muttasil og‘riydigan qilib qo‘ygandi. Ayol to‘r belanchak boshidagi arqon tutqichni ushlaganicha yonboshlab yotardi, sharpamni sezgan zahoti o‘rnidan qimirlab, turishga urindi; nim qorong‘i xonadan chaqaloq cho‘qintiriladigan jomda qolgan oqava suv hidi anqirdi, bu badbo‘y o‘sha qotillik ro‘y bergan kuni tongda ham menga qattiq ta’sir qilgandi.

Meni ostonada ko‘rgani hamon ayol Santyagoni yodga oldi. «Bolaginam, xuddi shu joyda, shunday holatda turgandi o‘shanda, – dedi. – Egniga yuvilgan, ammo ohorlanmagan oq kamzul kiygandi, terisi nozik edi, ohorlangan libosni xush ko‘rmasdi». Ayol zanjabil dorisini shimigancha, xayolxonasiga kirib kelgan o‘g‘lining ketib qolishini istamaganday, to‘r belanchakda uzoq muddat o‘y surib o‘tirdi. Keyin diltang xo‘rsinib: «U hayotimning yolg‘iz shamchirog‘i, birdan bir tayanchim edi», – dedi.

Santyago Nasar onasining yodida azob-u baxtsizlik surati kabi saqlanib qolganini tasavvur etdim. Yanvarning oxirgi haftasida yigirma birga to‘lgan bu xushqad, bir oz rangpar, qosh-qovog‘i-yu jingalak sochlari ayni arabiy yigit quyib qo‘yganday otasiga o‘xshar edi. Yolg‘iz o‘g‘il Santyago Nasarning ota-onasi moliyaviy hi-

sob-kitob rishtalarini mustahkamlash niyatida turmush qurishgan, bu yorug‘ dunyoda badbaxtlig-u kulfatdan boshlari chiqmagan kimsalar edi; biroq boshida otasi borligidan g‘ururlanar, o‘zini xushbaxt sanardi. Otasi uch yil avval to‘satdan qazo qilgan va onasi bilan so‘ppayib qolgach ham, mash’um dushanbada o‘ldirilgunga qadar ham u saodat nashidasini surib yurgan edi. Onasining nozikfahmliligi unga ham yuqqandi; otasi esa, unga bolaligidanoq miltiq otishni, chavandozlikni, shikor qushlari bilan ov qilishni, eng muhimi, mardlik va jasurlikni o‘rgatgandi. Ota-bola o‘zlaricha arab tilida so‘zlashishar, Plasida Linero yonlarida turganda suhbatdan u ham bebahra qolmasin, deya ispanchada gaplashar edilar. Bu atrofda ularning qurol ko‘tarib yurganini faqat bir gal lochin ovlangan qushlarni olomonga ko‘z-ko‘zlash uchun xayriya bozoriga olib kelishganini aytmasa, biron jonzot ko‘rmagan. Otasining o‘limi Santyago Nasarning o‘rta maktabni tugatib, o‘qishni davom ettirishiga yo‘l qo‘ymadi va qo‘rg‘ondagi mol-holga qarashga majbur bo‘ldi. U tabiatan ko‘ngli ochiq, quvnoq, xushfe’l yigit edi.

O‘sha mash’um kun onasi o‘g‘lining boshdan-oyoq oppoq kiyinganini ko‘rib, bugun dushanbamas-ku, bolaginam kunni adashtiribdi-da, deb o‘ylagan. «Bugun dushanba emas, deb eslatdim ham», – dedi menga. Shunda u yangi liboslarini yepiskop tashrifi munosabati bilan kiyganini, Xudo xohlasa, hazratga yukunib, uzugini o‘pishga muyassar bo‘lish ehtimol borligini aytgan. Bu gap onasining g‘ashiga tegib:

– U kemadan pastga tushmaydi, ovora bo‘lma, – degan ona o‘g‘liga, – hamishagiday, kema sahni-

da turgan ko‘yi somelarni duo qiladi-da, yana kelgan joyiga jo‘nab ketadi. U zot shahrimizni yomon ko‘radi.

Santyago Nasar onasining gapi to‘g‘riligini bilardi, ammo cherkovning tantanali marosimi, olomonning shov-shuvli taraddudi aql-hushini o‘g‘irlab qo‘ygandi. «Xuddi kinodagiga o‘xshaydi», – degan edi u menga o‘shanda. Yepiskopning tashrifi ham, xaloyiqning ommaviy ibodati ham onani qiziqtirmas, faqat o‘g‘lining ertalab yupun kiyinib, ko‘chaga chiqqani-yu, shamollab qolishidan cho‘chirdi: o‘g‘li kechasi uxlab yotganda aksa urganday tuyilgandi unga. «Bolam, soyaboningni ol», – deganda ham beparvo qo‘l siltab, xonadan chiqib ketavergandi. O‘g‘lini o‘shanda so‘nggi bor ko‘rib turishi edi.

Oshpaz xotin Viktoriya Gusmanning tasdiqlashicha, o‘sha kuniyam, butun fevral oyidayam yomg‘ir yog‘magan. «Aksincha bo‘lgandi, – dedi u bir gal, o‘limidan sal avval yo‘qlab borganimda, – erta tongdanoq quyosh qizdirar, kunlar xuddi avgustdagiday issiq edi». Santyago Nasar oshxonaga kirganda, u tushlikka pishirgani uchta quyon go‘shtini nimtalar, atrofida ochofat itlar so‘lagini oqizganicha aylanishar edi. «Ertalablari uning afti tunda ko‘z yummagan kishining yuziday horg‘in bo‘lardi», – esladi Viktoriya Gusman yigitga hamon nafrati borligini yashirmasdan. Uning qizi Divina Flor – jannat guli, endi-endi ochila boshlagan gulg‘unchaday qiz – shakarsiz qahvaga rom qo‘shib, banddor piyolada Santyago Nasarga uzatdi. Odatda, u har dushanbada bu ishni takrorlar, romli qahva yigitning kechagi ichkilikbozlikdan bo‘shashib, kuchsizlangan

jism-u joniga mador bag‘ishlar edi. Oshxonadagi katta o‘choqda alanga chirsillab shivirlar, baland qo‘noqda tovuqlar hamon mudrashar, qisqasi, odatiy sirli hayot davom etardi. Santyago Nasar yana bir dona boshog‘riq dorini yutib, qahvani maydalab icharkan, o‘y surgan ko‘yi, toshtaxtada quyonning ichak-chavag‘ini tozalayotgan ikkita jonondan ko‘z uzmay o‘tirardi. Viktoriya Gusman yoshi o‘tinqiragan bo‘lsa-da, hamon dilbar edi. Qizi birmuncha g‘o‘r va o‘jar ko‘rinar, yoshlik ehtirosi va jununi ko‘pirib turgan qoni tomirlariga sig‘may jo‘shib, rangiga urib, nafasini siqib qo‘yayotganday tuyilardi. Qahvadan bo‘shagan idishni olgani kelganda, Santyago Nasar uning qaynoq bilagidan mahkam tutib:

– Seni ayni jilovlab, minadigan payt keldi-da! – dedi qizga hirs to‘la nigohini tikib.

Viktoriya Gusman unga qon yuqi pichoqni o‘qtalib:

– Qo‘yvor uni, yaramas o‘lgur! – dedi xo‘mrayib. – Ko‘zim ochiq ekan, bu buloqqa tumshug‘ingni tekkizolmaysan!

Ibrohim Nasar, Santyagoning otasi, Viktoriya Gusmanni qizlik mahalida avrab, buzib qo‘ygandi. Qo‘rg‘ondagi otxonada u bilan bir necha yil yashirincha uchrashib, ayshini surib yurdi va ishqi susayib, hovridan tushgach, uyiga xizmatkorlikka oldi. Divina Flor Viktoriyaning so‘nggi jazmanlaridan orttirgan tanho zurriyodi edi. Qiz ham Santyago Nasar uni bir kunmas-bir kun bag‘riga bosishini, qismati qon yig‘laydigan ko‘rpa aynan shu go‘shada to‘shalishini oldindan sezib yurar, ko‘nglida o‘shanday sirli kechani istovchi mayl uyg‘ongan edi. Keyinroq uni ko‘rganimda,

o‘ynashlaridan orttirgan bolalari o‘rtasida semizlikdan pishillab, g‘amgin o‘tirardi. Divina Flor menga: «Vodarig‘o, endi unday yigitni bu dunyo qayta ko‘rmaydi!» – dedi. Onasi Viktoriya Gusman esa gapini bo‘lib: «Yashshamagur otasining quyib qo‘yganday o‘zi, rasvoyi olam edi!» – dedi. U, quyonning hovuri ko‘tarilib turgan ichak-chavag‘ini shartta sug‘urib olib, itga tashlaganida, Santyago Nasarning qattiq qo‘rqqanini eslarkan, ovozi titrab ketdi.

– Ko‘pam vahshiy bo‘lma, – degandi u juvonga. – Yaxshilab bir o‘ylab ko‘r: shu quyonmas odam bo‘lsa, nima qilarding?!

Himoyasiz darranda-yu parrandalarni ovlab, o‘ldirib yurgan yigitning noxos hayajonga tushganini anglaguncha Viktoriya Gusmanning umridan yigirma yil o‘tdi. «Yo Rab! – dedi o‘shanda vahimadan titrab. – Nahotki, u alomati g‘ayb, ajal elchisining daragi bo‘lgan edi!» Inchunun, qotillik ro‘y bergan o‘sha tongda, oshpaz xotin azbaroyi g‘azablanganidan Santyago Nasarning nonushtasini zaharga aylantirish uchun quyonlarning qonli ichak-chavog‘ini yulib-yulqib, itlarga basma-bas otavergan. Alalxusus, yepiskop tushgan kemaning bandargoh tomondan quloqni qomatga keltiruvchi ovozi eshitilgach, butun shahar uyg‘onguncha ahvol shunday edi.

Nasarlarning uyi avval ikki qavatli omborxona bo‘lib, devori randalanmagan taxtalardan tiklangan, tomi ikki tarafi nishab, ruxlanmagan tunuka bilan yopilgan, tom tepasidagi kaptarxonada Xudoning yaratgan kuni o‘laksaxo‘r quzg‘unlar g‘ujg‘on o‘ynab, bandargohda yig‘ilgan axlatning to‘kilishini kutib yotishar edi. Imorat

ancha eski zamonlarda, daryoda kemalar bemalol suzadigan, dengiz qayiqlari ham botqoq o‘zanni bexavotir aylanib o‘tib, shaharchaga kira oladigan paytlarda tiklangan edi. Navbatdagi ichki urushlardan biri tugaganda, arablarning so‘nggi guruhi safida bu makonga Ibrohim Nasar ham boshi og‘ib kelib qolgan, daryo o‘zanini o‘zgartirib, kemalar dengizdan bandargohga yo‘nalmay qo‘yganidan omborxonalar keraksiz makonga aylangandi. Ibrohim Nasar imoratni suv tekinga xarid qildi, asli bu yerda xorijiy mollar sotiladigan do‘kon ochishni ko‘zlagandi, afsuski, niyati amalga oshmadi. Uylanish taraddudiga tushgach, u yoq-bu yog‘ini tuzatib-bezatib, omborxonani uy qilib oldi. Pastki qavat mehmonxona bo‘ldi, uy orqasiga esa, to‘rtta otga mo‘ljallangan otxona va xizmatkorlar yashaydigan kulba, shuningdek, derazasi doimo ko‘lmak suv hidi kelib turadigan bandargoh tarafga qaratib oshxona qurildi. Qaysidir bir halokatga uchragan kemadan yodgor qolgan aylanma zinagina ta’mir etilmadi, imoratning boshqa hamma joyiga Ibrohim Nasar qo‘l urib chiqdi. Avval bojxona mahkamasi bo‘lgan ikkinchi qavatni ikki yotoqxonaga, tug‘ilajak bir gala bolalariga mo‘ljallangan beshta kichik-kichik xonalarga aylantirdi. Bundan tashqari, pastda – maydonda o‘sgan bodom daraxtlarining naq ustida qad ko‘targan yog‘och peshayvonni ham o‘zi tikladi; eridan ajralib yolg‘iz qolgan Plasida Linero mart oqshomlarida, judolik alamini yengillatish dardida, xuddi shu peshayvonga chiqib o‘tirardi. Ibrohim Nasar binoning kungay tomonidagi ko‘cha eshikni tuzatib, ikkita oyna solinadigan ko‘z yasattirdi va girdini o‘ymagul

soldirib bezatdi. U imorat ortidagi yo‘lakni ham avvalgi holicha qoldirgan, faqat eshik peshburunini sal yuqori ko‘tarib, otliq odam o‘ta olishiga moslagan, hatto eski bangargohdan ham foydalanish yo‘lini topib qo‘ygan edi. Xullasi kalom, asosan orqa eshikdan yurilardi: u orqali oshxonagayam, molxonagayam chiqilar, eng muhimi, maydonni kesib o‘tilmasa-da, yangi bandargohga chiqish mumkin edi. Ko‘cha eshik bayram kunlarigina ochilardi, boshqa paytda mudom tambalangan bo‘lardi. Shunga qaramay, Santyago Nasarni o‘ldirmoqqa chog‘langan qotillar serqatnov orqa eshik yonida emas, aynan shu ko‘cha eshik ro‘parasida uni poylashgan, ajal yetaklaganmi, bilmadim, u ham yo‘l aylanmaligini bilib turib, xuddi shu ko‘cha eshikdan yepiskopni kutishga oshiqqan. Shundayin mash’um, ayqash-uyqash voqealar ro‘y berganki, eshitgan har qanaqa odamning aqli shoshib qoladi. Rioachadan yetib kelgan tergovchi, aftidan, biror narsani sezgan shekilli, o‘sha falokatli va uyqash hodisalarga rasman e’tibor qilmaganday tuyilsa-da, ularni o‘zicha sharhlashga, ta’sir etishga uringani tergovnomadagi ba’zi sahifalardan ochiq-oydin ko‘rinib turardi. Guvohlar maydon yoqqa ochiladigan ko‘cha eshikni eslagan mahalda tergovchi bu tafsilotga alohida urg‘u berib, xuddi oldiqochdi asarlardagi kabi «mash’um eshik» degan iborani yozib qo‘ygan. Aslida esa, bu ajib tafsilotga oid birdan bir to‘g‘ri va diqqatga molik gapni tergovchining savollariga javob berayotib, Plasida Linero aytgan: «Mening o‘g‘lim, chiroyli kiyimini kiyganda, hech qachon ko‘chaga orqa eshikdan chiqmagan», – degan u chin onalik shahodati bi-

lan. Bu dalolat shu qadar sodda va jo‘n ediki, tergovchi uni hoshiyaga yozib qo‘ya qolgan, sud ishi hujjatlariga kiritmagan.

Viktoriya Gusman so‘roqda: o‘laman sattor, hech narsani bilmayman, men ham, qizim ham Santyago Nasarni o‘ldirish niyatida kimlardir poylayotganidan mutlaqo bexabar edik, deya sarkashlik qildi. Biroq u, yillar o‘tgach, yigit oshxonaga qahva ichgani kirishidan avvalroq uning joniga qasd etilganidan o‘zi ham, qizi ham xabardor bo‘lganini tan olib gapirdi. Ertalab soat beshlarda sut so‘rab kirgan bir xotin ularga bor gapni, suiqasd sababini va sallohlar uni qayerda kutib turishganini aytgan. Viktoriya Gusman menga: «Bu shov-shuv mast-alastlarning aljirashidir-da, deya o‘ylab, unga aytib o‘tirmagandim», – dedi. Divina Flor esa, uni onasi o‘lganidan keyin yo‘qlab borganimda, tong qolarli haqiqatni aytdi: «Onam ko‘nglida Santyago Nasarning o‘limini tilagani uchun ham suiqasdchilar poylayotgani xususida menga og‘iz ochmagan». O‘shanda Divina Flor harqalay yosh, diydasi qotmagan bir qiz edi, buning ustiga, azbaroyi qo‘rqqanidan o‘zicha biror tadbir ko‘rishga aqli yetmagan; yigit qo‘lidan ushlaganda esa battar vahimaga tushgan va tasavvurida uning qo‘llari murdanikiday sovuq, toshday qattiq tuyilgan.

Tong g‘ira-shirasida, yepiskop kelayotgan kema gurullab ovoz berayotgan chog‘da, Santyago Nasar katta-katta odimlab uyidan chiqqan. Divina Flor eshikni ochish niyatida oldinga chopgan; uni yonlab o‘taman deb, oshxonadagi qush qafaslariga urila-surila, chetandan to‘qilgan jihozlar va qirqquloq butalari oralab ko‘cha eshik tomon

oshiqqan, ammo lo‘kidonni tushirishi bilanoq Santyago Nasar qizning yoniga yetib kelgan va u qirg‘iy panjasida qolgan. «U meni qiynadi, – dedi menga Divina Flor. – Ko‘pincha u meni xilvatda yolg‘iz tutib, bag‘riga bosardi; lekin o‘sha kuni avvalgiday hadiksiramasdim, bezillamasdim, balki dahshat vahmidan bo‘zlagim kelardi». Qiz uning bag‘ridan bo‘shalib, nari surilib, ochiq eshikdan uni o‘tkazib yubordi va tashqarida, maydonda qorday oppoq gullagan, sahar yog‘dulari ichra shaffof porlab turgan bodom daraxtlariga ko‘zi tushdi, kamoli hayajonlanganidan boshqa yoqqa nazar solishga madori yetmadi. «O‘shanda kemaning tovushi tinib, xo‘rozlar qichqira boshlagandi, – davom etdi Divina Flor. – Xo‘rozlar ovozi shunday kuchli, quloqni kar qilgudek shovqinli ediki, shahrimizda parranda shunchalik ko‘pligini aqlimga sig‘dirolmay, bu xo‘rozlar yepiskop bilan kemada olib kelingandir, deb o‘yladim». Guvoh Plasida Lineroning yozg‘irishicha, oqsoch qiz o‘ziga hech qachon nasib etmaydigan bu yigitga qilishi lozim bo‘lgan birdan bir yaxshilik – lo‘kidonni solmay, eshikni ochiq qoldirish edi; shunda u, asqatgan taqdirda, darrov uyga kirib, xavfdan qutular edi. Noma’lum kimsa – uning shaxsini aniqlay olishmagan – ostonaga xat tashlab ketgan, unda Santyago Nasar suiqasddan boxabar etilib, uni kimlar, qachon va qayerda o‘ldirmoqchiligi batafsil ko‘rsatilgan. Santyago Nasar uydan chiqayotganda ham maktub yerda yotgan, ammo yigit payqamagan; unga Divina Florning ham ko‘zi tushmagan, umuman, xatga hech zot e’tibor bermagan, odamkushlik amalga oshirilgach, anchadan keyingina uni ko‘rishgan.

Soat olti, ko‘chalarda chiroqlar hamon yoniq. Bodom shoxlarida, ba’zi uylar peshayvonida to‘y munosabati bilan osilgan, rangin qog‘ozlardan yasalgan gulchambarlar sollanadi, dabdurustdan ko‘rgan kishi gulchambarlarni yepiskop sharafiga osilibdi, deb o‘ylashi mumkin. Ibodatxona ayvoniga tutash, to‘rtburchak tosh yotqizilgan maydon sahnida mashshoqlarga mo‘ljallab taxtasupa yasalgandi, supa kechagi sayldan keyin bo‘sh shishalar-u turli nishxo‘rt – chiqindiga to‘la axlatxonaga aylangandi. Santyago Nasar ko‘chaga chiqqanda, kema ovozini eshitib, bir necha kishi bandargoh tomon chopib ketayotgandi.

Maydondagi barcha mahkamalar-u uylarning eshigi berk, faqat cherkov yaqinidagi sut do‘konigina ochiq, Santyago Nasarni so‘yishga qasd etganlar uni xuddi o‘sha yerda poylashayotgan edi. Uni dastlab sut sotuvchi xotin Klotilde Armenta ko‘rgan, tonggi tiniq shu’lalarda yigitning oppoq kiyimi unga alyumindan tikilganday tuyilgan. «U ko‘zimga oq-yaltiroq libos kiygan arvohday ko‘rindi», – dedi u menga. Qasoskorlar ro‘znomaga o‘rog‘liq pichoqlarini mahkam quchoqlagancha peshtaxta tagida uxlab yotishardi. Klotilde Armenta ularni uyg‘otib yuborishdan cho‘chib, nafasini yutib, damini chiqarmay lol turardi.

Qasoskorlar – egizak Pedro va Pablo Vikario – yigirma to‘rtga kirgan, bir-biriga ikki tomchi suvday o‘xshash yigitlar edi. Tergovchining hisobotida: «Ko‘rinishi xunuk bo‘lsa ham, fe’li, muomalasi yaxshi ekan», – deb yozilgan. Men ham ikkovini maktabda o‘qib yurgan paytlaridan biladigan odam kabi xuddi shu gapni aytgan bo‘lardim. Ular kecha to‘yda kiyishgan, bizning

Karib dengizi qirg‘oqlaridagi mazgillarda odamni birmuncha olifta va baqaloq ko‘rsatadigan qora jun kostyumlarini yechib ulgurishmagandi; o‘yin-kulgi, ziyofat-u ichkilikdan horigan yuzlari so‘lg‘in bo‘lsa-da, soqollari odatdagiday-qirtishlab olingan edi. To‘y arafasidagi bazmdayoq mast bo‘lib qolgan egizaklar uch kecha-kunduzdirki betinim ichaverib, es-hushdan ayrilib, ikkoviyam bamisoli oyparastga aylangan edi. Ular qurbonni Klotilde Armentaning sut do‘koni peshtaxtasi ostida uch soat mudrab kutgach, ilk tong nurlari osmonni yoritganda, nihoyat, jumadan beri birinchi marta ko‘zlari ilindi. Kema dastlab ovoz bergandayoq sakrab uyg‘onishdi. Santyago Nasar uydan chiqqanda esa uni ko‘rib, tamoman hushyor tortishdi. Ikkovi ham darhol qo‘llaridagi o‘rog‘lik pichoqni mahkam qisishib, taraddudlanishdi, Pedro Vikario, hatto o‘rnidan tura boshladi.

– Tangriga shak keltirmanglar, – deya bidirlab shivirladi Klotilde Armenta. – Xudo xayrlaringni bersin, jilla qursa, yepiskop hazrat ketgunicha shu ishni qilmay turinglar...

«Bu gapni Alloh ko‘nglimga solganini qarang-a», – deya u keyin ham necha bor takrorlab, g‘ururlanib yurdi. Darhaqiqat, bu fikr uning kallasiga bexosdan kelib qolgan, u beixtiyor aytib yuborgan bo‘lsa-da, harqalay egizaklar Klotilde Armentaning so‘zidan keyin shashtlaridan tushdilar, Pedro esa yana qaytib o‘rniga o‘tirdi. Ikkovlon maydondan o‘tayotgan Santyago Nasarni kiprik qoqmay kuzatishdi. «Ular unga achinib qarashdi», – deya izoh berdi Klotilde Armenta. Shu asnoda maydonni cherkov maktabining bir guruh talaba qizlari betartib ravishda kesib o‘tishgan.

Plasida Linero bilib aytgan ekan: yepiskop kemadan pastga tushmadi. Bandargohda shahar ma'murlari va o'quvchi bolalardan tashqari son-sanoqsiz olomon to'plangandi; har joy-har joyda savat-u kajavalardan hazratga atalgan xo'rozlar boshini chiqarib, mo'ltirab turardi: xo'roz tojining qaynatmasi yepiskopning xush ko'radigan taomi edi. Hadya-yu tortiqlar shunchalik ko'p yig'ildiki, ularni langargohdan kemaga yuklansa, rosa ikki soat vaqt ketardi. Ammo kema to'xtamadi. U daryoning qayrilishidan timsohday o'kirib, suzib chiqishi bilanoq mashshoqlar yepiskopga bag'ishlangan tantanali qasida kuyni jaranglatib chalib yubordilar va shu zahoti xo'rozlar ham tomoqlarini yirtib-yirtib qichqirdilar, ularga shaharda qolganlari ham jo'r bo'lishdi.

Bu paytga kelib g'ildirakli, o'tin yoqiladigan afsonaviy kemalar ko'rinmay qolgandi, ba'zi bir suzib yurganlarida esa pianola ham, asal oyini aysh-ishrat bilan o'tkaziladigan xosxonalari ham yo'q edi; aslida, bunday almisoqdan qolgan kemachalarning oqimga qarshi suzishi nihoyatda og'ir. Yepiskop hazratning kemasi yap-yangi edi, bir emas, ikkita temir mo'risi cho'qqayib turardi, ularga bilaguzuk shaklida bayroq tasviri tushirilgan, ostidagi charxi va parragi tezyurar dengiz kemalariniki kabi mahobatli edi. Kemaning yuqori sahnida, shundoqqina kapitan hujrasi yonida, ispan mulozimlari davrasida oppoq kiyingan yepiskop siymosi ko'zga tashlanadi. «Ob-havo xuddi rojdestvo hayitidagiday edi», – dedi singlim Margot. Uning aytishicha, kema langargoh yonidan o'tib borarkan, ulkan maxluqday cho'zib bo'kirgan, keyin qirg'oqda, birinchi qatorda turganlar-

ga issiq hovur aralash suv sachratib, ust-boshini shalabbo qilgan. Odamlar yepiskopni xuddi tushda ko‘rganday bo‘lishgan: kema olomon qarshisidan o‘tib borarkan, hazrat havoga qo‘lini bigiz qilgancha cho‘qinish rusumini bajo etib, beixtiyor, bee’timod, me’rovlarcha cho‘qina-cho‘qina kema uzoqlashgani barobarida ko‘zdan yo‘qolgan, bandargoh cho‘chigan xo‘rozlarning qaqaqlashi-yu, pala-partish qichqirig‘iga to‘lib ketgan.

Santyago Nasarga aldangani alam qildi: ruhoniy Karmen Amadorning ommaviy tashviqiga uchib, uyam bir necha quchoq o‘tin, yepiskop yoqtiradigan tojdor xo‘rozning bir nechasini hazratga atagan edi, ammo u beparvo o‘tib ketdi. Lekin yigitning alami uzoqqa cho‘zilmadi. Bandargohda yonma-yon turgan singlim Margot uning qo‘l siltab qo‘yganini, boshog‘riq dori kor qilmaganini, karaxtligi tarqamaganini sezgan va ko‘zlarining birdan mamnun chaqnaganidan mayxo‘rlikni yana davom ettirajagini anglagan. «U hecham shamollaganga o‘xshamasdi, faqat kechagi dang‘illama to‘y qanchaga tushganini o‘ylardi», – dedi menga singlim. Shunda Kristo Bedoyya darhol sarf-xarajatlarni hisoblab, shunday raqamlarni aytdiki, og‘zimiz ochilib qoldi. Santyago Nasar, Kristo Bedoyya va men uchalamiz soat sahargi to‘rtgacha aylanib yurdik, keyin uxlagani uyiga bormasdan, buvasinikiga kirib ketdi. U buvasi va buvisi bilan laqillashib o‘tirib, to‘y xususidagi ma’lumotini yanada to‘ldirib oldi. Keyin Kristo Vedoyya to‘yda mehmonlarga atab qirqta kurka xo‘roz, o‘n bitta axta to‘ng‘iz va yana to‘rtta g‘unajin so‘yilganini bizga hisoblab berdi – kuyov ularning hammasini shundoqqina maydonda qo-

vurtirib, xaloyiqni siylagan. Kristo Bedoyya tag‘in ikki yuz beshta qutidagi xorijdan xufya ravishda keltirilgan may, ikki ming shisha rom olomon ichida yurib tarqatilganini ham aytdi. Xullas, to‘y emas, bayram bo‘lib ketgan, avvallari ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan bu to‘kin-sochin bazmda shaharchadagi odam zoti borki, bari rosa yeb-ichgan. Santyago Nasar to‘lqinlanib, havasini yashirolmadi:

– Menam xuddi shunaqa to‘y qilaman, – dedi u. – Odamlar o‘lguncha bir-birlariga gapirib yurishsin.

Shunda singlim Margotning ichidan qirindi o‘tib ketdi: u shundog‘am baxt-omadi boshidan oshib-toshib yotgan Flora Migelning saodat yulduzi yanada porlashini, rojdestvo hayitida Santyago Nasar unga nasib etishini o‘ylab, hasaddan yuragi yorilayozdi. «Yigit o‘lgur bir chiroyli, esli-hushli, yigirma bir yoshda-yu, o‘z mol-mulki bor». Margot uni tez-tez mehmonga chaqirib turar, ayniqsa, onam go‘shtli, ko‘katli qozon somsa qilganda, jon-jon deb biznikiga kelar va birga ovqatlanar edik. O‘sha kuni ham onam nonushtaga somsa yopgandi. Santyago Nasar biznikiga kirishini aytdi.

– Men uydan kiyimimni almashtirib chiqay, sizlarga yetib olaman, – dedi, so‘ng birdan soati javonchada qolganini eslab:

– Soat necha bo‘ldi? – deya so‘radi.

Oltidan yigirma besh daqiqa o‘tgandi. Santyago Nasar Kristo Bedoyyaning tirsagidan tutib, maydonga yurdi.

– O‘n besh daqiqadan keyin sizlarnikiga boraman, – dedi u singlimga.

Singlim nonushta tayyorligini aytib, hammamizni birgalikda uyga kirishimizni talab qilib turib oldi. «Uning yuzida qandaydir bir qat'iyat ifodasi bor edi, – dedi menga keyinchalik Kristo Bedoyya. – Ba'zan-ba'zan o'zimcha, Margot uning o'ldirilishidan darak topgandirki, yigitni sizlarnikiga taklif etib, jonini asramoqchi bo'lgandir, deya o'ylayman». Illo, Santyago Nasar singlimni kutib turmay, uyga jo'nayverishga ko'ndirdi, ungacha o'zi kiyimini almashtirib, otini minib chiqajagini, tezroq qo'rg'onga yetib borishi kerakligini, novvoslarni bichmoqchi ekanini aytdi-da, Margot bilan xayr-xo'shlashib, Kristo Bedoyyani qo'ltiqlagancha maydon tomonga yurdi. Singlim uni so'nggi daf'a ko'rib turardi.

Bandargohga chiqqanlarning juda ko'pchiligi birodar Vikariolar Santyago Nasarni o'ldirmoqchi ekanidan voqif edi. Iste'fodagi polkovnik, oliy harbiy oliy maktabini tugatgan, o'n bir yildan beri shahar hokimi vazifasini bajarayotgan don Lasaro Aponte ham uning boshida ajal shamshiri yalang'ochlanganini bilib turib, harbiychasiga qo'lini siqib, indamasdan so'rashib qo'ya qolgan. «Men xavf-xatar o'tib ketdi, endi hech narsa bo'lmas, deb o'ylabman», – dedi u menga. Qavmning otasi padar Karmen Amador ham pinagini buzmagan: «Uni sog'-salomat ko'rib, eshitganlarim shunchaki mish-mish ekan-da, degan xayolga bordim», – dedi u o'zining loqaydligini oqlab. Eng yomoni, Santyago Nasar suiqasddan ogoh etilganmi-yo'qmi, bu haqda biror inson zoti bosh qotirmagan, yigitning hech narsani bilmasligiga, g'aflat bosganiga esa hech kim ishonmagan. Darhaqiqat, ba'zi kishilar, jumladan mening singlim

Margot ham egizak qassoblar unga qasd qilganini eshitmagan. U tergovchiga shunday izoh bergan: «Agar nomiga sezib qolganimdayam, uni bo‘yniga arqon solib bo‘lsa-da, uyimizga sudrab olib kirardim». Bo‘lajak xunrezona jinoyatdan singlimning bexabarligi menga juda g‘alati tuyildi; bir necha yildan beri, hatto cherkovga qatnamay qo‘ygan, hamisha uyda o‘tiradigan va mish-mish-u duv-duv gaplarni eldan burun eshitadigan onamning qulog‘iga butun xaloyiqqa ma’lum shumxabarning yetib kelmagani esa meni battar hayratga soldi. Chunki onamning quvvayi hofizasi va ko‘ngil ko‘zi judayam tiniqligini, ko‘p hodisalarni oldindan seza olishini bolaligimdan yaxshi bilardim. O‘sha paytlarda maktabga vaqtida yetib borish uchun tong qorong‘isida uyg‘oniboq, onamning rangpar, sirli-sukutli yuziga ko‘zim tushardi; u sahargi g‘ira-shiralikda uyni supurib-sidirib, keyin qahva qaynatarkan, yorug‘ dunyoda nimalar ro‘y berayotganidan gapirar, biz uning purma’no va turli-tuman ma’lumotga boy so‘zlarini issiqqina ko‘rpada eshitib yotardik. Nazarimda, onam bilan shahrimiz kishilarini, ayniqsa, uning quroldoshlarini ko‘rinmas, sirli, darakchi rishtalar bog‘lab turardi; gohida u xuddi folbin xotinlarday yuz berajak hodisani oldindan aytardiki, voqea ro‘y bergach, og‘zimiz ochilib qolardi. Ammo onam o‘sha kuni soat uchda paydo bo‘lib, ko‘chama-ko‘cha kezib yurgan falokat sharpasining tobora yaqinlashayotganini sezmagan. Yepiskopni kutishga chiqib ketayotgan singlim Margot – uning hovli sahnini supurib-sidirib, somsaga qiyma chopayotganini ko‘rgan. Onam o‘sha kunni eslab: «Xo‘rozlar rosa tomoq yirtib qichqirishgandi-da», – dedi. Onam bandargohdan

eshitilayotgan ovozlar yepiskopning tashrifi bilan bog‘liqligini tushunmagan, balki to‘ydagilarning oxirgi baqiriq-chaqiriqlari, deb o‘ylagan.

Uyimiz katta maydondan ancha narida, daryo qirg‘og‘ida, so‘lim vodiy etagida joylashgan edi. Singlim Margot bandargohgacha sohil bo‘ylab piyoda borgan, aytishicha, fikri-zikri hazratning tashrifi bilan band bo‘lgan xaloyiq mayda-chuyda mish-mishlarga e’tibor bermagan. Qaysiki xonadonda kasallar bo‘lsa, hammasi eshiklar oldiga olib chiqilgandi, ular, hazratning poyqadami bilan zora falak dardimizga darmon yuborar, degan umidda ostonalari yonida cho‘zilib yotishar; qo‘y yetaklagan, kurka qo‘ltiqlagan yoki allambalo yeguliklarni, narz-niyozlarni bo‘xchalarga tugib olgan xotinlar hovlilaridan hovliqib chiqib, bandargohga oshiqar; daryoning u yog‘ida esa, gulchambarlar bilan bezatilgan eshkakli qayiqlar – kanoelar ohista suzib borar edi. Qirg‘oqqa oyog‘ining gardi ham tegmagan yepiskopning qorasi o‘chgach, yana bir yangi xabar tarqaldiki, olomon orasida tag‘in shovqin-suron, shov-shuv gaplar avjiga mindi. Singlim ana shunda bor gapni birdaniga eshitgan va janjalning tagiga yetgan: kechagi shohona to‘ydan so‘ng kelinposhsha Anxela Vikarioni onasining uyiga qaytarib keltirib qo‘yishibdi, inchunun, kuyovning shahodaticha, u juvon chiqibdi. «Xuddi jonim halqumimga kelib qolganday behol bo‘ldim, – dedi singlim Margot. – Odamlar qanchalik og‘iz to‘ldirib g‘iybat qilishmasin, hech bir kimsa bechora Santyago Nasarning bu ishlarga qanday aralashib qolganini izohlab berolmasdi». Binobarin, Anxela Vikarioning akalari uni o‘ldirmoqqa qasdlangani hammaga ma’lum edi.

Sniglim yig‘lab yubormaslik uchun lablarini tishlaganicha uyga diltang kirib keldi. Onam oshxonada kuymalanar, mabodo yepiskop siymosini ko‘rish nasib etsa, dog‘da qolmay deya bozor kuni kiyadigan ko‘k gulli ko‘ylagini ustiga ilib olgan edi; u o‘zicha ishq-u jazmanlik xususidagi portugal xalq qo‘shig‘ini xirgoyi qilardi. Singlim dasturxonga bir kishilik ortiqcha nasiba qo‘yilganini aytgandi, onam:

– Bu Santyago Nasarniki, – dedi. – Qizim, axir uni o‘zing nonushtaga taklif etgansan-ku.

– Olib qo‘ying, – dedi Margot qat’iy.

U onamga ko‘chada eshitganlarini bir-bir aytib berdi. «Onam hamma gapni biladi, deb o‘ylagandim, – dedi singlim menga. – Chunki unga bir narsani ayta boshlasang, yarmiga bormay turib, oxiri nima bilan tugashini fahmlab olardi. Ammo bu mash’um xabar onamga ham birmuncha chigal tuyilib, hattoki u ham nochor ahvolda qoldi». Nasarning avlodiga tug‘ilganida onamning ismi bilan Santyago deb atashgandi, chunki onam uni cho‘qintirgan volida edi. Sharmandayi sharmisor kelinning onasi Pura Vikarioga ham onamning qarindoshchiligi bor edi. Onam singlimning bidirlashini oxirigacha eshitmay, azalarga kiyadigan qora ridosini, poshnador poyabzalini kiydi. Otam hali o‘rnidan turmagandi, oradagi gap-so‘zni eshitib, kutilmaganda, tungi xalatida u ham oshxonaga kirib keldi va xavotirlanib, onamdan qayoqqa otlanganini so‘radi.

– Boyaqish jigarim Plasidadan xabar olay, – dedi u. – Barcha xaloyiqqa egizak qassoblar uning o‘g‘lini o‘ldirmoqchi ekani ayon-u, u bechoraning uyi kuyib, hech narsadan bexabar o‘tiribdimish. He, dunyoning tashvishiyam qurib ketsin-a!

– Nasarlar ham, Vikariolar ham biz uchun qora ko‘zday yaqin va aziz, o‘ylab ish tutgin, onasi, – dedi otam.

– Har doim boshiga falokat tushganlarga qayishgan yaxshidir, – dedi onam.

Narigi xonadan ukalarim chiqib kelishdi. Kichkinalari yomon bir ish bo‘lganini sezib, yig‘lab yuborishdi. Onam, umrida birinchi marta bo‘lsa kerak, na hiqillayotgan dilbandlariga, na otamga e’tibor qildi. Otam uning nihoyatda qayg‘urayotganini anglab:

– To‘xtab tur, menam kiyinib olay, – dedi.

Onam bu paytda ko‘chaga chiqib ulgurgandi. Ukam Xayme ham kiyinib, maktabga jo‘nashga taraddudlanardi. Otam unga:

– Onang bilan birga bor, – deb buyurdi.

Nima gapligidan, qayoqqa borishayotganidan bexabar, Xayme onamning izidan chopa ketdi va unga yetib, qo‘lidan mahkam ushlab oldi. «U o‘z-o‘zi bilan so‘zlashib borardi, – dedi menga Xayme. – Onam, bu salloh o‘lgurlar hayvondanam battar, turgan-bitgani falokat, – dedi past ovozda». U ukamni yetaklab borayotganini ham sezmagan. «Odamlar ahvolimni ko‘rib, bu xotin aqldan ozibdi deyishgandir, deya zorlandi onam menga keyin. – Olisdagi shovqin-suronni eshitganim esimda, nazarimda to‘y qaytadan boshlangan-u, olomon yana maydon tarafga chopib borayotganday tuyildi». U o‘zida yo‘q shoshib borarkan, butun g‘ala-g‘ovurning boisi qil ustida turgan inson hayoti ekanligini fahmlab, jon-jahdi bilan maydonga talpingan, biroq yo‘lda o‘tib ketayotgan allakim unga, azbaroyi rahmi kelganidan:

– Luisa Santyago, shoshmay qo‘ya qoling! – deya qichqirgan. – Uni o‘ldirib bo‘lishdi.

Bayyardo San Roman, bokira chiqmagan xotinini onasinikiga eltib tashlagan kuyov, bu makonda o‘tgan yilning avgustida, to‘yidan rosa olti oy oldin paydo bo‘lgan edi. U shaharchamizdagi bandargohda haftasiga bir marta to‘xtab o‘tadigan kemada kelgandi: o‘shanda uning oshlangan teridan tikilgan ikkita kumushbandli to‘rvasi-yu, kumush to‘qali tasmasi, etigi va qup-quruq bo‘yi bor edi, xolos. Aftidan yoshi o‘ttizlarda edi, ammo alp qomatligi uni navqiron qilib ko‘rsatardi, ko‘zlari tilladay tiniq, chaqnoq, rang-ro‘yi ham olovda toblanganday toza, yoqimli edi. Egnidagi ixcham kostyumi, torgina shimi asl novvos terisidan, echki terisidan tikilgan qo‘lqoplari esa kostyumiga hamrang edi. Kemada birga kelgan Magdalena Oliver butun yo‘l davomida undan ko‘z uzolmagan. «Qizlarga xos husnli yigit ekan, – dedi u menga. – Esiz-esiz! Shunaqayam yoqimliki, bir piyola suvga qo‘shib yutib yuborsam, deysan odam!» Avvaliga sho‘rlik Magdalena ham, ko‘pchilik kaltabin kimsalar ham Bayyardo San Romanning uncha-muncha xotin zotining tishi o‘tmaydigan toshyong‘oqligini fahmlashmagan.

Onam menga, maktabimga avgustning oxirlarida yuborgan xatida: «Bu yerga ajoyib bir yigit keldi», – deya shunchaki eslab o‘tgandi. Keyingi maktubida esa: «Uning ismi Bayyardo San Roman ekan, aytishlaricha, g‘oyatda jozibali yigit emish, biroq men hali o‘zini ko‘rmadim», – deb yozdi. Uning nima sababdan bizning joylarga qadam ranjida qilganini hech kim bilmagan. To‘y arafasida kimdir, uni sinash uchunmi, shu xususda so‘raganida, u: «Men kimga uylanay ekan, deb shaharma-shahar kezib yurgandim, chamamda, taqdir nasibamni shu yerga qo‘shgan ekan», – deb

qo‘ya qolgan. Bu gap rost bo‘lishiyam mumkin, ammo u ichidagini sirtiga chiqarmaslik uchun har qanaqa yolg‘onniyam yamlamay yutib, mardumni ishontirib, laqillatib ketaveradigan yigitlar xilidan edi.

U birinchi kuniyoq, kechasi kino ko‘rib o‘tirishganda, odamlarga bu yerda tezda temir yo‘l qurish kerakligini, ana o‘shanda butun shahar ahli daryoning qosh-qovog‘iga qarab o‘tirmasdan, istagan paytda xohlagan tomoniga ketaverishi mumkinligini aytib, o‘zining temiryo‘l qurilishi bo‘yicha muhandis ekanligini pisanda qilgan. Ertasiga telegramma yubormoq niyatida telegrafxonaga kirgan, uskunani o‘z qo‘li bilan ishlatib, kerakli gaplarni o‘zi xabar qilgan, keyin telegrafchi qizga kuchsizlangan batareyalarni qanday quvvatlantirish lozimligini tushuntirgan. Qo‘shinga askar to‘plash maqsadida bizning shaharchaga kelgan harbiy shifokor bilan esa chegarada uchrab turadigan turli xastaliklarni qanday davolash haqida dadil suhbatlashgan. Unga tongotargacha cho‘ziladigan shavqli-shovqinli bazmlar yoqarkan, o‘zi ham mayxo‘rlikni qiyib qo‘yarkan, janjallashib qolganlarni ustomonlarcha yarashtirar, qimorda g‘irromlik qiluvchilar bilan chiqisholmas ekan. Bir kuni, yakshanba ibodatidan so‘ng, suzong‘ich yigitlardan ikkitasini chaqirtirgan-da, suzong‘ichlar bizning joylarda ko‘p bo‘ladi, daryoning u yog‘idan bu yog‘iga kim o‘zarga suzishgan va hariflaridan zo‘rini yigirma sarjin orqada qoldirib, g‘olib chiqqan. Onam menga bir nomasida shu xususda yozarkan, o‘z odaticha hovliqib: «U oltin-u tillalar ichida ham shunday suzsa kerak»,

– deya mahobat qilgandi. Inchunun, u odamlar orasidagi shov-shuvga – Bayyardo San Roman behad moliyaviy imkoniyatlarga ega, beli baquvvat, qo‘li uzun, istagan ishini qila oladi, degan gaplarga ham ishongan.

Onam menga oktabrda yozgan xatida uni rosa maqtagan va: «Odamlar uni judayam yaxshi ko‘rishadi, chunki halol, ko‘ngli toza yigit; o‘tgan yakshanbadagi ibodatda u cho‘kka tushib, munojot qildi, lotincha hamd o‘qishdayam o‘zini ko‘rsatdi, baraka topgur», – degan edi. O‘sha paytlari cherkov ishlari lotin tilida yuritilardi, obidalarning tik turib ibodat qilishi taqiqlangani hammaga besh qo‘lday ayon edi, biroq agar bir narsaning tagiga yetishni istasa yo biror narsa yoqib qolsa, onamning ana shunday keraksiz tafsilotlarga urg‘u beradigan odati bor edi. Bu yigit behad ulug‘langan ana shu xatdan keyin onam menga yana ikkita maktub yo‘lladi, biroq ularda, garchand bu davrga kelib, Bayyardo San Romanning Anxela Vikarioga uylanayotganini butun el-yurt eshitgan bo‘lsa-da, bu haqda biror og‘iz so‘z demagan edi. Mash’um to‘ydan keyin, ancha vaqt o‘tgach, o‘sha kunlari Bayyardo bilan yaqindan tanishganini, taassufki, u aks taassurot qoldirganini va o‘sha – oktabrda yozgan xatida xato qilganiga, muloqot asnosida yigitning oltinga o‘xshash sariq, yiltiroq ko‘zlarini ko‘rib, qo‘rquvdan titrab ketganiga iqror bo‘ldi.

– Ko‘zimga ajinaga o‘xshab ko‘rindi, o‘lsin, – dedi onam menga. – Axir o‘zing aytganding-ku, bunday narsalarni oq qog‘ozga yozib o‘tirmang, deb, shuning uchun indamay qo‘ya qolgandim.

Men Bayyardo San Roman bilan onamdan sal keyinroq, rojdestvo hayiti munosabati bilan ta'tilga kelgan kunlarimda tanishgandim, u menga vahima qilganlariday g'alati, favqulodda inson kabi tuyilmagandi. Chindanam yoqimtoy, xushraftor edi, ammo Magdalena Oliver og'iz ko'pirtirganiday vali-yu vallomat emasdi. Fikri ojizimcha, mayda-chuyda qiliqlaridan qat'i nazar, jiddiy shaxs edi, xush-xandon paytlarida ham ichidagi bir dard zarbi chehrasida aks etib turardi. Mening nazarimda, mahzun-u dardkash bir inson edi. O'shanda u Anxela Vikario bilan unashtirilgandi.

Ularning qanday, qachon tanishib-topishganlari xususida hech kim menga biror aniq ma'lumot berolmadi. Bayyardo San Roman yashagan bo'ydoqlar istiqomatgohi sohibasining aytishicha, u ayni qiyom paytida, oromxonadagi halinchakda tebranib, mudrab o'tirganida, sentabr oyining oxirlari ekan, qog'oz gullar solingan savatni ko'tarib, Anxela Vikario va uning onasi maydonni kesib o'tishgan. Bayyardo San Roman ko'zlarini yarim ochib, boshdan-oyoq qora kiyingan ikki motamzadani ko'rgan, quyosh nurlari jivirlab, sarobiy to'lqinlar jilvalanayotgan maydondan o'tayotgan ana shu ikki qora sharpa yigitning nazarida atrofdagi birdan bir tirik jonzotday tuyilgan. U musofirxona sohibasidan qizning kimligini so'raganida, xotin uning Anxela Vikarioligi, yonidagi onasi, u kenja qiz ekanini aytgan. Bayyardo San Roman ikkala o'tkinchini maydon hadiga yetgunicha kuzatib turgan. So'ngra:

– Ismi jismiga monand ekan[1], – degan u.

---

[1] So'z o'yini: ispancha, angel – farishta, lotinchada, vikarius – yordamchi, o'rinbosar degani.

Keyin, boshini halinchak suyanchig‘iga tirab, yana ko‘zlarini yumgan-da:

– Uyg‘onganimda, – degan u, – esimga solasiz: men unga uylanishim kerak.

Anxela Vikarioning menga aytishicha, bo‘ydoqlar istirohat uyi sohibasi bu gap xususida keyinroq Bayyardo San Roman qizga chindanam oshig‘-u shaydo bo‘lib yurgan kezlarida og‘iz ochgan. «Bu gapni eshitib, yuragim yorilayozdi», – dedi menga Anxela Vikario. O‘sha gapning ustida bo‘lganlarning uchtasi yigitning so‘zlarini rost, deya tasdiqlashdi, ammo shohidlarning to‘rttasi shubha bildirishib, inkor etishdi. Shunga qaramay, barcha taxminlarga ko‘ra, Anxela Vikario bilan Bayyardo San Roman ilk bora oktabrda, millat bayrami kunida, xayriya bozoridagi lotoreya o‘ynalayotgan joyda tanishishgan. Qizga lotoreya tarqatish topshirilgan ekan. Bayramga chiqqan Bayyardo San Roman lotoreya qutisi oldida turgan rangpar, qop-qora kiyingan qizni ko‘rgan-u, to‘ppa-to‘g‘ri yoniga kelgan va butun bozor ahlini o‘ziga qaratgan sadaflangan grammofonning qancha turishini so‘ragan. Qiz unga bu buyum sotilmasligini, balki lotoreyaga o‘ynalishini aytgan.

– Qaytaga yaxshi, – degan yigit, – arzongina va osongina qo‘lga kirarkan.

Anxela Vikarioning iqroricha, u aytganiga erishgan, ammo qizning ko‘nglida mehr-muhabbatdan yiroq, sovuq bir taassurot qoldirgan. «Takabbur erkaklarni jinim suymaydi o‘zi, – dedi u menga o‘sha kunni eslarkan, – bunday maqtanchog‘ini-ku, umrimda ko‘rmagandim, xullas, men uni qip-qizil ahmoq bo‘lsa kerak, deb o‘yladim». Grammofon yutug‘i bor lotoreyaning raqa-

mini baqirib e’lon qilishganda va yutuq chindan ham Bayyardo San Romanga chiqqanini bilgach esa qizning u mutakabbirga g‘arazi yanada ortgan. Qiz boyaqishni lol qoldirish niyatida uning hamma lotoreyani sotib olganini kim ham xayoliga keltiribdi, deysiz.

Anxela Vikario o‘sha kechasi uyiga qaytgach, xonasida turgan sovg‘alar o‘raladigan nafis qog‘oz va gulqog‘ozni bog‘log‘ich bilan bejab chirmalgan grammofonga ko‘zi tushgan. O‘sha ayyom tug‘ilgan kunim ekanini qayoqdanam bila qoldiykin, hamon aqlim yetmaydi, dedi menga Anxela Vikario. Bayyardo San Romanning unga bunday dabdabali tuhfa yuborishiga arzigulik orada hech gap-so‘z bo‘lmaganiga ota-onasini ishontiraman, deya qizning esi ketdi. Uning akalari – Pablo bilan Pedro ohanjamali sovg‘ani egasiga qaytarib berish uchun darhol bo‘ydoqlarning istirohat uyiga yetib borishdi va u yerda shunday shovqin-suron ko‘tarishdiki, oqibatda bu o‘yinchoqni Anxela Vikarioga jo‘natilayotganida ko‘rmaganlar ham uning qay tarzda egasiga qaytarilayotganidan voqif bo‘lishdi. Biroq dalli-g‘ulli birodarlar Bayyardo San Romanning yelimligi va tap tortmasligidan bexabar edi. Egizaklar ertasiga tong otganida, ichkilikbozlikdan es-hushlarini yo‘qotib, gandiraklab, o‘sha grammofonni qo‘ltiqlagancha dovdirashib, uylariga kirib kelishdi. Bu ham yetmaganday, ikkovining yonida ulfatchilikni shu hovlida davom ettirishni ko‘zlagan Bayyardo San Roman ham bor edi.

Anxela Vikario qo‘l uchida kun ko‘radigan oiladagi kenja qiz edi. Otasi, Ponsio Vikario, qashshoq zargarlardan biri, ro‘zg‘orni tebratish

ilinjida tinimsiz ishlay-ishlay, ajabtovur taqinchoqlar yasay-yasay pirovardida ko‘zi xira tortgan bir g‘arib edi. Onasi, Purisima del Karmen esa qizligida maktabda murabbiylik qilgan, turmush qurgandan keyin bekachlikdan o‘zga kasbkor orttirmagan edi. U muloyim, kasalmandroq ko‘rinsa-da, pishiq-puxta ayolligi shundog‘am sezilib turardi. Mersedes uni eslab: «Rohibalardan bir tukiyam kam emasdi», – dedi menga. Purisima del Karmen eri va bolalarining parvarish-u tarbiyasi deb o‘zini o‘qqa-cho‘qqa urar, atrofidagilar esa uning ham bir tirik jon ekanini unutib qo‘yishardi. Uning ikkita katta qizi juda kech turmush qurgandi. Egizaklar va Anxeladan tashqari yana bir o‘rtancha qizi ham bor edi, afsusski, uni bezgak qiyofasida kelgan ajal olib ketdi, mana, ikki yildirki, oiladagilar motam tutishardi, uyda sal mundoqroq yurishsa ham, ko‘chaga chiqishganda motamzadalik rusumini juda joyiga qo‘yishardi. Er-xotin aka-ukalarni mard, mehnatkash qilib tarbiyalashdi. Qizlarni esa turmushga berish niyatida qog‘ozga o‘ralgan qandday avaylab, parvarish etishdi. Zaifalar kashta tikib, gul solishni, chok mashinada ajoyib kiyimlar tikish-u to‘r to‘qishni, kir yuvish-u dazmol bosishni, qog‘ozgullar yasashni, shinni-yu murabbolar tayyorlashni, hattoki nikoh to‘yiga taklifnoma yozishni ham bilishardi. Eski urf-odatlarga, ayniqsa, o‘lim-u dafnga bog‘liq rasm-rusumga yengiltaklarcha qaraydigan ba’zi dugonalaridan farqli o‘laroq, Vikarioning qizlari o‘sallarga qarash, janoza o‘qish, azadorlarga ta’ziya bildirish kabi azaliy udumlarga qattiq rioya qilishar edi. Mening onamga ularning o‘ringa yotishdan oldin

soch tarash odatlarigina ma'qul emasdi. Onam ularni: «Kechasi soch taramanglar, jon qizlarim, dengizchi yigitlar qaramay ketib qolishadi», – deb koyir edi. Shunga qaramay, onam ularga qattiq mehr qo'ygan, dunyoda bulardanam yaxshiroq qiz yo'q, der edi. «Biram esli, mo'min-qobilki, bu qurmagurlar, – derdi onam, – qaysi erkakning qo'liga tushmasin, uni baxtga botirib yuboradi: axir bular jahonda xotinlik dardini tortishga, mehnatga yaratilgan-da. «Biroq o'sha to'rt qizdan ikkitasi tushgan erkaklardan birortasiyam, onam aytganday, iqbolga oyog'idan botib qolmadi, balki ularning boshiga bandalikning balolari yog'ildi: xotinchalari ularning etagidan mahkam tutib, qayerga bo'lmasin ergashib borishar, o'zlaricha ayollar bazmi uyushtirishar, unda dugonalari raqs tushishar, o'zlari esa, erlarining ko'nglidan kechuvchi har qanday yovvoyi xayollarni, pinhoniy fikrni anglab olish maqsadida hushyor kuzatib o'tirishar edi.

Anxela Vikario to'rt opa-singil ichida eng go'zali edi. Onamning aytishicha, u ham, nomi barcha tarixlarda doston etilgan malikalar misol onasining qornidan baxtli bo'lib tug'ilgan emish. Ammo u zohiran beorom-u besaranjom, botinan g'ariba-yu haqirday ko'rinar, zotan, kelajakda hayotining o'zgarib, yaxshilanib ketishiga asosli bir umid ham yo'q edi. Men har yili rojdestvo hayitiga uyga kelganimda uni bir xil holatda uchratardim: har gal daricha yonida turli quroq qog'ozlardan gul yasayotgan yoki qo'shnilari bilan qariqizlar aytadigan qadimiy qo'shiqlarni xirgoyi qilayotgan bo'lardi va bu hol uni ko'zimga yanada qoqsuyak, notavon qilib ko'rsatardi. «Anavi suyaklari

shaqillab, qo‘riqchiga aylangan nozanin urug‘ing bir tirgovichga judayam zor-da», – degan edi bir kuni menga Santyago Nasar. Bir safar, opasining qazosidan sal avvalroq, men uni ko‘chada ilk bor odmigina ko‘ylak kiygan, sochlari o‘rilgan ahvolda uchratgandim va bu o‘sha notavonmi, deya ko‘zlarimga inonmagan edim. Darhaqiqat, bu qiz favqulodda gul-gul ochilib ko‘chaga chiqqandi, chunonchi, yoshi ulg‘aygan sayin uning odamoviligi va tortinchoqligi ortgan edi. Shuning uchunmi, Bayyardo San Romanning unga uylanmoqchiligini eshitib, ko‘plar ajablandi, bu yot odam bir baloni boshlamoqchi-yov, degan g‘arazli fikrni bildirishdi.

Anxelaning uyidagilari uni Bayyardo San Romanga berishga jon-jon deb rozi bo‘lishdi, faqat Pura Vikario ishni buzib, yigit avval o‘zining kimligini, nasl-nasabini bildirsin, keyin unashtiramiz, deya ikkala oyog‘ini bir etikka tiqib oldi. Haqiqatan ham, shu mahalgacha uning kimligidan, shajarasidan hamma bexabar edi. Yallachiday kiyinib, kemadan tushgan o‘sha oqshomdan keyingi turish-turmushi haloyiqqa ma’lum, lekin ungacha qanday yashagan, kim bo‘lgan – bu barchaga qorong‘i edi, o‘ziyam o‘tmishini yashirardi, shu boisdanmi, bu xususdagi har qanaqa uzunquloq gap haqiqatga aylanishi hech gapmasdi. El ichida og‘zi bilan yuradiganlarning aytishicha, go‘yo u sobiq zobit emish, butun-butun qishloqlarni yakson etishda, Kasanaredagi qirg‘inda qo‘li bor emish; yana u go‘yo Kayenadan, surgundan juftakni rostlagan qochqin emish; ba’zilar esa uning Pernambukoda bir juft ayiqni o‘ynatib yurganini ko‘rishgan ekan; kimlarning-

dir ta’kidlashicha, u – Shamollar kanalidan ispanlarning qachondir dengizga cho‘kkan, oltinlar yuklangan kemasini tortib olgan omadli qaroqchilardan biri emish. Bayyardo San Roman yolg‘on-yashiq gaplarga birvarakayiga barham berdi: shaharchaga oilasidagilarni boshlab keldi.

Ular to‘rt kishi: Bayyardoning otasi, onasi, ikkita ofatijon singlisi «Ford-T» mashinasida antiqa signalini chaldirib, ertalab soat o‘n birlarda shaharga kirib kelishganida, ko‘chalarni qiy-chuv bosib ketdi. Onasi – asli kurasaolik to‘lagina mulat xotin, Alberta Simonds yoshligida Antil orollaridagi ikki yuz go‘zaldan biri hisoblangan, ayni vaqtda u ispanchani «papiamyento»chasiga[1] sheva bilan qalashtirib gapirar edi. Qizlar ayni yetilgan yoshda, xuddi minilmagan biyaday diltortar va yoqimli edi. Ular orasida eng sharafli zot Bayyardoning otasi – general Petronio San Roman edi. U o‘tgan asrdagi fuqarolar urushining qahramoni, konservatorlar hokimiyati davrida dong taratgan, mavqe qozongan harbiylardan bo‘lib, Tukurinko yonidagi jangda nolkovnik Aureliano Buendiani yer bilan yakson qilgan ham xuddi mana shu odam edi. El uni faxr-g‘urur bilan qarshiladi, faqat mening onamgina uning kimligini aniq bilgach, so‘rashishga bormadi. «Unashtirishgani yaxshi bo‘lipti, – dedi u menga sovuqqina qilib. – To‘y o‘z yo‘liga. Ammo Xerineldo Markesni osishga buyruq bergan zobitni ko‘rgani ko‘zim yo‘q». Chol avtomobil oynasidan boshini chiqarib, shlyapasini silkitarkan, necha yillardan beri suratini ko‘raverib, ko‘zi ko‘nikkan

[1] Kurasao orolida yashovchi aholi so‘zlashadigan, portugal, ispan, golland tillarining qorishmasidan iborat sheva.

olomon darhol generalni tanib, gurullab olqishladi. Petronio egniga bug‘doyrang surp kostyum, oyog‘iga echki terisidan tikilgan, iplari chappa-rastasiga bog‘langan poyabzal kiygan, qanshariga zanjiri kamzuliga qadalgan oltin pensne qo‘ndirib olgan edi. Kostyumi yoqasida jasurligi uchun berilgan nishon yaraqlar, olma shoxidan yasalgan, tutqichiga milliy tug‘ro naqshlangan hassani qo‘lida tutgan edi. U mashinadan birinchi bo‘lib tushdi: u boshdan-oyoq shahrimizdagi rasvoyi jahon yo‘llarning chang-g‘uboriga qoplangan edi. Xaloyiq generalning savlatini ko‘rgan zahoti Bayyardo San Roman kimni xohlasa, o‘shanga uylana olishiga shubhalanmay qo‘ydi.

Biroq Anxela Vikario unga turmushga chiqqani unamadi. «Men chumoliday nozik, u esa hirsday bir yigit edi, qanaqasiga rozi bo‘lay», – dedi menga Anxela. Bundan tashqari, Bayyardo San Roman keyinchalik qizning ko‘nglini ovlashga zarrachayam urinmadi, bu uning nafsoniyatiga tegdi, albatta. Binobarin, yigit Vikariolarning barini o‘ziga og‘dirib, qo‘yniga kirib olganiga ishongan bo‘lsa, ajabmas. Anxela Vikario ota-onasi, opalari va pochchalari mehmonxonaga yig‘ilishib, hali tuzukroq ko‘rib-bilishga ulgurmagani bir erkakka tegasan, deya zo‘rlashgan o‘sha iztirobli oqshomni hech unutolmasdi. Egizak akalari bu davrada yo‘q edi. «Bu xotinlarning ishi, biz bunaqa ishlarga aralashmaymiz», – dedi menga Pablo Vikario. Qizning ota-onasi o‘zlarining kambag‘alligi-yu, quda bo‘luvchilarning badavlatliklarini ro‘kach qilib, taqdirning bunday ehsonidan yuz burish yarashmaydi, deya tanbeh berishdi. Anxela Vikario turmush qurish yo‘lida o‘tib bo‘lmas

g‘ov turganligini, ya’ni o‘rtada mehr-muhabbat yo‘qligini aytib, tisarilmoqqa uringanida, onasi shartta so‘zini bo‘lib:

– Ering bo‘lgach, sevishniyam o‘rgatib qo‘yadi-da! – dedi.

Bu quda-andachilik o‘sha paytda bir muncha og‘ir kechadigan, bo‘lg‘uvsi kelin-kuyov nihoyatda g‘araz-u sergaklik bilan kuzatiladigan unashuvlardan farqli o‘laroq, Bayyardo San Romanning qistov-u harakati tufaylimi, atigi to‘rt oyga cho‘zildi. Pura Vikario, oilamizda motamzadalik muddati tugamaguncha to‘y qilmaymiz, degani bilan fursatni yanada qisqartirishning chorasi topilmadi. Ammo vaqt hash-pash deguncha o‘tib ketdi, hech kim ortiqcha aziyat ham chekmadi – hamma ishlarni Bayyardo San Romanning o‘zi osongina bajardi. «Bir oqshom u mendan shahrimizdagi qaysi uy menga ko‘proq yoqishini so‘radi, – dedi menga Anxela Vikario. – Gap nimadaligini anglamay, eng yaxshi uy – hech kimi yo‘q Ksiusniki, deb javob berdim». Agar u mendan so‘raganida, men ham xuddi shunday degan bo‘lardim. Ksiusning xonadoni tepalikning qir uchida, eng bahavo joyda o‘rnashgan, peshayvoni derazalaridan vohadagi binafshalar qiyg‘os gullagan bepayon o‘tlog‘-u chamanzorlar ko‘zga yaqqol tashlanib turardi; havo ochiq kelgan yoz kunlarida esa, ufqqa tutash Karib dengizi sohillarini, sayyohlarni tashiydigan, Kartaxen de las Indiasdan[1] yo‘lga chiqqan bahri muhit kemalarini ko‘rish mumkin edi. O‘sha oqshom Bayyardo San Roman Kiborlar klubiga borib, tomdan

[1] Kolumbiya shimolidagi ulkan bandargoh. Bolinar departamentidagi shahar.

tarasha tushganday, to‘ppa-to‘g‘ri beva Ksiusning ro‘parasiga o‘tirdi-da, u bilan domino o‘ynay boshladi.

– Eshitishimcha, hech kimingiz yo‘q ekan, oqsoqol, – dedi u. – Men uyingizni sotib olmoqchiman.

– Uy sotilmaydi, – javob berdi Ksius.

– Bor ashqol-dashqollaringniyam qo‘shib sotib olaman, – dedi yigit takabburona.

Bechora Ksius dunyo ko‘rgan eskilarga xos nazokat-u odob bilan uyidagi hamma narsani rahmatli xotini ikkovi uzoq yillar davomida yashab-yig‘ib yurishganini, bu ashyolar ham, uy ham bir yodgorlikday o‘ziga qadrdonligini tushuntirdi. «U xuddi dilini kaftiga qo‘yganday ichidagini ochiq-oydin aytdi, – deya esladi o‘sha kuni ular bilan birga domino o‘ynagan doktor Dionisio Iguaran. – Menimcha, uyni sotib, o‘ttiz yillik umrini rohat-farog‘atda kechirgan aziz makondan ayrilishdan ko‘ra, Ksius o‘limni afzal bilardi». Bayyardo San Roman bevaning ahvolini tushundi chog‘i:

– Yaxshi, – dedi. – U holda quruq uyning o‘zini sotasiz!

Yigit Ksiusni o‘yin tugaguncha o‘z go‘shasini sotishga qistadi, beva ko‘nmadi. Uch kundan so‘ng kechqurun Bayyardo San Roman uning ro‘parasida yana paydo bo‘ldi, bu safar o‘z niyatini amalga oshirishga qat’iy bel bog‘lagani shundoq qiyofasidan sezilib turardi. Ular domino o‘ynay boshlashdi.

– Ksius, yolg‘iz yashaysiz axir, – deya maqsadga ko‘chdi u, – shunday xonadonning sizga nima keragi bor? Bas, narxini ayting.

– Uyning bahosi yo‘q.

– Og‘zingizga siqqanini so‘rang.

– Afsus, afsus, – dedi Ksius. – Bayyardo, siz yoshlar ko‘ngil ishini unchalik tushunavermaysizlar-da.

Bayyardo cholning gapiga e’tibor bermadi, o‘ylamay-netmay:

– Xo‘p, mayli, besh ming peso beraman, yetadimi? – dedi.

– Insofingni yutma, yigit, – dedi uning isrofgarchilik qilayotganidan xafa bo‘lgan Ksius. – Uy buncha pulga arzimaydi.

– O‘n ming beray, xo‘p deng, – xitob qildi Bayyardo San Roman. – Hozirning o‘zidayoq qurtday sanab olasiz, mana, banknotim yonimda.

Bevaning ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi. «U g‘azab-u alamdan yig‘lardi, – dedi menga doktor Dionisio Iguaran. U nafaqat doktor, balki yozuvchi ham edi. – Axir, o‘zing o‘ylab ko‘r, qarshingda, qo‘lingni shundoqqina cho‘zsang yetadigan ming-minglab pul yotsa-yu, ko‘ngilning gapiga kirib, kerak emas, deyish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi». Ksiusning dami ichiga tushib ketdi, so‘ng alam-u iztirob ichra boshini saraklatib, bo‘lmaydi, dedi.

– Shundaymi? Ha, mayli, – dedi Bayyardo San Roman. – Endi mendan oxirgi muruvvatingizni ayamay, besh daqiqa shu yerda kutib o‘tiring.

Chindan ham besh daqiqa o‘tar-o‘tmas, u kumush uqali charm xaltasini ko‘tarib, kiborlar majlisgohiga qaytib keldi, xaltadan o‘n bog‘lam pul oldi-da, stolga qo‘ydi: har bir bog‘lami ming pesodan bo‘lgan pullarga Davlat bankining muhri bosilgan, qog‘ozi shildiroq belbog‘chalar bilan o‘ralgan edi. Ana shu voqeadan so‘ng ikki oy

o‘tib, bechora Ksius qazo qildi. «Uyi uning boshini yedi, – dedi menga doktor Dionisio Iguaran. Ksius oramizdagi eng sog‘lom odam edi, ammo men uning ko‘ksiga quloq tutib, ko‘z yoshlari yuragiga quyilayotganini, paymonasi alam-u iztirob yig‘isiga to‘lganini sezdim». Ksius o‘tgan-ketganni odamlar esga solmasin deb, uyini bor-budi bilan sotdi, pullarni asrash uchun birorta sandiqcha ham olib qolmadi. Bayyardo San Romandan pullarni asta-sekin to‘lab borishni o‘tindi, xolos.

Anxela Vikarioning bokiramasligini birorta inson gapirish tugul xayoligayam keltirmagandi. Uning biror yigitni saylab, pinhona so‘zlashib yurganini ham hech kimsa ko‘rmagan, zotan, u onasining chizgan chizig‘idan chiqmay o‘sgan – buni hamma bilardi. To‘ydan ikki oy oldin, kelin-kuyov bo‘lajak istiqomatgohlarini ko‘rishga ketayotganlarida, Pura Vikario qizini Bayyardo San Romanga qo‘shib yolg‘iz yuborishdan qo‘rqib, to‘g‘rirog‘i, Anxelaning ismatini saqlash niyatida, so‘qir eri bilan ularni kuzatib borgan edi. «Men Tangriga yo jonimni ol, yo o‘zimni o‘ldirishga yetadigan iroda ato et, deb rosa yolvordim, – dedi menga Anxela Vikario. – Ammo u so‘zimga quloq solmadi». Anxela rostdanam rosa qiynalgan, ich-etini yeyayotgan dardni onasiga ochib, nopoklik iztirobidan qutulishni istagan, biroq bu xususda anavi – daricha yonida qog‘ozgul yasab o‘tiradigan sirdosh dugonalariga aytganda, o‘sha shaytonning urg‘ochilari bechora sitamkashni to‘g‘ri yo‘ldan qaytarishgan. «Men ularning ra’yiga qarshi borolmadim, – dedi Anxela Vikario menga. – Ikkoviyam bidirlab-bidirlab es-hushimni oldi, bunday holda erkak zotini aldab ishontirish

usullarini o‘z tajribalaridan gapirib, axiri so‘zlariga kiritdilar. Ular Anxelani avrab, qizlarning barchasi bolaligidayoq tasodifan, o‘ziyam sezmagan holda ismatidan ayrilib qoladi, deya ishontirishdi, boz ustiga har qanaqa o‘jar erkak ham, agar kelinning juvon chiqqanini boshqa biror kimsa bilmasa, nochorlikdan murosaga keladi, yopig‘liq qozon yopig‘ligicha qolaveradi, deyishdi. Nihoyat, ko‘pchilik yigitlar birinchi kecha hayajondan o‘zini yo‘qotib qo‘yadi va kelin bilan qo‘shilgach, nima ish qilib qo‘yganini bilmaydi, oqibatni idrok etadigan ahvolda ham bo‘lmaydi, deb sodda Anxelaning aqlini o‘g‘irlashdi. «Choyshabda dog‘ bormi, bas, ularga shuning o‘zi kifoya», – deya miyasiga quyishdi. Xullas, ikki ayyor dugonasi dunyodagi ma’lum barcha makr-u g‘arazdan Anxelani voqif etishdi, oxir-oqibat kelin ilk kechani risoladagiday o‘tkazadigan, boshida o‘zini qizday tutadigan, nahorda turib, bokiralik ramzi – dog‘li choyshabni oftobga yoyadigan bo‘ldi.

Ana shunday umid-u g‘arazli xayol bilan u turmushga chiqdi. Bayyardo San Roman esa, baxtimni topdim, men uni o‘z boyligim va mavqeyim ta’sirida qo‘lga kiritdim; bir dang‘illama to‘y qilayki, butun elning og‘zi lang ochilib qolsin, deya o‘ylar, miyasida to‘yni as’asa-yu dabdaba bilan o‘tkazish xususidagi tentakona xayollar g‘ujg‘on o‘ynar edi. Yepiskop keladigan kunni eshitgach, to‘yni o‘sha ulug‘ ayyomga qoldirib, hazratning o‘ziga nikoh o‘qittirmoqchi bo‘ldi, lekin Anxela Vikario bunga ko‘nmadi. Aixela Vikario buning asl sababini menga ayon etib: «Rostini aytganda, faqat xo‘rozning tojidan sho‘rva qaynatib ichadigan, so‘ngra parrandaning qolgan qismini butu-

nicha kir o‘raga tashlab yuboradigan kimsaning fatvosini olishdan irim qildim», – dedi. Yepiskopning oq fotihasisiz ham to‘y biram shohona tus olib ketdiki, oxir-oqibat bazm-u tantana to‘s-to‘polonga aylandi, Bayyardo San Roman ham es-hushini yo‘qotib qo‘ydi, xullas, butun shahar ahli oyoqqa turgan qiyomat bir ayyom bo‘ldi.

Bu safar general Petronio San Roman uy ichi bilan birga Milliy majlis vakillariga qarashli bayram kemasida keldi; to‘y tugagunicha kemani langargohga zanjirlab qo‘yishdi. Generalni kuzatib, allaqancha ma’mur-u mansabdorlar ham tashrif buyurishgan edi, ular azbaroyi ko‘pligidan, olomon orasiga qo‘shilib, bilinmay ketdi. To‘yonalar ham behad-behisob edi, shahardagi tashlandiq elektrostansiya binosini supurib-sidirib, sovg‘a-salomlarning eng ko‘rimlilarini o‘sha joyga qo‘yishdi, qolganlarini Ksiusning sobiq go‘shasiga jo‘natishdi, u yerda kelin-kuyovni kutib olish uchun taraddud avjida edi. Kuyovga tepasi ochiladigan avtomobil to‘yona qilishdi, mashinaning biqiniga bo‘rtma harflar bilan Bayyardo San Roman nomi yozilgan edi. Kelinga mehmondorchilikda yigirma to‘rt kishiga yetadigan oltin qoshig‘-u sanchqi sovg‘a etildi. Bazmga bir guruh raqqoslar va ikki guruh mashshoqlar chaqirilgandi. Mashshoqlar mahalliy havaskorlar bilan soz chalib, talashib-tortishib, raqs tushishib, rosa bazmni qizdirishdi, bu orada serhasham to‘yning darang-durungini olisdan eshitgan daydi garmonchi-yu nog‘orachilar ham yetib kelishib, shovqin-suronni yana bir parda ko‘tarishdi.

Vikariolar uyi behasham, oddiygina edi: devori g‘ishtdan urilgan, tomi xurmo shoxlari bilan yopilgan, tomida ikkita tuynuk bo‘lib, yanvarda

uchib kelgan qaldirg‘ochlar in solardi. Oynaband ayvondagi gultuvaklarga qo‘yilgan gullar to‘rt fasl mobaynida barq urib, yashnab turar, nariroqda choqqina ichkari hovlidagi mevali daraxtlar tagida esa tovuqlar qaqaqlab, nasibasini terib yurar edi. Tashqari hovlida aka-uka egizaklar molxona qurgan, uning yonida qurbonlik bo‘g‘izlanadigan «muqaddas joy», go‘sht chopiladigan kundalar ko‘zga tashlanadi – Ponsio Vikarioning ko‘zi ojizlanib, dunyo mehnatidan qutulgach, qora qozonni qaynatadigan, oilaga daromad beradigan asosiy manba shu yer bo‘lib qolgan. Butun ishni Pedro Vikario o‘z qo‘liga olgandi, u harbiy xizmatga ketgach, sallohlik va qassoblik anjomlari Pabloga qoldi.

Uylar tang-u tor, yotib-turishgagina yarardi, kelinning opalari to‘yning bunchalik kattalashib ketganidan o‘zlarini yo‘qotib, qo‘shnilarning uyini so‘ramoqchi ham bo‘lishdi. «Opalarimning farosatsizligini qara-ya, – dedi menga Anxela Vikario ularni yozg‘irib, – la’nati Plasido Lineroning uyini so‘raymiz, deb turishgandi, otam bu gapdan xabar topib, qizlarimning to‘yi mana shu katalakda o‘tadi, xohlashmasa, katta ko‘cha, menga desa, bir umr ersiz o‘tirishsin, deb so‘kib berdi». Uy eski bo‘yog‘i ustidan yana sariqqa bo‘yalgan, devoridagi yoriqlar suvab-tekislangan, xonalarning poli tuzatilib, yangitdan bo‘yalgan, xullas, xonadon dabdabali to‘y-tomoshaga mos bir holatga keltirilgan edi. Egizaklar tashqari hovlidan hayvonlarni boshqa joyga ko‘chirishdi, molxonani ohaklab, supurib-sidirishdi, shunda ham bari bir joy tor edi. Oxiri Bayyardo San Romanning maslahatiga amal qilishib, atrofdagi taxta de-

vorlarni o‘rnidan ko‘chirib, hovli sahnini kengaytirishdi; qo‘shnilar bilan ham kelishildi: o‘yin ularning tashqi hovlisida o‘tadigan bo‘ldi, doimo yamyashil ochilib turadigan tamarhindiy daraxtlari ostiga uzun yig‘ma xontaxtalar va kursilar o‘rnatildi.

To‘ydan oldin kuyov kichkinagina bir tomosha ko‘rsatdi – to‘y kuni ertalab kelishilgan vaqtdan rosa ikki soat kech keldi, shunda Anxela Vikario, nikoh liboslarini kiymayman, deb rosa xarxasha qildi. Ko‘ngillarni hayajon va hadik buluti qopladi. «Kelmasa kelmay o‘lsin, ochiq mozorga borsin edi! – dedi menga Anxela Vikario o‘sha kunni eslab. – Ko‘zimga mutlaqo ko‘rinmay, izi qirilib ketsayam xursand bo‘lardim, ammo kelinlik ro‘moli boshimda, kuyovsiz yolg‘iz o‘tirishga chidayolmasdim, alam o‘tgandi». Uning ranj-u xavotiri o‘rinli edi; axir ayol zoti uchun kelinlik kiyimiga yetishgan kuni kuyovi tashlab ketib, ikki qo‘lini burniga tiqib, chapagini chalib qolaverishdan beshbattar sharmandalik yo‘q-da. O‘shanda Anxela Vikarioning iffatsizligi, taqdir qahridan qo‘rqmay boshiga gulchambar kiyib, oq ro‘mol o‘raganidan odamlar g‘azablanishdi, bu qizlik sha’nini, poklikni oyoq osti qilishdir, deyishdi. Faqat mening onamgina Anxela Vikarioning o‘z niyatini amalga oshirishda qat’iy, sobit turganini to‘g‘ri izohlab: «O‘sha paytda uning shunday yo‘l tutishi Xudogayam xush kelgan», – dedi. Biroq Bayyardo San Romanning asl maqsadi ham, qismati ham hech kimga ma’lum emasdi. U frak va silindr kiyib, tunda paydo bo‘lgan ondan boshlab, bazm-u o‘yinning oxirigacha ommaga saodatmand kuyov qiyofasida ko‘rinib, o‘ynab-kulib yurgan.

Santyago Nasarning hayotiga bularning nechog‘lik aloqadorligi-yu, uning umr shomi bu mash’um to‘y oqshomi bilan naqadar bog‘liqligi ham barchaga qorong‘i edi. Men, Santyago Nasar, Kristo Bedoyya va ukam Luis Enrike to‘rtovlon cherkovda, to‘y-u tomoshada birga bo‘lardik, o‘sha kuniyam ajralmagandik, ammo, voajab, Santyago Nasarning yuz-ko‘zida biror o‘zgarish yo hadik alomatini sezmadik. Bolalikdan birga o‘sdik, maktabda o‘qidik, ta’tillarni ham to‘rtovlon birga o‘tkazganimiz tufayli oramizdan qil o‘tmas edi, ammo yigitchilikda bo‘ladigan ishlar: kim-kim bilan qanday aloqa o‘rnatgani-yu, ishrat qilganini bilganimiz holda Santyago Nasarning ana shu siridan bexabarligimiz barchani birday taajjubga solardi. Shu haqda, mendan so‘raganlarga o‘zimcha javob ham berdim.

Santyago Nasar bayramni, to‘y-tomoshani jonidan ortiq ko‘rardi, o‘sha kuniyam to‘yga ketgan sarf-xarajatni hisoblarkan, o‘limi oldidan bemisl bir lazzatni tuygan edi. Uning hisobiga ko‘ra, cherkovni bezatish uchun sotib olingan gullarning puliga o‘n to‘rtta dafn marosimini oliy darajada o‘tkazsa bo‘larkan. Uning bu gapini uzoq yillar yodimdan chiqarmadim. Santyago Nasar, xonadagi gul isi menga o‘limni eslatadi, deb ko‘p marta ta’kidlagandi, bu gal ham, cherkovga kiraverishda, ayni shu sovuq so‘zni tilga oldi. «Men o‘lsam, tobutimga gul qo‘ymanglar», – degandi so‘ngra; albatta, o‘shanda ertasiga uning bu vasiyatini bajarish uchun nechog‘lik yelib-yugurishim lozimligini o‘ylab ham ko‘rmagan. Cherkovdan Vikariolar uyiga qaytishda u ko‘chalarni yasatishga ketgan gulchambar-u

qog‘ozgullar narxini, mashshoqlar-u raqqoslarga, portlagich-u mushaklarga, hattoki ko‘cha-ko‘yda to‘yga kelganlar boshidan siqimlab sochilgan guruchga sarf etilgan pulni ham tiyinma-tiyin hisoblab, jamlab bordi. Choshgohda, havo ayni dim bo‘lgan bir pallada, rusumga ko‘ra, kelin-kuyov yetaklashib, hovlini aylanib chiqishdi, u-budan totinishdi. Bayyardo San Roman allaqachon bizga elakishib ketgan, hamshishamizga aylangan, ayni vaqtda yonimizga kelib o‘tirib, o‘zini juda xushkayf, xushsuhbat tutar edi. Anxela Vikario gulchambari bilan oq ro‘molini yechib qo‘ygan, terlaganidan atlas ko‘ylagi badaniga yopishib turar, o‘zi ham birdan juvon qiyofasiga kirib qolganday ko‘rinardi. Santyago Nasar hamon hisob-kitob bilan mashg‘ul bo‘lganidan Bayyardo San Romanga qarab, hozirgacha to‘yga to‘qqiz ming pesoga yaqin pul sarflanganini bildirdi. Anxela Vikarioga bu betamizlik bo‘lib tuyildi. «Onam menga, begonalar oldida pul va sarf-xarajag xususida gapirish aybdir, deb tarbiya bergan», – dedi u keyinchalik menga o‘sha holatni izohlarkan. Alalhol Bayyardo San Roman Santyago Nasarning bu gapini eshitib, ma’qulladi va hatto bundan mag‘rurlandi.

– Endi to‘qqiz ming ketibdimi? – dedi u beparvo. – To‘y endi boshlanyapti. Bazm o‘tgach, bu hisob ikki baravar ortadi.

Shunda Santyago Nasar, sarfni to‘y oxirigacha, eng so‘nggi sentavosigacha hisoblayman, keyin tekshirib ko‘ringlar, dedi va bevafo umrining so‘nggi muddatidagi vafosi bois bu va’dasini bajardi. Ertasiga, falokatdan rosa qirq besh daqiqa avval, biz yana bandargohda uchrashganimizda,

Kristo Bedoyya unga hisob-kitobda yetmay turgan so‘nggi raqamlarni aytganda, u Bayyardo San Romanning taxmini to‘g‘ri ekaniga amin bo‘ldi.

Bu to‘y to‘g‘risida ilgarilari elas-elas eslardim, keyinchalik, odamlar xotirasidagi shu tarixga oid asl tafsilotlarni singan ko‘zgu parchalaridek bir-bir terib-yig‘ib, tasavvurimda tiklagach, ko‘p narsalar ravshanlashdi. Otamning ana shu to‘yda g‘ijjak chalganini, rohiba singlimning zohidalar kiyimida merengega[1] raqs tushganini, onamning o‘gay akasi, doktor Dionisio Iguaranning yepiskopni yoqtirmasligi bois o‘sha kuni poshsholik kemasida safarga jo‘nab ketganini – barchasini bizning uydagilar uzoq yillar mobaynida xotirlab gapirib yurishdi. Men bu asarni yozishdan oldin o‘sha voqeaning shohidlarini topib, so‘rab-surishtirib, suiqasd va qotillikka rasman oid-u nooid juda ko‘p tafsilotlarni to‘pladim; masalan, Bayyardo San Romanning ofatijon singillari barchaning yodida qolgan ekan: o‘shanda barqut ko‘ylaklarining yoqasiga tilla kapalak shaklidagi to‘g‘nog‘ichni qanotidan qadab olgan ikkovini ko‘rgan bani odam aqlidan ayrilib termilardi; binobarin, generalning boshidagi qo‘sh qarqarasi va ko‘ksidagi yaltillagan nishonlaridan ko‘ra hamma uning malohatli qizlariga ko‘proq qarardi. To‘y, o‘yin-kulgi rosa avjiga minganda, o‘ylab-netib o‘tirmay, endigina boshlang‘ich maktabni tugatgan Mersedesga, menga tekkin, degandim – shuniyam odamlar esimga solishdi; o‘n to‘rt yil o‘tgach, unga uylanganimda, ayni shu so‘zlarni Mersedesning o‘ziyam bir necha bor gapirgan. O‘sha mash’um-u balokash yak-

[1] Merenge – kolumbiyaliklarning xalq raqsi.

shanbada, hovlining o‘rtasida, kursida o‘tirgan bechora chol Ponsio Vikarioning qiyofasi bir umr yodimdan chiqmas. Aftidan, shu yer eng obro‘li joy, deb o‘ylab, yaqinlari uni hovlining o‘rtasiga o‘tirg‘izib qo‘yishgandi, ammo o‘tgan-ketgan mehmonlar unga urilib, qoqilishar, tanimaganlar qandaydir kimsasiz, badbaxt ko‘r, deb o‘ylashar, qarindosh-urug‘lari esa, chol odamlarga xalaqit bermayaptimikan, deya xavotirlanishar edi. Mo‘ysafid oppoq sochli boshini salomlashganday saraklatib qo‘yar, yaqindagina ko‘zi ojiz tortgan bechora so‘qir bandaning yuzida besaranjomlik, hayajon qotib qolgan edi; u goho savollarga javob qaytarsa, goho birovlarga berilgan salomga alik olar, bundan o‘zida yo‘q xursand edi; uning ohorlangan ko‘ylagi qalin qog‘ozdan tikilganday do‘ppayib turar, qo‘lida to‘yona qilingan, og‘ochdan yasalgan hassani o‘ynatib turar edi.

Kechki soat oltida oliynasab, faxrli mehmonlar xayr-xo‘shlashib jo‘nashdi, to‘yning tantanali qismi shu bilan poyoniga yetdi. Kema qo‘zg‘alib, anvoyi rang shu’lalar taratib bandargohdan uzoqlasharkan, pianolada chalingan musiqa sadolari ham go‘yo uning ortidan suzib bordi; biz xuddi jar yoqasida osilib qolganday hushimizdan ayrilib, bir fursat qotib qoldik-da, so‘ng bir-birimizga qarab, o‘zimizga kelib, yana o‘yin-kulgi, bazmu maishat girdobiga sho‘ng‘idik. Bir oz fursatdan keyin olomon o‘rtasidan arang yo‘l topib, usti ochiq avtomobilda kelin-kuyov kirib kelishdi. Bayyardo San Roman portlagich mushaklarni otdi, kimlardir shakarqamish mayidan uzatgan edi, u mayni shisha-pishasi bilan ko‘tarib, og‘ziga quyib, qultillatib ichdi-da, so‘ng Anxela

Vikarioni qo‘ltiqlab mashinadan tushdi va kumbiya[1]ga raqs tushayotganlar davrasiga qo‘shilib, to holdan toyguncha o‘ynadi. Oxiri u odamlarga: puli to‘langan, mashshoqlar hech yoqqa jilmaydi, yiqilib qolguncha o‘ynab-kulinglar, deb buyurdi-da, o‘larday qo‘rqib, joni halqumiga kelgan xotinini yetaklab, qachonlardir beva Ksius baxt-iqbol nashidasini surgan, keyinchalik mahbubasiga matlub bo‘lgan uyga kirib ketdi.

Yarim kechada olomon tarqaldi, maydonda yana Klotilde Armentaning sut do‘konigina so‘ppayib qoldi. Santyago Nasar, men, ukam Luis Enrike va Kristo Bedoyya birgalashib, Maryam Alexandrina Servantes xonimning lazzatijon uyiga jo‘nadik. U yerda o‘tirganlar ichida egizak Vikariolar ham bor edi, ular bizga qo‘shilishib may ichishdi, Santyago Nasar bilan – uni o‘ldirishlaridan besh soat avval rosa qo‘shiq aytishdi. To‘ydan qaytayotgan kishilarning mast-alastlarcha baqiriq-chaqiriqlari, so‘kinishlari qayoqlardandir hamon eshitilib turardi. Ularning tovushi qandaydir mahzun, alamli tuyilardi; nihoyat, yepiskop tushgan kema kelmasidan sal burun, bu ovozlar tindi.

Pura Vikarioning onamga aytishicha, u kechki soat o‘n birlarda, to‘yning to‘s-to‘poloni tinchigach, qizlari bilan uyni sal-pal tartibga keltirib, uxlagani yotgan. Undan oldinroq, soat o‘nlarda, katta ayvonda hamon bir guruh mayparastlar aysh surib o‘tirishgan. Anxela Vikario yotog‘ida turgan, ayrim narsalari solingan sakvoyajiga kishi yo‘llagan: onasi unga ba’zi kiyimlari, choyshablar taxlangan jomadonni ham berib yubormoqchi

[1] Kumbiya – kolumbiyaliklarning xalq o‘yini.

bo‘lgan-u, biroq kishi azbaroyi oshiqayotganidan jomadonni olmagan.

Eshik taqillaganda, Pura Vikario dong qotib uxlab yotgandi. «Eshik sekin-sekin uch marta taqilladi, – degan u onamga. – Eshitdim-u ko‘nglim bir falokat yuz berganini sezdi». U chiroqni yoqmasdan va hech kimni uyg‘otmasdan, ohista eshikni ochgan, ko‘chadagi chiroq yorug‘ida Bayyardo San Romanni ko‘rgan: uning tugmalari qadalmagan oq qo‘ylagi ustidan rangin shimiga yelkalari osha taqilgan shim-tasmasi osilib turardi. Pura Vikario onamga: «U bamisoli aloq-chaloq tushda ko‘rinadigan ajinaday yam-yashil edi», – degan. Anxela Vikario qorong‘ida berkinib turgan, so‘ng Bayyardo San Roman uning qo‘lidan tutib yoruqqa sudrab chiqqan. Badanining u yerbu yeridan atlas ko‘ylagining yirtiqlarigina osilib qolgan Anxela dumbasiga sochiq o‘rab olgan edi. Pura Vikarioning ko‘ziga ular, go‘yo jarga avtomobildan uchib tushib o‘lganlar-u, ayni asnoda ruhlari bu yerga kelganday tuyildi.

– Yo, piray, ey qodir egam! – deya xitob qilgan u qo‘rquvdan dag‘-dag‘ titrab. – Agar tirik bo‘lsalaring, javob beringlar: nima gap o‘zi?

Bayyardo San Roman ostonani hatlamagan, bir so‘zam demasdan bir kechalik xotinini ohista itarib, eshikdan ichkari kiritgan. So‘ngra Pura Vikarioning yuzidan o‘pib, chuqur alam va kiborlarcha nazokat bilan:

– Onajon, rahmat sizga. Siz judayam oliyjanob ayolsiz, – degan.

Keyingi o‘tgan ikki soat mobaynida neki ro‘y bergan – bari faqat Pura Vikariogagina ayon edi, afsuski, u bilganlarini o‘zi bilan birga go‘riga olib

ketdi. «Birgina narsa esimda qolgan, – deya iqror bo‘ldi menga Anxela Vikario, – onam bir qo‘li bilan sochimdan o‘rab, bir qo‘li bilan jazavasi tutganicha shunday savaladiki, bu urishida o‘ldirib qo‘yadi, deb rosa qo‘rqdim. Ammo volidayi notavon sharmanda qizini shunchalar ehtiyotkorona kaltaklaganki, narigi xonada uxlayotgan eri va katta qizlari biror tovush-sharpani sezishmagan; qon to‘kilib, falokat qo‘pgunicha ko‘z ochishmagan.

Aka-uka qassoblar tungi uchlarda uyga qaytishgan – shu zahoti ikkovini onasi chaqirgan. Ular Anxela Vikarioni oshxonadagi divanda yuztuban yotgan, beti ko‘karib, qontalashgan, yig‘idan tiyilgan bir ahvolda ko‘rishgan. «Harqalay, o‘shanda qo‘rquvni unutib, o‘zimni tutib olgandim, – dedi menga Anxela Vikario. – Anchadan beri yuragimni tuzday achishtirayotgan vasvasadan, talvasali tushdan forig‘ bo‘lib, dilim taskin topgandi. Endi faqat bir narsani gap-so‘z tugashini, tinchgina o‘ringa cho‘zilib uxlashni istardim». Pedro Vikario sal jangariroq edi, u Anxelaning belidan dast ko‘tarib, stol ustiga o‘tqazib qo‘ydi-da:

– Qani, ichingdagini yashirmay ayt, – dedi g‘azabdan titrab-qaqshab. – Kim buzgan seni?

U bir ismni aytish uchun qancha fursat zarur bo‘lsa, shuncha vaqt indamay, tili kalimaga kelmay turdi. U qorong‘ilikka tikilganicha go‘yo o‘sha nomni axtarardi, nihoyat har ikki dunyoga mansub insonlar ismi orasidan izlaganini topdi va xuddi begunoh kapalakni tutib olib, qanotidan devorga nechog‘lik vahshiyat-la mixlab qo‘yilsa, shundayin shafqatsizlik bilan:

– Santyago Nasar! – dediki, shu asnoda azaldan ma’lum hukm o‘qildi va ajal elchilari yo‘lga tushdi.

Oqlovchi, qotillik inson sha'nini himoya qilish zaruriyati tufayli ro'y bergan, buni sud hay'ati inobatga oladi, dedi. Javobgar aka-ukalar so'nggi so'zlarida agarda nomuslari toptalib, yana ming bor shunday vaziyat tug'ilsa, yana ming bor shu ishlarini takrorlashlarini aytishdi. Ular jinoyat qilib qo'ygach, bir necha muddat sarosimalanib turishgan-da, keyin cherkovga borib, qo'limizni qonga botirdik, deya tan olishgan – xuddi ana shu paytda, biz uni nomusimizni bulg'agani uchun o'ldirdik, deb o'zlarini oqlashlari mumkinligini o'ylashgan va shu bahonaga mahkam yopishib olishgan. O'shanda Santyago Nasarning so'yilganini eshitgan arablar ham qonsirashib, darhol sallohlar izidan tushishgan. Aka-ukalar ta'qibdan qochib, halloslaganlaricha to'ppa-to'g'ri dorilqavmga kirishgan va padar Amadorning oldiga qoni artilgan pichoqlarini qo'yishgan. Eng og'ir mehnatlardan biri – o'ldirish mehnatidan ikkovining ham sillasi qurib, adoyi tamom bo'lgan kiyimlari, qo'llari ter hamda hali qotib ulgurmagan inson qoni bilan qoplangan edi. Kashish qotillarning o'z oyoqlari bilan dorilqavmga kirib kelganlarini ma'qullab, imonlarining salomatligidan minnatdorligini bildirdi.

– Biz uni qasddan o'ldirdik, – dedi Pedro Vikario, – biroq aybimiz yo'q.

– Yo, Parvardigorim, balki Tangri oldida begunohdirsiz, bo'talarim, – dedi padar Amador.

– Xudoning ham, bandaning ham oldida begunohmiz, – qat'iy dedi Pablo Vikario. – Nomusimiz pok bo'lsin, deb shu halol ishni qildik.

Aka-ukalar keyinroq, jinoyatni aniqlash asnosida bundanam besh-battarroq bezbetlik qilish-

di, zarracha aybimiz yo‘q, oppoqmiz, deb turib olishdi, natijada Plasida Lineroning ko‘cha eshigi poshsholik hisobiga tuzatib berildi – sallohlar Santyagoni o‘ldirishdan sal avval eshikka pichoq ura-ura payrahasini chiqarib, buzib tashlashgan edi. Ular Rioachadagi qamoqxonada uch yillik muvaqqat qamoq muddatini o‘tashdi, pullari yo‘qligidan ozodlikda yurish uchun zarur to‘lovni to‘lay olishmadi; hibsdagilar ham ikkala birodarni ochiqligi va samimiyligi bois yoqtirib qolishdi, biroq hech kim ularning pushaymon chekkani yo tavba qilganini sezmadi. Darhaqiqat, dastlab ularning ko‘nglida Santyago Nasarni darhol, isini chiqarmay o‘ldirish niyati bo‘lmagan, aksincha, kimningdir xalaqit berishini istashgan, buning uchun qo‘llaridan kelgan barcha harakatni qilishgan, ammo baxtga qarshi biror kimsa lom-mim demagach, noiloj, beixtiyor odamkushlikka qo‘l urishgan – bu fikrni ko‘pchilik to‘g‘ri, deb tasdiqladi.

Oradan yillar o‘tgandan keyin menga odamlarning aytishicha, aka-ukalar uni izlab, avvalo, Maryam Alexandrina Servantesnikiga borishgan, chunki ikki soat burun shu yerda u bilan birga may ichishgandi. Bu dalil boshqa dalolatlar kabi sud hujjatlariga kiritilmagan. Vikariolarning ta’kidlashicha, ular Santyago Nasarni mayxonadan topisholmagan, rostdan ham biz u paytda ishratxonadan chiqib, ko‘chada qo‘shiq aytib yurgandik, lekin sallohlarning chindanam uni qidirib, mayxonaga borishgani dargumon. «Agar ular menga yo‘liqqanlaridamidi, bu yerdan chiqarib bo‘pman edi», – dedi menga Maryam Alexandrina Servantes. Xotin to‘g‘ri gapni aytdi, zotan ikkala yigit uning lazzatxonasiga qadam

qo‘ygach, hirslariga qul bo‘lib, u yerdan oyoq uzib ketolmay qolishardi. Ajablanarlisi shundaki, Vikariolar Santyago Nasarning o‘lsayam u joyga kelmasligini bila turib, Klotilde Armentaning sut do‘koniga borishgan. «Birdan bir ochiq do‘kon shu edi-da», – degan ular tergovchiga. Menga esa, qamoqxonadan chiqishgach: «Ertami-kechmi baribir shu yerdan o‘tardi», – deyishdi. Plasida Lineroning ko‘cha eshigi doimo, hattoki kunduziyam ichkaridan berk bo‘lishini, Santyago Nasar cho‘ntagiga orqa eshik kalitini solib yurishini hamma bilardi. Agarda u o‘shanda uyiga qaytganidayam, shubhasiz, orqa eshikdan kirardi – qasoskorlar uni butunlay teskari tomonda bir soatcha kutishgan, u yepiskopga peshvoz chiqish maqsadida maydon tarafga to‘ppa-to‘g‘ri ko‘cha eshik orqali o‘tgan, nima uchun bunday qilganiga tergovchining ham aqli yetmadi.

Butun xaloyiqqa oldindan ma’lum etilib, so‘ngra amalga oshirilgan bunday oshkora qotillikni ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan. Singillari zinokorning otini aytgach, birodarlar mol bo‘g‘izlanadigan bostirma sari yo‘l olishgan, qassoblik asboblari ichidan eng yaxshi ikkita pichoqni tanlashgan. Birining uzunligi o‘n, eni ikki yarim pultada[1] bo‘lib, unda, go‘sht nimtalashardi, ikkinchisining uzunligi yetti-yu eni bir yarim pultada edi, u bilan hayvon terisi shilinardi. Pichoqlarni lattaga o‘rab, charxlatgani bozorga, qassoblar rastasiga yetib borishganda, do‘konlar endigina ochila boshlangan ekan. Tong saharlab, hakkaning tumshug‘i quruqligida bozorga kelganlar unchalik ko‘p emasdi, ammo yigirma ikki kishi

[1] Pultada – qadimiy ispan o‘lchov birligi, 23 mm.ga teng.

Vikariolarning nima deyishganini eshitgan: yigirma ikki insonning shahodat berishicha, sallohlar yovuz niyatlarini ataylab oshkora aytaverishgan. Qassob Faustino Santos, Vikariolarning og‘aynisi, endigina ichak-chavoq solingan qutini do‘konga qo‘yib turganida, ular kirib kelishgan, shunda soat uchdan yigirma daqiqa o‘tgandi; qassob ikkala sallohning nega bunchalik bemahalda, yana dushanbada, to‘yda kiyib yurgan qora movut kostyumlarini ham yechmay yo‘qlab kelishganiga hayron bo‘lgan. Faustino og‘aynilarini odatda har jumada, bu paytdan sal kechroq, qo‘y bo‘g‘izlaganda tutiladigan teri peshband taqqan holatda ko‘rishga o‘rganib qolgandi. «Rosa ichishibdi-da, deb o‘yladim, – dedi menga Faustino Santos, – shuning uchun ham soat tugul kunning hisobiniyam yo‘qotib qo‘yishgan-da». Qassob ularga bugun dushanbaligini aytgan.

– Obbo tentag-ey, kim senga dushanba emas deyapti, – degan Pablo Vikario. – Biz pichoqni o‘tkirlatgani keldik.

Charxni aylantirib, pichoqlarni o‘tkirlay boshlashgan, odatdagiday Pedro pichoq tig‘ini charxtoshga galma-gal tutib turgan, Pablo dastakni aylantirgan. Ish davomida qassoblarga to‘yning nechog‘lik dang‘illama bo‘lganini og‘iz ko‘pirtirib maqtashgan, ba’zi qassoblar esa ularning hamkasbi bo‘lib turib, to‘y tortidan o‘zlariga tegmaganini aytib gina qilishgan; birodarlar yupatishib, sizga atalgani tokchada turibdi, deyishgan. Nihoyat, charxlana-charxlana pichoq sayrab yuborgach, Pablo tig‘i yaltillasin, deb uni chiroqqa tutgan. So‘ng:

– Hozir mana shu pichoq bilan Santyago Nasarni so‘ygani boramiz, – deyishgan.

Odamlar ikkoviniyam batartib, mo‘min-qobil yigitligini yaxshi bilishardi, shuning uchun bu gapga hech kim e’tibor bermagan. «Hamma ularning bu gapiga mast odamning aljirashi-da, deb qaragandi», – deyishdi menga ba’zi qassoblar; Viktoriya Gusman ham, aka-ukalarni keyinchalik ko‘rgan kishilar ham, asosan, shunday fikrda edi. Bir safar men qassoblarga, shu kasb-kordagi odamlar qonida tug‘ma qattollik mayli bo‘lsa kerak, degandim, boshim baloga qoldi. Ular bu mulohazamni rad etib: «Hayvonni so‘yayotganda, ko‘ziga qaray olmaysan kishi», – deyishdi. Ulardan biri esa o‘zim so‘ygan birorta jonliq go‘shtini yeyolmayman, dedi. Boshqa bittasi avval bir bor ko‘rgan yoki, ayniqsa, sutini ichgan sigirni so‘yolmasligini aytdi. Shunda men aka-uka Vikariolarning o‘zlari boqqan, o‘rganib qolgan, hattoki erkalab nom qo‘yib yurganlari necha-necha mollarni kiprik qoqmay bo‘g‘izlashlarini qassoblarga aytgandim: «Bu gapingiz to‘g‘ri, – dedi biri. – Ammo siz ular mollariga odamlar otini emas, gullarning nomini qo‘yishganini unutmang-da». Pablo Vikarioning dag‘dag‘asi yolg‘ondakam emasligini anglagan yolg‘iz odam Faustino Santos unga hazillashib: «Atrofda kallasini shartta uzib tashlash shart bo‘lgan qancha boy-badavlat kishilar yuribdi-yu, senlar nega endi aynan Santyago Nasarni o‘ldirmoqchisizlar», – deb so‘ragan.

– Buning sababini Santyago Nasarning o‘zi yaxshi biladi, – deb javob qaytargan Pedro Vikario.

Faustino Santos o‘zini qo‘yarga joy topolmay qolgan, keyinchalik menga aytganidek, bir oz o‘tgach, shahar hokimining nonushtasiga pishiriq olgani mirshab kelgan, unga bu gap-

ni tushuntirgan. Sud hujjatlarida qayd etilishicha, mirshab Leandro Pornoy otli kimsa ekan, u to‘ydan bir yil keyin, saltanat bayrami kunida, buqa suzib, bo‘ynidagi shox tomiri yorilib o‘lgan. Shu bois u bilan gaplasholmadim, inchunun, Klotilde Armentaning tasdiqlashicha, uning sut do‘koni yonida Vikariolar Santyago Nasarni o‘ldiramiz, deb o‘tirishganida, ikkovini dastavval ana shu mirshab ko‘rgan.

Klotilde Armenta endigina erini uyiga jo‘natib, peshtaxtani arta boshlagandi o‘shanda: er-xotin do‘konni birga ochishar, ertalab sut, kun bo‘yi turli oziq-ovqatlar sotilar, kechqurun soat oltidan keyin bu katalak mayxonaga aylanardi. Xotin do‘konni tonggi soat uch yarimlarda ochgan. Uning eri, yaxshilarning yaxshisi don Roxelio de la Flor, mayxonani har galgiday soat birda yopmoqchi bo‘lgan, to‘ydan chiqib, atrofda tentirab yurgan mayparastlarning barchasi shu yerdan qo‘nim topib, gap ta’sir qilmas darajaga yetgach, u soat uchdan keyin do‘konni berkitmasdan uyiga uxlagani jo‘navorgan, Klotilde Armenta esa, yepiskop kelgunicha sutni sotib ulguray, deb barvaqt turgan edi.

Vikariolar do‘konga soat to‘rtdan o‘n daqiqa o‘tganda kirishgan. Odatda bu mahalda faqat yeguliklar sotilardi, ammo Klotilde Armenta ularni bir shisha shakarqamish mayi bilan siylagan, bu uning qassoblarga ehtiromidan emasdi, albatta. Aka-ukalar unga to‘y tortidan juda katta bo‘lagini yubortirishgan, ayol shundan xursand edi. Ular bir ko‘tarishda shishani bo‘shatishdi-da, hech narsa bo‘lmaganday o‘tiraverishdi. «Ikkoviyam muzlab-to‘ngib qolganga o‘xshardi, – dedi

menga Klotilde Armenta, – agarda o‘sha paytda ustlaridan yermoyi sepib yoqib yuborilsayam, bilishmasdi». So‘ngra ular movut kostyumlarini yechib, ayricha bir ehtiyotkorlik bilan kursi suyanchig‘iga ilishgan-da, yana bir shisha may so‘rashgan. Ko‘p terlashganidan ko‘ylaklari anchagina kirlangan, o‘zlariyam soqollari olinmaganidan qandaydir vahshiyona tusga kirishgan edi. Birodarlar shishadagi mayni endi bamaylixotir o‘tirib, shoshilmasdan Plasida Lineroning ro‘paradagi uyidan ko‘z uzmay, maydalab ichishgan; uy derazalari qorong‘i, chirog‘i o‘chiq ekan. Qasoskorlar nazarini tikkan peshayvon tarafdagi eng katta deraza Santyago Nasar yotog‘iniki edi. Pedro Vikario Klotilde Armentadan, anavi derazaning chirog‘i yonmadimi, deb so‘ragan, ayol yo‘q deb javob bergan, yigitning bu savoli unga g‘alati tuyilgan.

– Biror narsa bo‘ldimi unga? – qiziqib so‘ragan ayol.

– Yo‘g‘-e, tinchlik, – degan Pedro Vikario. – Hozir u bizga juda kerak bo‘lib qoldi, o‘ldirmoqchimiz.

Ayol bu kutilmagan gapga avvaliga ishonmagan, ammo sallohlar qo‘lidagi sochiqqa o‘ralgan pichoqlarga ko‘zi tushgach, hayronligi yanada ortgan.

– Nega o‘ldirmoqchisizlar-a, tag‘in shunchalik tong saharlabda-ya, sababini bilsak bo‘ladimi? – deya so‘ragan.

– Negaligini uning o‘zi biladi, senga qizig‘i yo‘q, – degan Pedro Vikario.

Klotilde Armenta ikkoviniyam sinchiklab ko‘zdan kechirgan. U aka-ukalarni juda yaxshi bi-

lardi, ayniqsa, Pedro Vikario harbiydan qaytgach, o‘zicha egizaklarni bir-biridan farqlay boshlagan edi. «Ikkoviyam g‘o‘r, hali ham beg‘ubor bola edida, axir», – dedi menga do‘konchi xotin. Xuddi mana shu fikri qo‘rqitib yuborgan, zotan, faqat bolalargina har ishga qodir, deya hisoblardi. U sut shishalarini tashiyotgan joyida ishini tashlab, erini do‘kondagi ahvoldan xabardor qilgani uyiga chopgan. Don Roxelio de la Flor zaifasining so‘zlarini mudrab yotib eshitgan.

– Ko‘pam jinni bo‘laverma, – degan u xotiniga. Ikkoviyam odam o‘ldiradigan, xususan, boy odamga pichoq ko‘taradigan bolalardan emas.

Klotilde Armenta orqasiga qaytganida, sallohlar shahar hokimiga sut olgani do‘konga kirgan mirshab bilan suhbatlashib o‘tirishgandi. U erkaklarning gapini unchalik anglamagan, biroq mirshab chiqib ketayotib, ularning pichog‘iga ko‘z tashlaganida, demak, birodarlar ungayam o‘z ahdlarini ochiq bidirishibdi-da, deb o‘ylagan.

To‘rtdan sal avval uyg‘ongan shahar hokimi polkovnik Lasaro Aponte mirshab Leandro Pornoy Vikariolarning yovuzona qarori xususidagi xabarni aytgani kirganida, soqolini olib bo‘lgandi. O‘tgan kecha polkovnik janjalchi ulfatlar o‘rtasidagi bir necha mojaroni tinchitib charchagan, saharlab yana bir falokat haqida mulohaza yuritishga shoshilmas, zero, bunga istagi ham yo‘q edi. U bamaylixotir kiyingan, kapalaknusxa bo‘yinbog‘ini ko‘nglidagiday chiqquncha qayta-qayta bog‘lagan, keyin yepiskopning ko‘zi tushar, degan ilinjda bo‘yniga Bibi Maryam qavmlariga mansub tumorni taqqan edi. Piyoz qo‘shib dimlangan jigarni yeb o‘tirganida, xotini

Bayyardo San Roman Anxela Vikarioni onasinikiga eltib tashlabdi, degan hovliqib, polkovnik esa uning so‘ziga zig‘ircha e’tibor bermagan va:

– Yo, tavba, Xudoyim-ey! – degan hazillashib. – Yepiskon endi nima derkin-a?

Biroq shu zahotiyoq polkovnik mirshabdan eshitgan gaplari bilan xotini aytgan so‘zlarni bir-biriga qiyoslarkan, ularning chambarchas bog‘liqligini anglagan. U o‘rnidan shitob turib, yepiskopga ilhaq odamlar bilan jonlangan ko‘cha bo‘ylab, yangi bandargoh tomondan maydon sari yo‘l olgan. «Esimda, sahar soat beshlar edi, yomg‘ir tomchilab turardi», – dedi menga polkovnik Lasaro Apnonte. Ko‘chada uni uch kimsa to‘xtatib, egizak Vikariolar Santyago Nasarni o‘ldirmoqchiligini xufiyona xabar qilishgan, ulardan faqat bittasigina sallohlar qurbonni qaysi joyda kutib yotishganini aniq aytgan.

Polkovnik birodarlarni Klotilde Armenta do‘koni yonida uchratgan. «Ularni ko‘riboq, bolalar shunchaki o‘dag‘aylashipti-da, deb o‘yladim, – deya u menga ko‘nglidagini ochiq aytdi. – Men ikkovini ham o‘lguday mast, deb behuda xavotirlangan ekanman». Polkovnik ulardan maqsadlari nimaligini so‘rab o‘tirmagan, pichoqlarini tortib olgan-u, uxlagani uyiga jo‘nayvergan. U xotinining vahimali so‘zlariga e’tibor bermaganidek, sallohlarning bunday o‘tirishlariga ham loqayd qaragan.

– Axir, mundoq bir o‘ylab ko‘ring, yepiskop sizlarni shu ahvolda ko‘rsa, nima deb o‘ylaydi? – degan u Vikariolarga.

Aka-ukalar jo‘nab ketishgan. Klotilde Armenta shahar hokimidan ularni qamoqqa olmagani

uchun xafa bo‘lgan: jilla qursa, hamma gap bir yoqli qilinguncha polkovnik ikkovini hibsga olishi lozim edi. Polkovnik ayolning da’vosini eshitgach, qo‘lidagi pichoqlarni dalil sifatida ko‘rsatgan va:

– Endi nimasi bilan so‘yadi, vahimachi? – degan.

– Nahotki, ular yomonligini qo‘yadi, deb o‘ylaysiz? – degan ayol unga. – Axir, ularning zimmasida oila sha’ni, birovni o‘ldirishdek og‘ir majburiyat turibdi, bechoralarni ana shu yukdan qutqarish kerak-ku!

Vikariolar yovuz niyatini amalga oshirishda qanchalik qa’tiy bo‘lmasin, biror sulhparvar kelib, ikkovini ham bu badniyatdan qaytishga undashini, qattollik balosidan xalos etishini sidqidildan istashayotganini Klotilde Armentaning ko‘ngli sezgan. Polkovnik Apontening g‘ofil dili bundan bexabar edi, albatta.

– Shubhaga borib, birovni qamash mumkin emas, – degan u. – Hozir eng muhimi, Santyago Nasarni suiqasddan voqif qilinsa, bas, shuning o‘zi yetarli, u yog‘i – olam guliston!

Klotilde Armentaga polkovnikning xulqi yoqmasdi, shuning uchun u har doim, bu pakana, xo‘ppa semizning yengiltakligi boshiga ko‘p malomatlar soladi, deb yozg‘irib yurardi, ammo, menimcha, Lasaro Aponte, garchand bir oz aljib qolgan, ba’zi bemaza aqidaparastlar pochtada yuboradigan qo‘llanmalarni o‘qiyverib, miyasi chalg‘ib, tanholikda arvohlar bilan so‘zlashadigan qilig‘i bo‘lsayam, o‘zi asli baxtiyor insonlardan edi. Biroq o‘sha dushanbadagi xatti-harakatlari uning shildir kimsaligini oshkor etdi. Gap shundaki, polkovnik Santyago Nasarni bandargohda

koʻrib qolmagunicha uni esiga keltirmagan, koʻzi tushgan zahoti suiqasd xususida oʻylab, indamagan, hech narsa boʻlmaydi, deb hisoblagan va podadan oldin chang chiqarmaganidan quvongan.

Vikariolar shum niyatlarini sut doʻkoniga kirgan oʻn ikki kishiga aytishgan, ana shu kishilar soat oltigacha shu shumxabarni butun shaharga yoyishgan. Roʻparadagi uyda turib Nasarlarning bu qasddan bexabarligini Klotilde Armenta tasavvuriga sigʻdirolmasdi. Uningcha, Santyago Nasar uyda emas, zotan, yotogʻining chirogʻi ham oʻchiq edi; ayol kimni koʻrsa, Santyago Nasarni uchratsang, shu gaplardan ogoh et, derdi; u hatto sutga kelgan rohiba xizmatchi orqali padar Amadorga ham xabar yetkazgan. Soat toʻrtda u Plasida Lineroning oshxonasida chiroq yonganini koʻrgan va darhol har kuni ertalab bir hoʻplam sut tilanib keladigan gadoy xotinni, bor gapni aytgin, deb oqsoch Viktoriya Gusman oldiga yuborgan. Yepiskop tushgan kema boʻkirib ovoz bergan paytda deyarli barcha odam uygʻonib boʻlgan, butun shahar ahli unga peshvoz chiqishga oshiqmoqda edi; bizlar – umuman, egizak Vikariolar Santyago Nasarni oʻldirish niyatida poylashayotganidan bexabarlar barmoq bilan sanarli edik; bu paytda suiqasd va uning sababi haqidagi shov-shuv shaharni tumanday qoplagandi.

Aka-ukalar qoʻllarida roʻznomaga oʻrogʻliq pichoqlarni tutgancha yana doʻkon yoniga qaytishganida, Klotilde Armenta hali sutni sotib ulgurmagandi. Bitta pichoqning uzunligi oʻn ikki-yu, eni uch pultada, tigʻi qalin, zanglagan edi, uni eski temir arrapichoqdan Pedro Vikarioning oʻzi, urushdan soʻng nemis pichoqlari savdoga

kirmasidan sal avval yasagandi. Ikkinchi pichoq kaltaroq, lekin narigisidan enliroq, o‘roqday egri edi. Tergovchi sud hujjatida pichoqni so‘z bilan ifodalay olmagani boisidan rasmini chizib qo‘ya qolgan, surat ostiga yozgan xatida uning kichkinagina turkiy yatag‘anga o‘xshashligini ta’kidlagan. Xuddi mana shu qo‘pol, hayvon so‘yadigan pichoqlar bilan qosidlar Santyago Nasarni qiynab o‘ldirishgan.

Faustino Santos og‘aynilarining xatti-harakatini idrok etolmay qolgan. «Ular yana pichoq charxlagani qaytib kelishdi, – dedi u menga. – Kela solib, Santyago Nasarning ichak-chavog‘ini ag‘darib tashlaymiz, deya ataylab hamma eshitishi uchun baqirib-chaqira boshlashdi. Men bu og‘zi polvonlar shunchaki valdirashyapti-da, deya ko‘nglimdan kechirib, pichoqlariga ham nazar solmadim, oldingisi deb o‘ylagandim-da». Sallohlar tag‘in do‘kon ro‘parasida ko‘rinishlari bilanoq, Klotilde Armenta ularning avvalgi vajohatlari yo‘qligini tuygan.

Haqiqatan ham, ikkovi o‘rtasida ixtilof tug‘ilgandi. Gap shundaki, zohiran ular biri-biriga naqadar o‘xshamasin, botinan ayricha edi, og‘ir, mushkul fursatda ana shu ruhiy, xulqiy tafovut o‘zini oshkor etardi. Pablo Vikario ukasidan olti daqiqalik katta edi, o‘smirligidayoq tahayyulining kuchliligi va dadilligi bilan undan ajralib turardi, Pedro Vikario esa, bilishimcha, bolaligidan ta’sirchan, farmonbardorlikni xush ko‘radigan bola edi. Yoshlari 20 ga yetgach, ikkoviyam harbiyga chaqirildi, biroq Pablo Vikarioga ozodlik tegib, oilaga bosh bo‘lib qoldi. Pedro Vikario jamoat tartibini saqlovchilar safida o‘n bir oy xizmat qildi.

Muttasil o‘lim dahshati bilan toblangan harbiyat ruhi uning qalbidagi amrifarmolik maylini yanada mustahkamladi, akasiga bog‘liq ba’zi ishlarniyam o‘zi hal etishga o‘rgandi. U uyiga «yuqumli zobitlik rutbasi» bavosil kasalini orttirib qaytdi, harbiydalik chog‘ida doktor Dionisio Iguaran tavsiyasiga ko‘ra, qilinadigan margimushli ukollargayam, ingliz tuzi qorishtirib tayyorlanadigan huqnagayam, xullas, qo‘shinda rasm bo‘lgan davolashning barcha usullariga tosh bardosh ila qarshi turdi. Bavosilini qamoqxonaga tushgandagina davolashdi. Biz, Pabloning og‘aynilari, ukasi harbiy xizmat nonini yeb, anchagina erkin boshqaruvchi bo‘lib qaytgach, kutilmaganda uning fe’l-atvori o‘zgarganini, ukasi chizgan chiziqdan chiqmaydigan dardisarga aylanib, ayniganini sezgandik, bu ham yetmaganday, Pedro Vikarioning yana bir qilig‘i ortiqcha bo‘ldi: u ko‘ringanga ko‘ylagini ko‘tarib, chap biqinidagi o‘qdan qolgan chandiqni namoyish etardi. Pedro o‘z bavosilini harbiy nishonday e’zozlab, ro‘kach qilishi yetmaganiday, pandavaqi Pablo ham uni mo‘tabar insonning ulug‘lik belgisi, deb bilar va bu borada so‘z ketsa, albatta, hayajonlanar edi.

Pedro Vikarioning aytishicha, Santyago Nasarni o‘ldirishga dastlab u ahd qilgan, akasi unga ergashgan, xolos. Polkovnik pichoqlarni tortib olgach, Pedro burchimni bajardim, deb hisoblagan, ana shunda Pablo Vikario tashabbusni o‘z qo‘liga olib, yo‘q, bu bilan ish tugamaydi, uni o‘ldiramiz, deb oyoq tirab turavergan. Birodarlar tergovchiga alohida-alohida yozib bergan tilxatlarida bu xususda og‘iz ochishmagan. Ammo menga Pablo Vikario bir necha daf’a ta’kidlaganidek,

ukasini ishni oxiriga yetkazishga ko‘ndirgunicha esi ketgan. Ehtimol, o‘shanda ukasi bir muddat bo‘shanglik qilgandir, kim biladi deysiz; Pablo Vikario yakka o‘zi bostirmadan boshqa pichoqlarni olgani ketganida, ukasi bovul etish niyatida tamarhindiy daraxtlari panasida ivirsib yurardi. Men Pedro Vikario bilan bir marta suhbatlashdim, xolos, ana o‘shanda u: «Akamning boshida bu savdo yo‘q, bilmaydi. Yozilish – men uchun juda azob», – dedi. Pablo Vikario pichoqni topib qaytganida, ukasi hamon daraxtga tirmashganicha kuchanib o‘tirardi. «Bechora og‘riqdan sovuq terga botib ketgandi, – dedi menga Pablo Vikario. – U inqillay-inqillay hozir birovni o‘ldiradigan chog‘i yo‘qligini, bir o‘zim boraverishim kerakligini aytdi». So‘ng Pedro Vikario to‘y dasturxoniga tayyorlangan-u hanuz yig‘ilmagan xontaxtalardan biriga cho‘kkan, dedi menga Pablo Vikario. Aslida esa, ukasi uni o‘n daqiqacha kuttirgan, xolos, biroq bu fursat mobaynida nechog‘lik iztirob chekkani yolg‘iz Pedro Vikariogagina ayon. Pablo Vikario unga qarab turib, tong otguncha vaqtni cho‘zmoqchi, bu bavosil, deb o‘ylab ranjigan. U ukasining qo‘liga zo‘rlab pichoq tutqazgan-da, uni singlisining toptalgan nomusi tiklanadigan intiqom yo‘liga sudragan.

– Boshqa yo‘l yo‘q, – degan u. – Biz uni so‘yib, saranjomlab bo‘ldik, deb o‘ylayver endi.

Itlar tinimsiz hurayotgan bir paytda ikkovlon pichoqlarini hech narsaga o‘ramasdan, cho‘chqaxonadan tashqariga chiqishgan. Tong yorisha boshlagan. Pablo Vikario menga: «Yomg‘ir yog‘mayotgandi», – dedi. Pedro esa: «Aksincha, havo tund edi, dengizdan shamol esar, yulduz-

larni barmoq bilan sanasa bo‘lardi», – dedi. Bu paytda shov-shuv butun shaharga tarqalgandi, Ortensia Baute ko‘cha eshigini ochayotganda, sallohlar ayni uning uyi yonidan o‘tishayotgan ekan, ularni ko‘riboq, xotinning kapalagi uchib ketgan va Santyago Nasarning arvohini xotirlab, birinchi bo‘lib duo o‘qigan. «Men uni o‘ldirishibdi, deb o‘ylagandim, – dedi u menga. – Shuning uchun ham ko‘chadagi chiroq shu’lasida qo‘llaridagi pichoqdan yaltillab qon tomayotganday ko‘rindi ko‘zimga». Bu tashlandiq mahalladagi yakkam-dukkam uylardan biri Pablo Vikarioning qallig‘i Prudensia Kotes xonadoni edi. Birodarlar har safar shu yerdan, ayniqsa, juma kunlari bozorga ketishayotganda, bir piyola qahva ichish bahonasida yo‘qlab turishardi. Eshikni itarishgandi, itlar bezovtalanib irilladi, so‘ng, tong qorong‘isida ularni tanib, unlarini o‘chirishdi; ikkovlon oshxonaga kirib, Prudensia Kotesning onasi bilan salomlashdilar. Qahva hali qaynamagandi.

– Qahvani keyinroq icharmiz, – dedi Pablo Vikario, – biz juda shoshib turibmiz.

– Nimayam qilardilaring, bolalarim, – dedi kampirsho bamaylixotir, – or-nomus deb odamzod har yo‘lga kiradi.

Ular bu go‘shada anchagina o‘ralashib qolishgan, bu safar endi Pedro Vikario, akam ataylab vaqtni cho‘zyapti, deb o‘ylagan. Ikkovlon qahva ichishayotganda oshxonaga Prudensia Kotes – dirkillama, ayni yetilgan qiz – o‘choqqa o‘t qo‘yish uchun tutantiriqqa bir dasta eski ro‘znoma olib kirgan. «Men ularning maqsadini sezgandim, – dedi menga Prudensia. – Ichimda bu ishni ma’qulladim, agar Pablo shunaqa paytda mardonalik

qilmasa, hecham unga tegmasdim». Oshxonadan chiqib ketishdan avval Pablo ikkita roʻznomani olgan-da, birini ukasiga bergan, soʻng ikkovlon pichoqlarini oʻrab olishgan. Prudensia Kotes oshxonada qolgan, birodarlar hovlidan oʻtgunlaricha kuzatib, qarab turgan; u Pablo Vikario qamoqdan chiqqunicha yana uch yil yoʻlga koʻz tikkan va nihoyat, ular bir umrga qovushishgan.

– Ehtiyot boʻlinglar, – degan qiz derazadan ularga qarata.

Klotilde Armentaning ular tagʻin doʻkonga qaytishganda avvalgi vajohatlari yoʻqligini sezgani bir hisobda ayni muddao boʻlgan, ularga oʻzlariga kelishar, degan umidda bir shisha ayiqquloq qaynatmasidan solingan musallas bergan, ichinglar, degan. U menga: «Yo Rabbim, biz xotinlar bu dunyoda naqadar yolgʻiz-u notavon yashab, oʻtib ketarkanmiz-a, bunga oʻsha kuni aqlim yetdi», – dedi. Pedro Vikario undan erining soqol oladigan uskunasini soʻragan, Klotilde Armenta sallohga sovun, choʻtka, toza olmos solingan ustara, ilgichli oyna olib chiqqan, ammo yigit oʻzining dudama pichogʻi bilan soqolini kirgan. Klotilde Armenta buni chin erkakning ishi deb baholagan va Pedroga besh ketgan. «U kinodagi qotillarga oʻxshardi», – dedi menga ayol. Keyinchalik Pedro Vikario shu holatni izohlab, menga: «Qamoqxonada pichoqda soqol olaverib oʻrganib ketganman, boshqa narsada qirsam, etim junjikadi», – dedi. Akasi esa, odamga oʻxshab don Roxelio de la Florning ustarasida soqolini olgan. Xullas, ikkovlon tunkezarlarga xos merovona qiyofada roʻparadagi qorongʻi derazaga tikilishgancha indamay, shoshilmay musallasni ichib tugatishgan,

bu orada hangomatalab mijozlar yasama beparvolik bilan go‘yo sut xarid qilmoqchiday do‘konga paydar-pay kirib-chiqib, jo‘rttaga savdoda yo‘q mollarni so‘rab-surishtirishgan, yagona niyatlari Vikariolar Santyago Nasarni o‘ldirmoqqa shaylanib, rostdan shu yerda o‘tiribdimi – xuddi shuni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, ishonch hosil qilmoqchi bo‘lgan.

Sallohlar haq deb qarab o‘tirgan xonada shu tun chiroq yonmagan. Santyago Nasar uyiga tonggi soat to‘rtdan yigirma daqiqada qaytgan, zinapoya chirog‘i butun kecha yoniq turganidan o‘z xonasiga yorug‘da bemalol o‘tib, chirog‘ini ham yoqmay, kiyiminiyam yechmasdan karavotga o‘zini tashlagan-u dong qotgan. Bir soat uxlagach, yepiskopni kutishga chiqadi, kechikmasin, deb Viktoriya Gusman uni vaqtliroq uyg‘otgan. Biz Santyago Nasar bilan birga sahargi soat uchgacha Maryam Alexandrina Servantesning islovotxonasida aysh qilgandik: xuddi o‘sha paytda Maryam bibi mashshoqlarning javobini berib, raqsxona chiroqlarini o‘chirib, bu visol uyining gullariga – zanji jononalargayam bir o‘zlari, jazmanlarsiz sal uxlab, hordiq chiqarishsin, deb ruxsat bergan edi. Uch kundirki, zanji dilbarlar tinim bilmay xizmat qilishdi: avval oliynasab mehmonlarning ko‘nglini ovlashdi, ular jo‘nab ketgach, bizga o‘xshab to‘ydan keyin o‘ziga hamsuhbat topolmay yurganlarga eshiklarini lang ochib qo‘yishdi. Maryam Alexandrina Servantes – tengqurlarim uni, o‘lsagina ko‘zi yumiladigan xotin, uxlamaydiyam-uxlatmaydiyam, deyishardi – umrimda uchratganim ayollarning eng dilbari va xushkalomi bo‘lib, ko‘rpada ham odamzod-

ning jonini kirgizardi, ammo anchagina talabchan juvon edi. U shu yerda tug‘ilib-o‘sgan, butun umri ana shu dorulshahvatda kechgan; bu xonadon eshiklarini dunyodagi boriki ikki oyoqli erkak zoti uchun keng ochib qo‘ygan edi, bir necha xonani soatbay ijaraga berib, ko‘p foyda ko‘rgan; kattagina tashqi hovli sahnidagi raqs maydonchasi chiroqlari ustiga Paramariboda[1]gi chin bozoridan sotib olingan oshqovoqlarning ichini o‘yib, quritib, qalpoqcha tarzida o‘rnatishgandi. Tengdoshlarimni – butun bir avlodning yigitligini ilk bor barbod etib, juda erta ko‘zini ochgan ham shu juvon edi. U bizga keragidan salgina ortiqcha narsalarni o‘rgatgan bo‘lsa-da, biroq, eng muhimi, jahonda yolg‘iz yashashdan ortiq ko‘rgilik yo‘qligi xususidagi oddiy haqiqatni anglatganidan minnatdormiz. Santyago Nasar uni birinchi ko‘rganidayoq aqldan ozayozgandi. O‘shanda men uni, hoy bola, o‘zingni tiy, nafsim mening balodir, boshga ming dard solodir, deb ogohlantirgan edim. Lekin gapimga quloq solmagan, Maryam Alexandrina Servantesning nag‘malari bechorani qip-qizil jinni qilib qo‘ygan edi. Ibrohim Nasar uni 15 yoshida o‘sha fitnaparvar dilbardan ayirib, «Tangri tal’at» qo‘rg‘oniga bir yilcha qamab qo‘ygunicha ko‘nglining kunduziyam, kechasiyam, kulgisiyam, yig‘isiyam o‘sha edi. O‘sha zamonlardan beri ikkovining o‘rtasida ishqiy g‘avg‘olardan xoli chuqur ehtirom bor edi, juvon Santyago Nasarning izzat-hurmatini joyiga qo‘yardi: agar u yaqin orada yurgan bo‘lsa, boshqa birovga mayl bildirmas edi. O‘sha kuni

[1] Paramaribo – Surinamning poytaxti, katta bandargohi ham bor.

u bizni kutilmaganda koʻchagacha kuzatib chiqdi, charchadim, dedi. Ta'til kunlarim tugab qolgandi, shuni nazarda tutdimi, menga muruvvat nigohini tikib ishora qildi, yana yashirincha qaytib kirishim uchun eshikni tambalamay, yoʻlak chirogʻini oʻchirishni joʻrttaga unutib, orqasiga qayrildi.

Santyago Nasar kiyim oʻzgartirish bobida ustasi farang edi, zanji dilbarlarni yechintirib-kiyintirish – uning eng sevimli ishi edi, bu mashgʻulotsiz turolmasdi. Gohida qoraxonlarni shunday liboslarga burkab tashlardiki, ular, hatto oʻzlarini oʻzlari taniyolmay qolishardi. Yigit fohishalarning kiyimlarini oʻzgartiraman, deb libos tanlab javonlarning tit-pitini chiqarib yuborar, bularning barchasini – shu badbaxtlar boshqacha kiyinib, oʻzlarini unutishi, taskin topishi uchungina qilardi. Bir gal bitta zanjiniso dugonasining libosida oʻzini u deb oʻylab, hayratdan rosa yigʻlagan. U menga: «Oʻshanda oʻzimga oʻzim xuddi koʻzguning ichidan chiqib kelganday tuyildim», – dedi. Oʻsha oqshom Maryam Alexandrina Servantes Santyago Nasarning oxirgi marta sevimli mashgʻulotini takrorlab, mazza qilishiga yoʻl bermagandi, shu ishlaring menga sirayam yoqmaydi, umrimni zaharlagan narsalarni esimga soladi, deya sasigandi. Shundan keyin biz mashshoqlariniyam ergashtirib, koʻchama-koʻcha sangʻib qoʻshiq aytdik, bu paytda aka-uka Vikariolar Santyago Nasarni oʻldirish qasdida poylashayotgan edi. Santyago Nasarning kallasiga qaysi goʻrdan ham soat toʻrtda Ksiusning uyi joylashgan tepalikka chiqib, yangi kelin-kuyovga qoʻshiq aytib berish fikri tugʻilibdi, nachora, koʻndik.

Biz ularning derazasi tagida qo‘shiq aytish bilan kifoyalanmay, bog‘chaga qarata portlagich mushaklar ham otdik, biroq tevarak jimjit, hayot asorati sezilmas edi. Uyda hech kim yo‘qdir, degan o‘y birortamizning xayolimizga kelmabdi. Darvoza oldida atlas bog‘log‘ichlar, sha’mgullar bilan bezatilgan tepasi ochiq avtomobil turardi. Ukam Luis Enrike, u o‘shandayam mohir mashshoqlarday gitara chalardi, kelin-kuyov sharafiga o‘zi to‘qigan, kirdikorlar-u fitna-fasodlar xususidagi nikohga aloqador qo‘shig‘ini aytardi. Bu dam yomg‘ir yog‘mayotgandi, aksincha, yulduzli osmon, havoyi jahon ochiq, musaffo edi, jarlik tubidagi qabristonda asriy so‘ngaklar aralashgan turli chirindilar yonib, tovlanar edi. Bir tarafda oyning oppoq yog‘dulari ichra cho‘milib, jilvalanayotgan yam-yashil bananzor, tund botqoqliklar, undan-da narida Karib dengizining ufq sarhadlariga tutash nurafshon sohillari ko‘zga chalinar edi. Santyago Nasar ummon yuzasidagi yugurik olovni bizga ko‘rsatib, u – Senegaldan safarga chiqib, Kartaxende las Indias bandargohiga kiraverishda ichidagi bor yuki, bandi qullari bilan suvga g‘arq bo‘lgan qulfurushlar kemasidagi bir mug‘arriqning ruhi g‘aribi, dedi.

U Anxela Vikarioning bir lahzalik er-xotinlik turmushi bundan ikki soat avval zavol topganini bilmasdi, albatta, shuning uchun ham yigitning ko‘ngli shundan alag‘da bo‘lyapti, deb o‘ylash noto‘g‘ri edi. Bayyardo San Roman, agar mashinani yuritsam, motorning tovushi badbaxtlikni oldinroq odamlarga ovoza qilib qo‘ymasin deb, bechora qizni onasining uyiga ataylab piyoda olib borib tashlab kelgan: so‘ngra Ksiusning xayrli, ulkan

kimsasiz xonadonida chiroqlarniyam yoqmay, uzoq vaqt nest-u mustar bo‘lib o‘tirgan.

Tepalikdan qaytib tushganimizda, ukam, bozordan qovurilgan baliq olib, nonushta qilaylik, dedi, ammo Santyago Nasar, biror soat uxlab, o‘zimni o‘nglab olay yepiskopni kutishga chiqaman, deb ko‘nmadi. U Kristo Bedoyya bilan birga unda-bunda chiroqlari yona boshlagan eski bandargoh yo‘lidagi ko‘chadan o‘tib, dengiz qirg‘og‘i bo‘ylab uyiga jo‘nadi: muyilishdan qayrilarkan, bizga qarata qo‘l silkidi – shu uni oxirgi ko‘rishimiz edi.

Kristo Bedoyya ikkovi keyinroq bandargohda uchrashishga kelishib, hovlining orqa eshigi yonida xayrlashishgan. Itlar uning kelganini sezib, odatdagiday irillashgan, Santyago Nasar kalitlarini shiqirlatib, maxluqlarni tinchitgan. Yigit ichkariga kirib ketayotganda, Viktoriya Gusman qahva qaynatayotgan edi.

– Hoy, arab, – degan u xo‘jayiniga, – qahvang qaynab qoldi, sovimasdan ich.

Santyago Nasar qahvani keyinroq ichaman, besh yarimda Divina Flor meni uyg‘otsin, xuddi egnimdagiday toza kiyimimni tayyorlab qo‘ysin, degan. U yotog‘iga chiqib ketgancha, bir daqiqa o‘tar-o‘tmas gadoy xotin kirib kelgan. Klotilde Armentaning sut do‘konida eshitgan gapini oqizmay-tomizmay Viktoriya Gusmanga yetkazgan. Soat besh yarimda Viktoriya Gusman, – u qizi Divina Florni xo‘jayindan doimo ehtiyotlar, yotog‘iga yolg‘iz yo‘latmasdi, xo‘jasining buyrug‘ini ado etib, kanop surpdan tikilgan kamzulini olib kirgan.

Maryam Alexandrina Servantes eshik ilgagini solmay, ochiq qoldirgan ekan. Men ukam bi-

lan xayrlashgach, yo‘lakka burildim, u yerdagi yashang lolalar o‘sgan gulxonada zanji dilbarlarning ermagi, erkatoyi mushuklar mudrab yotgandi, maxluqlarga sezdirmay yotoqxonaga qadam qo‘ydim. Chiroq o‘chiq edi, ostona hatlashim bilanoq dimog‘imga xotin kishining xush bo‘yi urildi, qorong‘ida «yovvoyi mushuk»ning ehtiros otashi bilan porlayotgan ko‘zlarini ko‘rdim, so‘ngra, cherkov jomi chalinmagunicha bu olamda nelar ro‘y bergan – bundan xabarim yo‘q.

Uyga ketayotib, ukam tamaki sotib olish niyatida Klotilde Armentaning do‘koniga kirgan. Bazmda u rosa to‘yib ichgan emasmi, do‘konda bo‘lib o‘tgan gaplarni elas-elas esladi, ammo Pedro Vikario unga tutgan bir qultum araq bamisoli ajalning o‘qi ekan, degan, o‘sha yodida qolibdi. «Xuddi alangani ichimga yutib yuborganday bo‘ldim», – dedi ukam menga. Mudrab o‘tirgan Pablo Vikario ukamning sharpasini sezib, shartta o‘rnidan turganda, pichog‘ini ko‘rsatib:

– Hozir biz Santyago Nasarni so‘ygani boramiz, – degan.

Ukam uning bu gapini eslay olmadi. «Agarda shunday deganini eshitganimdayam, baribir ishonmasdim, dedi ukam menga bu haqda bir necha bor. – Egizaklarning biror kimsani o‘ldirmoqchiligi, ayniqsa to‘ng‘iz bo‘g‘izlaydigan pichoq bilan so‘yishga ahd qilgani o‘shanda avliyoning ham kallasiga kelmasdi. So‘ngra Vikariolar undan Santyago Nasarning qayerdaligini surishtirishgan, avval birga edinglar, ayt, deyishgan, afsuski, ukam ularga ne deb javob berganini xotirlay olmadi. Klotilde Armenta va birodar Vikariolarning tergovchiga iqror bo‘lishicha,

ukamning gapidan ular yoqa ushlab qolishgan. Ukam: «Santyago Nasar o‘ldi», – degan. Keyin uch-choviniyam yepiskopchasiga cho‘qintirib duo etgan-da, munkib, eshikka qoqilib, tebranganicha tashqariga yo‘nalgan. Maydon o‘rtasiga yetganida, padar Amadorni uchratgan. U hayitlik ridosiga burkanib, bandargoh tomonga shoshilardi, ortidan bir necha muridlar ergashib borardi, bu to‘da orqasidagi shotirlar esa yepiskopning kemadan tushiboq ibodat o‘tkazishi uchun ko‘chma mehrobni ko‘tarib olishgandi. Bu sharafli maxluqlarni ko‘rgan Vikariolar shoshib cho‘qinishgan.

Klotilde Armentaning menga aytishicha, kashish uning uyi yonidan rohiblar guruhini ergashtirgancha indamay o‘tib ketgach, ko‘nglidagi so‘nggi ishonch rishtasi ham uzilgan. «Padarimiz men yozib yuborgan xatni olmadilar-da, degan xayolga bordim», – dedi ayol menga. Biroq oradan qancha yillar kechib, padar Amador u dunyoning og‘ir xayolidan qutulib, bu dunyoning nogiron-u notavonlari to‘la Kalafella «Shifo uyi»da davolanib yotganida menga iqror bo‘lganidek, unga Klotilde Armentaning xatini yetkazishgan. Bandargohga jo‘nashidan oldinroq esa undan-da beshbattar shumxabarlarni eshitgan. «Bo‘tam, ochig‘ini aytsam o‘shanda ne yo‘l tutmoqqa ishtibohlanib hayron bo‘lib qoldim, – dedi chol. – Dastavval fikri ojizimdan, bu mening emas, fuqaroparvar mahalliy ishi, degan o‘y kechdi, keyin yo‘l-yo‘lakay Plasida Lineroga bir-ikki og‘iz so‘z aytish darkor degan qarorga keldim». Ming afsuski, kashish maydonni aylanib o‘tayotganda o‘z ahdini unutgan. «Ma’lumingizkim, o‘sha mash’um kunda, baayni yepiskop hazratlari tashrif etuvchi kunda

esim joyida emasdi», – deya keyin u o‘zini oqladi. Qasoskorlar shum niyatiga yetgani xususidagi gapni eshitgach, padar Amador shunchalar ranj-u nadomat chekkanki, nima qilarini bilmay, oxiri, xuddi butun shaharga o‘t ketganday, birvarakayiga barcha jomlarni chala boshlagan.

Ukam Luis Enrike oshxona eshigi orqali uyga kirgan: biz kechroq qaytganimizda otamni uyg‘otib yubormasligimiz uchun onam o‘sha eshikni bekitmas edi. Ukam o‘ringa yotishdan oldin hojatxonaga chiqqan va o‘sha yerda o‘tirganicha uxlab qolgan; keyinchalik kichik ukam Xayme maktabga jo‘nash oldidan uning toshtaxtaga yuztuban tushgancha so‘lagini oqizib, xurrak otib yotganiga ko‘zi tushgach, uydagilarga aytgan. Rohiba singlim esa yepiskopni kutgani ham chiqmay, o‘tgan kecha to‘yda ko‘proq ichib qo‘yganidan hamon boshi og‘rib turgan ekan, buni eshitib, sudralib hojatxonaga chiqqan. Luisni uyg‘otaman deb rosa uringan, ammo chog‘i kelmagan. Singlim: «Men ichkariga kirganimda soat beshga zang urgandi», – dedi. Margot singlim bandargohga borishdan oldin bir poklanib olay, deb g‘uslxonaga o‘tayotganida, Luis Enrikeni haligidaqa ahvolda ko‘rgan va amal-taqal qilib, itning o‘ligiday cho‘ziltirib, yotoqxonaga sudragan. Ukam karaxt holda uyqu aralash yepiskop kemasining cho‘ziq-cho‘ziq ovozini eshitgan, so‘ng ko‘zini yirib-yirtib sal ochgan-u kiprigini ko‘tarishgayam madori yetmay, yana ko‘zi yumilgan. Shu uxlaganicha tosh qotgan, rohiba singlim ustidan ko‘rpani vajohat ila tortib-yulqiganda:

– Santyago Nasarni o‘ldirishdi! – deya ayyuhannos solgan-u, uyqusi o‘chib, o‘rnidan turgan.

Santyagoning vahshiyona pichoqlangani bir bo‘ldi-yu, doktor Dionisio Iguaran yo‘qligi bois padar Karmen Amadorning uni shafqatsizlarcha yorgani bir bo‘ldi. «U bechora jon uzib qutulmagan ekan, biz uni yana bir bor chavaqlab yorib, o‘ldirdik, o‘zing gunohimdan o‘t, e, Parvardigor, – deya pushaymon chekdi padar Amador Kalafelledagi xastaxonada. – Biz ham nochor edik, shahar hokimi yorasan, deb buyurgandi-da, o‘zingiz bilasiz-ku, u yovvoyi odamning amri qanchalik ahmoqona bo‘lmasin, bajarishdan bo‘yin tovlay olmasdik». Ammo mo‘ysafidning aytganlari unchalik ham to‘g‘ri emasdi. Polkovnik Aponte o‘sha tala-to‘p dushanbada viloyat hokimiga sim qoqib, uni ahvoldan xabardor etgan, u janob esa, tergovchi yetib borgunicha qo‘lingizdan keladigan chorani ko‘ravering, deya farmon bergan. Shahar hokimi bu rutbaga erishgungacha qo‘shinda zobit sifatida xizmat qilgan bo‘lsa-da, adliya sohasidan mutlaqo bexabar, bu ham yetmaganday o‘lguday takabbur edi, shu bois mazkur holatda ishni nimadan boshlash lozimligini birovdan so‘rashga or etardi. Shuning uchun u, jasad yorilishi kerak, deb qo‘ya qoldi. Kristo Bedoyya tibbiyot bilan shug‘ullanardi, Santyago Nasarning yaqin do‘sti edi, u shahar hokimini bu ishni qilmaslikka ko‘ndirdi. So‘ng polkovnik doktor Dionisio Iguaran kelgunicha murdani muzxonada saqlanglar, deya amr etdi, lekin odam jasadi sig‘adigan bunday muzxonali sovutgich topilmadi, bozordagi birdan bir katta sovutgich ham buzuq ekan. Rosmana tobut yasattirib keltirguncha mayitni katta xonaning o‘rtasida, temir karavotga yotqizishdi, qavmdoshlari u bilan

shu yerda vidolashishdi. Yotoqxonadan hamda qo‘shni xonadonlardan bir necha ventilyator olib chiqildi, ammo marhumni ko‘rgani kelganlar shu qadar ko‘payib ketdiki, oqibatda javonlar xoliroq joyga surildi, qafasdagi qushlar, katta-katta gultuvaklar chetroqqa olindi, biroq shundan keyin ham dim bo‘laverdi, xonada turib bo‘lmay qoldi. Itlar o‘likning isini olib, bezovtalanib, sarosimalanib g‘ingshiy boshladi. Men kirganimda tuban maxluqlar tinmay uvlashar, ayni asnoda oshxona tomonda jon uzayotgan Santyago Nasar talvasali ingranib yotar, Divina Flor bo‘zlay-bo‘zlay eshik tambasi bilan itlarni urib, hayhaylab haydar edi.

– Kel, manavi ochofatlarni haydashib yubor! – dedi u meni ko‘riboq. – Ichagini yeyman deydi-ya, ajal kelgurlar!

Biz itlarni og‘ilga qamadik. Bir ozdan keyin Plasida Linero, dafn o‘tguncha itlarning qorasini o‘chirib turinglar, dedi. Ammo choshgohda, nima bo‘lganini hech kim bilmay qoldi, maxluqlar og‘ildan qochib chiqishib quturganday uyga yopirilishdi. Plasida Linero ana shunda o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

– La’nati hayvonlar! – qichqirdi u. – Otib tashlanglar!

Onaning amri darhol bajo etildi, xonadon suv quyganday jimjit bo‘lib qoldi. Xayriyatki, jasad ortiqcha xavotir tug‘dirmas, ayniqsa, yuziga hech narsa qilmagandi – Santyago Nasar qo‘shiq aytayotgandagi ifoda chehrasida hamon qotib turardi; Kristo Bedoyya uning osilib, qornidan chiqib ketgan ichak-chovog‘ini joy-joyiga qo‘yib, ustidan movut bog‘lami bilan o‘rab-chirmab tashladi. Biroq kunbotarga yetmay, yaralardan sariq xilt-u fasod sizib chiqib, atrofni pashsha bosdi,

og‘zining tevaragini binafsharang dog‘ qopladi, so‘ngra u suvdagi bulut ko‘lankasiday siljiy-siljiy sochining ildizlarigacha qamrab oldi. Marhumning yuzidagi hamishagi yoqimli, samimiy ifoda o‘rnini xunuk, g‘ayri bir alomat egalladiki, onasi uning betiga ro‘molcha yopib qo‘ydi. Shunda polkovnik Aponte ortiqcha kutish o‘rinsizligini angladi va padar Amadorga, o‘likni yoring, deb buyurdi. «Bir haftadan keyin go‘ridan kovlab olib, yana ichini yorilsa, bundan beshbattar bo‘ladi», – dedi u. Padar bir paytlari Salamankada tibdan, xususan, jarrohlik ilmidan ta’lim ko‘rgandi, ammo shahodatnoma olmasdan diniy maktabga o‘tib ketgandi. Albatta, kashishning o‘lik yorishi qonundan tashqari ish ekaniga, hatto shahar hokimining ham aqli yetardi. Shunga qaramay, buyrug‘i ijro etilishini talab qildi.

Jasadni shu yaqin-o‘rtadagi maktab binosida yorishdi, bu ham bir xunrezlik bo‘ldi; padar Amadorga endigina tib ilmidan saboq olayotgan, ayni kunlarda ta’tilga kelgan talaba yigit, ne qilganlarini daftarga yozib borgan dorixonachi ko‘maklashdi, uchovlon birgalashib, o‘likni qassobday yana so‘yishdi. Ularning qo‘lida bir-ikkita mayda-chuyda jarrohlik asboblari bor edi, xolos, zaruriyatdan ro‘zg‘orda ishlatiladigan oddiy pichoqdan ham foydalanishdi. Marhumning a’zoyi badani chappa-rastasiga chavaqlab tashlanganini nazardan soqit etsak, padar Amador yozgan hisobot risoladagiday edi, shu boisdanmi, tergovchi uni asqatib qolar, degan niyatda sud hujjatlariga tirkab qo‘ygan.

Sallohlar Santyago Nasarning tanasiga pichoq sanchaverib, g‘alvir qilib yuborishgandi, zarbalar-

dan yettitasi uning ayni jon joyiga tekkandi. Jigar ikki yeridan deyarli bo‘lib tashlangan. Oshqozonning to‘rt joyiga juda qattiq tig‘ urilgan, ulardan biri, hatto oshqozon bezini ajratib yuborgandi; yo‘g‘on ichak olti yeridan og‘ir yaralangandi, tig‘ ingichka ichakka dovur yetib borgandi. Orqadan urilgan yagona zarb pastdan uchinchi qovurg‘a orasidan o‘tib, tig‘ o‘ngdagi buyrakka sanchilgan edi. Qorinda ancha-muncha shilta xiltlar to‘plangandi; o‘sha chiqitlar ichidan Santyago Nasar to‘rt yasharligida yutib yuborgan tilla medalyonni topib olishdi. Ko‘krak qafasining ikki nuqtasi jarohatlangan: biri – o‘ng yonboshda, ikkinchisi qovurg‘a ostida edi, ayni shu zarb o‘pkaga tegib o‘tgandi; ikkinchisi chap qo‘ltiqda edi. Qo‘l panjalari va bilaklarining olti joyi tilingan edi. Vujudning ikki uzviga – o‘ng songa va qorin to‘qimasiga enlatib, urilgan pichoq ham ancha chuqur botgan ekan. O‘ng qo‘lning kafti bamisli chopilganday edi, sud hisobotida bu haqda: «Chormixga tortilgan Iso alayhissalomning vujudidagi tamg‘aga o‘xshaydi», – deb yozilgan. Miyasining vazni oddiy inglizning miyasidan 138 misqol og‘ir edi, shunga suyangan holda padar Amador sudga bergan hisobotida Santyago Nasar – miyasi butun yigit ekan u kelajakda donishmandlardan biri bo‘lardi, degan mulohazani bildirgan. Hisoboti so‘nggida u jigarning cho‘zilib ketganini, bu marhumning jigari shamollaganida oxirigacha davolanmagani oqibati ekanini ta’kidlagan. Suhbatlarimizdan birida kashish menga: «Baribir umri tugab, jigari qilqillab, haqqa yetishib qolgan ekan», – dedi. Doktor Dionisio Iguaran haqiqatan ham bir vaqtlar, Santyago Nasar sariq bo‘lgani-

da, uni muolaja etgandi, jasadni yorish ustida gap aylanganda, u odamlarning omiligidan ori kelib, nihoyatda g‘azablandi. «Bu padar shu qadar nodonki, to‘g‘risini aytsam, kashishlikdan bo‘lak ishga yaramaydi, – dedi doktor menga. – Odatda, issiq mintaqadagi o‘lkalarda tug‘ilgan insonlar jigari ispanlarnikidan kattaroq bo‘ladi, shu haqiqatni unga anglatishdan ko‘ra, o‘lish osondir». Padar Amadorning hisobotida ta’kidlanishicha, yettita yaraning har biri bittadan ajalni chaqirgan, qisqasi, u ko‘p qon ketishi oqibatida o‘lgan.

Azamatlar o‘shanda bizga butunlay bir boshqa jasadni qaytarib berishdi. Suyak kesishayotganda bosh chanog‘ining yarmini ko‘chirib yuborishgandi, marhumning mamot soya sololmagan mardona chehrasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketgandi. Bundan tashqari, kashish qorinni yorib, bir ko‘tarishda uning ichini qo‘porib yuborgan ekan, keyin ichak-chavoqni joylashtirishga ojizlik qilib, jaholatdan xunobi oshib, axiri duoyi fotiha bilan ularni yuvindi chelakka tashladi. Maktab derazasiga yopishib olib, oyna ko‘zlariga burnini tirab, jarrohlik jarayonini kuzatayotgan so‘nggi tomoshatalablarning ham darmoni qurigandi, padarning yordamchisi – tolibi tib ham hushini yo‘qotib ag‘darilib tushgandi; o‘z vaqtida ko‘p o‘liklarni ko‘rgan, qon to‘kib-qon kechgan polkovnik Aponte ham bundayin jasad yorishdan ko‘ngli ozib, arvohparastligi yetmaganday, go‘sht degan narsani ko‘rsa yo eshitsa, seskanadigan, hazar qiladigan bo‘lib qoldi. Ichi bo‘shagan jasadga latta-puttani so‘nmagan ohakka bulab-bulab tiqib, ustidan juvoldiz bilan chalakam-chattisi-

ga shunchaki chatib qo‘yilgan edi, biz uni shohi yopinchiqli yangi tobutga olayotganimizda tikilgan joylari so‘kilib, ichidan g‘ayri narsalar to‘kilib ketdi. «O‘sha holatda murda uzoq saqlanadi deb o‘ylagandim», – dedi menga padar Amador. Biroq ish boshqacha tus oldi: mayit aynib, sasib, hammani shunaqayam behuzur qildiki, nochorlikdan uni tongdayoq ko‘mib yubordik.

O‘sha seshanba tonggi tund, tiyra edi. O‘tgan kunduz-u kechada bir olam g‘avg‘o-yu savdoni ko‘rganim bois bir o‘zim uxlolmasligimni sezganimdanmi, oyog‘im Maryam Alexandrina Servantesnikiga tortaverdi, borsam, baxtim chopganini qarangki, eshik tambalanmagan ekan. Daraxtlarga osig‘liq qovoq qalpoqli chiroqlar yoniq, raqs maydonida gulxan gurullardi, katta-katta chelaklarga suv to‘ldirib, o‘tga qo‘yishgandi – zanji dilbarlar aza chekishib, bayramona kiyimlarini qoraga bo‘yashayotgan ekan. Maryam Alexandrina Servantes odatdagiday – xuddi to‘yib uxlab turganday xushkayf va shir-yalang‘och edi: u begonalar bo‘lmasa, xosxonasida onadan tug‘ilganday qiyofada yuraverardi. U o‘zining shohona karavotida turk jononlariday chordona qurgan, ro‘parasidagi patnisda turli noz-ne’matlar Bobil minorasiday baland bo‘lib uyulib turar edi: buzoq go‘shti do‘lmasi, dimlangan tovuq, qo‘y go‘shti, banan-u sabzavot – deyarli besh kishilik ovqat unga muntazir edi. Uning g‘ussa chekkanda tinmay ovqat yeydigan odati bor edi, nazarimda, men uni bunday qayg‘uli damlarda biror marta ham g‘amgin ko‘rmaganman. Kiyimlarimni yechmasdan ohista uning yoniga cho‘zildim, bir og‘iz ham gapirishmadik, men o‘zimcha aza tutib yig‘ladim. Yigirma yoshida Santyago Nasarning

yigit umrini xazon qilgan g‘addor falak dastidan faryod chekdim, ayniqsa, uning to‘rt pora qilib qadimiy usulda boshi, qo‘l-oyog‘ining kesib o‘ldirilishi alamimni haddan ziyod etdi. Tushimda bir ayol xonaga kirganday bo‘ldi, qo‘lidagi go‘dagi hadeb chapillatganicha makkajo‘xori so‘tasini g‘ajirdi, yarim chaynalgan donlar uning ko‘ylagiga to‘kilardi. Xotin menga: «G‘ajigani g‘ajigan, hech to‘yay demaydi», – dedi. Birdaniga ko‘ylagim tugmalarini kimdir shoshilib yechayotganini sezdim, shundoqqina tepamda hansirayotgan aysh-ishrat bandasining vahshiyona nafasini his qildim, ishvasi hushimni oldi, beixtiyor ishrat komiga cho‘ka boshladim. Biroq u nogahonda jimib qoldi, ohista yo‘taldi – go‘yo ovozi olis-olislardan eshitilganday bo‘ldi.

– Yotolmayman, – dedi u. – Sendanam o‘lik hidi kelyapti.

Faqat mendangina emas, balki butun tevarak-atrofdan Santyago Nasarning isi kelardi. Aka-uka Vikariolar ikkoviniyam shahar hokimi vaqtincha hibs etgandi, qamoqxonada yotgan yerlarida shu hidni tuyib, rosa qiynalishgan. «Sovun-sochiq bilan harchand ishqalamay, baribir hidini ketkazolmadim», – dedi menga Pedro Vikario. Egizaklar uch kun uxlasholmadi, ko‘zlari yumilgan zahoti aloq-chaloq tush ko‘raverishdi, tushlarida bari takror bo‘laverdi. O‘sha intihosiz kundagi holatini eslab, ancha keksayib qolgan Pedro Vikario menga: «Baribir ko‘zim ochilib ketaverdi», – dedi. Uning mana shu birgina iborasidan ular qamoqxonada uyqusizlik tufaili do‘zax azobini chekishganini angladim.

Hibsxona uzunasiga uch qadam, tuynugi panjaralangandi, axlat-tuvak, yuvinish uchun

bir ko‘za suv, tog‘ora, ikkita bo‘yra to‘shalgan tosh-taxta ham bor edi. Bu xona shaxsan polkovnik Apontening amriga binoan jihozlangandi, uning og‘iz ko‘pirtirishicha, dunyoda bundan ham yaxshiroq, insonparvarroq qamoqxonani topib bo‘lmas ekan. Ukam Luis Enrike shahar hokimining bu gaplarini juda to‘g‘ri deb, ma’qulladi, chunki u bir gal mashshoqlar bilan janjallashib qolib, shu yerga qamalganida polkovnik Aponte azbaroyi odamparvarligidan ukamning hisbxonaga bir zanji fohishani olib kirib yotishiga ruxsat bergan. Soat ertalabki sakkizda, mahalliy arablar tahdididan endi qutulganliklarini fahmlashgan sallohlar xuddi shuni eslab, biroz taskin topishgan. Ikkovlon ham zimmalaridagi og‘ir vazifani bajarganliklaridan ancha yengil tortib, mamnun bo‘lishgan. Endi ko‘ngillarini birgina narsa – o‘sha badbo‘y o‘lik hidi bezovta qilmoqda edi, xolos. Mahbuslar sovun-sochiq, ishqalagich, ko‘proq suv berishlarini so‘ragan, yuz-qo‘llaridagi qon yuqini obdan tozalashgan. Pedro Vikarioning istagiga ko‘ra, unga hapdori, ichini yumshatadigan dori, bavosiliga qo‘ygani toza doka berilgan, u hatto ertalabgacha ikki marta yozilib qaytgan. Biroq kun yoyilishi bilanoq uning azobi ortgandan ortib, o‘lik hidiniyam esidan chiqargan. Soat ikkilarda, ayni qiyomda Pedro Vikarioning sillasi qurib, bo‘yraga cho‘zilishgayam madori yetmagan, ammo oyoqda tik turishga ham holi qolmagandi – charchoq va og‘riq uni turgan joyida qulatgan. Chotidagi og‘riq bo‘ynigacha chiqqan, peshobi taqqa to‘xtagan, bundan vahimasi ortib, yo Rabbim, bir umr uxlay olmaydigan kasalga chalindimmi, deya o‘ylagan. U menga o‘sha

kunlarni xotirlab: «O‘n bir oy ko‘z yummadim», – dedi, avvaldan fe’l-atvorini bilganim uchun so‘ziga ishondim. O‘shanda boyaqishning tomog‘idan ovqat o‘tmay qolgandi. Pablo Vikario harqalay beriladigan yemaklardan oz-oz yutishga qodir edi, lekin chorak soatdan keyin qorni burab og‘rib, hojatxonaga chopardi. Soat oltida, Santyago Nasarning jasadi yorib-ko‘rib bo‘lingach, javobgarlar shahar hokimini chaqirtirishdi. Pablo Vikario ukasini zaharlashganiga amin edi. «Suv bo‘lib ketaverdim, – dedi menga Pablo Vikario. – Bu anavi turklarning[1] ishi, degan o‘y xayolimda charx uraverdi». Bu muddat mobaynida axlat chelak ikki marta to‘kib kelingan, bundan tashqari, soqchi Pablo Vikarioni olti marta dorug‘a hojatxonasiga olib borgan. Polkovnik Aponte uni aynan xalajoyda inqillab o‘tirgan alpozda uchratgan, tepasida soqchi miltiq ushlab turardi; javobgarning ichi sharillab ketayotganini ko‘rib, mahbuslarning zaharlanish borasidagi davolarida jon bor ekan, deb o‘ylagan u. Biroq sallohning faqat suv ichib, uyidan onasi Pura Vikario jo‘natgan nimayiki bor hammasini aralashtirib yeyaverganini eshitgach, bu fikridan qaytgan. Bandining nafsi buzuqligidan g‘ashi kelgan polkovnik Aponte ularni maxsus soqchilar Rioachadagi g‘aroyib qamoqxonaga olib ketmagunicha o‘z uyida, qattiq nazorat ostida saqlashni buyurgan.

Aka-uka Vikariolar dilidagi qo‘rquv ko‘chadagilar vahimasi bilan bir xil edi. Arablar o‘ch olishmaydi, deb hech kim kafolat berolmasdi, lekin ikki suiqasdchidan boshqa biror inson zahar haqida gapirgan ham, o‘ylagan ham emas-

[1] Kolumbiyada barcha arab qavmlarini turklar deb atashadi.

di. Xaloyiqning fikricha, arablar shom tushgan zahoti tuynukdan kerosin shisha otib qamoqdagi egizaklarni kamerasi bilan birga yondirib yuborishi lozim edi. Biroq bu shunchaki mahobat edi xolos.

Arablar jamoasining barchasi tinchlikparvar bo‘lib, ular asr avvalida Karib dengizi sohillaridagi uzoq-yaqin shahar-u qishloqlarga ko‘chib kelib, joylashib qolishgan va asosan bozorlarda rang-barang matolar, mayda-chuyda attorlik buyumlarini sotib kun kechirishardi. Bari ahil, mehnatkash edi, katoliklar mazhabiga e’tiqod etishardi. Arab jamoasidagilar faqat o‘z hamqavmlariga qiz berib-qiz olishar, yetishtirgan donlarini o‘zlari sotishar, hovlilarida qo‘y boqishar, bog‘chalarida xushbo‘y tog‘rayhon-u baqlajonlar o‘stirishar edi. Ularning birdan bir qusuri – qartavozlikka ruju qo‘yishgani edi, xolos. Ota-bobolar ona yurtlarida o‘rganishgani – arab tili shevasida so‘zlashishar, uni ikkinchi avlod ham buzmay saqlagan, ammo uchinchi avlod – nabiralar, bundan Santyago Nasar mustasno, ota-bobolarining arabcha kalomini eshitib, ularga ispancha javob qaytarishga odatlanishgan edi. Ana shu yuvosh arablarning birdan junbishga kelishiga va sallohlarning jinoyati vajidan bizdan o‘ch olishiga aql bovar qilmasdi. Shuningdek, vaqtida obro‘li, jangari odamlar yetishib chiqqan va ularning bir nechtasi qotillikda, mayxona-yu qovoqxonalarda mushtumzo‘rlikda nom qozongan, endilikda ancha popugi pasayib qolgan Plasida Linero urug‘larining qasos istashi ham imkondan xorijdagi bir hol bo‘lib, bu xususdayam hech kim xavotirga tushmasdi.

Uzunquloq gaplardan ko‘ngli g‘ashlangan polkovnik Aponte atrofdagi har bir arab xonado-

niga kirib, ular bilan so‘zlashib, bu gal endi to‘g‘ri xulosa chiqardi. U har bir ahli arabning ruhi cho‘kkanini va bag‘oyat g‘am chekayotganini, mehroblarida aza nishoni borligini ko‘plarining yerga o‘tirib, ko‘z yoshi to‘ka-to‘ka marhumning arvohini yodlab qayg‘urayotganini ko‘rdi, illo biror kimsaning xun olish niyatida ekanini payqamadi. Suiqasd xususidagi ertalabki shov-shuv-u dahshatli gap-so‘zlar alangasi ancha pasaygan, hatto qotillar ham, buyog‘iga janjal ko‘tarilsayam mushtlashuvdan nariga o‘tmaydi, deb o‘ylashardi. Bundan tashqari, yuz yoshlik kampirsho Suseme Abdul qizi egizaklarga achchiq ermon va yoki sachratqi bargi qaynatmasini ichirish kerakligini aytibdi, bu dorilarni ichgach, Pablo Vikarioning ich ketishi taqqa to‘xtadi va aksincha, bu Pedro Vikarioning bo‘shalishiga yordam berdi. So‘ngra Pedro Vikarioni mudroq bosdi, yurakburug‘idan qutulgan Pablo Vikario esa, joni orom-u osudalik topib, uch kundan so‘ng ilk bor ko‘zi ilindi. Shahar hokimi Purisima Vikarioni farzandlari bilan xayrlashishga ertalabki soat uchda hibsxonaga olib kirganida, ona o‘g‘illarini ana shu ahvolda ko‘rdi.

Polkovnik Apontening taklifiga ko‘ra, Vikariolar oilasi – hatto katta qizlari va ikkovining eri ham shaharni tark etishdi, hech kimga bildirmay jo‘nab qolishdi; biz esa, o‘sha kuni o‘larday charchagan, Santyago Nasarni dafn etgan, mutlaqo ko‘z yummagan edik. Shahar hokimining aytishicha, Vikariolar bu yerdagi g‘alvalar tinib, alamzadalar hovuridan tushmagunicha qaytmasligi lozim edi. Pura Vikario sharmandayi sharmisor qizining betidagi ko‘kargan dog‘-dug‘lar ko‘rinma-

sin, deb unga roʻmol oʻratib qoʻydi, soʻngra, soʻyilgan xushtoriga aza tutyapti, deb oʻylashmasin, deya xavotirlanib, qizining vujudini qizil, yaltiroq kiyimlarga burkab tashladi. Pura Vikario joʻnab ketishdan avval padar Amadorni yoʻqlab, undan oʻgʻillarini qamoqxonaga borib koʻrishini, tavba qildirishini oʻtingan, ammo Pedro Vikario bunga koʻnmagan, tavba qiladigan gunohlari yoʻqligiga birodarini ham inontirgan. Mahbuslar yolgʻiz qolishgan; Rioachadagi qamoqqa olib ketiladigan kuni sallohlar ancha oʻzlarini tutib, hushyor tortishgach, xotirjamlik bilan haq ekanliklarini taʼkidlashar, urugʻlarimiz taʼqibdan qoʻrqib kechasi joʻnashgan, biz bunday sharmisorlikdan or qilamiz, bizni kunduzi, ochiq-oydin olib ketishsin, deya talab etishar edi. Ularning otasi shu kunlarda qazo qildi. «Otaginam gʻam-gʻussadan kuyib oʻldi», – dedi menga Anxela Vikario. Birodarlar qamoqxonadan ozod boʻlishgach, Rioachada muqim yashab qolishdi, oila aʼzolari kun kechirayotgan Manauradan bu yer bir kunlik yoʻl edi. Pablo Vikario otasining doʻkonida zargarlik hunarini egallagandi, Rioachada shu ishning boshini tutib, anchagina oyoqqa turib oldi. Prudensiya Kotes unga tegish maqsadida shu yoqqa keldi. Pedro Vikarioning muhabbatda ham, kasb-korda ham omadi yurishmadi, oʻsha voqealardan uch yil oʻtgach, u yana harbiy xizmatga bordi, katta serjantlik unvoniga ham yetishdi; kunlarning birida uning soqchilar boʻlinmasi buzuq xotinlar haqidagi qoʻshiqni aytganicha, oʻrmon ichkarisiga kirib ketib qolib, birortasiyam qaytib chiqmadi

Xaloyiqning gap-soʻziga qaraganda, oʻsha mashʼum hodisaning birinchi va yagona qurboni

Bayyardo San Roman edi. Aitishlaricha, bu fojianing boshqa ishtirokchilari cheklariga ne tushgan – o‘shanga chidab berishdi, qismatlari nimaniki taqozo etsa, shuni amalga oshirishdi. Santyago Nasar sharmandalikning badali uchun xun to‘ladi, jonidan ayrildi, aka-uka Vikariolar chin yigit ekanliklarini isbotlashdi va singillari sha’nidagi dog‘ni yuvib tashlashdi. Bor-budidan mosuvo bo‘lgan odam birgina Bayyardo San Roman edi. Odamlar, «bechora Bayyardo», deya ko‘p yillar unga achinib yurishdi. O‘sha qonli ayyomdan so‘ng, oy tutilgan shanba oqshomiga qadar u biror inson zotining esiga kelmagan, Ksius shahar hokimiga tushida sotib yuborgan uyining tepasida bir yonarqush uchib yurganini, o‘sha qushni xotinining hissatalab arvohi bo‘lsa kerak, deb o‘ylaganini aytganida, polkovnik Aponte peshonasiga shapatilagan va birdan anavi sho‘rlikni xotirlagan:

– E, xomkalla! – deya xitob qilgan u. – Bechorani mutlaqo unutib qo‘yibman, qarang-a!

U soqchi mirshab bilan birgalikda balandlikdagi uyga yetib borgach, uy oldida tepasi ochiq turgan avtomobilni ko‘rgan, faqat xobxonaning chirog‘i yoniq bo‘lgan, ammo polkovnikning chorloviga hech kim javob bermagan. Axiri ikkovlon eshikni buzib ichkariga kirishgan, oy yorug‘ida barcha xonani birma-bir aylanib chiqishgan. Keyinchalik shahar hokimi menga: «Hammayoq suv quyganday jimjit, bino xuddi suv ostiga cho‘kkanday edi», – dedi. Pura Vikario seshanba tongotarida uni qay ahvolda ko‘rgan bo‘lsa, u aynan o‘sha alpozda – egnida rangin shim, shohi qo‘ylak, karavotda behush yotar edi, faqat poyabzaligina ko‘rinmasdi. Yerda bir necha bo‘shatil-

gan may shishasi, sal narida, ko‘rpa ustida yana allaqancha ochilmagani ko‘zga tashlanar edi, lekin oziq-ovqatdan asar ko‘rinmas, aqalli bir dona non ham yo‘q edi. Uni o‘sha holatida tekshirib ko‘rgan doktor Dionisio Iguaran keyinchalik menga: «Uning ichkilikdan zaharlanib o‘lishiga bir bahya qolgandi», – dedi. Biroq bir necha soatdan so‘ng Bayyardo San Roman hushiga qaytib, hammani og‘ziga kelgan so‘z bilan so‘kib, haydab solgan. «Men bilan hech kimning ishi bo‘lmasin, birorta it ostonamniyam hatlab o‘tmasin! Otam, o‘sha sasigan chol ham kelmasin!» – degan u.

Shahar hokimi darhol general Petronio San Romanga telegramma berib, uni ahvoldan boxabar etgan, o‘g‘lining oxirgi so‘zini ham aynan yozib yuborgan. Aftidan, general Petronio San Roman o‘g‘lining jahl ustida aytgan gaplarini to‘ppa-to‘g‘ri tushungan va shu sababdan, arazlaganmi, o‘zi yo‘qlab kelmay, xotinini, ikki qizini va ikkita olmaqoqi singillarini jo‘natgan. Zaifalar shaharchaga yukchi kemada yetib kelishdi, ular Bayyardo San Roman boshiga tushgan falokat va baxtsizlik bois motam tutib, sochlarini yoyib quloqlarigacha aza kiyimiga o‘ranib olishgandi. Qirg‘oqqa oyoq qo‘yishdan avval poyabzallarini yechib, yalang oyoq bo‘lishdi, to balandlikdagi uygacha jaziramada cho‘g‘day qizigan qumni bosib, tovonlari kuyib, sochlarini to‘zg‘itib, ovozlarining boricha bo‘zlab borishdi, Shunaqayam qiy-chuv solishdiki, ovozlari xuddi shodlikdan baqirib-chaqirayotgan odamning tovushiga o‘xshab ketdi. Esimda, o‘shanda Magdalena Oliverning uyidagi peshayvondan ularni kuzatib turarkanman, bundayin yolg‘ondakam qayg‘ukashlik, sharmandalik ustiga sharmandalik ekani xususida o‘ylagandim.

Polkovnik Lasaro Aponte ularni tepagacha kuzatib bordi; keyin darhol kelsin, deb chaqirilgani uchun doktor Dionisio Iguaran ham xachirni qichab, ularning ortidan balandlikka yo‘naldi. Kun qaytib, sal salqin tushgach, mahalliy hokimiyatning ikki xizmatchisi bir juft tayoqqa to‘r belanchakni bog‘lab, unda Bayyardo San Romanni osiltirib olib o‘tishdi; u boshigacha jun namat bilan o‘rab qo‘yilgan, orqasida bir necha zaifa uv-uv yig‘lab kelardi. Magdalena Oliver uni, o‘lipti, deb o‘yladi.

– Ey falak! – deya u qo‘llarini osmonga silkitib chinqirdi. – Bu yana qanday falokat, bu jabring ham bormidi?!

Bayyardo San Roman esa qip-qizil mast edi, u o‘likday qimirlamay yotar, ko‘rgan mardum uni jonsiz, deb o‘ylar edi: o‘ng qo‘li osilib tushib, yer chizib borardi. Onasi uning qo‘lini ko‘tarib, jun namat ostiga tiqib qo‘ygandi, tag‘in osilib tushdi, shu alpozda jarlik yonidan langargohgacha bo‘lgan yo‘lda yer chizib bordi. Ana shu chiziqlar uni ko‘rganlarning yodida so‘nggi xotira kabi saqlanib qoldi.

Yigitning urug‘lari uyga tegishmadi, hech narsa olishmadi. Ba’zan, dam olish kunlarida, o‘yinkulgi qilishib, balandlikdagi o‘sha uyga yo‘limiz tushardi, har safar xonadondagi tashlab ketilgan qimmatbaho narsalarning, jihozlarning kamayib borayotganini sezardik. Bir gal biz Anxela Vikario nikohning birinchi kechasi onasidan so‘rattirib yuborgan o‘sha jomadonchaga ko‘zimiz tushdi, ammo e’tiborga loyiq biror narsa topmadik. Unda ayollarning pardoz-andoziga asqatadigan oddiy matohlardan boshqa hech vaqo yo‘q edi, biroq bir

necha yil o‘tgach, Anxela Vikario menga jomadonchadagi narsalarning asl mohiyatini – erini aldab, o‘zini qiz ko‘rsatishga kerakli vositalar ekanini aytgandagina bildim. Jomadon – uning besh soatlik uyi bo‘lmish xonadondan qolgan yakka-yu yagona yodgor edi.

Ko‘p yillar o‘tib, mazkur hodisaga oid bir yuzaki tafsilotni aniqlash maqsadida bu yerga kelganimda ko‘rdimki, bir mahallar Yo‘landa de Ksiusning baxtxonasi bo‘lmish o‘sha uy qup-quruq, huvullagan motamxonaga aylangan edi. Polkovnik Lasaro Aponte har qancha zo‘r berib urinmasin, u yerdagi bor narsalar birin-ketin yuqolavergan; hatto bir paytlar eshikka sig‘maganidan uyga olib kirilib, Mompos ustalari tomonidan yig‘ib o‘rnatilgan olti ko‘zguli javonni ham azamatlar urib ketishibdi. Boshida beva Ksius bu ishlardan mamnun bo‘lib yurdi, narsalarni xotinimning arvohi tashib ketyapti, deya taskin topdi. Polkovnik uning soddaligidan kulib, rosa mazax qildi. Ammo bir gal kechasi uning kallasiga Yo‘landa de Ksiusning arvohi bilan gaplashib, haqiqatni bilib qo‘ya qolay, degan fikr keldi, polkovnikning so‘ziga qaraganda, narsalarni aynan o‘sha xotinning arvohi go‘riga tashib ketayotgan ekan. Uy nurab, yiqila boshladi. To‘ydagi avtomobil deraza yonida to‘kilib-sochilib, chirib yotardi, oxiri uning zanglagan tomi-yu tagligi qoldi, xolos. Mashina egasidan uzoq yillar davomida darak bo‘lmadi. Sud hujjatlari ichida uning arizasi bor ekan, lekin arizada shu qadar poyma-poy, uzuq-yuluq so‘zlar yozilganki, unga qarab turib, shunchaki rasmiyat uchun birovning qo‘li bilan yozdirilib-

di-da, deya o‘yladim. Rosa 23 yil o‘tgach, men bir martagina Bayyardo San Romanni uchratib, suhbatlashmoqqa urindim, ammo u meni tajovuzkorona qarshilab, o‘sha kunlar xususida, o‘zining u mash’um xunrezlikka aloqasi borasida biror og‘iz gap aytishni istamasligini bildirdi. Uning ota-onasidan ham bu borada biror ma’noli so‘z eshitmadim, chunonchi, o‘g‘illari ne balolar yondashibki, o‘sha gadoytopmas shaharchaga borib qolgani-yu, qay jafokor damlarda iblis yo‘liga kirib, o‘sha xotinga uylanish fikriga tushganiga hamon aqllari bovar etmas edi.

Xayriyatki, yaxshi kishilar menga Anxela Vikario haqida goh-goh xabar yetkazib turishdi, bu kaminani ajab bir zaifa siymosini yaratishga ilhomlantirdi. Rohiba singlim Guaxiraning shimolidagi butparastlarni nasroniylik mazhabiga kirishga tashviq qilib, o‘sha yerlarda bir muncha muddat kezib yurdi, u joydagi bir qishloqda Anxela Vikarioni uchratibdi, bir necha bor u bilan suhbatlashibdi, uning aytishicha, o‘sha makon Karib dengizi qirg‘og‘ida ekan, onasi Anxelani dengizga tiriklayin cho‘ktirib yubormoqchi ham bo‘lganmish. U har gal murid ovlashdan qaytganida, menga: «Tutingan singling salom dedi», – derdi. Singlim Margot ham birinchi yillari Anxela Vikarioni yo‘qlab turdi, uning so‘ziga qaraganda, ular hayhotday hovlisi bor bir uy sotib olishibdi, to‘rt tarafidan shabada esib turarmish. Suv toshqini-yu, hojatxonadan shamol surib keladigan badbo‘yni hisobga olmasa, ularning to‘lqin hovliga va yotoqxonaga uloqtirgan baliqlarni terishdan boshqa tashvishi yo‘q emish. O‘sha vaqt-

da Anxela Vnkarioni koʻrganlarning aytishicha, u judayam chevar boʻlib ketibdi, mol-obroʻ topib, shunga ovunib, rohat-farogʻatga yetishibdi.

Oʻshandan bir necha yil soʻng, u falokat haqidagi tasavvurim tiniqlashmay, bir toʻxtamga kelolmay, ammo bu baxtsizliklarning sabab-u oqibatlarini anglashga urinib, Guaxira qishloqlarida qomuslar, tibga oid kitoblar sotib yurgan kezlarim, ittifoqo hindular yashaydigan bir maskanga yoʻlim tushdi. Singillarim tavsiflashgan xuddi oʻsha dengiz boʻyidagi uyni koʻrdim: jazirama payti edi, chok mashinada nimanidir tikib oʻtirardi – uning azadorlik libosi, yuzidagi temir bandli koʻzoynagi, sochlarini qoplagan oq, sargʻish tolalar, bosh ustidagi osigʻliq qafasda tinimsiz sayrayotgan sariq saʼva – barchasi koʻz oldimda uni boshqacha bir siymo tarzida gavdalantirdi. Uning deraza koʻzlari ortida shu alpozda oʻtirganini koʻrib, nahotki shu oʻsha Anxela Vikario, deya hayron boʻldim, u tasavvurimda mutlaqo oʻzgacha edi, bechorani shu qadar notavon-u abgor holatda uchratib, koʻnglim buzildi, charxi oʻyinkor bir inson umrini shunchalik bemaʼni afsonaga aylantirib, oxiri xor-u haqir etganidan ich-ichimdan ezilib ketdim. Ha, bu xotin xuddi oʻsha Anxela Vikario edi, oradan 23 yil oʻtgandi.

U meni odatdagiday uzoq qarindoshiday kutib oldi, savollarimga oʻylab, jiddiy javob berdi. U kechgan yillar mobaynida salobat va aql-u idrok kasb etgandi, qarab turib, oʻsha Anxela Vikario shumi, deya tagʻin hayratlandim. Oʻz hayoti xususida biram oqilona xulosalar chiqaribdiki, buni eshitib, unga qoyil qoldim. Bir oz vaqt oʻtgach, u

menga avvalgiday qarimsiq emas, balki aksincha, xuddi xotirotim koʻzgusidagi kabi yosh, jozibador bir juvon singari koʻrina boshladi; yigirma yoshidagi – muhabbatsiz turmush qursang, oʻlmaysan, deya zoʻrlab erga berilgan davridagi mahzun holatlaridan asar ham qolmagan edi. Uning onasi, bir oyogʻi toʻrda, bir oyogʻi goʻrda boʻlgan bir kampir meni narigi dunyodan kelgan arvohday kutib oldi, oʻtmishni eslashni istamadi, bu asarni yozishda men uning onam bilan soʻzlashgandagi baʼzi uzuq-yuluq gaplariga, asosan yodimda qolgan esdaliklarga tayandim. Kampir koʻzi tirikligidayoq shumoyoq qizining oʻlimini Ollohdan yolvorib tilagan, ammo munojotini falakning kar qulogʻi hech tinglamagan, qizi esa, oʻsha manfur voqealarni eshitgan quloqqa uyalmasdan, oqizmay-tomizmay aytib, bemalol yashab yuravergan. Biroq shu muhim sir sirligicha qolgan – u fojianing asl sababchisi kim, yaʼni, uni kim, qachon, qayerda yoʻldan urgani xususida lom-mim demagan. Santyago Nasarning oʻsha zoniy ekaniga esa hech kim ishonmasdi.

Zotan, Santyago Nasar bilan Anxela Vikario ikki olam edi. Ikkovining birga yurgani yoki xilvatda birga turganini hech zot koʻrmagan. Santyago Nasar juda nazari baland yigitlardan edi, tabiiyki, unga qiyo ham boqmagan. Bir gal shu qiz haqida gap ketganda, aniq esimda, u: «Sening anavi qarindoshing qip-qizil tentak», – degan edi. Santyago Nasar qizlar borasida dovi yurishgan yigit sanalardi, qurdoshlari uni makiyonlarni qiyratadigan qirgʻiy deyishardi. Otasiga oʻxshab u ham togʻma-togʻ yolgʻiz kezib yurar, biror daraxt shoxida osilib pishib turgan mevani – shu deparada

biror ko‘zga ilinarli qizni ko‘rdi deguncha o‘ylab-netib o‘tirmay, hech kimga bilintirmay shartta uzardi-ketardi; ammo shaharliklarga uning ati-gi ikkita jazmani borligi ayon edi, xolos: Flora Migel bilan don olishib yurishi eski gap edi; o‘n to‘rt oydirki, Maryam Alexandrina Servantesning domiga tushib, yana ishq-u junun ko‘chasiga kirganiyam xaloyiqqa ma’lum edi. Ko‘pchilikning o‘ylashicha, aslida Anxela Vikario boshqa birovni sevgan va o‘sha noma’lum bilan ayshini surib yurgan, nozik payt kelib qolganda esa, dabdu-rustdan Santyago Nasarning ismini tilga olgan, akalarim unga qo‘l ko‘tarolmaydi, deya xayolidan kechirgan va suvdan quruq chiqmoqchi bo‘lgan. Ikkinchi daf’a uni yo‘qlab borganimda, men ham xuddi shu fikrni ta’kidlab, dalil-u asoslarni tax-lab tashladim, xotinning o‘z tilidan haqiqatni eshitishni istadim, biroq u bir zumga nigohini chokdan ko‘tarib, menga tikdi-da:

– Ko‘pam kavlashtiraverma, qarindosh, – dedi. – O‘sha edi.

So‘ng u menga qolgan hamma gapni, jumladan, nikohning ilk kechasida nimalar bo‘lganigacha aytib berdi. Shum dugonalarining unga: eringni rosa ichirib, g‘irt mast qilib qo‘ygin yoki o‘zingni uyatchanlikka solib chiroqni o‘chirishga majbur etgin, eng muhimi, badaningni achchiqtosh bi-lan yuv, ertasiga ertalab choyshabingni hovliga opchiqib yoyishganda, qip-qizil bo‘lib ko‘rinadi, qizligingni ana shu belgilaydi, deya o‘rgatishgani-gacha yashirmay aytdi. Ammo Anxelaning masla-hatgo‘ylari ikki narsani hisobga olishmagandi: Bayyardo San Roman ichkilik bobida pishib ket-gandi, uncha-muncha mayni ko‘rdim demasdi;

zohiran sodda-yu go‘l ko‘rinsa-da, xurofog ta’siridanmi botinan toza, begunoh, yosh boladay ruhi pok edi. «Dugonalarim o‘rgatgan narsalarning birortasiniyam qilmadim, – dedi menga Anxela Vikario. – Bu haqda o‘ylaganim sari bunchalik tubanlikka bormaslik lozimligini, bu ish g‘irt insofsizlik ekanligini angladim, axir u bechorada nima gunoh, – badbaxtning boshiga shundog‘am balo tog‘i ag‘darilgani, menday qizga uylanish savdosi tushganining o‘zi katta fojia-ku, deb o‘yladim». Qisqasi, u hech qanaqa qiliq ko‘rsatmay, ixtiyorini eriga topshirgan, u chirog‘i yoniq yotoqxonada uning kiyimlarini bir-bir yechgan, allaqachon hayo-yu iffat pardasi ko‘tarilgan Anxela zarracha qo‘rqmagan, zotan, g‘isht qolipdan ko‘chgan, qo‘rqishga hojat qolmagan edi. «Hammasi oddiygina, osongina bo‘lib o‘tdi-ketdi, – dedi u menga, – to‘g‘risi, o‘limimgayam rozi edim».

U ich-etini yeyayotgan alamni berkitish niyatida boshidan kechgan azob-u baxtsizliklarni tortinmasdan, batafsil bayon qildi. Bayyardo San Roman uni onasinikiga olib kelib tashlab ketgach, o‘sha soniyadan e’tiboran u juvonning dil uyiga kirib mangulik makon qurgan – bu gaplarni Anxela Vikarioni o‘z og‘zidan eshitib, hayron qoldim, bunday bo‘lishi xayolimgayam kelmagandi. O‘shanda juvonning yuragiga ajal o‘qi sanchilganday bo‘lgan. «Onam meni o‘yib-chimdilab ura boshlaganda, birdan uni o‘yladim», – dedi u menga. Onasi o‘zini bechora yigitni badbaxt qilgani uchun kaltaklayotganiga aqli yetgach, og‘riqni his etmay qo‘ygan. Oshxonadagi divanda o‘pkasini bosolmay, xiqillab yotarkan, yana Bayyardo San Roman to‘g‘risida o‘ylagan va o‘z-o‘zidan

hayratga tushgan. «Men o‘shanda badanim og‘riyotganidan yoki bo‘lib o‘tgan sharmandalikdan yig‘lamayotgandim, – dedi u menga. – Anavi bechorani o‘ylab yig‘layotgandim». Onasi uning yuziga tomizg‘i doridan surayotganda ham juvon uni o‘ylab sitam chekayotgan edi, keyin ko‘cha tarafdan odamlarning baqiriq-chaqirig‘i, jomning haybatli jarangi eshitildi, shu payt onasi oshxonaga kirdi va unga, endi bo‘lar ish bo‘ldi, uxlab, sal o‘zingga kelib ol, dedi.

U uzoq vaqt, garchi zarracha umid bo‘lmasayam, Bayyardo San Romanni xotirlab, uni ko‘rishni orzu qilib yurdi. Bir kuni onasining ko‘zi og‘rib, uni Rioachdagi kasalxonaga olib borishdi, yo‘lda «Bandar mehmonxonasi»ga kirishdi, mehmonxona xo‘jayini ularga tanish edi. Pura Vikario bir stakan suv so‘radi. U qizga orqasini o‘girib suv icharkan, hashamatli xona devoridagi sanoqsiz toshoynalarga qarab turgan Anxela Vikario kutilmaganda necha yillarki xayol ko‘zgusida asrab, termilib yurgan aziz odamining aksini oynada ko‘rib qoldi. Nafasini yutib, sekingina qayrilib, o‘sha tomonga boqdi, u juvonni sezmagan holda uning yonidan o‘tib, mehmonxonadan chiqib ketdi. U ko‘ngil oynasi chil-chil sinib, onasi yoqqa mahzun ko‘z soldi. Pura Vikario suvini ichib bo‘lib, lablarini yengi bilan artarkan, qiziga mayingina jilmaydi, yangi ko‘zoynagi yaltilladi. Ana shunda Anxela Vikario onasining asil qiyofasini hayotida birinchi marta yurak-yuragidan his etdi: qarshisida, mayxona peshtaxtasi yonida, butun umrini baxtsizliklar, turmush tashvishlari yeb bitirgan tolesiz ayol turardi. U bu holatdan shu qadar mutaassir bo‘ldiki, qaytishda uyiga

yetguncha ovozining boricha qo‘shiq aytib keldi, so‘ngra o‘zini ko‘rpaga otdi-da, uch kun o‘rnidan turmay yig‘ladi.

U go‘yo qaytadan tug‘ilgandi. «Unga bo‘lgan ishqim alangalangandan alangalanardi, aqlimdan ayrilib, telbaga aylandim», – dedi u menga. U ko‘zini yumishi bilanoq Bayyardo San Romanni ko‘rardi. Dengiz shovqini uning ovoziday, nafasiday tuyilardi. Kechalari esa, u xuddi yonida yotganday, badanining haroratini his etar va shu zahoti o‘zi ham qizib, yonib, to‘lg‘ona-to‘lg‘ona uyg‘onib ketardi. Orom-u osudaligini yo‘qotgan Anxela Vikario bir haftaga arang chidadi, oxiri sabri tugab, Bayyardo San Romanga birinchi maktubini yozdi. Bu qisqagina xatda juvon uni mehmonxonadan chiqib ketayotganda ko‘rganini, agarda u ham uni ilg‘ab, qaraganida, bu holdan bag‘oyat quvonajagini hayo bilan ifodalagan edi. U nomaning javobini toqati toq bo‘lib kutdi. Ikki oy o‘tgach, qanoatdan dil o‘ti ustun chiqib, ikkinchi xatini yozdi, u ham avvalgisiday muxtasar, bahayo bitilgandi, juvon yigitning e’tiborsizligidan gina qilgan edi, xolos. Olti oy keyin unga yana oltita maktub yubordi, hammasi javobsiz, sassiz-sadosiz ketdi, biroq u Bayyardo San Roman xatlarni olayotganiga ishongani uchun bundan og‘rinmadi, aksincha, ko‘nglini to‘q tutdi.

Anxela Vikario o‘z taqdirining xo‘jayini o‘zi ekanini umrida birinchi marta his etdi va muhabbat hamda nafrat bir-biriga bog‘liq tuyg‘uligini anglab yetdi. Juvon unga qanchalik ko‘p xat yo‘llasa, yuragidagi ishq o‘ti shunchalik ortar, alamzada dilidagi badxohlik battar alangalanar edi. «Onamga ko‘zim tushdi deguncha ichim

yonaverardi, dedi u menga, – chunki onamga qarab turib, har gal uni eslardim». U eri tashlab ketgan xotin bo‘lsa-da, hayoti avvalgiday – qizligidagiday oddiy bir tarzda davom etardi: u dugonalari bilan birga chok tikardi; oldinlari esa u eski o‘rtoqlari bilan kiyimlardan lolalar, qog‘oz parchalaridan qushchalar yasar edi. Onasi uxlagani xonasiga kirib ketgach, Anxela Vikario eshikni berkitib, ertalabgacha o‘zining bedaraklikka mustahiq xatlarini yozardi. U idrok-u irodasini yana qo‘lga oldi, yana – faqat Bayyardo San Roman bois – qizligiga qaytganday bo‘ldi va o‘zidan o‘zga qudratni, ehtiros-u xayolotidan boshqa jo-bir-u jabrkorni sezmay qo‘ydi.

Umrining yarmi xazonga yuz tutguncha, u har hafta bittadan xat yozib yurdi. «Ba’zida nima deb yozishniyam bilmasdim, dedi u menga kulgidan zo‘rg‘a o‘zini tiyib, – ammo u xatlarimni olayotganini aniq bilganimdan boshqa hech narsani umid qilmasdim». Boshida juvon unashilgan qayliqlarnikiday qisqa-qisqa maktublar bitdi, keyinroq eri uzoq safardagi tashna kelinchakday ishq-u ehtiros, va’da-yu noz-istig‘noga to‘la intizorona nomalar jo‘natdi, nihoyat, oxirgi paytlarda mahrami tashlab ketgan bechora bevaning erini qaytarish g‘arazida qiladigan yolg‘ondakam hasratlari-yu, kasalman, o‘laman kabi oh-vohlaridan dudlangan maktublar yo‘lladi. Bir safar tunda odatdagiday noma bitib o‘tirardi, nimadandir azbaroyi sevinganidan siyohni varaqqa to‘kib yubordi, uni yirtib tashlash o‘rniga, xatni: «Ishqimning guvohi sifatida senga qog‘ozga duv-duv to‘kilgan ko‘z yoshlarimniyam yuboryapman», – lekin chuchmal so‘zlar bilan tugalladi. Goho yig‘lab-

yig‘lab charchaganda, qilayotgan ishlarining tentaklik ekanini o‘ylab, o‘zini o‘zi mazaxlab kulardi. Faqat bir narsa – hammasining bahridan o‘tish zarurligi uning xayoliga kelmasdi. Bayyardo San Roman o‘zini mutlaqo beparvo, bepisand tutardi, juvonning xat yozishi qorong‘iga kesak otganday behuda bir ish edi.

O‘shandan o‘n yil keyin – fojialar unutilib, hamma gaplar esdan chiqayozganda – noxush bir tongda Anxela Vikario seskanib uyg‘onib ketdi: Bayyardo San Roman uning yonida yotganday tuyilib, nafasi tiqildi. Shu kuni uning dardi-dunyosi ostin-ustin bo‘lib, talvasaga tushganicha yigirma varaqli xat yozib, unda o‘sha mash’um kechadan beri o‘tgan davr mobaynida ko‘nglida to‘plangan bor hasratini to‘kib soldi, mog‘or bosib yotgan haqiqatlarni uyat-u andishani yig‘ishtirib qo‘yib, bir-bir bayon etdi. Bag‘rini u bir umrga poralab ketganini, jism-u jonidagi yaralar abadiy bemalham qolajagini, uning tili zaharligi-yu, qaddi-qomatida ehtiroslar quyoshi mujassamlanganini ochiq yozdi. Juvonning har jumada keladigan chevar dugonasi bor edi. Xatni o‘shandan berib yubordi; Anxela Vikario, bu maktub telba ruhimdagi so‘nggi chayqalish bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandi, biroq u shundan keyin ham ne haqda va kimga yozayotganini anglamagan holda tag‘in o‘n yetti yil davomida muttasil noma bitdi.

Avgustning charog‘on kunlaridan birida, choshgohda Anxela Vikario dugonalari davrasida chok tikib o‘tirarkan, eshik yoniga kimningdir kelganini payqadi. U qayrilib qaramasa ham, kim kelganini – bu o‘sha ekanini sezgandi. «U semiribdi, sochi to‘kila boshlabdi, ko‘zi xiralashib, ko‘zoynak

taqibdi, – dedi juvon menga. – Ammo bu ayni o‘sha edi, quribgina ketsin! O‘sha!» Anxela Vikario o‘ziyam unga o‘xshab qarib qolganini, shubhasiz, uyam ko‘radi, deya o‘ylab, birdan ko‘nglini hadik qoplagan, uni sevganimchalik meni sevolmaydi, degan ishtibohga borib, yana bag‘ri-dili o‘rtangan. Egnidagi ko‘ylagi terdan ho‘l bo‘lgandi – uni bozorda birinchi marta shunday holatda ko‘rgandi belidagi qayishi ham qo‘lidagi kumush bezakli charm xaltasi ham o‘sha ilk uchrashuvdagiday edi, faqat charm xalta anchagina unniqqan edi. Bayyardo San Roman chevarlarning hayratdan og‘izlari lang ochilib, hang-mang bo‘lib qolganlariga e’tibor bermay, shitob yurib kelib, xaltasini chok mashina ustiga qo‘ygan.

– Ha, durust, durust, – degan u, – mana, men keldim.

Uning ikkita jomadoni bo‘lib, biriga kiyim-kechak solingan, boshqasiga Anxela Vikarioning ikki mingga yaqin xati taxlangan ekan. Maktublar sanama-sana batartib dastalangan, shohi bog‘ichlar bilan bog‘langan, birortasiyam ochilmagan ekan.

Ko‘p yillar mobaynida biz faqat o‘sha voqea xususida gapirib yurdik. O‘sha mash’um kungacha har birimiz o‘zimizcha yashab, peshonamizdagini ko‘rib kelayotgandik, hammaning ko‘ngliga g‘ulgula solgan u hodisa esa fikr-zikrimizni o‘z komiga tortdi, go‘yo har yoqda sochilib oqayotgan umrimiz irmoqchalari kutilmaganda o‘sha voqea girdobiga quyildi. Xo‘rozlar qichqirgan zahoti, saharmardonlab barcha baravariga uyqudan uyg‘ongan, xayolida tasodifning bir zarbi tufay-

li ochilajak fojia eshigini va uning ortidagi qator badbaxtliklarni tasavvur etardi; ommaning og‘zida shu gap edi, ammo biror inson zotining dilida sirni ochib, qurbonni suiqasddan ogohlantirish istagi yo‘q edi, inchunun, hech bir kishi falokat ro‘y bergan, unga nechog‘lik aloqador bo‘lmog‘i va keyin taqdiri qanday kechajagi bobida biror aniq fikrga ega emasdi.

Bu holning tub sababiyatini ko‘pchilik anglay olmasdi, albatta. Keynichalik jarroh sifatida nom qozongan Kristo Bedoyya ham o‘shanda nechun dastlabki fikridan qaytgani-yu, nechun o‘z uyiga borib yotish va ota-onasini suiqasddan xabardor qilish o‘rniga buvasinikiga kirib, ikki soatcha qariyalar bilan valaqlashib, yepiskopning kelishini kutib o‘tirganiga – bu holning asl boisiga hamon tushunolmaydi. Biroq suiqasddan voqiflar ham qasoskorlarga xalaqit berib, niyatini chippakka chiqarishi mumkin bir paytda hech bir ish qilmagan, bu iffat-u nomus masalasi, unga aloqasizlarning aralashuvi nojoizdir, degan aqidaga borib, shu bilan o‘zlarini aldab-ovutib qo‘ya qolishgan. «Nomus – muhabbat demak», – degandi o‘shanda onam menga. Ortesiya Baute sallohlarning ikki xunrez pichog‘ini qonga botmasdan avval ko‘rgandi – shu boshiga bitgan balo bo‘ldi, u o‘ngidayam, tushidayam qonli pichoqlarni ko‘raverib, azob-u o‘kinchdan savdoyiga aylandi, bir kuni shir-yalang‘och holida o‘zini tosh yotqizilgan ko‘chaga otib, yer yuzi bilan xayrlashdi. Santyago Nasarning qaylig‘i Flora Migel g‘addor falakning bu ko‘rgiliklariga achchiqma-achchiq bir chegarachi harbiy yigit bilan qochib ketdi, da’yus eri uni oxir-oqibatda xor qilib, Vichadadagi kauchuk

o‘radigan barzangilarga sotib yurib, rasvoyi jahon qildi. Nasarlarning uch avlodiga enagalik qilgan doya Aura Vilyeros esa, Santyago Nasarning so‘yilganini eshitgani hamon vahimadan qovug‘i tortishib qoldi va o‘la-o‘lguncha badaniga suqilgan rezina ichakdan peshob qilib o‘tdi. Klotilde Armentaning oliyjanob eri umrining vafosi bois 86 yoshga kirgan don Roxelio de la Florning uyida, eshigi yopiq narigi xonada Santyago Nasarni to‘rt pora etilayotganini ko‘raman, deya o‘rnidan so‘nggi marta qo‘zg‘aldi-yu, do‘zaxiy manzaradan qayta o‘ziga kelolmay, olamdan o‘tdi. O‘g‘li kiradigan eshikni berkitib qo‘ygan Plasida Linero vaqt o‘tgan sayin gunohini unutib yubordi. Menga u o‘zini oqlab: «Divina Flor, o‘g‘ling uyga kirib ketdi, degani uchun eshikni zanjirlab qo‘ygandim. Ammo u yolg‘on aytgan ekan». Biroq Plasida Linero tushga kiruvchi daraxtning xayrli ekani bilan qushlarning yomonlik darakchisi ekanini almashtirib yuborgani uchun bir umr o‘zini kechirolmadi, shuni o‘ylayverib, zamonasining go‘r yo‘liga yetaklovchi dorisi – zanjabil donasini chaynashga duchor bo‘ldi.

Tergovchi falokatdan o‘n ikki kun keyin keldi, shahar ahlining yoppasiga talvasaga tushganini, tartibsizlik qo‘pganini ko‘rib, boshi qotdi. U shaharning yog‘ochdan qurilgan bosh mahkamasidagi isliqi xonada chelakda qaynatilgan qahvaga shakarqamish sharobidan qo‘shib ichib o‘tirarkan, to‘s-to‘polon va jazirama kun tufayli ko‘z oldidan ketmayotgan arabiy manzarani unutishni, orom olishni istar edi. Mahkama yonida olomon pashshaday g‘ujg‘on o‘ynar, o‘zining bu falokatga nechog‘lik daxldorligini, nimalarni bilishini

aytishni istagan izzatparast dovdir odamlar shu qadar ko‘p ediki, ular so‘ramasdan ham eshikdan yopirilib kirishga tirishar, shovqin solishar edi; tergovchi bevosh xaloyiqdan muhofaza etsin uchun madadkor askarlarni chaqirtirdi. U yaqindagina huquqshunoslik bo‘limini tugatgan, egnidagi huquqshunos talabalarning qora movut kostyumi, yengida bitiruvchilarning halqasimon belgisi ham bor edi; uning yurish-turishidan endi yo‘lga kirgan adliya xodimining faxr-shiddati, g‘urur-u viqori yog‘ilib turardi. Ammo u hech bir e’tiborga loyiq ish ko‘rsatmadi, nom-nasabi noma’lumligicha qoldi. Uning qanday odamligi xususidagi biz bilgan gaplar u yozgan, Rioachadagi Adolat saroyida saqlanayotgan, men yigirma yil so‘ng o‘qib-o‘rganganim sud hujjatlari asosida tug‘ilgan mulohazalardir. Asralayotgan hujjatlar judayam betartib ahvolda edi, o‘zimga kerakli manbalarni allaqancha kishining ko‘magi bilan arang-arang topdim; mustamlaka zamonidan meros bu binoda qachondir ikki kecha-yu kunduz Frensis Dreykning[1] qarorgohi bo‘lgan, endilikda bu yerdagi xonalarda tog‘-tog‘ qog‘oz uyulib yotardi. Dengiz to‘lqinlari pastki qavatlarni bosgan, dasta-dasta hujjatlar kimsasiz bo‘lmalar bo‘ylab suzar edi. Ana shu voqeanomalar koniga aylangan ko‘lda o‘zim ham to‘pig‘imgacha suvga botib, juda ko‘p azob chekdim, besh yillik axtarishlarim natijasida, nihoyat, o‘n nafar tergovchi yozgan besh yuz sahifali sud hujjatining dengiz

[1] Frensis Dreyk (taxminan 1515 – 1595-y.) ingliz dengizchisi, qaroqchi. Bir necha bor hozirgi Lotin Amerikasi qirg‘oqlariga suzib o‘tgan, ispanlarning kemalari va mulklarini talagan, qulfurushlik qilgan.

suvida sho‘rlagan uch yuz-u yigirma ikki varag‘ini topdim.

Tergovchining ismini biror joyda uchratmadim, yozuvidan o‘qib anglashimcha, u ashaddiy adabiyot jinnisi ekan. Shubhasiz, u ispanlarning, lotinlarning qator salaf adiblari ijodini, ayniqsa, o‘sha davrda o‘qish rasm bo‘lgan Nitsshe asarlarini yaxshigina o‘rgangan ekan. Sahifalar hoshiyasidagi belgilar, izohlar – siyohning rangidan qat’i nazar – xuddi qon bilan bitilganga o‘xshardi. Tergovchi zimmasiga yuklangan ishdan shu qadar dovdirab qolganki, voqea, holatlar sharhida kasb-koriga mutlaqo zid ravishda tez-tez lirik chekinishlarga – ko‘nglidan kechgan mulohazalarga yo‘l qo‘ygan. Ayniqsa, taqdir taqozosi yuzasidan ro‘y bergan tasodiflar shunchalik ko‘p va chalkash ediki, hatto adabiyotda ham ifodalash amri mahol bo‘lgan bunday qotillikning amalga oshganiga – suiqasddan shuncha olomon xabardorligiga qaramay, bir odam o‘lib ketaverganiga hecham aqli bovar etmas edi. Biroq u ko‘p sermashaqqat izlanishlar oqibatida, mayda-chuyda tafsilotlargacha aniqlab, Santyago Nasar – fojianing bosh sababchisi, degan xulosaga kelgandiki, bu fikri unga hech tinchlik bermay qo‘ygandi. Anxela Vikarioning dugonalari – o‘sha aldov ishtirokchilari ham necha yillar davomida u to‘ydan oldin ularga o‘z sirini ochganini, ammo zinokorning nomini bekitganini aytib yurishdi. Tergovchiga bergan javoblarida esa bari bir so‘zni takrorlashgan: «U bizni mo‘jizadan voqif etdi, lekin mo‘jizakorini sir tutdi». Anxela Vikario ham dugonalariga o‘xshab bir gapni chaynashdan nariga o‘tmagan. Tergovchi o‘ziga xos quvlik bilan

marhum Santyago Nasarning kimligini so‘raganida, u kiprik qoqmasdan:

– U mening ko‘z ochib ko‘rganim edi, – degan.

Bu ishora shundayligicha – yigit uning ko‘zini qachon, qayerda, qay holatda ochganini tafsil-u isbotlar bilan ko‘rsatilmay yozib qo‘yilgan, xolos. Bor-yo‘g‘i uch kunga cho‘zilgan sud jarayonida oqlovchilar mahkamasi raisi bu aybning asossiz ekanini, isbotlanmaganini ko‘p bor ta’kidlagan. Tergovchi Santyago Nasarning gunohini dalillovchi jinoyat belgilari nihoyatda kamligidan shunchalik o‘zini yo‘qotib, umidsizlikka tushganki, aloha butun qilgan ishi puchday tuyilgan. Shuning ta’siridami, u 416-sahifa hoshiyasiga qizil siyohda shularni yozgan: «Meni ishontiring – aqidaparast eting, dunyoni o‘zgartirib yuboraman». Bu tashbehli, purma’no ibora ostiga u umidsizligi va nochorligi ifodasi o‘laroq, o‘sha qonrang siyohda yurakka sanchilgan kamon o‘qini tasvirlagan. Santyago Nasarning barcha do‘stlari kabi u ham qurbonning o‘limi oldidagi holatlari bechoraholligining birdan bir ishonchli asosi, deya hisoblagan.

Darhaqiqat, Santyago Nasar umrining o‘sha qazo tonggida, garchand unga yopishtirilayotgan ayb yengil emasligini, bir kor-hol yuz berishini anglasa ham, ayni biror xavfni sezmagan. U, o‘zi yashayotgan muhitning naqadar riyokorligi-yu, zamondoshlarining nechog‘lik ikkiyuzlamachiligini yaxshi tushungan odam, soddadil sallohlar o‘z oilasi boshiga tushgan bu musibat, bu dog‘ tufayli har qanaqa bema’nilikka beixtiyor qo‘l ura olishiga aqli yetishi lozim edi. Bayyardo San Romanning qanday yigitligini hech kim bilmasdi,

lekin uning ham barcha oqsuyaklar kabi kiborona xatti-harakati, fe'l-atvori zaminidagi poydevor – xurofiy aqidalardan iborat ekanini Santyago Nasar bilgan, albatta. Shunday qilib, uning ongli loqaydligi o'z joniga zomin bo'lgan. Bundan tashqari, eng so'nggi daqiqalarda, aka-uka Vikariolar uni o'ldiramiz, deb kutib turishganini aytishganida, ko'pchilik ta'kidlaganiday, o'zini yo'qotib qo'ymagan, balki begunoh odam bunday damda nechog'lik dovdirab qolsa, o'shanday bir sarosimaga tushgan, xolos.

Menimcha, Santyago Nasar o'zining nega o'layotganini anglamagan holda jon uzgan. U singlim Margotga biznikiga nonushta qilgani kirajagini aytgan, so'ngra Kristo Bedoyya bilan qo'ltiqlashganicha qirg'oq bo'ylab yurib ketishgan, ikkovlon shu qadar xotirjam, beparvo ko'rinishganki, atrofdagilar vahimali shov-shuvni unutib, hammasi bekor gap ekan-da, degan xayolga borishgan. «Ularni mamnun, beg'am qiyofada ko'rib, Tangriga shukrona aytdim va xayriyat-ey, falokatlari aripti, deya ko'nglimdan kechirdim», – dedi menga Meme Loaisa. Tabiiyki, Santyago Nasarni hammayam birday yaxshi ko'ravermas edi. Elektrostansiya xo'jayini Polo Kardilonning aytishicha, Santyago Nasarning beparvoligi uning begunohligidan emas, balki surbetligidan dalolat berarmish. U men bilan suhbatlashganida esa: «Yigitni pul qutirtirvorgandi, pul bilan ajalni sotib olaman, deb o'ylardi», – dedi yozg'irib. Uning xotini Fausta Lopes: «O'zi hamma turklar ham shunaqa», – deya erining so'zini ma'qulladi. Indalesio Pardo Klotilde Armentaning do'koniga kirganda, sallohlar unga,

yepiskop hazrat joʻnab ketgan zahoti Santyago Nasarniyam narigi dunyoga joʻnatamiz, deyishgan. U ham boshqa odamlarday birodarlarning soʻziga eʼtibor bermagan, uyqudan qolgan yigitchalar aljirashyaiti-da, deb oʻylagan, ammo Klotilde Armenta ularning gapi rost ekanligini taʼkidlab, undan Santyago Nasarni ogohlantirishini oʻtingan.

– Bekorga ogʻzingni charchatma, – degan shunda Pedro Vikario, – baribir uni soʻyamiz, oʻlganlar qatoriga qoʻshib qoʻyaver.

Bu ochiqdan ochiq, surbetlarcha dagʻdagʻa edi. Birodarlar Indalesio Pardoning Santyago Nasarga doʻstligini, bu soʻzlar shak-shubhasiz uning jigʻiga tegishini bilishardi, aftidan, ana endi u bor gapni doʻstiga borib aytadi, keyin bizni yarashtiradi, sharmandalikdan ham qutulamiz, qoʻlimizni ham qonga boʻyamaymiz, deb oʻylashgan. Indalesio Pardo oldiniga Santyago Nasarni suiqasddan boxabar etmoqchi boʻlgan, biroq uning Kristo Bedoyya bilan qoʻltiqlashgancha bandargohdan kelayotgan xaloyiq ichida beparvo borayotganini koʻrib, fikridan qaytgan. «Oʻshanda negadir hovurimdan tushib, bari puch gap ekan-ku, deb oʻylab, indamadim», – dedi u menga. U ikkala oʻrtoqning yelkasiga qoqib, mamnunona jilmayib qoʻygan. Ular esa, azbaroyi toʻyning sarf-xarajatlarini hisoblash bilan band boʻlganlaridan, unga eʼtibor ham bermay, yoʻlda davom etishgan.

Olomon safida ikkovlon ham maydon tomon yoʻl olishgan. Odamlar toʻdasi juda zich boʻlgan, lekin Eskolastika Sisnerosga ikkala doʻst bemalol, hech qiynalmasdan odim tashlayotganday hamma Santyago Nasarning oʻlimga ketayotganini bilganidan unga teginmasdan, ular atrofida

bo‘shliq paydo etayotganday tuyilgan. Kristo Bedoyya ham o‘sha soniyalarni xotirlarkan, xaloyiq ikkovlonga g‘alati nazar bilan qaraganini esladi. «Xuddi falokat peshonamizga yozib qo‘yilganday rosa baqrayishgandi», – dedi u menga. O‘shanda Sora Noriyega poyabzal do‘konini ochayotgan ekan, Santyago Nasarning bo‘zday oqarib ketganini ko‘rib, xavotirga tushgan va buning sababini so‘ragan.

– E, Soraginam, ko‘p narsaga aqling yetavermaydi-da, – degan unga Santyago Nasar yo‘lida to‘xtamasdan. – Shuncha ichkilikdan keyin nafaqat odam, hatto tosh ham oqarib ketadi!

Seleste Dangond ko‘cha eshigi og‘zida uyda kiyadigan xalatiga burkanib, yepiskopni kutgani chiqqan nodonlarni mazax qilib kuzatib o‘tirarkan, Santyago Nasarga ko‘zi tushib, kel, men bilan qahva ich, deya taklif etgan. «Men atayin vaqt o‘tsin, falokat ro‘y bermasidan avval biror fikrga kelaylik, degan niyatda uni to‘xtatmoqchi edim», – dedi u menga. Santyago Nasar uyiga shoshayotganini, kiyimini almashtirishi lozimligini, singlim Margot uni biznikiga nonushtaga chaqirganini aytgan. «U shunchalik xotirjam, qilmoqchi bo‘lgan ishlari shunchalik tayin ediki, men sarosimada qoldim, – deya izoh berdi yana Seleste Dangond. – Nazarimda, sallohlar uni o‘ldirolmaydiganday tuyildi». Ana shu olatasir-u shovqin-suronlar ichra ikkilanmay, ko‘nglida neki tug‘ilgan bo‘lsa, hech shubhalanmay amalga oshirgan inson Jamil Shayyum edi. Uzunquloq gaplar daragini eshitgan zahoti u o‘zining gazmol do‘koni eshigiga chiqib, suiqasddan ogohlantirish maqsadida Santyago Nasarni kuta boshlagan. U

bu makonga Ibrohim Nasar bilan birga kelgan va eidilikda uch-to‘rttagina qolgan arablardan biri edi; u Ibrohim Nasarning qimordagi doimiy sherigi, u o‘lgach, yetimchalarining madadkori, maslahatgo‘yi bo‘lib qolgan edi. Santyago Nasar bag‘oyat izzat qiladigan va nasihatiga quloq tutadigan hurmatli odam ham shu Jamil Shayyum edi. Biroq shu inson ham ayni kerakli paytda taraddudlanib, mabodo eshitganlarim yolg‘on chiqsa, Santyago Nasarni behudaga tashvishga qo‘yaman, yaxshisi, Kristo Bedoyyadan so‘rayin, balki u anig‘ini bilar, degan andishaga borgan. Ikkovlon o‘tib ketishayotganda, u Kristo Bedoyyani yoniga chorlagan. U Santyago Nasarning yelkasiga do‘stona qoqib, bu paytda ular burchakka yetib borishgandi – keyin Jamil Shayyum tomonga yo‘nalgan.

– Shanbada ko‘risharmiz, – deya u xayrlashgan.

Santyago Nasar unga javob bermagan. Jamil Shayyumga qarata arabchalab nimadir degan, gazmolfurush kulgidan ichagi uzilib, unga ham arabchalab bir nimalar deb qichqirgan. Jamil Shayyum buni izohlab: «Ikkovimizning o‘rtamizda shunaqa payrov bo‘lib turardi, bir qiziq gap bor edi – faqat ikkovimiz tushunardik», – dedi menga. Santyago Nasar xayrlashganday ularga qo‘l silkiganda, maydon muyilishidan burilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan. Ikkovi uni oxirgi marta ana shu holatda ko‘rishgan.

Kristo Bedoyya Jamil Shayyumning so‘zlarini eshitiboq, Santyago Nasarni quvib yetish niyatida peshtaxtadan sakrab, eshikka otilgan. U do‘stining muyilishdan shundoqqina burilayotganini ko‘rgandi, ammo maydonga yoyilib borayot-

gan kishilar ichidan uni topolmagan. Bir necha odamdan Santyago Nasarni so‘raganda, ular:

– Hozirgina sen bilan birga ko‘rgandik, – deya bir xil javob qaytarishgan.

Kristo Bedoyyaga bu qisqa muddatda Santyago Nasar uyiga yetib kelishi mumkin emasday tuyildi, biroq, shunga qaramay, u uyga kirib, uni surishtirmoqqa qaror qildi; ko‘cha eshik u o‘ylaganday qulf emas, balki qiya ochilib turar edi. Tong qorong‘isida u ostonada yotgan xatni ilg‘amadi, bemahalligi uchun oyoq uchida yurib, mehmonxonadan o‘tdi; uy ichkarisidan itlarning bezovtalanib g‘ingshigani eshitildi, so‘ng maxluqlar unga sari chopib kelishdi. U xuddi uy egasiday kalitlarni shiqirlatdi-da, itlarni tinchitdi, keyin galani ergashtirib oshxonaga yo‘naldi. Yo‘lakda mehmonxona polini yuvgani paqir, latta ko‘tarib kelayotgan Divina Florga urilib ketayozdi. U Santyago Nasar qaytmaganini aytdi. Kristo Bedoyya oshxonaga kirganida Viktoriya Gusman quyon go‘shtini qozonga solib, tagiga o‘t yoqqan edi. U yigitning ko‘zlaridan ahvol nihoyatda qaltisligini anglagan. «Yuragi hapriqib, og‘ziga kelib qolayozgandi», – dedi u menga. Kristo Bedoyya undan, Santyago Nasar uydami, deb so‘raganida, yolg‘ondakam takalluf bilan, u hali uxlagani qaytmadi, deya javob bergan.

– Hazilning vaqti emas, – degan unga Kristo Bedoyya. – Uni o‘ldiramiz, deb qidirib yurishibdi.

– U badbaxt bolalar hech kimni o‘ldirolmaydi, – degan u.

– Axir, shanbadan beri uchib, tishlarini qayrab, payt poylab yotishibdi-ku, – degan darg‘azab bo‘lgan Kristo Bedoyya.

– Baribir bunga qo‘li bormaydi, – degan u, – ularning hushi joyida, hanuzgacha birorta mastning o‘z najasini o‘zi yeganini eshitmaganman.

Kristo Bedoyya mehmonxonaga o‘tganida Divina Flor endigina derazalarni ochib, uyni shamollatayotgan edi. «O‘sha kuni yomg‘ir yog‘magandi, – dedi menga Kristo Bedoyya. – Aniq esimda. Vaqt yettiga yaqinlashib qolgan, deraza ko‘zida quyosh nurlari jilvalanardi». U Divina Flordan, Santyago Nasarning mehmonxonadan yotoqxonasiga o‘tib ketmaganiga imoning komilmi, deb yana so‘ragan. Bu gal qiz tayinli bir gap aytolmay, dovdirab qolgan. So‘ng yigit undan Plasida Lineroni so‘ragan, qiz bir daqiqa avval uning xonasiga qahva olib kirganini, ammo uni uyg‘otgani botinolmaganini aytgan. Odatda Plasida Linero rosa yettida o‘rnidan turar, xonasida qahva ichgach, pastga tushib, tushlikka qanday ovqat pishirish lozimligi xususida buyruq berar edi. Kristo Bedoyya soatiga qarasa, olti-yu ellik olti ekan. Shunda u Santyago Nasarning uyga qaytmaganiga yana bir bor ishonch hosil qilmoq niyatida ikkinchi qavatga ko‘tarilgan.

Yotoqxona eshigi ichidan berk edi, chunki Santyago Nasar tashqariga onasining xobxonasi orqali o‘tib ketgandi. Kristo Bedoyya bu xonadonning eng yaqin kishilaridan bo‘lib, uni o‘z uyiday yaxshi bilardi. U do‘stining xonasiga Plasida Lineroning yotog‘i orqali o‘tish niyatida eshikni ohista itardi. Derazaning tepa ko‘zidan tongotar oftobining o‘tkir, qiyrixon yog‘dulari xonaga bir zaylda yog‘ilar, to‘r belanchakda xuddi kelinchakday yuzini yostiq qilingan qo‘llariga bosgancha bir ayol shiringina uxlab yotar edi – bu manzara

yigitga ro‘yodek tuyildi. O‘sha holatni eslarkan, Kristo Bedoyya menga: «Tushdagiday edi», – dedi. U bir daqiqacha ayolga mahliyo termilib qolgan, so‘ng sekingina yurib, xonadan chiqqan, g‘uslxonadan o‘tib, Santyago Nasarning yotog‘iga kirgan. Karavotdagi o‘ringa hech kim teginmagandi, oromkursi suyanchig‘iga dazmollangan suvoriy qora kostyum osig‘liq edi, teparoqda suvoriy qalpoq ilingandi, yerda bir juft uzun etik, yonida otning uzangisi turardi. Santyago Nasarning javondagi soati olti-yu ellik olti raqamini ko‘rsatardi. «Men birdan, u uyga kelib, qurolini olib chiqib ketsa, yaxshi bo‘lardi, deya o‘yladim», – dedi menga Kristo Bedoyya. Javonning tortmasini ochib, u to‘pponchasini ko‘rgan. «Hech qachon to‘pponcha otmagandim, – dedi menga Kristo Bedoyya. Santyago Nasarga eltib beraman, degan fikrda qurolni oldim». U to‘pponchani ko‘ylagi ostidan beliga qistirib qo‘ygan, shu bo‘yicha tegmagan, jinoyat sodir etilgach, birdan to‘pponchani eslagan, uni qo‘liga olib, o‘qlanmaganini bilib qolgan. O‘shanda javon tortmasini yopayotganda, eshikdan qo‘lida qahva tutgan Plasida Linero kirib kelgan.

– Voy tavba, deya u xitob etgan. – Senmiding, o‘takamni yorib yubordingg-a!

Kristo Bedoyya ham cho‘chib tushgan. U qarshisida sochlari yoyiq, to‘rg‘aygulli zarxalat kiygan ayolni ko‘rib, yorqin tong yog‘dusidan ko‘zlari qamashib, hafsalasi pir bo‘lgan. Yigit sarosimalanib, bu yerga Santyago Nasarni izlab kirganini aytgan.

– U yepiskopni kutgani ketgandi, – degan Plasida Linero.

– Yepiskop bizning bandargohda to‘xtamadi, – degan yigit.

– Shunday bo‘lishini bilardim, – degan u. – Otasining tayini yo‘q odamda subut nima qilsin!

Ayol birdan so‘zini to‘xtatib, Kristo Bedoyyaning o‘zini qo‘yarga joy topolmay, alang-jalang bo‘layotganini sezib qolgan. «Ishqilib, o‘zi kechirsin meni, – dedi ayol menga, – bola bechora shunday dovdirardiki, o‘shanda miyamdan, bu o‘g‘rilikka kiribdi-yov, degan fikr o‘tgandi». U Kristo Bedoyyadan, ha, tinchlikmi, deya so‘ragan. Yigit o‘zining qay ahvolda ekanini anglagan-u, ammo gap nimadaligini ochiq aytishga jur’at etmagan.

– Bir daqiqayam ko‘z yummadim, uyqusizlik-da, garangsib qolibman, – degan u.

Kristo Bedoyya boshqa hech narsa demay chiqib ketgan. «Bu xotinning nazarida har doim o‘g‘rilar uning uyini tunashayotganday tuyilaverardi», – dedi menga Kristo Bedoyya. Yigit maydonda yepiskopsiz ibodat o‘tkazolmasdan rohiblarni ergashtirib qaytayotgan padar Amadorni uchratgan, unga bir nima deyishga taraddudlangan-u, ammo indamagan: kashishning qo‘lidan duo qilishdan o‘zga ish kelmaydi, deb o‘ylagan. U yana bandargoh sari oshiqqan va birdan orqadan, Klotilde Armentaning do‘konidan o‘zini chaqirishayotganini eshitgan. Devor yonida yuzlari oqargan, yoqavayron yenglari shimarilgan qo‘llarida arradan yasalgan qo‘pol dudama pichoq tutgan Pedro Vikario turardi. U o‘zicha qattiq xezlanib, niyatini oshkor etishga, xunrezlikka tayyorlanayotganini hammaga bildirishga intilardi; albatta, buni u atayin qilar biror insof egasi kelib, uni yomoi yo‘ldan qaytarishiga umid bog‘lar edi.

– Kristobal! – deya qichqirgan yaltoqi ovozda Pedro Vikario. – Santyago Nasarga aytib qo‘y, biz uni o‘ldirish uchun poylab turibmiz.

Kristo Bedoyya ularga yo‘liga bo‘lsayam xalaqit berganidami, ikkovlon uning bu yaxshiligini bir umr eslab yurishardi. «To‘pponchani otishni bilganimdaydi, Santyago Nasar ham behudaga o‘lib ketmasdi», – deya o‘kindi u menga. U to‘pponcha o‘qining afsonaviy qudrati xususidagi gaplarni eshitgandayoq badanida titroq turgan.

– Bilib qo‘y, uning «magnum»i bor, o‘qi avtomobilniyam ilma-teshik qilib yuboradi, – deya qichqirgan Pedro Vikarioga qarab.

Pedro Vikario uning aldayotganini sezgan. «Agarda u ot minib chiqmasa, qurolini olib yurmasdi», – dedi menga Pedro Vikario. Shunga qaramay, singlisining sha’nini oqlamoqqa va qon to‘kmoqqa qat’iy ahd etgach, u mabodo Santyago Nasarning qo‘lida qurol bo‘lsa ne chora ko‘rmoqni ham oldindan o‘ylab qo‘ygan.

– Jonsiz jasad to‘pponcha otolmaydi, – deya javoban baqirdi u.

Shu payt eshik yonida Pablo Vikario ko‘ringan. U ham ukasiga o‘xshab rang-quti o‘chgan, egnida to‘yda kiygan qora movut kostyumi, qo‘lida ro‘znomaga o‘rog‘liq pichoq bor edi. «Agarda shu voqeaning shohidi bo‘lmaganimda, o‘lsamam ularning qay biri kimligini ajratolmay, dunyodan o‘tib ketardim», – dedi menga Kristo Bedoyya. Pablo Vikarioning orqasidan Klotilda Armenta chiqib kelgan va Kristo Bedoyyaga, tezroq borib do‘stingni falokatdan qutqar, xotinchalishlarga to‘la bu shahar o‘lgurda fojianing oldini olishga qodir birdan bir erkak kishi o‘zingsan, deya chinqirgan.

Keyin nimayiki ro‘y bergan bo‘lsa, hammasini shahar ahli o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgan. Bandargohdan qaytayotgan odamlar bir-biriga baqirib-chaqirishib, bo‘lajak tomoshani – xunrezlikni ko‘rish uchun maydondan joy tanlab, o‘rnashib olish taraddudiga tushgan. Kristo Bedoyya qaysiki tanishi uchramasin, undan Santyago Nasarni so‘ragan, barcha birday, ko‘rmadik, degan. U Kiborlar uyi eshigi oldida polkovnik Lasaro Apontega duch kelgan. Unga Klotilde Armentaning do‘koni ro‘parasida bo‘lib o‘tgan gap-so‘zlarni aytgan.

– Behudaga vahima qilma, – degan unga polkovnik Aponte, – hozirgina ikkoviniyam, jo‘na endi, uyingga borib uxlagin, deb haydavorgandim-ku!

– Yo‘q, ular ketishmabdi, qo‘llarida mol bo‘g‘izlaydigan pichoqlariyam bor, – deya e’tiroz bildirgan unga Kristo Bedoyya.

– Dovdirab qolipsan-ku, a, bola, axir men ularning pichog‘ini uyiga ketishidan avval olib qo‘ygandim, – deya shahar hokimi so‘zida qat’iy turgan. – Balki ikkovini sen mendan oldin ko‘rgandirsan?

Ularni bundan rosa ikki daqiqa burun uchratdim, har birida bittadan pichoq bor edi, – javob bergan Kristo Bedoyya.

– Obbo, nahs bosganlar-ey! – xitob etdi polkovnik. – Demak, u nomardlar boshqatdan pichoq olib kelishibdi-da!

U bu ish bilan darhol shug‘ullanajagini ta’kidlab, kechqurun domino o‘ynamoqchiligini aytib qo‘ygani Kiborlar uyiga kirib ketgan, qaytib chiqqanida esa, xunrezlar yigitni so‘yib bo‘lish-

gan edi. Kristo Bedoyya birgina, ammo juda katta xatoga yo‘l qo‘ygandi: u o‘sha so‘nggi daqiqalarda Santyago Nasar kiyimini almashtirib, biznikiga nonushtaga kirib ketgan, deb o‘ylagan. U daryo chetidagi yo‘ldan shitob bilan odimlab borarkan, har bir yo‘liqqan kimsadan, Santyago Nasarni ko‘rmadingmi, deya so‘roqlagan, biroq o‘tkinchilardan birorta ma’nili javob eshitmagan. Baribir u bundan unchalik hadiksiramagan, binobarin, biznikiga boriladigan bir necha yo‘l bor edi. Xuddi shu payt unga Prospero Arango degan gadoy duch kelib, yepiskopning oniy duolariga qaramasdan, otasining tobora o‘lim changaliga tushib borayotganini aytib, madad istab yolvorgan. «O‘sha yerdan o‘tayotib cholni ko‘ruvdim, – dedi menga singlim Margot, – yuzida jon asorati yo‘q edi». Kristo Bedoyya Prospero Arango bilan cholni karavotga olib borib yotqizguncha to‘rt daqiqa o‘tib ketgan. U ko‘chaga chiqib, uzoqdan odamlarning shovqinini eshitgan, nazarida maydon tarafda mushaklar otilganday tuyilgan. U yugurmoqchi bo‘lgan, ammo beliga notavonlarcha qistirilgan to‘pponcha botib, chopishga xalaqit bergan. Muyulishdan burilgach, kichik ukamni qo‘lidan ushlab, dikonglatib shoshib borayotgan onamga orqadan ko‘zi tushgan.

– Luisa Santyago! – deya qichqirgan u onamga. – Qarindoshingni ko‘rmadingmi?

Onam to‘xtab, ko‘z yosh yuvgan yuzini unga o‘girib:

– Voy, bolam! – degan. – Uni o‘ldirishganmish.

Darhaqiqat shunday edi. Kristo Bedoyya uni axtarib yurganda, Santyago Nasar qaylig‘i Flora Migelning muyilishdagi uyiga kirib ketayot-

ganini oxirgi marta ko‘rgandi. «O‘sha yerdaligi xayolimgayam kelmagandi, – dedi menga Kristo Bedoyya. – Axir, u uydagilar choshgohgacha ko‘pchib uxlab yotishadi-da». Shahardagilarning aytishicha, arablar jamoasining fozili Noir Migelning buyrug‘iga binoan, bu oilaning barcha a’zolari ham kunduzi soat o‘n ikkigacha uxlashardi. «Ana shuning uchun Flora Migel gulday yashab, semirib, yaltillab ketgandi», – dedi menga Mersedes. Aslida esa aksincha edi. Bu go‘shadagilar ham barcha arab qavmiga mansub kishilar kabi juda erta turar, mehnatkash insonlar edi, faqat choshgohgacha eshiklarini ochishmasdi. Flora Migel bilan Santyago Nasarning otalari ularning yoshligidayoq quda bo‘lishga ahd qilishgandi. Santyago Nasar bu ahd xususida o‘smirligidayoq eshitgandi, kattalar neniki lozim ko‘rsa, barchasini sidqidildan bajarardi, zotan, oila va nikoh borasida otasi manfaat nuqtayi nazaridan fikr yuritganidek, o‘g‘lining aqidasi ham aynan shunday edi. Flora Migel do‘mbillagan jonona bo‘lsa-da, fahm-farosatdan, nazokat-u latofatdan bebahra edi, shuning uchunmi, o‘z tengdoshlarining orasida, to‘ylarda, qizlarning onasi bo‘lib o‘tirardi, shu jihatdan olib qaraganda, uning Santyago Nasarga unashilgani osmondan yoqqan ehsonday bir gap edi. Bo‘lajak kelin-kuyovlar rasmiy bordi-keldilarsiz, xilvatda uchrashishlarning tashvish-u ozorisiz o‘zlaricha farog‘atda umr kechirishardi; to‘y oqshomi bir necha bor tayin etilib, buzilib, nihoyat, kelayotgan rojdestvo hayitida o‘tkazishga kelishilgan edi.

O‘sha dushanba Flora Migel yepiskop tushgan kema ilk bor ovoz bergandayoq o‘rnidan turgandi,

bir necha fursat o‘tib, aka-uka Vikariolar Santyago Nasarni o‘ldirish qasdida uni poylashayotganini eshitgan edi. Falokat ro‘y bergach, u bilan faqat mening rohiba singlim so‘zlashgan, Flora Migel unga shumxabarni aynan kimning og‘zidan eshitganini eslay olmayotganini aytgan. «Ertalabki soat oltigacha bu gapdan hamma xabardor bo‘lgandi, mana shunisi yodimda qolgan, xolos», – degan u rohiba singlimga. Santyago Nasarni o‘ldirishlarini bechora qiz hecham tasavvuriga sig‘dirolmagan, ustiga ustak, endi ular oila sha’niga tushgan dog‘dan forig‘ bo‘lish uchun yigitni majburan Anxela Vikarioga uylantirishadi, degan vahimali fikrdan miyasi g‘ovlab ketgan. Xo‘rligi kelib, ezilib, o‘zini yo‘qotib qo‘ygan. Yotoqxonaga kirib olib, nima qilarini bilmasdan, Santyago Nasar maktabda o‘qib yurgan chog‘larida unga yozgan xatlarini olib, boshqatdan taxlayotganida, shaharliklarning deyarli yarmisi yepiskopga peshvoz chiqib, bandargohga to‘plangan edi.

Santyago Nasar Flora Migelning eshigi yonidan o‘tarkan, har doim, hatto hech kim bo‘lmasayam, derazaning tunuka raxiga kalit bilan urib-urib tiqillatar edi. Do‘ndiqcha xuddi o‘sha kuniyam maktubli qutichani tizzasiga qo‘yib, qaylig‘ini intizor kutib o‘tirgan edi. Santyago Nasar ko‘cha tarafdan uni ko‘rolmasdi, ammo Flora Migelning uylari tomonga kelayotganini sim to‘r orqali ko‘rgan, derazaning tunuka raxiga kaliti bilan urib, ovoz chiqarganini ham eshitgan.

– Kiraver, – degan qiz unga.

Ertalabki soat olti-yu qirq beshda bu uyga hech kim, hatto davolovchi hakim ham qadam bosmagan edi. Santyago Nasar Jamil Shayyum-

ning do‘koni ro‘parasida Kristo Bedoyya bilan xayrlashgach, maydon to‘la olomon kutib-kuzatib turgan bir paytda, yigitning qaylig‘i uyiga kirib ketganini hech kimning ko‘rmay qolishi juda g‘alati, aql bovar etmas bir hol edi. Tergovchi uni o‘sha hovliga kirayotganini ko‘rgan shohidni o‘lib-tirilib izlagan, surishtirgan, biroq topolmagan, nechog‘lik urinmayin, menga ham o‘shanday odam bilan suhbatlashish nasib qilmadi. Tergov hujjatlarining 382-varag‘i hoshiyasiga u qizil rangli siyohda yana bir fozilona fikrni yozib qoldiribdi: «Taqdir bizni ko‘zga ko‘rinmas qilib qo‘ya oladi». Axir, Santyago Nasar hammaning ko‘z oldida eshikdan o‘sha uyga kirgan va o‘zini bilintirmaslik uchun hech bir harakat qilmagan bo‘lsa-yu, unga biror kishining nazari tushmaganini, umumning g‘aflatda qolganini ne so‘z bilan tasvir-u ne aql bilan tasavvur etasiz?! Flora Migel tantanali ayyomlarida kiyadigan guldor ko‘ylagini egniga ilib, alam-u fisqdan ko‘karib, pishillab, uni kutib mehmonxonada o‘tirgan edi, u kirgan zahoti zardasi qaynab, qutichani yigitga tutqazgan-da:

– Ol, matohningni! – degan. – Endi seni o‘ldirsalar ham parvoyimga kelmaydi!

Santyago Nasar dovdirab qolgan, azbaroyi garangsiganidan qo‘lidagi qutichani ham tushirib yuborgan, mehr-muhabbat-u e’tibordan xoli xatlar yerga sochilgan. Flora Migel yotog‘iga darg‘azab holda yo‘nalgan, yigit hay-haylab uning orqasidan chopgan, lekin pandavaqi qiz eshikni qarsillatib yopib, ilgagini solib, berkitib olgan. U bir necha marta eshikni taqillatgan, keyin qattiq ovozda qayta-qayta chaqirgan, shunda, qizimizni

bemahalda kim yo‘qlayapti, deya bezovtalanib, uydagilarning hammasi baravariga yugurib chiqishgan. Bu uyda turadigan yosh-u qari, qarindosh-u jigargo‘shalarning barchasi o‘n to‘rt kishi edi. Oxiri qizning otasi Noir Migel chiqqan, uning soqoli sarg‘ish, bo‘yalgan edi; egniga odatda doim uyda kiyadigan, olis yurtidan olib kelgan tabarruk g‘alabiyasi uni nihoyatda basavlat ko‘rsatar, o‘ziyam ulug‘sifat mo‘ysafid edi. Uni har ko‘rganimda, salobati bosib, o‘zimni yo‘qotib qo‘yardim.

– Flora! degan u o‘z ona tilida. – Och eshikni!

Chol qizining yoniga kirib ketgach, qolganlarning hammasi Santyago Nasarga baqrayishganicha, endi nima bo‘larkin, deya tashqarida kutib turishgan. Yigit yerga tizzalagancha shoshib-pishib xatlarni tergan, qutiga solgan. O‘shanda uni ko‘rgan kishilar: «Tavbasiga tayanganday bo‘lib ko‘rindi bizga», – deyishdi menga. Bir ozdan keyin Noir Migel qizining yonidan qaytib chiqqan va avlodlariga, bizni xoli qo‘ying, deganday ishora qilgan, hamma nari ketgan.

So‘ngra u Santyago Nasarga arabchalab nimalardir degan. «Avvalo u mening ayni paytda nima deyotganimni mutlaqo fahmlamayotganini angladim», – dedi Noir Migel. U yigitdan, birodar Vikariolar seni o‘ldiramiz, deb poylab yotishganmish, shundan xabaring bormi, deb so‘ragan. «U birdan oqarib ketdi, shunchalik sarosimalandiki, rang-ro‘yi va turishiga qarab o‘zini go‘llikka solyapti-yov, deb o‘ylash mumkin edi», – dedi menga yana Noir Migel. Mo‘ysafidning fikricha ham, Santyago Nasarning holatida qo‘rquvdan ko‘ra sarosima ustun bo‘lgan.

– Qassoblar haqmi-nohaqmi, buni o‘zing hammadan ko‘ra yaxshi bilasan, – degan chol yigit-

ga. – Endi sening oldingda ikki yo‘l qoldi, xolos, o‘g‘lim; mana shu xonadon sening ham uying, yo shu yerga yashirin, yo miltig‘imni olib, keyin ko‘chaga chiq.

– E, hech narsaga tushunmay qoldim o‘zi, – deya g‘udrangan Santyago Nasar.

Tili faqat shu gapgagina kelgan, buniyam ispanchalab aytgan. Noir Migel menga: «U boyaqish suvga tushgan jo‘jaday nochor edi», – dedi. Santyago Nasar qo‘lidagi qutichani qayerga qo‘yishini bilmay hayron turganda, chol qutini olgan, u esa eshikni ochgan.

– Bitta o‘ziga ikki kishi-ya, nomardlar! – degan Noir Migel.

Santyago Nasar tashqariga chiqqan. Xaloyiq xuddi namoyishga kelganday maydonni saf-saf bo‘lib egallagan edi. Santyago Nasarning chiqqanini hamma ko‘rgan, o‘zini ikki salloh chavaqlaymiz, deb poylayotganidan xabardorligini va shuning uchun rangida rang qolmay, o‘z uyigayam yo‘l tomolmayotganini ham xaloyiq tushungan. Aytishlaricha, kimdir peshayvondan turib: «Hey turk, u yoqqa borma, eski bandar tomondan yur!» – deb qichqirgan. U ovoz egasini axtarib alanglagan. Jamil Shayyum esa unga, do‘konimga berkinib tur, degan-u o‘zi ov miltig‘ini olib kelgani jo‘nagan, ammo o‘qni qayerga yashirganini eslay olmay, rosa qidirgan, orada vaqt o‘tib ketgan. Olomon chor tarafdan unga qarata qichqiravergan, yigit, ularning baqirig‘idan qulog‘i bitib, goh o‘ngga, goh chapga yurgan. Nihoyat, o‘z uyi tomonga yo‘nalgan, oshxona eshigi orqali kirarman, deb o‘ylab borayotib birdan ko‘cha eshikning ochiq turganiga ko‘zi tushgan.

– Ana, u kelyapti, – degan Pedro Vikario.

Ikkovlon Santyago Nasarni baravariga ko‘rishgan. Pablo Vikario kamzulini yechib, kursiga tashlagan-da, yatag‘ansifat pichog‘ini qo‘liga olgan. Birodarlar do‘kondan chiqishdan avval indamasdan cho‘qinib olishgan. Shunda Klotilde Armenta Pedro Vikarioning yoqasidan bo‘g‘ib ushlagan-da, Santyago Nasarga qarata, tezroq qochib qol, bo‘lmasa seni o‘ldirishadi manavilar, deya qichqirgan. Uning chinqirig‘i shunchalik purtahlika ediki, olomon birdan jimib, atrofga bir lahzagina sukunat cho‘kkan. «U avvaliga qo‘rqib ketdi, – dedi menga Klotilde Armenga. Chunki kim, qaysi joydan qichqirayotganini bilmagan edi». Santyago Nasar bir vaqtning o‘zida ayolni ham, uni bir turtib nariga uloqtirgan Pedro Vikarioni ham, uning akasini ham ko‘rgan. Yigit uyidan ellik qadam chamasi berida turardi. U shoshib, ko‘cha eshik tomon chopgan.

Shundan besh daqiqa avval Viktoriya Gusman oshxonaga kirgan Plasida Lineroga hammaga ma’lum shumxabarni yetkazgan. Plasida Linero bosiq, farosatli xotin edi, ko‘nglidagi g‘uluvni sezdirmagan. U Viktoriya Gusmandan bu gapni o‘g‘liga aytgan-aytmaganini so‘ragan, oqsoch esa, o‘g‘ling qahva ichgani kirganida bundan bexabar edim, deya onani aldagan. Mehmonxonani supurib-sidirayotgan Divina Flor Santyago Nasarning maydon tarafdan qaytib kelganini, aylanma zinadan yurib, yotog‘iga chiqib ketganini aytgan. «Tushdagiday ko‘z oldimdan bir lahzada o‘tdi-yu ketdi, – dedi menga Divina Flor. U oppoq kiyimda edi, qo‘lida bir narsa bor edi, nimaligini ko‘rolmagandim, menimcha, bir dasta atirgul edi». Shu

boisdanmi, bilmadim, Plasida Linero Divina Flordan o‘g‘lini so‘raganida, qiz uni tinchlantirgan:

– Bir daqiqa oldin yotog‘iga chiqib ketgandi, – degan u.

Xuddi shu asnoda Plasida Linero yerda yotgan xatni ko‘rgan, lekin uni qo‘liga olib o‘qimagan, faqat keyinroq, umumiy olag‘ovurda kimdir unga qog‘ozni ochib ko‘rsatganida, unda nimalar yozilganidan xabar topgan. U ochiq eshikdan tashqariga boqib, o‘z hovlisi tomon pichoqlarini yaltillatib chopib kelayotgan aka-uka Vikariolarga ko‘zi tushgan. U turgan joydan faqat qasoskorlar ko‘ringan xolos, mushtipar ona maydonning narigi yog‘idan ochiq eshik sari jon talvasasida ingrayotgan o‘g‘lini ko‘rolmagan. «Men bu rasvolar uyimizga bostirib kirib, uni shu yerda o‘ldirishmoqchi, deb o‘ylapman», – dedi u menga. Shundan so‘ng Plasido Linero chopib, eshik yoniga borgan-da, bir zarb bilan uni qarsillatib yopgan. Tambani qo‘yarkan, avvalo Santyago Nasarning faryodli ovozini, keyin eshikni kimdir jon talvasasida ketma-ket qoqqanini eshitgan, biroq u o‘g‘lining tepada – yotog‘ida ekaniga, uning o‘sha joydan turib sallohlarni so‘kayotganiga ishongan. O‘ziyam qassoblarning adabini bermoq niyatida o‘g‘lining yotog‘iga yo‘nalgan.

Uyiga qochib kirib, qazodan qutulmoq uchun Santyago Nasarga atigi ikki soniyagina kerak edi, xuddi shu fursatda eshik yopib qo‘yilgandi. U bir necha bor eshikni mushtlab, itarib ko‘rdi, najot yo‘qligini anglab, dushmanlarni yuzma-yuz qarshilash maqsadida darhol orqasiga o‘girildi. «Uning ro‘paramda turganiga ko‘zim tushgan zahoti qo‘rqib ketdim, – dedi menga Pablo Vikario.

– U nazarimda asliga nisbatan ikki baravar kattarib ketganday tuyildi». Pedro Vikario birinchi bo‘lib uning o‘ng tarafidan tikkasiga pichoq solgan, u zarbani qaytarmoqqa taraddudlanib, qo‘li bilan himoyalanmoqqa intilgan.

– Ko‘ppaklar! – deya qichqirgan so‘ng Santyago Nasar.

Pichoq o‘ng qo‘lining kaftini tilib, biqiniga bor bo‘yi sanchilgan. Hamma uning:

– Vo-oy, onajo-o-o-on! – degan faryodini eshitgan.

Pedro Vikario, berahm salloh, pichog‘ini sug‘urib olib, yana o‘sha joyga qaytadan tiqqan. «Ikkinchi bor tig‘ urgach ham pichoqning top-tozaligicha qaytib chiqqanini ko‘rib, hayron qoldim, – degan tergovchiga. – Men unga yana uch marga tig‘ urdim, pichoqqa bir tomchiyam qop yuqmadi». Ikkinchi zarbadan so‘ng Santyago Nasar qornini ushlab, yarador buzoqday bo‘kirib, ingranib egilgan-da, sallohlarga orqasini o‘girib, o‘zini olib qochmoqchi bo‘lgan. Yatag‘an pichoq tutgan Pablo Vikario uning chap yonida turgandi, shu damda u yigitning qoq beliga pichoq sanchdi, uning badanidan otilib, toshib oqqan qon oppoq qo‘ylagini qizilga bo‘yadi. «Ko‘ylagidan ham, qonidan ham uning hidi kelardi», – dedi menga Pablo Vikario. Uch bor qattiq tig‘ yeb, fano ostonasiga borib qolgan Santyago Nasar tag‘in xunrezlar sari yuz burdi-da, onajonisi bilmasdan beixtiyor yopib qo‘ygan eshikka tislanib borib, go‘yo qassoblar uni so‘yib-so‘yib, osonlikcha jonini olib qo‘ya qolishlarini istaganday majolsiz turib qoldi. «So‘ng u ortiqcha o‘kirmay qo‘ydi, – degan Pedro Vikario tergovchiga. – Aksincha, nazdimda u endi kulayot-

ganga o‘xshardi». Odamkushlar Santyago Nasarni eshikka qisib olib, ikki tomonidan basma-basiga pichoq uraverishgan, dahshat-u vahshiyat ichra nestlanib, ne qilayotganlarini-da unutishgan, bu qattollikdan qattiq ta’sirlangan olomonning vahimali nidosini ham eshitishmagan. «Men o‘shanda o‘zimni xuddi otda uchib borayotganday his etdim», – dedi Pablo Vikario. Nihoyat, ular toliqishib, birdan hushyor tortishgan, ikkovigayam Santyago Nasar hech qachon o‘lmaydiganday, yiqilmasdan shunday turaveradiganday tuyilgan. «E, har kimniyam shunaqa rasvo ishdan asrasin, og‘ayni, – dedi menga Pablo Vikario. – Odam o‘ldirish – eng og‘ir ish ekanini tasavvur qilolsayding?!» Oxiri Pedro Vikario Santyago Nasarning yuragiga pichoq urib yiqitib, kulib qo‘ya qolay, degan o‘yda, qo‘y so‘yayotganida hayvonning qo‘ltig‘i ostidagi yuragiga tig‘ sanchib o‘rganganidanmi, yigitning qo‘ltig‘iga pichoq solgan. Birodarlar biri qo‘yib, biri urib eshikka suyab turishgani uchun Santyago Nasar yiqilmagan. Toqati toq bo‘lgan Pablo Vikario boyaqishning qorniga pichog‘ini suqib, burab-burab yuborgan, shunda uning yorilgan qornidan ichak-chavog‘i tashqariga otilib chiqqan. Pedro Vikario ham akasiga taqlid qilib, qurbonning qornini mo‘ljallab zarb bergan, ammo qo‘llari qo‘rquvdan titrab, o‘ziga bo‘ysunmay qo‘ygani uchunmi, pichoq yigitning sonini tilib o‘tgan. Santyago Nasar yana bir muddat eshikka osilganicha tek turgan, so‘ngra, quyosh shu’lalari tushayotgan, yorilgan qornidan ajralib chiqqan ko‘kimtir, top-toza ichak-chavog‘ini ko‘rib, tizzalab yiqilgan.

Plasida Linero jigargo‘shasini chaqirganicha yotoqda aylanib yurib, kimningdir – o‘g‘lining

emas – qichqirganini eshitgan-u, derazadan maydonga qaragan: cherkov tomonga qochib ketayotgan aka-uka Vikariolarni, ularni quvib borayotgan miltiqli Jamil Shayyum hamda bir guruh qurolsiz arablarga ko‘zi tushgan. U xavf-xatardan qutulibmiz, deya o‘ylagan, keyin yotoqxonaning peshayvoniga o‘tgan-u, uyga kiraverishda yuztuban yotgan o‘g‘lini ko‘rgan. Santyago Nasar chang-to‘zonga, qora qoniga belangan yuzini yerdan uzib, zo‘rg‘a o‘rnidan turishga urinar edi. Nihoyat, u o‘rnidan turib, qaddini rostlab, osilib qolgan ichak-chovog‘ini hovuchlaganicha yura boshlagan. Hovlini aylanib o‘tib, oshxona eshigidan uyga kirish uchun rosa yuz qadamcha yo‘l bosgan. O‘sha holatdayam fikri ravshan bo‘lgan, ko‘chadagi yo‘l uzoqligiga, qo‘shninikidan aylanib o‘tish qulayroq ekaniga aqli yetgan. Ularning hamsoyasi Poncho Lanaoning ta’kidlashicha, xotini, besh bolasi uylaridan yigirma odim narida bo‘layotgan ishlarni bilishmagan. «Biz g‘ala-g‘ovurni eshitdik, – dedi xotin menga, – ammo odamlar yepiskopni kutib olishyapti shekilli, deb o‘yladik». Qonga bo‘yalgan Santyago Nasar ularnikiga kirib borganida endigina nonushtaga o‘tirishgan ekan. «Men o‘shanda dimog‘imga urilgan badbo‘yni hecham unutolmayman», – dedi menga Poncho Lanao. Uning to‘ng‘ich qizi Arxenida Lanaoning ta’kidlashicha, Santyago Nasar odatdagiday tekis, zalvarli odim tashlab kirib borgan, uning qadimiy saratsin qavmiga xos yuzi, jingalak sochlari bag‘oyat xushro‘y bo‘lgan. Yigit ular o‘tirishgan stol yonidan o‘tayotib, jilmayib qo‘ygan, so‘ng orqa eshikdan chiqib ketgan. «Qo‘rqqanimizdan toshday qotib qoldik», – dedi

menga Arxenida Lanao. Xolam Venefrida Markes o‘shanda o‘zining daryo bo‘yidagi hovlisining yalangida baliq tozalayotgan ekan. U Santyago Nasarning langargohdagi zinalardan pastga tushayotganini, uyi tomonga yo‘l olganini ko‘rgan.

– Santyago, bolajonim! – deya qichqirgan u. – Senga nima qildi-a?

Santyago Nasar uni tanigan.

– Meni so‘yishdi, o‘ldirishdi, Vene xola, – deya javob bergan u.

U eng so‘nggi zinaga qoqilib ketgan, biroq darhol o‘zini o‘nglab olgan. «Hatto ichagiga yopishgan tuproqni erinmay artib tashladi», – dedi menga Vene xola. Keyin u ertalabki soat oltidan beri ochiq turgan orqa eshikdan uyiga ostona hatlab o‘tgan-u, jonsiz holda yuztuban yiqilgan.

MUNDARIJA

Yolg‘izlikning yuz yili..... 3
Oshkora qotillik qissasi..... 512